

O'TKIR HOSHIMOV

# «AJDAR»NING TAVBASI



O'TKIR HOSHIMOV

# «AJDAR»NING TAVBASI



*Hajriy qissa va hikoyalar*

TOSHKENT  
«O'ZBEKISTON»  
2016

UO'K:821.512.133-3

KBK 84(50)6

H 71

**Hoshimov, O'tkir.**

H 71 «Ajdar»ning tavbasi: hajviy qissa va hikoyalar /  
O'. Hoshimov. – Toshkent: «O'zbekiston», 2016 –  
424 b.

ISBN 978-9943-01-793-1

Elimizning atoqli adibi, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning «Bahor qaytmaydi», «Dunyoning ishlari», «Ikki eshik orasi», «Tushda kechgan umrlar» kabi qissa va romanlari, ko'plab hikoya va badiialarini mutolaa qilgan kitobxonning hayrati oshadi, ba'zi sahifalarini o'qiganida ko'ziga yosh keladi.

O'tkir Hoshimov serqirra adib. Uning o'nlab hajviy hikoyalari, kome-diyalari, ichakuzdi hangomalarini o'qiganda, dilingiz ravshan tortadi, beixtiyor qah-qah urib kulasiz. Mazkur to'plamga yozuvchining eng sara hajviy asarlari jamlangan.

UO'K: 821.512.133-3

KBK 84(50)6

ISBN 978-9943-01-793-1

© O'. Hoshimov, 2016

© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2016

# Ikki karra ikki - besh!

*Hajriy qissa*



---

## Birinchi bob

### KASALLIK TARIXI

– E, do‘xtirjon! Qiynab nima qilasiz, odamni! Aytyapman-ku, soppa-sog‘man! Rahmat, yaxshi davoladinglar. Esingizdami, bannisaga kelgan kunlarim, bir lunjim osilib yotuvdi. Og‘iz – yomg‘irda qolgan o‘choq! Qo‘lim bilan to‘g‘rilayman, deb harchand urinaman, qani joyiga kelsa, tag‘in qiyshayib qoladi, xumpar! Ko‘zning ham bittasi katta, bittasi kichkina edi! Mana, hammasi bip-binoyi! Endi, do‘xtirjon, bizga javob bersangiz... Nima? Yana so‘raysiz-a? Jinoyatchisan deb tergovchi so‘roq qilsa, jinnisan deb, do‘xtirlar so‘roq qilsa... Nima qilay, axir? Kimga aytay dodimni!

A? Hech qanaqa kasal bo‘lgan emasman! Bolaligimda ham, undan keyin ham... Angina-mangina, qizamiq-pizamiq – birontasi bizga yo‘lagan emas! U yog‘ini so‘rasangiz, besh yoshga to‘lgunimcha yalang‘och yurganman! Nima? Ha, qishdayam!

Bir kuni desangiz, qahraton qishda hovuzning muzini yorib, ichiga tushib olganman. Dadam velosiped olib beraman, deb va‘da qilmaguncha, hovuzdan chiqmaganman. O‘shanda onam «voy, endi nima qildim, bolajonim o‘lib qoladi» deb chirqillagani esimda... Baloyam urmadi... Qaytaga mazza qildim: yalang‘och odam erkin nafas oladi-da, to‘g‘rimi? Odamning hamma joyi nafas olishi kerakmi axir? To‘g‘rimi-yo‘qmi? Qolaversa, inson bolasi o‘zini o‘zi chiniqtirishi kerak. Ha, ana endi o‘zingizga keldingiz, do‘xtirjon! Rais buva ham doim shunaqa derdi. Aytgan gapini ma‘qullasam: «Ana endi o‘zingga kelding, Qo‘shovoy, aqling toshni yoradi», – derdi.

Obbo! Yana o'sha savolmi? Aytyapman-ku, umrim bino bo'lib gripp bo'lgan emasman, tomog'im og'rimagan, ichketar bo'lmaganman. Toshni yesam, qum qilib yuboraman!

A? Avariya qolgan emasman! Jo'ram Shodivoy bilan bir marta avariya qilishimizga sal qolgan-u, xudoning o'zi bir asragan.

Nima? Yiqilishga-yiqilganman! Yong'oqdan! Qir uchidan! O'ziyam yong'oqmisan-yong'oq edi-da! Yong'oq-ku, tomorqada edi. Ammo shunaqangi tarvaqaylab ketgandiki, tomorqadagi daraxtning soyasi kun tikkaga kelguncha hovlimizning yarmisini qoplab yotardi. Paxtaga dori sepadigan samolyot qishlog'imiz ustidan uchib qolsa, bizning hovlini teppasiga kelganida varillab, havolab ketardi. Bir safar pastroq uchgan ekan, bitta qanoti uzilib, yong'og'imizning shoxiga ilinib qolgan. O'n kungacha dakang varrakka o'xshab lapanglab turgan. Temir shapka kiygan odamlar osmon baravar narvon keltirib amallab tushirib olishgan. Men ana o'sha yong'oqning qir uchidan yiqilib tushganman. Nima? Necha yoshdaligimni qayoqdan bilay? Xullas, hali maktabga bormagan paytlarim edi-da!

G'ira-shira esimda. Tomsuvoq boshlangan kezlar edi. Tomsuvoqni bilasizmi? Ha, yashang! Tomorqadagi xuddi o'sha yong'oq tagidan loyxandaq qazib, somon bosishdi. Loyni somonga aralashtirib rosa qorishdi. Dadam shimining pochasini qayirib, loyxandaqqa kirdi. Hasharchilarning paqiriga paydar-pay loy solib turibdi. Hasharchilar zipillab tashib turibdi. E, do'xtirjon, siz bilmaysiz! Qishloq joyda hashar desa hamma yopirilib kelaveradi. «Qayoqqa, nimaga» deb surishtirib o'tirish – nomardlik bo'ladi. Xullas, hovlimizga tumonat odam to'plandi. Qarasam, bashang kiyinib olgan o'zim tengi bola yong'oqqa kesak otyapti. Shunaqangi do'mboq, shunaqangi dumaloq bolaki, xo'ppa semiz quyonga o'xshaydi. Otgan kesagi tom baravar ko'tarilsa, o'la qolay! «Hoy, kimsan?» desam, yig'lamsirab,

«yong‘o-oq» deydi. Chaqqonligimni bir ko‘rsatib qo‘ygim keldi. Kaftimga tuflab turib, yong‘oqqa tirmashganim esimda. Mehmon bolani yong‘oq bilan siylay qolay, deb maymundek tirmashib, daraxtning uchiga chiqqanim ham yodimda. Yong‘og‘imiz ham xo‘p meva solgan ekan o‘zi! Har bittasi olmadek keladi jonivor! Tag‘in g‘uj-g‘uj. Eng yuqoridagi shoxni siltaganimni bilaman, bir mahal qarasam... Televizorda ko‘rsatadigan suvga sho‘ng‘uvchilar bor-ku, o‘shanga o‘xshab loyxandaqqa kalla tashlab tushyapman. Oyoq-qo‘llarimni juftlab olganman, deng. Hali tushyapman, hali tushyapman, qani loyxandaqqa yetsam! Bir mahal «sho‘lq» etgan ovozni o‘zim ham eshitgandek bo‘ldim. U yog‘i esimda yo‘q. Keyin aytib berishdi. Loyxandaqning qoq o‘rtasiga boshim bilan sanchilib qolibman. Dadam ishga qiziqib ketib sezmabdiyam. Hatto bir-ikki marta ketmonning orqasini juftlashib turgan oyog‘imga qoqib, loyini tozalabdi. Qoziq deb o‘ylagan-da! Anchadan keyin charchab, «perekur» qipti. Nosqovog‘ini tovonimga urib-urib, tagidagi yopishib qolgan nosini ko‘chirmoqchi bo‘lgan ekan, qitig‘im kelib, oyog‘imni tipirlatib qolibman. Qitig‘im yomon-da! Otam turgan joyida taxta bo‘pqopti. Hammayoq qiy-chuv bo‘lib ketibdi. Ko‘plashib loyxandaqdan sug‘urib olishibdi. Yuvib-tarab, munday qarashsa, boshim tars yorilib ketganmish. Men bo‘lsam yig‘lash o‘rniga kuli-ib yotganmishman. To‘g‘risini aytaymi? O‘shandan beri hech yig‘lamaganman. Nuqul kulaman. O‘shandayam onam «voy, bolajonim, senga nima bo‘ldi» deb yig‘laganida kulib turaveribman. Sal-pal esimda bor, negadir o‘shanda onam ko‘zimga ikkita bo‘lib ko‘rindi. Ovozi bitta-yu, o‘zi ikkita.

– Tirikmisan, bolajonim! – dedi ovozi bitta, o‘zi ikkita onam.

– Tirikman, enalar! – dedim iljayib.

Keyin boshimga otam egildi.

– Nima bo‘ldi, Qo‘shovoy?

Negadir dadamning ko'zi to'rtta bo'lib ko'rindi.  
O'ng qo'limning to'rtta barmog'ini dikkaytirdim.

– Ko'zlaringizga qo'llarimni tiqib olaymi?

Dadam hurkib, o'zini orqaga tashladi.

Yo'q, uch kun ichida hech nima ko'rmagandek o'ynab ketdim. Dadam jo'ralariga maqtandi: «Bizning o'g'il malades! Tegirmonga tushsa butun chiqadi!»

Ha, aytmoqchi, o'sha kuni uyimizga mehmon keldi. Xuddi o'sha – «yong'oq» deb yig'lamsiragan do'mboq bola. Oti – Shodivoy ekan. Buni qarangi, Shodivoy otasini boshlab kepti. Rais buvaning o'g'li ekan. Rais buva qo'limga zarqog'ozli ishkallad berdi.

– Shodivoy bilan qiyomatli jo'ra bo'llaring! – dedi.

Mayli, Shodivoy bilan jo'ra bo'lsam, bo'larman-u, o'sha kundan boshlab g'alati odat chiqardim. Bir qarasangiz miyam, traktorchi qo'shnimiz Tursunboy akaning pat-patiga o'xshab, qarsillab ishlab ketadi, bir qarasangiz hech baloga aqlim yetmaydi. Ustiga-ustak tag'in bitta aybim bor: lof-qofi bilan gapirmasam, ko'nglim joyiga tushmaydi. O'zimdanda bir yosh kichkina Ju degan singlim bor. Oti mavjuda, men uni «Ju» deyman. Masalan, dadam singlimga do'ppi olib kelsa, ko'chaga chiqib, shovqin solaman.

– Dadam juga to'rtta do'ppi olib keldi!..

Sigirimiz tug'sa, yana ko'chaga yuguraman.

– Suyunchi beringlar! Sigirimiz uchta tug'di! – buyog'iniyam bir zumda to'qib tashlayman. – Ikkitasi urg'ochi, uchinchisiyam urg'ochi!

Birpasda onamning ro'moli sakkizta, dadamning etigi o'n to'rtta, o'zimning botinkam o'n oltita bo'ldi! (Koshki botinka kiysam!)

Tursunboy akaning mototsikli bittaligini bilaman. Ammo butun qishloqqa xabar tarqatib keldim: «Tursunboy akaning oltita pat-pati bor!»

Kechqurun Oysara yangam biznikiga chiqib, onamga hasrat qildi.



– Qo‘shovoy tushmagur hammayoqqa Tursunboy aka oltita pat-pat sotvoldi, deb gap tarqatibdi. Opajon, o‘zi yangi ro‘zg‘or bo‘lsak. Shu bitta pat-pat o‘lgurniyam rais buva olib berdi: kuyovingiz yaxshi ishlagani uchun. Bilmaganlar, bular bitib ketgan ekan, demaydimi?! Bolangizni tiyib qo‘ying, opajon!

Oysara yangamni yaxshi ko‘raman. Onamning aytishi-cha, qishlog‘imizdagi eng suluv juvon shu emish. Kolxoz kutubxonasida ishlarkan! Shunaqa-ku, yangamning gapi menga yoqmadi. Hozir kaltak yeyman, deb cho‘chib turgan edim, unday bo‘lmadi.

Onam beparvo qo‘l siltadi.

– Bola-da, o‘rgilay kelin, bola! Nima qipti, o‘g‘irlab obti demabdi-ku. Yaxshiligingizni oshirib, yomonligingizni yashirsa yomonmi!

Onamni shunaqangi yaxshi ko‘rib ketdimki, kechqurun dadam ishdan kelishi bilan maqtandim.

– Dada-chi, dada, enam bugun sizga uch qozon palov damlab qo‘ydilar!

Onam, xursand bo‘lish o‘rniga, dadamga hasrat qildi:

– Bu tentagingiz qachon odam bo‘ladi-a, nomusga o‘ldiryapti-ku! Bir hafta oldin sigirimiz uchta tug‘di, deb hammaga aytib chiqqan edi. Bugun Oysara kelin hasrat qilib chiqdi. Bechoralarning bitta pat-patini oltita deb gap tarqatibdi.

Qarab tursam, dadamning o‘ng lunji uchyapti. Koshki, odatini bilmasam! Lunji ucha boshladimi, jahli chiqqani shu!.. Aslida dadam menga ham, Jugayam biron marta qo‘l ko‘targan emas. Onamning aytishiga qaraganda, otam urush bitay-bitay deb turganida frontga ketgan ekan. O‘sha yoqdan shunaqa badjahl bo‘lib qaytgan emish. To‘ydan keyin mening bitta akam, yana bitta opam tug‘ilibdi-yu, akam chillasi chiqmay, opam yoshiga to‘lmay o‘libdi, bechora. Shuning uchun «Qo‘sha-qo‘sha farzand ko‘raylik» degan niyatda bizga Qo‘shoqvoy deb ot qo‘yishgan ekan. Bolani yaxshi ko‘rgani uchun dadam bizni urishmas ekan.

O'sha kuniyam dadam lunji uchib-uchib qo'ydi-yu, baribir koyimadi.

– O'g'lim, – dedi yelkamga qoqib. – Odam boshqa narsada adashsa mayli, lekin hisobda adashmasligi kerak. Men – bug'altirman-ku, bilaman. Mana, sendan kichkina singling maktabga qatnayapti. Erta-indin sen ham borasan. Qani, ayt-chi, yigirmani-yigirmaga qo'shsa, qancha bo'ladi?

– Ellik! – dedim o'ylab o'tirmay.

– Dard! – dadamning jahli chiqib ketdi. O'ng lunji paydar-pay ucha boshladi. – Misol uchun, senda ikkita yigirma tiyinlik bor. Xloppunkt yonida o'tiradigan Rahmon pistachidan semichka olmoqchisan. Bir istikon pistichka yigirma tiyin turadi. Ikki istikoni qancha bo'ladi?!

Rahmon pistachidan semichka olaverib pishib ketganman.

– Qirq tiyin! – dedim ishonch bilan.

– Bo'pti-da, ulim! – dadam quvonib ketdi. – Hisobda adashib bo'lmaydi. Adashsang, o'zingga jabr qilasan!

– Adashmasam-chi?

Qiziq, dadamning lunji tag'in uchdi.

– Undayam jabr bo'ladi, – dedi xo'rsinib. – Rais, hisobdan adashmaganim uchun yomon ko'ryapti-da, meni. Unga hisobni bilmaydigan hisobchi kerak.

Dadamning gapini uncha tushunmadim. Lekin maktabga borguncha hisobni binoyidek o'rganib oldim. Qo'shish, ko'paytirish... Ayniqsa, pul hisobini...

To'g'risini aytsam, o'shandayam lof-qofi bilan gapirish odatim qolmagan ekan. Maktabga borgan birinchi kunimoq shu dardim qo'zib qoldi.

### MAKTABGA KIRIB OLDIM

Maktabga onam qo‘limdan yetaklab olib bordi. Gulzor hovlining ikki tomonidagi qator-qator oppoq xonalardan biriga kirdik.

Chiroyli kiyingan, sochini silliq taragan bir qiz stol yonida o‘tirgan ekan. Lip etib, o‘rnidan turdi.

– Mana, Muhabbatxon, sizga yana bitta o‘quvchi olib keldim! – dedi onam iljayib.

O‘qituvchi opa boshimni siladi.

– Boy, qandoq yaxshi... Bu – Mavjudaning... – shunday dedi-yu, bir menga, bir onamga qarab, angrayib qoldi. Chamasi, toyloqdek bo‘yimni ko‘rib hayron bo‘ldi: men Juning ukasimanmi, akasimanmi?

– Akasi! – dedi onam tushuntirib. – Sal tobi yo‘qroq edi.

O‘qituvchi opa yana boshimni siladi. Faqat bu gal qoq ikki pallaga bo‘linganida tomorqadagi o‘qariqdek chuqur iz qolgan boshimga barmog‘ining uchini tekkizib qo‘ya qoldi.

– Ajab qipsiz! – dedi kulishga urinib, o‘zi kulyapti-yu, afti xuddi yig‘layotgan odamnikiga o‘xshaydi.

– Familiyang nima, bolakay? – dedi menga yuzlanib.

– Salimip! – dedim baqirib.

– Salimovmi? – u stoldagi kattakon daftarni ochib, tez-tez yozdi.

– Oting?

– Qo‘shovoy!

– Qo‘shoqvoy degin... Yaxshi. Yoshing nechada?

Xuddi shu payt eski dardim qo‘zg‘ab, lof-qor bilan aytish kasalim tutib qoldi.

– O‘n besh.

O‘qituvchi opa bir cho‘chib tushdi. Ko‘zimga xavotirlanib qarab qo‘ydi. Onam dumbamni shu qadar achitib chimchiladiki, iljayib qo‘ydim.

– Muhabbatxon! – dedi onam kulimsirab. – Qo‘shoqvoy hazillashdi, o‘zi shunaqa hazilkashroq bola. To‘qqiz yoshga to‘ldi.

O‘qituvchi opa yana yig‘lamoqdan beri bo‘lib kuldi.

– Shunaqa deng... Mayli. Mavjuda qizimiz pishiq, – dedi onamga. – A‘lo o‘qiyapti. – Keyin mendan so‘radi. – Boshqa singillaring ham bormi?

– Bor. O‘nta!

O‘qituvchi opaning pastki labi osilib ketdi. Og‘ir-og‘ir kiprik qoqib, onamga uzoq tikilib qoldi. Chamasi, to‘qqiz yilda o‘n ikkita bola tuqqan xotinni birinchi marta ko‘rib turgan bo‘lsa kerak.

Onam dumbamni chimchilashdan ish chiqmasligini payqadi shekilli, biqinimni o‘ymalab oldi. Qitig‘im kelganidan hiringlab kulib yubordim. O‘qituvchi opa goh onamga, goh menga qarab, qisqa-qisqa nafas ola boshladi. Qo‘lidan ruchkasi tushib ketdi.

– Qo‘shoqvoy, – dedi qo‘rqa-pisa. – Dadangiz?..

– Ikkita! – dedim shosha-pisha.

– Nima?

– Ikkita!

Shu gapni aytganimni bilaman, onam uch qadam orqaga tisarildi. Eskirgan chit ko‘ylagining o‘ng yengini shimardi-da, yuzimga chunonam tarsaki tortib yubordiki, xonadagi derazalar jaranglab ketdi.

Yuzim og‘riganidan emas, kulgim qistaganidan ko‘chaga otildim.

– To‘xta, yer yutkur! – onam ketimdan chopdi. – To‘xta, juvonmarg!

To‘xtab bo‘pman! Halloslab, dadamning oldiga chopdim. Bilaman, dadam kolxoz idorasida katalakdek xonada cho‘t qoqib o‘tiradi.

– Dada, – dedim iljayib. – Enam meni kelisop bilan urdi. O‘n marta urdi. Yuz marta urdi!

– Qo‘yavur, ulim, – dedi dadam meni yupatib. – Enang seni kelisop bilan urgan bo‘lsa, men ham uni uraman! Yomon uraman!

Ertalab dadam o‘z qo‘li bilan yetaklab maktabga olib bordi-yu, direktor bilan gaplashib, meni o‘qishga «joylab» qo‘ydi.

## **Uchinchi bob**

### **BIZNI SINFDA QOLDIRADIGANNING BOSHI O‘NTA!**

Buni qarangi, birinchi kundanoq Shodivoy bilan bitta partada o‘tirib qoldik. Hov o‘shanda, uyimizda tomsuvoq bo‘lgan kuni «yong‘oq» deb yig‘lamsiragan, rais buva «ikkovlaring qiyomatli jo‘ra bo‘llaring!» degan Shodivoy bilan. Quyondek yumshoqqina, do‘mboqqina Shodivoy bilan.

Ikkalamiz birinchi partada o‘tirgan edik, o‘qituvchi opamiz meni tanib qolgan ekanmi, familiyamni aytib, koyidi:

– Salimov! Orqa partaga o‘t! Bo‘yingni qara! Orqangda o‘tirganlar doskani ko‘rolmay qoladi-ku!

Bizga baribir! Orqaga o‘tsak-o‘taveramiz-da! Menga desa derazaga o‘tqazib qo‘ymaydimi!

Endi o‘rnimdan turayotgan edim, Shodivoy bilaginga osildi.

– Opa... – dedi yig‘lamsirab, – Qo‘shominam birga o‘tiraman!

– Sen kichkinasan-ku!

– Birga o‘tiraman... – Shodivoy yana yig‘lamsiradi.

O‘qituvchi opamiz ikkilanib qoldi. Men oldinda o‘tirsam, boshqalar doskani ko‘rmaydi, Shodivoy orqaga o‘tsa, u hech nimani ko‘rolmay qoladi.

– Bilganlaringni qil! – dedi opamiz zarda bilan. Keyin jurnalni ochib, yo‘qlama qila boshladi.

– Alimov! (Qarang Shodivoy jo‘ram bilan familiyamiz ham uyqash. Uniki – Alimov. Meniki – Salimov).

– Men! – Shodivoy burnini torta-torta o‘rnidan turdi.

– Baqoyev!

– Men!

– Vahobov?

– Men!

Bora-bora yo‘qlama «S» harfiga keldi.

– Samadov!

– Men!

– Salimov!

– Biz! – dedim o‘rnimdan sakrab turib.

O‘qituvchi opamizning qoshi chimirilib ketdi.

– «Biz» emas, «men» degin, Salimov! – dedi tushuntirib. – Sinfirmizda bitta Salimov bor. Uyam bo‘lsa sensan! Tushundingmi?

– Tushundim!

Opamiz qaytadan o‘qidi.

– Salimov!

– Biz!

– Voy, qanaqa bolasan o‘zi?! Sen bittasan! Salimov Qo‘shoqvoy! Nega «biz» deysan?

«Biz» deymanmi, «men» deymanmi, nima ishi bor! O‘qishni qoyil qilsam bo‘ldimi?

Rostini aytsam, o‘qishni bopladim! O‘zbek tili, tabiat – hammasini do‘ndiraman! Rasm chizishdan bir marta «besh» ham oldim. Faqat matematika masalasida o‘qituvchim bilan hech kelisholmaymiz!

Opamiz hamma qatori meniyam doskaga chaqiradi.

– Qani ayt-chi, Qo‘shoqvoy, ikkini ikkiga qo‘shsa qancha bo‘ladi!

– Besh! – deyman baqirib.

Sinfdagi bolalar hoholab kuladi. O‘qituvchi opa ikki chakkasini changallab joyiga o‘tirib qoladi.

– Qo‘shoqvoy! – deydi jig‘ibiyron bo‘lib. – Masalan, sening qo‘lingda to‘rtta olma bor...

– Yong‘oq! – deyman baqirib.

– Nima?

– Men olma yemayman. Yong‘oq yaxshi.

– Bo‘pti! – o‘qituvchi opamiz uf tortadi. – Senda to‘rtta yong‘oq bor. Ikkitasini menga berding...

– Yo‘q!

– Nima?

– Yong‘og‘im o‘zimga kerak. Sizga bermayman!

– Men misol uchun aytayapman, Salimov! Ayirishni misol qilyapman, tushundingmi?

– Ayirishni bilmayman! – deyman men ham zarda bilan. – Qo‘shishni yaxshi ko‘raman.

– Bo‘pti! Senda oltita yong‘oq bor edi. Men to‘rtta qo‘shdim. Hammasi qancha bo‘ladi?

– O‘n bitta!

– Qo‘shoqvoy! – o‘qituvchi opamiz qaytadan tushuntiradi. – Mana qarab tur...

U barmoqlarini bukib sanashga tushadi.

– Bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti... Yana to‘rttasini qo‘shamiz. Demak, yetti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n... Ko‘rdingmi? Hammasi qancha bo‘ldi? O‘ntami?

O‘nta bo‘lganini o‘zim ham bilaman. Lekin hech bo‘lmasa, bitta qo‘shib aytmasam, aqalli jindek lof qilmasam, bo‘lmaydi-da, nima qilay?!

– O‘n bitta!

Bolalar yana xoxolaydi. O‘qituvchi opamiz astoydil yalinadi:

– Jon, Qo‘shoqvoy! O‘nta deyqol.

– O‘n bir.

... Papkamni ko‘tarib uyga kirishim bilan onam so‘raydi:

– Necha baho olding?

– Olti! – deyman iljayib.

Singlim yomon-da:

– Qani, aka, kundaligingizni bir ko‘ray! – deb papkamni titkilaydi.

– Ena! Akam uchta «ikki» opti!

Onam shavla yuqli kapgirni boshimga o‘qталadi.

– Nima hunar ko‘rsatding yana, yaramas?

– Olti oldim!

... Onam ota-onalar majlisiga kulib ketadi-yu, qovoqtumshug‘i osilib qaytadi.

– Qachon odam bo‘lasan-a? – deydi zor qaqshab. – Hech bo‘lmasa, singlingdan uyalsang bo‘lmaydimi? Sendan bir sinf yuqorida o‘qiydi. Hamma bahosi – besh...

Dadam kelganida meni yomonlamaydi-yu, hasrat qiladi:

– Shu... O‘g‘lingizga hayronman-da, dadasi... Boshqa darslardan binoyidek o‘qirkan-ku, hisobni bilmasmish...

... Birinchi sinfni-ku amallab bitirib oldim. Ikkinchiga ko‘chganimda o‘qituvchi opamizning toqati toq bo‘ldi shekilli, darsdan keyin meni olib qolib tayinladi:

– Bugun kechqurun otangni olib kelmasang, maktabdan haydatib yuboraman.

Kechqurun ota-bola boshlashib, direktorning xonasiga kirdik. Maktabimizning direktori poxol shlyapa kiyib yuradigan qop-qora odam. Qorni juda g‘alati. Xuddi ketmaket bir emas, ikkita tarvuz yutganga o‘xshaydi. Qorning tepa qismida taxminan mening boshimdek, pastrog‘iga o‘rtacha qozondek tarvuz tiqilib qolgan...

Eshikdan kirib borsak, direktorimiz u yoqdan-bu yoqqa betoqat yurib turgan ekan. Ikki qadam tashlaydi-da, to‘xtab qoladi. Uch qadam yuradi-da, tag‘in dam oladi. Qornidagi tarvuzlar bir-biriga urilib, ichini og‘ritsa kerak-da.

Deraza oldida o‘qituvchi opamiz o‘tiribdi. Qovog‘i soliq. Kirib kelganimizda menga qaramadi ham. Dadamning hurmati uchun o‘rnidan turib, salom berdi. Ammo o‘sha zahoti yana qovog‘ini solib oldi.

Direktorimiz negadir yo‘talib qo‘ydi. Dadam bilan qo‘shqo‘llab ko‘rishdi-da, qornini siladi.



– Ha-a-a-y! – dedi cho‘zib. – Siz, Salimjon aka, hurmatli odamsiz. Biz sizni juda yaxshi ko‘ramiz, maktabimizga ko‘p yordam qilgansiz. Remont-pemont, shipir-mipir, o‘tin-ko‘mir degandek... Lekin... – u juda chuqur o‘ylanib qoldi shekilli, yana qornini siladi (chamasi aqli qornida, yo‘q, qorning o‘zida emas, ichidagi qo‘shaloq tarvuzlarda bo‘lsa kerak). – Bu Qo‘shoqvoyning o‘zlashtirishi chatoq-ku.

Shunaqa deyishga deb qo‘ydi-yu, yana paydar-pay qornini silay boshladi. Nazarimda, yuziyam yorishib ketgandek bo‘ldi.

– Yo‘q, Salimjon aka, biz Qo‘shoqvoyni yomon demaymiz, o‘zi zo‘r bola. Intizomi durust, zehni o‘tkir. Qaysi kuni xo‘rozning rasmini chizgan ekan. Ko‘rib havasim keldi. O‘ziniyam xuddi tirikka o‘xshatvoribdi, azamat! E, otangga rahmat, devordim!

Direktorimizning gapi ilikdek yoqib ketdi. Mazza qilib iljayayotgandim, o‘qituvchi opamiz dik etib o‘rnidan turdi.

– Kechirasiz-ku, – dedi negadir qizarib-bo‘zarib. – Salimov matematikadan – nol! Ikkinchi sinfga arang ko‘chirdik. Shu ketishi bo‘lsa...

– Endi, Muhabbatxon, sizam qizishmang-da, singlim, – direktor insofga chaqirgandek qisqagina yo‘talib qo‘ydi. – Bola – yosh. Vaqti-soati bilan o‘rganib oladi...

Voy-bo‘, o‘qituvchi opamning jahli shunaqa yomonligini bilmagan ekanman.

– O‘rganib oladi-i? – dedi ovozi ingichkalashib. Ikki yuzi shunaqangi qizarib ketdiki, birov bexosdan gugurt chaqib yuborsa, lov etib yonib ketgudek ahvolda edi. – Qachon o‘rganadi? Qachon? – u entikib qoldi. – Yaxshi, – dedi dadamga qarab. – Qo‘shoqvoyga bitta savol bersam maylimi? Bog‘cha bolasiyam biladigan savol...

Munday qaragam, dadam direktorga, direktor dadamga tikilib turibdi. Ikkalasidan ham sado chiqadigan emas.

– Mayli, – dedim otamning o‘rniga o‘zim javob berib. Aniq sezib turibmanki, hozir qo‘shib hisoblash kasalim

qo'zg'amayapti. Aqlim, Tursunboy akaning pat-patidek qarsillab ishlab turibdi.

– Marhamat! – o'qituvchi opam tantana bilan goh direktorga, goh dadamga, goh menga qarab oldi. – Ikki karra ikki qancha bo'ladi?

– To'rt.

Dadam bilan direktor yarq etib o'girilishdi. Yo'q, mengamas, o'qituvchi opaga. O'qituvchi opam, negadir ko'zimga uzoq tikilib qoldi. Bir-ikki yutunib qo'ydi.

– Besh karra besh? – dedi nafasi ichiga tushib.

– Yigirma besh!

– To'qqiz karra to'qqiz?

– Sakson bir!

– Sakkiz karra o'ttiz uch?

– Ikki yuz oltmish to'rt.

O'qituvchi opamning rangi quv o'chib ketdi. Direktorimizning ichidagi tarvuzlar bir-biriga paydar-pay urila boshladi, shekilli, qorni o'zidan-o'zi lapillab ketdi.

– Yetmish uchdan o'n sakkizni ayirsa-chi? – dedi o'qituvchi opam. Hayronman, bu safar ovozi shu qadar xorg'in, shu qadar yig'lamsirab chiqdiki, savolini zo'rg'a eshitdim.

Aytyapman-ku, men ayirishni bilmayman. Faqat ko'paytirishni qoyil qilaman. Navbatdagi savolga nima deyishni bilmay turgan edim, jonimga direktor oro kirdi.

– Bo'ldi! – direktorning ovoziyam jaranglab ketdi. O'qituvchi opamizga qarab, qo'lini paxsa qildi. – Hamma savolingizga mendan yaxshi javob berib turibdi-ku! Tag'in nima kerak? Nega qiynaysiz bolani?

Rostini aytсам, o'qituvchi opamga rahmim kelib ketdi. Xuddi mo'jizaga duch kelgandek nuqul g'alati iljayadi. Og'zi lang ochilib qolgan.

Direktorimizning qorni shitob bilan lapillay boshladi. Shunaqangi lapilladiki, o'ziyam tisarilib borib-borib moshrang movut qoplangan uzun stolga dumbasi bilan urilib, afti burishib ketdi.

Chamamda, o'qituvchi opamiz hushidan ketib qoldiyov! Ora-chora «hiq-hiq» deb ovoz chiqarib qo'yadi. Direktor ham esidan og'ib qolganmikan, desam yo'q es-hushi joyida. Tepamga kelib, ikkiga ayrilib ketgan, qoq o'rtasida o'qariqdek iz qolgan boshimni siladi. Mehr bilan, uzoq siladi.

– Ruxsat sizga, Qo'shoqvoy, – dedi ovozi tovlanib. Tovushidagi mehrdan ko'ra, sizlab gapirishi, ayniqsa, yoqib tushdi. Shu paytgacha meni hech kim «siz»lamagan, hatto singlim ham kamdan kam «siz» deydi.

– Mayli, – dedim eshikka yo'nalib. – Rahmat!

Yo'lakka chiqsam, allaqachon qorong'i tushib qopti. Hammayoq jimjit. Yo'lakda ham, maktab hovlisida ham odam zoti ko'rinmaydi. Turib-turib zerikib ketdim. Hech zog' bo'lmagandan keyin, yilt etgan nur ko'rinmaganidan keyin zerikadi-da, odam.

Qarasam, hozirgina o'zim chiqib ketgan direktorning xonasidan chiroq nuri tushib turibdi. Yo'q, xonaning o'zidan emas, eshik zulfinidan. Avval kalit solinadigan teshikdan ichkariga mo'raladim. Hech nima ko'rinmadi. Keyin jillaqursa o'sha yoqda nima gap bo'layotganini eshitgim keldi. Harchand quloq solmay, hech baloni eshitmadim. Oxiri, zulfinga qulog'imni qapishtirib oldim. Direktorimizning zardali ovozda gapirayotgani qulog'imga kirdi. Aniq-taniq kirdi!

– Siz, o'rtoq Ikromova, shahardan kelgan odamsiz, – dedi direktor tajang ohangda. – Yoshsiz. Ammo bilib qo'ying. Qishloq – shahar emas! Hamma olim bo'lib ketaversa, podani kim boqadi?

Bir zum sukunat cho'kdi. Dadamning g'o'ldiragan tovushi qulog'imga kirdi.

– Qo'ying, o'rtoq direktor, Muhabbatxon yosh... O'g'limizning o'ziam...

Zulfin teshigiga qapishib turgan qulog'imga o'qituvchi opamning hiqillagani eshitilgandek bo'ldi.

– Men... Men... Bolalar savodsiz bo‘lmasin, ilm olsun, deyman... Bolalar shu holda ketaversa... Ertaga hammasi chalasavod...

– Bas! – direktorning ovozi o‘qdek qarsillab ketdi. – Bilib qo‘ying, o‘rtoq Ikromova! Bu – sizning Toshkentingiz emas! Bizga oqbilak intellegentlarmas, dala zahmatkashlari kerak! Besh yillik qahramonlari! Paxtakorlar! Maktabimiz bo‘yicha yuz protsent o‘zlashtirish beramiz deganimizda siz ham bormidingiz?! Pedsovetda qo‘l ko‘targanmidingiz?

Direktorimiz yana jimib qoldi. Chamamda, qornini silab qo‘ydi, shekilli.

– Xo‘sh, nega endi o‘zingizni panaga olasiz? Nega rayono oldida, obloni oldida bizni sharmanda qilasiz?!

Tag‘in jimlik cho‘kdi. Qulog‘imni eshikka yanayam qattiqroq bosdim.

– Mayli, endi, ma‘limjon... – Bu – dadamning ovoziligini bildim.

– Yo‘q, maylimas! – direktorimiz to‘satdan chinqirib yubordi. Ovozi o‘qituvchi opamnikidan ham ingichkaroq chiqdi. – Gap shu! Ertadan boshlab bironta bolaga «ikki» qo‘ymaysiz. «Uch» ham qo‘ymaysiz! Kerak bo‘lsa, bolaning uyiga borib o‘qitasiz. Yonida yotib qolasiz. Xohlasangiz shu, xohlamasangiz katta ko‘cha. Poyezd biletini olib beramiz.

Ichkaridan tars-turs qadam tovushlari eshitildi. Eshikka yanayam qattiqroq yopishdim.

Shu payt... Eshik chunonam zarb bilan ochildiki, birov o‘ng qulog‘imga... Yo‘q, tarsaki bilan emas, naq o‘rtacharoq ketmon bilan tushirib qolgandek bo‘ldi. O‘zim ham kamida olti marta o‘mbaloq oshib ketdim-ov! To‘rt oyoqlab turgancha munday qaragam, o‘qituvchi opamiz nimqorong‘i yo‘lakda chopqillab ketyapti. Poshnalari «tars-turs», «tars-turs» qiladi.

Emaklab o‘rnimdan turgancha, gir-gir aylanayotgan boshimni ushlab ko‘rdim. Xayriyat, joyida ekan! O‘ng qulog‘im lovillayotganiga qaramay, iljayib qo‘ydim.

O'qituvchi opam matematikadan endiyam «ikki» qo'yib ko'rsin-chi! Xohlasam, ikki karra ikki yigirma ikki deyman! Xohlasam, beshni beshga qo'shsa, ellik besh bo'ladi deyman. Meni sinfda qoldirib bo'pti!

## To'rtinchi bob

### XIH, TULPORIM, XIH!

To'rtinchi sinfni bitirayotgan kezlarim edi. Bir kuni ertalab papkamga yarimta non, bir hovuch yong'oq, besholtita popuk qand solib, chiqib ketayotsam, dadam to'xtatdi.

– Shoshma, ulim! Bugun bozorga boramiz.

Angrayib qoldim. Har kuni tayoq olib maktabga haydagudek bo'ladigan otam, bugun bunaqa deyapti.

Hovli burchagida sigir sog'ib o'tirgan onam ham dadamning gapini eshitdi. Onam, o'zi juda yuvosh-ku, bir jahli chiqsa, shunaqangi bobillab beradiki, men tugul otam ham qochgani joy topolmay qoladi.

– Hoy! – dedi onam sigir sog'ishda davom etib. – Nima deb aljirayapsiz? Bolani o'qishdan qoldirguncha o'zingiz ishga borsangiz o'lasizmi? Rais buva nima deydi?!

– Bormayman! – dadamning lunji uchib ketdi. – Ishlamayman, o'sha rais buvang bilan, tushundingmi, ishlamayman!

Onam sigirni chala-chulpa sog'ib, yarim paqir sutni ko'targancha yaqin keldi.

– Nima bo'ldi? – dedi hurkibroq.

– Ishla-may-man! – dadam ayvon peshida o'tirgancha tizzasiga shapatiladi. – Aldam-qaldamga toqatim yo'q!

Onam birpasda shalpayib tushdi.

– Mayli-ku, – dedi yalinib. – Kap-katta odam ishlamay qo'ysangiz... Buyoqda bola-chaqa...

Dadamning lunji battar ucha boshladi.

– Men qamalib ketsam, bola-chaqani sen boqasanmi, ahmoq xotin?! – deb mushtini do‘laytirgan edi, onam paqirni lapanglatib qochdi.

– Mayli, o‘zingiz bilasiz, – dedi nariroq borib. – Ammo shu topda Qo‘shoni bozorga...

– Ishing bo‘lmasin! Yur, ulim, Chiyaliga boramiz!  
Suyunganimdan papkamni hovliga uloqtirdim.

Chiyali bozorni ko‘rmabsiz, dunyoga kelmabsiz! Bu bozorda-chi, xoh ishonning, xoh ishonmang, odamdan boshqa hamma narsa sotiladi. To‘g‘nag‘ichdan tortib buldozergacha, sichqondan tortib filgacha! Ovqatlarining zo‘rligini aytmaysizmi?! Xohlasangiz, serqatiq to‘ppa osh iching, xohlasangiz – archa hidi anqib turgan tandir-kabob yeng! Bilamiz-da! Bultur kelganimizda onam meni rosa go‘sh bilan siylagan.

Balki siz Chiyali bozor g‘ij-g‘ij chayqovchiga to‘lib ketgan deb o‘ylarsiz? Bekorlarning beshtasini aytibsiz! Bozor kuni hammayoqni aptalapka bosib ketadi. Bir gal onam aptalapkadan yaltiroq ko‘ylaklik olmoqchi bo‘lgan-u, puli yetmagan.

Esimda. Onam:

– Kristalingiz necha pul? – desa, boshiga cho‘girma kiyib olgan sotuvchi:

– Oltmish so‘m, – degan.

Onam:

– Bir kiyimligi oltmish so‘mmi? – desa, cho‘girma kiygan sotuvchining achchig‘i chiqqan.

– Magazinning moli kiyimlab sotilmaydi, ena, metri oltmish so‘m! – deb jerkib bergan.

Onamning ham jahli chiqib ketgan.

– Men bilaman, davlat bahosida metri o‘n yetti so‘m turadi!

– Yo‘lingdan qolma, ena! – degan sotuvchi sansirab.

Onam o‘zidan kattani sansirash mana bunaqa bo‘ladi, deb melisa boshlab kelgan.

Melisa yaxshi kishi ekan. Onamni yupatgan:

«Xafa bo‘lmang, ena, narigi aptalapkadan ola qoling!»

Onam ikkalamiz narigi aptalapkaga borsak, xuddi o‘shanaqa yaltiroq matoning bir metri yetmish so‘m ekan...

Chiyali bozori ana shunaqa! Butun boshli O‘zbekistonni o‘n marta, boringki, o‘n bir marta aylanib chiqsangiz ham, bunaqa bozorni topolmaysiz.

Rosti, dadam meni bozorga yetaklab qoldimi, bundan chiqdi, qornim yorilib ketguncha mehmon qiladi! Keyin bosh-oyoq yasatadi. Kim bilsin, balki pat-pat ham olib berar! Tursunboy akamning «pat-pat»ini havas qilib yurganimni onam dadamga aytgan bo‘lsa, aytgandir-da! Nima qipti! Yakka-yu yolg‘iz o‘g‘ilmiz!..

...Ajab! Dadam yaxna go‘sht tugul ayron ham olib bermadi. Mototsikl bozori uyoqda qolib, eshak bozoriga sudradi. Echkidekkina xo‘tikka xaridor bo‘ldi. Savdolashib-savdolashib, yigirma so‘mga «bor, baraka!» qildi.

Rostini aytsam, xo‘tigim xunukkina edi. Qiltiriq, quloqlari shalpaygan, uzun-uzun oyoqlari qaltirab turibdi.

– Bilib qo‘y, ulim! – dedi dadam tantana bilan. – Ko‘rasan, mana shu jonivor hali senga ko‘p xizmat qiladi!

Yanayam rostini aytsam, uyga yetaklab kelguncha xo‘tigim o‘zimgayam yoqib qoldi. Yuvoshgina ekan. Kattakatta, qop-qora ko‘zlari odamga ma‘yuslanib termuladi. Hangramoqchi bo‘ladi-yu, eplolmaydi. Og‘zini lang ochib, ingichka ovozda «hhi-hhi» qilib qo‘yadi. Xuddi kulganga o‘xshab.

Ertasigayoq butun maktabga xabar qilib chiqdim:

– Mening fildek hangi eshagim bor. Oti – Tulpor! Bir tepsa, tuyani sulaytiradi!

...Bekorga maqtanmagan ekanman! Ikki yil o‘tib, oltinchi sinfga ko‘chganimda Tulporim chunonam hangi eshak bo‘lib yetildiki, ko‘rsangiz havasingiz keladi. Yursa yer titraydi, yugursa «man-man» degan poygachi otni yarim yo‘lda qoldirib ketadi. Bekorga Tulpor deb ot qo‘ymaganman-

da! Aqlliligini aytmaysizmi? Qishlog'imizdagi odamlarning qoq yarmisi soatini eshagimning hangrashiga qarab to'g'rilaydi. Erta bilan budilnikning jiringlaganidan emas, Tulporinning hangraganidan uyg'onaman. Roppa-rosa soat yettida roppa-rosa yetti marta hangraydi.

Dadam ham eshagim hangrashini bilan yo'lga o'tlanib qoladi. Endi kolxoz idorasida cho't qoqmaydi. Xloppunkt yonidagi, do'konchada gazeta sotadi. Onamning aytishiga qaraganda, Rais buva insof qipti: dadamning gunohidan kechib, gazeta sotuvchi qilib qo'rganmish. Lekin dadamning o'zi bu to'g'rida og'iz ochmaydi.

Tulporim bo'lsa, har soatda hangrab turadi. Kun bo'yi. Bir minut ham kechikmay! Qo'shni kolxozda turadigan tog'am Tulporingni «Moskvich»ga almashasanmi, deganida jon-ponim chiqib ketdi. Esimni yebmanmi, almashib?! Eshak qayoqda-yu, allaqanday «Moskvich» qayoqda! Mana, men sanay, siz barmog'ingizni bukib turing.

Birinchiidan, mashinaga benzin kerakmi? Kerak! Benzin degani osongina topila qolsa ekan! Bir marta eshagimni minib uzum olish uchun rayon markazidagi bozorga tushganimda o'zim sanaganman. Benzokolonkada bir yuz o'n to'qqizta mashina safga tizilgan askardek qator turgan ekan. Sho'pirilar so'kingan, mashinalar paydar-pay signal bergan. O'shanda Tulporim mashinalar hadeb bibiblayverganidan g'ashi keldimi, butun kuchini to'plab shunaqangi hangrab berdiki, tog'dek keladigan samosvallarning ham dami ichiga tushib pildir-pis bo'lib qoldi. Shunday qilib, mashina zoti benzinsiz bir qadam yurolmaydi. Eshak-chi? 93 benzin uyoqda tursin, solyarka ham kerakmas!

Ikkinchiidan, har qadamda melisa to'xtatmaydi. Bo'lar-bo'lmasga taloningni teshaman deb do'q urmaydi. Demak, bu tomondan ham pulingiz yoningizga qoladi.

Uchinchiidan, siz tomonlarda qanaqa bilmadim-u, bizning tumanda paxta terimi boshlanishi bilan shaxsiy mashinalarda yurish taqiqlanadi. To'g'ri-da, har kim o'zining



mashinasida kataysa qilib yuraversa, paxtani kim teradi? Shuning uchun, ko'chada ketayotgan mashinani taqqa to'xtatishadi-da, sho'pirning ham, mashinada o'tirganlarning ham qo'lga etak tutqazishadi. Marhamat qilib, 20 kilodan paxta terib berasiz-da, keyin to'rt tomoningiz qibla! Etak to'lmaguncha ketish yo'q. O'n chaqirim yurmasingizdan yana to'xtatishadi. «Hozirgina terib berdim-ku» desangiz, «u sovxozning paxtasi edi, endi kolxoznikini terasiz», deyishadi. Tog'am aytib bergan. Burnog'i yili yangamni tuman markazidagi tug'uruqxonaga olib ketayotganda uch joyda to'xtatib «hashar» qildirishibdi. Yangam tug'uruqxonaga yetib borishni kutib o'tirmay mashinaning ichida tug'ib qo'ya qopti. Shuning uchun jiyanimning otini, erkalab «Moskvich polvon» deymiz. O'ziyam polvon bola. Kuzda tili chiqdi. Ena debmas, dada debmas, «pa-pa-a-p» deb chiqdi. Qarang, mashina ichida tug'ilgani esida bor ekan. Aqlli bola-da!

Xo'sh, endi ayting-chi, eshak minib ketayotgan odamni birov to'xtatib, paxta ter deydimi? Demaydi. Odamlar shuni bilib qolishgan. Xotini ayni kuzda tug'moqchi bo'lsa, mashinaga o'tqazib emas, eshakka mingashtirib borishadi tug'uruqxonaga.

Tog'am aytgan: bitta g'ildirak davlat bahosida yetmish so'm turarkan. Ammo ustaxonada g'ildirak yo'qligi uchun bozordan ikki yuz so'mga olarkan. Bitta akkumulyator oltmish so'm turarkan. Ustaxonadagi qadrdoni u yoqqa yugurib-bu yoqqa yugurib arang bir yuz yigirma so'mga topib beribdi. Tog'am xursand bo'lib ketganidan oshnasiga yana o'n so'm qo'shib beribdi. Akkumulyatorni «yuvish» uchun...

Eshakka-chi! Zapchast kerakmi? Kerakmas. Xullas, sanayversam, Tulporimning maqtoviga so'z topolmayman. Mehribonligini ayting. Har kuni oxirgi dars tugashi oldidan nuqul derazaga qarayveraman. Xuddi o'zim bilgandek, derazada avval bir juft dikkaygan quloq, keyin Tulporimning tumshug'i ko'rinadi. U kulrang-ko'kish

lablarini cho'chchaytirib, havoni huzur qilib iskaydi-da, boshini silkitib-silkitib, pishqirib qo'yadi.

O'qituvchilar ham tanib qolishgan uni.

– I-ye, Qo'shovoy, dars tugab qopti shekilli, eshaging keldi, – deb qo'yishadi. Qo'ng'iroq chaladigan navbatchi adashsa-adashadiki, Tulporim xato qilmaydi. Chiqishga o'z vaqtida qo'ng'iroq urmasa, sekund-sekundini to'g'rilab hangrab yuboradi. Hangraganda ham qanaqa deng? Naq derazaga tumshug'ini tirab o'kiradi. Har bittasi taxminan yarim metr keladigan quloqlari dikkayib, dumi xoda bo'lib ketadi. O'sha zahoti qo'ng'iroq chalinsa-chalingani. Chalinmasa, deraza ortidan o'qituvchiga jahl aralash adovatli qarab qo'yadi-da, ikki biqini kirib-chiqib, kirib-chiqib hirqillay boshlaydi. Xafa bo'lganidan shunaqa qiladi, deb o'ylaysizmi? Hecham-da! Tulporim yangidan hangrash uchun kuch to'playotgan bo'ladi. O'pkasini toza havoga liq to'latib olishi kerakmi axir? Agar o'shandayam qo'ng'iroq chalinmasa, shunaqangi shovqin soladiki, faqat bizning sinfirmiz emas, butun maktab titrab ketadi. Derazalar jarang-jurung qilgan, shiftning ohak suvog'i ko'chib tushgan...

Yo'q, ko'pincha, ish bunchalikka borib yetmaydi. Tulporimning ovozi bilan darsdan chiqishga chalingan qo'ng'iroq deyarli baravar jaranglaydi.

Sinfxonadan otilib chiqamiz-u Shodivoy ikkalamiz eshagimga mingashib olamiz. Shodivoy yaxshi bola-da, o'zi! O'qituvchilar u yoqda tursin, direktorimiz ham uni «siz»lab gapiradi. Shodivoy ham menga o'xshagan bitta-yu bitta o'g'il. Faqat menga o'xshab singlisi emas, opasi bor. To'rtta. Hov o'shanda, ikkinchi sinfda o'qib yurganimda direktorimiz o'qituvchi opamizni rosa urishganini aytgandim. (O'shanda o'qituvchi opam eshikni qaltisroq ochgan ekanmi, boshimdagi tuxumdek g'urra salkam ikki oygacha ketmadi. G'urram joyiga tushguncha o'qituvchi opaning o'zi ishdan bo'shab ketdi. Sababini keyin bildim. Opamiz men tugul, hatto Shodivoydek

bolaning ham choragiga «ikki» chiqarmoqchi bo'lgan ekan. Direktorimiz shunisiga chidolmabdi).

Keyingi paytlarda Shodivoy yanayam semirib, yanayam do'mboq bo'lib ketdi. Avval ikki yuzi lo'ppigina nonga o'xshardi. Hozir kamida bir kecha-kunduz oshib yotgan xamirdek bo'lib ketgan. Ba'zan hazillashib jo'ramning yuzini silagim kelib qolsa, bir yuzini ikki qo'llab silayman.

Shunday qilib, Shodivoy ikkalamiz sinfxonadan otilib chiqib eshagimga mingashib olamiz. Men-ku, Tulporimga minaverib usta bo'lib ketganman. Lip etib ustiga chiqib olaman. Papkamni tizzamga qo'yib, Shodivoyni imlayman.

– Kelaver!

Shodivoy eshakka mingashguncha terlab, suv bo'lib ketadi. Harsillab nafas olgancha, goh o'ng tomondan keladi, goh chap tomondan... Tulporim bo'lsa taqdirga tan bergandek qimir etmay turadi. Esli-da, Shodivoy qil o'tmas jo'ramligini biladi!

Jo'ramning qo'ltig'idan tortib eshakka mingashtirguncha o'zim ham terlab ketaman. Dadam minganida qilt etmaydigan Tulporim Shodivoy mingashishi bilan orqaga cho'nqayib o'tirib qolgudek, bir silkinadi. Chamamda, orqa oyoqlari bukilib ketadi-yov! Ammo sir boy bermaydi. Avvaliga uch-to'rt qadam gandraklabroq boradi-da, keyin yo'rg'alashga tushadi.

– Xih, Tulporim! – deyman baqirib.

Maktabdan chiqayotgan bolalarni bir zumda quvib o'tamiz. Keyin katta ko'chaga chiqamiz. Avtobus bekatida do'ppi kiygan kishilar, atlas ko'ylagi oftobda tovlanib turgan xotinlar bizga havas bilan qarab qolishadi. Ba'zilari negadir afsuslanib bosh chayqaydi...

Shu... Xotinlarga ham hayronman-da! Atlas ko'ylak kiyishni yaxshi ko'rishadi-yu, qurt boqish azobidan xabari yo'q! O'ylasa kerak-da, atlas degan magazinga chiqadi-yu, do'konchiga ellik so'm qo'shib bersa, peshtaxta tagidan bir jo'ra atlasni olib, gazlab beraveradi deb!

Pilla boqish oson ekanmi? So‘ri qurish bor. G‘anak qilish bor. Siyraklatish bor, so‘ri tagini tozalash bor. Yerga tushib ketgan qurtlarni bitta-bittadan terib, joyiga qo‘yish bor. Jimitdek qutidan chiqqan qurtlar o‘n besh kunda butun uyni egallaydi. Avvallari joy topilmaganidan qurt uchun maktabdagi bitta-ikkita sinfxonaniyam bo‘shatib berisharkan. Yo‘q, keyingi paytda Rais buva «qurtni odamlar uyida boqsin» deb buyruq bergan. Tag‘in bu qurt degani shunaqangi tannozki, xona issiq bo‘lsayam yoqtirmaydi, sovuq bo‘lsayam. Havo sal qovog‘ini solsa, azza-bazza pechka yoqasiz. Havo isib ketsa, derazani qiya ochib, salqinlatasiz. Shuning uchun aprel oyi oxirlashi bilan odamlar uyini qurtga bo‘shatib, o‘zlari hovlida yotishadi.

Eng qiyini bu ham emas. Pilla qurt deganning dahasi bo‘ladi. Birinchi daha, ikkinchi daha... Uchinchi dahaga kirganida har bittasi ajdardek ochofat bo‘lib ketadi. Barg deganni yamlamay yutadi. Yetkazib bermay ko‘ring-chi! Ayniqsa, katta dahaga kirganida ko‘rsangiz! Mingtachasi bab-baravar boshini ko‘tarib, bersang yeyman, bermasang o‘laman, deb turadi.

Ammo, qani o‘sha barg? Avvallari paxta paykallari chetida qator-qator tutzorlar bo‘larkan. Rais buva, bo‘ltak-so‘ltak yerlar ko‘payib ketgan, texnikaga keng maydon kerak, deb tutlarni kestirib tashlagan.

O‘shandan beri pilla qurti katta dahaga kirishi bilan yugur-yugur boshlanadi. Bizning kolxozdagilar yuk mashinasiga o‘tirib, narigi kolxozga borsa, narigi kolxozdagilar bir emas, ikkita mashinaga o‘tirib, bizning kolxozga keladi. Dadamning aytishicha, bir safar bizning pillachilar tutning konini topishibdi. Narigi xo‘jalikda kattakon tutzor bor ekan. Yarim kechada borib chopqi bilan rosa barg kesishibdi. Mashinaga bosishibdi. Shopir mashinani haydayman desa, g‘ildiragi daqir-duqir qilarmish-u yurmasmish. Tushib qarashsa, mashinaning to‘rtala baloni yorilib yotganmish. «Birovning molini o‘g‘irlash shunaqa

bo'ladi! – debdi mo'ylovli bir kishi ularning yoniga kelib. – Pilla kerak bo'lsa, o'zlaring tut o'stiringerlar! Rahmat, ishimizni yengillatib barg kesib berdilaring».

To bu yoqdan boshqa mashina to'rtta balon oborguncha tutzor egalari tayyor kesilgan barglarni tashib ketishibdi.

Bu gaplarni aytmasdim-u, nima qilay, biznikida ham bir quti pilla bor-da! Hozir katta dahaga kirgan. Ertalab dadam, «o'g'lim, Tulporingni egarlab barg qidirmasang bo'lmaydi», degan.

Shuni o'ylab ketayotsam, orqamda mingashib o'tirgan Shodivoy biqinimga turtib qoldi (mushtiyam biqqigina, yumshoqqina. O'zi o'ng biqinim qichib turgan edi, jonim rohat qildi).

– Qo'shovoy! – dedi jo'ram. – Xloppunktga bormaymizmi? Bugun kino bor ekan. Indiyaskiy kino...

– E, kinoni boshimga uramanmi! – dedim to'ng'illab. – Barg topmasam, dadam o'ldiradi! Xih!

Eshagim shoshib turganimni sezdi. Yo'l chetidagi toshlarni shaqir-shuqir bosib, ildamlab ketdi. Shodivoyni har kuni Tulporimga mingashtirish malol kelmasa ham bugun alam qildi. Men buni tekindan-tekinga uyiga oborib qo'yaman, bu mazza qilib kino ko'radi. Men bo'lsam, hali barg izlashim kerak! Shodivoyning uyi yaqin bo'lsayam go'rgaydi. Yo'l o'lgudek aylanish! Avval idora yonidan o'tamiz. Keyin atrofni allaqanday chilonjiydalar, yulg'unzorlar o'rab yotgan chakalakzor mozor chetidan o'tamiz. Ana undan keyin Shodivoyning uyi keladi.

– Bargni qayoqdan olasan? – dedi Shodivoy yana biqinimga turtib.

– Men qayoqdan bilay?! Xih, Tulpor!

Eshagim yanayam ildamroq dikillab ketdi.

– Qo'shovoy! – dedi jo'ram bir mahal. Ovozi g'alati, sirli chiqdi. – Bir eshak barg topib bersam, kinoga borasanmi?

Sevinganimdan butun gavdam bilan o'girildim-u o'rtog'imning yuzidan o'pib oldim. O'ziyam bir tog'ora xamirning bir burchidan o'pgandek bo'ldim.

– Rostdanmi? – dedim baqirib.

Muvozanat buzildi, shekilli, eshagim munkib ketdi. Lekin darrov qaddini rostlab yana dikir-dikir qilib yo'lida davom etdi.

– Rostdan, – Shodivoy yelkamga qoqdi, – yuraver biznikiga!

Rais buvaning «Volga» uyoqda tursin, ZIL ham, bo-ringki, tank ham sig'adigan kungurador darvozasi oldida to'xtadik. Shodivoy yerga tushishi bilan eshagim xo'rsinib-xo'rsinib nafas ola boshladi. Qarasam, ikki labi ko'pirib, sarg'imtil tili osilib ketibdi. Hangraydigan vaqti bo'lgan ekanmi, bir-ikki hirqillab o'kirgisi keldi-yu, madori yetmadi, chog'i.

Jo'ramnikiga shuncha kelgan bo'lsam ham, hovlisiga kirmagan edim. Hozir ham ichkariga kirgim kelmadi.

– Yuraver! – dedi Shodivoy darvoza yonboshidagi eshikni ochib. – O'zimizning tutimiz bor. Bargini kesib olamiz.

Qo'rqib ketdim.

– Dadang bilib qolsa-chi?

– Dadam ishda.

– Enang-chi?

– Yuraver! – Shodivoy qo'limdan tortdi. – Enam Sojida opamning beshik to'yiga ketgan.

Yo'lakka kirishim bilan bir emas, uchta mashinaga ko'zim tushdi. Bittasi oq «Bolga», bittasi yangi chiqqan qizil «Jiguli», eng ichkarida havorang «Zaporojes» turibdi.

– Kimniki? – dedim «Bolga»ga imlab.

– Dadamniki.

– Dadang «Niva»da yuradi-ku!

Jo'ram kuldi. Ikki yuzi qizarib, yanayam lo'pillab ketdi.

– Unisi – davlatniki! Bu – o'zimizniki!

– U-chi?

– Bumi? – jo'ram yumshoq kafti bilan qizil «Jiguli»ning tomiga shapatilab qo'ydi. – Kichik pochchamniki. Dadam pochchamga, o'g'il ko'rsang, «Jiguli» seniki, degandi.

Sojida opam o'g'il tug'di. Endi pochcham mashinani olib ketadi.

– Bunisi-chi?

Shodivoy havorang «Zaporojes»ga mensimayroq qarash qildi.

– Bunisi meniki. Dadam va'da qilgan. Yettini bitirgan kuning kalitni qo'lingga beraman degan. Yanagi yil minaman...

– O'zimning Tulporim yaxshi! – dedim past kelishni xohlamay.

Hovliga kirib, angrayib qoldim. Xuddi tomoshabog'ning o'zi! Olmalar, gilolar qator-qator ekilgan. O'rtada katta gulzor. Atirgullar ochilgan. Gulidan g'unchasi ko'p. Gulzor o'rtasida marmar favvara. Hali suv otilmayapti-yu, ammo marmar ustunchalari yuvib qo'yilgan. Hovlining to'rt tomonida qator-qator uylar. Ustuni naqshlangan ayvonlar...

– Qani tut, Shodi? – dedim garangsib.

– Ana! – jo'ram hovli burchagiga imo qildi. Qarasam, judayam bizning yong'oqchalik bahaybat bo'lmasa ham, kamida o'shaning yarmidek keladigan tut savlat to'kib turibdi. G'arq pishganini aytmaysizmi? Hatto, tagiga, asfalt bosilgan yerga ancha-muncha to'kilibdiyam.

G'ayratga kirib ketdim.

– Dastkallang bormi? – dedim hovliqib.

– Nima u dastkalla?

– Chopqi-da, ishqilib, oshpichoqqa o'xshagan! Barg kesadigan...

Shodivoy uzoq o'ylab qoldi.

– Bolta bor! – dedi nihoyat.

– Obkel!

– Yiqilib tushma! – dedi Shodivoy tutga tirmashayotganimda.

Uchi bulutga tegib turgan o'zimizning yong'oqdan kalla tashlagan odamga allaqanday tutga chiqish nima bo'пти.

Bolta bandini kamarimga qistirdim-u, bir zumda tut shohiga minib oldim.

Boltani bir urganimni bilaman! Boshimga duv etib tut yog'ildi. Tag'in qanaqa deng? Marvarid tut! Har bittasi barmog'imdek keladi.

Shoshma! Nuqul barg kesaverib, tut yeyish esimdan chiqib ketibdi-ku! Avval bir to'yib olay! Qo'lim yetgan joydagi shoxlarni sindirib tutlarni kappalab og'zimga tiqaverdim. Shunaqangi shirinki, iris ishkaladga o'xshaydi.

– Qo'shovoy! – pastdan jo'ramning ingichka ovozi eshitildi. – Bo'l tez! Hozir enam keqqoladi!

Onasi bilan nima ishim bor?! Shipillatib tut yeyishga tushdim.

Ertalabdan beri qornim ochib ketgani uchunmi, shunaqangi ishtahaga kirib ketdimki, shu ochofatligimni ko'rsa, katta dahaga kirgan qurtlar ham bir chekkaga chiqib ta'zim qilib turgan bo'lardi.

– Qo'sho! – Shodivoy pastdan turib yalindi. – Jon Qo'sho! Senga bir tog'ora tut beraman! Yo'q, o'n tog'ora! O'zim uyingga oborib beraman! Tezroq bo'la qol, jo'rajon...

Tezroq bo'larmishman! Shoshib nima qildim! Ana, hammasi tayyor! Tut o'zimga, barg – qurtinga. Tutni kapalab yeyaverdim-yeyaverdim, oxiri, qornim darangos bo'lib quldur-quldur qila boshlaganini sezdim. Chamamda, qornim qorin emas, shinni to'ldirilgan xumga aylanib ketdiyov! Bo'пти, endi ishga kirishamiz.

O'zimcha daraxtdagi tutning yarmisini yeb qo'ydim, deb o'ylovdim. Yo'q, hali ko'p ekan. Bolta bilan bitta shoxni kesgunimcha yuzta tut yerga duv to'kiladi.

– Tezroq! – Shodivoy turgan joyida yer tepdi. – Bo'l-sang-chi!

– Shoxlarni eshakka ortaver! – dedim baqirib. – Men kesib turaman, sen tashiysan!

Shundoq qildik. Men paydar-pay shox kesib turibman, Shodivoy paydar-pay tashib turibdi.



Odam bir g'ayratga kirib ketsa, nima qilib qo'yganini o'zi bilmay qolarkan! Bir mahal qarasam, butun boshli tutning qir uchida uchtami-to'rttami shox qopti! Xuddi qamish uchidagi popiltiriqday.

– Qo'sho-o! – pastdan Shodivoyning yig'lamsiragan ovozi keldi. – Eshaging ko'rinmay ketdi. Hammayog'i shox!

– Qo'yavur! – dedim iljayib. – Tulporim bir emas, ikkita mashinaning yukini ko'taradi.

Xuddi shu payt darvozaxona tomonda yangragan ayanchli xitob qulog'imga chalindi.

– Yo tavba! Yo xudo! Voy... Voy. Voy-do-o-od!

Avval o'zim yerga sakradimmi, yo men tushishimdan oldin yer qimirladimi, bilmayman. Shundoq qarasam, kamida bir ko'rpaga yetgulik qora atlasdan ko'ylak kiygan xotin ko'zlari shokosasidan chiqqudek bo'lib chalqanchasiga gursillab yerga yiqildi. Qo'lidagi tugun ancha nariga otilib ketdi. Nazarimda, uylar-u ayvonlar ham, yalang'ochlanib qolgan tut ham silkinib ketgandek bo'ldi.

– Do-o-od! – xotin shunaqangi yo'g'on ovozda hayqirdiki, xuddi stansiyadagi teplovoz gudok chalgandek ikki qulog'im chippa bitib qoldi.

– Voy-dod! Uyim kuydi!

Alang-jalang bo'lib Shodivoyni qidiraman, qani ko'rinsa! Yerga kirdimi, osmonga uchib ketdimi, bilsam o'lay!

Men ham vaqtni g'animat bilib, ko'cha eshikka otildim. Boyagi semiz xotin bo'lsa kalovlanib qaddini rostlashga urinar, filning qulog'idek osilib ketgan yuzini yulib, nuqul dod solardi:

– Uyim kuydi! O'g'ri bosdi!

Yer bilan bitta bo'lib yotgan tutlarni bosib ko'chaga otildim. Qarasam, darvozaxona ro'parasida o'rtacharoq yuk mashinasiga ortsa, taxminan chorak qismi ortib qoladigan barg g'arami turibdi-yu, eshagim ko'rinmaydi.

Xayolimga lop etib bir fikr keldi. «Tamom bo'ldim! Hozir Shodivoyning onasi chiqib, meni tagiga bir bossa, burgadek pirt etaman-u, jonim chiqadi-ketadi!».

– Tulpor! – dedim chinqirib. – Tulporim!

Kamida bir yarim mashinaga yuk bo‘ladigan barg xirmonning qoq o‘rtasida «hirq» etgan tovush keldi.

Bor ekansan-ku, Tulporim!

Tipirchilab-tipirchilab barg g‘aramining qir uchiga chiqib oldim. Shodivoy ham malades-da! Shoxlarni shu qadar shibbalab yuklagan ekanki, bittayam barg to‘kilmadi.

– Xih, Tulpor, xih! – dedim baqirib.

Xuddi shu payt kungurador darvoza sharaqlab ochildi. Shodivoyning onasi eshikdan chiqay desa siqilib qolishini bilib, darvozani lang ochib qo‘ya qolganini tushundim. Chamamda, u darvozaning yarmini egallab turardi. U o‘zidan o‘zi sudralib borayotgan g‘aramga, g‘aramning qir uchida chordana qurib o‘tirgan qop-qora bolaga, ya‘ni menga ko‘zi tushdi-yu, rangi dokadek oqarib ketdi.

– Bis-bis-bismillo! – dedi duduqlanib. Tappa o‘tirib qoldi. O‘sha zahoti yana yer qimirlagandek bo‘ldi. O‘zim ham xirmon ustidan uchib tushay dedim. Eshagimning qorni o‘rniga tut shoxlarini tepkilab baqirdim.

– Xih!

Xayriyat, xavfli joydan uzoqlab ketdik. Katta yo‘lga chiqqanimizda bir narsani payqadam. Velosiped-u mototsikllar uyoqda tursin, yuk mashinalari ham bizni chetlab o‘tyapti. Mototsiklchilar o‘z yo‘liga. Hatto shopirlar ham ellik metrcha oldinga o‘tib mashinasini to‘xtatadi-da, azza-bazza yerga tushib, orqasiga qaragancha angrayib qoladi.

Men bo‘lsam, fil ustida o‘tirgan podshodek buyruq beraman:

– Ha, Tulpor!

Tulporim dikir-dikir qilib ildamlaydi. Donoligini qarang. O‘zi-ku, ustiga ko‘rpa yopilgan mushukdek shoxning tagida ko‘rinmay ketgan. Yo‘lni qayoqdan topib boryapti, bilsam o‘lay! Ustiga-ustak har soatda minut-minutigacha aniqlik bilan hangraydigan eshagim, mana, oradan uch soatcha vaqt o‘tibdiki, g‘iq etib ovoz chiqarmaydi. Yaxshi-da!

Odamlar qoyil qolsin! Bir yarim mashina tutbarg o'zidan o'zi Qo'shovoylarnikiga o'rmalab ketyapti. Barakalla, Tulporim!

Hayronman, xayol olib ketibdimi, onamning falokat qosh bilan qovoq o'rtasida turadi, degani rostmi, nima bo'lganini o'zim bilmay qoldim.

Bir mahal es-hushimni to'plab olsam, kattakon chorrahaning qoq o'rtasida turibmiz. Eshagim g'azabnok hiqilayapti. Avval o'ng tomonimga qaradim. Hech gap yo'q. Keyin chap tomonimga qaradim. Hech nima ko'rinmaydi.

– Xih! – dedim hayqirib. – Xih, Tulpor!

Biroq qadrdon eshagim qilt etmay turaverdi. Alamlı pishqirib qo'ydi. O'tirgan joyimda mundoq orqamga o'girilib qaragam, ne ko'z bilan ko'rayki, allaqanday qirchang'i bir eshak biz ne mashaqqatlar bilan kesgan barglarni bemalol kavshayapti.

Qo'limni musht qilib baqirdim.

– Yo'qol!

Voy surbet-ey! Parvo qilmaydi! Tut bargini uzib-uzib oladi-da, huzur qilib kavshaydi. Rosmana hangi bo'lsayam mayli-ya, Tulporimning yarmicha keladimi-yo'qmi, g'olibona pishqirib qo'yadi.

– Xih! – dedim chinqirib. – Xih, harom o'lgur!

Tulporim, bunaqa dag'dag'ani o'ziga tegishli deb o'yladimi, jahli chiqdimi, unisini bilmayman. Shunisi esimdaki, eshagim nafrat to'la ohangda hangrab yubordi. Xirmon o'zim bilan qo'shilishib, roppa-rosa bir yuz sakson gradus aylanib ketdi. Shunaqangi keskin aylandiki, yerga chilparchin bo'lib tushishimga bir bahya qoldi. Begona eshak xirmon tagida shundoq qudratli raqibi borligini bilmagan ekan shekilli, shataloq otib qochib qoldi. Tulporim ham uch soatdan beri jim turganining xumoridan chiqish uchun to'xtovsiz hangragancha tog' bo'yi xirmonni, xirmon ustida o'tirgan meni ortmoqlab «o'g'ri» eshak orqasidan yo'rtib ketdi.

O'g'ri eshak qancha tez chopsa, Tulpor ham shuncha tez yo'rg'alaydi. O'g'ri eshak dumini chotiga qisib nola chekkandek g'iq-g'iq qiladi. Tulporim g'olibona hangraydi. Qarasam, o'g'ri eshak mozoriston yonidagi chilonjiydalar, qoratikanlar chirmashib ketgan chakalak orasiga o'zini urdi. Chakalakka kirib ketayotganda alam qilsin, degandek ikki marta shataloq otib ham qo'ydi.

– Ish-sh! – dedim jon holatda. – Ish-sh! Jon Tulpor, ish-sh!

Qayoqda? Tulporim bittayam gapimni eshitmadi. Yo eshitsayam qirchang'ining haqoratiga chidolmadimi, bilmayman. Avval oyoqlarimga, keyin qo'llarimga, undan keyin yuz-ko'zimga tikanlar sanchila boshladi.

– Ish-sh! – dedim baqirib. Jilov qo'limda bo'lsaki, tortsam. – Ish-sh!

Alam bilan oxirgi marta qichqirganimni bilaman. Anchadan keyin ko'zimni ochsam, tut barglari orasida yalpayib yotibman. Hammayog'im lovillaydi.

Yig'lamoqdan beri bo'lib eshagimni chaqirdim.

– Tulpor!

Qayoqda «o'g'ri» eshakdan ham, Tulporimdan ham darak yo'q! Amallab o'rnimdan turdim-u bir tutam tut bargini quchoqlab, turtina-turtina yo'lga tushdim. Chakalakzordan chiqqunimcha kun botdi. Yo'l-yo'lakay badanimga sanchilgan tikanlarni sanab olib tashlay-tashlay uyga kelsam, Tulporim eshik oldida raqibini yenggan askardek boshini g'oz tutib turibdi. Meni ko'rib quloqlari ding bo'lib ketdi. Hatto g'olibona hangrab ham qo'ydi.

## **Beshinchi bob**

### **MUSHAK SABZI**

Bargdan ajrashga ajradim, ikki orada Shodivoyning otasidan so'kish eshitgani qoldi. Ertasiga darsga o'rtog'im

qovoq-tumshug'i osilib keldi. Onasi, uyimni o'g'ri bosdi, deb yomon qo'rqan ekan. Rais buvaga yig'lab shikoyat qipti.

– Dadam tumandagi kattalarni tutxo'rlikka aytib qo'ygan ekan, – dedi Shodivoy ming'irlab. – «Jo'rang aqalli bittayam shoxini qoldirmabdi, qo'limga tushsa butini yirib tashlayman» deyapti, otamning ko'ziga ko'rinmay tur, Qo'sho...

Odamning buti yirilgandan ko'ra yirilmagani yaxshiligini o'zim ham bilaman. Shuning uchun raisning ko'zidan uzoqroq yurgan edim, bugun qo'lga tushib qoldim.

Hammasiga onam sababchi bo'ldi. Ertalab dalaga chiqib ketayotganida qattiq tayinladi:

– O'radan yarim paqir sabzi olib Oysara yangangnikiga chiqarib ber. Osh qilmoqchi ekan, sabzisi qolmabdi.

O'radan sabzi olayotganimda xayolimga bir gap keldi. Sabzidan ko'proq olib chiqsam, Oysara yangam pat-patga minishimga ko'narmikan? Oysara yangam o'zi yaxshi-yu, o'lgudek ziqna. Tursunboy aka olgan mototsikl doim bostirma tagida turadi. Tursunboy akamga «mengayam pat-pat haydashni o'rgating» desam, «pat-pat menikimas, yangangniki» deydi. Qo'rqadi-da, xotinidan.

Oysara yangam sabzini ko'rib zora iyisa. Hech bo'lmasa egariga minib, bir-ikki bibiplatay. Shirin xayollar bilan sabzi to'la paqirni ko'tarib, Tursunboy akamning eshigiga kelsam, taqa-taq berk. Itarib ko'rdim, mushtlab ko'rdim. Hech kim yo'q. Bundan chiqdi, Oysara yangam kutubxonaga ketibdi-da.

Hafsalam pir bo'lib qaytib kelayotgan edim, deraza tagiga yetganimda ichkaridan Tursunboy akamning Oysara yangam bilan g'o'ng'ir-g'o'ng'ir gaplashayotgan ovozi keldi. Qarang, ikkalasiyam uyda o'tirgan ekan-ku, darvozani ochmaydi. Yaqin kelib ovozim boricha baqirdim:

– Oysara yanga!

Ichkaridan javob chiqmadi. Qaytaga ikkalasi jimib qolishdi.

Hovlimizga qaytib kirib, o‘ylab qoldim. Onam Oysara yangangga yarim paqir sabzi olib chiqqin deganmi, degan! Yarim paqir emas, naq bir paqir sabzi oldimmi, oldim! Shuncha ovora bo‘lganimdan keyin Tursunboy akaning pat-patini bir martagina minib ko‘rishim kerakmi, kerak! Bo‘ptida, eshikdan kirdim nima-yu, tuynukdan tushdim nima? Hovlimizning etagida, devor tagida tuynuk bor. Avvallari suv oqib yotardi. Hozir paxtaga suv yo‘g‘-u, odamlarning tomorqasiga suv qayoqda! Ariq qurib-qaqshab ketgan. Oysara yangamning tovug‘i har kuni o‘sha tuynukdan chiqib, bizning hovlimizda sayr qiladi... Chopqillab borib, avval paqirimni narigi tomonga o‘tkazdim. Keyin o‘zim ham qisilibroq bo‘lsa ham Tursunboy akamning hovlisiga eson-omon o‘tib oldim.

Birpas quloq solib tursam, hammayoq jimjit. Nima balo, bular bolasini bog‘chaga jo‘natib, o‘zlari qaytadan uxlayaptimi? Qo‘limdagi paqirni salanglatib endi uy tomon yurgan edim, oynavand eshik sharaq-shuruq qilib ochildi. Ochildi-yu... Ostonada Rais buva paydo bo‘ldi! Shodivoyga «jo‘rang qo‘limga tushsa, butini yirib tashlayman» degan rais buvaning xuddi o‘zi! Shiftday bo‘lib eshik kesakisidan ushlab turibdi. Egnida kulrang kitel, pochasi keng shim. Shunaqa-ku, negadir etigi yo‘q, oyoqyalang...

Qo‘rqib ketganimdan sabzi to‘la chelakni ko‘targancha orqaga tisarila boshladim. Hayronman, rais buva meni ko‘rib negadir ostonada turgancha qotib qoldi. Pishillab-pishillab nafas ola boshladi. Nazarimda, pastki labi osilib ketgandek bo‘ldi.

– Iye, senmisan? – dedi g‘alati iljayib. Ovozi yalinibroq, yig‘lamsirabroq chiqqanga o‘xshadi. – Nima qilib yuribsan, tutxo‘r?

«Tutxo‘r» dedimi? Bundan chiqdi, haliyam esida ekan-da. Battar qo‘rqib ketdim.

– Men... Men, – dedim tutilib. – Sabzi...

Rais buva bir menga, bir ayvon kavshandozida qiyshayib yotgan jigarrang etigiga qarab qo‘ydi-da, yana iljaydi.

– Obbo sen-ey, nima qilib yuribsan?

Iljayganidan sal dadil tortdim.

– O‘zim... Sabzi...

Shu payt rais buvaning orqasida Oysara yangam ko‘rindi. Negadir rangi o‘chib ketgan, qo‘li titrab, hadeb sochini tuzatardi.

– Voy, o‘zimizning Qo‘shojon-ku! – dedi-da, rais buvaning qo‘ltig‘i tagidan lip etib o‘tdi. – Siz bilmaysiz, Qo‘shovoy shunaqa yaxshi bolaki! Pat-pat minging keldimi, Qo‘shojon!

Oysara yangamning mehribonligidan taltayib ketdim.

– Minaveraymi? – dedim iljayib. Qo‘limdagi paqirni endi Oysara yangamga uzatmoqchi edim, to‘satdan rais buvaning qiyofasi o‘zgardi. Kulib turgan odam dag‘dag‘a bilan so‘radi:

– Shoshma, o‘v! Qayoqdan kelding?

– Tuynukdan, – dedim rostini aytib. – Tovuq o‘tadigan...

– Nima?! – Rais buva yalangoyoq yer tepindi. – Eshikni bir taqillatding, ikki taqillatding, ketavermaysanmi yo‘lingga, qanaqa sur bolasan?

– Seki-i-in! – Oysara yangam rais buvaga yalinib qaradi. – Bilmagan-da, Qo‘shojon yaxshi bola!

Qiziq, rais buvaning battar jahli chiqdi.

– Shu yaxshi bolami? – dedi-yu, ustimga bostirib kela boshladi. – So‘roqsiz birovning tutini kallaklab ketsa, so‘roqsiz birovning uyiga tuynukdan tushsa! To‘g‘risini ayt, kim yubordi seni?

Qarasam, vajohati yomon.

– Tursunboy akam! – dedim baqirib.

– Sekin! – Oysara yangam tovushi titrab yalindi. – Jon Qo‘shojon, sekinroq!

– Tursunboy akam aytdilar! – dedim ovozimni yanada baralla qo‘yib. – Bugun osh yeydigan kun dedilar. Ikkalamiz sabzi olib keldik...

Oysara yangam ikki qo‘llab yuzini changalladi.

– Voy sho‘rim!

Rais buvaning ko‘zi ola-kula bo‘lib ketdi.

– Nima?

– Darvozani galma-galdan taqillatdik.

– A? – Rais buva, men buyoqda qolib, kavshandoz tomon yugurdi. Yerga o‘tirib olib, qo‘llari qaltiragancha paytava o‘ray boshladi. Rais buvaning qo‘rqqani ta‘sir qildimi, yo o‘zimning aqlim qarsillab ishlaydigan payt kelib qoldimi, unisini bilmayman.

– Shuncha taqillatdik, hech kim javob qilmadi! – dedim ataylab ko‘cha eshik tomonga qarab.

– Bo‘ldi-i-i! – Rais buva o‘tirgan joyida menga yelkasi osha qaradi. – Kar odam yo‘q-ku, nega chiyillaysan!

Shuncha yolg‘on to‘qiganda buyog‘i nima bo‘pti dedim-u, tag‘in baqirdim:

– Keyin Tursunboy akam aytdilar: Qo‘shovoy, tuynukdan kir, dedilar.

Oysara yangam dag‘-dag‘ titragancha meni quchoqlab, iltijo qildi.

– Qo‘shojon, jon ukam! Baraka topkur ukam, bo‘ldi, sekinroq...

To‘g‘risini aytsam, Oysara yangamga rahmim keldi.

– Pat-pat minsam maylimi? – dedim ovozimni ancha pasaytirib.

– Pat-pat sendan aylansin! Yuz marta min, ming marta min! Akangga aytaman, haydashni o‘rgatadi. – U hamon meni quchoqlagancha rais buvaga o‘shqirdi. – Bo‘lsangizchi...

– Etik... Sig‘mayapti. – Rais buva paytavani chala o‘rganmi, uvvalo urinadi – qani etigini kiyolsa! Bechora birpasda terlab ketdi. Etik oyog‘ini siqayotgan bo‘lsa kerak, oqsoqlanib darvoza tomon yurgan edi, Oysara yangam ingragudek xitob qildi:

– Qayoqqa? Qanaqa odamsiz o‘zi?

Rais buva alang-jalang bo‘lib to‘xtab qoldi.



– Nima qilay axir? – dedi yig‘lamsirab.

– Bugun o‘rgatadilarmi? – dedim Oysara yangam va‘dasini unutmagan turib tasdiqlatib olish uchun. – Tursunboy akamni chaqiraymi?

Ayvondan sakrab tushishim bilan, Oysara yangam sabzi to‘la paqir ustiga o‘tirib qoldi.

– Sho‘rim qursin! – dedi ingrab. – So‘yadi! Tikka so‘yadi! Rais buva qo‘limdan changalladi.

– O‘chir-e! – dedi rapidadek kafti bilan og‘zimni to‘sib. Negadir qo‘lidan atir hidi kelardi. Nafasim qaytib ketdi. Tipirchilab kaftini qayirib tashladim. Og‘zimni to‘sib turganida ichimga ancha-muncha havo to‘planib qolgan ekanmi, chunonam hayqirdimki, Tulporim ham bunchalik hangramasa kerak.

– Tursunboy aka-a-a!

Kuchim boricha ko‘cha eshik tomon yugurgan edim, Rais buva orqamdan lo‘killab kelib, uy burchagida yetib oldi. Mahkam quchoqlab, qulog‘imga egilganicha shivirladi:

– Yurgin, bu yoqqa yurgin, o‘zing yaxshi bolasan-ku.

– Nega bo‘lmasa og‘zimni to‘sasiz? – dedim jahlim chiqib.

– Bo‘pti, ikkinchi bunaqa qilmayman. Yurgin, jon bolam...

Xohlamayroq orqamga qaytar ekanman, noz qildim:

– Tursunboy akam darvozani ochasan deganlar, kutib turibdilar-da.

Qarasam, Oysara yangam hamon paqir ustida g‘ujanak bo‘lib o‘tiribdi.

– O‘zing katta yigitsan-ku, tutxo‘r, – Rais buva erkalab yelkamga qoqdi. – Pat-patni yaxshi ko‘rasanmi?

– Judayam!

– Shodivoynikiga o‘xshagan velosiped olib beraymi?

– Yo‘q, pat-pat! – dedim qovog‘imni solib.

– Bo‘pti, – Rais buva yana yelkamga qoqdi. – Yangang va‘da berdi-ku, Tursunboy akang pat-pat haydashni o‘rgatadi. O‘zim senga zo‘ridan padarka qilaman.

– Qachon?

– Ketsangiz-chi! – Oysara yangam yig‘lab o‘zining tiz-zasini chimchiladi. – Sho‘rim qursin! Ikkita bolam yetim bo‘lib qoladi endi.

– Nima qilay? – Rais buva goh Oysara yangamga, goh menga qarab tipirchiladi. Tag‘in Oysara yangamga ichim achidi.

– Yuring, – dedim xotirjam iljayib. – Biznikidan chiqib ketasiz.

– Nima? – Rais buva avvaliga hech nimani tushunmadi shekilli, bir zum talmovsirab turdi-da, mahkam quchoqlagancha shapillatib peshonamdan o‘pdi. – Rahmat, tutxo‘r! Yaxshiligingni unutmaysan!

Uzun-qisqa bo‘lib tuynukka bordik. Rais buva ikkilanibroq ariqqa tushdi.

– O‘tavering, sig‘asiz! – dedim bilag‘onlik qilib.

Rais buva emaklab borib tuynukka boshini suqdi. Yyelkasi kirdi-yu, u yog‘i sig‘may qoldi. Nuqul inqillab oyog‘ini tipirlatadi.

– Bo‘lmayapti, – dedi kuchanib. – Itar!

Ikki qo‘llab dumbasidan itaraman, qani kuchim yetsa! Rais buva kuchangan sayin devordan shuvillab tuproq to‘kiladi.

– Voy, o‘laman! – dedi ingrab. – Tort!

Sonidan qo‘shqo‘llab ushlaganча chiranib bir tortgan edim, ariq ichiga yiqilib tushdim. Rais buva yerga cho‘kkalanganча ko‘zimga iltijoli mo‘ltiradi. Bechoraning aftiga qarab bo‘lmaydi: hammayog‘i tuproq.

– Devorga osila qoling, – dedim yangi maslahat berib. – Qo‘rqmang, yiqilmaysiz.

U hansiraganча devorga tirmashdi. Birpasda qora terga tushib ketdi.

– Uyingda kim bor? – dedi devorga minib olib.

– Pat-patni qachon olib berasiz?

– Qachon desang! Kim bor uyda?

– Hech kim. Otam ishda, enam ishda. Ju maktabda. Qo‘rqmang.

– Bilib qo‘y, – Rais buva men tomonga egilib astoydil yig‘lamsiradi. – Men senga otalik qilaman.

Rais buva devordan narigi tomonga o‘zini tashladi. Burilib qarasam, boyadan beri paqir ustida o‘tirgan Oysara yangam ayyonda cho‘zilib yotibdi. Paqir dumalab, sabzilar sochilib ketgan.

Qo‘rqib ketdim. O‘lib qolmasaydi, bechora. Oshxonaga kirib, yog‘loqda suv olib chiqqunimcha ancha vaqt o‘tdi. Hud-behud bo‘lib yotgan yangamning og‘ziga suv tutdim.

– Iching.

Oysara yangam suvdan bir-ikki ho‘pladi.

– Ketdimi? – dedi ingrab.

– Ichavering! Tursunboy akam ham ketib qoptilar.

Oysara yangamning ko‘zi yarq etib ochildi.

– Rostdanmi! – dedi-yu, suvdan mo‘lgina ichib, chuqur uf tortdi. – Xayriyat-ey... – birpas o‘ylab turdi-da, yig‘lamsirab yalindi. – O‘zing esli bolasan-ku, Qo‘shojon. Bu yerda rais buvangni ko‘rganingni...

– Minaveraymi? – dedim pat-patga imo qilib.

– Minaver, jon ukam, minaver. Akangga aytaman, haydashni o‘rgatib qo‘yadi. Har kuni o‘rgatadi.

Pat-patning egariga minayotganimda Oysara yangam ayyonda sochilib yotgan sabzilarni yig‘ishtirishga tushdi.

– Sabzing muncha chiroyli, Qo‘shojon! – dedi ovozi tovlanib. – Mushak sabzi ekan!

Egarga minib oldim-da, pat-patni bibiblataverdim-bibiblataverdim, oxiri signal jonivor mushukdek big‘ilaydigan bo‘lib qoldi.

## Oltinchi bob

### «ZAPOROJES» DAN TUG'ILGAN «VOLGA»

Yettini bitirib ta'tilga chiqishimiz bilan chopiqqa tushdik. Ertalabdan g'ozga chopiq qilaverib, qornim tatalab ketdi. Tulporim tushlik bo'lganini mendan yaxshi biladi. Avval meni izlab maktabga borardi. Endi dalagayam topib kepti. Paykal chetiga kelib bir hangragan edi, bahona topilganiga suyunib, o'sha tomonga yugurdim. Shiyponda salqinlab o'tirgan brigadir:

– Hoy bola, qayoqqa? – degan edi, yo'l-yo'lakay baqirdim:

– Eshagimning jahli yomon, To'lash aka! Bormasam, o'zi yonimga keladi. Bir gektar paxtazorni payhon qilib tashlaydi.

To'lash aka irg'ib o'rnidan turib, chinqirdi:

– Tezroq yo'qot, palakat eshagingni!

Ketmonimni eshagimning gardaniga ko'ndalang qo'yganicha, lip etib minib oldim. Tulporim buyrug'imni kutib o'tirmay, uy tomon yo'rg'aladi.

Ko'chaga kirishim bilan eshigimiz oldida turgan havorang mashinaga ko'zim tushdi. Tog'am kepti-da, deb eshagimni niqtadim. Yaqinroq kelib qaragam, yo'q, «Moskvich» emas, «Zaporojes». Chap eshigi ochiq. Jonajon jo'ram Shodivoy bir oyog'ini tashqari chiqarib, rulni changallab o'tiribdi. Issiqdan ikki yuzi qizarib, tandirdan yangi uzilgan nondek yaltirab turibdi. Meni ko'rib, sevinib ketdi.

– Qayoqda yuribsan? – dedi iljayib. – Boyadan beri kutaman.

– Kim bilan kelding? – dedim eshagimdan tushmay.

– O'zim!

Bundan chiqdi, rais buva va'dasining ustidan chiqib, Shodivoyga «Zaporojes» sovg'a qipti-da!

Rais buva menga va'da qilgan pat-pat esimga tushdi. Oysara yangam-ku, so'zining ustidan chiqdi. Eriga «uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo'shni afzal, Qo'shovoy o'zingizning ukangizday gap, shu bolaning pat-patga ishqiy tushibdi, mindira qoling», deb hol-joniga qo'ymaganidan keyin Tursunboy akam mototsikl haydashni uncha-muncha o'rgatdi. Avval meni lulkaga o'tqazib uchirdi, keyin egarga ming'izib haydatdi. Ammo rais buva pat-pat tugul velosiped ham olib bermadi.

– O'zing haydab keldingmi? – dedim alam qilibroq.

– Bo'lmasa-chi!

Rostini aytsam, g'ayirligim keldi.

– Kim o'zarga o'ynaymizmi? – dedim, Tulporimning jilovini g'olibona siltab.

– Qo'ysang-chi! – Shodivoy mashina rulini changaladi. – Yur, kataysa qildirib kelaman.

Ikkilanibroq eshakdan tushdim.

– Haydashni bilasanmi, o'zi?

– Shu yergacha kim haydab keldi bo'lmasa? – u o'tirgan joyida egilib, o'ng eshikni ochdi. – O'tir! – shunday deb o'ng tomondagi suyanchiqni egdi. – Orqaga o't, yonimda o'tirsang, xalaqit berasan.

– Menam pat-pat minishni bilaman, – dedim maqtanib.

Shodivoy indamadi. Ikkala eshikni qarsillatib yopdi-da, xuddi ming yil shopirlik qilgan taksichilarday ishonch bilan motorni gurillatib yubordi. Xuddi shu payt eshagim ayni men o'tirgan oynaning ro'parasiga tumshug'ini tirab o'kinch aralash hangradi. Xayrlashdi-yov!

Mashina varillaganicha tor ko'chada g'izillab ketdi. Oysara yanganing tuproqqa bag'rini berib yotgan kurk tovug'i qoqoqlab qochdi.

Katta yo'lga chiqishimiz bilan «Zaporojes» o'qdek uchib ketdi. Sanab turdim: oltita telejka, uchta yuk mashinasini quvib o'tdik. Qarasam, mashinaning g'ildiragi yerdan uzilib osmon-falakka uchib ketadigan.

– Shodi, – dedim yelkasiga turtib. – Sekinroq...

– A? – u menga butun gavdasi bilan o‘girilib qaradi. Ko‘zlari ola-kula, rangi o‘chib ketgan. – Nima? – dedi ovozi ingichkalashib.

Ellik qadamcha oldinda sarg‘ish «Volga» ko‘rindi. To‘ppa-to‘g‘ri ustiga bostirib boryapmiz.

– Yo‘lga qara, yo‘lga! – dedim chinqirib.

Shodivoy cho‘zib-cho‘zib signal berdi. Masofa borgan sayin qisqarib borardi.

– Chapga bur, ahmoq! – dedim baqirib.

– Nima? – Shodivoy yana orqasiga o‘girildi. O‘zimni yerga otay desam, eshik yo‘q. Ko‘zimni chirt yumib oldim. Bir mahal qulog‘imga Shodivoyning chiyildoq ovozi kirdi:

– Amaki, «Zaporoj»ni bilasizmi?

Ko‘zimni ochsam, «Volga»ni o‘ng tomondan quvib o‘tyapmiz. Bir zumda «Volga» orqada qolib ketdi.

– Sekinroq! – kuchim boricha Shodivoyning yelkasiga mushtladim. – To‘xtat!

Xuddi shu payt «Volga» bizni quvib o‘tdi. Nazarimda, ming kilometrga bosib o‘tdi-yov, o‘ziam!

– To‘xtat! – dedim jonholatda.

Qayoqda, zum o‘tmay yana «Volga»ga yetib oldik. Peshonadagi oynakdan ko‘rib turibman. Shodivoy ko‘zlari alang-jalang bo‘lib yana bibillatdi. «Volga» chor-nochor tag‘in o‘zini chapga oldi.

– Amakijon! «Zaporoj»ni bilasizmi? – bu safar Shodivoyning ovozi yig‘lamsirab chiqdi.

Bir mahal old tomonda bedasi o‘rib olingan allaqanday keng maydon ko‘rindi. «Zaporojes»imiz qurbaqaday sakray boshladi. Hammayoq daqir-duqur, daqir-duqur qiladi. Boshim paydar-pay mashina shiftiga uriladi. Nazarimda, ichaklarim aralash-quralash bo‘lib ketdi-yov.

– To‘xtat!

Shodivoy yana orqasiga o‘girildi.

– Q-qanaqa... Q-qanaqa q-qilib...

U so‘zini tugatolmadi. Ro‘paramizda bostirmadek uzun-uzun oqish binolar, o‘tlab yurgan ola-bula sigirlar paydo bo‘ldi.

... Bir mahal hushimga kelsam, hammayoq qop-qorong‘i. Negadir dimog‘imga pichan hidi kirdi. Boshimni ushlab ko‘rdim: joyida. Oyog‘imni silab ko‘rdim: butun.

– Shodi! – dedim qo‘rqa-pisa.

Qorong‘ilik ichidan ingichka ovoz keldi:

– Ha-a!

– Tirikmisan!

– Shunaqa shekilli!

– Qayoqqa kepqoldik?

– Bilmayman.

– O‘-o‘-o‘l! – dedim cho‘zib.

G‘ira-shira qorong‘ilikka oxiri ko‘zim ko‘nikdi. Shunda payqadimki, ikkalamiz ham tirikmiz. Mashina ichida o‘tiribmiz.

– Eshikni och! – «Eshshak» – degim keldi-yu, Tulporim eshitib qolsa xafa bo‘lishini o‘yladim. – Eshikni och, ho‘kiz!

Shodivoy o‘tirgan joyida ming‘illadi:

– Ocho olmayapman.

– Qattiqroq itar!

Po‘pisam ta’sir qildi shekilli, avval eshik g‘iyqilladi, keyin shitir-shitir ovoz eshitildi. Shodivoy omon-eson yerga tushib oldi chog‘i nimqorong‘ilik orasidan ming‘irlagan tovush keldi:

– Tushaver, Qo‘sho...

Qiziq, uning ovozi g‘ildirak tagidan eshitilgandek bo‘ldi. Oldingi o‘rindiq suyanchig‘ini pastga bosgan edim, qo‘lim rulga tegib ketdi. Mashina «beep» deb qo‘ydi. Qorong‘ida g‘alati eshitarlarkan.

– Signal chalma, akkumlyatori o‘tirib qoladi, – dedi Shodivoy negadir quv-quv yo‘talib.

E, akkumlyatoring bilan qo‘shmozor bo‘l! O‘zim eshikni topolmay garangman-ku!

Eshikdan tushishim bilan yuzimga xas-xashak urildi. Qaddimni rostlamoqchi edim, ustimdan allaqanday og'ir yuk bosayotganini payqadim. Dimog'imga chang aralash pichan isi kirar, qurib qolgan o't-o'lanlar burnimga tegib aksa urgim kelardi.

– Qayoqdasan? – dedim baqirib.

– Bilmayman, – Shodivoyni yana yo'tal tutdi.

Oxiri allaqanday xashak g'arami orasida yurganimizga aqlim yetdi. Oyoq-qo'limni baravar tipirlatib, o'zimga yo'l ochgancha, emaklab ketdim. Old tomonda nur ko'rindi. Xayriyat, yorug' dunyoga chiqib oldim.

– Kelaver, Shodi! – dedim o'zim yo'l topib chiqqan teshikka engashib.

Shu payt qoq boshim ustida g'o'ldiragan ovoz eshitildi:

– Hov jo'jaxo'roz! Nimaga o'zingdan katta odamni mayna qilasan?

Qarasam, shundoq tepamda kalta yengli ko'ylak, jinsi shim kiygan, qora ko'zoynak taqqan kishi ikki qo'lini beliga tirab turibdi. Bilagining har payi choynakdek keladi. Yuz qadamcha narida, simto'siq ortida boya o'zimiz quvib o'tgan sarg'ish «Volga» qiyshayibroq turib qolgan.

– Amaki... – dedim yalinib. – Menmas...

Pichan g'arami shitir-shitir qildi. Shodivoy qorni yer supurgudek bo'lib emaklab chiqib keldi. Jo'ramning aft-angoriga qarab bo'lmas, a'zoyi badaniga xas-xashak yopishgan, ikki qulog'iga salkam bir qulochdan pichan ilashib qolgan edi.

– Senmi shopir? – qora ko'zoynakli kishi Shodivoyning ustiga bostirib bordi. – Nega odamni mayna qilasan? «Zaporojes»ni ko'rib qo'y demoqchimisan?

Shodivoy yumronqoziqday tisarilib teshikka qaytib kirib ketdi. Sekin boshini chiqarib mo'raladi.

– Amaki... – dedi-yu, kctma-ket olti marta aksa urdi. – Men... Ap-shu! «Zaporojes»ni... Ap-shu, tormozi... Ap-



shu... Tormozi qayoqda bo'ladi demoqchiydim, – u gapining yakuniga yana bir marta aksa urib qo'ydi.

Qora ko'zoynakli kishining insofga kelish o'rniga battar jahli chiqib ketdi.

– Chiq buyoqqa! – dedi-da, bir chang solib Shodivoyni qo'ltig'idan tortib chiqardi. O'rtog'im bechora xuddi qassobning qo'lga tushgan biqqigina quyondek osildi-qoldi. Nuqul pitir-pitir qiladi. Qarasam, «qora ko'zoynak»ning vajohati yomon. Qochib qolay desam, jo'ramni ko'zim qiymaydi.

– Men nima qildim? – dedi Shodivoy battar tipirchilab.

– Nima qildi-im? – ko'zoynakli kishining afti alamdanda qiyshayib ketdi. – Seni quvaman deb, resordan ayrildim. To'lab ber mashinani!

Xuddi shu payt bostirmaga o'xshash oq binodan bir kishi otilib chiqib, biz tomonga yugurib kelayotganini ko'rdim. Oyog'ida rais buva kiyib yuradiganiga o'xshash jigarrang etik, qo'lida panshaxa! Panshaxasi oftobda shunaqangi yaltiraydiki, qorningga sanchilsa bormi, kuragingdan teshib chiqadi. Xuddi kabobni sixga tortgandek! Baqirib yubordim.

– Qoch, Shodi!

– Qayoqqa? – qora ko'zoynakli kishi bir qo'lida Shodivoyni changallab turganicha ikkinchi qo'li bilan chovut solib, mening ham bilagimdan ushlab oldi. Shunaqangi qisdiki, suyaklarim qisirlab ketdi. O'rtog'im bechora boyadan beri tipirchilayotgani bejiz emas ekan-da.

– Ressorning haqini cho'z! – «Qora ko'zoynak» ikkalamizni baravar silkita boshladi.

Shu orada panshaxa ko'targan kishi ham yetib keldi. Panshaxasini negadir mening qorningga tiradi.

– Nima qilding'? – dedi o'shqirib. – Iskirdni nima qilding', uying' kuyg'ur! Bo'linmas fond edi-qu, bu g'aram! Siyirlarni nima qilding'? Bo'vozlari bola taylab qo'ysa kim javob beradi? – u panshaxani qorningga qattiqroq tiradi. Qochay desam, «Qora ko'zoynak» changallab turibdi.

Panshaxa qornimga botishi bilan qitig'im kelib, hiringlab kulib yubordim. Panshaxali kishining jayra nayzasidek yakkam-dukam mo'ylovi dikkayib ketdi. Panshaxani qorninga yanayam qattiqroq botira boshlagan edi. Shodivoyning yig'lamsiragan ovozi eshitildi:

– Unaqa qilmang, Ferma tog'a!

«Ferma tog'a» men bilan andarmon bo'lib Shodivoyning payqamay qolgan ekanmi, yalt etib o'girildi-yu, to'satdan yuzi yorishdi. Nazarimda dikkaygan mo'ylovi ham shalpayib qolgandek bo'ldi.

– Iya, polvon! – dedi iljayib. Qo'lidan panshaxa tushib ketdi. – Xush ko'rdaq, polvon, xush ko'rdaq! – ammo o'sha zahoti qiyiq ko'zlarida tag'in o't chaqnadi. Siyrak mo'ylovi qaytadan tippa-tik bo'lib ketdi. Yerdan yotgan panshaxani olib tahdidli silkitdi.

– Jubor! – dedi hayqirib. Panshaxani «Qora ko'zoynak»ning qorniga tiradi. – Qo'yib jubor!

«Qora ko'zoynak» hamon bizni changallaganicha orqaga chekina boshladi.

– Qo'yanma-jo'qma?

– Qanaqa odamsiz o'zi? – «Qora ko'zoynak» qo'lini bo'shatdi. Shodivoy u yoqqa, men bu yoqqa qochib, har ehtimolga qarshi o'n qadamcha nariga borib oldik. – Ressorim...

– Jo'ling'dan qolma! – «Ferma tog'a» panshaxani bir silkitgan edi «Qora ko'zoynak» it quvgan soqovdek simto'siq tomonga qochdi. O'ziyam shunaqangi tez yugurdiki, agar «Paxtakor»ning o'yinchilari shunaqa chopsa, raqib darvozasiga bir minutda beshta golni bemalol urgan bo'lardi! Zum o'tmay sarg'ishtob «Volga»ning eshigi ochilib-yopildi. Mashina bedasi o'rib olingan maydondan beshiktebratardek chayqalib-chayqalib yurib ketdi.

– Obbo, polvon-ey! – «Ferma tog'a» Shodivoyning yelkasiga qoqdi. – Sho'xliq qibjatibman, deng'! Ammo siyirlarni qo'rqitib jubording'iz-da, polvon!

Qarasam, besh-oltita sigir olisdagi bino panasida to‘dashib turibdi. Bittasi, haliyam es-hushi joyiga kelmagan shekilli, dumini xoda qilib, u yoqdan-bu yoqqa shataloq otadi. Kirroq oq xalat kiygan xotin sigir ketidan quvyapti. Bir tomonda to‘ppa uyumi, boshqa tomonda go‘ng uyumi tog‘dek savlat to‘kib turibdi.

Shuni angladimki, bizning azamat «Zaporojes» simto‘siqni qahramonona yanchib o‘tib, o‘zini fermaga urgan ekan. Hovli o‘rtasidagi pichan g‘aramiga chunonam kalla qiptiki, u tomonidan kirib, bu tomonidan chiqib ketmaganiga hayronman. Hatto iziyam qolmabdi. G‘aram avval qanday turgan bo‘lsa, hozir ham xuddi shunday. Simsim eshigi qayta yopilib qolganga o‘xshaydi. Yaxshiyam, «Ferma tog‘a» Shodivoyni tanib qolgani, bo‘lmasa ikkalamiz panshaxaga tortilib, shashlik bo‘larmidik.

– Juring‘izlar, jigitter. Shay ichabiz. Ko‘k shay, – «Ferma tog‘a» bir gapirib, o‘n kulib bizni aziz mehmondek oq bino tomonga endi yetaklagan edi, hovlining narigi burchagidagi darvozada «Niva» mashinasi ko‘rindi.

Shodivoy avval to‘xtab qoldi, keyin bir qadam orqaga tisarildi, undan keyin ikki qadam... Ana undan keyin mashinamiz kalla urgan pichan g‘arami tomonga tiraqaylab qochdi. O‘lganning ketidan shayid, deb men ham orqasidan chopdim. Yo‘l-yo‘lakay «Ferma tog‘a»ning quvonchli xitobi qulog‘imga chalindi.

– Iya, Rais bova-qu!

Shodivoy nega qochganini endi tushundim. Dadasidan qo‘rqyapti. Halloslab xirmon orqasiga o‘tsam, xirmonning bir burchagida o‘rtog‘im g‘ujanak bo‘lib o‘tiribdi. Shundoq semiz jo‘rajonimning gavdasi ingichka tortib ketgandek. Yoniga kelib o‘tirishim bilan «jim» deb imo qildi.

Aksiga olgandek, motor tovushi guvullab pichan xirmoniga yaqinlashib kelardi. O‘ziyam xirmonning narigi tomoniga tumshug‘ini tirab to‘xtadi-yov. Eshik qarsilladi. «Ferma tog‘a»ning ovozi tovlanib chiqdi.

– Xush koʻrdiq, rais bova, assalom alayke-e-em!

– Qalaysan, Musayip?

Shodivoy dadasining ovozi tanib, rangi oʻchib ketdi. Shitir-shitir qilib orqasi bilan xirmon ichiga kirishga urindi.

– Jotibmiz, rais bova!

– Sen shunaqa yotishni bilasan. – Birpas jimlik choʻkdi.

Keyin yana Rais buvaning ovozi eshitildi. – Ertaga kamissiya keladi.

– Kelsa jaxsi.

– Yaxshi-ya, yaxshi! Bu galgisi anoyi emas. Oblastdan keladi.

– Jaxsi!

– Yana yaxshi deydi-ya! Fermangga qara! Axlatxonaga aylanib ketibdi-ku!

– Maʼqul, rais bova, tozalaybiz.

– Tozalaysan... Menga qara, Musayip, goʻsht planini qancha deb yozgansan?

– Juz oʻttiz poiz! Yanvarda doʻndirgʻanmiz.

– Isparapkalar joyidami?

– Joyida, rais bova.

– Sut-chi?

– Har siyirdan ikki mingʻ uch juz kilo.

– Qogʻozi bormi?

– Bor, rais bova!

Yana jimlik choʻkdi. Oʻrnimdan turmoqchi edim, Shodivoy qoʻlimdan siltab tortdi. Doʻmboqqina mushtini doʻlaytirdi. Xirmon orqasidan tagʻin Rais buvaning ovozi keldi:

– Musayip! Bu – qoʻzilatishni qanaqa deb yozuvding?

– Juz sovliqdan juz jetmish jetti.

– Jetmish-petmish demasdan, ikki yuz qilib qoʻyaqol-sang oʻlasanmi?

– Oʻzi tuvgʻani juz oʻnta, Rais bova!

– Nima? – Rais buvaning ovozi jaranglab ketdi. – Vistavkaga borishni bilasan. Medal olib, majlislarning

to'rida o'tirishni bilasan. Bu yog'iniyam to'g'rilab qo'y-da. Tug'masa tug'dir! Yetmasa o'zingnikini qo'sh!

– Ma'qul, Rais bova, tuvdirabiz.

Shu gapdan keyin Rais buva mashinasiga o'tirib jo'nab qoladi, deb o'ylagandim. Yo'q, motor gurillamadi. Qaytaga, Rais buvaning ovozi yanayam tajang chiqdi:

– Mana bu ro'daponi qachon yo'qotasan?

– Kamissiya ko'rsa jaxshi-qu, Rais bova. Bir jilda ikki jilliq jem-xashak...

– Sen kamissiyani o'zingga o'xshagan ahmoq deb o'ylaysanmi? To'rt yildan beri shu xashakni ro'kach qilasan!

Gurs-gurs qadamlar g'aramni aylanib o'ta boshladi. Shodivoy ikkalamiz pichan ichiga o'rmalab kirib ketishni ham, qochib qolishni ham bilmay turgan edik, g'aram boshida Rais buva, uning ketidan chopqillab kelayotgan «Ferma tog'a» ko'rindi. Rais buvaning egnida doim kiyib yuradigan kulrang kitel-shim, boshida do'ppisi qiyshayibroq turardi.

– Anovilar nega dumalab yotibdi ish paytida? – Rais buva avvaliga bizni tanimadi shekilli, qo'lini paxsa qildi. – Uxlab yotibsanlarmi?

«Ferma tog'a» negadir iljayib qo'ydi, Rais buva taqqa to'xtab qoldi.

– Iya? – dedi goh bizga, goh «Ferma tog'a»ga yuzlanib. – Nima qilib yuribdi bular, Musayip?

O'rtog'im ikkalamiz o'rnimizdan turib, egnimizga yopishgan xas-xashakni tozalagan bo'ldik. Shodivoy miq etmay turgani uchun o'rniga men javob qilib qo'ya qoldim.

– Shunday, o'zimiz...

Rais buva labining bir burchi bilan jilmaydi.

– Senam jo'rang bilan keldingmi, tutxo'r?

Pat-patni esiga solgim keldi-yu, qo'rqdim.

– Ha... – dedim ming'irlab.

Shu... «Ferma tog'a» ham g'irt jinni ekan-da! Jim turaqolsa-ku, olam guliston edi.

– Rais bova, – dedi iljayib. – Polvon bir sho‘xliq qip-ti-da.

– Nima? – Rais buva birdan jiddiy tortdi.

– Moshin minib...

– Qanaqa moshin?

– Jaxsi dsemqu... Rangi ko‘kintir-ov. Tuvrimi, polvon?

– «Zaporojes»mi? – Rais buvaning ko‘zi olazarak bo‘lib ketdi. – Minuvdingmi? Qani, moshin?

«Ferma tog‘a» mo‘ylovini uchirib, g‘aramga imo qildi.

– Iskirda, Rais bova.

Rais buva og‘ir-og‘ir kiprik qoqdi. Tez-tez yurib, butun g‘aramni aylanib chiqdi.

– Qani? – dedi Shodivoyning tepasiga kelib.

Shodivoy hiqillab yig‘lab yubordi.

– Ichida, – dedi burnini tortib.

– Nimaning ichida? – dedi Rais buva tajang ovozda. – Qandoq qilib kirdi?

– Jigit-da, jigit! – «Ferma tog‘a» Rais buvani yupatdi, – ming‘isi kelg‘an.

– Qamchibek! – Rais buva kaftini karnay qilib baqirdi. Zum o‘tmay Rais buvaning koptokdek dum-dumaloq shopiri chopib keldi.

– Sim top! – dedi Rais buva shopirga. – Uzunroq!

Bir ozdan keyin shopir uzunligi yigirma quloch keladigan yo‘g‘on simning bir uchidan sudrab keldi. Rais buva «kir» degandek imo qildi. Ammo shopir g‘aramning qayog‘idan kirishni bilmay, mitti ko‘zlarini javdiratdi.

– Menga bering! – dedim simga qo‘l cho‘zib. – Siz topolmaysiz.

Simning ilgak qilingan uchini changallagancha emaklab, boya o‘zimiz chiqqan teshikka kirib ketdim. Hali unchalik sezmagan ekanman: g‘aram orasi o‘lgudek issiq ekan. Buyam kamlik qilgandek pichan bosilib yotaverib, dimiqib ketganmi, achimsiq hid dimog‘imni yoray deydi. Birpasda nafasim qaytib, terlab ketdim.

To mashinaga yetib olguncha bir kun emaklagandek bo'ldim-ov. Nihoyat, qo'lim mashinaning temiriga urildi. Qorong'ida sim ulaydigan joyini topib bo'lsa ekan?! Yo'q, oxiri topdim shekilli. Zo'rmiz-da, o'zimiz ham! Yo'g'on sim qo'llarimni qayirib yuborganiga qaramay, ilgakni chandilab mahkamladim.

Yana emaklab yorug' dunyoga chiqqanimda Shodivoy bir chekkada shumshayib turardi.

– Ahmoq! – dedi Rais buva yasamaroq dag'dag'a qilib. – Jo'rangga o'xshab uquvli bo'lsang o'lasanmi?! Qara, Qo'shoqvoy qandoq aqli bola! Sen nuqul buzishni bilasan. Qani, Qamchibek, obke mashinangni.

Shopir xirmon orqasiga yugurdi. «Niva»ni gurillatib kelib, xirmonga ro'para qildi. Kabinadan chaqqon sakrab tushib, simning bir uchini «Niva» ilgagiga bog'ladi.

– Tort! – dedi Rais buva qo'l siltab.

«Niva» chiranib tisarildi. Sim tarang tortilib, g'aram ustidan palaxsa-palaxsa pichan ko'chib tusha boshladi.

– Qoch, hammang! – Rais buva tag'in qo'l siltab buyruq berdi. – Nari turinglar!

«Niva» devdek o'kirar, sim rubobning toridek tarang tortilib ketgan, ammo «Zaporojes»dan darak yo'q edi. Nihoyat, xirmon tagidan qaldir-quldur, qaldir-quldur, degan ovoz keldi. Qarasam, negadir «Ferma tog'a»ning har mo'ylovi nayzadek tippa-tik bo'lib ketyapti. Bir mahal xirmon orasidan oppoq bir narsa chiqib kela boshladi. Tushimmi-o'ngimmi? Shodivoyning «Zaporojes»i havorang edi-ku! «Niva» yana bir g'ayrat qilgan edi, yap-yangi, oppoq «Volga» yerga yonboshlagan cha yorug' dunyoga chiqib keldi. Obbo! Qorong'ida simni eshik tutqichiga bog'labman-da. Bunisiyam mayli-ku, Shodivoyning mashinasi havorangligini bilaman, «Zaporojes»ligini bilaman, bunisi oq-ku, «Volga»ku!

O'ng tomonimda g'alati ovoz eshitilgandek bo'ldi. Tal-movsirab o'girilsam, «Ferma tog'a» jo'xori tiqilgan xo'-

rozdek bo'ynini cho'zib, «g'iyq» deb qo'ydi. Keyin qiyiq ko'zlarini chirt yumib oldi-da, dikkeygan mo'ylovini changallab, tag'in ikki marta «g'iyq», «g'iyq» qildi.

– Nima bu? – Rais buvaning hokimona xitobidan cho'chib tushdim.

– Sendan so'rayapman, Musayip?

«Ferma tog'a» avval bitta ko'zini ochdi, keyin ikkinchisini... Keyin bir yo'la og'zini ham ochib qo'ya qoldi. «Niva»ning shopiri esankirab qoldimi, tormoz berish o'rniga gazni bosib yubordi shekilli, motor bir varangladi-yu, «ding'» etgan ovoz eshitildi. Tarang sim qoq o'rtasidan uzilib ketdi. Boyadan beri yonboshlab yerga sudralib kelayotgan «Volga» bir silkindi-da, oyog'i osmondan bo'lib ag'darildi. Oynalari chil-chil sindi. Tomi pachaqlanib, yalpayib qoldi. Mashina to'ntarilib yotsa, g'alati bo'larkan. Xuddi oyog'i osmondan bo'lib qolgan qo'ng'izdek.

– Hov, Musayip? – Rais buva «Ferma tog'a» ga chaqchaydi. – Nima bu?

«Ferma tog'a» juda g'alati iljaydi.

– Moshin...

– Moshinligini ko'rib turibman, kimniki?

– Sizdiqi! – dedi «Ferma tog'a» pinagini buzmay.

– Meniki «Zaporoj»ku, – dedi Rais buva xunob bo'lib. «Ferma tog'a» yana iljaydi.

– Tuvibdi-da.

– Nima?

– «Zaporoj»ing'iz bo'voz ekan, «Volga» tuvib berdi, Rais bova. Qutti bo'lsin!

Rais buva nima deyishini bilmay qoldi.

– Bultur «Moskvich» olib beruvdim-ku, bitta mashina kamlik qildimi, nokas! – dedi qo'lini paxsa qilib.

«Ferma tog'a» yalpayib yotgan mashinaga tikilganча, tovuqning oyog'iga o'xshagan bo'ynini cho'zib tag'in bir marta «g'iyq» deb qo'ydi.

– Sizdiqi, – dedi yana. – Qutti bo'lsin.



– E, o‘l-a! – Rais buva negadir hiqillab kulib yubordi. – Moshin sigirmidi, tug‘adigan?

– Tuvadi! – «Ferma tog‘a»ning mo‘ylovi uchib qo‘ydi. Faqat bu safar xomushroq, ma‘yusroq uchdi. – Tuvmasa tuvdirabiz.

– Bo‘pti, moshinning bolasini senga berdim. Yur, buyoqqa.

«Ferma tog‘a» farzandi o‘lgan odamdek pachoq «Volga»ga oxirgi marta qarab qo‘ydi-yu, chor-nochor Rais buvaga ergashdi.

– Obtush! – dedi Rais buva baqirib! Shopir yigit «Niva» ichidan magazinlarda konfet solinadigan yashikka o‘xshagan karton qutini olib tushdi. Quti og‘irroq shekilli, ikki bukilganча pishillab ko‘tarib keldi-da, «Ferma tog‘a»ning oyog‘i ostiga qo‘ydi. Ichida bir nima shiqirladi.

– Nima bul? – dedi «Ferma tog‘a» qovoq-tumshug‘i osilib.

– Atir! – Rais buva qoshini chimirdi. – Ertalab har bir sigirning ustiga sepasan. Kamissiya kelganda atir hidi anqib tursin.

– Rais bova, – dedi «Ferma tog‘a» mo‘ylovini qashlab, – burnovi jili «Shipr» sepqanda uying kuyg‘ur siyirlar bir-birovini jalag‘an shig‘armi, ush kung‘asha tappidan atir isi kelib jatti.

– Nima, tappidan atir isi kelmay, sendan kelsinmi! – Rais buva bizga yuzlandi. – Senlar buyoqqa yur.

Shodivoy ikkalamiz «Niva»ning orqasiga o‘tirdik. Rais buva shopirning yoniga.

– Musayip! – dedi Rais buva mashina o‘rnidan jilganda. – Eshitib qo‘y, hammayoq chista bo‘lsin. Isparapkalar bexato bo‘lsin. – Keyin iljayib qo‘shib qo‘ydi. – Skirdni ochib, «Zaporoj»ni biznikiga oborib qo‘y... Xafa bo‘lma, yanagi yil yuz sovliqdan ikki yuztadan qo‘zi olsang, o‘zim «Volga» padarka qilaman.

## Yettinchi bob

### SIMLI ATLAS

Rais buva «Ferma tog'a»ga yangi «Volga» sovg'a qiladimi-yo'qmi unisini bilmayman-u, men pat-patdan allaqachon umidimni uzib qo'yanman.

Avvallari Tursunboy akamning mototsikliga minishimga jon-jon, deb rozi bo'ladigan Oysara yangam ham to'satdan aynadi-qoldi.

Bir kuni kechqurun pat-pat minish ilinjida uylariga kirsam, er-xotinning janjali ustidan chiqib qoldim. Hovli o'rtasida o'ntacha paxta gulli piyola, ikkita choynak, sopol lagan chil-chil bo'lib yotibdi. Ayvonda Oysara yangam sochi paxmayib yig'lab o'tiribdi. Chap yuzi momataloq bo'lib ketgan. Tursunboy akam olma tagida turgancha qo'lini paxsa qilib, allakimni bo'ralab so'kyapti. Yuzi tirnalgan.

Angrayib qopman. Sekingina juftakni rostlab qolmoqchi edim, birdan Tursunboy akamning ko'zi menga tushdi.

– Ha, Qo'shovoy, pat-pat minging kelyaptimi? – dedi so'kishdan to'xtab. Hatto, g'alatiroq iljayib ham qo'ydi. – Juda yaxshi-da, ukam! – u tirnalgan yuzini kafti bilan siladi. – Mana kalit, minaqol! – dedi cho'ntagiga qo'l suqib.

Ayvonda xun-xun yig'lab o'tirgan Oysara yangam hamma gapni eshitib turgan ekan. Uchib hovliga tushdi.

– Belingiz og'rib topibsizmi, pat-patni! – dedi chinqirib. – Bu yoqqa bering kalitni!

– Ha-a! Joning achidimi? Bundan chiqdi... Sening beling og'rigan ekan-da! – Tursunboy aka alang-jalang bo'lib qoldi. – Hozir! – dedi hayqirib. – Hozir dabdala qilaman!

U yugurib borib tandir tagida yotgan teshani yulqib oldi. Oysara yangam dod solib teshaning bandiga yopishdi. Tursunboy aka u yoqqa tortadi. Oysara yangam bu yoqqa. Uy ichidan kalta ko'ylak kiygan qizaloq bilan oyoqyalang bolacha chiqib, chirqillab ularga yopishishdi.

Vaqt g'animatda oyoqni qo'lga olib ko'chaga zing'illadim...

... O'shandan beri Tulporimni minib tinchgina yurgandim... U yog'ini so'rasangiz, bu yil o'ninchini bitiramiz. Davlat imtihoniga tayyorlanish kerak. O'zim bilan o'zim ovora bo'lib, aravamni tortib yursam, bugun Rais buva yana eski va'dasini esimga soldi. Yo'q, undan ham kattaroq va'da berib yubordi.

Papkamni salanglatib ko'chaga chiqsam, eshigimiz oldida «Niva» turibdi. Darrov tanidim: Rais buvaning mashinasi. Rais buva biznikida nima qiladi? Otam ishda, onam bilan singlim dalada. Bundan chiqdi mashina to'xtab qolgan bo'lsa, Qamchibek aka tagini kavlashtirib yotgandir-da.

Shu xayol bilan yaqin borsam, rulda Rais buvaning o'zi o'tiribdi. Meni ko'rib, eshikni ochdi-da, yerga chaqqon sakrab tushdi.

– Nega chopiqqa chiqmading? – dedi to'satdan.

Esankirab qoldim. Hayronman, dovdirab qolganimda miyam qarsillab ishlab ketadi.

– Uch kundan keyin imtihon, Rais buva! – dedim tantana bilan. – Shodivoy ikkalamiz yozmadan tayyorlanmoqchi edik.

Rais buva alang-jalang bo'lib, bizning eshik tomonga qaradi.

– Shodi senikidami? – dedi ovozi pasaytirib.

– Yo'q. Men sizlarnikiga bormoqchi edim.

– Malades! – Rais buva erkalab yelkamga qoqdi. – To'g'ri o'ylibsizlar. Davlat imtihoniga yaxshi tayyorlanish kerak. – U bir zum jimib qoldi-da, qo'shnimizning darvozasiga zimdan qarab qo'ydi. – U yoqda kim bor?

– Bilmadim, – dedim rostini aytib.

Rais buva tag'in yelkamga qoqdi.

– Bo'yingni qara! – dedi iljayib. – Obbo, tutxo'r-ey! Mendan ham o'sib ketibsanku. Ovozing ham do'rillab qopti. Otangga aytaman, uylantirib qo'yadi.

Labim o'zidan-o'zi bir tomonga qiyshayib iljaya boshlagan edim, Rais buva birdan jiddiy tortdi. Hatto qovog'iyam osilib ketdi.

– Menga qara, tutxo'r! – dedi xo'mrayib. – Oysara yangang anchadan beri ishga chiqmayapti. Kasal bo'pqopti. Mana shu kitobni obkirib berasan. – U mashina eshigini ochib, o'rindiq ustida yotgan gazetaga o'roqliq kitobni oldi. – Ma! Rais buva kitobingizni berib yubordilar. Ertadan boshlab ishga chiqarkansiz, Rais buvaning yana kitob o'qigilari kepti, degin, uqdingmi? – u kitobni qo'linga tutqazdi. – Yugur! Shoshma, papkangni tashlab ketaver.

Qarasam, gazetaga o'roqliq narsa – yumshoq. Tursunboy akamning uyidagi urush-janjalni eslab, g'ashim keldi. Ustiga-ustak, Rais buva va'da qilgan pat-patdan hamon darak yo'q.

– Tursunboy akamga bersam ham, maylimi? – dedim iljayib.

Rais buva mendan ham yoyilibroq iljaydi.

– Tursunboy akang dalada. Oysaraning o'z qo'liga ber! Bo'l tez!

Og'rini broq hovliga kirsam, Oysara yangam ayvonda xamir qorib o'tirgan ekan. Meni ko'rib, qayrilib ham qaramadi.

– Manavi kitobni Rais buva berib yubordilar, dedim g'o'ldirab. – O'zlari ko'chada mashinada o'tiribdilar. Tez-roq ishga chiqib yana kitob berarkansiz.

– Nima? – Oysara yangam dik etib o'rnidan turdi-da, ayvon labiga keldi. Xamir yuqi qo'li bilan gazeta qatini ochgan edi, lovillab turgan atlasning bir uchi yergacha cho'zilib tushdi. Og'zim lang ochilib qoldi. Axir bu yaltiroq sim atlas-ku! Enam necha marta otamga: «Movjuning to'yiga aqalli bir jo'ra «sim atlas» olib qo'ymasak, uyat bo'ladi», – degan. Otam, bir jo'ra «sim atlas»ing chay-qovda falon so'm turadi, qayoqdan olaman, deb to'ng'ilagan.

Qarang, Oysara yangam shunday narsaning qadriga etmadi-ya! Xamir yuqi qo‘li bilan atlasni shart-shurt gazetaga qaytadan o‘radi-da, qo‘limga tutqazdi.

– Rais buvangga ayt! – dedi labi titrab. – O‘qiydigan kitobi ko‘payib ketgan! O‘shalarni o‘qiyversin, xo‘pmi?

Gursillab yurib, joyiga borib cho‘nqaydi-da, xamir emas, Rais buvaning boshiga urayotganday xamirni shiddat bilan mushtlay ketdi.

Menga nima! «Kitob»ni qo‘ltig‘imga qistirib ko‘chaga chiqsam, «Niva» joyida yo‘q. Yo‘l chetida papkam yonboshlab yotibdi. Endi o‘sha tomonga yurgan edim, orqa tomondan dag‘dag‘ali ovoz keldi.

– Shoshma, Qo‘sho! Anavi nima?

Qayrilib qarasam, o‘n qadamcha narida Tursunboy akam qovog‘ini solib turibdi. Boshida uniqib ketgan eski do‘ppi. Ko‘ylak-shimi bir enlik chang.

Dovdirab qoldim.

– Atlas, – dedim tilim tutilib.

Uning rangi quv o‘chib ketdi.

– Qanaqa atlas?

Battar esankirab qoldim.

– Geografiya atlas, Tursunboy aka, – dedim ming‘ilab. – Tarix atlas... Imtihonga...

– Bo‘pti, ketaver... – u tishlarini g‘ijirlatganicha uyiga kirib ketdi.

Rais buvaning «Niva»si ikki ko‘cha narida turgan ekan. Eshikni ochib, imlab chaqirdi.

– Bo‘ldimi, tutxo‘r? – dedi mashinadan tushib.

– Mang! – gazetaga o‘rog‘liq atlasni qo‘liga tutqazdim.

Rais buva ko‘zimga xavotirlanib qaradi.

– Nima bo‘ldi?

– Boshqa kitoblarni o‘qirkansiz!

U atlasni shosha-pisha o‘rindiqaqqa tashladi.

– Tursunboy seni ko‘rmadimi?

– Ko‘rdi.

- Nima dedi?
- Qo‘lingdagi nima, deb so‘radi.
- Sen nima deding?
- Atlas, dedim.
- A?! – Rais buvaning ko‘zi olayib ketdi. – Atlasligini qayoqdan bilding, ahmoq!
- Iye, nega menga o‘shqiradi bu!
- Oysara yangam ochib ko‘rdi! – dedim baqirib. – Sim atlas ekan. Chiyali bozorda sotiladigan atlas ekan! Ammo-lekin olmadi!
- Bo‘ldi, tutxo‘r, bo‘ldi, – u peshonamni silamoqchi edi, boshimni orqaga tortdim.
- O‘zi olmasa men nima qilay?
- Ajab qibsan, xo‘p qibsan, olmasa sadqayi sar! Tursunboy seni ko‘rmadimi, axir?!
- Ko‘rdi deyapman-ku!
- Qayerda?
- Ko‘chaga chiqqanimda.
- Rais buvaning rangi gezarib ketdi.
- Rostdan-a?!
- Nega ishonmaysiz! – xunob bo‘lib bir baqirgan edim, Rais buva quchoqlab oldi.
- Ishonaman, tutxo‘r, sen yaxshi bolasan, keyin nima dedi?
- Kim? – dedim qovog‘imni solib.
- Tursunboy.
- Qo‘lingdagi nima, dedi, deyapman-ku?
- Rais buva shilq etib, mashinaga suyanib qoldi.
- Qanaqa atlas, deb so‘ragandir? – dedi ovozi titrab.
- So‘radi.
- Sen nima deding?
- Sim atlas dedim!
- Kim berdi, dedimi? – Rais buva og‘ir-og‘ir kiprik qoqib ingradi. – Sen nima deding? Rais bova, demadingmi, axir?..

Qarasam, Rais buvaning ahvoli chatoq. Yupatgim keldi.

– Indamay ketaverdim! – dedim tantana bilan.

– Malades! – Rais buva birdan jonlandi. – Endi bunday qilamiz, tutxo‘r. Agar Tursunboy yana so‘rab qolsa, onam atlas olib kelgan ekan, qimmatlik qipti, shuning uchun yangamga olib chiqqan edim, deysan. Uqdingmi?

Qo‘rqib ketdim. Otam bu gaplarni eshitsa, terimga somon tiqadi. Onam ham sog‘ qo‘ymaydi.

– Tursunboy akam enamdan so‘rab qolsa-chi? – dedim to‘ng‘illab.

– So‘ramaydi! – Rais buva mamnun jilmaydi. – Bu yog‘ini Oysara yangangning o‘zi tinchitadi. Tursunboyni shunaqangi buraydiki, hech kimga og‘iz ochmaydigan qilib qo‘yadi. Sen bir-ikki oy jim yursang, bas. Tushundingmi?

Indamay burilib ketayotgan edim. Rais buva chaqirib qoldi:

– Shoshma, o‘v! Hali Shodi bilan dars qilaman degan eding-ku! O‘tir!

U mashinaga chaqqon minib, o‘ng eshikni ochdi.

– Min, – dedi mehri tovlanib. Anchagacha jim ketdik. O‘shshayib o‘tirganimdan xavotirga tushdi, shekilli, idora yonidan o‘tayotganimizda to‘satdan gapirib qoldi. – Sen malades bolasan, tutxo‘r! Hov birda pat-pat olib beraman degandim. Men bir so‘zli odamman. Payti kelib, albatta, olib beraman. Ungacha bir ish qilamiz. – U menga qarab, ko‘z qisib qo‘ydi. – Jo‘rang, Qo‘sho Toshkentga bormasa, men ham institutga kirmayman, deyapti. Ikkalangni bitta institutga joylab qo‘yaman. Toshkentda bizning jo‘ralar ko‘p, bildingmi? Bu yog‘idan xotirjam bo‘laver, tutxo‘r. Institutga kirding hisob!

## Sakkizinchi bob

### «KAMPIR QONUNI»

Adabiyot yozma-og'zakisidan-ku, amallab o'tib oldim. Judayam «besh» bo'lmasa ham, uch-uch yarim degandek. Lekin bu yoqda hali fizika turibdi. Eng yomon ko'rgan fanim – fizika! Adabiyotni yaxshi ko'rishimning ham, fizikani yomon ko'rishimning ham sababi bor. Adabiyot o'qituvchimiz yaxshi odam. Bechoraning to'qqizta qizi bor. O'qituvchimiz har gal endi o'g'il ko'raman, deb harakat qilavergan, xotini paydar-pay qiz tug'avergan... O'g'li yo'qligi uchun ham adabiyot muallimimiz bilan qarddon bo'lib qolganmiz: rahmim keladi. O't yulganimda Tulporimga ikki bog'ginasini ortib, uyiga oborib tashlayman. Tomorqasida jo'xori uzsa qarashvoraman. Yettinchi sinfdan buyog'iga kuzda har kuni ataylab eshigining oldidan o'taman. Baribir ko'mir olib keladi-ku! G'izillatib tashib beraman. Shuning uchunmi, o'zim adabiyotdan zo'rmanmi, xullas, shu o'qituvchim meni yaxshi ko'radi. Judayam «besh» qo'ymaydi-yu (beshni Shodivoyga qo'yadi), har qalay, mendan «to'rt»ni ayamaydi. Mana, davlat imtihonida ham yozmadan «uch», og'zakidan «to'rt» oldim.

Fizika o'qituvchimiz – yomon! Usmon Qilichev desa boshqa ma'limlar u yoqda tursin, direktorimizning o'zi ham tipirchilab qoladi. Usmon aka urushda bo'lgan: chap qo'li yo'q. Lekin, qo'li bitta bo'lsayam, bizlarni shunaqa ushlaydiki...

Usmon akadan «besh» oladiganing boshi o'nta. Hammani «ikki» bilan siylaydi. Yo'q, oshirib yubordim-ov! Bultur singlim Ju boshqa fanlardan «to'rt» olsa ham, xuddi shu Usmon aka «besh» qo'ygan. Choraklariga ham, yilligiga ham, hatto imtihonda ham.

Esimda, erta yozda shu ma'lim biznikiga kelgan edi.



«Salimjon, jo'ra, qizingizdan malakali mutaxassis chiqishi mumkin, politexnika institutining ASU fakultetiga yuboring», – deganida dadam negadir uzoq o'ylanib qolgan, bilaman, ma'lim, nima qilay, mening ortiqcha jamg'armam yo'q-da, deb qo'ya qolgan edi. Usmon aka, sizdaqa frontovik odamdan shunaqa gap chiqsa, deb yakkayu yagona qo'lini jahl bilan siltaganida onam o'rtaga tushgan edi: «Qiz bolaga institutni kim qo'yibdi, shaharga borsa aynab ketadi». Ju bechora o'shanda rosa yig'lagandi.

Gap bundayam emas... Jonajon o'rtog'im Shodivoyni butun maktab, hatto rayono ham oltin medalga tayyorlayotgan ekan. To'qqizinchi sinfdan shu – Usmon aka fizikadan dars o'ta boshladi-yu, Shodivoyning kundaligi «uch»ga to'lib ketdi. O'shandan beri aytishlaricha, Rais buva ma'limimiz Usmon Qilichevni yomon ko'rib qolganmish. «Shu ma'limni pensiyaga chiqarib qutulmasam bo'lmaydi», – deganmish. Tag'in u yog'ini bilmadim-u, shunisi aniqki, jo'ram oltin medal ololmaydi. Ustiga ustak, ertaga fizikadan davlat imtihoni topshiramiz.

... Imtihonga rayondan, hatto oblastdan odamlar keladi, deyishgandi. Hech kim kelmadi. Shodivoyning familiyasi Alimov emasmi, Usmon aka birinchi bo'lib jo'ramni chaqirib qoldi.

O'n yil o'qib, bironta ma'limdan qo'rqmaydigan Shodivoy shu – Usmon akani ko'rsa, oyog'i qaltiraydigan bo'lib qolgan. Hozir ham familiyasini aytib chaqirishganini eshitmadi. Hammamiz yo'lakda tipirchilab turibmiz.

– Alimov! – qiya ochiq eshikdan Usmon akaning zardali ovozi keldi.

– Seni chaqiryapti! – dedim sekingina jo'ramning biqiniga turtib.

Shodivoy garangsib og'zini kappa-kappa ochdi:

– A?

– Kir! – qattiqroq baqirib yubordim, shekilli, kimdir yelkamga musht tushirdi.

– Sekin-e!

– Qo‘rqib ketyapman... – Shodivoy ko‘zimga shunaqangi iltijo bilan termuldiki, o‘zim ham qo‘shilishib yig‘lab yuboray dedim.

– Shpargalkani cho‘z! – o‘rtog‘imning qalin qilib tugilgan chuchvaradek qulog‘iga shivirladim. (Shpargalkalarining zo‘ri Shodivoyda bo‘ladi-da. Boshqa bolalar dalada g‘ayrat bilan ishlayotganda jo‘ram uyiga kirib olib g‘ayrat bilan shpargalka tayyorlagan: hammamiz uchun). – Derazaning oldiga o‘tir. Biletningning nomerini aytsang, oshiraman.

Shodivoy ixcham qilib buklangan qog‘ozni cho‘ntagidan olib qo‘limga tutqazdi.

– Alimov! – qiya ochiq eshikdan boyagidan battar zardali ovoz keldi.

Shodivoyning qo‘ltig‘iga kirib, sudragudek olib bordim-da, eshikni kattaroq ochib, gardaniga bir musht tushirgan edim, suzong‘ich buqadek boshini yelkasi orasiga tortgancha, to‘ppa-to‘g‘ri Usmon akaning ustiga bostirib bora boshladi.

– Jinnimisan! – Usmon aka o‘rnidan turib ketdi. Yagona qo‘lini ko‘tarib, kalla qo‘yishni mo‘ljallab kelayotgan Shodivoyning peshonasiga kaftini ro‘para qildi.

Shodivoy taqqa to‘xtab qoldi.

– Bilet ol! – dedi Usmon aka Shodivoyga shubhaliroq qarab.

Tezroq sinfxonaning narigi tomoniga yetib bormasam bo‘lmaydi. Papkaning bandidan changallagancha yo‘lakdan yugurib ketdim.

Imtihonni dalada topshirganimiz qandoq yaxshi edi-ya! Baho qo‘yishda brigadirimiz To‘lash aka ko‘maklashib yuborardi. Bir gektar o‘toq qilganga – «besh». Yarim gektarga – «uch»... Shu... Rais buvagayam hayronman-da! Davlat imtihoni qonuniy bo‘lsin, o‘ninchilar maktabning o‘zida sinovdan o‘tsin, komissiya kelib qolishi bor, debdi-da! Mana endi o‘zining o‘g‘liga jabr bo‘ldi!

Imtihon bo'layotgan sinfxonaning derazasi oldiga yetib olgunimcha hali qancha bor! Avval uzundan-uzoq yo'lakdan o'tishim kerak. Keyin hovliga chiqaman. Undan keyin maktab orqasiga o'taman.

Halloslab chopib boryapman-u, bir narsani o'ylayman. Mehnat darsidan zo'ri yo'q ekan-da, o'zi! Masalan, menga eng yaxshisi – mehnat darsi! Ma'limlar nuqul savol beraverib boshingni qotirmaydi... Shunisiga xursandmanki, mehnat darsi bizda, ayniqsa, ko'p bo'ladi. (Boshqa joyda qanaqa, bilmadim-u, bizda shunaqa). G'o'za sal qaddini rostlashi bilan yagana boshlanadi. O'zingiz o'ylab ko'ring. Qorni och to'rtta odamning oldiga bitta likopchada osh qo'yib, «qani, oling-oling» desangiz, to'rttalasi baravar chang solsa, nima bo'ladi? Hammasi och qoladi, to'g'rimi? G'o'zayam shunaqa-da! Bundan chiqdi, bittasini qoldirib, boshqalarini yulib tashlash kerak. Birmi? (barmog'ingizni bukib, sanab turing). Undan keyin... To'rtta g'o'zadan uchtasini yulib tashlaganingiz bilan boshqa oshxo'r topilmaydi, deysizmi? Siz-ku, yerga ming xil «palov» berasiz, mahalliy o'g'it, mineral o'g'it (voy, hidi qursin. Odamni zaharlab o'ldiraman, deydi-ya!). Siz-ku «palov»ni paxtaga berasiz. Ammo uning nasibasiga sherik bo'ladigan begona o'tlar ham chiqadi-da! O'shanaqa tekinxo'rlarni tag-tomiri bilan quritish kerakmi-kerak! Buning oti o'toq deyiladi. Ikkita bo'ldimi? Ana undan keyin chopiq boshlanadi. Paxtaniyam joni bor. Nafas olmasa, o'lib qoladi. Siz bilan biz-ku, og'iz-burnimiz bilan nafas olamiz. Paxta bo'lsa, ildizi bilan nafas olishi shart. Demak, chopiq qilish kerak. Keyin pilla mavsumi keladi. (Bunisini aytib beruvdim, boshqa gapirib o'tirmayman). Ketidan pichan o'rish kampaniyasi boshlanadi. «Ferma tog'a»ning sigirlari pichan yemasa – harom o'lib qolmaydimi? Undan keyin, yana chopiq, g'o'za sug'orish... Bu – paxta degani suvga chunonam o'chki, juda otchalik ichmasayam, kamida mening tulporimchalik simiradi, qurib ketgur!

Paxta ochilganidan keyin-ku... Dalada bayram boshlanadi. Avval, birinchi nav paxta terasiz, keyin, ikkinchi terim, uchinchi terim. Shu paxta degani xo'p erinmagan narsa-da! Bugun terib olsangiz, ertaga yana iljayi-i-b, ochilib turaveradi. Keyin podbor terasiz, ya'ni mashina terib ketganida ariqqa to'kilib qolgan paxtani yig'ib olasiz. Chanoqda yarim-yortisi qolsayam uvol-da! Undan keyin ko'rak terish, ketidan ko'rak chuvish... Oxiri dalalar qip-qizil bo'lib qolganida g'o'zapoya yulasiz...

Ana endi o'zingiz o'ylang! Mehnat darsidan zo'ri bormi? Har kuni ochiq havoda yurasiz. (Biologiya ma'limimiz aytgandek, «ochiq havo – tanga davo»). O'qituvchilar ham qiynab o'tirmaydi. Birinchi sentyabrdan o'qishni boshlaysizu oltinchi sentyabrdan terimga tushasiz. O'ninchi dekabrda maktabga qaytib kelsangiz, jurnallar to'ldirilgan, chorak baholari chiqarilgan!

A? Nima dedingiz? Kattalar nima ish qiladi, deysizmi? Kim aytdi sizga kattalar bekor o'tiradi deb?

Masalan, mening otam ham Usmon akaga o'xshagan urush nogironi. Rais buva dadamni, lunji uchishini yoqtirmagani uchun bug'altirlikdan bo'shatib, gazeta sotuvchi qilib qo'ygan bo'lsayam terim boshlanganida otam do'konchada «kepqoling, gazeta opqoling» deb o'tiradi deysizmi? Hecham-da! Singlim Ju, otam, onam tong otmasdan dalaga chiqib ketishadi. Qorong'i tushganda qaytishadi! Ne mashaqqat bilan yetishtirilgan «oq oltin»ni erda qoldirish g'irt gunoh-ku!

Boshqalarmi? Kechirasiz! Bizning «Mash'al» kolxozida tekinxo'rlar yo'q. Hamma ishlaydi. Rais buvaning jiyani tomorqasida ketmon chopadi. Kuyovi hisobchilik qiladi. Yana bitta kuyovi – agronom. Kenja kuyovi – iqtisodchi. Qaynisi – do'konda atir-upa sotadi... Bular – erkaklar! Ayollarning yarmisi dalada, yarmisi uyida. Nega deysizmi? Ayol bo'lgandan keyin tug'ishi kerakmi, axir? Masalan, bizning qishloqda o'ttiz bitta «Qahramon ona»

bor. Bitta bolasini tug'ishi bilan ikkinchisiga tayyorgarlikni boshlab yuboradi...

E, unaqa chalg'itmang-da, odamni! Jonajon jo'ram Shodivoyga shpargalka uzatmoqchi ekanimni aytuvdim-ku!

Maktabning uzundan-uzoq binosini aylanib o'tguncha jiqqa terga botib ketdim. Kun issiq. Boshqa sinflar chopiqqa chiqib ketgani uchun maktab jimjit. O'zim ham shunaqangi tez yuguribmanki, nafas olaman, desam, ichimga hech havo kirmaydi. Bunday qaragam, tilim taxminan bir qarich osilib qopti. (Qo'lim bilan tiqib, joyiga kirgizib qo'ydim).

Shodivoy malades-da! O'zim aytganidek, deraza yonida o'tirgan ekan. Ochiq oynadan beshta barmog'ini ko'rsatdi. Demak, beshinchi bilet!

Yerga tappa o'tirib olib, imtihon biletleri yozilgan daftarchani titkilay ketdim. Aksiga olib, hech topolmayman.

Shodivoy qiynalib ketganimni tushundi shekilli, kalta, yo'g'on bo'ynini cho'zib, qattiq shivirladi:

– Kulon qonuni! Eshitdingmi, Qo'sho! Kulon qonuni!

Kulon qonuni bo'lsa, Kulon qonuni-da! Hozir topamiz!

Shpargalkaning qatini yoyishga tushdim. Shodivoy ham butun kitobni ko'chirib chiqqanmi, nima balo! Shpargalka qatini ochganim sayin Shokir abziyning garmonidek cho'zilib ketyapti. Ataylab qilgandek Kulon qonuni yozilgan joy hech chiqmaydi. Bir mahal kimdir «garmon»ning yerga cho'zilib yotgan uchidan tortib ketayotgandek bo'ldi. Qo'rqa-pisa qaragam, qay ko'z bilan ko'rayki, Tulporim shundoq tepamda turib olib tasmadek shpargalkani bir chetdan yamlab yutayapti.

– Qo'yvor! – dedim-u, jon holatda qog'ozni tortqiladim. Shpargalkaning bir qismi so'lakka qorishib eshagimning og'zidan qaytib chiqdi. O'ziyam rangi suykalib, majaqlangan gulsafsardek ilma-teshik bo'pketibdi.

Tulporim, harqalay yarim qulochginasini uzib olishga ulgurgan ekan. Huzur qilib chaynadi-da, g'o'lq etib yutib yubordi. Yoqib qoldi shekilli, yana «garmon»ga talpindi.

O'rnimdan sakrab turib, quloq chakkasiga tarsaki tortib yubordim! Bilasiz, Tulporim kaltak yeb o'rganmagan. Ko'zimga birpas qarab turdi-da, shunaqangi alam bilan hangrab yubordiki, qo'rqib ketganimdan «tishsh» dedimmi, «ishsh» dedimmi, esimda yo'q.

Derazadan qarab turgan Shodivoyni lo'ppi yuzi qiyshayib ketdi. Papkamni shosha-pisha titkilab, «Fizika» kitobini oldim.

– Mana! – dedim eshagimning hangrab turganidan foydalanib, – yozib ol, Shodi! Vakuumdagi joylashgan zaryadli qo'zg'almas nuqtaviy ikki jismning o'zaro ta'sir kuchi...

– Alimov! – sinfxona ichkarisidan dag'dag'ali xitob yangradi. Nazarimda Shodivoyni ko'zi g'ilay bo'lib ketdi. Bir ko'zi menga qarab turibdi, bittasi Usmon akaga. Eshagim ham taqa-taq jimidi-qoldi.

Xuddi shu payt sinfxona ichida g'ala-g'ovur boshlandi.

– Domullo! Qanaqasiz o'zi! – degan tovush shang'iladi. – Nima qilasiz bachalarni qiynab. Bo'ling-da, tezroq. Chopiq qolib ketyapti.

Topdim. Brigadirimiz To'lash akaning ovozi!

– Chiqing! – Usmon aka stolni bir qo'llab mushtladi shekilli, allanima qarsilladi. – Chiqing! Kim sizga ruxsat berdi, davlat imtihoniga bostirib kirishga?!

– Imtihon-ku, o'z yo'liga... – To'lash akaning tovushi endi yalinibroq chiqdi. – Ammo bu yoqda shuncha ish... Domullo...

– Yo'qol! Qachondan boshlab, sen savodsiz menga... Qirq yillik pedagogga...

Hammayoq gumbur-gumbur bo'lib ketdi.

– Shodi! Ma! – dedim baqirib. Fursatdan foydalanib «Fizika» kitobining o'n besh varaqchasini yirtib, derazadan uzatdim.

Sinfxona tomonidan To'lash akaning alam to'la tovushi keldi.

– Domulloman, deb ko‘p kerilmang, domullo! Rais bova kelsa o‘zingiz javob berasiz.

Papkamni changallab, maktab darvozasi tomonga yugurdim. Ketimdan Tulporim ergashdi. Darvozaning qoq o‘rtasida To‘lash akaning boshi boshim bilan urishib ketishiga sal qoldi. Uning ikki yuzi xo‘rozning tojisdaiy qip-qizarib ketgan, hansirab nafas olardi.

– Shoshmay tur! – dedi mushtini do‘laytirib. – Hozir Rais bovaning o‘zi keladi!

Qo‘rqqanimdan lip etib chetga o‘tdim. To‘lash aka nariroqda turgan kajavali motosikliga mindi, chunonam patillatdiki, qulog‘im yorilib ketay dedi.

Chopib, sinfxona eshigiga kelsam, Shodivoy iljayib turibdi.

– To‘rt! – dedi ikki yuzi yumronqoziqning lunjidek yalpayib. – Kir. Seni chaqiryapti.

Qo‘limdagi papkani do‘stimga uzatdim.

– Yugur! Deraza oldiga bor!

– Shpargalkani cho‘zmaysanmi?

– Cho‘zilib bo‘ldi! – dedim to‘ng‘illab. – Kitobni yirtaver.

Sinfxonaga kirsam, Usmon aka doska oldida turgancha u yoqdan-bu yoqqa borib-kelyapti. Butun gavdasi muttasil chayqaladi.

– Bema‘nilik! – dedi ovozi titrab. – Borib turgan bema‘nilik!

Bilet olishga shoshilmasdim. Avval Shodivoy derazaga yetib olsin!..

– Sharmandalik! – ma‘lim lablari titrab ingradi. – Allaqanday chalasavod... Bilet olmaysanmi! – dedi to‘satdan.

Qo‘rqa-pisa, stol ustida yotgan uzunchoq qog‘ozlarga qo‘l cho‘zdim. Titrab turgan barmog‘imga ilashib chiqqan bittasini cho‘g‘ ushlagandek chimchilab tortdim.

– O‘n uch... – dedim talmovsirab.

– Bema‘nilik! – ma‘lim yana bir xitob qildi-da, negadir ovozi mayinlashdi. – O‘tir, o‘g‘lim, tayyorlan. Shoshilmasdan, o‘ylagin, xo‘pmi?

Ochiq deraza yoniga borib o'tirdim. Birinchi savolning ma'nosini endi tushundim: «Amper qonuni...»

– Qo'sho... – deraza orqasidan ming'illagan tovush keldi. – Qo'sho... Savoling nima?

Ko'z qiri bilan qarasam, deraza tagida Shodivoy bo'y-nini cho'zib turibdi.

– Amper qonuni! – dedim qattiq pichirlab.

Aytdim-ku, ma'limimizning o'zi yomon deb.

– Kim u? – ma'lim yugurgudek bo'lib tepamga keldi. – Qurting bormi? Nimaga tipirchilaysan?

– O'zim, – dedim iljayib. – Ovoz chiqarmasam, masala yecholmayman, ma'lim.

Usmon aka har ehtimolga qarshi deraza tomonga qarab qo'ydi. Men ham ko'z qirimni tashlasam, hech kim yo'q. Shodivoyning aqli toshni yoradi-da! Allaqachon quyonni surib qopti!

Ma'lim bir qo'llab sharaq-shuruq qilib derazani yopdi. Doska oldiga ketdi. O'sha zahoti deraza ortidan yana Shodivoyning barkashdek yuzi ko'rindi. «Och» deb imo qildi. «Ilojim yo'q» degandek bosh chayqadim.

Shodivoy deraza yopiq bo'lgani uchun mendan boshqa hech kim eshitmaydi, deb o'yladi, shekilli, kitobni ochib olib, oynaga yaqin keltirdi.

– Yoz, Qo'sho! – dedi ovozi boricha baqirib. – O'zidan tok kuchi o'tkazayotgan o'tkazgichning uzunligi...

Shipillatib yozib ketdim. «O'zidan tok kuchi...»

– Kichik kesimga u bilan burchak hosil qiluvchi...

Shipillatib davom etdim: «Kichik kesimga...»

– Induksiya magnit maydoni... – dedi Shodivoy ovozini yanayam balandroq qo'yib.

– Salimov! Doskaga!

Noiloj Usmon akaning yoniga bordim.

– Bo'ldingmi?

– Bo'ldim... Birinchi savolni.

– Qani eshitaylik...



Ikki minut oldin Shodivoy qanaqa baqirgan bo'lsa, men undan o'n hissa qattiqroq hayqirib javob bera boshladim:

– O'zidan tok kuchi o'tkazuvchi o'tkazgichning...

Xuddi shu payt sinf eshigi taraqlab ochildi. Shunaqangi shiddat bilan ochildiki, kaptarxonaga bexosdan mushuk oralab qolsa qanaqa bo'ladi? Hamma kaptarlar har yoqqa patirlashib uchib ketadimi? Mendayam xuddi shunaqa bo'ldi. Kallamda hech vaqo qolmadi, xuddi u qulog'imdan kirgan shamol g'uvillab bu qulog'imdan chiqib ketayotgandek. Qarasam, ostonada Rais buva turibdi. Kun issiqligiga qaramasdan egniga qora kostyum kiyib olibdi. Ko'ksi to'la – medal. Orqasida To'lash aka. Rais buvaning qo'ltig'idan mo'ralab-mo'ralab qo'yyapti. Xuddi echking chotidan boshini chiqarib mo'ltirayotgan uloqchadek.

– Ma'lim... – Rais buva g'alati iljaydi. – Ruxsat etsangiz, kadrlarimizning ilmini bizam ko'rsak.

Usmon akaning yupqa labi titrab ketdi.

Rais buva ruxsat kutmay, birinchi partaga o'tirib oldi. To'lash aka uning yoniga cho'kmoqchi edi, qorni sig'madi. Eshik oldiga qaytib bordi-yu, qo'l qovushtirib turaverdi.

– Umuman, Amper, zo'r olim bo'lgan! – dedim yanayam qattiqroq baqirib. – O'zi nemis bo'lgan, ma'lim. Elektrni ham shu odam topgan. Ya'ni, ma'limjon, Amper qonuni...

– Ma'lim! – Rais buva o'rnidan siltanib turdi. Parta taraqlab ketdi. – Ko'rdik, baloga aqli yetyapti, bolalarni. Allaqanaqa «Kampir qonuni» deb shunchalik cho'zg'ilash shartmi?

– Kampirmas, Amper! – nazarimda ma'limimiz yig'lab yuborgudek ingradi. – Qachongacha savodsiz bola tarbiyalaymiz!

Rais buva bir zum o'ylanib qoldi. Bilmadim, ma'limdan uyam hayiqarkanmi yo andisha qildimi, har qalay uyalibroq jilmaygandek bo'ldi.

– Qo'ying, endi, – dedi iljayib. – Eshitdik, kamissiya kelmaydigan bo'пти. Yigitlarimiz malades! Yo'lini topib ketadi. Ko'rasiz, institutlarni kattasiga kiradi bular!

– Qandoq qilib? Pora beribmi?

Ma'limning gapi jon-jonidan o'tib ketdi, shekilli, Rais buvaning yuzi qahrli tus oldi.

– Hov, ma'lim! – dedi har so'zni chertib. – Har yili ish ayni qiziganda bir ishkal chiqarasiz. Nima, bular oqbilak bo'lsinmi? Mana shu bola... – u menga qarab barmog'ini bigiz qildi, – mana shu azamat kechasi bilan tongotar uxlamay g'o'za sug'orib chiqqanini bilasizmi?

Rais buva rost aytdi. Judayam tongotar bo'lmasayam oy chiqquncha g'o'za sug'organim rost.

– Kelajakni shu avlod yaratadi! – Rais buvaning ovozi shu qadar hokimona jarangladiki, to'rtta partada o'tirgan sinfdoshlarim pildir-pis bo'lib qolishdi. – «Kampir qonuni»ni boshiga uradimi bular! O'ylang-da, siz ham, ma'lim.

Usmon aka yomon dedim-ku! To'satdan unikiyam tutib ketdi.

– Hov, rais! – dedi titrab. – Qo'lingizdan kelsa ottirvo-ring. Men savodsiz kadr tayyorlamayman! Maktabda medal olib, institutga borganda «ikki»ga tortolmaydigan bolani yomon ko'raman!

Angrayib qoldim! Shu paytgacha bironta odam Rais buvaning ko'ziga tik qarab, bunaqa gapirmagan edi. Rais buva ham bir zum esankirab qoldi. Lekin o'sha zahoti shiddat bilan hayqirdi:

– Bolalar yaxshi ilm olmagan bo'lsa, ayb sizda! Bilib qo'ying, shu bolalar institutga kiradi. Albatta kiradi!

Ajab, Usmon aka kuldi. Kulgandayam, bo'g'iq, xirillab kuldi.

– Sizning o'g'lingizmi, rais? Xohlasangiz, olim ham qilasiz uni.

– Senga nima?

Battar dovdirab qoldim. Ma'limning yoshi Rais buvan kamida besh yosh, bo'lmasa o'n yosh katta. Sochlari oqarib ketgan. Rais buva uni bemalol sensirayapti!

– To‘rt yil oldin pensiyaga chiqishing kerak edi! – dedi Rais buva battar tutaqib. – Nimaga ivirsib yuribsan?

– Yaxshi... – Usmon aka chuqur uf tortdi. – Bo‘shayman. O‘zimniyam jonimga tegdi... – u negadir jilmaydi. Pastki labini tishlab uzoq jimib qoldi. – Sengayam boqqan balo bordir... – dedi sekin.

– E, o‘chir-e, ig‘vogar! – Rais buva ildam kelib, mening qo‘limdan tutdi. – Yur, tutxo‘r!

Talmovsirab orqasidan ergashdim.

Hovliga chiqsam, Shodivoy kutib turgan ekan.

– Nechchi qo‘ydi? – dedi ko‘zimga tikilib.

Indamadim.

– Shu palid domlaning gapi uchun ham ikkalangni yurist qilaman! – Rais buva bir qo‘li bilan Shodivoyni, bir qo‘li bilan meni bilagimdan olib sudrab ketdi.

Darvoza oldiga kelsak, Tulporim meni kutib turgan ekan. Boshqa joy qurib qolgandek naq darvozaga ko‘ndalang turib olibdi. Chetlab o‘tib ketsak ham bo‘ladi-ku, Rais buva kelib-kelib eshakka yo‘l bo‘shatishni xohlamadi, shekilli, dag‘dag‘a qildi:

– Xih!

Tulporim uzun quloqlarini osiltirib xayol surib turaverdi. Boya nega urganimni o‘ylayotgan bo‘lsa kerak.

Rais buva Shodivoy bilan mening qo‘limni qo‘yib yubordi-da, eshak boshida musht ko‘tardi.

– Xih!

Tulporim boshini xotirjam burib, o‘girildi. Lablarini cho‘chchaytirib Rais buvaning qulog‘ini hidladi. Keyin tilini ikki qarich chiqarib, uning yuzini yalab ham qo‘ydi.

Hozirgina ma‘lim bilan urishib g‘azablanib turgan Rais buvaning jon-poni chiqib ketdi.

– Xih-e, harom o‘lgur! – dedi-yu, ikki qadam orqaga tisarilib, kuchi boricha eshakning qorniga tepdi. Tulporim bir silkinib ketdi. Keyin sekin-sekin burilib, roppa-rosa to‘qson gradus o‘girildi. Bir nimani nishonga olgandek,

orqasiga qarab qo'ydi. Ana undan keyin Rais buvaning qovug'ini mo'ljallab turib chinonam tepdiki, Rais buvaning ichidan «g'iq» degan ovoz chiqdi. Tuproq yo'lga chalqanchasiga yiqildi.

Shodivoy ikkalamiz angrayib qoldik.

– To'xtat! – Rais buva inqillab o'rnidan qo'zg'aldi. – To'xtat deyman. Kimning eshagi bu?! – u orqasiga yopishgan changni qoqib qaddini rostlaguncha Tulporim shataloq otib g'oyib bo'ldi.

## **To'qqizinchi bob**

### **BIZ TALABA BO'LAMIZ!**

Osmon-falakda uchib ketyapmiz! «YaK-40»da! Yonimda Shodivoy o'tiribdi. Og'zi qulog'ida! Ustara tegmagan mo'ylovi qiymataxtadan o'tkazsa, bir qozon chuchvaraga bemalol yetadigan do'rdoq labini yanayam qalin qilib yuborgandek. Yuziga husnbuzar toshib, afti-usti unda-munda tosh to'kilgan asfalt ko'chaning o'zi bo'lib qolgan. Tig' tegmagan mo'ylov bilan husnbuzar masalasida o'zimiz ham jo'ramizdan qolishmaymiz. Shodining yuzi-ku, siyrak tosh sachragan asfalt. Bizniki-chi? Naq tosh yo'lning o'zginasi!

Oldingi o'rindiqda Rais buva o'tiribdi. Shlyapasining qirradi o'rindiq suyanchig'iga tegib qiyshayibroq turibdi. Rais buva bunaqa samolyotlarda uchaverib, ko'zi pishib ketgan shekilli, allaqachon yetti uyquni urib bo'ldi-yov. Ora-chora o'rtacharoq ovozda xurрак tortib ham qo'yadi.

Umrin bino bo'lib, samolyot u yoqda tursin, poyezdga ham minmaganman. Shuning uchun, trapdan ko'tarilayotganda yuragim salgina taka-puka bo'ldi. Ammo darrov o'zimni yupatdim. Samolyot Shodivoyning «Zaporojes»i emaski, «Ferma tog'a»ning g'aramiga kalla qilsa! Rostdan ham «YaK-40» jonning rohati ekan! Qilt etmay-

di-ya! Xuddi bir joyda qotib turgandek. Shundoq tagimizda oppoq, do'mboq bulutlar suzib yuribdi. Shunaqangi xo'ppa semizki, paxta xirmonidan farqi yo'q. Ustiga chiqib irg'ishlaging keladi. Olachalpoq «yirtig'i»dan yerga tushib ketmasang, bas! Jo'ramning biqiniga turtib, yumaloq derazadan «ko'rib qo'y» degandek, bulutlarga imo qildim. Shodivoy «zo'r» degandek bosh barmog'ini dikkaytirib qo'ydi.

Shundoq qilib, yaqinda biz talaba bo'lamiz! Aslida bunaqa o'y yetti uxlab tushimga ham kirmagandi.

O'shanda Rais buva: «Senlarni talaba qilmasam, otimni boshqa qo'yaman», – deyishga deb qo'ydi-yu, palakat bosib Tulporimdan tepki yegandan keyin, bu gap paqqos esidan chiqib ketgandir, deb o'ylagandim. Birinchidan, Tulpor maydalashib o'tirmaydi. Tepsa birvarakay tepib qo'ya qoladi. Rais buva uch kungacha hech kimga ko'rinmadi. Shodivoyning aytishiga qaraganda, dadasi uch kungacha tumandan massajchi chaqirib, vazelin bilan qovug'ini silatganmish. Ikkinchidan, Rais buva eshak meniki ekanini bilgan. Bilmay qayoqqa borardi: Tulporimni mingta hangi orasiga qo'yib yuboring: manaman deb ajralib turadi.

Xullas, Rais buva Shodivoy ikkimizni institutga kiritib qo'yishniyam xuddi motosikl olib berishga o'xshab allaqachon esidan chiqarib yubordi, deb o'ylagandim.

Yo'q, unutmagan ekan. Uch kun avval saharlab turib eshagimni sug'orayotsam harsillab-gursillab, Shodivoy kelib qoldi.

– Chamadoningni tayyorla! – dedi do'rillab. – Toshkan boramiz.

– Nega?

– O'qishga kiramiz. Yuridicheskiyga!

Yuridicheskiy deganini judayam yaxshi tushunmasam ham, ozmi-ko'pmi aqlim yetardi.

– Nima, odamlarni qamaysanmi?

Shodivoy ham buyog'ini o'ylab ko'rmagan ekanmi, ikkilanib qoldi.

– O‘zinga qolsa-ku, – dedi ming‘illab, – fizkulturniyga kirmoqchiydim. Hozir yuz kilo shtanga ko‘taryapman.

– Men anavinaqa turnikka osiladiganiga kirardim, – dedim xuddi dadam darrov javob bera qoladigandek. Bo‘yim daroz.

– Shunaqa-ku, – Shodivoy yana ming‘illadi, – fizkulturniyda dadamning jo‘rasi yo‘q ekan. Keyin... Yuristlik zo‘r hunar emish.

Hafsalam pir bo‘ldi.

– Boraver!

– Yo‘-o‘-o‘q! – Shodivoy boshini sarak-sarak qildi. – Sen bormasang, menam kirmayman o‘qishga! Dadam jo‘rasiga aytib, seniyam joylab qo‘yadigan bo‘ldi.

Do‘stim rost aytgan ekan. Kechqurun onam eshikdan hovliqib kirib, Rais buvani alqashga tushdi. Rais buva onamni ataylabdan idoraga chaqirib olib aytganmish.

«Shundoq-shundoq, yanga, Qo‘shoqvoyni azaldan yaxshi ko‘raman. Uyam o‘zimning o‘g‘limdek gap. Shodivoy ikkalasi o‘qib, diplomli bo‘lib keladi!»

Hovli supurayotgan singlim enamning gapini eshitib, negadir hiringlab kuldi.

– Sizdan yurist chiqmaydi, aka!

Supada jo‘xori uqalab o‘tirgan dadamning o‘ng lunji ucha boshladi. Onamga qarab chaqchaydi.

– Ilonning yog‘ini yalagan o‘sha rais otalik qilarmishmi, mening o‘g‘limga? Rahmat! Beradiganini belbog‘iga bog‘lasin!

Onam ko‘ziga yosh oldi.

– Doim shunaqa kajbahslik qilasiz. Birov sizning o‘g‘lingizni o‘qitaman, odam qilaman, desa...

Dadam so‘tani uloqtirdi-da, jahl bilan qo‘l siltab, ko‘chaga chiqib ketdi.

Kecha Shodivoy yana keldi. Cho‘ntagidan bir dasta qog‘oz chiqardi.

– Ko‘rib qo‘y! – dedi maqtanib. – Inshoning zo‘ri mana bunaqa bo‘ladi! Adabiyot ma‘limimizning o‘zi yozgan.

Esim og'ib qolay dedi.

– Hoy jinni! – dedim baqirib. – Toshkandagi institut sening maktabingmi, shpargalka ko'chirsang indamay turadigan! Derazadan o'zingni uloqtirib yuborar!

– Uloqtirmaydi. Dadamning jo'rasi bor.

Kechqurun otam ishdan keldi-yu, ayvon o'rtasida turgan bir dasturxon patir, bir tog'ora bo'g'irsoqni ko'rib hayron bo'ldi.

– Nima bu?

– Yo'lga! – dedi onam tushuntirib. – Bolam bechora musofir yurtda och-nahor yuradimi? Jilla qursa ozroq pul bering. Nonushta qilishi bor, istalavoyga kirishi bor...

Dadamning bir emas, ikkala lunji ucha boshladi.

– Ehtiyot bo'! – dedi to'ng'illab. – O'g'ling kosmosga uchib ketyapti... Ko'rasan hali, hafta o'tmay qaytib keladi, to'rvasini ko'tarib.

Onamning jazavasi qanaqa tutishini aytuvdim-a? Hozir ham shunaqa bo'ldi.

– Hoy, – dedi ikki qo'lini tizzasiga baravar shapatilab, – odamlar bolasini o'qishga joylayman, deb sigirini sotadi, moshinini sotadi. Beliga jaraq-jaraq pul tugib, domlaning uyiga boradi. Rais bovadek odam bosh qo'shib turganda, siz bittayu bitta o'g'lingizdan pul ayaysizmi? – u to'satdan yig'lab yubordi. – Mayli, uzugimni sotaman, sirg'amni sotaman! Kerak bo'lsa, Mavjuning to'yiga atab qo'ygan gilamni sotaman!

– Bo'ldi! – dadam, boshi muttasil chayqalib shimining cho'ntagini kavlati, bir hovuch pulni xontaxtaga uloqtirdi-yu, hovliga tushib ketdi.

Onam darrov ovunib qoldi. Sholchaga cho'nqayib o'tirganча bosh barmog'ini yalab hafsala bilan pul sanadi, ro'molini yechib, pulni chandilab bog'ladi.

– Ma, belingga tugib ol! Shahar yomon bo'ladi. Bittayarimtasi kissangdan olib qo'ymasin.

Onam chamasi kechasi bilan uxlamadi-yov. Allaqayoqdan eski jomadon topib keldi. Issiq to'rko'ylak

(shamollab qolmasligim uchun) bitta qora kostyum (dadamniki, kuyadori hidi kelib turibdi), ikkita shim, ikki juft paypoq, o'n oltita patir (o'zim sanab turdim), bir to'rva yong'oq (o'zimizning tomorqadagi yong'oqdan), bir to'rva turshak (tog'amnikidan kelgan, qurtlaganidan bildim), yarim to'rva qurut (o'zimizning qatiqdan), yarim to'rva bo'g'irsoq (kecha pishirilgan) yana allaqancha narsalarni joylab, qopqoqni yopgan edi, jamadon ajdarning og'zidek bir ochilgancha, ustiga minib olib bossa ham qayta yopilmadi.

Onam ishning ko'zini biladi-da! Dadamning eski shimidan qalinligi besh enli keladigan kamarni yechib olib, bir tortgan edi, jomadonim og'zini yumdi. Faqat eshagimning xurjunidek ikki tomonga tarvaqaylab, do'mbayib qoldi.

Tong saharda turib, tashqariga chiqdim-u, eng avval yong'og'im bilan xayrlashdim.

– Xayr, qadrdon yong'og'im! Ustingdan yiqilib, boshim yorilgan bo'lsayam baribir seni yaxshi ko'raman! Sening mevalaringni yeb, aqlim to'lishdi. Erta-indin talaba bo'laman! Mabodo tosh otib, shoxingni sindirib, xafa qilgan bo'lsam, rozi bo'l.

Yong'og'im qilt etmadi.

Keyin og'ilxonaga kirib, Tulporim bilan xayrlashdim.

– Xayr, mehribon Tulporim. Imtihon kuni seni urmoqchi emasdim. O'zing shpargalkani yeb qo'yib chatoq qilding. Xafa bo'lma! Rozi bo'l, Tulporim! Har kuni maktabning derazasi oldiga borib turarding. Endi mendan kim xabar oladi?

Eshagim yuzimga qarab bir xo'rsindi, ikki xo'rsindi. Keyin entikib-entikib hangrab yubordi. Qarasam, o'zim ham yig'lab yuboradiganman. Chopib hovliga chiqdim. Singlim tandirga g'o'zapoya tiqib endi gugurt chaqayotgan ekan.

– Xayr, Ju! – dedim yig'lamsirab. Singlimni bag'ringa bosib, peshonasidan o'pdim. – Kalishimni yirtib qo'yganingda so'kkandim, rozi bo'l.



– Voy qo‘lim kuydi! – singlimning afti burishib ketdi. – Qanaqa kalish?

Qarang, allaqachon esidan chiqib ketgan ekan-ku, men bo‘lsam...

Ayvonda turgan onam o‘pkasi to‘lib, meni bag‘riga bosdi.

– Xayr, enajon, rozi bo‘ling! – degan edim, ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

– Voy, bolajonim, enaginangni tashlab, qayoqlarga ketyapsan?

– Xayr, dadajon! – uy tomonga qarab xo‘rsinib qo‘ydim.

– Dadang allaqachon ishga ketgan! – onam ro‘molining uchiga burnini qoqdi.

Qarang, dadam uzoq safarga ketayotganimni ko‘ra-bila turib, xayrlashgisi ham kelmad. Shu qilganiga Toshkentga borib olim bo‘lib kelaman! Prapisir bo‘lib kelaman! Bir uyalsin!

Mana, ketyapmiz endi «YaK-40»da! Samolyot dera-zasidan qarab boryapman-u bundan besh yil avval qazo qilgan momojonimning gapini eslayman. Bir kuni momojonim maqtangan edi. Bu dunyoda ko‘rmagan joyim qolmadi, bacham, buyog‘i Shaldiramasoygayam borib keldim! (Shaldiramasoy bizning qishloqdan olti chaqirim narida. Eshakda bir soatli yo‘l).

Samolyot manzilga yaqinlashdi shekilli, pastlay boshladi. Ip tortilgandek to‘ppa-to‘g‘ri yo‘llar, oppoq binolar, poyezd izi ko‘rindi.

Oldingi o‘rindiqda o‘tirgan Rais buva samolyot yerga qo‘ngandan keyingina uyg‘ondi. Suyanchiq ustidan bizga mo‘ralab qaradi. Yuzi qip-qizarib ketibdi. Kaftining orqasi bilan so‘lagini artib, qiyshayib ketgan shlyapasini to‘g‘rilab oldi.

– Keldik, polvon! – dedi iljayib. Menga aytdimi, Shodivoygami, tushunmadim.

Voy-bu! Toshkent degani ham xo'p g'aroyib shahar ekan-da! Odamlar muncha ko'p! Tag'in hammasi shoshiladi. Ko'pkariga kelgan chavandozga o'xshaydi-ya! Mashinalarning g'izillashini aytmaysizmi! Biz o'tirgan taksi osmon baravar bino oldiga yetib kelguncha ellik sakkizta mashinani quvib o'tdi. Sanab turdim.

Shodivoy o'zining jomadonini, men o'zimning do'mpayib ketgan jomadonimni ko'tarib, tepasiga qarasangiz, do'ppingiz tushib ketadigan binoga kirdik. Rais buvaning qo'lida yuk yo'q hisob. Ixchamgina «diplomat» ko'tarib olgan. U, ketimdan yurlaring, degandek imo qildi-da, allaqancha odam to'dalashib turgan oyna to'siq oldiga bordi. Binoning ichi salqingina ekan. (Odamning uxlagisi keladi). Shodivoy ikkalamiz jomadonni ko'targancha Rais buvaning ketidan safga turdik. Oynavand to'siq ortiga sekin mo'raladim. Shodivoyning «Zaporojes»iga o'xshagan havorang ko'ylak kiygan xotin baland suyanchiqli kursida o'tiribdi. Avvaliga xotin pamildori yeb o'tirgan ekan, deb o'yladim. Yo'q, labi shunaqa, qip-qizil ekan. Qoshini aytmaysizmi, qoshini! Xoh ishonning, xoh ishonmang, qoshsiz tug'ilgan bo'lsa, uyalganidan qalam bilan chizib qo'ygandir-da, deb o'yladim. Yo'q, razm solib qaragam, «qil»ning tagi ko'karibroq turibdi. Dadam soqolini guzardagi sartaroshxonaga kirib, Sobit cho'loqqa oldirib kelgan kuni shunaqa ko'karib qolishini ko'rganman. Bundan chiqdi, zangori ko'ylakli xotin ham kunora sartaroshxonaga kirib, Sobit cho'loqqa o'xshagan sartaroshga qoshini qirdirar ekan-da! Og'rigandir, bechoraning qovog'i!

Xotin sariq telefonni qulog'iga bosib, allakim bilan gaplashardi.

– Gulichka! Lyolya erini razvodga beribdi... Nima? Yo'q, piyonistamas! A? Injener edi-da! Oladigan maoshi yo'lkirasidan ortmasdi. Tag'inam Lyolya bechora olti oy chidadi!

«Safimiz»ning old tomonida asabiy ovoz yangradi:

– Qizim!

Bo‘ynimni cho‘zib, bu yoqqa qaradim. Saraton bo‘lishiga qaramay telpak kiyib olgan chol tuynuk tomonga engashib hayqirdi:

– Menga qara, qizim...

– Minutochku! – xotin telefonni qulog‘idan nari surib, cholga yuzlandi:

– Joy yo‘q!

– Qizim...

– Mening otam ko‘karib chiqqaniga o‘n to‘rt yil bo‘ldi, – xotin telefonni yana qulog‘iga bosdi. – Gulichka, eshityapsanmi? Ertaga sudga borarkan. Nima, kvartiranimi?

– Jon opa! – boyagi chol ovozinu balandroq ko‘tardi.

– Minutochku! – xotin ipdek qoshini chimirdi. – Mening ukam yo‘q!

– Opajon! – chol yalinishga tushdi. – O‘g‘lim uzum sotgani kelgan edi. Bozorda qo‘lga tushib, ishi sudga oshirilibdi.

– Spekulyant jazosini olishi kerak, – xotin telefonni qulog‘iga bosdi. – Eshityapsanmi, Gulichka! A? Lyolya durochkami, kvartirani berib qo‘yadigan. Injenerning ketiga bitta tepsa...

Telpakli chol joy olishdan umidini uzdi shekilli, nari ketdi. Avval Rais buva, ketidan Shodivoy, Shodivoyning ketidan men – jomadonni ko‘targancha roppa-rosa bir qadamcha oldinga jildik. Munday orqaga qarasam, yana yigirmatacha odam to‘planib ketibdi. Voy-bo‘, birpasda-ya!

– Lyolya Ayrapetyan bilan gaplashibdi...

Choldan keyin turgan, boshiga ro‘mol o‘ragan qopqora xotin endi birinchi bo‘lib qolganiga quvondi shekilli, shang‘illadi:

– Singlim?!

– Gulichka, minutochku! – zangori ko‘ylakli xotin telefonni yana qulog‘idan uzoqlashtirishga majbur bo‘ldi. –

Opam uchta! – dedi mix qoqqandek qarsillatib. – To‘rtinchi opam borligini bilmasdim.

Qora xotin balo ekan.

– Men – Qahramon onaman! – dedi chertib-chertib. Bir emas, o‘nta mixni baravar qoqqandek qarsillatib tashladi. – O‘n bitta bolam bor.

Zangori ko‘ylakli xotin pinagini buzmadi.

– Tabriklayman!

– Oltinchi qizim – og‘ir kasal. Toshmiga yotqizdim. Ko‘chada to‘rt yashar kenjam turibdi.

– Qanaqa odamsiz o‘zi, yosh bolani ko‘chada qoldirib bo‘ladimi? Mashina urib ketsa, buniyam Toshmiga obo-rasizmi? – u yana telefonni qulog‘iga bosdi, – Gulichka! Lyolya Ayrapetyan bilan gaplashibdi. Ayrapetyan aytibdi: «Ering yaxshilikcha uyini bo‘shatmasa qamatib yubora-man», – debdi. Nima? – zangori ko‘ylakli xotin quvonch bilan xitob qildi. Hatto, o‘rnidan turib ketdi. – «Jiji?» Arabskiyimi? Yo‘q, bittamas, ikkita! Keyin... Bittagina «Adidas...» Shefingga aytsang...

Qora xotin rostdan ham to‘rt yashar bolasini mashina urib ketishidan qo‘rqdi shekilli, yerda yotgan tugun-ter-saklarini ko‘tarib tashqariga otildi. Yana bir qadam surildik.

– Gulichka! – zangori ko‘ylakli xotin telefonni qulo-g‘iga yanayam qattiqroq bosdi. – Shefingga ayt: men «lox» emasman. Shapkasini boshqalarga qo‘ysin.

Old tomondan g‘o‘ldiragan ovoz keldi:

– Opajon!

Qarasam, ayvoni katta shlyapa kiyib olgan yigit tuynukka engashib yalinyapti:

– Jon opa!

Xotin bu gal telefonni qulog‘idan olmadi. Shlyapaliga qaramadiyam. O‘ng qo‘lidagi ruchka bilan tuynukning yarmisini to‘sib turgan taxtachaga nuqib qo‘ydi. Bo‘ynimni yanayam cho‘zib qaragam, taxtaga har bittasi o‘rta bar-

mog'imdek keladigan harflar bilan «Joy yo'q!» deb yozib qo'yilibdi.

– Gulichka! – xotin sirli jilmaydi. «Jiji» bilan «Adidas»ni to'g'rilab bersang, – dedi ovozini pasaytirib, – bitta «Lama» bizdan!

– Opajon! – shlyapali yigit astoydil yalindi. – Olisdan kelganman.

– O'zbekmisiz? – xotin bu gapni «Gulichka»ga aytdimi, shlyapali yigitgami, bilmadim. Har qalay, shlyapaliga aytgan ekan. Yigit quvonib ketdi.

– Ha, opajon, o'zbekman!

– O'zbek bo'lsangiz, men ham o'zbek tilida aytyapman. Joy yo'q! Tushunarlimi?

– Axir men uzoqdan kelganman! Anjandan!

– Eh-he! Men Argentinadan deb o'ylabman. Qirq sakkiz, Gulichka! Ikkinchi rost. Sening razmering.

Xayriyat-ey! Rais buvagayam gal keldi.

– Joy bormi? – dedi Rais buva negadir iljayib.

Zangori ko'ylakli xotin biz tomonga qaramadi. «Joy yo'q!» – deb yozilgan taxtachaga ruchkasi bilan nuqib, davom etdi:

– Yoqmay o'lsin! «Mister-D»dan to'rtta kerak. Fikon bo'lsayam mayli. Marat akamga! Yoqasi qirq bir...

– Joy bormi? – Rais buva bu gal dag'dag'aliroq xitob qildi.

– Savod bormi? – xotin yana taxtachaga nuqidi. – Gulichka! Eshitdingmi, qirq bir! E, jinsini boshiga uradimi? O'zida tiqilib yotibdi.

Rais buva taxtachani shaxd bilan yulqib olib nari surib qo'ydi.

– Bizgayam-a!

– Minutochku, Gulichka! Bu naxallar... – to'siq orqasidagi xotin qoshini chimirib, biz tomonga yarq etib qaradi-yu, to'satdan yuzi yorishdi. – Iye, – dedi jilmayib. Telefonni qulog'iga bosib, nihoyatda mayin, nihoyatda mulo-

yim gapirdi. – Gulichka, uch minutdan keyin telefon qilaman. – Go‘shakni qo‘yib, o‘rnidan turib ketdi.

– Bormisiz, Toshmamat Alimovich! Nimaga ocherid kutib turibsiz? Bu yoqdan kelavermaysizmi?!

– Ishingiz qiyin ekan... – Rais buva og‘ir-og‘ir bosh chayqadi. – Har kuni shu ahvolmi?

– E, shularni deb gipertonik bo‘p qoldim, Toshmamat Alimovich! – u shu qadar ozor chekib ikki chakkasini qisdiki, qo‘yib bersa hozir yig‘lab yuborgudek edi. Xayriyat, yig‘lamadi. Kulrang telefonni ko‘tarib, shosha-pisha raqam terdi.

– Muxochka! – dedi ovozini pasaytiribroq. – Etti yuz o‘n to‘qqizning egasi keldi. – Keyin muloyim jilmayib, Rais buvadan so‘radi: – Bir o‘zingizmi?

– Ko‘pchilik! – Rais buva Shodivoy ikkalamizga imo qildi. – Kadrlarni olib keldik. O‘qishga kirmoqchi...

Xotin bir qo‘li bilan telefonni qulog‘iga bosgan ko‘yi tuynukdan boshini chiqarib, avval Shodivoyga, keyin menga qaradi.

– Sizam xitirsiz! – dedi Rais buvaga qoshini uchirib. – O‘g‘lim bitta deb yurardingiz-ku!

Rais buva biz tomonga qarab qo‘ydi.

– Bittalikka bitta! Bunisi, – deb menga imo qildi, – bunisiyam yaxshi bola, o‘zimizning kadr.

Xotin tuynukdan boshini ichkari tortdi.

– Muxa! Hozir chiqishadi. Uch kishi! Nima? Yo‘q, ayollar yo‘q. Menga qara! Yana bitta nomer topasan.

– Kerakmas! – Rais buva iljayib qo‘l siltadi. – Kadrlarni joylashtiraylik. Men... Bilasiz-ku, Oydin! Bedananing uyi yo‘q, qayga borsa pitpildi!

– Sizam xitirsiz! – xotin qip-qizil, uzun tirmoqli barmog‘i bilan po‘pisa qildi.

– Yurlaring! – Rais buva qovog‘ini solib Shodivoy bilan menga buyurdi.

O'rtog'im ikkalamiz jonholatda jomadonlarga yopishgan edik, Rais buvaning jahli chiqib ketdi. Mengamas-u, Shodivoyga o'shqirib berdi:

– Qo'y, joyiga, nokas! O'zlari obchiqadi.

Ammo o'zi qo'lidagi diplomatini tashlamadi. Shodivoy zina tomonga yo'nalgan edi, tag'in o'shqirdi:

– Shoshma, bu yoqqa kel!

Negadir zina emas, allaqanday jigarrang eshik oldiga borib qoldik. Ikki ko'zim Tulporinning xurjunidek do'ppayib ketgan jomadonimda! Non bilan bo'g'irsoq, yong'oq bilan qurtlagan turshak-ku, mayli. Ammo jomadonimda dadamning kostyumi bor. Onam sotib olgan paypoq bor. Bir emas, ikki juft. Birov lip etib o'marib ketsa...

Shu payt jigarrang eshik o'zidan-o'zi shig'illab ochildi. Ichidan qora ko'zoynak taqqan mallasoch chol bilan xuddi qishlog'imizdagi bog'cha bolalarinikiga o'xshagan kalta ishtoncha kiyib olgan kampir chiqib keldi. Angrayib qopman. Chol-kampirlar allaqanday tilda «ve-o-ve-o» degan nari ketdi.

– Kirsang-chi! – Rais buva qo'limdan tortib eshik ichiga olib kirdi.

Tushundim. Liftga chiqqan ekanmiz. Zum o'tmay tag'in eshik ochildi. Rais buva ixcham portfelini salanglatgan deraza oldida turgan stol tomon bordi. Xayolim jomadonimda!

– Bormisiz, Muhabbatxon! – Rais buvaning quvonchli xitobidan hushim joyiga keldi.

Ustiga moshrang mato yopilgan, bir chekkasiga telefon, bir chekkasiga guldon qo'yilgan stol orqasida o'tirgan xotin dik etib o'rnidan turdi. Bu xotin ham xuddi pastdagi ayolga o'xshab kalta yengli zangori ko'ylak kiyib olgan, farqi shuki, gavdasi pastdagi xotinga taxminan bir yarimta kelar, ammo Shodivoyning onasidan, ya'ni hovlisida tut bargi kesganimda yiqilib tushib, yerni qimirlatib yuborgan Jamila xolamdan ancha ixcham edi.

– O‘zingiz kamnamosiz, o‘rtoq rais! – u Rais buvaning kaftini changallab, qo‘shqo‘llab qisdi. Shunda bildimki, har bilagi mening sonimdan yo‘g‘on bo‘lsa borki, ingichka emas. – Eson-omonmisiz? Planlar yuzmi? Bola-chaqalar omon-esonmi?

U qo‘lini har silkitganida Rais buvaning chayir gavdasi silkinib-silkinib ketardi.

Pastdagi xotin «Muxa» deganida pashshadek qiltiriq ayolni ko‘z oldimga keltiruvdim. «Muxa»si shunaqa bo‘lsa, fili qanaqa bo‘larkin?

«Muxa» opa, ya‘ni Muhabbat opa stol tortmasini sharaq-shuruq qilib ochdi-yu, bandiga tuxumdek yog‘och ilgich osilgan kalitni olib, yo‘l boshladi. Tavba! Shundoq semiz xotin, shunaqangi zipillab yurishini birinchi ko‘rishim. Yo‘lakka to‘shalgan cho‘g‘dek gilam ustida yurib emas, uchib borayotgandek.

«Muxa» opa yo‘lak adog‘iga yetay deganda, bir eshik oldida to‘xtadi. Kalit solib, sharaq-shuruq qilib ochdi.

– Marhamat qilsinlar! – dedi yosh kelinchaklardek tamanno bilan ikki qo‘lini semiz ko‘ksiga qo‘yib.

Avval Rais buva, keyin Shodivoy, undan keyin men ichkari kirdik. Voy-bo‘! Gastinsa degan zo‘r bo‘larkan-ku! Yerga olovdek gilamlar to‘shalgan. Bir tomonda divan, bir tomonda yog‘och karavot. Burchakda xolodilnik...

Xayolinga lop etib bir fikr keldi. Mayli, Shodivoy karavotda yotsin, menga divan ham bo‘laveradi.

Shuni o‘ylab tursam, eshik jur‘atsiz taqilladi.

– Da! – dedi «Muxa» opa zardaliroq ohangda.

Eshik ochilib, ikkita jomadon ko‘targan, boshiga zangori shapka kiygan shopmo‘ylov kishi ko‘rindi. Xayriyat-ey, jomadonim omon ekan!

Mo‘ylovli kishi ikkala jomadonni yerga qo‘yib, uf tortdi. Endi burilib ketayotgan edi, Rais buva to‘xtatdi.

– Shoshma! – cho‘ntagini kavlab pul chiqardi. – Rahmat! Mo‘ylovli kishi negadir xijolatli iljaydi:



– Ko‘p-ku, Rais aka!

– Bo‘pti, boraver! – Rais buva qovog‘ini solgan edi, mo‘ylovli kishi pulni changallaganicha, tisarila-tisarila yo‘lakka chiqib ketdi.

Jomadonim omon-eson topilganiga quvonib ketdim. Bu yog‘i-ku, joyida! Shodivoy karavotda yotsa, men divanda yotsam, Rais buva nima qiladi?

Xuddi shuni kuzatib turgandek, «Muxa» opa yonboshdagi eshikni ochdi. Ko‘kimtir parda orqasidagi eshikni ko‘rmay qopman.

– Marhamat! – dedi ta‘zim qilib. – Buyog‘i yotoqxona.

– Qorin och! – Rais buva yana qoshini chimirdi.

– Restoranda soat yettigacha pereriv... – dedi «Muxa» opa aybdor alpozda jilmayib. – Shu yoqqa zakaz qilasizmi?

Rais buva noroziroq alpozda xo‘rsindi:

– Nima bor o‘zi?

– Aniq bilmadim-ku, antrikot, kavkazskiy shashlik, kiyevskiy kotlet, tabaka, mampar, lag‘mon...

– Bo‘pti! – Rais buva uning gapini kesdi. – Tabaka obchiq.

– Uchtami?

– To‘rtta! Qorin piyozning po‘sti bo‘p ketdi.

«Muxa» opa negadir ketishga shoshilmasdi.

– Rais aka, – dedi eshik oldida to‘xtab. – Bu... Bolalar bilan siqilishib qolmasmikinsiz... Qanchaga kelgansizlar o‘zi?

– Men bilan ishing bo‘lmasin! – Rais buva biz tomonga qarab qo‘ydi. – Kadrlar... Xullas, o‘qishga joylashib bir yoqlik bo‘lguncha turadi. Xohlasa, bir oy, xohlasa, ikki oy.

– O‘zlari-chi, xo‘jayin? – «Muxa» opa jilmayib, qoshini uchirdi. Ikki qo‘lini o‘g‘irdek beliga tirab, qilpanglamoqchi bo‘lgan edi, yaxshi uddalay olmadi. Qorni lopillab ketdi.

– Gapni ko‘paytirmay tabakani obchiqsang-chi! – dedi Rais buva o‘shqirib.

«Muxa» opa chiqib ketishi bilan Rais buva Shodivoy ikkalamizni ichkari xonaga boshladi. Qarasam, boyagi xona buning oldida ip esholmaydi. Derazalarga pushtirang pardalar tutilgan. Ikki deraza oldida ikkita karavot, burchakda rangli televizor! Bir burchakda magnitofon.

– Iye, yaponskiy shekilli? – Shodivoy endi magnitofon tomonga yurgan edi, Rais buva baqirib berdi.

– Ahmoq! O‘qishga kirishga kelganmisan, muzika eshitishgami?..

Shodivoy xona o‘rtasida taqqa to‘xtab qoldi.

– Unaqamas-da! – dedi Rais buva sal hovridan tushib. – Avval institutga kirib ol... Keyin... – shunday deb gurs-gurs qadam bosib, narigi xonaga chiqib ketdi. Zum o‘tmay o‘sha tomonda suv shovulladi.

...Tabaka degani shunaqangi mazali taom ekanki, bunaqasini Chiyali bozorda ham topolmaysiz. Shodivoy ikkalamiz qovurma tovuqning suyaginiyam g‘ajib tashladik-ov!

– Menga qara! – Rais buva yog‘ bosgan qo‘llarini, qalin lablarini qog‘oz ro‘molchaga artib, o‘rnidan turdi. Ertalabdan beri o‘zi ko‘tarib yurgan diplomatni Shodivoy tanlagan karavotning tagiga suqib qo‘ydi. – Yo‘qotib qo‘ysang... – dedi Shodivoyga chaqchayib. – Ichagingni sug‘urib olaman! Uqdingmi? Yostig‘ingning tagiga qo‘yib yot. Tashqari chiqsalarang... – u endi menga o‘girildi. – Kalitni etajniy dejurga bermaysan! – Rais buva yelkamga qoqib qo‘ydi. – Sen pishiq bolasan-ku, tutxo‘r! Jo‘rang ahmoq!

Shodivoyga qarasam, barmog‘ini yalab o‘shshayibroq o‘tiribdi.

– Unaqamas, Rais buva, – dedim iljayib. – Shodi zo‘r!

– Bo‘pti! – Rais buva o‘rnidan turdi. – Mening zarur ishlarim bor. Ertalab kelaman. Eshikni qulflab ollaring. Kalit og‘zida qolsin. O‘shanda birov kirmaydi.

Shunday dedi-yu, chiqdi-ketdi. Shodivoy menga qaradi.  
Men Shodivoyga.

– Eshikni qulfladingmi? – dedi Shodivoy qo‘rqa-pisa.

– Qulfladim.

– Kalit og‘zida qoldimi?

– Qoldi. Sal chaproq tomonga burib qo‘ydim. Shodi...

– Endi nima qilamiz, Qo‘sho?

– Televizor ko‘rmaymizmi? Toshkentda boshqacha ko‘rsatsa kerak.

– Dadam bilib qolsa, o‘ldiradi.

– Muzika eshitamizmi?

– O‘ldiradi.

– Ko‘chani tomosha qila qolaylik, Shodi.

– Mayli-i-i!

Ikkalamiz deraza pardasini ochib, ko‘chani tomosha qila boshladik. Hammayoq chiroq! Mashinalar shovullab o‘tadi. Allaqayoqda tramvay g‘iyqillaydi. Pastdan, birinchi qavat tomondan «gumbir-gumbir», «vosh-vosh» degan sado keladi. Restoranda o‘yin-kulgi bo‘lyapti, chog‘i. Ro‘paradagi bog‘ ichi charog‘on. Bog‘ o‘rtasidagi pushtirang yozuvga ko‘zim tushdi: «Morojenoye».

– Shodi-i! – dedim sekin. – Morojniy yemaymizmi? Menda pul bor. – Gapimning isboti uchun belimni qashlab qo‘ydim. Shuncha pulni belga bog‘lab yurish oson emas ekan. Ertalabdan beri biqinim qichishadi.

– Iloji yo‘q, Qo‘sho! – o‘rtog‘im xo‘rsindi. – Ertaga...

– Bo‘lmasa uxlay qolaylik.

– Mayli...

Chiroqni o‘chirib yotdik. Shodivoy u derazaning tagiga, men bu derazaning tagiga. Uyqu kelsa qani? Darpardani tortib qo‘yganimiz bilan Shodivoyning ham, mening ham yostig‘im ustiga bir tutamdan nur tushib turibdi. Nuqul bugungi voqealarni eslayman. Tulporim bilan xayrlashganim. Onamning yig‘lab qolgani, samolyot, bulutlar. Qoshini sartaroshga oldirgan xotin, «Muxa»

opa... Bir mahal Shodivoyning karavoti g'irchillay boshladi.

– Shodi, – dedim boshimni ko'tarib. – Nima qilyapsan?

– Dadam aytdi-ku! Yostig'imning tagiga qo'yib yotmasam... – Jo'ram avval yostiqni ko'tarib, boyagi diplomatni joylab ko'rdi. Keyin, ko'ngli o'rniga tushmadi, shekilli, to'shak qatini ochib, diplomatini qo'ydi. Ustidan to'shak yopdi. Uning ustidan choyshab yoydi. Ustiga yostig'ini bosdi.

Shoshma! Rais buva Shodivoyni bekorga ogohlantirdimi?

Mening jomadonimdagi narsalar unikidan kammi? O'n oltita patir, bir to'rva bo'g'irsoq, yarim to'rva yong'oq, yarim to'rva qurut... Eng muhimi, dadamning kostyumi, paypoq...

Men ham o'rnimdan irg'ib turdim-da, yalangoyoq shipillab borib, shkafni taraq-turuq qilib ochdim. Jomadonimning bandidan ikki qo'llab ko'tarib kelib, yostig'imning tagiga bosdim.

– Nima qilyapsan, Qo'sho? – dedi Shodivoy pichirlab.

– Jomadonimni ehtiyot qilyapman, jo'ra, – dedim men ham pichirlab.

To'g'ri-da! Gastinsani o'g'ri bossa, Rais buva yo'q, Shodivoyning kichkinagina diplomatini o'g'irlaganda mening xurjundek jomadonimni sog' qo'yarmidi?

Boshimni yostiqa tashlaganimni bilaman. Do'q etgan ovoz eshitildi. Gardanim chunonam zirqirab ketdiki, aftim olmaqqidek bujmayib ketdi-yov. Bo'ynimni silab-silab bu gal yostiqa boshimni sekinroq tashladim.

– Uxlaymizmi, Shodi... – dedim pichirlab.

– Mayli, Qo'sho...

Shu Toshkent deganiyam xo'p serg'alva shahar ekan-da! Ko'cha to'la shov-shuv, vag'-vug'. Xonamiz zirillaydi. Hammasiyam mayli-ku, yotibmanmi, o'tiribmanmi, o'zim

bilmayman. Yostiq ostidan jomadonim g' o' dayib turibdi. Gardanim haliyam zirqillayapti.

Oxiri ko' zim ilinibdi. Bir mahal allaqanday shatir-shutur tovushdan uyg' onib ketdim. Tovush chap tomondan kelar edi. Avvaliga qayerda yotganimni bilolmadim. G' alati tovush esa, hamon shipillardi.

– Olti ming bir yuz yigirma besh... Olti ming bir yuz ellik, olti ming bir yuz etmish besh... Olti ming bir yuz sakson besh... Olti ming ikki yuz o' n...

Sekin o' girilib qarasam, Shodivoy karavotida chordana qurib o' tiribdi. Kun bo' yi Rais buva qo' lida ko' tarib yurgan diplomatning og' zi ochiq. Derazadan tushib turgan bir tutam nur ostida karavotda yuz so' mlik, ellik so' mlik, yigirma besh so' mlik, xullas, bir quchoq pul yotibdi. Shodivoy g' ayrat bilan sanayapti.

– Yetti ming yigirma besh. Yetti ming ellik.

– Mengayam oshir!

Uyqusirab turganim uchunmi, ovozim shunaqangi do' rillab chiqdiki, o' zim ham qo' rqib ketdim.

Shodivoy pul sanashdan to' xtab qoldi. Ichidan ingraganga o' xshash ovoz chiqdi. Keyin «dod» dedi-yu, o' zini diplomat ustiga tashladi. O' sha zahoti to' shakda yoyilib yotgan pullar esiga tushib qoldi shekilli, patir-putur qilib yuz so' mlik, ellik so' mlik pullarni changallab, maykasining ichiga tiqishga tushdi.

– Voy-dod! O' g' ri!

Battar qo' rqib ketdim. Sapchib o' rnimdan turib, chiroqni yoqdim. O' rtog' imning rangi quv o' chib ketgan, tutqanoq tutgan odamdek oyoq-qo' lini baravar tipirlatib, pullarni yashirishga urinyapti.

– Shodi! – dedim baqirib. – Esing joyidami?

Stol ustida turgan grafından stakanga suv quyib avval yuziga sepdim. Keyin ichirdim.

– Kim? – Shodivoy tishlari takillab, stakandagi suvdan besh-olti qultum g' o' lqillatib ichganidan keyingina rangi

sal o'ziga keldi. – Kim, Qo'sho? – dedi hamon titrab. – Pulingdan ber, deb kim aytdi?

– E, o'l-e! – jo'ramning yalang'och yelkasiga qarsillatib sobqoldim. – Puling bilan qo'shmozor bo'l-e!

– Menikimas... – Shodivoy ko'zimga iltijoli termuldi. – Dadam aytgan. Domlaniki... Sanashib yuborasanmi?

– Uxla! – dedim to'ng'illab. – Ertaga sanaysan!

– Jon Qo'sho... – Shodivoy hamon titragancha yalindi. – Dadamga aytmagin, xo'pmi? Papkani nega ochding deb o'ldiradi!

## O'ninchi bob

### DOMLAJONNING «XATOSI»

Ertalab bo'ynim og'rib uyg'ondim. Xona to'ridagi toshoynaga qarasam, boshim chap yelkamga yopishib qopti. Bundan chiqdi, o'ng yonboshim bilan yotgan ekanman-da! Muttasil qichishayotgan biqinimni qashlagan edim, qo'lim do'ppayib turgan tugunchaga tegdi. Tugun badanimga botib, chuqurcha qilib yuboribdi.

Ro'molni yechib, pulimni sanab ko'rdim. Joyida: bir yuz o'n to'rt so'm. Shoshma, qiynalib nima qildim? Kiskasamga solib qo'ya qolsam bo'lmaydimi?! Zo'r kelsa, qo'limni cho'ntagimga suqib yura qolaman-da!

Shodivoyni uyg'otish qiyin bo'ldi. Yuvinish uchun vannaxonaga kirib ketayotganida bundoq yuziga qarasam, aftini ko'rib bo'lmaydi. Hamma yog'iga uchuq toshib ketibdi. Kechasi yomon qo'rqan ekan, sho'rlik!

Jomadonimni ochib, ikkita patir, bir hovuch turshak, yong'oq, to'rtta qurut oldim. (Hayriyat-ey, qadrdon xurjunim sal-pal «ozdi»).

– Ana endi bir choynakkina ko'k choy bo'lsa...

Gapim og'zimdan chiqmasidan eshik taqilladi. Chopib bordim:

– Rais buva...

Eshik ortidan qo‘ng‘iroqdek ovoz keldi:

– Zavtrak!

Angrayib qopman. Nima balo, cho‘pchaklardagi sehrli saroyga kirib qolganmizmi? Nimani xohlasang, og‘zingdan chiqmasdan muhayyo qilishadi.

Kalitni burab, eshikni ochsam, beliga oppoq peshband bog‘lagan nozikkina, chiroylikkina qiz yaltiroq tutqichli aravacha bandidan ushlab jilmayib turibdi.

U bir zumda stol ustini to‘ldirib tashladi. Ikki stakan qaymoq, to‘rtta non, ikki choynak choy, ikkita ishkalat, pishloq... Hatto, o‘rtacharoq lagandek keladigan tort ham bor. Yana ikkita talinkada to‘rtburchak perashkalar.

– Go‘shqli blinchik... – dedi qiz jilmayib.

Aravachasini g‘ildiratib eshik tomon yurgan edi, «boyvachchaligim» tutib ketdi.

– Qancha bo‘ladi? – dedim Rais buvaga o‘xshab, cho‘ntakka qo‘l suqib.

– Puli to‘langan... – oldiga peshband taqqan qiz eshikda to‘xtab, shiringina jilmaydi.

– Choyingiz to‘qson beshmi?

– Ikki xil, – qiz bu safar ensasi qotibroq iljaydi. – Bittasi qora indiyskiy. Bittasi ko‘k.

Vannaxonadan yelkasiga sochiq tashlagan Shodivoy chiqib keldi.

– O‘tir, zaptrik qilamiz, – jo‘ramni qo‘lidan sudrab stol oldiga obordim.

Qaymog‘i biram yog‘li, nonlari biram issiq, to‘rtburchak somsasi biram mazali...

Men-ku, noz-ne‘matlarni pok-pokiza tushiryapman.

Qarasam, Shodivoy, kechasi bexosdan tagini ho‘llab qo‘ygan boladek bo‘zrayib o‘tiribdi.

– Yemaysanmi? – dedim somsaga imo qilib. – Qiymasini o‘xshatib qovuribdi.

– Yeyolmayman! – jo‘ram og‘zini kafti bilan bekitib ming‘illadi. – Labim achishyapti.

Bechora! Yuvinganida ikki labining burchidagi uchuqlar qonab ketibdi.

– Og‘zimni ocholmayapman, Qo‘sho...

– Oldin qaymoqni ichgin, Shodi! Labing yog‘lanib, o‘zidan-o‘zi yo‘li ochilib ketadi.

...Nonushta qilib bo‘lgach, dars tayyorlashga o‘tirdik. Ya‘ni, shpargalkalarni o‘qib chiqa boshladik. To‘g‘ri-da, birinchi imtihon yozmadan – insho. Maktabdagi adabiyot ma‘limimiz ham rosa g‘ayrat qipti, o‘zi. O‘n oltita inshoni ipga tergandek yozib tashlabdi. Alisher Navoiyning «Xamsa»sidagi «Farhod va Shirin» dostoni, Oybekning «Qutlug‘ qon» romani, G‘afur G‘ulomning «Sen yetim emassan» she‘ri, Abdulla Qahhorning «Shohi so‘zana»si, «Hamid Olimjon – baxt kuychisi», yana allaqancha insholar. Erkin mavzularni aytmaysizmi? «Tinchlik – bizning hayotimiz», «Mehnat – mening baxtim», «Vatanimni sevaman», «Men sevgan kasb...» Xullas, o‘n oltita.

– Qo‘sho... – dedi Shodivoy uchuq toshgan labini arang qimirlatib. – «Qutlug‘ qon» tushsa yaxshi bo‘lardi. Shu oson.

Ma‘limimiz yozib bergan insholar orasidan «Qutlug‘ qon»ni topdik. To‘rt yarim bet ekan.

– Kamroqmasmi, Shodi? – dedim ikkilanib.

– Yana nimani qo‘shasan?

– Yanami? – o‘ylab qoldim. Bilag‘onligimni ko‘rsatib qo‘ygim keldi. – Masalan, Yo‘lchi paxtada ishlaydimi? Ma‘lim «Yo‘lchi to‘nka kavlaydi, g‘o‘za sug‘oradi» debdi. To‘nka kavlashning paxtaga qanday aloqasi bor?

Shodivoy, yana nima qo‘shsa bo‘ladi, degandek ko‘zimga termuldi.

– Masalan, yagana qiladimi? O‘toq qiladimi? Chopiq qiladimi? Chekanka-chi? Kultivatsiya-chi? Paxta terish,



podbor terish, varaxaga ko'rak tashlash... Shular ham mehnat-da!

Qizishib ketib, jo'ramga insho qanday yozilishini shunaqangi baqirib tushuntira boshlabmanki, eshik ochilib, Rais buvaning kirib kelganini ko'rmay qopman.

– Eshikni qulflab o'tirlaring demabmidim?!

Rais buvadan rosa dakki yeymiz deb qo'rqib ketdim. Yo'q, razm solsam, urishadigan holi yo'q. Kechasi bilan ko'pkarida uloq chopgan ayg'ir otdek so'ljayib qopti. Rangi bir holatda. Nazarimda ko'zlari yumilib-yumilib ketayotgandek.

– Zaptirka berdimi? – dedi cho'zib-cho'zib esnab. – Yaxshi! Kiyinlaring. Bir joyga boramiz.

\* \* \*

Toshkent shunaqangi katta shahar ekanki, taksida bir soat yursak ham oxiri ko'rinmaydi! Yurib-yurib ikki cheti olchazor ko'chaga kirdik, pishiq g'ishtdan qurilgan, derazasiga temir panjara tutilgan uy ro'parasida to'xtadik. Rais buva pushtirang sirli bo'yoqqa bo'yalgan darvoza tomon yurdi. Shodivoy ikkalamiz biyaning ketidan ergashgan toychoqlardek zing'illadik. Rais buvaning darvozasiniyam maqtab yurgan ekanman-da! Darvoza degan mana bunaqa bo'ladi! Rais buvanikiga tank sig'sa, xoh ishonib, xoh ishonmang, bu darvozaga osmondan uchib tushgan samolyot pir etib kirib ketaveradi!

Rais buva darvoza burchagidagi tugmachani bosgan edi, ichkaridan «blyum-blyum» degan ovoz keldi. Rais buva bir qadam orqaga chekinib, kaftini og'ziga bosgancha huzur qilib, esnab qo'ydi. Ichkaridan javob bo'lavermagach, borib yana tugmachani bosdi. Qo'ng'iroq biyron jiringlab ketdi. «Blyum-blyum-blyum».

Darvoza qiya ochilib, yaltiroq, guldor xalat kiygan novchagina, ko'hlikkina xotin mo'raladi.

– Kelinglar... – dedi ikkilanibroq.

– Assalom alayke-em, yanga! («Ferma tog'a» Rais buvaga qanaqa salom bersa, Rais buva ham «yanga»ga shunaqa salom berdi). – Assalomalay-ke-em! Yangajon! Salomat omongina bormisiz? Eshik-ellar, kadrlar yaxshimi?

– Rahmat! – «Yanga» xavotirlanibroq hammamizga bir-bir qarab chiqdi.

Rais buva uning unsiz savolini tushundi, chog'i, iljayib so'radi:

– Domla uydamlar?

– Yo'g'iydilar-a! – «Yanga» afsus-nadomat bilan bosh chayqadi.

– Qayoqdalar?

– Leningradga ketganlar.

– Qanchaga?

– Ikki oyga. Pavisheniyaga.

– Iya, yangajon, katta domlayam pavishena qiladimi?

«Yanga» tag'in hammamizga birma-bir qarab chiqdi.

– Qachon qaytadilar? – dedi Rais buva ovozi bilan landlatib.

– Sentyabrning oxirlarida kelib qolsalar kerak.

– Domla Leningradga pavishenaga ketgan bo'lsalar, sentyabrda qaytsalar aytib qo'ying, yanga! – dedi Rais buva shang'illab. – «Mash'al» kolxozidan rais jo'rangiz kelib-ketdi, bugun kechqurun soat o'nda yana kelarkan, zarur yumushi bormish, deng, uqdingizmi?

«Yanga» olazarak bo'lib, u yoq-bu yoqqa qarab oldi.

– Sekin-e! – dedi tahdidli, ammo past ovozda. – O'n ikkidan keyin... – u bir zum jimib qoldi-da, norozi to'ng'illadi. – Taksini eshik oldigacha obkelishga balo bormi!

– Bo'ldi, yangajon, benavat! – Rais buva mamnun iljaydi. – Yurlaring! – dedi-yu, Shodi ikkalamizni yetaklab nariroqda poylab turgan taksiga qaytadan o'tqazdi. Allaqaysi bekatga borganda mashinani to'xtatdi.

– Bularni boyagi joyga oborib qo‘yasan! – dedi shopirga 25 so‘mlik uzatib. – Uqdingmi? – o‘zi «diplomati»ni olib, tushib ketdi.

Taksi gashinisa oldida to‘xtashi bilan jo‘ramga yalindim.

– Bittadan morojniy yeylik, Shodi.

– Pulim yo‘q-da, Qo‘sho, – dedi Shodivoy mung‘ayib.

– Bizda-da, pulning koni, jo‘rajon! – pul tugukli ro‘mol solingan cho‘ntagimni shapatilab qo‘ydim.

Ro‘paradagi bog‘ ichiga kirdik. Salqin maydonchaga oppoq, yumaloq stollar qo‘yilgan. Odamlar to‘rtta-to‘rttadan o‘tirib olib, yaltiroq likopchalardagi morojniyni uryapti.

– Sen joy olib tur! – dedim Shodivoyga. O‘zim o‘ntacha odam orqasidan ochiridga turdim. Yumaloq, oynavand uycha ichida o‘tirgan oppoqqina, do‘mboqqina xotin (har kuni tekin morojniy yeydi-ku, do‘mboq bo‘lmaydimi?), har lahzada «sleduyushiy» deb turibdi. Morojniysi ham o‘zimizning xloppunkt oldida sotiladigan muzqaymoqqa o‘xshamaydi. Rangi boshqacharoqmi-ey!

Morojniychi xotinning ishiyam oson ekan. Biz tomonlarda morojniyni toroziga solib tortib beradi. Bu xotin to‘rtburchak yaltiroq qutining tutqichini bir aylantirsa, likopchaga morojniyning o‘zi buralib-buralib tushadi-yu, gulga o‘xshab qoladi. Semiz xotinning qo‘li-qo‘liga tegmaydi. Likopchaga tushgan morojniy ustiga bir qoshiq ishkalad kukuni, bir qoshiq qip-qizil sharbat, yana bir chimdim chaqilgan yong‘oqmi-ey, allanima, sepadi-da, tuynukdan uzatadi.

– Sleduyushiy!

– Ikki pors! – dedim yaqin borib.

Xotin bir zumda ikki likopcha to‘la morojniyni tuynukdan uzatdi.

– Sleduyushiy!

Obbo! O‘zim ham qiziqman-da! Hali pulni sanaganimda ishtapil ro‘molni shunaqangi chandilab bog‘lagan ekanmanki, yechaman deb tirnoqlarim ko‘chib ketdi.

– Sleduyushiy! – xotin betoqat bo‘lib, qo‘lidagi qoshiq bilan peshtaxtani urib qo‘ydi. Tugunchani tishim bilan yechishga urinib yotganimda kimdir turtdi:

– Surilsang-chi, hoy!

Esi joyidami, pul to‘lamay, qayoqqa surilaman! Xayriyat, tugunni yechdim.

Ertalab labi achishib, og‘zini ocholmagan Shodivoy morojniyni ko‘rishi bilan ishtahasi shunaqangi karnay bo‘lib ketdiki, likopchaga to‘rt marta qoshiq botirib, lo‘q etib yutib qo‘ya qoldi. Shu, Shodivoy ham g‘irt savodsiz-da! Morojniy yeyishni anavi qizlardan o‘rgansa bo‘lmaydimi? Narigi stolda ikkita qiz o‘tiribdi. Qoshiqning uchiga jichcha morojniyni ilib oladi-da, nozikkina pushtirang tilini chiqarib, yalaydi. O‘zlariyam chunonam ketvorgan, chunonam oppoq. Ikkalasiyam atlas ko‘ylak kiygan. Ko‘ylagi shunaqa kaltaki, do‘mboqqina boldirlari ko‘rinib turibdi.

Eson-omon o‘qishga kirib olay. Kattaroq domlanning ketvorgan qizi meni sevib qoladi. «Qo‘shovoy akajon, – deb bo‘ynimga osiladi, – sizsiz o‘lib qolaman, – deydi. «Yig‘lama, – deyman oppoqqina yuzini silab. – Mayli, senga uylanaman...». «Dadamga aytaman, bizga uy olib beradi. Ikki xonali», – deydi. «Yo‘q, – deyman oyoq tirab, – qishloqqa ketmasak bo‘lmaydi. Kelin bo‘lganingdan keyin ota-onamning xizmatini qilishing kerak-da!» «Mayli, besh xonali», – deydi u yalinib.

Xayol surib ketgan ekanman, boshim ustida birov g‘o‘ldiradi:

– Bo‘ldingmi, hov bola! Joyni bo‘shat.

Qarasam, tepamda ingichka mo‘ylov qo‘ygan yigit ikki qo‘lida ikkitadan to‘rtta likopcha ko‘tarib turibdi. Yonida uchta qiz. Mening bittayam «qizim» yo‘g‘-u, buniki uchta!

E, o'1 ochofat! Jillaqursa, ikkitasini ber, Shodivoy bilan menga. Iya, Shodivoy qani? Allaqachon morojniyni yeb bo'lib, daraxt tagiga borib olibdi-ku! Boyagi qizlar qani? Osmonga uchib ketdimi?

– Endi dars qilamiz! – dedi jo'ram mehmonxona tomon sudrab.

\* \* \*

Yarim kechadan oshganda rais buva bizni ergashtirib yana «katta domla» jo'rasining uyiga olib bordi. Faqat bu safar taksiga ko'cha boshida javob berib yubordi. Ikki tomonda olcha daraxtlari saf tortgan, simyog'ochlardagi lampochkalardan olchalpoq nur to'kilib turgan jimjit ko'chadan o'tib, o'sha qadrdon darvoza oldida to'xtadik. Bu safar qo'ng'iroq ikki marta jiringlashi bilan darvoza qiya ochildi. «Katta domla» deganda tilla ko'zoynak taqadigan, tilla hasa tutib yuradigan, sochlari oqarib ketgan odam xayolimga kelgan edi. Yo'q, televizorda ko'rsatadigan gimnastikachilarnikiga o'xshagan sport kiyimi kiyib olgan kishi darvoza peshtoqida yonib turgan lampochka nurida jilmayib turardi. Chamamda, «katta domla»ning yuzidan ham nur yog'ilib ketgandek bo'ldi.

– E, Toshmamat aka, xush kepsiz! – «Katta domla» shunday deb rais buvaning qo'lini qisdi. Hatto Shodivoy ikkalamiz bilan ham qo'l olishib ko'rishdi.

– Salom, yigitlar, salom! – dedi muloyim kulimsirab.

Usti yopiq darvozaxonaga kirishimiz bilan bir burchakda yotgan, qulog'i dikkaygan itni ko'rib etim jimirlab ketdi. O'ziyam Tulporimning yarmichalik kep qolar-ov! Yechilib ketsayam g'ajiydi-da, odamni! Yo'q, it jonivor kechasi kelib ketadigan bizga o'xshagan mehmonlarga o'rganib qolganmi, zanjirini shiqirlatib, boshini bir silkib qo'ydi-yu, og'zini katta ochib esnadi. Har bittasi o'rtacharoq qoziqdek keladigan tishlari chiroq nurida yiltirab ketdi. Obdan esnab bo'lgach, yonboshidagi guldor tog'orachada yotgan

yarimta tortni bir-ikki iskadi-da, ensasi qotib uzala tushib oldi. Yo tavba, aqalli nomiga bo'lsayam bir marta «vov» deb qo'ymani-ya!

– Kesinlar, Toshmamat aka, kesinlar! – «Katta domla» ildam qadamlar bilan hammamizni hovliga boshlab kirdi. Hovlimas, naq jannatning o'zi! Ayvon peshtoqidagi o'qlovdek uzun, oppoq chiroq nurida hovlidagi anvoyi gullar tovlanib yotibdi. Tunuka tomga tutashib ketgan baland-baland so'rilaridan uzum boshlari mo'ralaydi. Uzumga kul tushganini darrov payqadim. Xomtokni chala qilgan-da. Olim bo'lgani bilan dehqonchilikni bilmaganidan keyin shu-da.

«Katta domla» hovli burchagidagi olma tagiga, naqshinkor so'ri oldiga boshladi:

– Laylo, qizim, bitta choy tashkil qilinglar.

Rais buva diplomatini so'ri burchagiga qo'yib, to'rga chiqdi. Biz pastroqqa cho'kkaladik.

– Yigitlarni obkepsiz-da, Toshmamat aka! – «Katta domla» rais buvaga qarab yana kulimsiradi. Shundagina uning judayam yosh emasligini, sochiga oq oralaganini, kulganda yuzi besh yil burun qazo qilgan momomning mahsisidek tirishib ketishini payqadim. – Kadrlar o'qisin debsiz-da? E, malades! Malades!

– Endi, domlajon, bizlar o'qiyolmadik! – rais buva chordana qurib joylashibroq o'tirib oldi. – Plan dedik, xo'jalikni mash'al qilamiz dedik... Jillaqursa, kadrlar olim bo'lsin-da, endi.

– Zap o'yilabsiz-da! – «Katta domla» avval so'ri burchagida yonboshlab turgan «diplomat»ga, keyin menga, undan keyin Shodivoyga, ana undan keyin rais buvaga qaradi. – Malades, – dedi-yu, ovozi negadir hazinroq chiqdi. Chamasi, bu «kadr»larning qaysi biriga yordam berishim kerak, demoqchi bo'ldi.

Shu payt orqa tomonda ship-ship qadam tovushi eshitildi. Munday qarasam, yuzi sutdek tiniq, qop-qora soch-

lari yelkasiga yoyilgan qiz kumush patnischa ko'tarib kelyapti. Ichimdan uzundan-uzoq xo'rsiniq toshib keldi. Voy-bo'! Shunaqayam chiroyli qiz bo'larkan-da, jahonda! O'ziyam chunonam nozikki, suv ichsa tomog'idan, sabzi esa biqinidan ko'rinadi-ya! Boyagi morojniyxor qizlar buning oldida nima bo'пти! Mana-da, dadajonimning bo'lajak kelini! O'qishga kirib olay, Layloxonning boshini shunaqangi aylantirib tashlaymanki... Avval uzumlarini xomtok qilaman, gullarini sug'oraman. Keyin sekin-sekin... Qarabsizki, bo'ynimga osilib yig'laydi. «Jon, Qo'shojon aka...» Dadamga – bu yoqqa jo'nayotganimda xayrlashmagan, «o'g'ling bir haftada to'rvasini ko'tarib qaytib keladi» degan dadamga ko'rsatib qo'yamiz. «Dadavoy, mana, kelingiz bilan tanishib qo'ying!» – deymiz. «Uncha-muncha odam emas, naq eng katta domlanning o'zlari bilan quda bo'ldingiz, endi xohlasam, hamma qarindosh-urug'larni Toshkanni eng zo'r institutlariga joylayveraman» – deymiz!

Shunaqa-ku, kelin bo'lmish sal ozg'introqmi? Ziyoni yo'q. Keyin semirib ketadi. Kiyinishiyam... A? «Katta domla»ning o'ziga o'xshab «sportivniy» kiyim kiyib olibdi. Mayli, esli qizga o'xshaydi. Tushuntiramiz. «Layloxon, qishloq joyda bunaqa kiyinib yurish uyat bo'ladi. Enam xafa bo'ladi. Sigir sog'ish bor, tomorqa bor...».

Layloxon zinalardan lip etib so'riga chiqdi-da, salom berdi. (Ovozi muncha shirin! Boya «blyum-blyum» qilgan qo'ng'iroqning o'zi-ya!)

– Baallaykum assalom! Baxtli bo'ling, qizim... – Rais buva iljayib alik oldi. Obbo, o'zining Shodivoyiga mo'ljal-lab qo'ydi, shekilli! Ko'ramiz, kim olg'irroq ekan. Menmi, Shodivoyimi?

Layloxon zinadan lip etib tushdi-yu, chopqillab uy tomonga ketdi. Qomatni qarang!

– Qani, osinlar... – «Katta domla» non ushatdi. Choy quydi. Qand-qurs, bodom, asal solingan billur idish to'la patnischaga imo qildi. – Marhamat.

Asalni boshimga uramanmi? Ikki ko‘zim Layloxon kirib ketgan uyda. Qarasam, Shodivoy ham o‘sha tomonga qarab ko‘zini lo‘q qilib o‘tiribdi. Voy, ko‘nglingning ko‘chasi dan o‘rgildim! Biqiningga sob qolaymi?

– Layloxon qizim nechanchi sinfga ko‘chdi? – dedi rais buva choy ho‘plab.

«Katta domla» kuldi.

– Bu yil to‘rtinchi kursga boradi. O‘zimizda o‘qiyapti. Pavisheniy stipendiya oladi.

Nima? Shiringina xayollarim bir zumda alg‘ov-dalg‘ov bo‘p ketdi. Layloxon to‘rtinchi kursga borsa... Bundan chiqdi mendan kamida ikki yosh katta ekan-da. Men uni nari borsa, sakkizinchi sinfga ko‘chgan desam... Mayli, bizga singlisiyam bo‘laveradi. «Katta domla»ning qizi bitta emasdir, axir!

– Xo‘-o‘sh... – «Katta domla» boya uzilib qolgan gapini davom ettirgisi keldi, shekilli, bir menga, bir Shodivoyga qarab, dangaliga ko‘chib qo‘ya qoldi. – Xullas, Toshmamat aka, qaysi biri kirmoqchi bizning fakultetga?

– Bizning kadr bunisi! – Rais buva Shodivoyga imo qildi. – Mushtdek bolaligidan so‘t bo‘laman, deydi. Bo‘lmasa-ku, boshqa joylardayam sizga o‘xshagan qadrdonlar ko‘p.

«Katta domla», «bo‘lmasam manavi nega ergashib yuribdi» degandek menga chimirilibroq qarab qo‘ydi.

– Buyam o‘zimizning kolxozni bolasi. Otasi qo‘li qisqaroq odam-ku, o‘zi durust bola. Bizni Shodivoy, jo‘ramniyam obormasangiz o‘qishga kirmayman, deb turib olsa bo‘ladimi?

«Katta domla» xo‘rsindi. Nimaga xo‘rsinganini tushunmadim. «Bir bolangni-ku, olib kelding, ikkinchi dardisarga balo bormidi» demoqchi bo‘ldimi, yo otasining qo‘li qisqaroq, degan gap yoqmadimi, xullas, bilmadim.

– Toshmamat aka, – dedi «Katta domla» jiddiy ohangda. – Hozir zamon nozik. Birinchidan, bizga mehnat staji borlar kiradi.



– Bor-da, o'sha istaj! – Rais buva darrov uning gapi ni kesdi. – Bularga yettinchi sinfdan boshlab mehnat daftarchasi ochilgan. Ikkalasiyam mehnatdan qochadigan bolalarni! Eson-omon kirib olsa, ko'rasiz. Paxta terimida eng peredovoyi shular bo'ladi.

– To'g'ri-ku! – «Katta domla» qiyshayib yotgan diplomatga zimdan qarab qo'ydi. – Imtihon komissiyasi ja strogiy! Har tomonlama sinovdan o'tkazadi. – U bir zum o'ylanib turdi-da, to'satdan so'rab qoldi. – Qani, aytinglar-chi, yigitlar: qu sakkiz yuz saxon besh kvadrat ildizidan pi bir yuz o'ttiz uch kub ildizni ayirsa, qancha bo'ladi?

Og'zim lang ochilib qoldi. Nima deyapti bu? Men Shodivoyga qaradim. Shodivoy menga...

– Endi... Domlajon... – dedi rais buva salmoqlab. – Bular «qu-pu»ingizni biladimi! Esini tanibdiki, daladan beri kelmaydi. Qolaversa, hisob fakultetiga kirayotgani yo'q-ku.

– Baribir... – «Katta domla» qovog'ini soldi. – Hozirgi kunda bizniki eng prestijniy soha. Talabgorlar ko'p. Keyin... Umuman... Bizning talabalar hamma narsani bilishi shart. Tarixniyam, matematikaniyam, ekonomikaniyam.

– Pul sanashni, – deb qo'ydim dadamning gapi esimga tushib. «Katta domla» men tomonga xavotirlanibroq qarab oldi. Rais buvaga shunaqangi ta'na-malomat bilan o'qraydiki, o'zim ham qo'rqib ketdim.

– Ammo Shodivoy – zehni bola! – dedi Rais buva shosha-pisha. – Ko'rasiz, domlajon, ishonchingizni bir yuz ellik foiz oqlaydi. Qolaversa, bu yoqda o'zimiz turibmiz.

... Shodivoy ikkalamiz nimqorong'i ko'cha boshida rais buvaning chiqishini poylab ancha turib qoldik. Oxiri rais buva «Katta domla»ni insofga keltirdi, shekilli, yengil tortibroq chiqdi. O'zi ham, qo'li ham...

– Birpas gapga aralashmay tursang o'larmiding, tut-xo'r! – dedi menga xo'mrayib. Ammo boshqa koyimadi. – Qattiqroq tayyorlanlaring. Ekzamenni Begmatov degan

odam olarkan. Domla aytib qo'yadigan bo'ldi. Begmatovning o'zi senlarni topib oladi.

... Begmatov degani yuzi qoshiqdekkina, ko'zoynagi piyoladekkina kishi ekan. Bir kuni konsultatsiyadan keyin Shodivoyga imo qilib, «sen qol» dedi. Meni unutib qo'ydiyov! Hamma chiqib ketganidan keyin Shodivoy ikkalamiz auditoriyada qoldik.

– Sen nima qilib o'tiribsan? – dedi Begmatov ko'zoynagi ustidan menga o'qrayib.

– Buyam o'qishga kirmoqchi! – Begmatov menga qanaqa o'qraygan bo'lsa, Shodivoy ham unga shunaqa o'qrayib qaradi.

– Bo'pti! – Begmatov Shodivoyning qog'oz papkasidan ma'limimiz yozib bergan insholarni olib, tekshirib chiqdi. Ba'zi joylarini tuzatdi. – O'qituvching pishiq ekan, – dedi xursand bo'lib. – Bexato ko'chirsang, «besh»ga tortadi. Ertaga oxirgi qatorga o'tir. – Shunday dedi-yu, chiqdi-ketdi.

... Mana, o'tiribimiz oxirgi partada! Omadni qarang-ki, xuddi o'sha «Qutlug' qon» tushsa deng. Kattakon auditoriya jimjit. Yuzdan ortiq yigitlar-u qizlar shipillatib insho yozib yotibdi. Narigi qator oralab keksaroq xotin, bizning qator tomonda Begmatov u yoqdan-bu yoqqa borib-kelib turibdi. Ma'limimiz yozib bergan inshoni o'rtaga qo'yib olganmiz. U yoqdan Shodivoy ko'chiradi, bu yoqdan men.

Endi uchinchi betga o'tgan edik, o'rtaroqda shovqin-suron bo'lib ketdi.

– Tur o'rningdan! – dedi Begmatov dag'dag'a bilan. – Cho'ntagingni ko'rsat. Unisinimas, chap cho'ntagingni!

Eskiroq do'ppi kiygan yigit talmovsirab o'rnidan turdi.

– Ko'chirganim yo'q, domla, – dedi yalinib. – Men erkin mavzuda zo'ryapman. Unaqasi yo'q menda.

– Manavilar shparkalka bo'lmay nima?

– Ishonmasangiz qarang! Menda unaqasi yo'q! – yigit bechoraning rangi oqarib ketdi.

– Chiqib ket!

– Domlajon! Men uch yildan beri kelaman, – yigit alam bilan yer tepindi. – Ko‘chirganim yo‘q. O‘zim yaxshi bilaman bu mavzuni.

– Yanagi yilga to‘rtinchi marta kelasan! – Begmatov do‘ppili yigitning yozayotgan narsasini olib, ikki bukladi. Shoshilmasdan cho‘ntagiga tiqdi-da, eshikni ko‘rsatdi. – Marsh!

Voy-bo‘! Domlajonning achchig‘i yomon ekan-ku! Bir mahal qarasam, domlajon biz tomonga bostirib kelyapti.

– Bekit, Shodi! – dedim jon holatda.

Shodi shoshib qolganidan ma‘limimiz yozgan inshoni bir tortgan edi, qog‘oz «shalop» etib stol tagiga tushdi. «Bo‘ldi! Tamom bo‘ldik!» Men-ku, mayli, qaytib ketaveraman. Jo‘ram dadasidan baloga qoladigan bo‘ldi-da!

Domlajon zipillab tepamizga keldi. Yerda yotgan shpargalka-qog‘ozni engashib oldi.

– Tuppa-tuzuk yozibsana-ku! – dedi ko‘zoynagi orqasidan muloyim jilmayib. Qog‘ozni stol ustiga qo‘ydi. – Shoshmasdan yozgin, xo‘pmi? Undan keyin... «mehnat qilib» deb yozilmaydi. Oxirgi harfi «b» bo‘ladi. «Mehnat qilib»... Tuzatib qo‘y...

Shodivoy «p»ni «b» qilib o‘zgartirdi. Men ham issig‘ida o‘zgartirib qo‘ya qoldim.

– Yozishing durust! – dedi Begmatov domla Shodivoyning ishiga ko‘z yugurtirib. – Shoshilma, hali ikki soat vaqt bor.

Qoralamani eson-omon yozib bo‘ldik. Endi oqqa ko‘chirish kerak. G‘ayrat bilan ishlab yotgan edim, domlajon yana Shodivoyning tepasiga keldi.

– Yaxshi... – dedi birinchi betni o‘qib. – Keyin Shodivoyning qo‘lidan ruchkani oldi-da, ikkinchi betning burchagiga bilinar-bilinmas nuqta qo‘ydi. – Yozaver, – deb nari ketdi.

Qarang, ikkinchi betning burchagiga, naq qizil chiziq yonboshiga nuqta qo‘yish kerakligini bilmas ekanmiz-da! Yaxshiyam domlajon o‘rgatgani! Domlajon Shodivoyning

inshosiga qanaqa nuqta qo'yib ketgan bo'lsa, men ham xuddi o'sha ikkinchi betning xuddi o'sha burchagiga, xuddi o'shanday nuqta bosdim. Katta ham emas, kichik ham.

Shodivoy ikkalamiz judayam birinchi bo'lib emas-u, to'rtinchimi, beshinchimi bo'lib, inshoni topshirib chiqdik. Og'iz quloqda.

– Ikkalamiznikiyam «besh» bo'ladi! – dedi Shodivoy iljayib.

– Yo'q, Shodi... – dedim kamtarlik bilan. – Seniki «besh», meniki «to'rt» bo'ladi.

Rais buva juda mehribon-da! Sadaqayrag'och tagidagi skameykada shlyapasi bilan yuzini yelpib kutib o'tirgan ekan. Umuman, institut oldidagi maydon odamga to'lib ketibdi. Hayronman, anavi chol-kampirlar ham imtihon topshirgani kelganmi, nima balo?

– Bo'rimi-tulki? – dedi Rais buva shlyapasini boshiga ilib.

– Yo'lbars! – dedim iljayib.

– Malades! – Rais buva Shodivoyning elkasiga qoqdi. – Indinga bahoingni e'lon qilishadi. Shunisidan «besh» bo'lsa, og'zakisi chepuxa!

... Indinga Rais buva, Shodivoy, men – uzun-qisqa bo'lib yana o'sha ko'pqavatli bino oldiga keldik. Voy-bo'! Avvalgi kuni to'plangan odamlar ham baharnav ekan. Chiyali bozor bo'pketibdi-ku, hammayoq! Poxol shlyapa kiygan qorindor kishilar. Biri atlas, biri hilhiloyim ko'ylak kiygan xotinlar. Maydoncha mashinaga to'lib ketgan. «Volga»lar, «Jiguli»lar... «Moskvich»lar, hatto, oynasiga «R» degan harf yopishtirilgan «Zaporojes»gacha bor. Tag'in nomeriyam har yoqniki. Ota-onalar har joy-har joyda to'p-to'p bo'lib turishibdi. Olaquroq matodan keng-mo'l ko'ylak kiygan xotin o'rtacharoq samovardek keladigan termosdan choy quyib, yonidagi olacha to'nli kishiga uzatadi. Yerga to'shalgan ixchamroq sholchaga o'tirib olgan tarashadek ozg'in xotin tog'oradan manti olib,

o'g'liga tiqishtiradi: «Olsang-chi, ibi, katmatta bacha uch kundan beri avqot yemaysan-ku!»

Bizning fakultetga xaridor juda ko'p ekanmi, rais buva birovni tirsagi bilan, birovni dumbasi bilan turtib yo'l ochguncha terlab ketdi. Oxiri yog'och panjara taxtaga ilib qo'yilgan ro'yxat oldiga sog'-salomat yetib bordik. Shoshapisha ro'yxatni topdim. Mana, «Oltinchi B gruppа...» Yuragim taka-puka bo'lib o'qiy boshladim.

– Abbosova – 2, Abdullayev– 3, Abdurahmonov– 2, Abdusalomova – 2, A'zamova – 3, Azimova – 4, Alimov...

Nima? Avval o'ng ko'zimni ishqalab ko'rdim. Keyin chap ko'zimni... Hafsala bilan ishqalab-ishqalab, qayta o'qidim. Alimov– 2. Iye, bu qanaqasi? Axir, Begmatov domlaning o'zi Shodivoyni maqtovdi-ku! Shoshma, balki boshqa Alimov bordir? Yo'q. Aniq-taniq qilib yozib qo'yibdi. «Alimov Sh. – 2».

Yonimda allakim otdek, yo'q, mening Tulporimdek pishqirdi. Qarasam, rais buva entikib-entikib nafas olyapti.

Shoshapisha «S» harfini qidira boshladim. Aslidaku, izlashdan foyda yo'q. Shodivoyniki 2 bo'lsa, bizniki 1 bo'ladi-da!

Sadriyev– 4, Samadova – 2, Sattorova – 5 (xayriyat-ey, «besh» ham qo'yarkan-ku) Salimov...

«Salimov»ni pichirlab o'qidim-u, ko'zim tinib ketdi. Nazarimda, havo yetishmagandek, nafasim qaytib ketgandek bo'ldi. «Salimov Q...»ning ro'parasida 5 raqami jaranglab turibdi-da! Shoshma, tag'in boshqa «Salimov» bo'lmasin! Yo'q, uyog'i «To'xtayev– 2»ga aylanib ketibdi. Shuni g'ira-shira angladimki, bir yuz yigirmata familiya orasida bor-yo'g'i uchta «besh» bor ekan. To'rttami-beshtami – «4». Yettita – «3». Qolgani qatorasiga – «2»!

– Ketdik! – Rais buva shunday hayqirdiki, muttasil chug'ur-chug'ur qilayotgan odamlar o'q ovozi eshitgan chumchuqlardek jimjit bo'lib qoldi. Rais buva Shodivoyning bilagiga chang soldi. – Tezroq!

– Shoshmang! – dedi Shodivoy yulqinib. – Qo‘shoqnikini ko‘ray!

– E, Qo‘shog‘ingni! – Rais buva jo‘ramning bilagidan changallab sudradi. O‘z-o‘zidan jonli yo‘lak ochilganiga xursand bo‘lib, men ham ergashdim.

– Padaringga la‘nat! – Rais buva tashqariga chiqib battar entikdi. – «Katta domla» bo‘lmoq tugul akademik bo‘lmaysanmi! Hali shunaqangi o‘ynatayki, shogirding bilan... Tezroq! – dedi Shodivoyga o‘shqirib.

Katta yo‘l bo‘yiga chiqib oldik. Rais buva duch kelgan mashinaga qo‘l ko‘tara boshladi. Aksiga olib, qani to‘xtasa!

– Qo‘sho? – dedi Shodivoy pichirlab, – seniki nechcha?

– «Be-esh», – dedim men ham pichirlab. – Xafa bo‘lmasin, jo‘ra, sen kirmasang, menam kirmayman. Ketaman.

Nihoyat, surmarang taksi rais buvadan sal nari o‘tib to‘xtadi.

– Gastinisaga! – dedi rais buva old eshikni ochib. Qaysi gastinisaga borishimizni aytdi.

– Men parkka ketayotgan edim, mehmon... – keksaroq taksichi xijolat chekkandek iljaydi.

– Og‘zingga siqqanini olmaysanmi, qanaqa odamsan! – Rais buva shopir oldiga o‘tirib eshikni qars yopdi. – Hoy, – dedi baqirib. – Min chaqqonroq!

Taksichi bir rangi o‘chdi-yu, indamadi. Gastinisa oldiga kelguncha hech kimdan sado chiqmadi. Yetib kelishimiz bilan Rais buva orqaga qarab o‘shqirdi.

– Tushlaring! Shu yerda poylab turasan. Men yarim soatda kelaman. Ketskik! – dedi shopirga imo qilib. – Prapirsksiy gorodokka!

– Gastinisaga degansiz, mehmon! – shopir nihoyatda xotirjamlik bilan motorni o‘chirdi. – Men parkka bori-shim kerak.

– Hov, bodi! – Rais qo‘li titrab cho‘ntagini kavlati. Kaf-ti to‘la pulni shopirning tizzasiga shapatiladi, – yetadimi yo yana beraymi?

Ajab, taksichining jahli rais buvanikidan battar ekan. Lip etib eshikdan chiqdi-yu, mashina oldidan aylanib o‘tib, berigi eshikni ochdi.

– Tush! – dedi ovozi titrab.

Rais buvadek odamni «sensiragan» kishini ikkinchi marta ko‘rishim edi. Hov, maktabda fizika muallimimiz Usmon Qilichev shunaqa muomala qilganda hayron qolgan edim. Bu safar ham og‘zim lang ochilib qoldi.

– Tush-e, o‘rgildim boyvachchaligingdan! – Taksichi shunday dedi-da, pullarni uloqtirib yubordi. – Rais buvani yoqasidan bo‘g‘ib pastga tushirdi. Joyiga o‘tirib eshigini qarsillatib yopdi-da, jo‘nab ketdi.

Rais buva jon holatda o‘zini chetga oldi.

– Nomiri nechcha, Shodi? – dedi chiyillab.

Shodivoy ikkalamiz es-hushimizni yig‘ib olgunimizcha taksi ko‘chadan shovillab o‘tayotgan mashinalar daryosiga sho‘ng‘ib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

– Kutib turlaring! – Rais buva taksi nomerini yozib olishniyam unutib, ko‘cha chetiga yugurdi. Allaqanday «Jiguli»ni to‘xtatib, o‘tirib oldi.

Shodivoy ikkalamiz mung‘ayib qolaverdik. Qarasam, o‘rtog‘imning ko‘ziga yosh to‘lib turibdi.

– Shodi-i! – dedim yalinib. – Yur, morojniy yeylik.

Jo‘ram indamay ketimdan ergashdi. Oqshom tushib qolgani uchunmi, morojniyxonada odam ko‘p edi. Bu gal bir emas, ikkitadan muzqaymoq oldim.

Avvalgi safar Shodivoy ikki yamlab bir yutgan edi. Endi bo‘lsa, qoshiqni yalab, ermak qilib o‘tiribdi.

– Shodi... – dedim sekin. – Yana morojniy opkelaymi?

– Bo‘ldi, – dedi Shodivoy iljayishga urinib. – To‘ydim.

– Shodi, – dedim tag‘in yalinib. – Xafa bo‘lmasin.

– Xafamasman, Qo‘sho...

O‘ylab-o‘ylab bir narsani topdim.

– Menga qara, Shodi... – dedim tantana bilan. – Bilasanmi, nima qilamiz? Men o‘zimning «besh»imni senga beraman! Sening «ikki»ngni men olaman!

– Jinnimisan! – Shodivoy boyadan beri birinchi marta kulib yubordi. – Ikkalamizdan bittamizniki baribir «ikki» bo‘lishi kerak edi-ku!

– Bo‘pti-da! Meniki «2», seniki «5» bo‘ladi!

– Qo‘y, jo‘ra! – Shodivoy ko‘zimga shunaqa aqlli, shunaqa ma‘noli tikildiki, damim ichimga tushib ketdi. – O‘qisam, sen bilan o‘qiyman, bo‘lmasa kerakmas! Sensiz bir kun ham turmayman bu yerda.

Qorong‘i tushib qolganida ikkalamiz sho‘ltillab, gashinisa tomonga o‘tdik. Liftga o‘tirib, yettinchi qavatga ko‘tarildik. Bugun «Muxa» opaning navbati ekan. Negadir bizdan oldin salom berdi.

– Keldinglarmi? Rais aka kutyaptilar, – dedi iljayib.

O‘zimizning yetti yuz o‘n to‘qqizinchi xona eshigini endi itarmoqchi edim, ichkaridan kelayotgan ovozni eshitib, to‘xtab qoldim. Bilaman, rais buvaning achchig‘i yomon. Shodivoyga «to‘xtab tur» deb imo qildim.

– Tartib bormi o‘zi sizlarda! Labz bormi? Masalan, men paxta planini bir yuz ellik foiz bajaraman dedimmi – bajaraman! – bu Rais buvaning ovozi edi. – Yerning tagidan olib bo‘lsayam bajaraman! – Brigadiringa har gekardan 55 sentnerdan olasan, dedimmi – oladi. Olmasin-chi, ichagini boshiga salla qilib qo‘yaman! Siz-chi, siz? Kim bo‘psiz? Nari borsa, bir domlachasiz! Nega katta domlaning topshirig‘ini bajarmaysiz?

– Bajarish bundan ortiq bo‘ladimi? – begonaroq tovush asabiy jarangladi. – Katta domlaning aytganini qildim. Chernovikni tekshirdim. Belovikka belgi qo‘ydim. Nima, imtihon komissiyasi ahmoqmi! Bu – sizning kolxozingizmas, rais aka! Shifrlarni chalkashtirib tashlashgan. O‘g‘lingiz tayyor inshoniyam o‘n ikkita xato bilan ko‘chiribdi. Cher-



novo-yu belovoyini ming mashaqqat bilan topdim. Katta domlanning yuzidan o'tolmay uyimga obordim. Beshinchi kursda o'qiydigan singlimga qayta yozdirdim, tag'in nima deysiz?

– Kimnikini? – Rais buva shunaqangi chiyilladiki, yig'lab yuboray dedi. (Bechoraga rahmim kelib ketdi).

– Qayoqdan bilay? – rais «domlacha» degan odam undan battar yig'lamsiradi. (Endi «domlacha» sho'rlikka yuragim tuzdek achisha boshladi). – Aniq esimda bor: belavoyga o'z qo'lim bilan belgi qo'yganman. Mana shu qo'lim bilan.

– Kimnikiga?

– Qayoqdan bilay! Belgi qo'yganimni «5»ga to'g'riladimmi axir. Tag'in nima deysizlar.

– Gapni aylantirma, domlacha! Sengayam ulush tegdimi-yo'qmi? Shundan gapir!

– E, qanaqa odamsiz o'zi? Menga unaqa gaplarni gapirmang, aka! Xotinim bo'lmasa, bola-chaqam bo'lmasa... – «Domlacha» entikib qoldi. – Jonimga tegdi, – dedi ingrab. – To'rt yildan beri kandidatskiyni yoqlolmayman. Katta domlanning yuzidan o'tolmay...

– Voy, nimaga kirmay turibsizlar? Rais aka kutyaptilar! – qulog'im tagida shaqillagan ovozdan cho'chib tushdim. Qarasam, «Muxa» opa ikki qo'lida ikki choynak ko'tarib turibdi. Meni rais buvaning o'g'li deb o'yladi chog'i, ogohlantirdi. – Mana, yigitcha, dadangizga aytib qo'ying. Bunaqa gaplarni baqirib aytmaydi odam. Gostinitsa – nozik joy. Bunaqa ishlar imi-jimida qilinadi...

Eshikni qandoq ochdim, choynak ko'tarib qandoq ichkariga kirdim, esimda yo'q. Qarasam, to'rtburchak stolning u tomonida rais buva, bu tomonidan Begmatov domla bir-biriga jo'jaxo'rozdek bo'ynini cho'zib turibdi.

Begmatov domla avval Shodivoyga, keyin menga ko'zoynagi orqasidan tersayib qarab qo'ydi.

– Sen – Salimovsan-a? – dedi Shodivoyga.

– Yo‘q, – Alimov! – Shodivoy elkasini qisdi.

Domlajon endi menga yuzlandi.

Sening familiyang Alimov emasmi?

– Yo‘q, domla, Salimov, – dedim hech baloga tushunmay.

Begmatov domla, negadir qo‘llari titrab, har ko‘zi piyoladek keladigan ko‘zoynagini yechdi-da, taraqlatib stolga tashladi. Tirnab teshilgandek mitti ko‘zlarini menga qadab, taxminan besh daqiqa turdi. Keyin Shodivoyga yuzlandi. Chamamda, jo‘ramga mendan ko‘ra ko‘proq tikildi. Undan keyin Rais buvaga qaradi-da, ingichka yelkari silkinib g‘alati ovoz chiqardi. «Ix-xi» dedimi «xih-ho» dedimi, yaxshi eshitmadim. Ana undan keyin to‘satdan o‘zini orqaga tashlab, Shodivoyning karavotiga yiqildi-da, g‘ayritabiiy qiliqlar qila boshladi. Tikilibroq qaragam, kulayotgan ekan. «Xih-xi-xo!» «Hi-hi-hi!» «Voh-ho-ho!» U karavotga o‘tirib olib chillakdek tizzalariga urib kula boshladi.

– Rais aka! – dedi entikib. – Bularning familiyasini adashtirib yuboribmiz-ku, rais aka! Alimov bilan Salimovni chalkashtirib yuboribmiz. Inshoni Alimov «5»ga yozgan. – U dik etib o‘rnidan turdi-da, ko‘z yoshlarini artib, Shodivoyning ro‘parasiga keldi. – Obbo, uka-ey, obbo azamat-ey! Sal bo‘lmasa, g‘irt adolatsizlik bo‘larkanda! «Qutlug‘ qon»da inqilobiy ongning rivojlanishi»ni sen yozganmisan? Shuni aytmay-sanmi, ukajon! Tabriklayman! – u Shodivoyning yumshoqqina qo‘lini olib qisdi. – Yozmang– zo‘r! Og‘zakidan ham «besh» olsang...

Shodivoy alang-jalang bo‘lib qoldi.

– Qo‘sho-chi? – goh domlajonga, goh dadasiga qaradi. – Qo‘shoning ishi nima bo‘ladi? – dedi qo‘lini tortib olishga urinib.

– Adashibmiz-da, ukam! – domlajon Shodivoyning elkasiga qoqdi. – O‘rtog‘ing bu yil bo‘lmasa yanagi yil kiraveradi. Arzimagan xatolik o‘tibdi-da, rais aka... Darrov to‘g‘rilay-

miz! – Domlajon pildirab eshik tomon yurdi. Boyadan beri angrayib turgan rais buva endi o'ziga keldi.

– Katta domlaga salom ayting! – dedi yuziga qon yugurib.

Xatosini o'z vaqtida payqagan «domlajon» chiqib ketishi bilan uchalamiz bir-birimizga qaradik.

– Domlalar ham tirik jon-da! – Rais buva xiyol qizargandek bo'ldi. Erkalab kiftimga qoqdi. – Qara, Shodivoy bilan sening familiyangni adashtirib yuboribdi. Yigitlar, endi restoranga tushib bir maishat qilaylik.

Rais buva eshik tomon yo'nalgan edi, Shodivoy to'satdan g'o'ldirab qoldi:

– Dada!

– Ha! – dedi Rais buva uning ro'parasida to'xtab.

– Dada... – Shodivoy boshini quyi soldi. – Agar Qo'sho institutga kirmasa, men ham o'qimayman!

– Nim-ma? – Rais buva ikki qadam orqaga chekinib bo'ynini cho'zdi.

– Nima deding?

– Agar Qo'shoyam kirmasa...

– Ahmoq! – Rais buva rapidadek kaftini yozib, Shodivoyga po'pisa qildi. – O'chir!

Qarasam, Shodivoyning ko'zida g'alati, yovvoyi o't yonib ketyapti. Qo'yib bersam, ota-bola yoqalashib ketadigan.

– Shodi... – dedim yalinib. – Baribir mendan talaba chiqmaydi. Sen o'qiyvergin, jo'rajon! Men paxtada ishlaganim tuzuk.

– O'qimayman! Qo'sho o'qimasa, menam o'qimayman!  
– Shodivoy jini qo'zib, hammayoqni to's-to'polon qilib yubordi. – Boshida aytganman: Qo'sho kirmasa, men ham kirmayman, deganman.

– Xo'p, ulim, xo'p... – Rais buva uning elkasiga qoqdi. – Mana, jo'rang shuncha o'ynadi, ko'rmagan joylarni ko'rdi. Bir yilcha sabr qilib turgin. Yanagi safar jo'rangni o'zim

olib kelib, o'zim o'qishga joylayman... Kim biladi, hali sen o'qishni bitirib borguningcha Qo'shovoy sendanam zo'r odam bo'p ketadimi?

– Kerakmas! – Shodivoy qaysarlik bilan yer tepingan edi, yupatdim.

– Unaqa qilmagin, jo'rajon! Xo'p degin, o'qiy qolgin!

## O'ninchi bob

### «ARPATEXNIKA» QOIDALARI

Bugun viloyat radiosidan muxbir kelib, roppa-rosa bir soatcha qiynadi odamni! O'v, birodar, sendan boshqa ishim yo'qmi, bu yoqda kultivatsiya qolib ketyapti, degim keldi-yu, tilim bormadi. Rostini aytaymi? Maqtov degani yoqimli narsa bo'lar ekan! Keyingi paytlarda akang qarag'ay mashhur bo'p ketganmiz! Bir qarasang, ashqoldashqolini ko'tarib suratlash keladi. Bir qarasang, daftar-qalamini ko'tarib, gazetadan muxbir keladi. Suratga tushish-u gazeta muxbiri bilan gaplashishga ustasi farang bo'p ketganmiz. Masalan, suratlash goh traktor kabinasiga o'tqazib, goh chakkamga «baraka» chanoqni qistirib, besh-olti marta chiqillatadi-yu, ketaveradi. Muxbirning ishiyam oson. Tushlikda sho'rvadan quruq qolganing demasa, narisi bilan yarim soat vaqtingni oladi. «Brigadangizda necha gektar yer bor?» – deydi. «Har gektardan qancha hosil olmoqchisiz?» – deydi. «O'tgan xo'jalik yilida qanchadan olgansiz?» – deydi. Savoli og'zidan chiqmasidan javobni qotirib tashlaymiz. Yozadi, yozadi-da, ketaveradi.

Qarabsizki, gazetada iljayib turgan suratingiz chiqib turibdi. Voy qistaloq! Shu – yozuvchilaram ja gapga usta bo'ladi-da! Sarlavhasining zo'riligini aytmaysizmi? «Mash'al»ning mash'ali», «Paxtazorda tug'ilgan yigit», «Oq oltin zargari...» Xullas, odam bir og'izga tushdimi, oshig'i olchi bo'lib ketaverarkan. To'g'risini aytaymi? Hadeb ko'tar-

ko'tar qilaverganidan keyin yiliga kamida besh-olti marta gazetada maqtab chiqmasa, bir narsasidan ayrilgan odamdek mung'ayadigan bo'lib qolarkansiz!

E, nimasini aytasiz! Rais buva odam qildi-da, meni! Shundoq otaxonim bo'lmasa, yuraverardim-da, Tulporimga minib, ko'cha changitib. Mana endi kimsan Qo'shoqvoy Salimov desa tanimaydigan odam yo'q!

Ammo rais buva so'zining ustidan chiqadigan odam ekan. To'rt yil avval Shodivoy – jo'ramga «sen institutni bitirib borguningcha Qo'shovoy sendanam ulug' odam bo'p ketadi» deganda, karomat qilgan ekan-da!

Beriroq keling: quloqqa aytadigan gap chiqib qoldi.

Aslida, mening «mash'al» bo'lishim-u, butun boshli brigadaga rahbarlik qilib, hosildorlikni «misli ko'rilma-gan» darajada oshirishim, ya'ni har gektar paxta maydonidan 51 sentnerdan hosil ko'tarishim arzimagan gapdan boshlandi.

... O'shanda qadrdon jo'ram Shodivoyni qon-qon yig'latib, musofir yurtlarga o'qishga tashlab kelganimda o'zim ham bir haftagacha garangsib yurdim. Shodivoy bechoraning boshiga ne-ne tashvishlar tushmadiykin? Jo'ram ertalab vaqtida uyg'onolmay qiynalmayaptimi? Domlajonlar sho'rlikni siqib suvini ichmayaptimi?

Ikki hafta ichida «ozib» qolgan chamadonimni ko'tarib qishloqqa qaytganimda akang qarag'ayni har kim har xil kutib oldi. Onam suyunib ketdi. «Ajab qipsan, bolam, – dedi. – Yetti yot begonalar orasida ranging so-mondek sarg'ayib yurgandan ko'ra bag'rimda bo'lganing yaxshi, hozir institutni bitirganlar aptobusga osilib yursa, traktorchi mexayniklar o'zining mashinasida kataysa qiladi. Erta-indin singlingni uzatsak, seniyam oyog'ingni to'rtta qilib qo'yamiz». Onamning oxirgi gapi, moydek yoqib tushdi. To'g'ri-da, qishloq joyda qiz bolani vaqtida egasiga topshirmasa, gap-so'z ko'payadi. Singlinga shuni

aytib, yotig'i bilan nasihat qilmoqchi edim, mendan oldin bijirlab qoldi.

– To'g'ri bo'пти aka, sizni institutdan baribir haydab yuborishardi.

Gapini qarang! Menga aql o'rgatgandan ko'ra, tezroq erga tegib, yo'lni bo'shat, mahmadona!

Dadam esa, o'ng lunji uchib kinoya qildi.

– Qara-ya! Men seni olim bo'b keladi, devdim. Bilib qo'y, katta institutda raislarning bolasi o'qiydi, ulim! Sendaqalarga yo'l bo'lsin.

Meni ko'rib hammadan ko'p quvongan Tulporim bo'ldi. Og'ilxonaga kirishim bilan shunaqangni dikirlab ketdiki, onasini sog'ingan uloqcha ham bunchalik irg'ishlamaydi.

Ko'p o'tmay, terim kampaniyasi boshlandi. El qatori ishga tushib ketdim. Jimgina paxta terib yurgan edim, hamma ishni brigadirimiz To'lash aka buzdi. Bir kuni (kech kuz edi) ikki etak podbor terib, xirmonga olib chiqsam, tarozi boshida brigadirimiz qornini osiltirib, telpagini qiyshiq kiyib turibdi. Tergan paxtamni toroziga ildim. Uchoyoq qiltiriq cho'pga ilingan osma torozisi qiyshayib ketdi.

– Yigirma kilo! – To'lash aka «o't» degandek, soqoli tikanak bo'lib ketgan iyagi bilan imo qildi.

Jon-ponim chiqib ketdi!

Ikki etak podbor yigirma kilo bo'ladimi? Orasida allaqancha xom-xatala ko'sak bor, barakasini bersin deb erinmasdan qo'shgan tuprog'imning o'zi kamida besh kilo keladi. Maktabda o'qib yurganimda ham shu – To'lash aka doim «cho'michda qoqardi». Brigadirning tarozisi yigirma kilodan ortiq tortolmasa, men aybdormanmi? Yo'q, endi men sodda-go'l bola emasman. Naq Toshkentning o'ziga borib kelgan salkam talabaman! To'lash akaning «kamaytirib aytish» kasali tutganini ko'rdim-u, mening ham «oshirib aytish» kasalim qo'zg'ab ketdi.

– Sakson kilo! – dedim baqirib.

– Nima? – To‘lash akaning ko‘zi ola-kula bo‘pketdi.

– To‘qson! – dedim yer tepib.

– O‘v, tentak! – brigadir telpagini olib, siyrak sochli boshini hafsala bilan qashidi. – Ikki etak paxta sakson kilo chiqqanini ko‘rganmisan hech!

– Yuz! – uch oyoqli torozini bir tepgan edim, chillakdek yog‘ochlardan biri sinib, etaklar osilgan tarozi sharaqlab yerga tushdi.

– Ahmoq! Tarozini nima qilding? – To‘lash aka musht ko‘tarib ustimga kelayotgan edi, tormoz g‘iyqilladi. Bilmayman, osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi, rais buvaning «Niva»si shundoq xirmon yoniga kelib to‘xtadi. Poxol shlyapa kiygan Rais buva eshikni qarsillatib yopib yonimizga keldi.

– Nima gap? – dedi qovog‘ini solib.

– Manavuni qarang! – To‘lash aka menga qo‘lini bigiz qilib, yig‘lamsiradi. – Shu matohni sakson kilo deyapti! Tarozini sindirdi.

Rais buvaga xavotirlanibroq qarab turgan edim, u negadir iljaydi.

– Yuz yigirma! – dedi shaxsan o‘zim tergan ikki etak podborga qarab.

To‘lash aka esankirab qoldi. To‘g‘risini aytsam, o‘zim ham angrayib qoldim.

– Rais bova... – dedi To‘lash aka ming‘illab. – Axir bu...

– O‘chir! – Rais buvaning qoshi chimirilib ketdi. – Ko‘pdan beri kuzatib yuribman. Oshirilgan majburiyat olganimizni ko‘ra-bila turib, ataylab tempani tushirib yuboryapsan.

– Rais bova! – To‘lash aka siyrak kipriklarini pirpiratdi.

– Bugun uch protsent berishing shart!

– Rais bova, axir qanaqasiga... Paxtaning o‘zi yo‘q-ku, – To‘lash aka shunaqangi iltijo qildiki, bechoraga rahmim keldi. U yog‘ini so‘rasangiz, tergan podborim tuproq-

muprog'i bilan qo'shib hisoblashgandayam, o'ttiz kilodan oshmasligini o'zim ham bilaman.

– Mayli, qirq kiloga roziman! – dedim insofga kelib.

Rais buva gapimni eshitdimi-yo'qmi bilmayman-u, har qalay To'lash akaga qo'lini paxsa qildi.

– Gap shu. Bugun uch protsent berasan!

– Qayoqdan olaman yo'q paxtani?! – To'lash aka siyrak sochli boshini alam bilan qirtillatib qashladi. Rais buva gapning lo'ndasini aytib qo'ya qoldi.

– Qaribsan, To'lash! O'sib kelayotgan yosh kadrlarga yo'l berish kerak. To'rt oydan keyin o'rningga shu bola brigad bo'ladi!

Rais buva «Niva»siga o'tirdi-yu, ketdi-qoldi. To'lash aka menga qaradi, men To'lash akaga.

– Mayli, o'ttiz kilo! – dedim achinib.

– E, bor-e! – brigadirimiz boshini ikki qo'llab qashlagan nari ketdi.

Rais buva hazillashdi, desam chin ekan, to'rt oy mexanizatorlar kursida o'qidim-u, brigad bo'lib qoldim. Qayoqqa qaragam, «Qo'shoq Salimov, Qo'shoq Salimov!» Qo'ying-chi, Qo'shoq Salimovga it boqmaydi!

To'lash akayam yurgan ekan-da, brigadirman deb! Har gekardan oladigan paxtasi o'ttiz sentnerdan oshmasdi. Ishni do'ndirishni bizdan so'rasin! Bolaligidan paykal ichida yurgan odamga paxta yetishtirish nima bo'пти?! Birinchi yil hosildorlikni gektariga qirq uch sentnerga yetkazdik. Ikkinchi yili qirq yetti sentnerga. Mana bu yil ellik bir sentnerga chiqarmoqchimiz. Aslida-ku, hosilning cho'g'i ko'pmas. Nachora, kattalar aytsa plan ham bo'laverarkan-da. Ishlar gumbur! Gazetalarda suratlar chiqqan! Maqolalar bosilgan! Majlislarning to'rida o'tiramiz! Rais buvaning aytishicha, shu yil medal olsak, ajabmas.

Bugun kelgan radio muxbiriga shularni bir chekkadan aytib bermoqchi edim, dahmazasi ko'p ekan! Qoq peshinda g'o'za kultivatsiya qilib yursam, shiypon tomonda rais



buvaning «Niva»si ko'rindi. Mashina Tulporim bog'lab qo'yilgan tol salqinida to'xtab, cho'zib-cho'zib, signal berdi. Ertalab dalaga eshagimni minib kelaman. (Traktor minib kelmaydi-ku, odam, to'g'rimi? Menda pat-pat yo'q). Keyingi paytlarda Oysara yangam guldek ochilib, lorsillab ketgan. Ustiga-ustak battar ziqna bo'lib qolgan. Mototsikl kalitining bandiga ip bog'lab, bo'yniga osib yuradi. Xotini semirgan sayin Tursunboy akam ozib ketyapti. Allaqanday odamovi bo'lib qolgan. Hayronman...

Shunday qilib, traktorimda kultivatsiya qilib yursam, shiypon tomonda Rais buvaning «Niva»si ko'rinib qoldi. Traktorni dala o'rtasida to'xtatib, belga urib yotgan g'o'zalar oralab o'sha tomonga yugurdim. Halloslab yetib borsa, bo'yniga tasmasi uzun apparat osgan sap-sariq jingalaksoch yigit, do'ppi kiygan o'rta yoshlardagi kishi, rais buva tol soyasida gurunglashib turishibdi.

– Mana, bizning mash'al brigadir – Qo'shoq Salimov! – dedi Rais buva tantanali ohangda. – Qo'shoqvoyning tajribasini oblast emas, butun respublikaga yoysa arziydi! Gektaridan ellik bir sentnerdan hosil ko'taraman, deb jon kuydirib yotibdi, azamat! Bo'pti, bir soatdan keyin mashina kelib, sizlarni boqqa olib boradi. Tushlikni o'sha yerda qilamiz. – Rais buva shunday dedi-yu, «Niva»ga o'tirdi.

– Ketdik, Qamchibek! – dedi shopirga.

«Niva» chang-to'zon ko'tarib g'izillab ketdi.

Do'ppili kishi ham, jingalak malla sochli yigit ham men bilan qo'shq'llab so'rashdi.

– Gap bunday, o'rtoq... – do'ppili kishi cho'ntagidan to'rt buklog'li qog'oz olib, shosha-pisha o'qidi. – O'rtoq Salimov. Biz obradiodanmiz. Mening familiyam Po'latov, bu yigit – u yelkasiga tasmasi uzun magnitafon osib olgan mallasoch yigitga imo qildi, – operatorimiz Kolya. Kolya, tayyorlan! Endi gap bundoq... – U yana qog'ozga qarab qo'ydi, – o'rtoq Salimov! Men sizga savol beraman. Siz,

mana bu qog'ozga qarab, sharillatib o'qiyverasiz. Gatopmi, Kolya? – muxbir jingalaksoch yigitga buyurdi. – Bo'la qol!

Mallasoch yigit yelkasiga ilib olgan chamadondan avval magnitafon chiqardi. Keyin mikrofonni magnitafonga ulab, Po'latovga uzatdi. Magnitafon murvatlarini burab, sozladi.

– Vsyo, Po'latov aka, – dedi jilmayib.

Muxbir mikrofonni og'ziga tutdi.

– Bir, ikki, uch... Qalay, Kolya?

Kolya mixday, degandek bosh barmog'ini dikkaytirdi.

Muxbir, mikrofonni og'zidan taxminan yarim quloch uzoqlatib gap boshladi.

– Hurmatli do'stlar! Bugun biz viloyatimizning mash'al tumanidagi «Mash'al» kolxoziga tashrif buyurganmiz. Yo'q, aziz tinglovchilar! Bu ramziy ma'nodagi so'z emas! Butun respublikaga dong'i ketgan nishondor rais, paxta ilmining haqiqiy akademigi Toshmamat Alimov rahbarlik qilayotgan xo'jalikning nomi «Mash'al» deb ataladi. Mana, biz «Mash'al» kolxozining «oq oltin» zargari Qo'shoqboy Salimov boshchiligidagi eng ilg'or brigada dala shiyponidamiz. – U mikrofonni baland ko'tarib, tol tomonga to'g'riladi. Shu alpozda ancha turib qoldi. Nazarimda, oyog'ining uchida cho'zilib turaverib, charchab ketdi-yov. Tol shoxida chumchuqlar tinimsiz chirqillar edi.

– Eshityapsizmi? – dedi mikrofonga. – Qushlarning shodon chug'urini, eshityapsizmi? Bu – zahmatkash Qo'shoqboy Salimov boshchilik qilayotgan azamat paxtakorlarning shinam dala shiyponi. Qushlar shod-xurram sayrab turibdi. G'ir-g'ir shabada esadi. – Muxbir bir zum jimib qoldi. Shimining cho'ntagidan ro'molcha olib, peshonasidan duv-duv oqayotgan terni artdi. – Shiypon atrofi gulzor! – dedi tantana bilan, – anvoyi gullar mayin shabadada ohista tebranib turibdi. – U saraton oftobida hansirab yotgan paxtazorga qarab qo'ydi. – Gullarning muattar hidini aytmysizmi? Hozir– tushlik payti. Yaxshi

dam – mehnatga hamdam, deganlaridek, brigada a'zolari miriqib ovqatlanib bo'lib, dala shiyponi kutubxonasida gazeta-jurnallar o'qishyapti, ba'zilar rangli televizor ko'rishyapti. – U suvoqlari ko'chib tushgan devorlarga, derazasi sinib ketgan shiypon hujrachasiga, yerga to'shalgan eski sholchaga mehr bilan qarab, davom etdi. – Biz mehnat maydonida javlon urayotgan yosh qahramon, yil sayin hosildorlikni oshirayotgan, bu yil har gektar maydondan 51 sentnerdan xirmon ko'tarishga azmu qaror qilgan brigada boshlig'i – Qo'shoqboy Salimovga so'z beramiz. – U menga qarab muloyim jilmaydi. – Qo'shoqboy! – dedi tantanali ohangda. – O'z ishlaringiz haqida ikki og'iz gapirib bersangiz. – Shunday dedi-yu, «o'qing» degandek boya qo'linga tutqazgan qog'ozga imo qildi.

Xuddi shu payt, palakat bosib, yo'tal tutib qolsa bo'ladimi? Bilmadim, bolaligimdan shu kasalim bor. Maktabda doskaga chiqsam ham avval bir yo'talib olib, keyin gap boshlar edim.

– O'x-xo', o'x-xo'! – dedim bo'g'ilib.

Muxbirning ko'zi alang-jalang bo'p ketdi. Xavotirlanib, mallasoch Kolyaga qaradi. Kolya «ziyoni yo'q» degandek qo'l siltadi. Muxbir menga o'girilib qo'lini ohista siltadi. Tushunmadim, «to'xta» deyaptimi, «boshla» deyaptimi?

– O'qiveraymi? – degan edim, muxbir chinqirib yubordi.

– Stop, Kolya! – keyin menga tushuntirdi. – Imo qildim-ku, boshlamaysizmi? Zapis, Kolya!

Mikrofonni og'zimga tiqqudek bo'lib, baqirib o'qib ketdim.

– Biz, «Mash'al» kolxozining azamatlari...

– Stop! Mikrofonni yorib yuborasiz-ku, qanaqa odamsiz o'zi! – muxbir mikrofonni menga ishonmay, o'zi ushlab turadigan bo'ldi. Yarim quloch narida. – Marhamat, – dedi shivirlab.

– Biz «Mash'al» kolxozining azamatlari arpatexnika qoidalariga amal qilib...

– Stop! – muxbir alam bilan qo‘lini paxsa qildi. – Mashinkada ko‘chirilgan tayyor narsaniyam o‘qiyolmay-sizmi?! «Arpatexnika»ga balo bormi? «Agrotexnika!».

– Qayoqdan bilay, aka! – qog‘ozni muxbirning tumshug‘iga tiqishtirdim. – Mana, o‘zingiz o‘qing.

Muxbir qog‘ozga ko‘z yugurtirib, xijolatli iljaydi.

– Hech mashinistkaga yolchimadik-yolchimadik-da! Boshladik, Kolya!

Boyagi so‘zlarni qaytadan o‘qib ketdim.

– Biz – «Mash‘al» kolxozining azamatlari arpatexnika qoidalariga qat‘iy amal qilib, o‘tgan xo‘jalik yili...

Muxbir qo‘lini paxsa qilib o‘dag‘ayladi.

– Arpatexnika emas, dedim-ku, agrotexnika! Tushun-yapsizmi, ag-ro-tex-ni-ka!

Menikiyam tutib ketdi.

– Nega baqirasiz? O‘zingiz shunaqa deb yozib qo‘yibsiz-ku!

– Yaxshi, – dedi yuzidan duvillab oqayotgan terni ar-tib, – jonli suhbat qilib qo‘yaqolamiz. Tekst kerakmas. – Kolya, boshladik! – U mikrofonni og‘ziga yaqin keltirib gap boshladi. – Hurmatli Qo‘shoqboy! Mana, siz yosh brigadirsiz. Yoshlik – shijoatdir, degan maqol bor. Uch yil avval siz boshchilik qilayotgan zarshunoslar gektaridan 43 sentnerdan hosil olishgan, to‘g‘rimi?

– To‘g‘ri! – dedim baqirib.

Muxbir «judayam unchalik hayqirish shart emas» degandek ko‘rsatkich barmog‘ini labiga bosdi.

– O‘tgan yili 47 sentnerdan xirmon ko‘targansiz. To‘g‘rimi?

– To‘g‘ri!

– Bu yil gektaridan 51 sentnerdan durdona yig‘ib olmoqchisiz. Ayting-chi, bu muvaffaqiyatlarning siri nimada?

– Hech qanaqa sir-piri yo‘q! – gazetachilarga doim aytadigan gaplarim yod bo‘lib ketgani ish berdi. O‘ziyam

bulbuligo‘yo bo‘pketdim-ov! – g‘ayrat bilan ishlayapmiz. Agar hurmatli Rais buvamiz gektaridan 60 sentnerdan hosil ko‘tarasan desa, uniyam do‘ndiraveramiz! – To‘satdan kolxoz idorasining peshtoqiga ilib qo‘yilgan shior esimga tushdi. – Muxbir aka! – dedim tantanali ohangda. – «Plan-qonun, majburiyat – vijdon» degan gap bor! Biz har qancha majburiyat bo‘lsa uddalayveramiz!

Muxbir mikrofonga egildi.

– Qo‘shoqjon! – dedi menga emas, mikrofonga qarab. – Xalqimizda ajoyib hikmatli gap bor. Daromadga yarasha buromad, deganlar. Ayting-chi, brigada a‘zolarining daromadi qanday? Shu jumladan o‘zingizning ham?

– Daromadning mazasi yo‘q! – dedim xo‘rsinib. – Yaqinda singlimni uzataman deb, dadamning beli chiqib ketdi. Shahar joyda qanaqa, bilmayman-u, bizning udumimizda qiz uzatgan ota-ona aqalli to‘qqiztagina ko‘rpa qilishi kerak. Dadam sho‘rlik to‘qqizta ko‘rpagacha chit izlab, Toshkentgacha borib kelsa, deng. Hayronman, muxbir aka, paxta planini qancha oshirib bajarsak, chit, satin, sochiq degan matohlar shuncha kamayib ketyapti.

Qarasam, muxbirning og‘zi lang ochilib, jag‘i osilib qoldi. Nuqul og‘ir-og‘ir kiprik qoqadi.

– Hali buyoqda o‘zimning uylanishim bor, – dedim g‘o‘ldirab. – Yuraveramanmi, boshim tuynukdan chiqib! Uylanish hazil gapmi, muxbir aka! Dadam bir invalid bo‘lsa...

– Bu yog‘ini montaj qilamiz, Kolya! – dedi muxbir gapimni bo‘lib. Keyin yana menga yuzlandi. – Fidoyilik bor joyda g‘alaba bor, deydilar. – Siz boshchilik qilayotgan brigada a‘zolari chinakam fidoyi odamlar. Ayting-chi, ular orasidan kimlarni alohida ta‘kidlagan bo‘lardingiz?

– Hammasiyam yaxshi! – dedim boyagi gapim chala qolganidan g‘ijinib.

– Masalan?

– Ya’ni masalan, Tursunboy aka! Halol odam! – dedim rostini aytib. – Yaxshi mexanizator. Ammo-lekin xotini Oysara yangam... Ha, mayli, u yog’ini aytmay qo’ya qolay. Choriyam yaxshi mexanizator. Panji suv tarashning ustasi. Ammo shu Panji uylandi-yu, aynidi, muxbir aka! Kecha deng, g’o’zani sug’orib turib yarim kechada uyga jo’nab qopti, yaramas. O’n olti egatga suv toshib ketibdi. Mana, haliyam daragi yo’q! Yotgandir-da, sulayib! Qo’limga tushsin...

– Stop! Kolya! – muxbir yana chinqirdi. – O’ylab gapirgin-da, uka, – dedi sensirab. – Oysara yangangni gapirasan, allaqanday to’yni gapirasan. Men sendan ishni so’rayapman, uka!

– Chori o’zi yaxshi yigit-ku, bitta aybi bor, – dedim salmoqlab. – Nos chekadi, qistaloq. Tushlikni hammadan oldin paqqos urib olib, darrov nos otadi. Nos chekishi mayli-ku, tuplasa, odamning yuziga sachragani chatoq.

– Jon uka! – muxbir astoydil yalinishga tushdi. – Baraka topkur, ukajon! Yutuqlardan gapir! Kolxozdan gapir! Boshladik...

– Xullas... – dedim o’ylanib. – Xo’jaligimizning dono rahbari Toshmamat Alimov boshchiligidida yil sayin hosildorlikni oshirib bajaryapmiz. «Mash’al» kolxozi bayroqdor viloyatimizda chinakam mash’al bo’lyapti. Biz mehnat g’alabalarimizni mustahkamlab boraveramiz!

Muxbir «mana bu boshqa gap», degandek mamnun bosh irg’adi.

Muxbirning daldasidan ruhlanib ketdim.

– Xo’jaligimizning xloppunkt bilan aloqasi zo’r! – dedim usta notiqларdek chertib-chertib. – Masalan, Jovli aka degan priyomchik bor. Men sizga aytsam, muxbir aka, rayonimizdagi eng hurmatli, eng beli baquvvat odam shu – Jovli aka. Faqat bitta aybi bor: afti xunuk. Ko’zi xuddi ukkinikiga o’xshaydi. Ammo o’zi yaxshi odam. Endi xloppunktimizam katta-da, aka! Bir emas, to’rtta rayonning

paxtasini qabul qilib oladi. Yonida paxta zavodiyam bor. Rais buva u yoqda tursin, Raykom buva ham, Jovli akani ko'rsa, «Jovli Mengliyevich, Jovli Mengliyevich», deb tipirchilab qoladi.

Muxbir mikrofonni changallagan ko'yi yig'lagudek bo'lib iljaydi.

– O'rtoq Salimov! – dedi mikrofonga egilib. – Gazetalarda sizni usta paxtakor, hatto egat orasida tug'ilgan bola deb yozishgan. Aying-chi...

Nima deydi bu? Muxbir bo'lsa o'ziga! U mening gapimni beliga tepadi-yu, men indamay turaveramanmi!

– Yolg'on, – dedim baqirib. – So'radim, enam meni qahraton qishda, sandal chetida tuqqan ekan.

Muxbir Kolyaga «davom etaver» degandek imo qildi-da, tag'in savol berdi.

– Qo'shoqjon! Siz tug'ilib o'sgan oila paxtakorlar sulolasi. Muhtaram otangiz, muhtarama onangiz eski paxtakorlar. To'g'rimi?

– Bunisi to'g'ri! – dedim qaddimni g'oz tutib. Muxbir mikrofonni og'zimga yaqinroq olib keldi. – Dadam qirq beshinchi yilda urushga ketgan ekan. Germaniyaga borolmabdi-ku, yaponlarning pachag'ini chiqarib kepti. O'shandan keyin enamga uylangan ekan. Mendan oldin tug'ilgan ikkita bolasi turmabdi. – «Qalay, qoyil qilyapmanmi?» degandek muxbirga qaragan edim, u suyunib ketdi. «Davom etaver» degandek imo qildi. – Ota-enam esini tanibdiki, paxtadan beri kelmaydi. Faqat dadamning jahli tez. Kolxozda bug'altir edi. Rais buva bilan urishib qolib...

– O'rtoq Salimov, – dedi muxbir shosha-pisha gapimni bo'lib. – Demak, siz oilada yolg'iz farzandsiz, shunaqami?

– Esingiz joyidami? – dedim mikrofonga yopishib. – Hali aytdim-ku, yaqinda singlimni uzatdik, deb. Kuyov «Selxoztexnika»da ishlaydi. Nomard ekan! Singlimga uylanib olguncha itdek yaltoqlandi. Kunora onasi keladi,

haftada otasi keladi. Boringki, Jovli akaniyam o'rtaga qo'ydi. Juga uylanib oldi-yu, aynidi, ablah! Akkumulyator u yoqda tursin, arzimagan remenniyam tekinga bermaydi! «Kissa kasal emasmi, cho'taldan cho'zing» deb turadi, hayvon! Unisiyam mayli-ku, ikki hafta oldin Ju uyga yig'lab keldi. Har kuni ichib kelib, singlimni urarmish. Ko'chada tutib olib, o'ziniyam itdek do'pposladim. Agar singlimga yana bir marta qo'l ko'tarsang, enangni ko'rsataman dedim. Bilaman, endi menga zapchastni cho'talgayam bermaydi.

– Stop! – muxbir qo'l siltadi. – Bo'ldi, ukam! – dedi elkamga qoqib. – Bu yog'iga jim o'tirasan.

U bir imo qilgan edi, jingalaksoch yigit tag'in magnitofon tugmachasini buradi.

– Hurmatli tinglovchilar! – dedi muxbir mikrofoniga. – «Mash'al» kolxozining mash'al brigadiri, «oq oltin» ijodkori Qo'shoqboy Salimov bilan qurgan qizg'in suhbatimiz ham oxirlab qoldi. Bu xo'jalik viloyatimizda eng ilg'or sanaladi. Salimov brigadasi esa, mash'allarning mash'ali. Mana, tushlik ham tugadi.

U menga allaqanday imo-ishoralar qila boshladi.

– Ha, yana gapiraymi? – dedim shang'illab.

Muxbir mikrofonni kafti bilan to'sib o'dag'ayladi.

– Bormaysanmi!

– Qayoqqa?

– Traktorga! – dedi u ensasi qotib. – Yugur motorni yurgiz!

Shoshilmay o'rnimdan turdim.

– Bir soatli mazmunli hordiq tugadi! Azamat paxtakorlar o'z mehnat postiga, ya'ni «oq oltin» dalasiga yo'l olyapti. – Muxbir mikrofoniga qarab g'ayrat bilan gapira ketdi. – Hozir zumrad dalalar uzra, yana motorlar ovozi gurillaydi. – U bir qo'lida mikrofon tutganicha ikkinchi qo'li bilan «chop» degandek imo qildi. – Keling, azizlar... Mehnat simfoniyasini birgalashib tinglaylik!



Xuddi shu payt tolga bog'loqlik turgan Tulporim ovozi boricha hangrab yubordi. Obbo, soat bir bo'ldimikin, ikkimi? Eshagim bekorga hangramaydi.

– Stop! – muxbir mikrofonni changallab baqirdi. – Stop! Jingalaksoch yigit negadir bepisand iljaydi.

– Nichego, Po'latov aka, ishak otrejem!

Jon-ponim chiqib ketdi.

Yugurib qaytib keldim.

– Nima? – dedim musht do'laytirib. – Eshagimni so'yadigan senmisan?

– Boring! Jon uka! – muxbir negadir yana sizlashga o'tdi. – Boring, ishingizdan qolmang. Shuncha plyonkani rasvo qilganingiz ham yetadi. Bir soatlik suhbatdan besh minutlik intervyu chiqsayam katta gap!

...Ertasiga kechqurun hovli o'rtasidagi so'rda konsert eshitib yotsam, radioda birdan o'zim gapirib qoldim. Qiziq, tovushim o'zimnikiga o'xshamaydियam. Onam ziyrak-da, darrov tanidi.

– Dadasi, o'g'lingiz gapiryapti, – dedi ayvonda gazeta o'qib o'tirgan otamga. – Mash'al bolamdan aylanay! Ovozlarigdan o'zim o'rgilay!

Onamning aylanib-o'rgilgani yaxshi. Lekin mikrofonga aytgan gaplarimni muxbir po'stdumbaga chiqarib tashlabdi-ku!

Qiziq, muxbir daromadni so'rasa, men sentnerdan gapiraman. Egatda tug'ilganimdan gap ochsa, dadam urushga borganini aytaman.

Bunisiyam mayli-ku, dadam g'alati ish qildi. O'qib turgan gazetasini ko'rpachaga tashladi-da, salmoqlab uyga kirib ketdi. Onam aytganicha bor. O'lgudek kajbahs-da, dadam! Men uni shuncha maqtasam-u, eshitgisi kelmasa. Buyam yetmagandek kaftining orasida bir nima changallab kelib indamay qo'limga tutqazdi. Hayron bo'lib qarasam, shalvirab yotgan pufak. Yosh bolalarning uch tiyinlik pufagi. Ko'm-ko'k!

– Pufla, o'g'lim! – dedi lunji uchib.

– Shoshmang, oxirigacha gapirib bo'lsin! – hovli supurayotgan joyida to'xtab qolgan onam ozorlanib koyidi.  
– Nima qilasiz, chalg'itib?

– Pufla! – dadamning bir emas, ikki lunji ucha boshlaganini ko'rib, noiloj pufakni qo'lga oldim. Tezroq shishirib bera qolay, deb g'ayrat bilan puflay ketdim. Pufakka dam beryapman-u, ikki qulog'im radioda!.. Yo'q, uch tiyinlik emas, naq yetti tiyinlik pufak ekan, la'nati. O'ziyam dirijabl bo'lib ketdi-yov!..

Radiodan «mehnat simfoniyasi» degan gap eshinishi bilan pufak «paq» etib yorilib ketdi. O'ziyam shunaqangi varangladiki, ikki qulog'im shang'illab hech nimani eshitolmay qoldim.

Qulog'im ochilganida, radioda konsert boshlangan ekan.

– Shunaqa bo'ladi! – dadam miyig'ida kulganicha nari ketdi.

## O'n ikkinchi bob

### PAXTA PUNKTIDAGI MAJLIS

Avvallari, maza-maza – kattalarga maza, deb yurardim. Nima qilsa – og'zining yeli! Hamma ikki bukilib, ta'zim qilib turadi. Qandoq yaxshi! Endi bilsam, g'irt ahmoq ekanman. Amaldorlikning g'alvasi shunaqangi ko'p bo'larkanki, boshiga tushmagan odamning yetti uxlab tushigayam kirmaydi. Mana, o'zimni olaylik. Nari borsa bitta brigadirman! Shu qiltiriq amalniyam bir kunlik nag'masini yig'ib filning yelkasiga orting, fil bechoraning beli cho'rt uzilib ketmasa, men kafil! Men aytib turay, siz barmog'ingizni bukib turing. Kuzda yer haydash kerakmi – kerak! Qishda sho'r yuvish, yaxob berish kerakmi – kerak! Bahorda, radioda har kuni aytadigandek,

baraka urug'ini qadash kerakmi? O'toq qilish, chopiq, dorilash, sug'orish... Keyin chekanka, defoliyasiya... Omon-esson terim mavsumiga yetib olganingizdan keyin g'alvaning kattasi boshlanadi. Paxta teradigan mashinalar ham o'lmasin. Shir etib yomg'ir quysa, otasidan kaltak yegan boladek bir chekkaga chiqib, so'ppayib turaveradi. Maktab o'quvchilari-ku, o'zimizning bolalar. Gapga ko'nadi. Hay-hay, shahardan kelgan talabalardan asrasin! Har kuni bitta g'avg'o! «Yotoqxonangiz molxonaga o'xshaydi», – deydi... «Sovqotib qolyapmiz, qachon pechka o'rnatib berasiz?» deydi. «Makaron sho'rvaning go'shti qani?» – deydi. O'zinga yo'q go'shtni senga qayoqdan topaman, olifta. Qo'yib bersa rangli televizor ham so'rarsan, hali. Qaysi kuni bittasi oldimga kelib, daftar-kitobini yoyib tashladi. Ha, desam: «Hisoblab chiqdim, aka, bitta chanoq to'rt gramm bo'lsa, bir kilo paxta terish uchun yerga 250 marta egilish kerak ekan, normani pasaytiring, men bir kunda yigirma besh ming marta egilolmayman, mashinani ishlatning», – deb aql o'rgatyapti. Ko'tar-ey, to'rva xaltangni, degim keldi-yu, rais buvadan hayiqdim.

Mayli, bular-ku, o'zimiz o'rganib ketgan gaplar. Eng alam qiladigani shuki, davlatning o'zi belgilab qo'ygan matohlarniyam ololmaysiz. Radio muxbiriga aytgan gapim gap: kuyov – borib turgan apiris. Akkumulyatormi, relemi so'rab borsang, yuzinggamas, qo'lingga qaraydi. (Kaltak yeb ham odam bo'lmadi, ukkag'ar!). Birovga o'g'it deb yalinasan, birovga shpindel deb sarg'ayasan... Tag'inam rais buva menga ozmi-ko'pmi qayishadi. («Mash'al» brigadirmiz-a!).

Brigadamdagi a'zolari aytmaymizmi! Ish desa ketini quruqqa obqochadi. Qulog'ingizga aytaymi: ulargayam oson tutib bo'lmaydi. Mana, masalan, Tursunboy aka. Bultur kuzda mashinada yuz ellik tonna paxta terdi. (Planga zarur bo'lib qolgan edi, rais buva Tursunboy akanikini 250 tonna, men tergan 170 tonnamni 300 tonna deb yozdirib

qo'ya qoldi). Shundoq bo'lsayam, Tursunboy aka hamma narsadan ko'ngli sovigan odamdek ma'yuslanib yuradi. Chorini aytmaysizmi? Yoshgina xotini sariq bo'lib qoldi. (Hayronman, shu, kuz kelishi bilan sariq kasal ko'payadi). Chorining xotini o'zi sap-sariq yana qanaqasiga sariq bo'lganiga odamning aqli yetmaydi. Yana bechoraning yuzi sariq, sochi – qizil. Shuning uchunmi, kasal bo'lganini o'ziyam sezmabdi. Oradan ancha o'tib biqinim og'riydi, sariq bo'ldim shekilli, degan ekan, Chori hazilga olibdi. «Qo'yaver, xotin, onangni qornida uzoq yotganing uchun sarg'ayib ketgansan», deb qo'ya qopti... Xotini sho'rlik kasalxonada uch oy yotdi.

Yoki Panjini olaylik. Uylanaman deb qulog'igacha qarzga botgan ekan. (Shuni o'ylasam, yuragimni vahima bosadi: hali-beri bizning oyoq to'rtta bo'lmaydi, shekilli). Ishga tobi yo'q. Har kuni bir bahona topib tomorqasiga yuguradi. To'g'ri-da, ungayam osonmas: qarindoshurug'idan bir qop pul qarz ko'targan odamga kolxozdan tegadigan maosh urvoq bo'ladimi? Shuning uchun kolxozchilar tomorqasida o'zi ishlab, bolasini paxtaga haydaydi-da! Panjining dalada ishlashga yaroqli bolasi yo'q. Xotini hozircha tug'ishga ulgurmadi.

Ana endi o'zingiz o'ylab ko'ring. Mendek oddiy brigadaning boshidaki, shuncha g'alva bor ekan, tag'inam rais buvalar fil ekan-da!

Bugun rais buvaning ishning ko'zini bilishiga yana bir marta tan berdim. Noyabr oxirlab qolgan, dalada paxta tugul yilt etgan ko'sak ham yo'q. Ustiga-ustak ikki hafta oldin qor yog'ib, hammayoqning atalasini chiqarib yubordi. Viloyat pedinstitutidan kelgan hasharchi talabalardan yuztasi bizning brigadaga ham tushgan. Tushlikda borsam, bekorchilikdan domino o'ynab o'tirishibdi. Ovozi olamni tutadi. Hammayoq taraq-turuq, sharaq-shuruq... Ensam qotib chetlab o'tib keta qoldim. Rais buvagayam hayronman-da! Biz brigada planini yuz o'ttiz poiz do'n-

dirdik. Tumanniki yuz yigirma, viloyatniki yuz etti... Nima qilamiz, shuncha odamni bekorga boqib o'tirib?!

Avval shuni o'ylab xunob bo'lgan edim. Keyin tushunsam, rais buva nima qilsa, oxirini o'ylab qilar ekan.

Har kuni xloppunktida majlis bo'lishini eshitar edim-u, o'zim bormagandim. Bugun palakat bosib borib qolarmanmi! Voy-bo', yig'ilish emas, qip-qizil qiyomat-ku!

Rais buva, Shaydul – kassir, men – uchovlashib, xloppunkt direktorining xonasiga kirdik, odam odamni tanimaydi: uy ichi tutunga to'lgan, burchakdagi galanska pechka qizib ketganmi, nafas olib bo'lmaydi.

– Svodka! – dedi to'rdagi stol oldida o'tirgan Raykom buva filtrlri sigaretini tutatib. (Hatto salomga alik ham olmadi). Raykom buvani avval ko'p ko'rganman. Ikki yuzi anordek qip-qizil odam edi. Endi ko'zlari kirtayib, rangi kaltakesakka o'xshab qopti. Yuzi ko'kimtirmi-ey, nima balo! Xona issiqligiga qaramay, boshidagi andatra telpagini yechishniyam unutibdi.

– O'rtoq Alimov, svodka! – dedi-yu, bir yutingan edi, uzun bo'ynidagi shaftoli danagidek uchburchak baqbaqasi liqillab ketdi.

– Pajalista! – Rais buva muloyim iljayib, shimining cho'ntagidan allaqanday qog'oz chiqardi. Vazmin qadamlar bilan yurib borib, raykom buva o'tirgan stolga qo'ydi. – Bir-u o'ndan yetti protsent!

– Ana, bo'larkan-ku!

Raykom buva rais buvaga gapiryapti, deb o'ylagandim. Yo'q, deraza tagidagi kursida o'tirgan novcha odamga gapirayotgan ekan. Papiros tutunidan yaxshi payqamay qopman.

– Mumkin ekan-ku, o'rtoq Husniddinov! – Endi raykom buvaning ovozi tahdidli jarangladi. – Nega «Mash'al» kolxozi bir kunda bir-u o'ndan yetti ko'rsatkich beradi-yu, «Pravda» berolmaydi?! Sizga qolsa, «Mash'al»ga qor yog'magan dersiz? Yeringiz bir, suvingiz bir...

– Menda paxta yo‘q! – dedi novcha kishi to‘ng‘illab. Ovozi o‘lgudek yo‘g‘on ekan.

– Yo‘q? Nega yo‘q?!

– Planni bajardik, majburiyatni bajardik, paxta qolmadi.

– Nim-ma?! – Raykom buva sapchib o‘rnidan turib ketdi. Uchburchak baqbaqasi universal traktorning porsheni-dek paydar-pay yuqori chiqib-past tusha boshladi. – Nega «Mash‘al»da bor paxta sizda yo‘q?! Nega rayon planini orqaga surasiz? Nega bayroqdor oblastimizning tempini pasaytirasiz?

Husniddinov degani balo ekan! Shundoq raykom buvadan qo‘rqmadi-ya!

– Bor paxtani topshirib bo‘ldik! – dedi g‘o‘ldirab. – Yilt etgan chigit qolmadi.

– Eshitdingiz-a, o‘rtoq Viktorov! Bahonasini eshitdingiz-a? – Raykom buva burchakdagi «galanska» pechka yonboshida o‘tirgan taqirbosh kishiga yuzlandi.

Paxta zavodining direktori Viktorov tog‘a o‘zbekchani binoyidek biladi deb eshitgandim: rost ekan.

– Ishlash xalagan adam chora tapadi, xalamagan baxana! – dedi dona-dona qilib.

Raykom buva shu gapdan keyin hovuridan tushish o‘rniga battar tutaqib ketdi.

– Husniddinov! – dedi hayqirib. – Siz choyxonada emas, raykomning ko‘chma byurosida o‘tiribsiz!

– Asabiylashmang, hammasi tushunarli! – Raykom buvaning yonida terlab-pishib o‘tirgan semiz kishi surnayga o‘xshab g‘iyqilladi. – Husniddinovga raislik yuki og‘irlik qilib qopti. Obkom bovaga bu kimsaning qilmishini xabar qilishga majburman.

– Eshitdingmi, Husniddinov! – Raykom buva stolni mushtladi: – Obkom vakilining gapi gap. Rais bo‘laman, deb orqamizdan chamadon ko‘tarib yurganlar son-mingta! Yo‘qol!

Husniddinov indamay o'rnidan turdi. Eshik oldiga borganida negadir to'xtadi.

– Rahmat... – dedi iljayib. – O'zim ham jonimdan to'ygandim.

Raykom buva tag'in hayqirdi.

– Sezilib turibdi. Ishingni prokuraturaga topshirmasam, odammasman!

«Pravda» raisi chiqib ketishi bilan xonaga jimlik cho'kdi. Hech kimdan sado chiqmadi. Qayoqqa kelib qoldim o'zi! Asli, boya rais buva «yur, majlisga boramiz» deganida Tulporimni minib, uyga jo'navorsam bo'larkan.

Eshik ochilib, bir qo'lida paxta gulli choynak, bir qo'lida piyola ko'targan past bo'yli kishi kirdi. Darrov tanidim, paxta punkti priyomchigi – Jovli aka! Xumdek boshini ikki yelkasi ichiga tortgancha, katta-katta ko'kimtir ko'zlarida muloyim o't yonib, xona to'riga yo'l olgan edi, Rais buva dik etib o'rnidan turib ketdi. (Aytaman-ku, Jovli aka tumandagi eng hurmatli odam deb!). Rais buva uning qo'lidan choynak-piyolalarni olayotganida raykom buva ham xijolat chekib jilmaydi.

– Ovora bo'psiz-da, Jovli Mengliyevich!..

– Ovorasi bor ekanmi? – Jovli aka ukki ko'zlarida yana o't yonib jilmaydi. – Ichlaring uzilib ketdi-ku. Osh tayyor, – dedi Raykom buvaga emas, semiz obkom vakiliga qarab. – Qul-qul tovuq ham sovib qoldi.

– E, shu topda osh o'tadimi tomoqdan... – semiz kishi shu qadar chuqur xo'rsindiki, nazarimda qorniyam puchqayib qolgandek bo'ldi. – Tempani tushirib bo'lmaydi. Obkomga nima deyman? Boboyning achchig'i chiqadi.

Jovli aka, ukki ko'zlari suzilib Raykom buvaga qarab qo'ydi.

– Menimcha, «Mash'al»da hali paxta mo'l...

Raykom buva yarq etib bizning rais buvaga yuzlandi.

– Uch foiz qila olasizmi?

Angrayib qoldim. Qanday qilib bir-u o'ndan etti foizni uch foiz qiladi?

– Qilmasangiz bo'lmaydi, – dedi raykom buva xotirjamlik bilan. Hatto, shaftoli danagidek baqbaqasi ham liqilamay, uzun bo'ynining qoq o'rtasida muqim to'xtab qoldi. – Yarim soatdan keyin yuqoriga svodka berishimiz kerak.

Semiz kishi cho'zib-cho'zib esnadi.

– Amallaysiz-da, endi, o'rtoq Alimov!

– Shaydul! – Rais buva bir hayqirgan edi, yonimda o'tirgan Shaydul kassir sapchib o'rnidan turdi. Boshi shiftga tegay deb qoldi. (Hayronman, mirzaterakning qolipini shundan olganmi, kassirimizning bo'yi naqd ikki metr dan ortiq keladi). Hozir ham o'rnidan turishi bilan hech kimni ko'rmay qoldim. Na raisni, na raykom buvani! Ammo rais buvaning gapini aniq-taniq eshitdim.

– Yugur! – dedi Rais buva. – Senam boraqol, tutxo'r!

Keyingi gapi menga atalganini tushundim. Rais buva mehri tovlanib ketdi shekilli, meni yana «tutxo'r» dedi.

Uzun-qisqa bo'lib tashqariga chiqdik.

Shaydul kassirning pat-patiga mingashib ketyapman-u, hech baloga tushunmayman. Kolxozning uch foizi kamida o'ttiz telejka paxta bo'ladi. Yarim kechadan oshgan bo'lsa, varaxaga tushadigan ko'sak ham qolmagan bo'lsa, o'ttiz telejkani qayoqdan olamiz?

– Mening brigadamda bir kiloyam yo'q! – dedim har ehtimolga qarshi.

Pat-pat haydab ketayotgan Shaydul kassir gapimni eshitmadi chog'i, elkasi osha o'girildi.

– Nima?

– Menda paxta yo'q! – dedim baqirib. – Yo'lga qarang!

Negadir shu topda, bir vaqtlar Shodivoyning «Zaporojes»ida pichan g'aramiga kirib ketganimiz xayolimga keldi. Yer sirpanchiq, bilchillab yotibdi. Ustiga-ustak tuman. Yo'l chetidagi chiroqlar kul orasidagi cho'g'dek xira



miltiraydi. Shaydul kassirga nima? Yoshini yashadi, oshini oshadi. Bir emas, ikkita xotini, uchta kuyovi, to'rtta kelini bor. O'zim ko'rganman, molxonasida ikkita govmush sigir, uchta ho'kiz bo'kirib yotibdi. O'lsa o'lib ketaveradi-da! Jabr bo'lgandan menga bo'ladi. Shaydul akaga o'xshab ikkita bo'lmasayam aqalli bitta xotin olaylik-da, biz ham!

– Sekinroq! – dedim biqiniga mushtlab. Kuchim boricha urib yubordim shekilli, u orqasiga jahl bilan o'girildi.

– Obkom vakili nima deganini eshitdingmi? Yarim soatdan keyin yuqoriga svodka berish kerak! – dedi shang'illab.

Mototsikl joni chiqqudek chiranib tarillay boshladi. Ikki qulog'im sovuq shamoldan muzlab ketdi. Xayriyat-ey, to'xtadik! Qarasam, kolxoz idorasiga kelibmiz.

– Paxta qaysi brigadada? – dedim hamon qulog'im shang'illab turgani uchun baqirib. – Yarim kechada o'ttizta telejkani qayoqdan topamiz, Shaydul aka?!

– Baqirma-ey! – kassir rapidadek qo'lini paxsa qildi. O'zi terakdek bo'lsayam chaqqon ekan. Zipillagancha idora tomon yo'rg'aladi.

– Men ketaveraymi? – dedim yana burilib.

– O'chir! – Shaydul aka zinalardan ko'tarilar ekan, tayinladi. – Ketib qolma, birga boramiz.

Ancha turdim. Ertalab paytavani yupqaroq o'ragan ekanman, oyog'imdan muz o'tib ketdi. Bir yoqda qorin tatalab ketyapti. Rais buvadayam odamgarchilik yo'q-da, o'zi! Jovli aka-ku, «osh tayyor» dedi. Birpas sabr qilsa bizam yerdik, bir cho'qim-bir cho'qimdan. Sovuq kunda qovurma qulqul tovuq ham teshib chiqmaydi. Odamning qorni och bo'lsa, buning ustiga obdan sovuq qotsa, uyqu bosarkan. Qani, hozir uyga borsam-u, issiqqina sho'rvadan bir kosaginani ichib...

Bir mahal Shaydul aka papka ko'tarib zinadan tushib keldi.

– Ma, – dedi eski charm papkani qo‘limga tutqazib. – Ehtiyot qil!

– Qaysi brigadaga boramiz? – dedim bir qo‘lda papkani ushlaganicha mototsiklga mingashib.

– Brigadada pishirib qo‘yibdimi, xloppunktga! – Shaydul kassir o‘shqirib berdi. – Lulkaga o‘tir! Papkaga hushyor bo‘l!

Nima, men ikkiqat xotinmanmi, lulkada yalpayib o‘tiradigan. Papkani changallab, orqa egarga mingashib oldim.

Shaydul aka jahl bilan bir qarab qo‘ydi-yu, motorni tarillatdi. Tag‘in yeldek uchib ketdik. Anchagina yurdik. Keyin nima palakat bosdi, bilmayman. Qornimning ochligi ta‘sir qildimi, uyqu elitdimi... Xullas, Shaydul akaning biqinidan qo‘shqo‘llab changallab olganim esimda...

Haybatli dag‘dag‘adan uyg‘onib ketdim.

– Papka, qani papka?

Ko‘zimni ochsam, paxta punktining temir darvozasi oldida turibmiz. Tuman orasida qorovulxonaning chirog‘i xira miltirayotganidan bildim.

– Papka qani? – dedi Shaydul aka chiyillab.

– Qanaqa papka?

– Boyagi papka, ahmoq! Charm papka!

Rostdan ham, hali mototsiklga mingashayotganimda qo‘limda papka bor edi-ya!

– Hayronman, – dedim elkamni qisib. – Hali qo‘limda edi.

– Uyim kuydi! – Shaydul kassir tarsillatib peshonasiga urdi. – Xonavayron bo‘ldim! – to‘satdan ko‘zi olayib yoqamga yopishdi. – Qayoqqa tashlading? Rostini ayt! Ichagingni sug‘urib olaman, ahmoq!

Iye, nimaga do‘q qiladi menga. Nega hadeb «ahmoq» deydi! Naynov bo‘lsa o‘ziga! Xudo bergan bo‘y bizdayam bor. Yoqadan olish mana bunaqa bo‘ladi, deb bo‘yniga

yopishib oldim. U yoqamni qo'yib yuborib, bilagimni changalladi.

– Qo'yvor! – dedi bo'g'ilib nafas olib. Bo'ynini bo'shatgan edim, entikib-entikib yalindi. – Jon uka! Xarob qilma meni! Bola-chaqam bor. To'ylaringda xizmat qilay, ukajon!

Rahmim keldi. Bechoraga bir gap bo'lsa, ikkita xotini, uchta kuyovi, to'rtta kelini, sigirlariy-u ho'kizlari dodini kimga aytadi.

– Ichidagi qog'ozlar shunchalik zarilmidi? – dedim xavotirlanib.

Shaydul kassir ko'zimga iltijo bilan termildi.

– Judayam kerakli hujjat, ukajon! Hozir topmasak, rais bova o'n yilni bo'ynimga iladi. Rostini ayt: qaerga tashlading?

– Bilmayman, ko'zim ilingan ekan, yo'lda tushib qolgan-dir-da!

– Yur, yur, jon ukam! – Shaydul aka rapidadek kafti bilan elkamga shapatiladi. – Balki qayerda tushirib qoldirganing esingga tushib qolar.

Mototsiklga minayotganimizda maslahat berdim.

– Idoraga qaytib borib, boshqa nusxasini ola qolaylik.

– Bunaqa qog'ozda nusxa bo'lmaydi, – u yig'lamsirab, burnini tortdi. Shosha-pisha mototsiklini gurillatdi. – E, xudo! – dedi iltijo qilib. – Ishqilib topilsin... Xonavayron bo'laman, sochim oqarganda turmaga tushaman...

Mototsikl yurib ketdi. Ammo bu safar astaroq, avaylabroq yura boshladi. Aksiga olib, tuman quyushlashgan, yo'l chetidagi lampochkalar g'ira-shira ko'rinardi. Shaydul aka yo'lni yaxshiroq yoritish uchun bo'lsa kerak, mototsiklini goh u yoqqa buradi, goh bu yoqqa.

– O'zing sharmanda qilma! – deydi dam-badam.

Dala yo'lga chiqqanda mototsiklini to'xtatib, azza-bazza yalindi:

– Qo'shojon! O'zim aylanay sendan. Uylanayotganingda bitta ho'kizni to'yana qilmagan nomard. Yaxshilab eslab ko'r! Qayerga kelganda uxlovding?

– Uxlaganim yo‘q, mizg‘idim!

– O‘l! – u yana mototsiklini yurgizib ketdi. Bir chaqirimcha yurgandan keyin to‘satdan tormozni bosdi. Boshim kuragiga urilib, peshonam sirqillab ketdi. U egardan sakrab turib, oldinga yugurdi. Mototsikl chirog‘i yorug‘ida o‘n qadamcha narida, yo‘lning qoq o‘rtasida yotgan papkani yulqib olayotganini ko‘rdim. Darrov qirov tushibdimi, papkaning usti oqarib qolibdi. Shaydul aka sharaq-shuruq qilib papkaning yaltiroq qulfini ochdi-da, ichiga qo‘l suqdi.

– Xayriyat! – dedi entikib. – Xudoga shukur!

U papkani bandidan changallab chopib keldi.

– Ukam, – dedi ovozi muloyimlashib. – Juma kuni jonlik so‘yib xudoyi qilaman. Peshinda! Senam kelgin, xo‘pmi!

– Menga bera qoling! – deb qo‘l cho‘zgan edim, jon holatda papkani bag‘riga bosdi.

– Yo‘q-yo‘q, baraka top, ukam. O‘zim... – u papkani egar qoshiga qo‘ndirib, ustiga minib oldi. Har ehtimolga qarshi, «joyida turibdimi», degandek chotining orasiga qo‘l suqib tekshirib ko‘rdi-da, mototsiklni orqaga burib, shang‘illadi. – Bo‘lgan hangomani rais bovaga aytib yurmagin, xo‘pmi? Naq ikkalamizning terimizga somon tiqadi-ya!

Teriga somon tiqishga hojat qolmadi. Paxta punktiga qaytib kelsak, darvoza oldida Jovli aka kutib turgan ekan.

– Oyog‘ingga tosh bog‘laganmisan, nima balo! – dedi jerkib. Papkani oldi-da, avval Shaydul kassirning, keyin mening qo‘limni qisdi. – Raykom bova xunob bo‘layotgan edilar. Rahmat, sizlarga javob.

## **O‘n uchinchi bob**

### **NARGIXONNING HINDU XOLI**

Xohlagan odamingiz bilan bahs boylashib aytamanki, dunyoda eng yaxshi narsa – sevgi ekan. Yana bir marta xohlagan odamingiz bilan bahs boylashib aytamanki,

dunyoda eng yomon narsa ham – sevgi ekan. Avvallari, she'r kitobni ko'rsam, ensam qotardi. Endi bildim: shoirlar ham avval bittasini yaxshi ko'rib qolib, keyin shoir bo'larkan-da! Qiyin ekan u bechoralargayam. Xoh ishoning, xoh ishonmang, bir oy ichida o'zim ham tap-tayyor shoir bo'ldim-qoldim.

Men seni sevaman,  
Ishongin menga.  
Xohlasang jonimni  
Beraman senga!

Bu she'rni o'zim yozdim. Yozdim emas, kechalari ko'zimni yumib yotsam, lop etib xayolimga Nargisxon keladi-yu, o'zidan-o'zi she'r to'qib tashlayman.

O'zimiz ham ayni qoni gupullagan bo'z yigit emasmizmi, shundoq ko'kragimga ikki litrli qumg'onni qo'ying: o'n daqiqada sharaqlab qaynab ketmasa, men kafil! Oh tortsam, nafasim olov bo'lib chiqadi. Tushlik paytida hamma ovqat yesa, men shiypon tagidagi hovuz bo'yida, tarvaqaylab o'sgan tol tagida ko'ksimni zaxga berib yotaman. Bir hafta o'tmay, men yotgan joy qurib-qaqshab, o'tlariyam sarg'ayib ketdi. Nazarimda, tol qurib, hovuzdagi suv bug'lana-bug'lana bir quloch pasayib qoldi-yov! Brigadadagi yigitlar hayron. «Senga nima bo'ldi, Qo'sho, ranging somon bo'p ketibdi-ku, kasal-pasalmisan» deyishadi. Gapirib nima qildim? Mening kasalimni qayoqdan tushunsin bular.

Qanaqa bedavo dardga yo'liqdim o'zi? Dadamga aytolmasam, enamga aytolmasam... O'rtoqlarim tushunmasa. Kechalari Tulporim bilan dardlashaman. «Nargisxonni yaxshi ko'rib qoldim, oshna!» – deyman xo'rsinib. Tulporim mendan ham chuqurroq xo'rsinib qo'yadi. «Bilaman, u meni mensimaydi, kuladi», – deyman. Tulporim tag'in xo'rsinadi. «Endi nima qilamiz, oshna, yonimda Shodi bo'lsaki, yuragimni ochib, hasratimni aytsam?» Tulporim indamaydi. Nimayam desin, Til-zaboni bo'lmasa. Yordam

berish qo‘lidan kelmasa... Ko‘zimga mo‘ltirab-mo‘ltirab qaraydi.

Asli, bu savdolar bahor oyoqlab, jiyda gullagan kezlarda boshlandi. O‘sha kuni Juman: «Idoraga borarkansan, Rais bovaning zaril ishi bormish», – deb qoldi.

Rais buvani bilaman-ku, bekorga chaqirmaydi. Yugurdim!

Bizning kolxoz idorasini ko‘rmabsiz – dunyoga kel-mabsiz.

Dala shiyponlarining mazasi bo‘lmasayam, Rais buva idorani boplagan. Ikki qavatli marmar bino. Oldi favvora, uning chetida majnuntollar «assalomalayke-e-em» deb salom berib turadi. Odamning yog‘i erib ketadigan saratonda ham rais buvaning xonasi muzdekkina bo‘ladi. Xuddi bir vaqtlar Shodivoy ikkalamiz joylashgan Toshkentdagi gasti-nisadek.

Ikkinchi qavatga ko‘tarilib, shundoq eshikni ochganimni bilaman! Gilam to‘shalgan qabulxonaning burchagida, och havorang harir pardalar osilgan deraza tagidagi stolda bir qiz o‘tiribdi... Yo alhazar! Odam bolasiyam shunaqa chiroyli bo‘ladimi? Yo‘q, bu odam emas, onam bolaligimda aytib beradigan ertakdagi parining naq o‘zginasi! Sochini chiroyli turmaklab, bir chetiga mittigina jiyda shoxchasini qistirib olgan. (Ikkinchi qavatga chiqishim bilan dimog‘imga jiyda guli hidi uriluvdi-ya!) Egnida nim pushti ko‘ylak. Derazadan tushib turgan nurda qomati aniq-taniq ko‘rinib turibdi. Yuzlari... Yuzlari judayam oppoq emas-ku, tandirda singib pishgan kulchadek qizg‘ishtob. «Pari»ning kamondek qayrilma qoshining qoq o‘rtasida jajjigina xoli bor. Xuddi indiyский kinodagi artislarga o‘xshaydi. O‘zim ham mabodo kinoga kirib qolmadimmi, deb u yoq-bu yoqqa alanglab qo‘ydim. Yo‘q, o‘zim bilgan rais buvaning qabulxonasi. Olti oy avval, qishda kelganimda ham qabulxona shunaqa edi. Gilam ham, och havorang darpardalar ham. Ammo unda «pari» yo‘q edi. Tizzalarim

o'zidan-o'zi qaltiray boshladi. Kelganimni bildirish uchun yo'talmoqchi edim, tomog'imdan xirillagan ovoz chiqdi.

«Pari» uzun-uzun nozikkina barmoqlari bilan mashinkani chiqillatishda davom etib, menga yuzlandi. Muloyim jilmaygan edi, yuzi yorishib ketgandek bo'ldi.

– Keling, kim kerak edi?

Ovozmi bu, kumush qo'ng'iroqning jarangimi? Yuragim qinidan chiqqudek ura boshladi. Traktorimning motoriyam bunchalik gupillamas.

«Pari» mashinkani chiqillatmay qo'ydi.

– Kim kerak edi? – dedi ko'zimga sinovchanroq tikilib.

Gapirmoqchi edim, labim labimga chippa yopishib qoldi. Qani og'zimni ocholsam.

«Pari» piq etib kulib yubordi.

– Garangmisiz?

Mo'ltirab turaverdim.

U menga boshdan-oyoq razm solib chiqdi.

– Soqovmisiz? – dedi rahmi kelib.

– Ha! – dedim. Ovozim yig'lamsirab chiqdi. – Tilim yo'q.

«Pari» shirin jilmaydi.

– Gapiradigan soqovni birinchi ko'rishim! – u negadir oyog'imga imo qildi. – Etigingiz loy ekan.

Ertalabdan beri paykal kechib yurgandan keyin etigim loy bo'lmay, do'ppim loy bo'lsinmi? Boshqa odam bo'lsa-ku, shunaqa derdi. Ammo «pari»ning dashnomidan yer yorilmadi-yu, yerga kirib ketmadim. Indamay orqamga burildim-u, zinalardan pastga otildim. Idora oldidagi favvora zihiga o'tirib, o'ng oyog'imning etigini sug'urdim. Usti u yoqda tursin, ichigacha tozalab yuvdim. O'ziniyam oq yem qilib yubordim-ov. Keyin chap oyog'imnikini sug'urdim.

Halloslab zinadan ko'tarildim, eshikni ochdim. «Pari» boyagi joyida mashinkani chiqillatib o'tirgan ekan. Yarq etib men tomonga qaradi-yu, angishvonadek bejirim og'zini yarim ochib, uzun-uzun qayrilma kipriklarini pipiratdi.

– Meni rais buva chaqirtirgan ekan... – dedim dadillanib.

«Pari» hamon kipriklari piri-piragancha yana bir-ikki daqiqa tikilib turdi-da, o‘zini kursi suyanchig‘iga tashlagan qah-qah urib kula boshladi. Qiziq, nega kuladi bu? Yo etigimni chala yuvibmanmi? Mundoq qaragam, o‘ng oyog‘imda etik bor-u, negadir chap oyog‘imda yo‘q. Iye, qo‘limda ekan-ku! O‘ziniyam chaqaloq ko‘targan xotindek bag‘rimga bosib olibman. Qo‘nji yerga qarab turgani uchunmi, ichidan chak-chak suv tomadi.

Qochmagan nomard deb ko‘chaga otildim. Shu yugurgan uya yetganda hushim sal-pal joyiga keldi. Onam hovlidagi so‘rida xamir qorib o‘tirgan ekan. Ahvolimni ko‘rib qo‘rqib ketdi.

– Tinchlikmi?

– Yo‘q! – dedim halloslab. – Tinchlikmas. Oxirzamon bo‘ldi.

Onam og‘zini lang ochib qoldi.

Kechasi bilan mijja qoqmay chiqdim. O‘zidan-o‘zi she‘r to‘qigim keladi.

Otingni bilmayman,  
Ayta qol o‘zing!  
Ichimni yondirib  
Yubordi ko‘zing...

Uch kungacha garang bo‘lib yurdim. Rais buva chaqirganini bahona qilib, oldiga boray desam, qo‘rqaman. Bormay desam, borgim keladi. Uchinchi kun chidolmadim. Ertalab, dalaga borish o‘rniga qirtishlab soqolimni oldim. «Shipr» atirdan yuzimga mo‘lgina sepdim. Oppoq ko‘ylak, yangi shim, oyog‘imga lakirovanniy tufli kiyib, mundoq oynaga qaragam... Ha, endi bir yigit bo‘lsa, bizchalik bo‘larda! Qarchig‘ayning qanotidek qalin qoshlar, xiyol qararoq, xiyol ozg‘inroq bo‘lsayam binoyidek yuz, xiyol qiyshiqroq bo‘lsayam ushlasa ushlagudek qirra burun. Bosh yorilganda qolgan chandiq soch tagida ko‘rinmaydi. «Pari» do‘ppimni yechib, sochimning orasini titkilab o‘tirarmidi. Gazetalarda



bir emas, sakkiz marta maqtalgan, radioda gapirgan mash'al brigad bo'lsak! Eng muhimi, xudo bergan bo'y bor: bir-u to'qson! Nari borsa, Shaydul kassirdan bir qarich pastmizda! Hozirgi qizlar baland bo'yli yigitlarni yoqtirishadi. Tag'in nima kerak?!

Lakirovanni tufliga chang tegizmaslik uchun ko'cha chetidan bitta-bitta bosib ketayotsam, («Pari» bu safar ham tuflingiz chang ekan desa, yana sharmanda bo'lamanmi?) dimog'imga g'alati hid kirdi. Qarasam, mozoriston yoqasidagi chakalak chetida jiyda gullab yotibdi. Qo'limga tikan kirishiga qaramay, bitta shoxchasini sindirib oldim.

Marmar zinadan chiqib boryapman-u tag'in tizza qis-taloq qaltiraydi-da! Ikkala oyog'imni kesib tashlagim keldi! «Dadil bo'l, Qo'sho» dedim-u, eshikni shaxd bilan ochdim.

«Pari» xayol surib o'tirgan ekanmi, bir cho'chib tushdi. Tanimadi! O'lay agar tanimadi.

– Kim kerak edi?

– Siz!

Shundoq deyishga deb qo'ydim-u, o'zim qo'rqib ketdim.

U hayron qolgandek yuzimga tikildi. Hatto ikki qo-shining o'rtasidagi hindu xolini nozik barmog'ining uchi bilan silab ham qo'ydi. Xuddi avvalgi safardagidek boshimdan oyog'imgacha qarab chiqdi.

– Voy, sizmisiz? – dedi jilmayib.

– Ha...

Shu turishda baqa bo'lib tikilib qoldim, shekilli, u ko'zini olib qochdi.

– Unaqa qaramang odamga, – dedi sekin. – Qo'rqib ketyapman.

– Men ham, – dedim rostini aytib. – Yiqilib tushay deb turibman.

Uning rahmi keldimi, jilmaydi.

– Gulingiz chiroyli ekan, – dedi qo'limdagi jiyda shoxchasiga qarab.

Suyunib ketdim.

– Sizga! – dedim jon holatda shoxchani uzatib. – Bilasizmi, biz tomonda jiyda ko‘p. Shodivoylarning uyidan nariroqda mozor bor. Atrofi chakalakzor. Jiyda demagani tiqilib yotibdi. Ehtiyot bo‘ling, tikani yomon.

«Pari» endi jiyda shoxchasiga qo‘l cho‘zgan edi, yonbosh tomondagi charm qoplangan eshik ochildi. Rais buva chiqib keldi.

– Iya, ha! – dedi goh «Pari»ga, goh menga qarab. Nazarimda, g‘alatiroq iljaygandek bo‘ldi. «Pari» darrov qo‘lini tortib oldi. Qip-qizarib nari ketdi.

– Qo‘shovoy, ko‘rinmaysan? – dedi Rais buva jiddiy tortib.

Men uchun «Pari» javob berdi.

– Qaysi kuniyam keluvdilar. Siz rayonga ketgandingiz...

– Shunaqami? – Rais buva tag‘in goh unga, goh menga qarab qo‘ydi. – Qo‘shovoy – malades. Bizning mash‘al brigad shu-da! – dedi yelkamga qoqib. – Nargisxon, telefon bo‘lsa, men yo‘qman. Qani yur-chi.

U oxirgi gapini menga aytganini keyin tushundim. Xayolimda nuqul bir gap aylanardi. «Oti Nargis ekan-da. To‘ppa-to‘g‘ri! Otiyam indiyanskiy, o‘ziyam!»

– E, tashlasang-chi, tikanagingni! – Rais buva jiyda shoxini qo‘limdan yulqib olib, qabulxona burchagidagi divanga uloqtirdi. – Yur, srochniy ish bor.

Muzdekkina xonaga kirdik.

– Gap bundoq, tutxo‘r! – dedi rais buva tik turgancha. – Sen esli bolasan. Shu kunlarda rayonimizda bir yozuvchi paydo bo‘lgan. Erta-indin sengayam borib qolsa, ajabmas.

– Borsa, gaplashaveramiz, – dedim beparvolik bilan. (Fikr-u zikrim Nargisxonda edi. Gulimni oldimi-yo‘qmi?)

– E, unaqqa maqtab yozadiganlardan emas! – Rais buva, xuddi o‘sha yozuvchi ro‘parasida turgandek mushtini do‘laytirdi. – Hech kim uni upalnomochniy qilmagan. G‘irt ig‘vogar! Raysentrdagi allaqaysi texnikumda ma‘lim ekan.

– Yaxshi... – dedim hech baloga tushunmay.

– Nimasi yaxshi! – Rais buva chaqchaydi. – Ig‘vogar dedim-ku, hammayoqni taka-taka qilib yuribdi.

Nargisning hind-u xolini silab turgani lop etib xayolimga keldi.

– Chiroyli... – dedim xo‘rsinib.

– A? – Rais buva shunaqangi baqirib berdiki, cho‘chib tushdim. – Bir ig‘vogar butun tumanni ostin-ustun qilib yuradi-yu, shu chiroylimi? Eshityapsanmi, hov! – u qo‘lini bigiz qilib, peshonamga nuqidi. – Raykom bovaning o‘zi aytdi. O‘sha iblisni qamatib qutulmasak bo‘lmaydi. Erta-indin sening brigadanggayam borib qolsa, ajabmas. Gap so‘rasa, hech nimani bilmayman, deb turaverasan, uqdingmi! Eslab qol, familiyasi – Ergaship, tushundingmi?

– Tushundim, – dedim sekin. – Tushundim, Nargisxon...

– Nima? – Rais buva yoqamdan ushlab silkitdi. – Eshushingni yig‘, bola! Ergaship gap so‘rasa, hech nimani bilmaysan, bildingmi?

– Bildim. Bilmayman!

– Bo‘pti, boraver! – Rais buva yoqamni bo‘shatdi. Eshik oldiga borganimda chaqirib qoldi. – Shoshma, – dedi yumshoqroq ohangda. – Bilaman, durus bolasan. Ammo bo‘yingga qarab to‘n bich. Xo‘pmi? Nargisxon – Jovli Mengliyevichning jiyani bo‘ladi. Otasi raypo mudiri. Uqdingmi?! Bo‘pti, boraqol endi.

Qabulxonaga chiqsam, Nargisxon ham, divan ustida yotgan jiyda shoxchasiyam yo‘q. Yo‘lakka chiqib, anchagacha talmovsirab turdim. Nargisxon gulimni olgan bo‘lsa, bundan chiqdi... Endi iljaymoqchi edim, labim o‘zidan-o‘zi burilib, joyiga kelib qoldi. Agar Jovli akaning jiyani bo‘lsa, otasi raypo mudiri bo‘lsa, bizga yo‘l bo‘lsin... Teng-tengi bilan... Rais buva to‘g‘ri aytdi.

To‘rvasini yo‘qotgan gadoydek talmovsirab chiqib ketdim. Qandoq azoblarga qoldim-a? Ishonsangiz, tomog‘imdan ovqat tugul suv o‘tmaydi. G‘ilq etib qaytib tushadi. Hali aytganimdek, Tulporimdan bo‘lak sirdoshim

bo'lmasa... Shodivoy-ku, besh yildan beri qorasini ko'rsatmaydi. Birinchi kursni bitirganida kanikulga kelgan edi. Bilmadim, nima jin urdi jo'ramni! Ikkinchi kursdan boshlab yozda ham qishloqqa kelmaydigan bo'lib ketdi. Talabalar otryadiga qo'shilib, qurilishga borarmishmi-yey, Rossiya tomonlarda yangi yer ochayotganmishmi-yey! Kuching oshib-toshib ketayotgan bo'lsa, kel. Ishimiz shunaqangi ko'pki, bir haftada qulog'ingdan kun ko'ri-nadigan qilib qo'yamiz!

Bultur Rais buva «jo'rang o'qishni bitiryapti, kattalar bilan gaplashdim, o'zimizning rayonga ishga keladi» deb yurgandi. U yoqda Jamila xola ham to'y taraddudini ko'rib yuruvdi. Buni qarangki, Shodivoy kelmadi. Keyin eshitsam, Toshkentda ishlab qopti. Hatto rais buvaning o'ziyam bir safar menga hasrat qildi. «Jo'rang bemehr bola chiqdi, bitta-yu bitta o'g'lim deb shuncha avayladim, yaxshi ish topib qo'ygandim, kelmadi», – dedi.

Ish-pishini bilmadim-u, baribir, jo'ramdan men ham xafaman. Jilla qursa mehmon bo'lib kelmaysanmi, ahmoq! Men senga dardimni aytmaymanmi! «Shundoq-shundoq, jo'rajon, Nargisxonni sevib qoldim», demaymanmi, sen menga jo'yaliroq maslahat bermaysanmi!..

Har kuni ertalab kalam dalaga burilsa, oyog'im idora tomonga tortib ketaveradi. Shu bir oy ichida Nargisxonni atigi ikki marta ko'rdim. Bir safar idora ro'parasidagi fontan yonida xayol surib tursam, rais buvaning «Niva»si g'irillab kelib qoldi. U eshikdan Nargis, bunisidan rais buva tushishdi. Allanimani gaplashib idoraga kirib ketishdi. Meni ko'rishmadiyam.

Ikkinchi gal tavakkal qilib, Nargisxonning eshigini ochdim. Xona burchagida negadir xomush turgan ekan. Meni ko'rib, jilmaydi. Gapni nimadan boshlashni bilmay turgan edim, aksiga olib xuddi avvalgi safardagidek rais buva xonasidan chiqib qoldi.

– Ig'vogar keldimi? – dedi to'satdan.

Hayron bo'ldim.

– Qanaqa ig'vogar?

Rais buvaning jahli chiqib ketdi:

– Nima degandim senga? Idorada o'ralashgandan ko'ra, ishingga bor! – menga qanaqa o'shqirgan bo'lsa, Nargisxonga ham shunaqa o'dag'ayladi. – Otchetlarni kim ko'chiradi! Yuring! – shunday dedi-yu, Nargisxonni xonasiga boshlab kirib ketdi.

Voy, dimog'ingga bedanam qo'nsin! Rais bo'lmoq tugul avliyo bo'lmaysanmi?! Nega do'q qilasan! O'tkazib qo'ygan joying bormi! Kelib-kelib Nargisxonga-ya!

Bir to'polon ko'targim keldi-yu, to'g'risi, Nargisxondan uyaldim.

Isaning alami Musadan deb, Chori bechoraning kaltak yegani qoldi. Urganim yo'g'u, shunga o'xshaganroq ish bo'ldi.

Tushlik paytida tol tagida ko'kragimni yerga berib yotsam, sho'rva ichib bo'lib, nos chekib rohatini surayotgan Chori vaysab qoldi.

– Esitdingmi, o'v, Qo'so... – dedi og'zida nos borligi uchun tili yaxshi aylanmay, – Rais bovani bir sekretari bor... Sunaqa siroyli, sunaqa siroyli, bir qosiq suvminan yutsang, zoning rohat qiladi...

– Nima? – uchib bordim-u, belidan olib, kuchim boricha hovuzga otdim. Chori bechora hovuzning qoq o'rtasiga shaloplab tushdi. Boyadan beri tinimsiz vaqillayotgan qurbaqalar in-iniga urib ketdi. Tolga bog'loqliq Tulporim shataloq otib qochmoqchi bo'ldi-yu, arqonni uzolmadi. Chori amallab qaddini rostladi. Negadir ko'zi ola-kula bo'lib o'qchiy boshladi.

– Nos ketdi! – eski sholchaga yonboshlab yotgan Panji dik etib o'rnidan turdi-yu, ayuhannos soldi. – Ichiga nos ketib qoldi! Kaftini to'ldirib otgan edi. O'lib qoladi, bola!

– O'lsin! – dedim jinnilardek yer tepinib. – O'laversin! Agar Nargisxonni yana bir marta...

Chori loyqalanib ketgan suvdan hovuchlab besh-olti marta ichdi-da, cho'zib-cho'zib kekirdi.

– Ahmoq! – dedi yoshlangan ko'zlarini ishqalab. – Nima qildim senga?

– Yana bir marta gapirsang... – so'kmoqchi edim-u, ahvolini ko'rib rahmim keldi. – Chiq! – dedim o'dag'aylab.

– Chiqolmayman! – Chori hovuz o'rtasida turgancha gavdasini u yoq-bu yoqqa lapanglatib qo'ydi. – Belingacha loyga botib qoldim! Tort!

Etigimni yechib suvga tushishga majbur bo'ldim. Bechora rostdan ham beligacha balchiqqa sanchilib qolgan ekan. Tortib chiqquncha o'zimning ham sillam qurib ketdi. Chorining etiklari sho'ltillar, shimi achimsiq loyga belangan edi.

– Belni yeding, xumpar! – dedi afti burishib. – Shuni avvalroq aytmaysanmi, uyini ko'rsatib qo'ymaymanmi!

– Jon jo'rajon! – Chorining etigini oyog'idan sug'urib olarkanman yalinishga tushdim. – Rostdan ham ko'rsatanmi uyini!

– E, o'! – uning afti avvalgidan battar burishib ketdi. – Voy belim-a! – dedi inqillab. – Lolazor posyolkasida turadi. Shundoq univermag ro'parasida, – yana beli sirqilladi shekilli, alam bilan to'ng'illadi. – Ko'nglingga qo'tir jomoshov! Jovli akaning jiyani bo'ladi u! Senga ko'zi uchib turibdimi?

– Oborasan-a? – dedim Chorining etigini hafsula bilan yuvarkanman. – Mayli, belingni uqalab qo'yaman. Og'ritmasdan uqalayman.

... Chori aytganini qildi. Ishdan keyin uzun-qisqa bo'lib «Lolazor» posyolkasiga bordik. U univermag orqasidagi kattakon temir darvozani ko'rsatib, «shu!» dedi-yu, ura qochdi. Nazarimda, Nargisxonning priyomchik tog'asidan, raypoda rais bo'lib ishlaydigan otasidan qo'rqdi. Chori qo'rqsa-qo'rqar. Men nimadan cho'chiyman?.. Darvoza yaqiniga bordim, kun bo'yi oftobda qizib yotgan darvozani

siladim. Qarasam, bir tavaqasiga qip-qizil tili osilgan itning rasmi chizib qo'yilibdi. Obbo! Bir kamim itga talanishim qoluvdi endi!

Qo'rqa-pisa orqaga chekinib, uyni tomosha qildim. Uy emas, qasr! Pishiq g'ishtdan qurilgan. Derazasidan mo'ralayman degan odam kamida besh qulochli narvon topib kelishi kerak. Devorini aytmaysizmi? Zambarakning o'qi teshib o'tolmaydigan qal'a ham bunchalik bo'lmas.

Oy chiqquncha ko'cha boshiga bordim-keldim, bordim-keldim. Ichkarida chiroq yondi. Kimdir televizor qo'ydi shekilli, derazalardan birida zangori nur ko'rindi. Ammo hech kim darvozadan chiqmadiyam, kirmadiyam!

Ketdik, tarvuzimiz qo'ltig'imizdan tushib! Xato qipman! Asli Tulporimni minib kelsam bo'larkan. «Lolazor» kam deganda sakkiz chaqirimcha ekan. Piyoda tuproq kechib uyga yetgunimcha tong yorishdi.

## O'n to'rtinchi bob

### «IG'VOGAR»

Rais buva «hushyor bo'l, brigadanga ig'vogar borib qolsa ajabmas» deb yurgancha bor ekan.

Bugun o'sha ig'vogar keldi. Yigitlar-ku, tushlikda qornini qappaytirib olishgan. Men bo'lsam, deyarli qurib qolgan tol panasida sahroi kabirga aylanib ketgan doimiy joyimda o'rnimdan jilishga madorim kelmay yotgan edim. Tag'inam fil ekanman. Mana, masalan, siz bir kun emas, bir hafta emas, rosa bir oy nuqul havo bilan ovqatlanib ko'ring, holingiz nima kecharkin? Ninachiga aylanib qolarsiz!

Shunday qilib deng, ko'ksimni yerga berib yotsam, Tulporim hangrab qoldi. To'g'risini aytsam, Tulporimni ilgarigi shashti yo'q. Avvallari qandoq edi! G'ayratga kirib bir o'kirsa, yetti qishloq naridagi eshaklar pildir-pis bo'lib qolardi. Hozir unaqa emas, madori yetgancha ikki-uch

hangraydi-yu, dami ichiga tushib ketadi. Bilaman. Ungayam qiyin. Birinchidan, qarib qoldi. Ikkinchidan, mening dardi hasratimni eshitaverib, yuragi ezilib tamom bo'ldi. Chamamda, davleniyasi oshib, xafaqon bo'p qoldi-yov. Uchinchidan, har kuni kechasi roppa-rosa o'n olti chaqirim yo'l bosadi. Sakkiz chaqirim «Lolazor»ga, sakkiz chaqirim orqaga. Har kuni ishdan keyin ikkalamiz Nargisxonning muborak darvozasini ziyorat qilib kelamiz. Kecha kechasi ham borganmiz. Turib-turib qaytib kelganmiz... Charchaydi-da, sho'rlik.

Shundoq qilib deng, mudrab yotsam, Tulporim hangrab qoldi. Sovuqqina, hazingina hangradi. Yigirma daqiqacha oldin ham «soat to'rt bo'ldi», deb xabar bergan edi-ku! Qarib miyasi aynib qoldimi, nima balo!

Erinchoqlik bilan boshimni ko'tarsam, shiypondagi eski sholchada bir odam chordana qurib o'tiribdi. Darrov sezdim, o'zimizning qishloqdan emas. Ammo gazetadan keladigan muxbirlargayam o'xshamaydi. Radiodan desam, ashqol-dashqoli yo'q. Kiyinishi ham o'zimiz qatori. Oyog'ida chang bosgan etik, egnida oftobda uniqib ketgan yengsiz ko'ylak, boshida eski do'ppi.

– Keling, mehmon! – deb o'rnimdan qo'zg'algan edim, mehmon xijolat chekib, qo'l siltadi.

– Qimirlamang. Bahuzur. Dam olavering.

– E, bo'ldi! – dedim qo'shqo'llab so'rashib. – Dam olib bo'ldik. Hozir choy-poy...

– Ovora bo'lmang! – mehmon bilagimdan tutib, astoydil rad qildi. – O'tiring, siz – Qo'shoqjonsiz-a?

– Ha! – dedim hayron bo'lib.

– Mening familiyam – Ergashev! – mehmon ko'zimga sinovchan tikildi.

Xayolimda bir sapchib tushgandek bo'ldim-u, sez-dirmadim. Voy ablah-ey! Rais buva aytgan ig'vogar sen ekansan-da! Ajab, ig'vogar deganda yuzidan zahar tomib turadigan, qora ko'zoynak taqadigan, ozg'inligidan



ikki chakagi ich-ichiga kirib ketgan odam ko'z oldimga kelardi. Tavba, fitnachilar ham o'zimizga o'xshagan odam bo'larkan-da!

– Men – iqtisodchiman, Qo'shoqjon! – dedi ig'vogar xotirjamlik bilan. – Texnikumda dars beraman...

Qarang, muloyim bo'lib qo'ynimga kiryapti. Ekonomist bo'lsang o'zingga! Laqillatmoqchimisan? Ko'ramiz kimkimni avrar ekan! Rais buvaning «nima so'rasa bilmayman, deb turaver» degani esimga tushdi.

– Bilmayman! – dedim to'ng'illab.

– Bo'lishi mumkin, – Ergashev kulimsiradi. (Kulimsirashiyam o'zimizga o'xshaydi, yaramas!) – Lekin men sizni bilaman. Siz mashhur brigadir Qo'shoqjon Salimov-siz.

– Bilmayman!

– Otangiz Salimjon aka «Mash'al» kolxozida ancha yil buxgalter bo'lib ishlaganlar.

– Bilmayman!..

– Nima uchun Alimov rais bo'lib kelganidan keyin ko'p o'tmay otangiz buxgalterlikdan bo'shaganlarini bilasizmi?

– Bilmayman!

Ig'vogar uzoq jimib qoldi. Xo'rsindi.

– Qo'shoqjon... – dedi sekin. – Ayting-chi, dunyoda eng og'ir gunoh nima?

– Bilmayman!

– Men bilaman! – dedi ko'zimga tikilib. Shundagina sezdim. Ko'zi odamga chaqir tikanakdek qadalarkan. Rais buva «ehtiyot bo'l» deganicha bor ekan. – Dunyoda eng og'ir gunoh – o'z onasini xo'rlash! – dedi u dona-dona qilib.

– Nima? – qonim qaynab ketdi. – Kim onasini xo'rlabdi!

– Hammamiz...

Jinnimi bu? Nima deb vaysayapti?

– Og'zingizga qarab gapiring, aka! – dedim tahdid bilan.

U mendan ko'z uzib, paxtazorga qaradi.

– Mana shu yer, – dedi qo‘li bilan imo qilib, – o‘zimizning onamiz, to‘g‘rimi? Biz nima qilyapmiz o‘zi? Dam berish o‘rniga, bir yil-ikki yil, hordiq berish o‘rniga paxta ekamiz! Beda sepdik deymiz, paxta ekamiz. Almashlab makka ekdik deymiz, paxta ekamiz! Bir hissa o‘rniga o‘n hissa, yigirma hissa, ellik hissa zahar dori sepamiz. O‘z onamizga o‘zimiz zahar tiqishtiramiz. Ona-ku, bolasining gunohini kechirsa kechirar, lekin yer odamlarning gunohini kechirmaydi. Bir kuni shunaqa qasos oladiki... – u yana yarq etib ko‘zimga qaradi... Ilonmi, nima balo! Quyonna avragan ajdardek odamni sehrlab qo‘yadi-ya. Qanchadan-qancha yo‘g‘on komissiyalardan qo‘rqmagan rais buva bittagina ig‘vogardan shunchalik cho‘chigani bejiz emas ekan-da.

– Bugun birov el-yurtni aldab planni do‘ndiradi, – dedi u hamon ko‘zini ko‘zimdan uzmay. – Ertaga yer adoyitamom bo‘ladi. O‘ladi, tushunyapsizmi, o‘ladi! – u chuqur xo‘rsindi. – Tomorqangizga nima ekkansiz?

– Makka!

– To‘g‘ri! Negaki makka ekmasangiz, bitta sigiringiz bilan ikkita qo‘yingiz och qoladi.

Voy shum-ey! Bitta sigir, ikkita qo‘yimiz borligini qayoqdan bildi bu!

– Kolxoz ham ekadi o‘sha makkani! – u istehzoli iljaydi. – Dalaga emas, qog‘ozga. Keyin mollar falon tonna jo‘xori yedi, deb spravka yoziladi. Qog‘ozga shunaqangi ko‘p makka ekiladiki, hammasini esa sigir tugul filning ham qorni yorilib ketardi. Ammo sigirning tili yo‘q. Yemadim deyolmaydi. Makka o‘rniga tag‘in paxta ekiladi. Qog‘ozda makka, aslida paxta, to‘g‘rimi?

– Bilmayman, – dedim to‘ng‘illab.

– O‘zingiz qishloqda turib, uzumni shahardan sotib olasiz! Ikki kilo olma uchun rayon markazidagi bozorga tushasiz.

Ichimdagi gaplarni ko‘zimdan o‘qib olayapti-ku, bu!

– E, bilmayman, – dedim teskari qarab.

Endi turib ketmoqchi edim, u qo'limdan tutdi.

– Shoshmang! – dedi sekin. Sekin gapirsayam ovozi shunaqangi hokimona ediki, esankirab qoldim. – Qo'shoqjon! – bu safar u ko'zimga iltijo bilan termilgandek bo'ldi. – Gektaridan ellik bir sentnerdan hosil olganingiz to'g'rimi?

– Bilmayman!

– Nega bilmaysiz, gazetada chiqdi-ku, axir!

– Gazetada chiqqan bo'lsa, bundan chiqdi, olganmiz! – dedim zarda bilan.

– Bu yil ellik uch sentnerdan olmoqchisiz, shunaqami?

– Olamiz, ishonmasangiz, rais buvadan so'rang!

– Rais buvani qo'ya turing, – u yelkamga do'stona qo'l tashladi. (Qarang, yana avrayapti). – Men sizga aytaymi, Qo'shoqjon! Akademiyaning tajriba uchastkasida ham bunaqa hosil olish amrimahol. Siz – olgansiz. Qandoq qilib?

– Bilmayman!

– O'tgan mavsumda bir mashinada uch yuz ellik tonna paxta tergansiz.

– Terganman! Qutuldimmi?

– Unaqa bo'lsa, ikki yuzta hasharchini nega salkam uch oy ushlab turdinglar? – ig'vogar kuldi. Juda xunuk kularkan. Basharasi xuddi yig'layotgan odamga o'xshaydi. – Bitta mashinada ikki yuz ellik tonnadan ortiq paxta terib bo'lmaydi, ukajon! – dedi yalingudek bo'lib.

– E, boring, men sizning ukangiz emasman! – dedim jonim chiqib. – Tinch qo'yasizmi-yo'qmi odamni!

– Bo'пти, boravering, – u hafsalasi pir bo'lib, yuzini o'girdi. Hayronman, negadir oldidan ketgim kelmasdi. Jodu qilib qo'ygani shudir-da!

– Qo'shoqjon! – dedi bir mahal boshini chayqab. – Bilaman, sizlarning kolxozda qo'shimcha maydon kam. Lekin maydon bir emas, ikki hissa ko'p bo'lganda ham gektaridan ellik uch sentnerdan hosil olib bo'lmaydi... Bir narsa so'rasam, ko'nglingizga kelmaydimi? Faqat rostini

ayting: mana, gazetalarda sizni maqtab chiqishadi. Ellik sentnerchi deyishadi. Shunga o'zingiz xursandmisiz?

– Bilmayman!

– Kechalari yaxshi uxlaysizmi?

Nima balo, jodugarmi bu? Hali Nargisxonni sevib qolganimniyam aytib berar!

– Bir yarim oydan oshdi: mijja qoqmayman, – dedim xo'rsinib.

– Ana! – u quvonib ketdi. – Nima, siz odamlarni ko'r deb o'ylaysizmi? – dedi hayajonlanib. – Eng yomoni shuki, odamlar sizga ishonmaydi. Qalbaki mash'alligingizni biladi. Siz, hammani ko'r deb o'ylaysiz-u, aslida o'zingiz ko'rsiz!

– Nima? – sapchib o'rnimdan turib ketdim. – Ig'vogar bo'lsangiz o'zingizga! Ammo odamni haqorat qilmang!

– Kechirasiz... UZR, – u yana yuzini o'girdi. – Brigadangizda qancha odam bor?

– Bilmayman! – dedim jahl bilan.

– Qiziq, brigadir, o'z a'zolarining sonini bilmasa!

– Bilaman! – dedim yer tepinib. – O'n bir kishi! Qutuldimmi yo familiyasiniyam aytaymi?

– Nega endi? – ig'vogar hayratlanib yelkasini uchirdi.

– Brigadangizda o'ttiz ikki kishi ishlaydi.

Voy iblis-ey! Voy yaramas-ey! Endi tuhmat qilishga o'tdimi!

– Hov! – dedim bo'g'ilib. – Yana bir og'iz gapirsangiz...

U pinagini buzmadi.

– Hammasini bilaman, Qo'shoqjon! Mehnatni siz qilasiz, huzurini ular ko'radi. Rais, bosh bux., ekanamis... Bular uzoqda o'tirgan «aka»larining og'ziga qarab turadi. Besh million tonna so'rasa, olti million beramiz, deydi. Gektaridan qirq sentnerdan hosil olasan, desa, oltinchi sentner olaman, deb og'iz ko'pirtiradi! Umrda paxtazorga kirmagan odam paxtani qayoqdan bilsin? Paxtakor mehnati o'limdan qiyinligini qayoqdan bilsin?! Ularga paxtakorning

o'zi kerakmas, paxta kerak! Bular bo'lsa ularning ko'nglini ovlab mansabga erishadi, orden oladi. Jaraq-jaraq pul ishlaydi.

Rostini aytsam, ig'vogarning bittayam gapiga tushunmadim. «Ular» degani kim, «bulari» kim? Ig'vogar bo'lsa hamon pashshadek g'ing'illab yotibdi.

– Ahvol shunday ketaversa, bilasizmi, oxiri nima bo'ladi?

– Bilmayman, – dedim jonim halqumimga kelib. – Bilmayman!

U birpas jim qoldi-da, ko'zimga tikandek qadalib so'radi:

– O'n kun oldin bir yuz sakson so'm maosh oldingiz, to'g'rimi?

Nima? Yana qanaqa g'avg'o boshlamoqchi bu?

– Bultur kuzda olti yarim ming so'm daromad qilgansiz. Brigadangiz a'zolari o'rtacha to'rt ming so'mdan...

Bu yog'iga chidolmay qoldim. Bu qandoq bedodlik! Nega tuhmat qiladi! O'tgan yil yakunida yuz o'n so'm olganman. Bor-yo'g'i yuz o'n so'm! Qirq uch so'm maosh olganimga uch oydan oshdi. Nimaga tuhmat qiladi bu ablah!

– Yo'qol! – yoqasiga qo'shqo'llab chang soldim. Bo'yni chumchuqnikidek ingichkagina ekan-ku, ikki qo'llab bo'g'ib o'tiribman. Bitta qo'limning o'ziyam etib ortib qolar-kan-ku! – Hoy, ablah, – dedim alam bilan. – Shuncha pulim bo'lsa, allaqachon uylanib olardim! – «Nargisxon»ga degim keldi-yu, tilim bormadi. – Nega tuhmat qilasan, nomard! Nega haqorat qilasan odamni, ig'vogar!

Hushim joyiga kelib, mundoq qarasam, bechoraning yuzi kesak bo'lib ketibdi. Labining ikki chetidan ko'kimtir so'lak oqayapti. Qo'limni bo'shatishim bilan shilq etib yonboshga yiqildi. Yotgan joyida oyoq-qo'li baravar silkina boshladi. O'takam yorilib ketdi. Bir bechorani o'ldirib qo'ydim shekilli! Yugurib bordim-u, hovuzdan do'ppimga suv to'ldirib kelib, yuziga sepdim.

Ig'vogar inqillab ko'zini ochdi.

– Suv! – dedi ingrab.

Chopqillab borib, yana do'ppimni to'latib keldim. U uch-to'rt qultum ichdi-da, negadir labi titrab iljaydi.

– Bilardim, – dedi inqillab, – halol yigitligingni bilar-dim, uka. Rahmat, Salim aka seni odam qilib tarbiyalagan ekan.

Qiziq, men uni o'lar holatga solsam-u, bu rahmat desa. E, o'l, ig'vogar bo'lmay!

Do'ppimga tag'in suv to'ldirish uchun hovuzga talpingan edim, orqa tomonda motor gurilladi. Cho'nqayib o'tirgan ko'yi qo'ltig'im ostidan qarasam, rais buvaning «Niva»si chang-to'zon ko'tarib, shiypon oldiga kelib to'xtadi. Rais buva eshikni qarsillatib yopib tushdi-da, shiyponda hud-behud bo'lib yotgan ig'vogarni ko'rib negadir iljaydi.

– Bahay, tinchlikmi? – dedi menga qarab.

– Bilmayman! Hech nimani bilmayman! – shunday deb, hovuz tomon o'girilgan edimki, o'ng tomondagi eshik ochilganini, mashinadan... kalta yengli guldor ko'ylak kiygan, sochini bitta qilib o'rib orqasiga tashlab olgan Nargisxon tushib kelayotganini ko'rdim. Do'ppimni hovuzga uloqtirib, oldiga chopib bordim. Shiypon tomondan rais buvaning kinoyali ovozi keldi.

– Iya, ha, o'rtoq «yozuvchi?» Nima gap?..

– Hech nima...

– G'iybatchining jazosi shu bo'ladi, Ergaship!

Nargisxon avval shiyponda bir holatda o'tirgan ig'vo-garga, keyin rais buvaga, keyin menga qaradi.

Dilimdagilarni hozir aytmasam, boshqa qulay fursat topilmasligini bilib, tutila-tutila gap boshladim.

– Nargisxon! Bilasizmi?..

U hayratlangandek yuzimga tikildi. Negadir qorayib, ozib ketibdi. Ishi ko'p-da, bechoraning.

– Nargisxon... Men... Men sizni ko'p izladim, – dedim ming'illab. – Idoraga bordim... O'n yetti marta. Uyingizga

bordim. O'ttiz to'rt marta... Tulporim bilan... Qopog'on itingiz bor ekan...

U avval quvongandek bo'ldi, keyin negadir qovog'ini soldi.

– Kerakmas, – dedi labini tishlab.

– Nega?

– Reks chindan ham qopog'on...

– Qopsa qopaversin! Yeb qo'ysayam mayli. Menga baribir.

Nargis endi jilmaygan edi, la'nati Rais buva yana gapning beliga tepdi.

– Qani, jo'nab qol-chi, Ergaship! – dedi ovozi gumburlab.  
– Tinchidingmi, endi?

Ig'vogar gandiraklabroq uch-to'rt qadam bosdi-da, negadir mening yonimga keldi. Qo'limni qattiq siqdi.

– Xayr! – sal nariroqqa bordi-da, orqasiga qaradi. – Tinchiganim yo'q, Alimov! – dedi yig'lagudek iljayib. – Toki vijdonim tirik ekan, tinchimayman!

Uning gapi bu qulog'imdan kirib, unisidan chiqib ketdi. Qasdi bo'lsa, rais buva bilan olishaversin! Menga nima? Menga Nargis kerak!

– Nargisxon! – shunaqangi chuqur xo'rsindimki, bir yarim oydan beri ichimda qizib yotgan olov lovillab ketdi. Ovozim shu qadar ingrab chiqdiki, Nargisxon yonib ketishdan qo'rqdimi, lip etib o'zini «Niva» ichiga urdi.

– Obbo azamat-ey! – Rais buva yelkamga shapatilaganida ham ikki ko'zimni Nargisxon kirib ketgan mashinadan uzmadim.

– Obbo tutxo'r-ey! – Rais buva qo'ltig'imdan olib tol tagiga sudradi. Ergashib boryapman-u, ko'zim mashinada. Nargis orqa o'rindiqla o'tiribdi. Biz tomonga qaramaydiyam.

– Voy tutxo'r-ey! Ammo boplading, ig'vogarni! Bir yo'la o'ldirib qo'ya qolmading-da! Uzoqdan ko'rib turuvdim! O'ziniyam mushuk boladay ezg'ilading. Malades! – Rais

buva mashina tomonga tezgina qarab oldi. – Hammasi tushunarli, – dedi yelkamga tag'in shapatilab. – Diding chakkimas, tutxo'r! – u bir lahza o'ylanib qoldi. Peshonasi tirishdi. – Jo'rangdan umid yo'q! – dedi salmoqlab, – o'qishini bitirib kelsa, uylantiraman deb yuruvdim, o'sha yoqlarda qolib ketdi. Bilmadim, bu yog'i nima bo'ladi. Esingdami, hov birda men senga otalik qilaman, degandim. O'sha gapim – gap! To'y qilamiz... – dedi to'satdan. – Anchadan beri sezib yuribman. Bilaman, yaxshi ko'rasan shu qizni... O'zim sovchilik qilaman. – U bir zum ikkilangan ko'yi jimib qoldi. – To'g'ri, Jovli Mengliyevichlar katta dargoh. Ammo men o'rtaga tushsam, g'ing deyoilmaydi. Qo'lni tashla, tutxo'r! Senga otalik qilganim bo'lsin! Bir oy ichida to'yingni o'tkazmagan – nomard!

Mashina chang-to'zon ko'tarib ko'zdan g'oyib bo'lganidan keyingina hushim joyiga keldi. Nima dedi rais buva? Shu qizni obberaman, dedimi! Bir oy ichida to'y qilamiz, dedimi?! Nahotki? Nahot, shu gap rost bo'lsa?!

Tolga bog'log'liq turgan Tulporim ham Rais buvaning gapini tushundimi, o'zining yoshligini esladimi, quloqlari dikkayib, irg'ishlay ketdi.

– Eshitdingmi, oshna! – dedim Tulporimning bo'ynidan quchoqlab. – Rais buvaning gapini eshitdingmi?

Ko'zimga tikilib turib, xuddi folbindek dilimdagi gaplarni aytib bergan ig'vogar ham, uch oydan beri maosh olmaganim ham paqqos esimdan chiqib ketdi. Ko'z o'ngimda Nargisxon-u, qulog'imda rais buvaning gapi: «Bir oy ichida to'yingni o'tkazmagan – nomard!»

Kechgacha shunaqangi g'ayrat bilan ishladimki, traktorimni chiyillatib yubordim!



## O‘n beshinchi bob

### RAIS BUBA OTALIK QILMOQCHI

Bugun idorada majlis bo‘ldi. Juda katta majlis. Hatto raykom buva ham, paxtapunktida yarim kechasi yig‘ilish bo‘lganida qatnashgan semiz kishi – obkom vakili ham keldi. Xo‘p antiqa gaplar aytili.

Shoshmang, majlis-ku, o‘z yo‘liga! Avval akang qarag‘ayning hayotida ro‘y bergan baxtli voqealarni aytmasam, paq etib yorilib ketaman. Uvolimga qolasiz!

O‘shanda rais buva senga o‘zim sovchilik qilaman deganida, harchand quvonmay, ko‘pam ishongim kelmagandi. Buyam pat-pat olib beraman, degan gapdek bo‘lsa kerak-da, deb o‘ylagan edim. Buni qarangi, indiniga yarim kechasi uyga kelsam (Tulporim bilan lo‘killab tag‘in «Lolazor»ga borgandik), hovlimiz gul-gul ochilib ketibdi. Suvlar sepilgan, hammayoq chinni-chiroq qilib supurilgan... Radio varanglab «Uchquduq»ni aytib yotibdi. Oshxonada singlim Mavju osh damlayapti. Jiyanchamni ko‘tarib olgan onam meni kamida o‘n yil ko‘rmagandek quchoqlab bag‘riga bosdi. Jiyancham fursatdan foydalanib burnimga chang soldi. (Bodring deb o‘yladi shekilli, shunaqangi kuch bilan tortdiki, uzib olishiga bir bahya qoldi). Burun achishganiga parvo qilmay, jiyanchani o‘pib erkalatdim. Shirin bola-da, o‘ziyam.

– Baxting ochildi, o‘g‘lim! – dedi onam negadir o‘pkasi to‘lib. – Peshonang yaraqlagan yigit ekansan. Tezroq kir, pochchangga salom ber!

Hayron bo‘ldim.

– Qanaqa pochcha?

– Mavjuning eri-da! Sendan bir yosh katta-ku, pochcha bo‘ladi-da, bolam!

Yoshi katta bo‘lsa o‘ziga! Birinchidan u – opamning emas, singlimning eri! Demak – kuyov! Ikkinchidan, Juni urganda o‘lasi qilib do‘pposlaganimdan beri gaplashmaymiz.

Qolaversa, keyingi ikki yilda bittayam zapchast bermadi. Shunga salom berishim kerakmi, endi?

Onam ikkilanib turganimni sezdi. Yelkamga qoqdi.

– Kira qol, jon bolam. Pochchang xushxabar obkeldi. Peshindan beri kutib o‘tiribdi.

Ayvonga chiqib etik yechayotsam, ichkarida gangir-gungur suhbat! «Nargisxon», «Jovli Mengliyevich», «Raypo» degan so‘zlar qulog‘imga chalindi... Bir gap bor, shekilli...

Eshikdan kirishim bilan xontaxta to‘rida o‘tirgan kuyov dik etib o‘rnidan turdi. (Avvallari shimining dazmoli buzilishidan qo‘rqib stulda o‘tirardi. Yo‘q, bu safar lo‘la bolishga yonboshlagancha dadam bilan bemalol chaqchaqlashyapti).

– Qani, suyunchini cho‘zing, kuyovto‘ra! – dedi shang‘illab. Jinday «otib olgan» shekilli, quchoqlashib ko‘rishdi. Dimog‘imga achimsiq hid urildi. – Shu dardingiz bor ekan, boshda aytmaysizmi, Qo‘shoqjon! Biz sizga begonami?

– Nima? – dedim garangsib.

– Qarang, tag‘in o‘zini go‘llikka soladi, amaki! (Dadamni «amaki» deydi), – Qo‘shoqjon balo, amaki, Nargisxondek qizning boshini aylantirib qo‘yibdi. To‘yni yurishtirib yubordik, kuyovto‘ra!

– Rostdanmi? – uyda dadam o‘tirgani ham paqqos esimdan chiqib ketdi. Kuyovning terlab turgan yuzidan cho‘lpillatib o‘pib oldim.

U iljayib joyiga borib o‘tirdi.

– Ko‘rdingizmi? – dedi dadamga. – Jigaridan urgan. Ammo o‘ziyam zo‘r joyga quda bo‘ladigan bo‘ldingiz-da, amaki.

Uyalgan kishi bo‘lib, poygakka cho‘nqaydim.

– Choy bormi? – dedim odob bilan.

– E, choyni qo‘ysang-chi, zo‘r! – kuyovning qip-qizil yuzi yalpayib ketdi. – O‘tkirrog‘idan olib ke! – dedi dilkashlik bilan shang‘illab.

Otamga qarash, qovog'i soliq. Lunji uchay-uchay deyapti-yu, o'zini tiyib o'tiribdi.

– Quda bilan maqtanadigan odatim yo'q, – dedi to'ng'illab.

– Iye, qiziqmisiz, amaki, – kuyov yana shang'illadi. – O'g'lingizning boshiga baxt qushi qo'nib turibdi-yu, siz noz qilasizmi? Otasi raypo raisi bo'lsa, tog'asi kimsan Jovli Mengliyevich bo'lsa...

Dadamning lunji uchdi.

– Menga nima? – dedi chimirilib. – Rayposiyam, priyomchigiyam bir go'r!

Nima? Dadam qanaqa o'zi? Qachon qarasa, yo'limga to'g'anoq bo'ladi! Endi otamning qaysarligi deb Nargisxondan quruq qolishim kerakmi? Bekorlarning beshtasini aytibdi! Shunaqa qilsa...

– O'ylab gapiryapsizmi? – dedi kuyov ham ranjib. – Nima qilasiz, pishib turgan oshni lanj qilib... Aytdimku, kecha rais bova meni idoraga chaqirib hammasini tushuntirdi. Ochig'ini aytsam, shu qizni o'zim kelin qilmoqchi edim, Shodivoy nobakor bola chiqdi, dedi. Qo'shoqvoyni ham o'z o'g'limdek yaxshi ko'raman. Toshkentga oborib o'qishga joylashtirolmaganimdan hamon uyalib yuraman, qaytaga Shodivoy emas, shu bola o'qib kelsa ko'proq foydasi tegardi, dedi. Endi shu qiz begonaga ketmasin, deyman, dedi, amaki! Rais bova o'rta tushmaganida qudangiz siz tugul raykomgayam eshigini ochmasdi.

– Xuddi o'sha rais bovaning o'rta tushgani yoqmay turibdi, – dadam qaysarlik bilan yuzini o'girdi.

Onam dadamning fe'lini bilgani uchunmi yo xuddi shu gapni kutib, eshikda poylab turgan ekanmi, jiyanchamni ko'targanicha shaxd bilan kirib keldi. To'satdan shunaqangi shovqin soldiki, qo'lidagi jiyancham chinqirib yig'lab yubordi.

– Qanaqa otasiz o‘zi? Shundoq odamlar, g‘unchadek qizini dala-dumbul o‘g‘lingizga beraman desa! Rais bovaddek kishi... – u chirillab yig‘layotgan bolani kuyovga uzatdi. – Ushlab turing. Rais bovaday kishi o‘rtaga tushsa! Jovli akadek odam raisning yuzidan o‘tolmay xo‘p desa, tag‘in nima nozingiz bor. Notavon ko‘ngilga qo‘tir jomashov!

– Shuni ayting! – kuyov hamon yig‘layotgan o‘g‘ilchasini ovutishga urindi. – Bo‘ldi, ulim, bo‘ldi... – otamga yuzlanib, o‘shqirdi. – U qizga kimlar xaridor bo‘lganini bilasizmi? Raymilitsiyaning nachalnigi o‘g‘liga so‘ragan. Glavvrach ukasiga so‘ratgan. Nima qilaylik, qiz o‘g‘lingizga ko‘ngil qo‘yibdi. Shuning o‘zi Qo‘shoqjonning omadi chopgani emasmi?

Nima? Nima dedi kuyov? Bundan chiqdi, Nargisxonning o‘ziyam...

Shartta o‘rnimdan turib, kuyovni belidan ko‘tarib besh-olti marta chirpirak qilib aylantirmoqchi edim, onam to‘satdan yig‘lab yubordi.

– Xarajatidan qochayotgan bo‘lsangiz, mayli! – dedi rosmana ho‘ngrab. – Xudoga shukur. Ukam bor! Jiyaningni to‘yiga bittagina ho‘kiz, to‘rttagina qo‘y to‘yana qil desam, bo‘yin tovlamas.

– Qalin puli bizdan! – kuyov sal ikkilanibroq turdida, qo‘shib qo‘ydi. – Bilaman, sizni qo‘lingiz qisqaroq. Pensiyaodagi odamsiz, lekin xayrli ishni cho‘zib bo‘lmaydi... – Mayli, ichkilikniyam bir chekkasini ko‘tarishib yuboramiz. Begona emasmiz-ku, axir... Ikki yosh bir-biriga ko‘ngil qo‘ygan bo‘lsa...

– Ana! – onam endi yig‘lamay qo‘ydi. Ovozi yanayam dadillashdi. – Bitta o‘g‘lingiz uchun uzatgan oyog‘ingizni yig‘may qo‘ya qoling!

Malades, o‘zimizning onamiz! Bormisiz, enajon!

– Siz ertaga sovchilikka boravering! – dedi kuyov onamga qarab. – Bir borishda kelin tomon non sindirma, biz kafil!

Dadam lunji uchib-uchib o'tirdi-da, «bilmadim-ov», deb qo'ydi. Bu uning rozi bo'lgani edi. Xayriyat, ancha yengil tortdim.

Keyingi voqealarni xuddi tushimda ko'rayotgandek bo'ldim. Kuyov rost aytgan ekan. Onam birinchi borishida kelin tomon non ushatishibdi. Keyin akang qarag'ayning, ya'ni kuyovto'raning noni sindirildi. Bundan chiqdi, tamom! Nargisxon endi bizning jufti halolimiz! Dadam ham shundoq odamlarga quda bo'layotganiga ishondi: hovli devorining kamgak joylariga guvala bosib, qaytadan somon suvoq qilishga kirishdi.

Bundan ortiq baxt bormi odamga! Rais buvaning yaxshiligini nima bilan qaytaray! Shodivoy shundoq otasini xafa qilib yuribdi. To'yni eson-omon o'tkazib olaylik, jo'ramni izlab Toshkentga boraman, topib aytaman, «sen – Shodi ahmoq ekansan» deyman. «Dadang tillo odam, xafa qilma, tezroq qishloqqa bor, seniyam uylab qo'yadi» deyman! (Albatta, Nargisxonni unga mo'ljallagani-yu, akang qarag'ay ilib ketganini aytmayman. Nima qilaman xafa qilib, jo'ramni!)

Qarang, shu paytgacha kuyovimniyam bilmagan ekanman-da. Yigitning mardi shu ekan-ku!

Tog'amni aytmaysizmi! Oyim qudanikida non sindirib kelgan kunning ertasiga eshigimiz oldida «Zil» mashina voshillab to'xtadi. Kabinadan tog'am tushib, mashina orqasiga zing'illab o'tdi.

– Bortni ochishib yubor, jiyan! – dedi iljayib. Qarasam, mashina ustida filday buqa ko'ndalang turibdi. Qop-qora, shoxlari qayrilib ketgan. Qontalash ko'zlari odamga o'qrayib qaraydi.

– Ehtiyot bo'l, – dedi tog'am bortga chiqayotganimda. – Suzong'ich ekan ukkag'ar! O'ziam yarimta «Zaporoj»ning puliga tushdi.

Aslida-ku, bizning taomilda qiz tomonga ho'kiz emas, o'ttiztami-qirqtami qo'y yuboriladi. Rais buva otamning

qo'li qisqaligini bilgani uchun Jovli Mengliyevichga shipshib qo'rganmi, xullas, qudalarni bittagina buqa, besh-oltita qo'yga ko'ndiribdi.

Kiroyi kelinnikiga yuboriladigan bo'lganidan keyin shunaqa gijinglab turadigan buqa yaxshi-da! Bizni suzib bo'pti! Bort chetiga chandilab bog'langan arqonni yechib, sakrab tushdim-da, pastdan turib tortdim. Buqa erinibroq yerga tushdi. To'yib pivo ichgan odamdek og'zidan so'lak oqib, chayqalib-chayqalib, uch-to'rt qadam bosdi. Mastmi, nima balo?

Eshikdan kirguncha indamay kelayotgan edi. Keyin nima jin urdi, bilmayman! Bir mahal qalin lablari bilan yerni iskab, tahdidli ovozda «mo'-o'» deb o'kirdi-yu, nayzadek shoxlarini naqd qornimga to'g'rilagancha tashlanib qoldi! Tog'amning yelkasiga qoqib nuqul duo qilayotgan onam chinqirib yubordi!

– Qoch! O'ldiradi! Voy sho'rim.

Onamning maslahatisiz ham arqonni tashlab, allaqachon juftak rostlab qolgan edim. Qancha tez qochsam, buqa la'natiyam ketimdan shuncha tez yuguradi. Hayvon-da, hayvon! Qadamidan yer titraydi. Hovlini uch marta aylanib chiqdik. Jon holatda yugurib borib, burchakda o'yib qo'yilgan g'o'zapoya ustiga chiqib ketibman. Boshini quyi solib kelayotgan buqa, mo'ljalni xatoroq oldi, shekilli, kuchi boricha tandirga kalla urdi. Boshini g'olibona ko'targan edi, shoxiga tandir ilashib chiqdi. Sho'rlik boshini u yoqqa silkitadi, bu yoqqa silkitadi, qani tandirdan qutulsa! G'azab bilan mo'laganCHA dumini xoda qilib chunonam yugurdi! Boshi tandir ichida qolib yo'lni topolmagani uchunmi, shu ketganCHA shataloq otib bordi-yu, tomorqa tomondagi devorga urildi. Gurs etgan ovozdan hammayoq zirillab ketdi. Buqaning boshiga ilashib qolgan tandir uvalanib yerga to'kildi. Buqa orqaga tisarilib, uvvalo chiranadi, qani qimirlatsa! G'o'zapoya ustida o'tirib, qo'rqa-pisa razm solsam, ikkala shoxi yangidan guvala bosib suvalgan

devorga sanchilib qopti! O'1, bu kuningdan, battar bo'1! Tog'am, dadam, men uchovlashib, ikki shoxiga, bo'yniga arqon solib, molxonaga kirgizib qo'ydik. Eson-omon kelin tomonga jo'natib yuborsak bo'ldi. Pishirib yeydimi, xomligicha yeydimi, o'zlari biladi!

To'y taraddudi qizib ketdi. Singlim har kuni enam bilan raysentrga yuguradi. Kelinga sarpo-suruq, ko'rpa qavitish, balo-battar, degan gaplar bor, axir!

Faqat Nargisxon kamnamo bo'p ketdi. Kunora idora oldiga boraman, derazadan mashinka chiqillashiyam eshitilmay qoldi. Mayli, kelin degan kuyov bilan elburutdan yetaklashib yursa uyat bo'ladi. Ko'pi ketib, ozi qoldi. Ikki haftadan keyin – to'y!

Siz tomonlarda qanaqa bilmadim-u, bizning kolxozda to'ylar nuqul qishda bo'ladi. To'g'ri-da, to'y bo'lgandan keyin odamlar yayrashi kerakmi? Kerak! Bizning odamlar onda-sonda ichadi. Ammo bir ichsa xurmachasi yorilib ketguncha ichadi. Bundan chiqdi, ertasiga ishga chiqolmaydi. Shuning uchun to'ylar qishda, xotirjam pallada qilinadi. Menga qolganda rais buva tag'in bir otalik qildi. Nargisxon ikkalamiz Layli-Majnun bo'lib yurganimizni tushunib, to'yni yozda o'tkazishimizga rozilik berdi. Rozilik berdimas, o'zi bosh-qosh bo'lyapti. Har ko'rganda: «Qalay, tutxo'r, kamchiliklar yo'qmi?» – deb so'rab qo'yadi. Hatto bugungi majlisdan keyin ham shuni so'radi. Umuman, bugun umrimdagi eng baxtli kun bo'ldi. To'g'risi, majlisdagi gaplarga uncha quloq ham solmadim. Eng yaxshisi shu bo'ldiki... Aytaveraymi? Bugun... Bugun meni Nargisxon o'pdi. O'zi o'pdi. Birinchi bo'lib!

Majlis ertalab soat o'nlarda boshlandi. Uzoqdagi brigadalardan ham kolxozchilar olib kelingan, shekilli, idora oldida yuk mashinalari, telejkalar tirband. Ishonasizmi, birinchi qavatdagi zalga odamlar tiqilib ketdi. Orqaroq qatorda biz ham o'tiribmiz. Sahna yop-yorug'. Havorang

movut qoplangan stolga atirgullar qo'yilgan... Sahnaga rais buva, raykom buva, semiz kishi – obkom vakili, melisanikiga o'xshagan forma kiygan bir odam, men tanimaydigan yana besh-olti kishi chiqishdi. Orasida ukkiko'z Jovli akam ham bor. E, tilimga tirsak chiqsin! Nega endi ukkiko'z bo'larkan. Ko'zlari bip-binoyi. Yuziyam chip-chiroyli. Boshini yelkasiga tortayotgani yo'q. Bir odamda husn bo'lsa, shunchalik bo'ladi-da!

Hammayoq qarsakvozlik bo'lib ketdi. Shunda... To'satdan yuragim qinidan chiqib ketay dedi. Sapchib o'rnimdan turgan edim, orqamda o'tirgan Chori etagimdan tortdi.

– O'tir-e, terak!

Nega o'tirarkanman! Axir sahnaga Nargis chiqyapti-ku! Egnida atlas ko'ylak, boshyalang. Sochini turmaklab olgan. Tomog'im quruqshab, nafas ololmay qoldim.

– O'rtoqlar! – dedi rais buva. – O'rtoq kolxozchilar! Bilamiz, hozir dalada ish ko'p. Sizlarning qimmatli vaqtlaringizni olib, bu yerga yig'ishdan murod shuki, keyingi paytlarda rayonimizda Ergaship degan bir «yozuvchi» paydo bo'lgan edi. O'sha ig'vogar ishimizga ko'p xalal berdi. Elni buzishga urindi. Qani, qayoqqacha borarkin, deb qo'yib berdik. O'sha ablah... – Rais buvaning ovozi qahrli tus oldi. – Siz hurmatli kolxozchilarning yutug'ini kamsitmoqchi bo'ldi. Hammamizga mag'zava sepdi. Ammo haq joyida qaror topmay qo'ymaydi. Oblast, rayon tashkilotlari bu ishga aralashib, oq-qorani ajratdi. Bugun rayon gazetamizda Ergashipning po'stagini qoqadigan pileton chiqdi. Ana, o'zlaring eshitinglar, – Rais buva to'satdan Nargisxonga burildi. – O'rtoq Qo'shshayeva, marhamat qilib piletonni o'qib bering! Odamlar qora ko'lankaning kimligini bir bilib qo'ysin!

Nargisxon sahnadagi stol burchagidan ohista turib, minbar tomon yura boshladi. Jimjit zalda kelingizning



muborak poshnalari qars-qurs etib turibdi. Bizning yurak gurs-gurs etadi.

Nargisxon minbarga chiqib, gazeta qatini ochdi.

– «Qora ko‘lanka», – dedi jarangdor tovushda. Qo‘ng‘i-roqdek ovozlaringdan akang aylansin! Muncha shirinsan! Muncha chiroylisan! Muncha aqllisan, Nargisxon! Muncha baxtlisan, Qo‘shovoy! Nimaga yuraging tars yorilib ketmaydi, xumpar!

Hushimni yig‘ib olgunimcha Nargisxon feletonning yarmini o‘qib bo‘pti.

– «Yutuqlarimizni ko‘rolmaydigan, har yaxshidan bir yomon izlaydigan, jamiyatimizga dog‘ bo‘lib tushayotgan bunaqa ko‘lankalar bizga yot!» – dedi u o‘qishda davom etib.

Qiziq, negadir ig‘vogarga rahmim keldi. Ig‘vogarmi, g‘iybatchimi, baribir yaxshi odam edi. Masalan, men eshakdek ishlab xemiri ololmayapganimni o‘sha aytuvdi-ku! Paxta punktga, paxta o‘rniga pul topshirishadi, deganiyam rost bo‘lsa-chi! Hov, o‘shanda, yarim kechasi paxta punktda majlis bo‘lganida, Shaydul kassirning papkasini tushirib qoldirganimda, nega bunchalik tipirchiladi? Balki... Papkadagi... Yo‘q, juda kerakli hujjatlar dedi-ku!..

Nargisxonning jarangdor ovozi xayolimni chilparchin qilib yubordi.

– Biz mehnat qilyapmiz. Halol, fidokorona ishlayapmiz. Yutuqlarimizni ko‘rolmaydigan Ergashev degan qora yurak esa...

Ovozlaringdan o‘zim o‘rgilay. Biyron tillaringdan akang aylansin. Nahotki mana shu farishta mening justu halolim bo‘lsa! Nahot, uning shahlo ko‘zlari, bejirim hindu xoli meniki bo‘lsa!

Nargisxon gazetani o‘qib bo‘lib, rais buvaga uzatdi-da, joyiga borib o‘tirdi. Jon holatda qarsak chalib yubordim. Boshqalar ham jo‘r bo‘ldi.

– Qani, kim gapiradi? – dedi Rais buva o‘rnidan turib.

– Mumkinmi? – Raykom buvaning yonida o‘tirgan Jovli aka qo‘lini baland ko‘tardi.

– Marhamat! So‘z mejrayonniy xloppunkt priyomchigi Jovli Mengliyevichga!

Men ahmoq, Jovli aka, qarindoshim Jovli akaning ko‘z-lari shunaqangi chiroyliligini avval nega payqamabman-a? Qarang! Ko‘zlari shunaqayam mehribon boqadi odamga, shunaqayam suzilib ketadi.

– Do‘stlar! – dedi u kulimsirab. – Ergashev butun rayonni, qolaversa, butun bayroqdor oblastimizni salkam ikki yildan beri ovorai sarson qiladi. Mana piletondan ko‘rinib turibdiki, u – borib turgan ig‘vogar ekan! Menimcha, Ergashev nenormalniy odam! Uni jinnixonaga topshirish kerak. Biz...

Jovli aka endi gapning yog‘li joyiga kelganda, raykom buva stolni shapatiladi.

– Yo‘q! – dedi hayqirib. – Ergashev jinni emas!

Jovli aka nima qilishini bilmay qoldi. Yaxshiyam Rais buva bor ekan. Darrov raykom buvaga so‘z berib qo‘ya qoldi.

– So‘z – hammamiz uchun hurmatli raykom bovaga.

Raykom buva minbarga chiqmadi. Turgan joyida gapini davom ettirdi.

– Bir latifa bor, eshitganmisizlar? Bir odam tegirmonga kirib, nuqul boshqalarning qopidagi unni hovuchlab-hovuchlab o‘zining qopiga solayotganmish. Tegirmonchi so‘rabdi. «Sen kimsan, nima qilayapsan?» – desa, boyagi odam «men – jinniman» debdi. Tegirmonchi: «Jinni bo‘lsang, nega o‘zingni qopingdagi unni boshqalarnikiga solmaysan?» – desa, boyagi aytarmish: «Men jinniman, lekin ahmoq emasman» – dermish!

Zalda kulgi yangradi. To‘g‘rirog‘i, eng avval rais buva kuldi.

– Ergaship o‘shanaqa aqlli jinnilardan.

Raykom buvaning tomog'idagi shaftoli danagidek uchburchak baqbaqasi liqillab ketdi.

– U bizning yutug'imizni ko'rolmaydi. To'g'rimi? – dedi u semiz kishiga – obkom vakiliga burilib.

Semiz kishi harsillab-gursillab o'rnidan turdi. Minbarga borishga erindi shekilli, bu ham turgan joyida gapirib qo'ya qoldi.

– Ergashev faqat «Mash'al»ga emas, boshqa xo'jaliklarga ham tuhmat qilgan, – dedi suv tiqilgan surnaydek g'iyqillab. – Faqat sizning rayonga emas, boshqa rayonlarga ham borgan. Faqat paxtachilikni emas, chorvani ham o'zicha «taftish» qilgan.

– Tuvri! – birinchi qatordan asabiy tovush eshitildi.

Tanidim, ferma tog'aning ovozi.

– Tuvri, – dedi u baqirib. – Fermag'a borib, tozza boshimni o'vritdi. Juz sovliqdan juz to'qson jetti qo'zi oldiq, desam, o'zing'iz qo'shilib tuvdig'izmi deydi, uying' kuyg'ur!

Boyadan beri suv quygandek jim turgan zal qahqahadan portlab ketgandek bo'ldi. Negadir obkom vakili aqalli jilmayib ham qo'ymadi.

– Nega kulasanlar? – o'rtaroq qatorda o'tirgan Shaydul kassir o'rnidan sapchib turib, qo'lini paxsa qildi. – Allaqanday bir g'alamis pok odamlarning yuziga loy chaplasa, shu kuladigan gapmi?

Zalga sekin-sekin jimlik cho'kdi.

– Gap shu! – dedi obkom vakili g'iyqillab. – Ergashevning ishini prokuraturaga oshirishga majbur bo'ldik. O'ziga-o'zi jabr qildi. Oilasi ham bezor bo'lgan ekan. Xotini bilan suhbatlashdik. Anchadan buyon ajrashmoqchi bo'lib yurardim-u, ikki bolamni ko'zim qiymasdi, dedi. – U bir zum jimib qoldi-da, tahdid aralash so'radi. – Qani o'rtoqlar! Sizlarning orangizdayam shunaqa «yozuvchilar» bormi? Marhamat! Hamma sharoitni yaratib beramiz. Markazga bormoqchi bo'lsa, qo'lga samolyot biletiniyam olib

beramiz! Gostinitsalarga bronniyam to'g'rilaymiz. Bormi, shunaqa ig'vogar?!

Militsiyalikiga o'xshaydigan formali odam o'tirgan joyida miyig'ida kuldi:

– Qo'rqmanglar. Pajalista! Rayon prokuraturasi Ergashevga o'xshaganlarni izlab yuribdi o'zi...

Zalga g'alati jimlik cho'kdi.

– Marhamat, qo'rqmanglar! – dedi semiz kishi battar g'iyqillab. – Obkom bova bilan gaplashdik. Ergashevga o'xshaganlar bo'lsa, bemalol ig'vo qilaversin, dedilar. Bormi, shunaqa mard?

– Uzi! – Rais buva xijolat chekib o'rnidan turdi. – «Mash'al»liklar unaqqa emas. Bizning odamlar– halol! Elimiz g'iybatlarga uchmaydi. Mana, masalan, Qo'shoqjon Salimov! Bu yil gektaridan ellik uch sentnerdan hosil olishga bel bog'lagan ilg'or brigadirimiz. Qayoqdasan, Qo'shoqjon!

Meni chaqiryaptimi? Voy, men nima deyman? Tizzalarim qaltirab ketdi.

– Tursang-chi! – orqamda o'tirgan Chori gardanimga shunaqangi zarb bilan tushirdiki, gandraklab o'rnimdan turganimni o'zim bilmay qoldim.

– Qayoqdasan, Qo'shoq! – dedi Rais buva alang-jalang bo'lib.

– Bu yoqda! – Chori bir hayqirgan edi, butun zal menga o'girilib qaradi. Sahnaga razm solsam, Nargisxon ko'zlari o'tdek yonib, menga tikilib o'tiribdi.

– Ig'vogar sening brigadangga ham borgan edi-a? – dedi Rais buva.

– Bilmayman... – dedim ming'illab.

Chamamda, gapim og'zundan chiqdi-yu, burnim eshitdi.

– O'sha ablah, Salimovning brigadasiga ham borgan, – dedi Rais buva stolda o'tirgan kattalarga yuzlanib. – Shu halol bolagayam tuhmat qilgan. Qo'shoqjon malades yigit! Tuhmatga chidolmay ig'vogarni bo'g'ib turganining ustiga

borib qoldim. Ajratib olmasam, o'ldirib qo'yardi. To'g'rimi, Salimov!

– Suv berayotgandim! – dedim bo'ynimga olib. – Siz borganda hushi joyiga keluvdi.

– Ergaship senga tuhmat qildimi?

– Qildi, – dedim ovozimni baralla qo'yib. – Bultur gadovoyda olti yarim ming so'm olgansan deydi. O'n kun ilgari bir yuz sakson so'm maosh olding, deydi, nomard! Qani o'sha pul? O'zim to'rt oydan beri...

Gapimni tugatolmadim. Qiyqiriq kulgu, qarsakdan qulog'im yorilib ketay dedi.

– Jim! Tishe! – Rais buva stolni mushtladi.

– To'rt oydan beri bir tiyin maosh olmagan bo'lsam... Panjini aytmaysizmi? «Uylanaman deb qarzga botganman, maosh qachon tegadi», – deb boshimni qotiradi.

– Bo'ldi! – Rais buva negadir asabiy bosh silkidi. – Rahmat.

– Tursunboy aka bo'lsa... – dedim dilimdagi gap qolib ketmasligi uchun shosha-pisha.

– Bo'ldi, tushunarli...

– Oysara yangam...

– O'chir-e! – Rais buva ko'zlari olayib dag'dag'a qildi. – O'tir!

O'tirsak o'tiraveramiz-da! Gapiraman deb ko'zim uchib turibdimi?

– Ko'rdilaringmi? – Rais buva qoshini chimirdi. – Ergaship har xil kavarniy savollar bilan oddiy mehnatkashlarni chalg'itmoqchi bo'lgan. Qarshi bo'lmasanglar menda bir taklif bor. Ergashipga o'xshagan g'alamislarning qilmishiga javoban bir ish qilsak... Bultur xo'jaligimiz bo'yicha gektaridan qirq uch sentnerdan hosil ko'targan edik. Bu yilgi majburiyatimiz qirq besh sentner edi. Kelinglar, hammamiz uchun hurmatli obkom bovaga, raykom bovaga kolxoz bo'yicha gektaridan qirq sakkiz sentnerdan «oq oltin» olamiz deb oshirilgan majburiyat qabul qilamiz! Qani, bitta qarsak bo'lsin, o'rtoqlar!

Rais buvaning o'zi birinchi bo'lib qarsak chaldi. G'ayrat bilan chaldi. Zaldagilar ham birin-ketin jo'r bo'ldi... Boshqalarni bilmadim-u, men majlis tezroq tugay qolsin, degan umidda o'ng kaftimni chap kaftimga urib qo'ya qoldim.

To'g'ri-da, majlis qancha tez bitsa, Nargisxon ham, men ham shuncha tez qutulamiz. Qachondan beri ko'rmadim, axir. Aqalli bir og'iz gaplashib olay! Endi o'zimniki-ku, Nargisxon!

Hamma o'zini eshikka urdi. Men bo'lsam, sahnadan ko'z uzmayman. Kattalar bitta-bitta sahna chetiga chiqib ketishdi. Faqat Nargisxon qoldi. Sahnada u, zalda – men.

– Nargis? – dedim baqirib.

Yo'q, baqirmabman. Ovozim shivirlab chiqibdi. Ajab, u baribir eshitdi. Yalt etib men tomonga qaradi-yu, sahna chetidagi zinalardan tusha boshladi.

Qator turgan o'rindiqlarni taraqlatgancha o'sha tomonga yugurdim. Zalning o'rtarog'ida ro'para keldik.

– Nargis... – dedim-u, qo'ldan ushlashga jur'atim yetmadi. – Rozimisiz?

U ko'zimga tezgina qarab oldi.

– Siz... – dedi ovozi titrab. – Siz yaxshi odamsiz!

Shunday dedi-yu, iyagimdan cho'lp etib o'pdi-da, sahna tomonga chopqillab ketdi. O'ng yuzim yonib ketgandek bo'ldi. Iyagimni silab ko'rsam... G'irt ahmoqman-da, o'zim! Ko'rmaysizmi, bugun soqolimni olmagan ekanman! Nargisxon o'pgan joy lovillagan ko'yi angrayib qolaverdim. Shu ish rostdan ham o'ngimda bo'ldimi? Nargis rostdan ham meni o'pdimi?

Yuragim qinidan chiqqudek bo'lib tashqariga otildim.

Rais buva fontan yonida turgan qora «Volga»ga mehmonlarni o'tqazayotgan ekan. Odob saqlab kutib turdim.

«Volga» jo'nab ketgach, u yonimga keldi.

– Obbo, guppi-ey! – dedi bosh chayqab. – Qovun tushirishingga bir bahya qoldi-ku, tentak... Mayli, ziyoni

yo‘q, – u yosh yigitlardek ko‘z qisdi. – Qalay, kamchiliklar yo‘qmi? Qalliq o‘yiniga boryapsanmi? Nargisxon endi haloling-ku! Qachongacha o‘rgataman senga, tutxo‘r?!

## O‘n oltinchi bob

### «QALLIQ O‘YIN»

Biz eskilik sarqitlaridan qutulganmiz. Bir zamonlar «qalin» degan gap bo‘larkan. Buni qarang-a, odam o‘zi sevgan qizni sotib olsa! Borib turgan feodallik-ku, bu! «Sut puli» deyilsa, bu – boshqa gap! O‘zingiz o‘ylang: ona bechora qizchasi ko‘krakdan ariguncha ozmuncha sut emizganmi? Qizchasini o‘stirib, qog‘ozga o‘rog‘liq qanddek qilib kuyovning qo‘yniga sop qo‘ygan onaning «sut puli» olishga haqqi bormi axir! Bo‘pti-da, nima deysiz tag‘in! (Dadam faqat eskilik sarqitlariga emas, yangilikka ham qarshi odam-da, o‘zi! Singlimni uzatayotganimizda, ona suti pulga sotilmaydi, deb «sut haqi» olmagan. Onam bechora qancha xafa bo‘lgandi, o‘shanda).

Undan keyin... Avvallari kelinga kamida qirqta, bo‘l-masa saksonta ko‘ylak sovg‘a qilinar ekan. Quda tomon ko‘ylaklarni hamma ko‘rsin deb qator qilib osib qo‘yarkan. Buni qarang: kelin saksonta ko‘ylakni nima qiladi? Har yili ikkitadan ko‘ylak kiyganda ham, shunchasini to‘zitguncha qirq yil o‘tib, kampir bo‘lib qolmaydimi? Ustiga-ustak semirishi bor, ozishi bor? Moda eskirishi bor! Hozir bu sarqitdan ham qutulganmiz. Bor-yo‘g‘i «to‘qqiz» qilinadi. Ya‘ni to‘qqizta ro‘mol (orasida puxovoy ro‘mol ham, yaponskiy sim ro‘mol ham bo‘lishi shart), to‘qqizta sirg‘a (yoqut ko‘zli, firuza ko‘zli... Brilliant ko‘zlisiyam teshib chiqmaydi). To‘qqizta ko‘ylak (atlas, shohi, parcha, zamonaviyrog‘i bo‘lsin desangiz – shifon, laylo, kupon), to‘qqiz juft tufli (baland poshnali, past poshnali, uyda kiyadigan, ko‘chada kiyadigan, hovli supurganda kiyadigan,

kir yuvganda kiyadigan), to‘qqizta paypoq, to‘qqizta uzuk, to‘qqizta... Yana nimaydi? Xullas, u yog‘i himmatingizga bog‘liq. To‘g‘ri-da! Kelin degani ochilib-sochilib yurishi kerakmi, axir. U uygayam, ko‘chagayam bir xil kiyim kiysinmi?!

Quda tomonga yuboriladigan o‘ttiztami-qirqtami qo‘y (biz oson qutuldik: bitta ho‘kiz bilan bor-yo‘g‘i to‘rttagina qo‘y berdik, xolos) yuz kilomi-ikki yuz kilomi guruch, o‘n-o‘n besh qop un, besh-o‘n yashik ishkalad, konfet, bir-ikki yashik choy, sabzi-piyoz... Xullas, arzimagan narsalar. Nima, quda tomon hammasini o‘zi yermidi! El oldiga dasturxon yozadi, mana, bizni kuyovni ko‘rib qo‘yinglar, deydi.

Rais buva Sojida qizining to‘ng‘ich o‘g‘lini to‘y qilganida (uylantirish emas, o‘g‘il to‘yi qilganida) o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman: to‘yxonaning qoq o‘rtasiga yuk mashinasi gurillab kirib kelgan. Mashina ustiga ichkilik to‘la yashiklar taxlab qo‘yilgan ekan. To‘yga kelganlar o‘z mavqeyiga qarab, bir xillari bir yashik konyakmi, bir xillari ikki yashik aroqmi, vinomi, mashinadan o‘zi tushirib olib to‘yguncha ichgan edi... Biznikida qanaqa bo‘lishini yana o‘ylab ko‘ramiz, hali orada «Rais chaqirdi» bor. Buyam o‘ziga xos odat. To‘y arafasida kolxozning eng aqlli, eng dono kattalari to‘planib, bir qarorga kelishi kerakmi, axir? To‘y degani kengashsiz bo‘lmaydi-ku, to‘g‘rimi?!

Xullas, biz tomonlarda eskilik sarqitlari yo‘qotilgan. Faqat bitta odat hamon bor. U ham bo‘lsa «qalliq o‘yin». Afsus, shundoq yaxshi udumimiz yo‘qolib ketyapti. Butun boshli viloyatimizning nari borsa ikki-uch joyida saqlanib qolgan. Rostini aytaymi? «Qalliq o‘yin» hech qanaqa «sarqit» emas! Menga qolsa, bu odatni butun O‘zbekistonga yayish kerak!

«Qalliq o‘yin»ni kim o‘ylab topgan bo‘lsa, otasiga ming rahmat! Nima qipti! Kuyov o‘z halolining uyiga boradi. Albatta, kunduzi – el nazarida emas, qorong‘ilatibroq



boradi. Albatta, eshikni ochib kirmaydi. Devor oshadimi, tuynukdan emaklaydimi, xullas, bir yo'lini topadi-da! Har borganida qo'lida kelinga atalgan bironta sovg'a bo'lishi shart. Atirmi, bir jo'ra atlasmi... Mayli-da! Kelinning onasiga ikki lo'ppak choymi, biron kilo ishkalatmi, qo'shib olsa, yana yaxshi. Negaki, «qalliq o'yin»ning bir sharti bor. Kuyov «o'g'rincha» borganini kelin bilan onasidan bo'lak hech kim bilmasligi kerak. Xudo ko'rsatmasin, agar kelinning otasi ko'rib qolsami?! Shunaqangi jahli chiqadi, shunaqangi jahli chiqadiki... Teskari qarab, uydan chiqib ketadi! Albatta, butunlay emas, boshqa yoqqa ham emas, narigi uyga kirib eshikni ichidan berkitib oladi.

Bugun biz qalliqqa ketyapmiz! Boshda yap-yangi do'ppi. Egnimizda oppoq ko'ylak, jinsi shim. Ilgari hech bunaqa shim kiymaganim uchunmi, oyog'im taxtakachlangandek qotib turibdi. Cho'ntakda «Karmen» degan atir (qaynonamizga sovg'a), qo'yinda bir jo'ra «juhud» atlas – Nargisxonga padarka! Shu kungacha Nargisxonning uyiga Tulporimni minib kelardim, bu safar Tursunboy akamning pat-patini minib olganmiz. To'g'ri-da, qalliq o'yinga ham eshak minib boradimi, odam. Tag'in Nargisxonning oldiga-ya! Kecha Tursunboy akamga shuni aytgan edim, «pat-pat» meniki emas, umuman, hech nima meniki emas, yangang bilan gaplashaver deb to'ng'illadi. Oysara yangamga qoyilman. Bu safar hecham ziqnalik qilmadi. Nargisxonning otini aytishim bilan bo'yniga osib olgan pat-pat kalitini darrov olib berdi. «Baxtli-saodatli bo'linglar, o'zinglardan tininglar», – deb duo ham qildi. Mototsikl ko'pdan beri minilmagani uchun akkumulyatori kuchsizlanib qolgan emasmi, pedalni tepaverib terlab ketdim. Yo'q, haytovur bir amallab motorni o't oldirdim. Mana, ketyapmiz, «dulka»ni yeldirib!

Nargisxonning qasrdek uyi oldiga yetib kelganimda allaqachon qorong'i tushgan edi. Baribir barvaqt kelib qolibman. O'zim hovliqdimmi, pat-pat «Jiguli»dek yeldimi,

bilmayman. Harqalay, ko'chani u tomon, bu tomonida ivirsib yurgan odamlarni ko'rib uyaldim. Mototsiklni univermag panasiga olib o'tib, kutib turdim. Nazarimda, ming soat o'tdi-yov! Nihoyat, ko'chalar tinchib qoldi.

Tarillatib olamni buzmasligi uchun pat-patni yetaklab Nargisxonning darvozasiga kelsak, hammayoq jim-jit. Shoti qo'ysa yetmaydigan derazalarda chiroq o'chgan. Yuragim gupillab ketdi. Bundan chiqdi, Nargisxonning onasi hovli o'rtasidami, darvoza oldidami, bizni kutib turibdi. Cho'ntagimdagi atirni paypaslab qo'ydim, joyida! Qiziq, kelinning o'zi qaysi xonada ekan?

Tavakkal qilib, darvozani itargim keldi-yu, nomus qildim. Manavi padarla'nat devorning biron yerida nahra-pahra joyi bordir axir! Bir vaqtlar Oysara yangamnikiga mushak sabzi olib chiqqanimda tuynukdan o'tganim esimga tushib ketdi.

Mototsiklni darvozadan ellik qadamcha nariga, devor tagiga oborib qo'yib hammayoqni tekshirib chiqdim. Qayoqda! Devor xumpar boshdan-oyoq pishiq g'ishtdan urilgan, loy o'rniga sement ishlatganmi, nima balo! Tuynuk tugul tirqish ham yo'q. Tag'in bu devorga odamning bo'yi yetsa ekan! Tuyaning ustiga chiqib osilsang ham, qo'ling cho'zilib qoladi. Nima, uyimga borib narvon olib kelishim kerakmi endi! Xunob bo'lib turgan edim, devor etagida, yo'l yoqasida g'o'dayib turgan baqaterakka ko'zim tushdi. Baxtimni qarangki, devorning u tomonida ham gilosmi, olchami, allaqanday daraxt so'ppayib turibdi. Juda sozda! Terakka osilib, devorga chiqamiz. Devorga minib olib, ozgina surilsak, narigi tomondagi daraxtga yetib olamiz. Keyin qarabsizki...

Kelinga atalgan atlasni yelkamga tashlagancha terakka tirmashdim. Ish bundoq bo'пти. Bir zumda devor ustiga minib oldim. Devor tepasiga qirrador qilib tunuka yopilgan ekan. Sabil qolgur tunuka kun bo'yi oftob tig'ida qizib yotgan ekanmi, shim tagidan orqamga jazillab yopishdi.

Qo'limning kuyganini aytmaysizmi! Xo'sh, nima bo'пти? Jon kuydirmasang, jonona qayda! Bilaman, Nargisxon qo'sha-qo'sha xonalarning birida meni intizor kutyapti. Onasi ayvondami, hovlidami, haq deb yo'limga ko'z tikib o'tiribdi! Atir cho'ntagimdami axir? Joyida.

Yap-yangi jinsi shim ham rasvo bo'ldi! Atlasga chang yuqmasa bas! Erta bahordan beri tunukaga qo'ngan ikki enlik changni supurib surila-surila, hovli tomondagi daraxtga omon-eson yetib oldik. Gilos ekan! Osmon baravar yong'oqdan kalla tashlagan odamga allaqanday gilos nima bo'пти? Daraxt emas, naqd shotining o'zginasi-ku, bu! Biz kelishimizni mo'ljallab ataylab ekib, o'stirib qo'yishganmi deyman!

Ikki qulochcha joy qolganda tap etib yerga sakradim. Yelkanga tashlab olgan atlas sirg'alib, tuproqqa tushdi. Engashib, endi atlasga qo'l cho'zgan edim, orqa tomondan «g'-g'ap» degan vahimali tovush eshitildi! Yumshoq joyim chunonam achishdiki, ko'zimdan o't chaqnab ketdi! Jon holatda burilib qarasam, quloq-dumi kesilgan, kamida Tulporimning yarmicha keladigan it orqamga yopishib tortqilayapti. Ko'zlari olovdek yonib, nuqul irillaydi, hayvon!

Urib bo'lmasa, tepib bo'lmasa, nima qilsayam Nargisxonning iti! Jonim og'rib ketyapti-yu, dod solishga or qilaman. Kuyovmiz, axir! Atlasni ham unutib, gilosga tarmashdim. Shundayam qo'yib yubormaydi, ablah! Indamay tursam, yeb qo'yadigan. Chap oyoqlab ko'kragiga bir tepdim-da, shoxdan-shoxga sakrab devorga chiqib oldim. Baqaterakka yetib olishga qanoat qilmay, o'zimni tappa yerga otdim. Xayriyat, mototsikl joyida turgan ekan. Pedalni uvallo tepaman, qani o't olsa, la'nati! Yo'q, oxiri tun sukunatini tilka-pora qilib, patillab ketdi. Ha, mayli! Avval egasiga uylanib olay, Reksni daraxtga bog'lab qo'yib, shunaqangi savalaymanki, itning kunini boshiga solmasam, Qo'shoq otimni boshqa qo'yaman!

Mototsiklimni tarillatib, haydab ketdim. O'ng dumbam lovillab achishardi. Kallamga g'alati o'ylar keldi. Qiziq, it bog'loqmidi, yechiqmidi? Kelib-kelib it bog'langan daraxtdan tushdim shekilli...

Xayolimni to'plab olmasimdan orqa tomondan boyagi vahimali, bo'g'iq vovillagan ovoz eshitildi. Egarda o'tirgan-cha burilib qaragam, xuddi o'sha la'nati it qorong'uda junlari hurpayib ketimdan yugurib kelyapti. Bundan chiqdi, yechiq ekan-da. Darvoza ham ochiq ekan-u, biz bilmab-miz!

Kuchim boricha gazni bosdim. Buni qarangki, ablah it mototsikldan ham tez yugurarkan. Xuddi samolyotday uchib kelyapti. Qaragam, irillab kelib sonimga yopishadigan. Jon holatda tormozni bosgan edim, kuch bilan kelib lul-kaga urildimi, nima balo, orqa tomonda ayanchli «vang-g-g» degan ovoz eshitildi. Pat-patim yo'lga ko'ndalang bo'lib qoldi. O'girilib qaragam, chang-to'zon orasida mening jonimga ozor bergan it tipirchilab yotibdi. O'! Bu kuningdan battar bo'!

Hamon lovillab achishayotgan joyimga qo'limni olib borsam, kaftimga issiq narsa tegdi. Tushundim. Bundan chiqdi, singlim ataylabdan bozorga tushib olib kelgan jinsi shimning bir parchasi itning og'zida qolibdi. Kim bilsin, o'zimizga tegishli etning ham talaygina ulushini yamlab yutdimi, bu ochofat!

Bir mahal yorqin chiroq nuridan ko'zim qamashib ketdi. Ro'paradan uchib kelayotgan allaqanday mashina g'iyqil-lab to'xtadi.

– Joningdan to'yganmisan, ahmoq!

Iye, ovoz tanishga o'xshaydi-ku! Kim bo'ldi bu?

Mashinaning chap eshigi ochilib-yopildi. Shofyor chiroq nuriga o'tib, qo'lini paxsa qildi.

– Esingni yedingmi?

Ha, rais buva ekan! Kun issiq bo'lsa ham egnida kostyum, medallarini taqib olgan!.. Qiziq, nega shofyor yo'q?

Shu payt o'ng tomondagi eshik ham ochildi. Kimdir yerga sakrab tushdi. Hayajondan «yarador» joyimni achishishi ham paqqos esimdan chiqib ketdi. Nargisxon-ku! Atlas ko'ylak kiyib olibdi. Chiroq nurida oyog'ida oq tuflisi borligini ham ko'rdim. Endi chaqirmoqchi edim, rais buva shodon xitob qildi.

– E, senmisan, tutxo'r! Nima qilib yuribsan, bemahalda?

Rais bilan nima ishim bor? Xayolimda boshqa gap charx urardi. Bundan chiqdi Nargisxon uyida yo'q ekan-da.

Nargis menga yarq etib qaradi-yu, tuproq changitib, biz kelgan tomonga yugurib ketdi. Tushundim, rais buvaning oldida men bilan gaplashishga uyaldi...

Rais buva yaqin kelib, qo'l cho'zdi.

– Obbo, tutxo'r-ey! – dedi qo'limni qisib. – Tushunarli... Bugun shunaqa bo'pqoldi, Qo'shoqjon! Rayonga majlisga chaqirishuvdi. Qallig'ing ham borishi kerak edi, o'tir mashinaga.

U hamon yo'l o'rtasida ko'ndalang turgan mototsiklga razm soldi-da, kulimsiradi.

– Tursunboyning pat-pati-ku! O'zimga aytmaysanmi, yangisini padarka qilmaymanmi!

Egardan tushishga uyalardim. Shimim dabdala bo'lib ketgan, orqam achishyapti, qurib ketgur.

– Bo'pti, men ketdim! – Rais buva «Niva»ga mindi. Mashinasini keskin burdi-da, g'izillab haydab ketdi.

Nargisxon ketgan tomonga qarab qo'ydim. O'zi ham, iti ham ko'rinmasdi. Chang-to'zon orasida ancha turib qoldim...

## **O'n ettinchi bob**

### **TO'Y**

Ko'ngli o'sgan odamning yarasi ham tez bitarkan. Nargisxonning Reksjoni qopgan joyim bir haftacha achishib yurdi-yu, baribir tuzaldi. Hech kimga aytmay oynaga teskari

qarab yaramga ko'kdori surdim. Kigiz kuydirib bosdim. Xullas, o'ng tomonim kirza etigimning tagcharmidek qotib qolganini hisobga olmaganda ko'p o'tmay sen ko'r – men ko'r bo'lib ketdi. Qaytaga yaxshi: o'sha yog'imni yerga berib yotsam, zax o'tmaydi.

Baxt kelsa, qo'sha-qo'sha... deganlaridek, hayotimda birvarakay ikkita quvonchli voqea bo'ldi. Birinchidan to'y. Ikkinchisi... Shodivoy keldi! Ishonasizmi, shuncha yildan beri qishloqqa qadam bosmay qo'ygan, o'qishni bitirganidan keyin Toshkentda ishlab qolgan jonajon jo'ram Shodivoy to'ydan bir kun ilgari uyimizga o'z oyog'i bilan kirib keldi. O'lay agar tanimadim. «Zaporojes»ini «Ferma tog'a»ning pichan g'aramiga kalla qildirib, Rais buvadan dakki yegan jo'ram shumi? Toshkentdagi gastinisada pul sanayman deb shaytonlab qolayozgan do'stim shumi? Quyondek biqqigina, yumshoqqina o'rtog'im, chunonam o'zgarib ketibdiki, odamning aqli shoshadi. Qomatni qarang, qomatni! Qilich deysiz! Odamga shunaqangi sinchiklab tikiladiki, ko'zi rentgenga o'xshab, u yog'ingdan kirib, buyog'ingdan chiqib ketgudek. Ikkilanibroq turgan edim, yugurib kelib bir quchoqladi, bir quchoqladi, qovurg'alarim qirsillab ketdi. Nuqul o'padi, xumpar!

– Qo'yvor, yalab tashlading-ku, odamni, kelinniyam haqi bor bizda! – deb arang qutuldim.

Xullas, to'y ustiga to'y!

Mayli, yaxshisi, bir chekkadan gapirib bera qolay. Shundoq qilib, taomil bo'yicha nikoh to'yidan uch kun oldin «Rais chaqirdi» bo'ldi. Otam to'y tashvishi bilan yelib-yugurib, qon bosimi oshib ketgani uchun kuyovim «Rais chaqirdi»ga keladigan aziz mehmonlarning dasturxoniga taalluqli masalalarni onam bilan maslahatlashib qo'ya qoldi. Bizlarni ovora qilmaslik uchun ro'yxatni o'zi tuzib kelgan ekan. Cho'ntagidan qog'oz chiqarib, sharillatib o'qib berdi.

– Qand-qurs, ho'l meva, quyuq-suyuq ovqat o'z yo'liga! – dedi tomoq qirib. – Xo'sh, degandan, besh kilo qog'oti

bodom (katta odamlar tishida chaqib o'tirsa uyat bo'ladi. Ikki barmog'ining orasiga olib bir qissa o'zi sinib ketadigani tuzuk). Uch kilo yong'oq! (Chaqib mag'izini ajratib olishga vaqt qani? Bozordan tayyor mag'izini olib qo'ya qolasiz). To'rt kilo sho'rdanak (biz tomonlarda yaxshisi topilmaydi. Buxorodan olib kelasiz). Besh kilo qora mayiz (buning yarasi oson. Raysentrdagi bozorda Uchqoraning manaman degan mayizini sotadi). Anor suvi. (Rais bova konyakni anor suvi bilan zakuska qiladilar). Uch litrli shisha balonda to'rttagina bo'lsa yetib qolar. Ammo svejij bo'lsin. Dashnobodniki bo'lsa, yana yaxshi. Nordon – shirin-da! Sabzi suvi. (Unisini ko'pchilik ichmaydi. Ammo Shaydul kassir aroq zotini og'ziga olmaydi. Ichkilikning o'zi tugul shishasidan hazar qiladi. Shu odamga). Ha, boring ana shundan besh litr bo'lsin! Tovuuq – o'ttizta. Yaxna go'sht – o'n kilo. Ichkilik. Bir yashik konyak – armanskiy. Juda bo'lmasa, «Beliy aist» degani bor. Rais bova o'zimizning xashaki konyaklarni ichmaydilar. Aroq – bir yashik. Pivo – uch yashigi yetib qolar-ov... Shampän kerakmas. Mabodo Qo'shoqjonning o'zi ichmasa... – u menga bir imo qildi-da, tag'in tomoq qirdi. – Bitta qo'y so'ymay iloj yo'q. Raisning oldiga kalla kelishi kerak-ku!

Kuyov ro'yxat yozilgan qog'ozni buklab-buklab cho'n-tagiga suqdi. Eski ko'rpachada xomush o'tirgan onam barmoqlarini bukaverib, hisobdan adashib ketdi shekilli, ko'zlari javdirab menga qarab qo'ydi.

– Savzi suvi necha dona edi? – dedi garangsib.

– Bular... To'yning dasturxonigami? – dedim kuyovga termilib.

– Nima? – kuyov ilon chaqqandek sapchib o'rnidan turib ketdi. – Siz echki olayotganingiz yo'q, Qo'shoqjon, – dedi ovozi titrab. – Uylanyapsiz... Biz ham «Rais chaqirdi» qilganmiz. Bir emas uchta qo'y so'rganmiz. Kim biladi, «Rais chaqirdi»ga raykom bovaning o'ziyam kep qoladimi?.. Ular ham siz-u bizga o'xshagan odam! Bitta qorni

bor. O'lguncha emas, to'yguncha yeydi. Qolganini to'y dasturxoniga tortib yuboraverasiz-da!

... Shundoq bo'ldi. «Rais chaqirdi»ga qishlog'imizdagi eng mo'tabar odamlar keldi. Ya'ni Rais buva, «Ferma tog'a», naynov Shaydul kassir, o'zimning tog'am, kuyov. Dadam bilan meni hisoblamaganda besh kishi bo'lishdi... Bodomlar chaqildi, yong'oqlardan tanovul qilindi, handalak yeyildi... Rais buva konyakni anor suvisiz icholmasligi rost ekan. Anor suvimiz didiga uncha o'tirishmadimi, bor-yo'g'i bir shishagina konyakni bo'shatib, endi bizga uzr, majlisga boradigan odammiz, boshqa icholmaymiz, dedi. Shaydul kassirning aroq zotidan hazar qilishiyam to'g'ri ekan. Sakkiztami, to'qqiztami pivoni uch litrli sabzi suviga omixta qilib ichdi-da, terakdek qaddini rostlab, bir-ikki silkinib qo'ydi. Pivo pastroq tushsin dedi chog'i...

Sho'rva ichib, osh yeb bo'lingach, asosiy maqsadga ko'childi.

– Xo'-o'sh, Salimboy aka! – dedi Rais buva peshonasidan marjon-marjon oqayotgan terni sochiq bilan artib. – Quda tomonga jo'natiladigan hamma narsalar joyida, a? Ho'kiz, qo'ylar, guruch, latta-putta, «to'qqiz»lar.

– Joyida... – bir chekkada o'tirgan otam, zo'rg'a ovoz chiqarib ming'illadi. Bechoraning rangi ketib, lunjini uchirishgayam madori qolmaganini payqadim.

– «Sut puli», quda-qudag'aylarga sarpolar?..

– Hammasi, – dedi dadam battar dami ichiga tushib.

– Malades! – Rais buva «g'o-o-op» etib kekirdi. – Bo'lmasa, masala hal ekan-da! «Qizil to'y»ning tartibini kelishib olsak bo'ldi. Mikrofon...

– Bizdan! – kuyov qo'lini ko'ksiga qo'yib o'rnidan turmoqchi edi, chayqalib, yonboshlab qoldi. (Mehmonlar kelguncha pishib qolgandi o'zi).

– Bizdan! – dedi shang'illab. – Texnikaning pirri – o'zimiz...



– Yaxshi! – Rais buva yana bir kekirmoqchi bo‘ldi-yu, shashtidan qaytib, chuqur nafas olib qo‘ya qoldi. – Bilamiz, to‘y degani ichkiliksiz o‘tmaydi. Besh yashik konyak. O‘n yashik aroq. Uch yashik shampan, yigirma yashik pivo, o‘ttiz yashik mineral suv... Issiqda suv juda ketadi...

Dadam rais buvaning og‘zidan muttasil otilib chiqayotgan so‘zlardan qulog‘i qomatga kelganday, ikki yuzi ko‘karib ketdi.

– Shuncha ichkilik... Issiq kunda, – deb ming‘illagan edi, rais buva jerkib berdi.

– O‘lar joydamisiz, Salim aka! Bitta-yu bitta o‘g‘lingiz... El ichida yurgan odamsiz... Biz sizga ko‘pkari qilib sovringa ho‘kiz qo‘ying deyotganimiz yo‘q, olish qilib, tovoq qo‘ying deyotganimiz yo‘q. «Qo‘y so‘ydi» qiling, «kuyov qochdi», «supra qoqdi» qiling demadik! Nima qilsak, elimizning obro‘si ketmasin, deb qilyapmiz. Ana, «Pravda» kolxozida bir suvchi o‘g‘lini to‘y qildi. Olishning sovriniga tuya qo‘yibdi, azamat! O‘shalardan kam joyimiz bormi?! Yaxshimas-da! – u arazlab «Ferma tog‘a»ga qaragan edi, sho‘rdanak chaqib o‘tirgan «Ferma tog‘a» tasdiqladi.

– Tuvri! Mong‘a qorang‘, Salimboy aka! Pul kerakma sizg‘a, obro‘ma?

– Raykom buvani to‘yingizga kelishga arang ko‘ndirdim, – Rais buva norozilik bilan qoshini chimirdi. – Kuyov o‘zimizning yigit, dedim. Jovli Mengliyevichning qancha qadrdonlari bor. Kim bilsin, hali obkomdan ham kelib qolishadimi... Undan keyin... Kamida to‘rt sostap yallachilar bo‘lsin! Televizorda chiqadiganlaridan ayting! Qalang‘i-qasang‘ilarning keragi yo‘q. Xo‘-o‘sh, endi... – Rais buva chuqur o‘ylanib qoldi. – «Sharvatxona<sup>1</sup>»da kim turadi?

– Men! – kuyov tag‘in o‘rnidan turmoqchi bo‘ldi-yu, bu safar yonboshlab o‘tirmadi. Gursillab yiqilib qo‘ya qoldi.

– Bekor aytibsan! – Rais buvaning jahli chiqib ketdi. – Qo‘yni bo‘riga topshirar ekanmiz-da! Mehmonlar kelmasi-

<sup>1</sup> *Sharvatxona* – to‘yda ichimliklar saqlanadigan joy.

dan aroqning yarmini urib qo'yarsan. Gap shu: «sharvatxona»da Shaydul turadi!

– Ma'qul, rais bova! – Shaydul kassir qo'lini ko'ksiga qo'ydi. – Bir shisha pivoni begona qilgan – nomard!

– Malades! Vecherni Jovli Mengliyevichning o'zi boshqaradi. Quda tomon bo'lsayam, ziyoni yo'q. U kishini hamma kattalar taniydi... Undan tashqari... Odamlarni sastap-sastap bilan joylash kerak. To'rda o'tirgan kattalarning oldida har xil qalang'i-qasang'ilar o'ralashmasin. Bizning istolga glavniy ekanamis bakovul bo'lsin: paradichniy odam. Bo'ldimi, obke, kallani.

Rais buva menga buyurgani uchun dik etib o'rnimdan turdim-u, oshxonaga yugurdim. Onam qo'yning kallasini allaqachon tovoqqa solib tayyor qilib qo'ygan ekan. Qo'y bechora so'yilayotganida bir ko'zini yumib o'lgan ekanmi yo kalla qozonga tushgandan keyin bo'lganmi, bilmadim. Xullas, kallaning chap ko'zi joyida, o'ng ko'zidan darak yo'q.

Rais buva kallani chaqqonlik bilan kesib taqsimlashga kirishdi. Dadam, shu uyning egasi bo'lgani uchun ulushiga qo'y peshonasining go'shti tegdi.

– Sen, Shaydulboy, xatga ko'p tikilasan! – dedi Rais buva tantana bilan. – Ko'zing o'tkir bo'lsa, hisobdan adashmay-san... – U peshonasidan muttasil oqayotgan terni bilagiga artib, kallani o'girib qaragan edi, qo'yning ko'zini topolmadi. Hayron bo'lib, bu tomonini aylantirdi. Yengil tortib, ko'zni pichoq uchiga ilib, Shaydul kassirga uzatdi.

Kuyov zapchast tarqatayotganida tili yanayam biyron bo'lishi uchun tilni tanovul qildi.

– Yaxshi hasip ekan, – deb qo'ydi labini chapillatib.

Rais buva qo'yning jag' go'shtidan mo'lgina kesib oldi.

– Sen bola madaniyat boshqarmasida ishlaysan, kesakdan o't chiqqanmi, nima balo, nuqul adolatdan gapirasan! – Rais buva jag' go'shtini tog'amga ilindi. – Ma, jag'ingga quvvat bersin!

Bizga quloq tegdi.

– Ma, tutxo‘r! Qulog‘ing ding bo‘lsa, kelinning shivirlashini yaxshi eshitadi! – Rais buva «qoyil qildimmi» degandek hammaga bir-bir qarab qo‘ydi.

«Ferma tog‘a» qiyqirib kuldi...

– Tuvri, Rais bova! Quloq jesa, qulog‘i uzun bo‘ladi!

Rais buva dandon sopli pichoq bilan qo‘yning bosh suyagini chaqdi-da, miyasini tuz, murch bilan iylab dumaloqladi, kattaroq yong‘oqdagini o‘zi yeb oldi.

– R-rahmat! – dedi kuyov yotgan joyida g‘o‘ldirab. – R-rahmat, rais bova. Miyadan ko‘proq yeng. Aqlingiz to‘lishadi!

Shu bilan «Rais chaqirdi» poyoniga yetdi. Rais buvaga to‘n, Shaydul kassirga do‘ppi, «Ferma tog‘a»ga qiyiq sovg‘a qildik. Aziz mehmonlar xayrlashib chiqib ketganidan keyin asosiy to‘y taraddudi boshlandi.

\* \* \*

Rais buvaning otamga «to‘yingizga kattalar keladi» degani bejiz emas ekan. Bir odamga hurmat bo‘lsa, shunchalik bo‘lar! Otam nafaqada bo‘lsa, men xashaki bir brigad bo‘lsam. To‘yimizga semiz obkom vakili, Raykom buva, paxta zavodining direktori – taqirbosh Viktorov, – yana qanchadan-qancha kazo-kazolar kelib o‘tiradi-yu, men sevinmay kim sevinsin! Aslida, qaynotam ham kelaversa bo‘lardi-yu, taomil bo‘yicha qizning otasi to‘y kuni kuyovnikiga bormaydi-da! Hammadan yaxshisi shuki, qadrdon jo‘ram Shodivoy kuyovnavkar bo‘lib kelinnikiga bordi. Nargisxonning darvozasidan kirib borayotganimizda allaqanday qiltiriq kampir «un sochar»da mo‘ljalni noto‘g‘riroq olib, ko‘zimga un sepib yuborganini hisobga olmaganda, hammasi zo‘r bo‘ldi! Men-ku, mayli, Shodivoyning kulrang kostyumi ham oppoq unga belandi. To‘y qilaman deb bo‘g‘zimizgacha qarzga

botib qolmaganimizda-ku, jo'ramga ertagayoq quling o'rgilsin kostyum sovg'a qilardim-a...

...Mana, o'tiribmiz, dasturxon to'rida! Hovlimiz mash'ala bo'lib ketgan. Stollar noz-ne'matlarning ko'pligidan belangi bo'lib qolgan. O'ng yonboshimda Nargisxon... Yuziga harir parda tutib o'tiribdi. (Pardalaringga jonim tasadduq). Chap tomonimda Shodivoy! Yap-yangi kostyumi rasvo bo'lgani haliyam esidan chiqmaganmi, hayronman, qovog'i soliqroq. Nariyoqda kelinning dugonalari. Rais buvaning yonboshida raykom buva, raykom buvaning yonida obkom vakili, uning yonida Viktorov!

Biz o'tirgan qator – ulug'larniki! O'zim-ku, ichmayman. Ammo «Napoleon» konyagi-yu, arman konyakdan tortib, «Posolskiy» degan araqqacha, (Viktorov shunaqa aroq icharkan – hidi sezilmasmish), dumba-bovur zakuskadan tortib, qul-qul tovuqqacha, xandon pistadan tortib bodomgacha paydar-pay kelib turibdi. Rais buva aytganidek, glavniy ekanamisning o'zi bakovul.

Ikki tomondagi dasturxon ikkinchi darajali: bo'lim boshliqlari, bug'altir, bosh agronomlarniki. U yerdagi konyag-u aroqlar «mestniy». Zakuskalar ham o'rtacharoq.

Etak tomonda brigadamdagi jo'ralarim – Chori, Panji, Juman, Tursunboy aka, maktab ma'limlari o'tirishibdi. Ularga «Chashma», pivo, qo'lyetar qilib pomidor, sho'r bodringlar qo'yilgan. «Rais chaqirdi»da shunga kelishilgan. Pivo degani sho'r bodring bilan yig'lab ko'rishadi-da!

Bir mahal mikrofon ushlagan Jovli aka (yo'g'-e, nega endi «Jovli aka» bo'larkan, axir endi u mening qarindoshim-ku. Bundan chiqdi, Jovli akajonim!) o'rtaga chiqdi. Mikrofonga uch-to'rt marta pufladi.

Jovli akajonim mikrofonni qo'liga olishi bilan kelin-kuyov o'rnimizdan turib, ta'zim qildik. (Taomil shunaqa).

– Qadrli – aziz mehmonlar! – dedi Jovli akam tantanali ohangda. – Bugun biz faqat rayonda emas, oblastimizda dong chiqargan «Mash'al» kolxozida o'tiribmiz. Shu

sababli, birinchi soʻzni oblastimiz vakili, hammamiz uchun hurmatli oʻrtoq Gadoyevga beramiz. Qani, bir qarsak boʻlsin!

U shapir-shupur qarsaklar ostida mikrofon simini sudrab kelib, obkom vakiliga tutqazdi. Qarang, semiz kishining familiyasi Gadoyev ekan-da! Shu paytgacha bilmagan ekanman.

– Oʻrtoqlar! – dedi Gadoyev surnaydek gʻiyqillab. – «Mashʼal» kolxozini yaxshi bilamiz! Chinakam mashʼal xoʻjalik. Bu yil har gektaridan qirq sakkiz sentnerdan «oq oltin» olmoqchisiz. Men sizlarga hammamiz uchun hurmatli obkom bovaning salomini topshiraman. – U bir qoʻlida mikrofon changallagan koʻyi qarsak chalgan edi, boshqalar ham joʻr boʻldi. – Kelinglar, shu xoʻjalikning dono rahbari, doʻstimiz Toshmamat Alimovichning sogʻligʻi uchun qadah koʻtaraylik!

Jovli akajonim pildirab kelib, mikrofonni oldi.

– Yana bir qarsak boʻlsin! Avatsiya, avatsiya! – dedi hayqirib. – Quyilsin!

Qarasam, yonimda oʻtirgan Shodivoy konyak shishasini ochib, oʻzining oldidagi qadahga toʻldirib quyyapti. Men ham shosha-pisha shampanga yopishgan edim, tirsagi bilan turtdi.

– Menga ber! – dedi toʻngʻillab. – Odob saqlab oʻtirsang oʻlasanmi! Kuyov degan noming bor! – shampanni paqillatib ochdi-da, bir emas, ikkita bokalga voshillatib toʻldirdi. – Ich! Qalligʻinggayam ichir!

– Men ichmayman-ku, Shodi!.. – dedim nima qilishimni bilmay.

Shodivoy menga qayrilib qaramadi. Konyakni qullatib ichib oldi. Parda ostidan Nargisxonga shampan uzatdim.

– Jinday iching... – dedim yalinib.

Nargisxon muloyim jilmaydi.

– Menga mumkin emas.

– Mengayam, – dedim rostiga ko‘chib. – Bola bo‘lib og‘zimga olmaganman.

– To‘g‘ri qilasiz... – Nargisxon boyagidan ham shirinroq tabassum hadya etdi. (O‘zim aylanay mehribonimdan!)

Hushimni yig‘ib olib, boshimni ko‘tarsam, rais buva gapiryapti.

– Kelinglar, hurmatli do‘stlar! Avvalo hammamiz uchun hurmatli obkom buvamizning, obkom vakili o‘rtoq Gadoyevning, aziz akamiz raykom buvaning, zavodimiz direktori o‘rtoq Viktorovning, shu xonadon qudasi – savdo a‘lochisi o‘rtoq Qo‘shshayevning, qolaversa, qadrdomimiz Jovli Mengliyevichning salomatligi uchun qadah ko‘taraylik! Biz – rahbar tashkilotlarimizning ishonchini albatta oqlaymiz! Gektaridan qirq sakkiz emas, qirq to‘qqiz sentnerdan «oq oltin» olamiz!

Odamlar endi qadahga qo‘l cho‘zgan edi, Rais buva jerkib berdi.

– Shoshmanglar hov! Shundoq ulug‘larning salomatligi uchun atigi bitta ichib qutulmoqchimisan! Yo‘-o‘q, bunaqasi ketmaydi, Obkom buva uchun bitta, o‘rtoq Gadoyev uchun bitta, Raykom buvamiz uchun bitta, o‘rtoq Viktorov uchun, o‘rtoq Qo‘shshayev uchun, qadrli Jovli Mengliyevich uchun alohida-alohida ketma-ket olti marta ichasanlar! Oppoq qilib olmagan – xotin! Hamma o‘rnidan tursin!

Chor-nochor Nargisxon ikkalamiz yana turdik. Bir mahal chap tomondan g‘o‘ldiragan ovoz keldi.

– Mana bu – Obkom buva uchun! Bunisi – Raykom buva uchun... Mana bunisi dadam uchun...

Qarasam, Shodivoy konyakni paydar-pay quyib otyapti.

– Jinnimisan, o‘v! – dedim o‘dag‘aylab.

– Ishing bo‘lmasin! – Shodivoy g‘alati iljaydi. – Bular uchun ichmay bo‘ladimi! Bular... Bular... – jo‘ram konyak to‘la qadahni shoshilmay, juda xotirjamlik bilan gul solingan vazaga quydi.

– Bular uchun sen ichasan, men ichaman, ana, gul ham ichadi...

Esini yeganmi jo‘ram!

Rais buva ziyrak-da! Shodivoyning tovushini eshitib, mikrofondada ovozini baralla qo‘ygancha, menga dashnom berdi.

– Kelinga ichirmaysanmi, qanaqa kuyovsan o‘zi!  
Boyagi bokalni tag‘in Nargisxonga tiqishtirdim.

– Olaqoling endi!

Nargisxon indamadi-yu, keskin bosh chayqadi.

To‘g‘ri qildi. O‘zi ichgan qizlarni jinim suymaydi.

Xayriyat-ey, o‘tirishga ruxsat tegdi.

Kuyov-kelin endi joyimizga cho‘kayotgan edik, Rais buvaning gapi chala qolgan ekan.

– O‘rtoqlar! – dedi mikrofonga. – Qo‘shoqjonni ham-mang yaxshi bilasanlar! – Yaxshi ko‘rasanlar! Menam o‘z o‘g‘limdek ko‘raman. Eng peredovoy brigad! To‘g‘risini aytсам, mushtday bolaligidan mehrim tushgan. Adashmagan ekanman. Ataylabdan Toshkentdek shahri azimga, katta o‘qishga olib borganimda, «yo‘q, Rais bova, men paxtakor bo‘laman» degan, to‘g‘rimi, Qo‘shoqjon? – Rais buva mikrofonni changallagan ko‘yi menga qarab qo‘ydi. Nima deyishimni bilmay qoldim. Shodivoyga razm solsam, labi burilibroq iljayib o‘tiribdi.

Xayriyat, Rais buva tag‘in ziyraklik qildi.

– Gap qanday vazifani ado etishda emas, qanaqa ado etishda! Bugun Qo‘shoq Salimovni butun O‘zbekiston taniydi. Kelinni aytmay sizmi, Nargisxonni! – Rais buva nafasini rostlab oldi-da, avvalgidan ham tantanavorroq ohangda davom etdi: – Nargisxon ham o‘zimizning farzanddek gap. O‘zimizning ko‘zimiz o‘ngida ulg‘aydi. O‘rtoq Qo‘shshayev, o‘rtoq Mengliyevdek odamlarga shundoq qizni eng zo‘r institutga joylash nima degan gap edi! Yo‘q, qiz hayotni o‘rgansin deyishdi. Dala zahmatkashlarining safida bo‘lsin, deyishdi. Nargisxon maktabni bitirib,

kolxozda ter to'kdi. Bundan ortiq fidoyilik bo'ladimi? Qo'shoqjon! O'g'lim! – Rais buva kursilarni sharaq-shuruq surib, tepamga keldi. Bir qo'lida mikrofon bilan peshonamdan o'pdi. – Ota-onasi shu qizni ne umidlar bilan qog'ozga o'rog'liq qanddek asradi. Boshingga ko'tarib yur, xo'pmi?

O'pkam to'lib Nargisga qarasam, yuzlari lov-lov yonib o'tiribdi.

Rais buva qaddini rostlab tag'in mikrofondga hayqirdi.

– Kelin-kuyovga kolxoz pravleniyesi nomidan bitta padarka tayyorlaganmiz. Qamchibek, qayoqdasan? Obkir!

Yo'lak tomonda qulog'ini qomatga keltirib mototsikl tarilladi. Hammayoqni benzin hidi tutib ketdi. Qamchibek mototsiklni tarillatgancha hovli o'rtasiga minib kirdi.

Angrayib qoldim. Rais buva rostdan ham menga mototsikl sovg'a qilyaptimi? Axir bu «Ural»ku! O'zim orzu qilgan «lulka!» Bundan chiqdi, ikki haftacha oldin «qalliq o'yin»ga borganimda Rais buva senga «pat-pat»ning zo'ridan to'yona qilaman deb, rost aytgan ekan-da!

– Kelin bilan mingashib yuraverlaring! – Rais buva yelkamga qoqib qo'ydi-da, stullarni taraqturuq surib tag'in joyiga qaytdi.

Sekin qarasam, Nargisxon uyalib, yerga qarab o'tiribdi. Biladi-da, «lulka»da yurish mazza!

– Qarsak bo'lsin, o'rtoqlar! Qarsak bo'lsin! – dedi Jovli akajonim g'ayratga tushib. (Qarang, ichgan sari ovozi jaranglab chiqyapti!) – Davramizda tag'in bir hurmatli mehmon o'tiribdi... Adliya xodimi... Tergovchi, starshiy tergovchi! Hurmatli raisimiz o'rtoq Alimovning yakka-yu yolg'iz o'g'illari... Shodijon Toshmamatovich bizing rayonga ishga keldilar!

Davraning eng pastidan asabiyroq ovoz keldi.

– Raisning esi joyida! Sopini o'zidan chiqaradi!



Ajab, «Rais chaqirdi»da qo‘yning qulog‘ini yeganim uchunmi, ovoz egasini aniq-taniq bildim: fizika o‘qituvchimiz Usmon Qilichev! Gapini bitta men eshitdim, desam Jovli akajonimning qulog‘i menikidan ham uzun ekan.

– Hov, ma’lim! – dedi jerkib, ovozi mikrofondagi gumburlab ketdi. – Visir-visir qilmay jim o‘tiring, xo‘pmi? Pensiya chiqqan odam dumini qisi-ib o‘tiradi. Qolaversa, kechayam chopiqqa uch yuz o‘rniga qirqta bola chiqqan. Bu – sizning ta’siringiz. O‘zingiz bo‘shab ketgan bo‘lsangiz ham, maktabda sassiqlik hidiniz qolgan... Xo‘sh... – Jovli akajonimning tovushi tag‘in tantanali tus oldi. – Davramizda rayonning eng hurmatli kishilaridan biri – starshiy tergovchi Shodijon Alimov o‘tiribdilar. So‘z o‘rtiq Shodijon Toshmamatovich Alimovga!

Jovli akajonim gandraklab, biz tomonga kela boshladilar. Qarasam, Shodivoy kaftlari bilan yuzini changallab o‘tiribdi. Mast bo‘p qoldimi, nima balo?

– Shodi! – dedim biqiniga turtib. – Sen gapirarkansan?

– Nima? – Shodivoy yuzidan kaftini tushirib menga qaradi. – Nima deding?

– Gapir! – xuddi maktabda, bir partada o‘tirgandagidek tizzam bilan soniga turtdim.

Jovli akajonim Shodivoyga mikrofon tutib, hayqirdi.

– Qani, bitta avatsiya bo‘lsin, o‘zimizning yosh kadrga!..

Shodivoy chayqalibroq o‘rnidan turdi-yu, birdan jiddiy tortdi. Bir zumda kayfiyat tarqab ketdi-yov! Gaplari miltiqning o‘qidek. Har so‘zni chertib-chertib aytadi. Nima qilsayam yurist-da!

– Kolxozning hisobot-saylov yig‘ilishi zo‘r o‘tyapti! – dedi vazminlik bilan.

Ajab, hamma jimib qoldi. Rais buva o‘tirgan joyida qoshi chimirilib, past ovozda jerkidi.

– Shodi!

– A? – Shodivoy og‘ziga mikrofon tutganicha otasiga qaradi. – Nima?

– Ahmoq! – Rais buva ovozi yanayam pasaytirib o‘shqirdi. – Kayfing oshib qoldimi! To‘yda o‘tiribsan, tentak!

– E, shunaqami? – Shodivoy chunonam yoyilib kuldi, mikrofondada ovozi yetti qishloqqa eshitildi-yov! – Uzr! Men bo‘lsam, «Mash‘al» kolxozining hisobot majlisi deb o‘ylabman... – Qarang, hammasi batartib. Hammasi darajasiga qarab bo‘lingan. «Ulug‘lar» bir tomonda. «Xashaki»lar bir tomonda.

– Shodi! – Rais buva o‘rnidan turib ketdi. Zo‘raki iljaydi. – Jo‘rangni oyog‘i to‘rtta bo‘layapti. Qutli bo‘lsin demaysanmi, ulim?

– Shunaqami? Uzr... – Shodivoy lab-lunjini yig‘ishtirib oldi. – Niyatim shuki, Qo‘sho baxtli bo‘lsin! Qo‘sho, jo‘rajon! – u mikrofonni hamon qo‘yib yubormay, dabdurustdan meni quchoqlab oldi. – Yaxshiyamki, senga o‘xshagan odamlar bor, bu dunyoda. Kel, o‘rtoq, bitta o‘pay, shoshma, yana bitta! Endi peshonangdan...

Qiyqiriq, qarsak bo‘lib ketdi. Jovli akam mikrofonni uning qo‘lidan yulqib olib, nari ketdi, davra o‘rtasiga chiqishga madori yetmadimi, yiqilib ketishdan qo‘rqdimi, turgan joyida e‘lon qilib qo‘ya qoldi.

– Navbat san‘atkorlarga!

Rubob jarangladi, tor varangladi, doira badangladi, garmon g‘iyqilladi, g‘ijjak nola chekdi. San‘atkorlar ham balo ekan! Ovozi hezalakchalish erkaklarnikiga o‘xshagan Anorxon degan xotin uchta qo‘shiq aytsa, tovushi erkakshoda xotinlarnikiga o‘xshagan Shomatxon, degan yigit to‘rttani qo‘ndiradi. Bo‘rivoy degani sakkizta ashula aytsa, Qulahmad o‘n ikkita qo‘shiq bilan javob qiladi. Qadahlar paydar-pay aylanib turibdi. Birov arman konyagini otyapti, birov «Chashma». Birov «Posolskiy», birov mineral suv.

Bir ko‘zim Nargisxonda. Suzilib o‘tiribdi. Bir ko‘zim Shodivoyda, kafti bilan yuzini changallab paydar-pay hiqichoq tortyapti.

Kokilaxon degan raqqosa davraga chiqishi bilan to'yxona tandırdek qizib ketdi. E, o'ziyam ofat ekan, bu Kokilaxon! Shunaqangi himo qiladi, shunaqangi qil-panglaydiki, odam zoti chidab turolmaydi. Tag'in har bitta erkakning ro'parasiga kelib kissasini kavlamagunicha muqom qilib turaveradi. Ana, tog'am chidab turolmadi shekilli, allaqancha pulni Kokilaxonning zar do'ppisi tagiga qistirmoqchi edi, raqqosa lip etib yulqib oldi-yu, nari ketdi.

– Voy do-od! Qomatingdan! – yoqavayron bo'lib ketgan kuyovim ilondek buralib o'rnidan turdi. Kissasini kavlab, bir bog'lam pul chiqardi. Hovli yop-yorug' emasmi, aniq-taniq ko'rdim!

Bir zumda kuyovning puli qayoqqa g'oyib bo'lganini hech kim sezmedi. Sirkdagi ko'zboylog'ichmi, nima balo, bu Kokilaxon!

– Nargisxon! – dedim parda ortidan keliningizning qulog'iga shivirlab. – Pulni qayoqqa yashirdi?

Nargisxon piq etib kulib yubordi.

– Bilmasam...

Endi «Vohay-bola» avjiga chiqdi. Qarsaklar osmonni titratdi. «Ferma tog'a» tovuqning oyog'idek sertomir, qip-qizil bo'ynini cho'zib, muqom qilganicha raqqosaning oldiga o'ynab kela boshladi. Qahqaha, qiyqiriq bo'lib ketdi.

– O'zim o'rgilay, ko'zingdan akang! – dedi-da, kissasidan ikki bog'lam pul chiqarib Kokilaxonga ko'rsatdi. Jayraning nayzasidek tikkaygan mo'ylovini g'olibona silab qo'ydi.

Kokilaxon o'ynab keldi-yu, pulga chang solgan edi, «Ferma tog'a» quv ekan, pulni belining orqasiga yashirdi.

– Bitta o'pich bersang'...

– Hoy, Musayip! – mikrofondada Jovli akaning ovozi jarangladi. – Nomardlik qilma! Ber ataganingni!

To'yib mosh yegan xo'rozdek qip-qizarib ketgan «Ferma tog'a» ovoz qayoqdan kelayotganini bilolmay alang-jalang bo'lib qoldi.

– A? – dedi iljayib. – Nima deding'iz?

Kokilaxon o'ynab turgan ko'yi, paytdan foydalanib lip etganicha uning orqasiga o'tdi. Keyin nima bo'ldi, o'zim ham tushunolmay qoldim. «Ferma tog'a» es-hushini yig'ib olib, avval o'ng qo'lini tomosha qildi. Keyin chap qo'lini... Undan keyin yuzini yuvayotgan odamdek, ikkala kaftini naqd burniga taqab uzoq termilib qoldi. Ko'zlari g'ilay bo'p ketdi.

– Pulim! – dedi hayqirib. – Pulimni nima qiding'?  
Qayg'a tiqding', uying kuyg'ur!

Mikrofon changallab turgan Jovli akam bir imo qilgandi, ikkita zabardast yigit «Ferma tog'a»ning ikki qo'ltig'idan olib, chetga sudradi.

Qarasam, Nargisxon parda ustidan kafti bilan og'zini to'sganicha miriqib kulyapti!

– Qoyil qildi-a, Nargis! – dedim qulog'iga.

– Rosayam bopladi, Qo'shoq aka!

Shu bahona kelingizni o'pib olmoqchi edim, davrada «Lazgi» avjiga chiqdi. Kokilaxonning boyagi o'yinlari hech gap emas ekan! «Lazgi»ga gal kelganida shunaqangi uchib ketdi-ki! Yo tavba! Odam bolasiyam shunchalik bo'ladimi!

Yo, alhazar! Suyagi yo'q-ku, buning! Sochini uchidan tortib, tovonigacha baravar silkinadi-ya! Rostini aytsam, o'zim ham o'rtaga tushib o'ynab ketay dedim.

Bir mahal «sharvatxona» tomondan shamolda tebrangan terakdek chayqalib Shaydul kassir chiqib keldi.

– Jonidan! Jonidan! – dedi ko'ksiga urib. – Biz tomon-gayam bir qiyo boqsinlar!

Obkom vakilining yonboshida o'tirgan Viktorov qarsak chalib yubordi.

– Molodes, Shaydul! Ay molodes!

Mingtalik chiroq aynan shu odamning tepasida turgani uchunmi, boshi chunonam yiltirab ketdiki, bir emas, ikkita lampochka lovillab, to'yxonani yanayam nurafshon qilib yuborgandek bo'ldi.

– Davay, Shaydul, davay! – dedi Viktorov qiyqirib.

Shaydul kassir belbog‘i uzilmagan bir pachka pulni boshi ustida baland ko‘tarib imo qoqdi:

– Jonidan!

Kokilaxon ming bir tusda tovlanib, Shaydul kassirga yaqin keldi.

– Jovli Mengliyevich! – Raykom buva baqbaqasi liqillab hayqirdi. – Ayting! To‘xtatsin! Bu yerda opitsalniy odamlar o‘tiribdi, yaxshimas!

– Shaydul! – Jovli akam o‘sha zahoti mikrofon orqali buyurdi, – ko‘p bodilik qilaverma!

U so‘zini tamomlaguncha Shaydul kassir allaqachon Kokilaxonning oppoqqina yuzidan o‘pib ulgurgan edi.

– Bo‘ldi, o‘v! – dedi Jovli akam alam bilan.

Qayoqda! «Lazgi» avjiga chiqib ketgan, Kokilaxon jon holatda qilpillayapti. Shaydul kassir beli bog‘liq uch dasta pulni boshi ustida baland ko‘tarib turibdi. Kokilaxon kuy ohangiga mos qiliq qilib paydar-pay sakraydi-yu, qani pulga bo‘yi yetsa! Shoti ustiga chiqib sakrasayam yetolmas.

– Sen ham bitta o‘psang, hammasi seniki! – Shaydul kassir yuzlari yalpayib iljaydi. Qishda shuba olib kiyasan. Bitta o‘p, jonidan!

– Bas! – Jovli akam shunaqangi chinqirdiki, mikrofon chiyillab ketdi. Shaydul kassir qo‘lini past tushirgan edi, o‘sha zahoti puldan ayrildi. Kokilaxon o‘ynab-o‘ynab nari ketdi. «Lazgi» hamon davom etardi.

Shaydul kassir bir zumda shuncha puldan ayrilgani nash‘a qildi shekilli, alamini Kokilaxondan emas, Jovli akamdan oldi:

– Erkakmisan, Jovli, – dedi o‘shshayib, – qistir o‘zingam mard bo‘lsang!

Chap yonimda allanima taraqladi. Burilib qarasam, Shodivoy stolni mushtlayapti.

– Shodi! – dedim qo‘liga yopishib. – Esingni yig‘, jo‘ra!

– Qoyil! – Shodivoy chayqalib o‘rnidan turdi. – O‘rgildim, maymun o‘yinlaringdan! Xayr, do‘stim! – u engashib boshimni bag‘riga bosmoqchi edi, orqasiga qalqib ketdi. Jo‘ram yiqilib ketmasin, deb endi o‘rnimdan qo‘zg‘alganimda allakim ort tomondan kelib, Shodivoyni stul-pstuli bilan ko‘tarib, parda orqasiga olib ketdi. Nargisxon ikki qo‘llab bilagimni changallab oldi.

– Qo‘shoq aka! – dedi ovozi titrab. – Qo‘rqyapman...

– Bo‘ldi, jonim, parvo qilma! – shovqin-suron orasida Nargisni mahkam bag‘ringa bosib, parda ustidan yuzidan o‘pib oldim, – jo‘ramni sal kayfi oshib qoldi.

– Erkakligimni ko‘rsataymi! – mikrofondada Jovli akamning asabiy ovozi jarangladi. – Ko‘rib qo‘y, bodi! Men senga o‘xshagan maydakash emasman! Baqqa keling, Kokilaxon!

Raqqosa xuddi shuni kutgandek Jovli akamning ro‘parasiga o‘ynab keldi.

– Mana! – Jovli akam shimining kissasidan sarg‘ish belbog‘ taqilgan besh bog‘lamni chiqardi. – Oling! – dedi Kokilaxonga uzatib. – Halolingiz bo‘lsin! San‘atingiz uchun, talantingiz uchun!

Sho‘rva qaynagandek siyrak qarsak chalindi. Qarasam, rais buva, raykom buva, to‘rda o‘tirganlaridan tag‘in besholti kishi chapak chalyapti.

– Birpasda shuncha pul ishlab oldi-ya! Butun boshli matasiklga yetadi-ku, – dedim kelingizning qulog‘iga shivirlab. – Mazza-mazza otarchiniki ekan-ku. Ozroq qarz so‘rasam, berarmikin?

Nargisxon, parda ortidan shirin po‘pisa qildi.

– So‘rab ko‘ring-chi?

Kelingizga dil ketib, davrada nima bo‘layotganini payqamay qopman. Nargisxonning ko‘zida xavotir paydo bo‘lganini ko‘rdim-u, burilib qaragam, Shaydul kassir qornini ushlab, ikki bukilib turibdi. «Rais chaqirdi»da-

giga o'xshab pivoni sabzi suviga qo'shib urgan bo'lsa, ichi og'rib qoldi, deb o'ylagandim, yo'q, kulayotgan ekan.

– Hi-hi-hi! – Shaydul kassir qaddini rostlab xandon otdi.

– Ha-ha-ha! O'zim bergan pul! Ishonmasanglar qaranglar! Belbog'iga o'zim qo'l qo'yanman!

Jovli akamning jahli yomon ekan! Qo'lidagi mikrofon simini osiltirgancha boshini ikki yelkasiga tortib, Shaydul kassir tomonga otili. Nargisxon eshitib qolmasin-ku, shu topda tog'asi yana ukkiga o'xshab ketdi. Orada uch qadamcha qolganida «h-ha» dedi-da, Shaydul kassirning gornini mo'ljallab kalla urdi. Kassir bechora qoq tagidan arra solingan terakdek gursillab yerga ag'darildi.

Hammayoq qiy-chuv bo'lib ketdi.

Kokilaxon o'yinga qancha usta bo'lsa, qochishga ham shunchalik chaqqon ekan! Hamon davom etayotgan «Lazgi» ohangiga mos harakatlar bilan o'zini san'atkorlar o'tirgan so'riga otdi.

Kimdir so'kindi. Kimdir «do'st» tortdi.

Negadir chiroq o'chib qoldi.

– Qo'shoq aka! – Nargisxon bo'ynimga osilib yalindi. – Qo'rqib ketyapman!

Keliningizni ovutib o'tirgan edim, boshim ustiga allakim egildi:

– Turaqol, Qo'sho! Kelinni uyga olib kir!

Qorong'ida bo'lsa ham tanidim: otam!

– Qo'rqmang, bolam, – dedi Nargisxonning yelkasiga qoqib. – Uyga kiringlar. Sizga desa bir-birining go'shtini yemaydimi, bular!

Qaynoqqina, shiringina Nargisxonni bag'rimga bos-gancha uy tomon yetakladim.

## O'n sakkizinchi bob

### SHAQ ETDI, PAQ ETDI, PUFAK YORILIB KETDI!

Umrin bino bo'lib yig'lagan emasman, deganmidim? Yo'q, yig'lagan ekanman, do'xtirjon. Bir marta!

Nega deysizmi? Qo'ying, bu gaplarni aytishga uyaladi, odam! Ha, men sodda edim. Ammo vijdotsiz emasdim. Go'l edim, ammo oriyatsiz emasdim! Ahmoq edim, ammo diyonatini pulga sotadiganlar xilidan emasdim.

Kechagina boshiga qo'ngan baxt qushidan mast bo'lib yurgan odam, ertasiga mukkasidan yiqilsa, g'alati bo'larkan. Odamning peshonasi taq etib devorga urilganidan keyin ko'zi ochilarkan. Shuncha paytdan beri ko'r ekanman, so'qir ekanman...

Nima qilay? Kinga aytay dardimni? Otamgami? To'ydan keyin uch kun o'tmay, qon bosimi oshib yiqilib qoldi-ku o'zi? Jovli Mengliyevich u yoqqa yugurib, bu yoqqa yugurib, yangi qudasini viloyatdagi «kattalar» yotadigan bannisaga joyladi. Otam bunaqa iltifotdan xursand bo'ldi, deysizmi? Ko'rgani borganimda negadir ma'yus kulimsirab qo'ydi.

Men-ku, dadamga hech nima demadim. Lekin otam menga o'xshagan go'l emas. Urush ko'rgan, tizzasidan qon kechgan. Birov hech gapdan hech gap yo'q, yuzingga tupursa-da, «bir hazil qildim-da, ma, artib ol», deb cho'ntagidan ro'molcha chiqarib uzatsa, qanaqa bo'ladi? Otam buni bilmaydimi? Aslida, ayb menda! O'zimda! Men – molfahmda! Dadamning o'rniga men bannisaga tushishim kerak edi. O'ladigan bo'lsam men o'lishim kerak!

Onam bo'lsa, o'zi bilan o'zi ovora! Kunora avtobusga o'tirib, dadamning oldiga yuguradi. Nima qilay? Dardimni jo'ram Shodivoyga aytaymi? Nima deyman? Otang ablah ekan, deymanmi? U yog'ini so'rasangiz, Shodivoy qishloqda turmaydi. Kvartirada yashab, tuman markazida ishlayapti.



O'sha – mening to'yim kuni mast bo'lib chiqib ketgan ko'yi qishloqqa qaytib kelmadi.

Nargis bilan turmushimiz... It yotish – mirza turish. Birga yashaymiz-u, o'rtamizda boshqa bir odam, uchinchi odam turgandek...

Bir vaqtlar otam qo'limga pufak tutqazib, «pufla, o'g'lim, pufla, qani, qachon yorilarkin» deganida xo'p o'ylab gapirgan ekan! Pufak ertami-kechmi yorilishi kerak edi. Sezib turibman, yoriladigan payti yaqin qoldi. Kolxozda tekshir-tekshirlar kuchayib ketgan, rais ko'zimga ko'rinmaydi. To'g'ri-da, qandoq ko'rinsin... G'unchani uzsin. To'yib-to'yib hidlasin. Haddi siqqanicha, kuchi yetganicha ezg'ilasini... Keyin menga... Men – nodonga uzatsin. Ustiga-ustak «qog'ozga o'roqliq qandek, boshingga ko'tarib yur», deb pisanda qilib ham qo'ysin...

\* \* \*

...Pufak kuz kunlaridan birida, ayni terim qizigan pallada yorildi. Rais hadya qilgan, yo'g'-e, sadaqa qilgan pat-patga qo'limni ham tekkizmadim. Qandoq tegizay! Haromku o'sha la'nati pat-pat! Bundan chiqdi, bir vaqtlar bolaligimda mototsikl minishni orzu qilib yurganim «pat-pat»ga Oysara yangam ega chiqqani, Tursunboy akam o'sha nahs bosgan lulkani minishga hazar qilgani, doim ma'yus tortib yurishida gap bor ekan-da! Bundan chiqdi, rais buva Tursunboy akani, menga o'xshab, onasining qornidan tushgan cha go'dak holidan qolgan soddalarni pat-pat bilan aldar ekan-da! Rais «o'g'lingni o'qishga olib boraman», «mash'al qilaman», «otalik qilib uylantirib qo'yaman» deganda dadam «tullak rais beradiganini belbog'iga bog'lasin» degani bejiz emas ekan-da!

Onam! Bechora onam! Shu nomardga ishonib, otamga qancha dashnom berdi. Rais buvani farishtaga qiyos qildi! Farishta! O'zidan qolgan sarqitlar bilan boshqalarni boqadigan «farishta»mi?! Yo'q! raisning mag'zavasi ke-

rakmas menga! Mag'zavaga qo'shib uzatgan pat-patiyam kerakmas!

Harom! Hammasi harom!

Har kuni dalaga eshagimni minib boraman. Rostini aytaymi? Hammasidan shu tilsiz – zabonsiz jonivor afzal menga! Nima bo'lganda ham, quvlik-shumlikni bilmaydi. Xiyonat qilmaydi...

Tong otmasdan eshak minib chiqib ketaman. Mashinada paxta teraman. Uyga kelishga yuragim yo'q. Kechalari shiyponda qolib ketaman.

Bir kuni kechqurun qatirmoch bo'lib ketgan paytavamni almashtirish uchun uyga kelsam, onam eshik oldida tipirchilab turgan ekan.

– Tez bo'l, bolam, mashina top! – dedi chirqillab. – Kelinni dard tutib qoldi. Yaxshiyam o'zing kelding. Aksiga olib otang ham bannisada.

Otam Jovli Mengliyevichning «iltifoti» bilan kazokazolarning shifoxonasida bir oy yotib, sal o'ziga kelgan. ammo kuz tushishi bilan dardi qaytalab, bir hafta avval tag'in ahvoli og'irlashib qolgan edi. Ukkiko'z Jovli aka yana o'sha kasalxonaga obormoqchi bo'lganida, «qo'ying, unaqa joylar menga to'g'ri kelmas ekan», deb tuman kasalxonasiga yotgandi...

– Bo'la qol, bolam! – dedi onam negadir ko'zini olib qochib. – Qiynalib ketdi bechora!

Nega teskari qarayotganini bilmasam ekan! Uyalayapti, bechora. Ajab, qilg'ilikni qilgan boshqalar-u, enam nomus qilyapti. To'ydan keyin uch hafta o'tar-o'tmas, onam: «Kelinning qadam olishi g'alatiroqmi?» – deb yaramga tuz sepgan edi. Keyin bu to'g'rida boshqa gaplashmadik. Nimaniyam gaplashardik. Mana, o'sha yara yorildi! Jondan suygan Nargisxonim to'rt oyda tug'ib beryapti...

Uyga kirsam, Nargis ingrab yotibdi. Qiziq, xotining tug'ay deb tursa-yu, mashinasi bor qo'shningga «kelinni tug'ruqxonaga olib boraylik» deyishga or qilsang, g'alati

bo'larkan. Kimga aytaman? «Iya, Qo'shoqjon, kelin tezotar chiqib qopti-ku», demaydimi!

Noiloj «pat-pat»ni yurgizdim. Onam kelinni o'rab-chirmab, lulkaga o'tqazdi. O'zi orqaga mingashayotgan edi, jerkib berdim.

– Tushing! Yo'lni o'zim bilaman!

Mototsiklni uchirib ketdim. Qorong'i ko'cha, qorong'i osmon... Bir ko'nglim mototsiklni uchirib borib, simyoqochga ursam-u, hammasidan bir yo'la qutulsam, deyman. Nachora, shaytonga hay berdim.

... Tug'uruqxona eshigiga yetishimiz bilan ichkaridan oq xalat kiygan ikki xotin chiqib, mototsikl chirog'ining yorug'ida shu tomonga yugurdi.

– Qo'shoq aka! – Nargis hansirab ingradi. – Meni kechiring... – qarasam yig'layapti. Yupatgim keldi-yu, negadir yupatolmadim. – Agar menga bir nima bo'lsa, – dedi yig'lab, – ikki qo'lim raisning yoqasida!

Shunda yana bir narsani tushundim. Nargis meni, men molfahmni aldadi. Ammo unda nima gunoh! Qo'sha-qo'sha nevara ko'rgan rais uni shu ko'yga solgan... Nima deyishimni bilmasdim. Aytadigan gapim ham yo'q edi. Nima dey? Nima qilay?

Oq xalatlilar uni lulkadan suyab tushirishi bilan mototsiklni orqaga burib, yeldirib ketdim. Xayolimga tag'in o'sha gap keldi. Hozir simyog'ochga urilaman, yo bo'lmasa tikroq jarga qulab ketaman-da, hammasi tamom! Mototsiklni uchirib ketyapman. Nuqul xayolimda shu gap aylanadi. Bo'ldi. Men endi yashamayman! Men ham odammanmi? Men ham erkakmanmi? Ertaga odamlarning ko'ziga qandoq qarayman?..

Bir mahal ro'parada mashina chirog'i ko'rindi. «Pat-pat»ni to'ppa-to'g'ri chiroqqa burdim. Eng so'nggi daqqiqada mashina o'zini keskin chapga olib, g'uwillab yonimdan o'tib ketdi. Chang-to'zon orasida qoldim. Hamon uchib borarkanman, xayolimdan boshqa o'y kechdi.

Shoshma, o'lib ketishdan osoni yo'q. Avval rais bilan, menga shuncha «otalik» qilgan rais bilan ikki og'izgina gaplashib olay!

Kungurador darvozasi qulf ekan. Avval mushtladim. Keyin tepdim. Darvozaxonada chiroq yondi. Elkasiga to'n tashlagan rais meni ko'rib avval hayron bo'ldi, keyin sevindi.

– Tinchlikmi, Qo'shoqjon? Otang tuzukmi? Kelin yaxshimi?

– Yaxshi! – dedim labim titrab. – Tug'uruqxonaga oborib qo'ydim.

Rais hayron bo'lgandek ko'zlarini pirpiratdi.

– Iya, Qo'shoqjon? Hali muddati yetmagandi, shekil-li? – dedi-yu, birdan tizzasiga urib, qah-qahlab kulib yubordi. – Voy, guppi-ey! Voy udarnig-ey! Buyog'iniyam bopladim de! Xotinniyam dasrochna tug'dirib yubordim de! – u hovli tomonga qarab baqirdi. – Suyunchi obchiq, xotin! O'g'ilmi-qiz? – dedi menga yuzlanib. – Otini nima qo'yanan?

Titrab ketdim.

– Otini sen qo'yanan!

Uning kulgisi shartta kesildi. Chiroq ostida rangi bir gezardi-yu, yuzi qahrli tusga kirdi.

– Bu nima deganing, hayvon! «Qalliq o'yin»ga borganing esingdan chiqdimi! O'zim ko'rganman!

Shuyam odam bo'ldi-yu! Shuyam erkak bo'ldi-yu!

– Ol matohingni!

Nariroqda turgan «pat-pat»ni yetaklab, darvozaga ro'para qildim. Yyelkam bilan bir turtgan edim, darvoza tavaqasi ochildi. Mototsiklning orqasiga o'tib kuchim boricha kajavasiga tepdim. Darvozaxona qiyaroq ekan, «pat-pat» ichkariga qarab g'irilladi. Rais sakrab o'zini chetga oldi. Mototsikl shitob bilan g'ildirab borib, oppoq «Bolga»ning orqasiga urildi. Ruli qiyshayib, mashinaning orqa chirog'i chil-chil bo'ldi. Raisning ko'zida o't chaqnaq ketdi.

– Mashinani nima qilding, haromi! – dedi hayqirib. Musht o‘qталib, ustimga kelayotgan edi, etigimning qo‘njida pichoq chiqardim.

– Kelaver! – qiziq, shunaqangi osoyishta gapirdimki, o‘zim ham hayron qoldim. – Kela qol!

Rais turgan joyida taxta bo‘lib qoldi. Shu payt erkak desa erkaknikiga, xotin desa xotinnikiga o‘xshamaydigan dahshatli ovoz uv tortdi.

– Voy dod! O‘ldiryapti! Erimni so‘yyapti!

Raisning ola-bula ko‘ylak kiygan xotini tovushini baralla qo‘yib, tag‘in bir dodladi-da, supadek joyni egallab, gursillab yerga o‘tirib qoldi.

Ostonasiga tufladim-u, burilib ketdim. Orqamdan raisning chinqiroq hayqirig‘i eshitildi.

– Haromi! Esipast, jinni! Men bunga otalik qildim! Uylantirib qo‘ydim...

\* \* \*

Ertalab onam tugun-tersak ko‘tarib yo‘lga tushdi.

- Kelinimdan xabar olay. Bir yo‘la otangniyam ko‘rib kelaman.

Sezib turibman. «Otangdan suyunchi olaman» demadi. To‘g‘ri-da, suyunchini raisdan xotini olsin! Eri yana bitta bolali bo‘ldi-ku, axir!

Eshagimni minib, dalaga keldim. Tulporni shiypon oldidagi tolga bog‘lab, ishga tushib ketdim.

Mashinada paxta teryapman-u, xayol ming ko‘chaga olib kiradi. Nuqul o‘zim bilan o‘zim gaplashaman. Nega shunchalik oyog‘osti bo‘lding? Nega rais seni shunchalik xor qildi? Toshkentga yetaklab bordi, suv bo‘yiga olib borib, sug‘ormay qaytarib keldi! Shunchaki erka o‘g‘li Shodivoyning ko‘nglini olish uchunmi? Rais o‘sha «katta domla»ga mo‘maygina pul qistirmasa, sen tugul Shodivoy ham institutni tushida ko‘rardi. Nega o‘sha paytda bu gaplarni o‘ylab ko‘rmading!

Otangni «diplomat»ga taxlab beradigan jaraq-jaraq puli yo'q edi-ku, nega Shodivoyga ergashib Toshkentga bording? Rais qo'ymadimi? Nega senga yopishib oldi? Nega o'qitaman, yurist qilaman, dedi?

Shoshma! O'ninchini bitirayotganingda, imtihon boshlanishidan oldin rais Oysara yangaga atlas olib kelganmidi? O'shanda Oysara yanga yig'laganmidi? Tursunboy akaning uyidan chiqqaningda rais nima dedi senga? «Bir-ikki oy indamay yur, Tursunboyga ko'rinma», – dedimi? Ha-a! Mana, gap qayoqda ekan! To'xta! O'shanda Oysara yanga: «Rais boshqa kitob topgan, o'shani o'qiyversin» – deganmidi? Bundan chiqdi, o'sha kezlari rais boshqasiga ilakishib yurgan. Oysara yanga undan arazlagan. Rais yarashmoqchi bo'lib, sendan Oysaraga sovg'a kirgazgan. Shoshma-chi! O'sha Nargis bo'lmasin tag'in! Yo'q, Nargis u paytda yosh bola bo'lgan. Bundan chiqdi rais boshqa o'ynash topgan. Bundan chiqdi, Nargis birinchisi ham emas, oxirgisi ham...

Baribir! Rais seni shaharga bekorga olib bormagan. Og'zidan gullab qo'ymasin, odamlarning ko'zidan uzoqroqda bo'lsin, deb ataylab olib ketgan. Hov o'shanda, gastinsada Shodivoyga nima dedi? «Jo'rang shuncha o'ynadi, bo'ldi-da», – dedimi? Demak, seni shunchaki «o'ynatib» yurgan. Toshkentdan qaytgandan keyin Oysara yanga bilan yarashib, tag'in apoq-chapoq bo'lib ketgan. Ikki orada Tursunboy aka dodini kimga aytishni bilmay, rangi somondek sarg'ayib yuravergan! Bechora! Sen bo'lsang, ishga ra'yi yo'q deb xafa bo'lib yuribsan! Yo'-o'-q, rais chuchvarani xom sanabdi. Men Tursunboy aka emasman, yer chizib yuradigan! Qo'lidan kelsa, yurist o'g'lini ishga solib ottirib yuborsin!

Shoshma! Shodivoy o'shanda, gastinsada nega buncha to'polon qildi? Nega: «Qo'shoq institutga kirmasa, menam qishloqqa qaytib ketaman», – deb turib oldi? Yolg'ondan qildimi? Kim biladi? Ishonib bo'ladimi,

bularga? Hammasining ildizi bir! Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi! Hatto, birovning to'yida ham taraf-taraf bo'lib o'tirishadi. Raykom buva bilan rais to'rda, qirq yillik muallim poygakda! Shodivoy ham pora bilan o'qib tergovchi bo'lgan-da! «Dadam aytdi, yuristlarning topish-tutishi zo'r bo'larkan», – deb o'zi aytgan-ku! Bundan chiqdi... Unaqa bo'lsa, nega ta'til paytida qishloqqa kelmay qo'ydi? Mening to'yim kuni mast bo'lib, ukkiko'z Jovli aka, Shaydul kassirlarni nega maymun o'ynatyapti, dedi?

Xo'p, mayli. O'zing-chi, o'zing? O'zingda ayb yo'qmi? Gazetada maqtangani-yu, radioda «mash'al» deganiga mahliyo bo'lib yuraverdingmi? Gektaridan ellik sentner hosil olganing, mashinada uch yuz ellik tonna paxta terganing g'irt yolg'on-ku! Shunchalik ilg'or ekansan, nega o'zing ham, brigadandagi yigitlar ham nosvoy puliga yetar-yetmas haq oladi? Qayoqqa ketyapti o'sha pullar? Bundan chiqdi, kech kuzda, yarim kechasi paxta punktida majlis bo'lgan kuni Shaydul kassirning papkasini yo'lda tushirib qoldirganingda, kassir shunchalik tipirchilagani bejiz emas ekan-da!.. Kichkinaligimda ikki karra ikki – besh, deb yurganim o'yinchoq ekan-ku! Dunyoda bunaqangi ishlar bor ekan! Xohlasa, havodan holva yasaydi. Xohlasa, xalqni cho'michda qoqib boylik to'playdi. Davlatning ko'ziga cho'p solib «qahramon» bo'ladi. Xo'sh, shunaqa ekan, «ig'vogar» Ergashev «senga bildirmay vedomost tuzishadi, paxta o'rniga pul topshirishadi» deganida nega ishonmading? Ishonmading emas, Ergashevni qoralab yozishgan gazetani Nargis o'qiganida qarsak chalding! Nega? Yo'q, azbaroyi Ergashevni yomon ko'rganingdan emas, Nargisni yaxshi ko'rganingdan chalgansan. Shoshma?! O'shanda Nargis seni o'pgan edi-a? «Siz yaxshi odamsiz», – degan edi-a?! Demak, o'shanda Nargisning gapini boshqacha tushunibsan-da. Meni jon-dilidan sevadi, deb o'ylabsan-da! Galvars!

Obkom vakili, raykom, rais – hammasi bir tomonga o'tib turganidan keyin, xalq manfaatini shular o'ylaydi, bular axir katta odamlar, esli odamlar debman-da! Men ahmoq shularga ishonib yuribman-a! Shularga-ya! Kim o'zi bular?! Priyomchik, Jovli, raypo qaynotam, rais, Shaydul kassir, to'yda yelib-yugurgan kuyov – hammasi bir odam! Hammasi! Kim bilsin, balki Nargisning tanjoni «nosog'roq» ekanini hammasi bilgandir. Hammasi birgalashib men ahmoqni yana bir marta ahmoq qilgandir! Nega bo'lmasa raisning o'zi to'satdan to'yga bosh-qosh bo'lib qoldi. Nega o'sha harom-xarish «pat-pat»ning kalitini bo'yniga osib yuradigan Oysara yanga Nargisnikiga borishimni eshitgan zahoti iljayib, baxt-saodat tiladi. Balki yana bir norasmiy «kundosh»dan qutulganiga, rais tag'in o'ziniki bo'lib qolganiga shukur qilgandir. Iflos! Xotinim (qiziq, nega endi mening xotinim bo'lsin, raisning xotini-ku) bilganini qilsin. Endi turmushimiz turmush bo'lmaydi. Bilaman, ungayam osonmas. Tug'uruqxona eshigida bekorga yig'lamadi. Rostini aytdi. Xo'p, shu bilan mening dardim yengillashib qoladimi? Men nima qilay, axir? Qaysi biridan qasos olay? Qandoq qilib? Hammasini bir chekkadan so'yib chiqolmayman-ku! Rais xohlasa, bugunoq meni oborib tiqib qo'yadi. Yoniga Jovli tushadi, raykom tushadi, qaynotam tushadi...

Xo'p. Bo'lmasa nima qilay? Bir haftadan keyin Nargisni tug'uruqxonadan olib chiqib, raisdan bo'lgan bolani «lu-lu» deb ko'tarib kelaymi? Tursunboy akaga o'xshab bir umr odamlarning ko'ziga qarolmay yuraymi? Yo «mash'al» brigad bo'lib, gektaridan oltmish sentnerdan hosil ko'tarib, medal olaymi? Har mavsumda to'rt yuz, kattalar xohlasa yetti yuz tonna paxta terib «qahramon» bo'laymi? «Qahramon» emish! Rais xohlasa shunaqa qiladiki, har kuni meni dalaga jo'natib, xuddi Oysara yangamning uyiga kirgandek, Nargisning oldiga keladi! Kim bilsin, balki bir vaqtlar Tursunboy akamga ham osmon



baravar va'dalar bergandir?.. Rahmat! Tupurdim, o'sha yasama «qahramon»ligiga!

Xayol surib, egat boshiga borib qolibman. O'girilib qarasam, bunker to'lib ketibdi. Mashinani orqaga burayotganimda shiypon tomonda o'q tovushi eshitildi. Hayron bo'lib, mashinadan tushdim.

Shiypon oldidagi tolga bog'langan Tulporim boshini orqaga tashlaganicha ikki gaz sakrab ketganiga ko'zim tushdi. Nariroqda, «Niva» mashinasi to'xtab turardi. Eshagimning ro'parasida turib miltiq o'qталayotan raisni endi ko'rdim. U milidan tutun chiqib turgan miltiqni yiqilayotgan eshagimga yana to'g'riladi. Tulporim jon talvasasida arqonni siltab o'zini orqaga otdi. Shu payt avvalgidan ham qattiq gumburlagan o'q tovushi qulog'imga kirdi. Miltiq milidan tag'in tutun chiqdi. Eshagim yerga qulaganini ko'rdim-u, o'sha tomonga yugurdim.

Yetib kelsam, rais shiypondagi so'rida qo'shog'iz miltiqni tizzasiga ko'ndalang qo'yib, xotirjam o'tiribdi. Uchib kelib, Tulporimning ustiga tiz cho'kdim. O'n besh yillik qadrdonim tuproq yerda cho'zilib yotar, kuragidan qon oqib, qorayib turardi. Boshini ko'targan edim, ochiq qolgan ko'zlarida xuddi odamnikiga o'xshagan hayratmi, unsiz xitobmi ko'rdim. Qo'limga qon yuqdi. Bo'ynini ham o'q teshib o'tgan ekan!

Esdan oqqandek sapchib o'rnimdan turdim.

– Nima qilding? – dedim hayqirib. – Nima qilding, hayvon! Tilsiz-zabonsiz jonivor nima gunoh qildi senga?!

– Paxtani payhon qilgan! – rais teskari qarab chirt etib tupurdi. – Bir gektar yerni!

– Qachon? Bog'liq turibdi-ku!

Rais negadir xirillab kuldi.

– Bu – mashinamning chirog'ini sindirganing haqqi!  
Kechagi tuhmatning uchun yana javob berasan hali!

– Ot! – ko‘ksimga chang solib, ko‘ylagimni yirtdim. – Nomard, kelib-kelib kuching shu jonivorga yetdimi? Ot, mard bo‘lsang! Ot, hezalak!

– Bu – shunchaki preduprejdena. Hali shunaqangi kunlarni ko‘rasanki! Xotiningni haqorat qilganing uchun, rahbar xodimga pichoq o‘qtalغانing uchun... – u xalatnusxa kitelining tugmasini echib, jun bosgan ko‘kragini xotirjam silab qo‘ydi. Miltiq bandidan ushlab, mashinasi tomon yurgan edi, yerga cho‘kcalab qoldim.

– Haromxo‘r! Hayvon! Ot, deyapman, erkak bo‘lsang! U «Niva»ga o‘tirib motorni yurgizdi.

– Shoshma, – dedi iljayib. – Har narsaning o‘z mavridi bor!

Shunday dedi-yu, mashinani gurillatib ketdi. Tura solib, yugurdim. Qo‘limga tushgan guvalani olib, «Niva» ketidan otdim. Tegmadi. Hansirab chopib borarkanman, qoqilib, yuz tuban yiqilib tushdim. Tizzamning ko‘zi sirqirab og‘rir edi, oqsoqlanib qaytib keldim.

Shiypon burchagida turgan, zanglab ketgan ketmonni olib, tol tagidan chuqur kavlay boshladim. Ishonasizmi, esimni taniganimdan beri yig‘lash nimaligini bilmagan, to‘ydan keyin o‘zimni necha marta o‘ldirishga qasd qilganda ham ko‘zimga bir qatra yosh kelmagan odam, eshagimni ko‘mayotganda yig‘ladim!

Keyin hovuzda yuzimni yuvib olib, so‘ri chekkasiga kelib o‘tirdim. Uzoq o‘tirdim.

Orqa tomonda motor gurilladi. Burilib qarasam, raisning mashinasi! Ketmon dastasini mahkam changalladim. Yaxshi! Rais miltiq bilan, men ketmon bilan! Yo u o‘ladi, yo men! Ammo raisni o‘ldirsam, eshagimning tagiga ko‘mmagan nomard! Tulporimning go‘rini ochib, sudrab chiqaman-da, avval raisni yerga tiqaman! Keyin eshagimni! Toki raisning o‘ligi eshagimning tagida yotsin!

Mashinadan koptokdek dum-dumaloq Qamchibek tushdi.

– Qo‘shoqjon... – dedi yalinib. – Tez borarkansiz! Raykom bova chaqiryapti.

Endi mashina ichiga biqinib olib, hunar ko‘rsatyaptimi, hezalak! Qarasam, yo‘q, mashina ichida hech kim ko‘rinmaydi.

– Juda iltimos qildi. Raykom bova! – dedi shofyor hurkibroq.

– Kim u Raykom bovang!

– Qo‘shoqjo-on! Yangi kamissiya hamma tomonni qattiq tekshiryapti, umrida dalaga chiqmaydigan kattalarning hammasi o‘sha yerda. Qaynotangiz... Jovli Mengliyevich...

– Mening qaynotam yo‘q!

– Musayip ham o‘sha yerda. «Ferma tog‘a».

– E, har yuz sovliqdan ikki yuztadan qo‘zi oladigan «Ferma tog‘a»mi?

Shofyor suyunib ketdi. Iljaydi.

– Xuddi o‘zi!

– Tanimayman!

– Raykom bova qattiq tayinladilar. Eng mash‘al mexanizatorimiz kelmasa bo‘lmaydi, dedilar.

– Ergashevni ig‘vogar deb qamatgan o‘sha Raykom bovami?

Shofyor indamay boshini quyi soldi.

– Uniyam tanimayman! – dedim xo‘rsinib. Qiziq, ichim bo‘m-bo‘sh edi.

– Qo‘shoqjon! – shofyor yelkamdan quchdi. – To‘g‘risini aytaymi? Bu kamissiya to‘satdan bosdi. Juda katta kamissiya! Markazdan kelgan. O‘ttiz kishi! Gektaridan ellik uch sentnerdan hosil oladigan, mavsumda to‘rt yuz tonna paxta termochi bo‘lgan yigitni o‘zini ko‘rsatasan, deyapti. Rais bova, Qo‘shoq Salimov farzand ko‘rgan, xotinidan xabar olishga ketgan, desayam qo‘ymayapti.

– Kelaversin, – dedim pinagimni buzmay.

– Bu yoqqa qandoq opkelamiz? Hosilning mazasi yo‘q-ku! Raykom bova aytdi: oltinchi uchastkada mashina tushmagan karta bor. O‘shanda yarim soatgina paxta terib ko‘rsatsa bas, dedi! Rais bova sizni xafa qilib qo‘ygan ekan. Raykom bova raisni yomon so‘kdi. Shu bolaning dilini og‘ritsangiz, sizdan norozi bo‘lamiz, dedi. Shaxsan o‘zi iltimos qildi.

Mehribonchilikni qarang! Tupurdim, o‘sha raisning hamtovoqlariga!

– Yap-yangi mashina tayyorlab qo‘yishibdi. Jon uka, xo‘p deng! – Qamchibek ikki qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi. – Meniyam bola-chaqam bor. Bormasangiz, Raykom bova bilan rais bova terimga somon tiqadi.

U ko‘zimga shu qadar iltijo bilan termulib, shu qadar yig‘lamsiradiki, xayolimga g‘alati o‘y keldi.

– Qamchibek aka, kamissiya rostdan ham markazdan kelganmi?

– Markazdan! Obkom vakiliyam pildirab yuribdi. Raykom bovaning es-hushi o‘zidas. Rais bova-ku, tamom bo‘ldi, hammaga bir qarab talmovsiraydi...

– Avvalgilariga o‘xshab pulga sotilmaydimi, kamissiyalaring?

– Bilmadim. Ammo ziyofatga ko‘nmadi... Rais bova «bir piyola choyimiz bor» degan edi, kamissiya boshlig‘i jerkib tashladi.

– Ketdik!

...Rostdan ham hali mashina kirmagan, paxtasi oqib yotgan paykal chetida ellik chog‘lik odam turgan ekan. Poxol shlyapa kiyganlar, boshyalanglar, do‘ppi kiyganlar. Semiz obkom vakili ularning atrofida girdikapalak! Soqolini qirtishlab olgan qaynotam, ukkinikiga o‘xshagan ko‘kimtir ko‘zlari alang-jalang Jovli aka, paxta zavodining direktori – taqirbosh Viktorov, ikki gapning birida «mong‘a qorang»

deb gap ma'qullayotgan «Ferma tog'a», novcha-terak Shaydul kassir, ingichka bo'ynidagi uchburchak baqbaqasi paydar-pay liqillab turgan Raykom buva, birpasda yasanib, medal to'la qora kostyumini kiyib olgan rais...

Rais mashinadan tushishim bilan shodon xitob qildi.

– Mana, o'sha mash'alimiz! Qo'shoqjon Salimov! Buni qaranglar, bugun to'ng'ich farzandi tug'ildi-yu, shundayam daladan chiqmaydi. Boshqa uchastkada paxta terayotgan ekan, azamat.

Allaqayoqdan qaynotam paydo bo'ldi.

– Qizcha, qutli bo'lsin, ulim! – dedi-yu, peshonamdan o'pmoqchi edi, yuzimni chirillatib o'girdim. Rais uni nari surib, yana xitob qildi. – Bu uchastkaga ikki marta mashina kirgan. Hosilimizni qarang! Uchinchi terimga ham yetilib turibdi.

Gapini qarang. Og'zini ochdi, ichidan yolg'on chiqadi, ablah! Bunaqa «ko'rgazmali paykal»larni mavsum oxirigacha ataylab asrab qo'yishingni g'irt ahmoq ham biladiku!

– Bunaqa maydondan bermalol oltmish sentnerdan olsa bo'ladi, – dedi u jilmayib. – Qani, Qo'shoqjon! Bir ko'rsat hunaringni! – u komissiya vakillari ortiqcha savol berib, meni o'rtaga olishini xohlamadi shekilli, zipillab paykal boshida turgan mashina tomon yetakladi.

Mashina chindan ham yap-yangi edi. Darrov sezdim, shpindellari top-toza, kabinasidan yog'imli hid kelib turibdi. Buyam ko'rgazmali mashina! Ikki soat paxta terasan-da, keyin yana olib qo'yadi.

«Hunarimni» ko'rging kelib qoldimi? Hozir-da, shunaqangi hunar ko'rsatayki! Qiziq, negadir qaynotamning «qizcha qutlug' bo'lsin» degani qulog'im tagida yana jaranglab ketgandek bo'ldi. Bundan chiqdi, Nargis qiz tug'ibdi-da! Raisning qizi! Haromxo'rlar! Hamtovoqlar! Ko'rib qo'y!

Richagni bosib shpindellarni shu qadar pastga tushirdimki, yerga tegib qoldi-yov! Motorni yurgizib, kuchim boricha tepkini bosdim. Mashina quturgan fildek na'ra tortib, oldinga sapchidi. Chang-to'zon ko'tarildi. Burilib qaragam, bunkerga paxta emas, g'o'zapoyalar, majaqlangan ko'saklar patir-putur tushyapti! Qoyil! O'zim ham bir zumda allaqancha joyni ag'dar-to'ntar qilib tashladim-ov! Mana buning otini yer haydash desa bo'ladi! Mashinam o'tgan joy ship-shiydam! Na paxta bor, na g'o'zapoya! Yer shudgor bo'lib ketganini aytmysizmi!

Bir mahal rais bilan raykom buva mashina ketidan yugurib qoldi. Negadir kulib yubordim. Bu kuningdan battar bo'l, hammang! Rais rangi gezargancha qo'lini paxsa qilib baqirdi. Eh-he, haliyam do'q qilyapsanmi?! Mana bo'lmasa! Mashinani shiddat bilan dalaga ko'ndalang qilib burdim. Odatda, terim mashinasini keskin burib bo'lmaydi. Bunker zalvaridan ag'darilib ketadi. Hozir ham shunday bo'ldi. Mashina o'ng tomonga og'di-da, gursillab dumalab tushdi. Kabinadan otilib ketdim. Paxtazor o'rtasida anchagacha qulog'im g'uvillab yotdim. Boshim kattaroq kesakka urilgan ekanmi, sirqillab og'rir, qulog'im shang'llar edi.

Bir zumda ustimga odam to'plandi. Shlyapali, shlyapasiz komissiya a'zolari, surnayga o'xshab g'iyqillab nafas olayotgan semiz obkom vakili, uchburchak baqbaqasi laqillab turgan raykom buva, Shaydul kassir, qaynotam, ukki ko'zlari yonib turgan Jovli aka, bashang kiyingan rais, qo'ying-chi – «Ferma tog'a»gacha atrofimni o'rab olishdi.

– Nima qilding, ahmoq! – rais yirtilib ketgan yoqamdan bo'g'ib ko'tardi. – Kolxoz mulkini nima qilding, ablah! – dedi-da, yuzimga tarsaki tortib yubordi.

Urish mana bunaqa bo'ladi, deb qoq jag'iga chunonam musth tushirdimki, rais pufakdek uchib ketdi. Besh

qadamcha nariga – ariq ichiga borib tushdi. Pishiq ekan, xunasa! Paq etib yorilib ketmaganiga hayronman. Yugurib borib qorniga tepdim. «Hiq» etgan ovozni hamma eshitdi.

– Nima qilyapsan! – Jovli aka xumdek boshini yelkasi ichiga tortib chopib kelayotganini ko'rdim. Yo'-o'q, men Shaydul kassir emasman, kalla qo'yishingni kutib o'tiradigan. Yaqin kelsa nag'al qoqilgan etigim bilan qoq jag'iga tepishni mo'ljallab turgan edim, allakim, uni quchoqlab, to'xtatib qoldi. Jovli, o'ljasiga yetolmagan ukkidek ko'zlari yonib, «huv-huv» deb tipirchiladi.

– Qani, kelaver! – dedim jazavam tutib. – Kela qol!

Qiziq, yaqin keladigan mard yo'q!

Voy nomardlar! Voy jo'jaxo'rozlar! Hali senlarga xor bo'lib yuribmanmi!

– Kamissiyaning boshlig'i kim? – dedim baqirib. – Kim?!

Oraga g'alati jimlik cho'kdi.

– Kim? – dedim jon holatda chinqirib.

Kulrang poxol shlyapa kiygan odam davradan ajrab chiqdi. Sekin-sekin yaqin keldi.

– O'zingizni bosing, uka! – dedi osoyishta ohangda.

– Sizmi, boshliq?! Sizmi? Aytin?

– Men! – u yelkamga qoqmoqchi edi, qo'lini siltab tashladim. – Yolg'on! – tilimga birinchi kelgan so'z shu bo'ldi. – Yolg'on! Gektaridan ellik sentner hosil olganimiz – yolg'on! Bultur uch yuz ellik tonna paxta terganim – yolg'on! Bir qop pul daromad qilganim – yolg'on!

Davra orasidan raykom buvaning ovozi keldi.

– O'rtoq vakil! Iltimos, quloq solmang, bunga. Bu bola – shizofrenik!

– Sen o'zing shizo... Shizo... – u yog'iga tilim kelishmadi. Battar hayqirdim. – O'zing shunaqasan! Hammang o'g'risan! Ana, bizning haqimizni o'margan o'g'ri! – og'zidan ko'pik chiqarib yotgan raisga imo qildim. – Mana o'g'riboshi,

zavod direktori bilan pul taqsimlaydi! – xumdek kallasini salanglatib hamon men tomonga yulqinayotgan Jovlining basharasiga tupurdim.

Kulrang shlyapali vakil yelkandan quchdi.

– O‘zingizni bosing, uka! Hammasini aniqlaymiz!

– Qo‘yvor! – dedim tipirchilab. – Hammasini aytaman! Shaydul kassir paxta o‘rniga paxtapunktga pul olib borgan. Panji uylanganiga besh yildan oshdi! Haliyam qarzidan qutulgani yo‘q! Maosh ololmaydi.

– Qo‘ying, Qo‘shoqjon! Uyat bo‘ladi! – soqoli qirtishlangan qaynotam yaqin kelgan edi, iflos narsani ko‘rgandek yuzimni o‘girdim.

– Yo‘qol, qo‘shmach!

Allaqayoqdan taqirbosh Viktorov paydo bo‘ldi.

– Nu, durak! – dedi yaltiroq boshini chayqab. – Ay durak, a? Kup gapirma, axmak!

– Sen ahmoq! Sen poraxo‘r!

– Militsiya! – olomon orasidan raykom buvaning hokimona xitobi yangradi. – Militsiya bormi o‘zi bu xo‘jalikda!

– Mana senga melisa! – dedim xunuk qiliq qilib. – O‘sha pullardan senam ulushingni olgansan. Obkom vakili ham. Bo‘lmasa, Ergashevni nega qamatdilaring? Halol odamni nega turmaga tiqdilaring! Hammang o‘g‘risan! Hammang haromxo‘rsan. Bijdonsizlar! Yegan-ichganlaring – harom, kiygan kiyimlaring – harom, topgan-tutganing – harom. Mana, ot! O‘ldir. O‘ldirib qo‘ya qol! Jonimdan to‘yib ketdim!

...Keyin nima bo‘lgani esimda yo‘q.

\* \* \*

Ko‘zimni ochsam, derzasiga temir panjara tutilgan katalakdek xonada yotibman. Ko‘ylagim yoqavayron. Shimim loy. Etigim yechib olingan. Bir mahal eshik ochilib zahil yuzli, burnining uchi qizil, ko‘zlari ola-kula odam



ko'rindi. Turqi sovuq bo'lsayam kiyinishni boplarikan. Egnida oppoq ko'ylak, qirrasi chiqarib dazmollangan kulrang shim, gard yuqmagan qora tufli... Temir karavotdan turib, arang qaddimni rostladim. Negadir boshim sirqillar, suv ichgim kelardi.

– Salimov? – dedi u chaqchayib.

– Shunaqa shekilli, – dedim xotirjamlik bilan. Endi bu yog'i menga baribir! Qo'lidan kelganini qilmaydimi? Ajab, dilim ravshan edi. O'lay agar, nimaga shunaqa bo'lganini o'zim bilmayman... Faqat, otam bilan onamga achinardim.

– Xo'-o'sh... Mening familiyam – Qalandarov! Tergovchiman! – zahil yuzli kishi daftar-qalam oldi. Xonada kursi yo'qligi uchunmi, temir karavotga o'tirishga irgandimi, turgan joyida qo'lidagi qog'ozlarni titkiladi. Negadir kuldi. Qiziq, kulishi g'alati ekan. Xuddi kaltakesak chirqillaganga o'xsharkan. – Hurmatingiz zo'r, Salimov! Sizni ovora qilmaslik uchun kabinetga chaqirmay, shu yerning o'zida so'roq qilib qo'ya qolamiz. – To'satdan uning ko'zlari olayib ovozi qat'iy tus oldi. – Salimov! – dedi shiddat bilan. – Siz jinoyat kodeksining... – qip-qizil burnining uchini barmog'i bilan paydar-pay silab, allaqancha raqamlarni aytdi. – «v», «g», «d» moddalariga binoan jinoiy javobgarlikka molik ish qilgansiz! Birinchidan, qonuniy zagsdan o'tgan xotiningiz Nargis Qo'shshayevaning og'iroyoqliligini bila turib qorniga tepgansiz! Qasddan! Xotiningizni prejdevremenniy dard tutib qolgan. Siz jinoyatni yashirish uchun Qo'shshayevani rayon roddomiga mototsiklda olib borgansiz! Roddom eshigiga tashlab qochgansiz. Yaxshiyamki, grajdanka Qo'shshaevaning organizmi kuchlilik qilgan. Chaqaloq sog'-salomat tug'ilgan, – tergovchi sabziga o'xshash qip-qizil burnining uchini yana silab qo'ydi. Turgan joyida qog'oz titkiladi. – Xo'-o'sh! – dedi salmoqlab. – Uch kilo-yu, yetti yuz o'n etti gramm!

– Nima u?

Qalandarov hayron bo'lib, yuzimga qaradi.

– Nima, nima?

– Uch kilo-yu, yetti yuz o'n yetti gramm nima?

– Nima emas, kim? – Qalandarov yer tepinib hayqirdi. – Chaqaloqni aytaman, galvars! Sening qizingni! Xoxolab kulib yubordim.

– So'rab ko'rdingizmi, o'rtoq Qalandarov! Chaqaloq necha oyda tug'ilibdi? To'rt oylik bola salkam to'rt kilo bo'ladimi?

Qalandarov ko'zlari ola-kula bo'lib ketdi.

– Birinchidan, men senga o'rtoq Qalandarov emas, grajdanin tergovchi Qalandarovman! Ikkinchidan, savolni sen emas, men beraman! Xo'-o'sh... 31 oktyabr ...tfu! 30 oktyabrda soat yigirma ikkidan ellik to'qqiz minut o'tganda grajdanka Qo'shshayevani urib, roddomga tashlab qochgansan. Soat yigirma uchdan qirq ikki minut o'tganida «Mash'al» kolxozining raisi, oblast sovetining deputati, bir emas, oltita hukumat nishoni bilan mukofotlangan Toshmamat Alimovning uyiga mototsikl minib, bostirib borgansan. Mototsikl lyulkasida qasddan olib borgan boltang bo'lgan. Shu bolta bilan hurmatli o'rtoq Alimovning mehnatda erishgan yutuqlari uchun mukofot tarzida berilgan 50–91 KFL nomerli «GAZ-24» «Volga» mashinasini urib pachaqlagansan. Keyin etigingning qo'njidan tig'ining uzunligi 29 santimetrli suyak sopli pichoq chiqarib, o'rtoq Alimovni so'ymoqchi bo'lgansan. Boltani topdik. Mashina tagida yotgan ekan. Pichoq qani?

– Raisning qornida! Yorib ko'rsangiz topasiz! – dedim xotirjamlik bilan.

– Bas! – Qalandarovning burni battar qizarib ketdi. Nazarimda, bo'yni ham qizarib, oppoq ko'ylagining yoqasi lolarang tusga kirdi-yov! – Birinchi noyabr kuni nega Alimovni urding? Nega xizmat vazifasini bajarib

turgan rahbarni tepding? Nega bo'g'ding? Nega allaqanday ig'vogar Ergashevni himoya qilding?

Bilmadim, yana kulgim qistadi.

– Rais o'lmadimi hali?! – dedim iljayib. – Men uning kallasiga ketmon bilan uruvdim-ku!

– Shunaqami? – tergovchining zahil yuzi yorishdi. – Yozib qo'yamiz. Xo'-o'sh... Jinoyatchi Salimov Toshmamat Alimovni ketmon bilan boshiga urgan. Yaxshi! Yana? O'rtoq Mengliyevni-chi? Uniyam tepibsanku!

– Aniq esimda yo'g'-u, chamamda uni tepmadim. Chopdim. Ketmon bilan boshini chopib tashladim. Ketmon o'tkir edi-da! O'z ko'zim bilan ko'rdim! Rais ikkovining boshi uzilib, sapchadek dumalab ketuvdi. Paykaldak ikkala bosh haliyam yonma-yon yotgan bo'lishi kerak, o'rtoq...

– O'rtoq dema! – Qalandarov bir chaqchaydi-yu, yozishda davom etdi. – Yaxshi! Buniyam deloga tikib qo'yamiz. – U kaftlarini ishtaha bilan ishqaladi. – Bilasizmi, Salimov! – dedi mamnun jilmayib, hatto ovozi ham muloymilashib ketdi. – Shuncha jinoyat uchun sizni kamida o'n besh yil ozodlikdan mahrum qilish kerak!

– Balki otarsiz?

– Eng so'nggi chorani ko'rish ham mumkin! Albatta, bu yog'ini sud hal qiladi. Muhimi shuki, jinoyatchi aybini bo'yniga...

«Bo'yniga» deyishi bilan sapchib turib bo'yniga yopishgan edim, qizil burni ko'karib, dod soldi.

– Dejurniy!

Yoshgina navbatchi militsioner quyundek uchib kirib, qo'limdan tutdi. Tergovchi hansirab nafas olganicha chiyiladi.

– Senga eng oliy jazoni olib bermasam, Qalandarov otimni boshqa qo'yaman. Starshiy tergovchi bilan nachalnikka bugun, hozir raport yozaman!

Temir karavotga o'tirib, devor tomonga qarab oldim. Qo'lidan kelganini qilsin!

– Men shu yerdaman! Nima gap? – dedi kimdir eshik tomonda.

– O'rtoq starshiy tergovchi! – Qalandarovning yig'lam-siragan tovushi qulog'imga kirdi. – Og'ir jinoyat ustida qo'lga tushgan Salimov dopros paytida meni bo'g'ib o'ldirmoqchi bo'ldi. Mana! Bo'ynimni ko'rib qo'ying. Mana, barmoq izlari turibdi. Ruxsat eting, ekspertizaga borishga!

– Yo'qol! – starshiy tergovchi shunaqangi hayqirdiki, katalak xona zinqillab ketdi. Keyin jimlik cho'kdi. Xayriyat, daf bo'lishdi!

– Qo'sho... – boshim ustida shunaqangi tanish, shunaqangi mehribon ovoz eshitildiki, o'rnimdan turib ketdim. Burilib qarasam, xona o'rtasida Shodivoy turibdi. Qandoq yaxshi! Endi meni qadrdon do'stim, yo'g'-e, sobiq do'stim Shodivoy, starshiy tergovchi grajdanin Alimov so'roq qiladi! Xohlagan muddatni bo'ynimga iladi. Zo'rda, o'ldirsayam, do'st o'ldirsin!

Endi joyimga o'tirayotgan edim, Shodivoy ildam kelib qo'ltig'imdanda ko'tardi.

Voy jinni-ey! Tergovchi deganiyam jinoyatchini quchoqlaydimi hech zamonda!

Bir mahal qarasam, ko'ziga yosh to'lib turibdi.

– Shodi? – yelkasiga turtdim. – Jinnimisan?!

U yuzimga diqqat bilan termuldi.

– Qo'sho! – dedi ovozi xirillab. – Bilaman, senda gunoh yo'q.

Jahlim chiqib ketdi.

– E, esing joyidami, Shodi! Aybsiz odamni bu yerga obkeladimi? Otangni urganim – rost! Qorniga pichoq sanchganim rost! O'lmay qolgan ekan, ertasiga Jovli ikkovining boshini ketmon bilan chopib tashlaganimam to'g'ri! O'sha

ketmon shiyponda turibdi. Birov ilib ketmasidan toptirib qo'y. Xotinimning qorniga tepganim ham – rost. Bo'lmasa, to'rt oyda tug'armidi!

– O'chir! – Shodivoy shusiz ham varvarak bo'lib ketgan ko'ylagimning yoqasiga yopishdi.

– Ko'ylakni yirtding, xumpar! – dedim baqirib.

– Qo'sho! Qo'shshayeva bilan gaplashdim. Senga hech qanaqa da'vosi yo'q, – Shodivoy ko'zimga tikildi. – Ayb – boshqalarda! Sen begunohsan.

Qarasam, yig'lab yuboradigan! To'g'risini aytsam, jo'ramga rahmim keldi.

– Shodi-i! – dedim yalinib. – Bitta xo'p de, jon o'rtoq! Meni qamatgi-in! Necha yil bersang ham g'ing demayman.

– O'chir!

– Shoshma, munday o'tirgin, jo'ra! – Shodivoyning yelkasini silab, yonimga o'tqazdim. – O'zing o'ylab ko'r. Sen yosh kadr bo'lsang. Besh yil bekorga o'qidingmi? Qancha qiynalding, to'g'rimi? Ta'til paytdayam qishloqqa kelmading. Otang seni o'qitaman deb shuncha ovora bo'ldi...

– Otam?! – Shodivoy shu qadar alam bilan ingrab yubordiki, o'zimning ham ko'zimga yosh quyilib keldi. Jo'ram temir karavotda cho'kkanicha yuzini kafti bilan to'sib, uzoq o'tirdi. Nima deyishni, nima qilishni bilmasdim.

– Qo'y, Shodi-i, xafa bo'lma... – dedim sekin.

– Otam... – Shodivoy qo'llarini tushirdi. Ko'zida, odamning yuragini ezib yuboradigan alam bor edi. – Qandoq bosh ko'tarib yuraman, bu yerlarda, jo'ra! – dedi ingrab. – Kim degan odam bo'ldim?! O'n bitta nevaralik odam o'n sakkiz yashar qizni shu ahvolga solsa! Hamma narsani pul bilan o'lchasa. Harom-xarish yo'llar bilan obro' topsa. Enamning ko'ziga qandoq qarayman, do'stim. Opalarimning ko'ziga qandoq qarayman!

– Bo‘ldi, jo‘ra, bo‘ldi! – dedim yelkasiga qoqib. –  
Hammasi yaxshi bo‘ladi.

– Bilasanmi, Qo‘sho! – jo‘ram baqirib yubormaslik uchun titrab turgan labini tishladi. – Viloyat ichki ishlar boshqarmasida shu ishni menga topshirishdi. Sening ishingni! Otam bilan raykom ataylabdan viloyatga borishgan. Mening qo‘lim bilan sendan qasos olishmoqchi. Tushundingmi?

– Yaxshi bo‘pti! – dedim yengil tortib. – Meni qamatsang, qutulasan! Otangni urganim rost-ku!

– Ahmoq! – Shodivoyning ko‘zida vahimali o‘t porladi. – Meniyam o‘zingga o‘xshagan tentak deyapsanmi, ahmoq! Sal hovridan tushirmasam bo‘lmaydigan.

– Shodi-i, – dedim yalinib. – Otang seni besh yil ne umidlar bilan o‘qitdi, jo‘ra...

– Ovsar! – Shodivoy alamli kuldi. – Bilaman, o‘qitdi. Har sessiyada sovg‘a-salom, dasta-dasta pul jo‘natdi. Aytsam, baribir ishonmaysan! Men o‘sha pullarni qaytarib yuborardim. O‘qishga pul bilan kirganim yetadi. Endi bu yog‘iga... – u bir nuqtaga tikilganicha uzoq jimib qoldi. Ma‘yus kulimsiradi. – Men yuristlar eng halol odam derdim. Adliya so‘zi – adolat so‘zidan olingan derdim. Qadimgi yunonlarning Femida degan xotin xudosi bor. Adolat o‘shandan qolgan, deb o‘qitishardi. Rost, domlalarimiz orasida halol odamlar ko‘p edi. Ammo har zachyotga pul yig‘ib oladigan ablahlar ham bor edi, Qo‘sho! Ishonasanmi shunga! – u alam bilan bosh chayqadi. – Avval boshi men o‘qimoqchi emasdim. Sen qayerda bo‘lsang, men ham shu erda bo‘lmoqchi edim. Keyin o‘sha tamagir domlalarini ko‘rib, oxirigacha o‘qishga qasd qildim. Shuning uchun ta‘tilda Qozog‘iston, Rossiyada jon kuydirib ishladim. Bu yoqlarga qaytmoqchi emasdim.

– Baribir kelding-ku, – dedim boshqa gap topolmay. Shodivoy xo‘rsindi.

– Keldim emas, yuborishdi.

– Bo‘pti-da, ishlayver.

Jo‘ram labining bir burchi bilan iljaydi.

– Oson ekan-da! O‘z otangni so‘roq qilish o‘yinchoq ekan-da! O‘sha aldam-qaldamlarda otamning ham qo‘li bor-ku! Hammasining ildizi bir-ku.

Qarang, bu yog‘ini o‘ylamagan ekanman. Shodivoy shu qadar ma‘yus o‘tirardiki, jo‘ramga yuragim tuzdek achib ketdi.

– Qo‘y, jo‘ra! – dedim boshini silab. – Xafa bo‘lma. Meni qamatsang...

– Yana gapiradi-ya! – Shodivoy yeb yuborgudek vajo-hatda chaqchaydi.

– Quloq solsang-chi, ahmoq! – dedim jahlim chiqib. – Meni qamatsang, hammasi joyiga tushadi.

– O‘zing ahmoq! – Shodivoyning ham jazavasi qo‘zib ketdi. – Eshakka o‘xshagan befahm. Qamatmayman!

– Qamatasan! Aybim bo‘ynimda-ku!

– Yo‘q!

– Qamatasan! – alam ustida temir karavotga mushtlagan edim, qo‘lim chunonam sanchib ketdiki, voy-voylab qoldim.

– Nima qildi, Qo‘sho? – jo‘ram qo‘limni kaftlari orasiga olib, silay boshladi. – Yomon tegdimi? Ikki qulog‘ing bilan eshitib qo‘y, do‘stim, seni qamatib qo‘ymayman.

– Shodi! – dedim yalinib. – Jon jo‘ra! Do‘stligimiz haqi! Meni qamatgin. Bitta jo‘ralik qilgin. Shunda o‘zinggayam yaxshi bo‘ladi.

## O‘n to‘qqizinchi bob

### GAPNING INDALLOSI YOKI QULOQQA CHALINGAN XABARLAR

Endi ishondingizmi, do‘xtirjon! Men jinoyatchi emasman, jinni ham emasman. Raisga pichoq o‘qtalغانimdan tonmayman. Urganim ham rost. Shuning uchun raisdan tortib Jovligacha, raykom buvadan tortib, obkom vakiligacha meni jinoyat kursisiga o‘tqazishga xo‘p urinishdi. Uch oygina qamashdi ham. Shodivoy bekorga besh yil o‘qimagan ekan. Shunaqangi g‘ayrat bilan ishga kirishib ketdiki, meni jinoyatchi deganlarning o‘zi dumini qisib qoldi. Omadim chopganini qarangki, turmushimizda g‘alati o‘zgarishlar bo‘ldi. «Ig‘vogar» deganimiz o‘sha Ergashev eng pokiza odam ekan. Qamoqdan chiqib kelib, u ham Shodivoyning yoniga kiribdi. Nargis – mard xotin ekan. Sudda meni oqlab chiqdi. «Salimovning qilchayam aybi yo‘q», – dedi. Ochiqdan-ochiq shunaqa dedi.

Shundan keyin ham meni to‘rt oy jinnixonada saqlashdi. Ba‘zi birovlar ko‘zdan uzoqroqda turishimni xohlagan-da!

Onamning aytishicha, qaynonam raisning xotini bilan rosa yulishibdi. «Ering qizimga aliment bersin», – deb to‘polon qipti. Raisning xotini: «Bobosi tengi erkakning to‘shagida yotgan g‘ar qizing kuchala yegan joyiga borib qotsin», – debdi. Shundan keyin hammasi bir-birining tagini kavlashga tushib ketibdi. «Ferma tog‘a» Shaydul kassirni ayblabdi. Shaydul kassir boshbuxni, boshbux raisni, rais Jovlini, Jovli Raykom buvani, Raykom buva obkom vakilini! Xullas, hammayoq to‘s-to‘polon bo‘lib ketibdi! Ergashevning bular paxta o‘rniga pul topshiradi, degani rost ekan. O‘sha pullardan bir ulushini rais hovlisidagi tokning temir so‘risi orasiga tiqqan ekan, suv sizib, allaqanchasi



chirib ketganini ko'rib afsuslanibdi. «Aslida salapan xaltani besh-olti qavat qilsam bo'larkan», – debdi.

«Ferma tog'a»ning pichan g'aramidan yana bitta «Volga» chiqibdi. Bunisi oq emas, qaymoqrang emish. Shaydul kassir o'z hissasini pat-patning eski balloniga tiqib, chordoqqa tashlab qo'ygan ekan. Pulni topib olishganida ikkita xotini bilan qo'shilishib rosa yig'labdi.

Hammadan ham Jovli g'alati yo'lini topgan ekan. Bor bisotini temir idishga joylab, hojatxonaga tashlab qo'ygan joyidan sug'urib chiqarishibdi. Hayronman, bunaqa joyda yotgan narsani nimaga ishlatmoqchi bo'lganiykin? Sasib-bij'ib, harom bo'lib ketmaydimi?

Taqirbosh Viktorov – quv ekan. Tekshir-tekshir boshlanganida Shodivoyga ariza ko'tarib kepti. «O'rtoq Alimov, men oblastimizda ro'y berayotgan pripiskalarni ko'pdan beri kuzatib yurardim», – deb raisdan tortib raykom buvagacha, obkom vakiligacha, hammasining sirini aytib beribdi. Shodivoy: «O'zingiz shu ishlarga aralashmaganmisiz?», – desa, men kristalniy, chistiy odamman, deb turib olibdi. Ertasiga Viktorovning hovlisidagi cho'chqaxonadan diplomat to'la pul, yana allaqancha oltin-javohirlar chiqibdi. Tekshiruvchilar, bu nima, deyishsa, Viktorov yelka qisibdi. «Dunyoda cho'chqadek ahmoq jonivor yo'q, ko'chada uchragan narsani tashmalab kelaveradi-da», deb turaveribdi. «Bir metr chuqurni kavlab, xazinani ko'mgan ham cho'chqami?» – deyishsa, indamay kulib turganmish.

O'sha – oting o'chgur jinnixonada yotganimda jonimga yana Shodivoy oro kirdi. Markazdan katta professorni chaqirib, meni tekshirtirib ko'rdi. Xayriyat, ruhiy kasal emas ekanman.

Uyga kelsam... Uyga kelsam, otam qazo qilganiga qirq kun bo'lgan ekan. Shu gapni eshitdim-u to'satdan yiqilib tushdim. Hushimga kelib, oynaga qarasam, o'ng yuzim oqib tushay degan nondek cho'zilib ketibdi. Bir ko'zim katta,

bittasi kichik... Sizning nervologicheskiy bo'limingizga qandoq qilib kelganim ham esimda yo'q.

Rahmat, sizga do'xtirjon! Yaxshi davoladingiz. Mana, ko'zim ham joyiga kelib qoldi. Avval g'o'ldirab gapirardim. Shukur, tilim ham biyron... Faqat, bilasizmi, do'xtirjon... Ba'zan kechalari uyqum o'chib ketadi. Otam nega o'ldi? Nargis nega baxtsiz bo'ldi? Begunoh bir qizaloq nega tug'ilmasidan tavqi la'nat oldi? Bilasizmi... Ayniqsa, Shodivoyga achinaman...

Ikki hafta oldin Shodivoy meni ko'rgani keldi. Qilichdek jo'ram ninadek bo'p qopti. Rangida rang yo'q. Katta tergov boshlanganda rahbarlardan iltimos qipti. «Meni shu ishdan ozod qilinglar, o'z otamni qandoq so'roq qilaman?» – debdi. To'g'ri-da! U yoqda onasi, bu yoqda opalari, o'z otangdan ayb izlagandan ko'ra o'lganing yaxshimasmi, deb tursa, bu yoqda ming-ming pullar topilib tursa... Boshliqlari jo'ramning ahvolini to'g'ri tushunibdi. Ishni boshqa tergovchiga olib berishibdi. Shunda rais yana bir nomardlik qipti. Shodivoyga aytibdi. «Yangi tergovchiga shipshib qo'y, shu ishni bosti-bosti qilib yuborsa, men, Jovli, fermer, Shaydul, raykom, obkom vakili – hammamiz yig'ilishib, nechta desa, shuncha mashina, qancha desa shuncha pul topib beramiz», – deпти. «Shundan qanchasini xohlasang, o'zing olib qolishing mumkin», – deпти.

Ishonasizmi, do'xtirjon, jo'ram shu gapni ayta turib, yuragi yomon bo'p qoldi. Karavotimga yiqilib tushdi. Yaxshiyam hamshira bor ekan, ukol qilib zo'rg'a o'ziga keltirdi. Shodivoy hushi joyiga kelib yig'ladi. «Qo'sho, – dedi, do'stim, – o'z otam menga pora bermoqchi bo'lsa qandoq chidayman, nahot hammayoq shunaqa harom-harish bo'p ketgan bo'lsa», – dedi.

Amallab yupatib jo'natdim. Shunaqa, do'xtirjon, ayniqsa, jo'ramga jabr bo'ldi!

Charchadingiz-a, do‘xtirjon! Mayli, dam oling. Endi... Bitta iltimos bor. Hamshiralaringizga aytsangiz: tuzalib qoldim. Chap dumbanga nina sanchaverib, ilma-teshik qilib yubordi. Nima? O‘ng tomonga nina o‘tmaydi-da, do‘xtirjon! «Qalliq o‘yin»ga borib o‘ng tomondan ayrilganmiz. Qoq yarmisi Reksjonning og‘zida qolib ketgan. Qolganiyam – etikning tagcharmi! Hamshiraning ninasi sinib qoladi. Xo‘p deng, boshqa ukol qilmasin, do‘xtirjon! Kecha Shodivoy yana kelib ketdi. Menga tezroq javob bering. Xo‘pmi? Shundoq qiling, do‘xtirjon! Ishni sog‘inib qoldim. Dalani, paxtazorni qo‘msayapman. Terlab-pishib ishlagim kelyapti. Bo‘ptimi, do‘xtirjon! Rahmat! Qo‘lni tashlang...

*1987 yil*

# Hajviy hikoyalar



## «AJDAR»NING TAVBASI

E, nimasini so'raysiz, aka! Bu gaplarning hammasini aytishga aytaveraman-ku, kitob qilib yozsangiz, xotinxo'ja o'qib qolsa, xafa bo'lib yurmasin, deyman-da!

Ko'p yillik tajribamdan kelib chiqib aytamanki, ichadigan odam bir kunda roppa-rosa uch marta o'zgaradi. Ertalab ko'nglida aroqqa nisbatan cheksiz nafrat bilan uyg'onadi. Peshinga borib, nafrat o'rnini sekin-sekin loqaydlik egallaydi. Kechqurun esa cheksiz nafrat – otashin muhabbatga aylanadi.

Ertasiga hammasi qaytadan boshlanadi. Uyg'onsangiz, boshingiz g'am! Nafas olsangiz, ichingizga havo emas, olov kirayotgandek. Og'zingiz, erinmasdan bir hovuch achchiqtosh chaynagandek taxir! Qo'lni ayting, qo'lni! Baayni Ikkinchi jahon urushida kontuziya bo'lgan dushman askarniki! Quloqni qashlayman, desangiz ko'zingizga kirib ketadi! Birov «kecha nima ovqat yeganding?» deb so'rasa, «o'zimning otim esimda yo'g'u, ovqatni so'raysan-a, nomard» degingiz keladi...

Shu masalada omadim bor ekan. Otim nimaligini xotinxo'ja har kuni bir martadan eslatib turadi. Uyg'onmasimdan boshim ustida «mehr to'la» ovozi yangraydi:

– Azlar emas, Ajdar bu, Ajdar! Yoshi qirqqa chiqib qilcha aqli kirmagan noinsof, umrimni xazon qildi! Uchta bola nima yeb, nima ichayapti, demasa, ro'zg'or nochorligidan uyda sichqonlar hassa tayanib yursa. U yoqda kunora elektrchi kelib chirog'ingni o'chirib ketaman, gazchi kelib gazingni quvurini kesib tashlayman, desa... Bu Ajdarning parvoyi palak! Qizimizning bo'yi yetib qoldi, munday odamlarga o'xshab bisot-misot yig'ayap-sanmi, onasi, deyish o'rniga xudoning bergan kuni bo'kib

ichsa! Ichaverib, ichaverib, kompyuteri sinib qolgan buning!

Bular – xotinxo‘ja bisotidagi eng «shirin» so‘zlar. Xoh ishonib, xoh ishonmang, hovlimiz yoz bo‘yi ari bozoriga aylanib ketadi! Har qovog‘arilarki, uchsa, bombardimonchi samolyot keppoldimi, deysiz! Ammo ular birovni chaqmaydi. Aksincha, xotinxo‘janing tilidan «zapravka» qilish uchun navbat kutib turadi! Xohlagan odamingiz bilan bir emas, ikki yashik aroqdan garov boylashib aytamanki, agar qarg‘ish bo‘yicha musobaqa o‘tkazilsa, bizning xotin Toshkentda emas, butun boshli O‘zbekistonda ham emas, dunyoda birinchi o‘rinni oladi!

Ana, o‘zingiz eshitib ko‘ring.

– Bir yil yuvilmagan paytavadek g‘ijimlanib ketgan tusingni yel yesin! Tullagan itning dumiga o‘xshagan mo‘yloving uzilib tushsin! Benzovoz hidi anqib turgan og‘zingga qo‘rg‘oshin quyilsin!

... Boshi g‘um bo‘lib, ko‘ngli gum-gum ketayotgan odamga yoqadimi shu gaplar? Yotgan joyimda luqma tashlayman. (Gapni chalg‘itish kerakmi, axir?)

– Avtodorojniyni bitirganmisan, onasi, benzovozni qayoqdan bilasan?!

Xotinxo‘ja «odam gapirdimi, mushuk miyovladimi» deb qayrilib qaramaydi. Ammo endi tovushi jaranglab chiqa boshlaydi:

– Xumga qamalib qolgan aridek g‘o‘ng‘illagan ovozing o‘chsin! Laylakning inidek paxmaygan sochingga o‘t tushsin! «Vosmyorka» g‘ildirakka o‘xshab qing‘ir-qiyshiq qadam tashlaydigan oyog‘ing «Kamaz»ning tagida qolsin! Choyga tuz solib, «nega shakaring shirinmas» deb piyolani otib sindirgan qo‘llaring akashak bo‘lsin! Tappiga tushgan munchoqdek yiltirab turgan ko‘zlaringga snayperning o‘qi tegsin! Makaron sho‘rva ichib, «nega lag‘moningni xamiri o‘qlovdek» deb onamni so‘kkan tillaring elektricheskij myasorubkada qiyma-qiyma bo‘lsin! Oftobda qolgan

baqlajondek burishgan burning irib tushsin! Qosim qatiqchining obkashidek qomating lahadda chirisin! Koshkiydi chirisa! Chirimaydi. Birov go‘ringni ustiga qamish suqib gugurt chaqib yuborsa, «vechniy alanga» bo‘lib qirq yil yonadi! A‘zoyi badaning spirtga aylanib ketgan!

O‘zingiz insof bilan ayting-chi, shuncha gapdan keyin aroq degan dardisarni yomon ko‘rmay bo‘ladimi? Shunaqaku, kechga yaqin tomoq jonivor «taqillagani» chatoq...

Yo‘q, insof beraman, desa hech gap emas ekan. Ichishni tashladim. Bir kunda! Bunga bir voqea sabab bo‘ldi.

Ertalab otim «ajdar»ligini qachon eshitarkanman, deb kutib yotsam, qulog‘imga «Turaqoling, adajonisi, choyingiz sovib qoladi...» degan ovoz kirdi.

«Shu o‘zimning «egovim»mi» deb ko‘zimni amallab ochsam, tepamda jilmay-i-i-ib turibdi. «Tug‘ilgan kuningiz muborak bo‘lsin! Umrijoningizga xudo baraka bersin!» – deb u yuzimdan, bu yuzimdan o‘pdi. O‘payotganda og‘zimdan kelgan «muattar» hiddan xiyol chimirildi-yu, sezdirmadi. Buni qarang, tug‘ilgan kunimizniyam paqqos unutib yuboribmiz... Ishga ketayotganimda yap-yangi, qordek oppoq ko‘ylak, qirrasini chiqarib dazmollangan shim, oyog‘imga «turetskiy» tufli kiygizib qo‘ydi. Faqat ko‘cha eshikka yetganimda: «Adajonisi, aqalli shu bugun ichmang, ertaroq kelib, bolalaringiz bilan yayrab o‘tiring, osh damlab qo‘yaman», – dedi...

O‘zimning niyatim ham shu edi-ku-ya, xira ulfatlar tug‘ilgan kuningni «yuvmay-sanmi» degandan keyin qayoqqa qochasiz?

U yog‘i o‘zingizga ma‘lum: bir boshlandimi, «tormoz» ishlamay qoladi...

Buni qarangki, avtobus bekatida bitta xotin tuxum sotayotgan ekan. Har kuni quymoq yesa kerak, o‘zining yuziyam hafsala bilan yuvilgan tuxumdek yiltirab turibdi. Xotinxo‘janing oldiga quruq bormaslikka bahona

topilganidan xursand bo'ldim. Bir «reshyotka» tuxum oldim. O'ttizta bo'larkan. Olishga oldim-u, qandoq ko'tarib ketishga hayronman. «Reshyotka» deganini ikki qo'llab ko'tarish kerak. Ikki qo'lim band bo'lsa, oyoq jonivor xotinxo'ja aytgandek «vosmyorka» g'ildirakka o'xshab chalkashib ketayotgan bo'lsa, avtobusga qandoq chiqaman-u, qaysi qo'l bilan nimani ushlab turaman?! Tuxumchi xotin eslikkina ekan. Tuxumlarni salapan xaltachaga solib berdi. «Ehtiyot qiling» deb tayinlab ham qo'ydi.

Avtobus kelganini bilaman. «Mindi-mindi» bo'lib ketgan avtobusga orqa eshikdan bir amallab kirganim ham esimda... Uyog'i nima bo'lgani yodimda yo'q...

Bir mahal hammayoq qiy-chuv bo'pketdi. O'rislar «cho'rt-po'rt» degan, o'zbek xotinlar «xurmachangga siqqanicha ichsang o'lasanmi» deb chinqirgan... Mo'ylovi menikidan ham qalin bir yigit yoqamdan oldi. La'nati shtangachimi, nima balo, har bilagi choynakdek keladi. (Chipta sotuvchi ekanini keyin bildim).

– Hammayoqni rasvo qilding-ku, ahmoq! – dedi bo'kirib.

Munday razm solsam, avtobusning old tomonidagilar «press» bo'pketgan, men turgan tomon bo'm-bo'sh! Singan xom tuxumning hidi g'alatiroq bo'lishini o'shanda bildim... Bunaqa is qayerdan kelayпти, deb qaragam... Xotinxo'ja sovg'a qilgan ko'ylak, qirradi chiqarib dazmollangan shim oqish-sarg'ish shilimshiqqa belangan.

Nima bo'lganini shunda tushundim. Xullas, tiqilinch avtobusga omon-eson chiqqanman. Keyin issiq elitganmi, boshqami, turgan joyimda pinakka ketganman... Qo'limdagi «yuk» og'irlik qilgan chog'i, xuddi to'rva ko'tarayotgandek, salapan xaltachani elkam oshirib orqaga tashlaganman. Tuxumlar «sharaq-shuruq» qilib singan. Po'chog'i salapan xaltani yirtgan. Keyin o'ttizta tuxum butuniyu sinig'i aralash-quralash bo'lib avval belimga, undan boldirga,



keyin yerga tushgan. Yap-yangi ko'ylak-shim tuxumning «muborak» «kokteyli»ga belangan.

Oyoq bossam, «turetskiy» tuflim «sho'lo'q-sho'lo'q» qiladi.. Eng yomoni, atrofimda turganlar ham «quymoq»-dan benasib qolmabdi. Salkam ellik kishi avtobusning old tomoniga qochib, bir-biriga qapishib qolgani shundan ekan!

... Ertasiga xotinxo'janing so'z boyligini to'ldirgan yangi qarg'ishlarni kutib uzoq yotdim. Qiziq, bu gal u qarg'amadi, yig'lamadi... Faqat bir og'iz so'z aytdi:

– Ajrashamiz! Sudga ariza berib qo'ydim!

Bunaqa paytda qo'l keladigan eng sinalgan qurolni ishga soldim.

– O'zimni o'ldiraman! – dedim komil ishonch bilan. – O'lsam, men ham qutulaman, sen ham!

– Rostdanmi? – xotinxo'ja astoydil ajablandi. – Bu gapni ming birinchi marta eshitayapman!

– Yo'q! – dedim bosh chayqab. – Bu galgisi oxirgisi! O'zimni osaman!

– Shunaqami? – xotinxo'ja shitob bilan uydan chiqib ketdi. Zum o'tmay bir qo'lida ikki quloch arqon, bittasida o'rta barmoqdek keladigan «ikki yuztalik» mix, zanglab ketgan tasha ko'tarib kirdi. (Oldindan tayyorlab qo'yganmi, nima balo).

– Erkak kishining gapi bitta bo'ladi! O'zini osmagan nomard! – dedi-yu, chiqdi-ketdi.

O'tirib-o'tirib, o'zimga nash'a qildi. Xayolimga g'alati o'y keldi. Ayvondagi stolni ko'tarib yotoqqa obkirdim. Ustiga chiqib, vassajuftga mix qoqdim. Arqonni bog'lab tortib ko'rsam, pishiqqina. Menga o'xshagandan ikkitasini bemalol ko'taradi! Qo'l jonivor «kantuziya» bo'lsa-da, sirtmoqni binoyidek qilib tugdim. Boshimni suqib ko'rsam, lop-loyiq! Ana endi xotinxo'janing kelishini kutamiz!

Bir mahal darvoza g'iyqillab ochildi. Sirtmoqni bo'ynimga ilib, poylab turdim. Ayvonda qadam tovushi

eshitilgach, boshimni xuddi osilgan odamnikiga o'xshatib bir tomonga qiyshaytirdim. Ko'zimni yumib oldim. Hatto tilimni jichcha chiqarib, «tishlab olgan» ham bo'ldim. Hammasi «naturalniy» bo'lishi kerak-ku!

Faqat oyog'imning uchini stolga tirab olganman. Sirtmoq ham tomoqda emas, engakda. (O'ladigan ahmoq bormi!)

Xotinxo'janing yotoqqa kirganini sezib turibman. Bir mahal «Voy o'lay!», «Voy o'lmasam!» degan xitob eshitildi. «Ha-a-a! Guldek eriga o'lim tilash qanaqa bo'larkan?» – dedim ichimda. Bilib turibman, hozir «arslonimdan ayrildim» deb dod soladi, oyog'imga yopishib yig'laydi.

Hali kutaman, hali kutaman, hech gapdan darak yo'q. Birpasdan keyin allanima «to'p-to'p» etdi. Bir narsa g'iyqilladi... Hayron bo'lib, bir ko'zimni ochsam, uyga kirgan xotanim emas, qo'shnimizning ayoli – kennoyi bemaolol cho'kka tushib o'tiribdi. Ustidagi ko'rpa-to'shaklarni ag'darib tashlab sandiq titkilayapti. Shu xotinning qo'li egiroq, deb eshitgandim. Rostdan ham sandiqdan xotanim ne hasratda qizimizga yiqqan bisotlarni yulqib olayapti. Atlaslar, adraslar, chiroyli «upakovka» qilingan jemper... Indamay tursam boshini sandiq ichiga suqib, qirtillatib burchak-burchaklarni kavlashtirishga tushdi. Tilla taqinchoq izlayapti shekilli! Buyog'iga chidoldim.

– Hormang, kennoyi! – dedim. Ovozim shunaqangi g'o'ldirab chiqdiki, o'zim ham hayron qoldim. – Ja-a, shilib yubordingiz-ku! – dedim.

Kennoyi sandiqdan boshini chiqarib men tomonga qaradi. Ko'zi ola-kula bo'p ketdi. Hozir dodlab qochib qoladi, deb tursam, dodlamadi ham, qochmadi ham. Faqat ichidan «g'iyq» etgan sado chiqdi. Keyin iyagi bir tomonga qiyshangancha yana ikki marta «g'iyq-g'iyq» dedi-da, yonboshiga ag'darildi. Qo'rqib ketdim. Sirtmoqni bo'ynimdan olib tashlab, sakrab yerga tushdim.

– Turing, kennoyi, odamni qo‘rqitmang! – deb yelkasiga kaftimni bossam, qilt etmaydi. Ko‘zlari bir nuqtaga baqrayib qolgan. Oqi bor, qorasi yo‘q!..

... Yomon ayol emas edi, rahmatlik... Ma‘rakasining bir chetini ko‘tarishib yuborishga to‘g‘ri keldi. Nima qilsayam ko‘zdek qo‘shni...

O‘shandan beri butilka degan makruhni uyga yo‘latmayman. Mineral suv olsak ham «bakalashka»ligidan olamiz... Yaqinda qizimizni uzatdik.

Xotinxo‘jani aytadaysizmi?! Bir emas, ikki yashik «sprayt»dan garov boylashib aytamanki, agar olqish bo‘yicha musobaqa o‘tkazilsa, bizning xotin dunyoda birinchi o‘rinni oladi! Ana, o‘zingiz eshitib ko‘ring.

– Nur yog‘ilib turgan yuzlaringizdan aylanay! Daryolarda suzib yurgan qunduzdek qop-qora mo‘ylovingizning qurboni bo‘p ketay! Yulduzdek charaqlab turgan ko‘zlaringizni yomon ko‘zdan asrasin! Gul hidi keladigan nafasingizdan o‘rgilay! Yurganda yer titraydigan oyoqlaringizga qoqindiq bo‘lay! Qo‘ng‘iroqdek patila-patila sochlaringizga jonim tasadduq! Chinordek bo‘ylaringizga bo‘ytumor!

... Ichishni tashlasangiz, siz ham xotindan shunaqa gaplar eshitasiz!

## JINNI BO‘LISH OSON EKAN

Birodarlar! Odam-chi, vey, xohlasa bir kunda telba bo‘lishi mumkin ekan, qandoq jinni bo‘lganini o‘zi bilmas ekan. Kasalxonaga qachon keldim, kim opkeldi, esimda yo‘q. Ammo birinchi qor yog‘ib turgan o‘sha qurib ketgur oqshom aniq yodimda. Shunday qilib desangiz, ishdan chiqdig-u, panjara devor oldida gijinglab turgan yap-yangi «jiyrontoy»ning eshigini ochdik. Oynani qor bosib qolgan ekan, avval artdik, keyin oyna tozalagichni o‘rnatdik. Shig‘illatib haydab ketdik. Trolleybus bekatida turgan odamlardan kamida o‘ntasi qo‘l ko‘tardi. To‘xtatmadik!

Esimni yebmanmi to'xtab! Sen-ku, savob bo'lar deb to'xtaysan, DAN xodimi ko'rib qolsa, kirakashlik qilyapsan, deb taloningni teshib beradi. Bekatdan ellik qadamcha o'tganimda bir jonon shunday himo bilan qo'l ko'tardiki, tormozni qanday bosganimni o'zim bilmay qoldim. Mashina yangi qor tushgan asfaltda sirg'anib borib, shundoqqina jononning oyog'i oldida to'xtadi. Eshikni ochishim bilan jonon lip etib, yonimga o'tirib oldi. Dimog'imga shirin atir isi kirdi. O'ziyam oppoqqina, do'mboqqina. Plashchining yelkasiga qor qo'nib, jiqqa ho'l bo'lib ketibdi. Qayoqqa borishini so'ramasimdan o'zi gapirib qoldi:

– Pechkangizni yoqing, sovuq qotdim.

Pechkani varanglatib qo'yib yubordik.

– Pochchamlar ertalab palto kiygizib yubormabdilar-da?! – dedim iljayib. «Jonon» ochiqqina ekan.

– Pochchangiz avval o'zlarini eplasinlar! – dedi tamanno bilan. – Mashinangiz yangi ekan, hidi kelib turibdi. Markasi qanaqa?

Mashina markasini aytdik. Keyin odob bilan so'radik:

– Siz-ku, mashinamning otini bilib oldingiz. Endi mashinam ham sizning otingizni bilsin-da.

«Jonon» shirin jilmaydi.

– Lyolya!

– Lolaxon ekansiz-da. O'zingiz ham xuddi lolaga o'xshab...

– Lolaxonmas, Lyolya! – dedi u gapimni kesib.

– E, La'lixon deng?!

– Qanaqa La'li? – u arazlab labini cho'chchaytirdi. –

Lyolya!

– Hay Lyolya bo'lsa, Lyolya-da! Yo'limiz bir ekan. Gaplashib ketdik. Lyolyaxon atelyeda dizayner bo'lib ishlarkanlar. Pochchamiz «predprinimatel» ekan. Uyg haftada bir kelarkan. Shu gapni eshitganimdan keyin shayton yo'ldan ozdirdimi, boshqami, bilmayman. Xullas, mashinani qanday qilib garaj tomonga burganimni o'zim

ham bilmay qoldim. O'lay agar, ko'nglimda yomon niyat yo'q edi. Shunchaki, Lyolyaxon bilan birpas hangomalashib o'tirgim keldi. Domimizdan yuz qadamcha naridagi temir garaj oldida to'xtaganimizni ko'rib Lyolyaxon ipdek qoshini chimirdi.

– Hormang!

– Bilasizmi... – dedim chaynalib. – Mashina olganimga endi uch kun bo'ldi. Hali «yuvganimcha» yo'q... Shu... Siz bilan... Iltimos, meni to'g'ri tushuning...

Lyolyaxonga gapiryapman-u, ikki ko'zim domimizning beshinchi qavatida. Mashinada begona juvon bilan kelganimni xotinboy derazadan ko'rib qolsa bormi?! Xayriyat, Lyolyaxon zamonaviy ayol emasmi, meni to'g'ri tushundi. Mashina garajga kirishi bilan bu eshikdan men tushdim, u eshikdan – u.

– Siz o'tiravering! – dedim mashinaga imo qilib. – Issiqqina... Men g'izillab borib bitta shaman olib kelaman.

Lyolyaxon avvaliga nim qorong'i garajning burchak-burchagiga xavotirlanibroq qarab qo'ydi-yu, keyin xotirjam bo'ldi. Negadir temir-tersak asboblari solingan taxta yashikdan bolg'acha oldi.

– Mayli... – dedi bolg'achani salanglatib. – Bukvalno besh minut. Bo'lmasa... – U qo'lidagi bolg'acha bilan shiringina tahdid qilib qo'ydi.

– Uch minutda kelaman.

Hovliqib garajdan chiqdim-u, o'ylab qoldim. Xotinboy beshinchi qavat derazasidan qarab turgan bo'lsa... Garajni ochiq tashlab, allaqayoqqa gumdon bo'lganimni ko'rsa. Pastga tushsa... Yana qaytib keldim.

– Lyolyaxon! – dedim garaj eshigidan mo'ralab. – Kechirasiz, uch minutga ustingizdan qulflab ketaman. Tag'in biron olib qochib ketmasin sizni...

U og'zini ochishga ulgurmay garaj ilgagiga otning kallasidek qulfnini solib, sharaq-shuruq qulfladim-da, chorrahadagi do'konga qarab chopdim. Kechadan beri

ezilib yoqqan yomg'irdan keyin qor tushgani uchunmi, yer o'lgudek sirpanchiq. Harsillab chopib borayapman-u, ichimda o'zimga qoyil qolaman. Gapniyam ja olamanda, «Sizni o'g'irlab ketishmasin» dedimmi? Lyolyaxon bilmaydiki, xotinboydan qo'rqqanim uchun ustidan qulflab kelyapman. Mayli, mana hozir bitta shampan, bir plitka shokolad olamiz. Uch minutda qaytib boramiz...

Qo'ltiqda shampan, cho'ntakda shokolad. Magazinning oynavand eshigidan otilib chiqqanimni bilaman... Bir mahal ko'zimni ochsam, oppoq shiftli uyda yotibman. O'rnimdan turmoqchi edim, chap qo'lim chunonam zirqirab og'ridiki, jonim chiqib ketay dedi. O'n tomonimdan g'o'ldiragan ovoz keldi.

– Baxting bor ekan, yigit, qo'ling sinibdi. Menga o'xshab oyog'ing sinsa nima bo'lardi?!

Munday qaragam, olti kishilik palatada yotibman. Hammasi menga o'xshab, sirpanchiqda yiqilgan mayib-majruhlar... Gastronomga borganim, shampan olganim esimga tushdi. O'sha zahoti garajga qamalib qolgan Lyolyaxon lop etib ko'z o'ngimga keldi-yu, qo'limning og'rig'ini ham unutib, sakrab turib ketdim.

– Kalit qani?

– Nega baqirasan?! – deb haligi kishi yana g'o'ldiradi. – Kalitni boshingga urasanmi? Bir o'limdan qolganingga shukur qilmaysanmi, xumpar?

Cho'ntagimni kovlasam, hech vaqo yo'q! Shundagina shifoxona xalatini kiygizib qo'yishganini payqadim.

– Kalit qani? Soat necha bo'ldi? – dedim yig'lamoqdan beri bo'lib.

Palatadagi hamdardlar tong otib qolgani, soat yetti bo'lgani, kiyim-kechag-u kalit-malitlar «priyomniy pokoy»da bo'lishini tushuntirishdi. Gipslangan qo'limni changallab, «priyomniy pokoy»ga yugurdim. Iskaladchi xotin soat to'qqizda kelarkan. Dod deb yuboray dedim. Nima qilay? Uyga telefon qilsam, xotinboydan baloga

qolaman. Mayli, yiqildim, qo‘lim sinib, bannisaga tushdim, deyishga derman. Lekin tezroq borib garajni och, bir bechora qamalib yotibdi, kechasi bilan sovuqda tirishib qolgandir, deyolmayman-ku! Aqlimga balli! O‘ylab-o‘ylab yo‘lini topdim. Hamshira qizga do‘xtirning eshigini ochtirib, to‘rtinchi podyezdda turadigan Marat degan o‘rtog‘imga qo‘ng‘iroq qildim.

– Jon do‘stim, tezroq kel! – dedim yalinib. – Ammo bannisaga tushganimni xotinigga ayta ko‘rma.

Haqiqiy do‘st shunaqa paytda bilinarkan. Marat yarim soatda yetib keldi. Egnida palto, boshida telpak.

– Sovuqmi? – desam, qo‘llarini ishqalab diydiradi:

– Eshak o‘ldiradigan sovuq bo‘lyapti.

Do‘stimga ahvolni tushuntirdim. Iskaladchi xotin kelishi bilan kalitni oldik.

– Lyolyaxondan uzr so‘ra! – dedim eshikka yo‘nalgan Maratga. – Shundoq-shundoq bo‘p qoldi, kechirarkansiz, degin.

– Xotirjam bo‘l. Hammasini yest qilamiz.

– Shoshma! Avval Lyolyaxonni kuzatib qo‘ygin-da, keyin xotinboyga bu yoqda yotganimni ayt. Telefon qilsa band ekan, degin...

Do‘stim hovliga otildi. Ko‘nglim ancha joyiga tushib, palataga kirib yotdim. Obxod bo‘ldi. Navbatchi do‘xtir suyagim ikki joydan singani, kamida bir hafta yotishim kerakligini aytdi. Jahli tez bo‘lsayam, o‘zimizning xotinboy yaxshi-da! Ko‘rasiz, halizamon tovuq sho‘rva ko‘tarib keqqoladi. Cho‘loq bo‘lgan qo‘limni silaydi. O‘zingizni ehtiyot qilsangiz bo‘lmaydimi, deydi. Ko‘z yoshi ham qilib oladi. Mehribon-da!

Shirin xayol surib yotgan ekanman, palata eshigi g‘iy-qillab ochildi. Semiz sanitar xotin – taraq-turuq qilib, eski kushetka sudrab kirdi.

– Jinni bo‘lganmi bular hammasi! – dedi norozi to‘ng‘illab. – Biri yiqiladi, biri mushtlashadi. Bannisada bo‘sh joy qolmadi. Piyonistalar!

O'sha zahoti gavdali bir bemorni ikki qo'ltig'idan suyab olib kirishdi. Kasal bechoraning boshi doka bilan qalin o'ralgan, rangida rang qolmagan, mo'ylovi shalpayib turardi. Kushetkaga joy solishlari bilan bemor shilq etib o'zini tashladi. Tepasiga borsam... Mo'ylovi tanishdek ko'rindi. Sinchiklabroq qarasam o'zimning qadrdon do'stim – Marat!..

– Nima bo'ldi?! – jon holatda qichqirib yubordim shekilli, Marat amallab ko'zini ochdi.

– Dard bo'ldi! – dedi inqillab. – Balo bo'ldi! Garajingni eshigini ochganimni bilaman, ichkaridan bir alvasti yugurib chiqib, bolg'a bilan qoq peshanamga chunonam tushirdi, chunonam tushirdi... – U gapirishga madori qolmadi shekilli, yuzini devor tomonga o'girib oldi.

Egnimda bannisa xalati, oyog'imda shippak, ko'chaga otildim. Taksichi diydirab turganimni ko'rib rahmi keldi shekilli, gap-so'zsiz to'xtadi-yu, mashinasini aytgan tomonimga g'irillatdi. Yo'q, uygamas, o'zimning temir garajimga. Shunisi esimdaki, garaj lang ochiq turardi. Eng avval orqa kapot ustida yotgan bolg'aga ko'zim tushdi. Keyin... Nima desam ekan?.. Do'lda qolgan tappini ko'rganmisiz? Mening mashinam – uch kungina mingan mashinam xuddi o'shanaqa ahvolga tushgan edi. Oynalari chil-chil singan, tomi-yu kapotlari, orqa-oldi-yu yonboshlari bolg'a bilan pachoqlangan, shu qadar hafsala bilan, shu qadar erinmay, tartib bilan pachoqlangan ediki, aqalli nomiga bir qarich sog' joyi qolmagandi. Garajga qamalib qolgan Lyolyaxon kechasi sovqotib tarashaga aylanmaslik uchun xo'p g'ayrat qilgani ko'rinib turardi...

Odam qandoq jinni bo'lganini bilmas ekan. Kasalxonaga qachon keldim, qandoq keldim, kim obkeldi, esimda yo'q. Keyin, sal o'zimga kelganimda aytib berishdi. Avval gipslangan qo'limni tishlab irillabman. Keyin bolg'a bilan mashinamni qaytadan savalabman. Undan keyin shippak bilan qor tepinib xumordan chiqquncha o'ynabman... Bu yoqqa xotinboy bilan o'sha insofli taksichi olib kelibdi.



Mana, yotibmiz, endi. Xotinboy har kuni tovuq sho'ruva olib keladi. «Qo'yavering, jinni bo'lgan bitta sizmi», – deb yupatadi. Aytmoqchi, kecha xushxabar topib keldi. Uchinchi sinfda o'qiydigan o'g'ilchamiz temir-tersak topshirishda shahar birinchiligini olibdi.

## SHAHARLIK KUYOV

To'ng'ich kuyov bo'lganimiz uchunmi, qishloqqa borsak, darrov, shaharlik kuyov keldi, deb ovoza bo'lib ketadi. Olmoqning bermog'i bor, deganlaridek, tez-tez javob vizitlari ham bo'lib turadi. Yaqinda yana shunday bo'ldi. Ishdan qaytib eshikni ochishim bilan yangangiz Tursunoy yugurib ro'paramga keldi.

– Tsh... – dedi u ko'rsatkich barmog'ini labiga bosib. – Sekinroq. Namoz o'qiyaptilar.

– Kim? – dedim men ham beixtiyor pichirlab.

– Bog'bon amaki.

– Kim u, bog'bon amaki?

Tursunoy shuncha yildan buyon bog'bon amakini tanimaysizmi, degandek qoshini chimirdi.

– Qishloqda u kishini hamma taniydi. Xudo yalraqab bir kelib qolibdilar.

Sekin yechinib, oyoq uchida uyga kirdim. Bog'bon amaki televizorning antennasini mo'ljallab sajdaga bosh qo'ygan ekanlar. Anchadan keyin bosh ko'tarib, o'ng tomonga, chap tomonga salom berdilar-da, qaddilarini rostlab menga o'girildilar.

– Assalomu alaykum, kuyov bola! Xo'p salomatgina bormisiz? – bog'bon amaki bilan birinchi marta ko'rishib turgan bo'lsak ham eski qadrdonlardek quchoqlashdik. Odamni bir qarashda bilsa bo'ladi. Bog'bon amaki ko'p odamoxun kishi ekan. Dasturxon atrofiga o'tirishimiz bilan mosh-guruch soqolini tutamlab gapga kirishib ketdi.

– Bu deyman, kuyov yigit, ishlar ko‘payib ketdimi? Qishloqqa kam boradigan bo‘lib qoldingiz. Qaynatangiz ko‘p asl odam-da! Bolalikdan tepkilashib katta bo‘lganmiz. Shu deng, shaharga ketyapman, deb qolmaymanmi! Bizning farzandlarimiznikida o‘n-o‘n besh kun turib kelmasangiz, qattiq xafa bo‘laman, deb turib oldi. Men ham yuzidan o‘tolmadim.

– Juda yaxshi qilibsiz, rahmat, – dedim quvonib. Bog‘bon amaki, u dunyoni ham, bu dunyoni ham baravar olib boradiganlardan ekan. Osh oldidan qittak-qittak haligi narsadan qilsakmikan, degandim, noz qilib o‘tirmadi.

– Ha, endi buning o‘zi harommas. Kayfi harom, – dedi piyolani qo‘liga olib. Shundan keyin ikkovimizning ham qulfi dilimiz ochilib ketdi. Bog‘bon amaki og‘zidan bol tomib yangangizni maqtay ketdi.

– Tursunoy qishloqning eng oldi qizi edi-da, o‘ziyam. Baxtingiz bor ekan. Shundoq qizimizga uylandingiz. Qaynatangizni aytaysizmi? Shaharga uzum sotgani ket-yapman, desam gastinisa-pastinisa qilib urinib yursangiz, betingizga qaramayman, deydi-da! Bu yil bozorda uzum serob. Shu kunda sotib qolmasak, erta-indin yanayam arzonlashib ketadi. O‘n-o‘n besh kun bir g‘ayrat qilamiz-da, endi. Yolg‘izqo‘llik qilmayin, deb jiyanni olib kelganmiz. Bozorda uzumga qorovul bo‘lib qoldi. Uyam siz bilan bir otamlashmoqchi o‘zi. O‘qishga kiraman, so‘t bo‘laman, deydi. Topgan hunarini qarang.

– Nega olib kelmadingiz? – dedim astoydil ranjib.

– Aytayapman-ku, bozorda qorovullik qilib qoldi. Ertaga, albatta, olib kelaman. Xo‘p ulfat yigit-da, o‘ziyam!

Yarim kechagacha gurunglashib o‘tirdik. Keyin Tursunoy bog‘bon amaki ikkalamizga uyga joy solib berdi. O‘zi balkonga chiqib yotdi. Bir xonalik uyda turgandan keyin, odam o‘rganib ketarkan. Ayol mehmon kelib qolsa, men, erkak mehmon kelsa, Tursunoy balkonga chiqib ketadi.

Bogʻbon amaki soʻzida turadigan odam ekan. Ertasiga ishdan kelsam, chust doʻppi kiygan, ixchamgina yigit bilan gurunglashib oʻtirishibdi.

– Iye, assalomu alaykum! – yigitcha sakrab turib men bilan quchoqlashib koʻrishdi. – Sogʻ-salamat yuribsizmi, pochchajon? Eshik-ellar tinchmi, pochchajon? Bardamgina yuribsizmi, pochchajon? Togʻamlar bilan bir kelib qol-gandik. – U bogʻbon amakiga ishora qildi. – Pochchang bilan otamlashmasang boʻlmaydi, deb turib oldilar. Tursunoy opamizning xoʻjayinlari bilan tanishaman-u, quvonmaymanmi, deb yugurib keldim. Mening bozor-oʻcharga tobim yoʻq. Asli bu yerga oʻqishga kirish uchun kelganman. Bir yordamlashib yuridicheskiyga joylab qoʻymasangiz boʻlmaydi, pochchajon. Hozir tanish-bilishsiz ish bitmaydi.

– Bilasizmi, oʻqishga kirish qiyin, – dedim mingʻillab. – Mening tanishlarim yoʻq.

Bogʻbon amakining qulogʻida lokator bor ekanmi, mingʻillab aytgan gapimni ham darrov eshita qoldi.

– Ashnaqa demasinlar-da, kuyov! Siz ham soʻt tayyor-laydigan institutda ishlaysizmi, axir?

– Amakijon, men domla emas, aspirantman, – dedim tushuntirib.

– Aspiranmi-maspiranmi, bir joyda ishlagandan keyin baribir emasmi? – Bogʻbon amaki astoydil ajablendi. – Men ham boqqa suv taragan suvchiga besh-oʻn yashik uzum beramanmi? Buyam shunga oʻxshagan narsa-da! Institut ham oʻzlariga dehqonchilik!

Nima deyishimni bilmay turgan edim, oshxona tomondan Tursunoyning yoʻtalgani eshitildi. Bunaqa «adresli» yoʻtallarning maʼnosini yaxshi bilib qolganman. Meni chaqiryapti. Darrov oldiga chiqdim.

– Goʻrni unaqa deysizmi? – dedi pichirlab. – Oʻzini olib qochyapti, deb oʻylamaydimi?

– Nima qilay, rostini aytyapman-da!

– Qishloqdagilar sizni butun shaharni yotqizib-turqizadigan odam, deb o‘ylashadi. Bir gap qilarmiz, deb qo‘ya qoling. Ha, undan keyin, – Tursunoy ovozi yanayam pasaytirdi. – Anavi sapojki o‘lgurni olmasam bo‘larkan. Uyda bir tiyin pul qolmabdi. Mehmonlar yana o‘n-o‘n besh kun turadiganga o‘xshaydi. Oylikkacha biror yerdan pul topmasangiz bo‘lmaydi.

Bu kecha ham mehmonlar bilan alla-pallagacha gaplashib o‘tirdik. Tog‘a-jiyanni xoli qoldirish uchun alohida joy qilib berdik. Yangangiz odatdagidek balkonda, men bo‘lsam oshxonada yotdim. Oshxonaga o‘rnashib qolgan piyozdog‘ hidi ko‘nglimni biroz behuzur qilganini hisobga olmaganda, juda yaxshi uxladim.

Ertalab qo‘ng‘iroq tovushidan uyg‘onib ketdim. Shoshapisha yo‘lakka chiqsam, Tursunoy chaqqonlik qilib, allaqachon eshik oldiga borib olibdi. U eshikni ochdi-yu, atlas ko‘ylak kiygan, sochini maydalab o‘rgan ayolni ko‘rib, qichqirib yubordi.

– Voy, Adol, o‘zingmisan?!

Ikkovlari bir-birining quchog‘iga otilishdi, cho‘lpillatib o‘pishishdi.

– Bu mening dugonam – Adolat, – dedi Tursunoy entikib. – Bolalikdan birga o‘sganmiz.

Adolat ichkariga kirar-kirmas iymanib pichirladi.

– Men yolg‘iz emasman, – u yuzlari lovillab qizarganicha, Tursunoyning qulog‘iga bir nima deb shivirladi.

– Voy, shunaqami! – Tursunoy quvonganidan qarsak chalib yubordi. – Chaqir bo‘lmasa. – U menga qarab tushuntirdi. – Adolatning to‘yi yaqinda bo‘ldi. Kuyov ikkovlari Toshkentga o‘ynagani kelishgan ekan.

Zum o‘tmay kattakon chamadon ko‘targan novcha, oriq yigit kirib keldi. Tog‘a-jiyanlar, kelin-kuyovlar, o‘zimiz to‘planishib nonushta qildik. Hamqishloqlar sog‘inishib qolishgan ekan, xo‘p gurunglashishdi.

– Gastinitsaga borsak joy yo‘q, – dedi Adolat kelinlarga xos tabassum bilan. – Shu yoqqa qarab kelaverdik. O‘n-o‘n besh kun turib, Tursunoyni xursand qilib kelinglar, deb ayamlarning o‘zlariyam aytgan edilar.

Boyadan buyon jim o‘tirgan kuyov endi gapga aralashdi.

– To‘yga bormadinglar-da! – dedi u gavdasiga yarashgan ingichka tovushda. Gapirganida uchli baqbaqasi liqillab turarkan. Endi payqadim. «Bizni to‘yga aytmovdinglar, shekilli» degim keldi-yu, tag‘in o‘ylab qoldim. Kim bilsin, balki Tursunoyga xat-pat yuborishgan-u, men bexabar qolgandirman.

– Men Toshkentga uch yil oldin bir kelganman. Juda o‘zgarib ketibdi, – dedi kuyov yana baqbaqasini liqillatib.

– Bu kishining o‘zlari sizlarga shaharni tomosha qildiradilar, – yangangiz menga imo qildi. – Shunaqa paytda o‘ynab qolmasanglar, keyin vaqt topilmaydi.

– Biz ham shuni o‘ylab turgandik, – kuyov tasdiqlab bosh silkidi. – Ko‘chaning chetiga ka-a-atta qilib, «San‘at ustalari konserti» deb yozib qo‘yibdi. Apisha! Baqqa kelayotganda ashi kansertga tushamiz, deb qo‘ygandik. Parishtalar omin degan ekan. Pochchamiz to‘rttagina bilet topsalar, birgalashib tomosha qilamiz!

Nonushtadan keyin Tursunoy bilan yo‘lakka chiqib maslahatlashdik.

– Endi bundoq qilamiz. Ishxonadagi o‘rtoqlardan qarz ko‘tarib turaman. Joy masalasini bunday taqsimlaymiz. Kelin-kuyovga ichkariga joy qilib berasan. Yosh narsalar ekan. Bir-biridan ajratish yaxshimas. Bog‘bon amaki balkonda, jiyani oshxonada yota qolsin. O‘zing bir amallab kavshandozga joylasharsan. Men kechqurun mehmonlar bilan o‘tirishib bo‘lgandan keyin, ishxonamga borib yota qolaman. Ishimiz ikki smenalik, deb bahona qilaman.

– Mayli, – dedi Tursunoy pichirlab. – Faqat tezroq pul topmasangiz bo‘lmaydi. Aksiga olib ko‘k choy ham qolmabdi.

Pulni olgandan keyin qaysi bozorga borsam ekan, degan o'ʻy bilan zinadan tushib ketayotgandim, biroz xirillagan ovoz eshitildi.

– Iye, assalomu alaykum, kuyovto'ra!

Cho'chib boshimni ko'tardim. Ro'paramda yuzlari oftobda qoraygan, chayir gavdali, qo'sh belbog' bog'lagan kishi turardi. Pastdan esa besh-olti yoshlardagi bolasini yetaklagan semiz xotin harsillab chiqib kelardi. Notanish kishi ko'rishish uchun quchoq ochgandi, qo'limni cho'zib qo'ya qoldim.

– Iye, tanimadilar shekilli, kuyov? – dedi u ranjib. – Qishloqqa borganlarida hamsuhbat bo'lgandik. Qarta o'ynagandik. Pirra! Ammo o'zlari pirraning xo'p hadisini olgan ekanlar! Qatorasiga yetti marta qoldirgandingiz...

– Kelaveringlar, kelaveringlar, – dedim damim ichimga tushib. – Bemalol...

– O'zlariga yo'l bo'lsin? – dedi «pirrachi».

– Menmi? Men... Ko'chib ketyapman. Aspirantlar uyi-ga! – shunday dedim-u, uchta zinani bitta qilib sakrab-sakrab pastga tushdim-da, ko'chaga otildim.

## MUSOFIR BO'LMAGUNCHA...

... Bir zamonlar chet elga chiqish, judayam Marsga bo'lmasa ham Oyga uchish bilan teng edi, desangiz bugungi yoshlar ishonmaydi...

O'sha zamonda deng... Omadim chopib desammikin, palakat bosib desammikin, chet elga chiqadigan bo'pqoldim. Tag'in qayoqqa deng? Kapstranga! Eskilar «musofir bo'lmaguncha musulmon bo'lmaysan» deb bejiz aytmaganini o'shanda tushundim. Avval o'n beshtami, yigirmatami suratimni olishdi. Keyin yigirmatami-yigirma beshtami qog'ozni to'ldirdim. Kimsan? Nimasan? Qayerda tug'ilgansan? Qachon? Otang kim? Onang-chi? Ular

qayerda, qanday ish qilgan? Ishlasa, necha yil ishlagan? Mabodo otang o'lgan bo'lsa, qachon o'lgan-u, nega o'lgan, qayerga ko'milgan? Onang-chi? Avlod-ajdodingda qamalganlar yoki chet elda yashaydiganlar bormi?

Sizlarni bilmadim-u, shaxsan men o'ylab qarasam, hammasi jo'yali savollar. Rost-da! Allaqachon bandalikni bajo keltirgan otam rahmatlikning katta bobosi qaysidir xorijiy davlatda hamon hassa tayanib yurgan bo'lsa-chi? Yaxshimi-yomonmi, ingliz tili o'qituvchisi, degan nomimiz bor, axir. Meni o'g'irlab ketib, sho'rolar yurtiga ashaddiy dushman bo'lmish agentlarga tilmoch qilib olishsa-chi?

Xayriyat! Anketamdan bittayam ishkal chiqmadi. Moskovning chet ellarga samolyot uchiradigan aeroportida to'plangan tumonat odam orasidan o'tib, omon-esson bojxona eshigiga yetib keldik. Ko'k shapka kiygan sezgir harbiy ko'zimga shunaqangi uzoq, shunaqangi sinchiklab tikildiki, beixtiyor yerga qaradim. (Bultur hayvonot bog'iga bolalarni sayohatga olib borganimda, olti qulochlik bo'g'ma ilon quyonga shunaqa chaqchaygani esimga tushdi).

– Grajdantin! – dedi hushyor chegarachi hamon ko'zimga chaqchayib. – Dollar bormi?

– Yo'q!

– Oltin bormi?

– Iye, menda oltin nima qiladi?

– Savolga javob bering!

– Oltin yo'q!

– Antikvar? Xoch bormi?

– Nima u?

– Narkotik modda-chi?

– U nima degani?

– Chekadigan!

– Bor. «Kosmos».

– Aroq bormi?

– Bor. Ikki shisha. Hamma olgani uchun men ham...

– Bu yoqqa! – Hushyor chegarachi iyagi bilan imo qildi.

Chamadoningni ko'tar! (Tamom bo'lding, mulla Alijon!) Sovuqqina xonaga kirdik. Jomadon titkilandi. Sochiq u yoqqa tashlandi, soqol mashina bu yoqqa... Ke-  
liningiz «musofir yurtlarda tishingizni kirini so'rib yura-  
sizmi» deb ikkitagina qazi pishirib bergan edi. O'shanga  
ayniqsa, qiziqib qolishdi. To'g'ri-da! Kolbasa desa kolba-  
saga o'xshamaydi, go'sht desa – go'shtga! Orasiga tilla  
tangalar tiqib qo'yilgan bo'lsa-chi? Qazi sho'rlik obdan  
tekshirildi. Jomadon «shubhadan xoli topilgach», yangi  
buyruq bo'ldi: «Yechin!» Paypog'imning orasigacha qarab  
ko'rdilar. Hech balo topilmagach, bojxona xodimi buyurdi:

– Bo'pti, o'tavering, grajdanin!

Xayriyat-ey! Jomadonni chala-chulpa yopib yugurdim.  
Shu payt radioda biz uchadigan tayyoraga taklif qilib qoldi.  
Gapiradi-gapiradi-da, oxirida «senkyu» deb qo'yadi. Voy  
ovsar-ey! O'zi taklif qilib, o'zi rahmat deyishga balo bormi.  
It quvgan soqovdek oynaband eshik tomon chopdim.  
(Harna oldinroq borganim.) Uzundan-uzoq yo'lakdan o'tib,  
uzundan-uzoq avtobusga chiqib oldim. Avtobus g'irillab  
bordi-da, samolyot oldida to'xtadi. Yerga tushay desam,  
eshigi ochilmaydi. Qarasam, hamma bir tomonga siljiyapti.  
Biz ham odob saqlab (ayni paytda shoshilib) olomonga  
qo'shildik. Tavba! Bunaqa avtobusni birinchi ko'rishim!  
Eshigini to'ppa-to'g'ri samolyot tuynugiga ro'para qilib  
qo'ysa-ya! Buni qarang! Xushro'y styuardessa tayyoraga  
kirib borayotgan har bir yo'lovchiga salom beradi.

– Xello! Xush kelibsiz, janob!

Menga qarab alohida ta'zim qildi.

– Xello, ser!

Ha, makkor! Hozir iljayasan-da, besh daqiqadan keyin:  
«Kechirasiz, grajdanin, joyni bo'shatishingizga to'g'ri ke-  
ladi, pattani adashib berishibdi, keyingi reysda uchasiz»,  
deb tushirib yuborasan! O'rnimga o'zingni pattasiz tani-  
shingni o'tqazib qo'yan. (Ko'rganmiz bunaqasini!  
Ahmog'ingni hammomdan qidir).



Yugurib borib o‘rindiqa o‘tirib oldim. Shosha-pisha tasmani belimga bog‘ladim. Endiyam tushirib ko‘r-chi! Nafasimni rostlab olmasimdan boyagi xonim tepamda paydo bo‘ldi.

– Yaxshi joylashib oldingizmi, ser? Chanqamadingizmi?

– No! No! – dedim to‘ng‘illab. Shundayam iljayadi.

– Chekkingiz kelsa, marhamat! Yoningizdagi qo‘shningizdan ruxsat so‘rab, chekavering!

Tamaki xumor qilayotganini qayoqdan bildi bu? Yo sinamoqchimi? «Grajdanin falonchi jamoat joyida chekdi» deb ertaga gazetangda do‘mbira qilmoqchisanda! Ovora bo‘lasan!

Baqirib berdim.

– No! Aym not smoking! – dedim inglizchani «qoyil qilishimni» namoyish etib. Zum o‘tmay, dimog‘imga tamaki hidi kirdi. Biram shirin, biram xushbo‘y la‘nati!

Munday qaragam, yonimda o‘tirgan semiz ajnabiy bemalol sigaret tutatyapti. «Pel-mell!» Bor-e, ajnabiy chekanda, men indamay o‘tiranmanmi, dedim-u, o‘zimizning «Kosmos»ni burqsitishga tushdim.

Tayyora osmonga ko‘tarilib ulgurmasdan boyagi xonim yaltiroq bandli aravachani sudrab yonimga keldi.

– Ko‘nglingiz nima tusaydi, ser? Pivo? Yengil vino? Konyak, viski?

Voy alvasti-ey! Qarang makkorligini! Sho‘ro yurtida ichkilikka qarshi kurash boshlanganini bilib turib ataylab qilyapti. Bir qultum ichsam bormi, darrov xo‘jayinlariga xabar qiladi. Xo‘jayinlari sovet hukumatiga, hukumat maktab direktoriga... Qarabsizki...

– No! – dedim sipolik bilan qo‘l siltab.

Qo‘shnim uzunchoq bokaldagi vinoni, plastmassa stakandagi pivoni olib, ketma-ket ikkalasini bo‘shatdi. Huzur qilib kekirdi.

– Nima, siz chanqamadingizmi? – dedi to‘satdan.

Iya, men buni ajnabiy deb o'tirsam, o'zimizdan ekan-ku! Ming yillik qadrdomimni topgandek, quvonib ketdim. Birpasda apoq-chapoq bo'ldik-qoldik! Sashavoy ko'rinishi savlatli bo'lgani bilan mendan uch yosh kichkina ekan. U ham bizning guruhda – turist ekan. O'sha mamlakatga avval ham borgan ekan.

– Sashavoy, ukam! – dedim orzumandlik bilan. – Bir shisha pivo bo'lsa-ku, jon deb ichardim-a, menda dollar yo'q-da! Dollarga almashtirib bergan o'ttiz so'mga o'g'limga shim olishim kerak. Jinsi shim...

Sashavoy qornini liqillatib, mazza qilib kuldi.

– Ey, Ali! Ali! Pivo bilan suxoy vino tekin! Bildingmi?! Konyak, viski – u boshqa masala. Balyuta kerak! – shunday dedi-da, tugmachani bosgan edi, sertabassum xonim pildirab yetib keldi.

– Janobga... – hamrohim menga imo qildi. – Ikki shisha pivo, ikki bokal vino!

(Qoyilman! Inglizchani suvdek bilarkan.)

– Moment ser... – Xonim ta'zim bajo aylab, zipillab ketdi.

– Nega... Ikki shisha? – dedim talmovsirab.

– Men ham chanqabroq turibman. – Sashavoy qornini silab qo'ydi.

Tongotar pallasi chirib borayotgan kapitalizmning irib bitish arafasida turgan mamlakatiga qo'ndik. Bojxonaga kirdik... Hozir boshlanadi! Qayerdan kelding? Nima maqsadda kelding? Necha kunga kelding? Otang kim? Onang qachon o'lgan? Nechta bolang bor?

Odamga alam qilarkan! Voy, kallavaramlar-ey! Aqalli bittasi «kimsan» demasa-ya! Kutish zaliga chiqishimiz bilan Sashavoy qo'limdan sudradi.

– Yur! Mashina kutib turibdi.

Jon-ponim chiqib ketdi.

– Jomadonim! – dedim baqirib. – Jomadonim! Ichida ikkita qazi, to'rtta patir, pista-bodom bor!

– O'chir-ey! Chamadoningga it ham tegmaydi. Yuraver!..

Avtobusda ketyapmiz. Ko'zim osmono'par imoratlar, bir-biridan chiroyli mashinalarda-yu, xayolim jomadonda. Esiz-esiz ikkita qazi, to'rtta patir, xotinim o'z qo'li bilan dumba yog'iga qovurib bergan yarim tog'ora bo'g'irsoq... Qulog'ini ushlab ketdi-da! Sashavoy bo'lsa, parvoyi palak! Suyanchiqqa bosh tashlab, mudrab ketyapti. Ora-sira o'rtacharoq xurрак ham otib qo'yadi. E, xomsemiz! O'zingni yuking yo'q-da! Mening shuncha narsam gumdon bo'lsa mayli-a! Qarang, o'zi semiz bo'lsayam, uyqusi ziyrak ekan! Mashina to'xtashi bilan darrov ko'zini ochdi.

– O, «Viktoriya» – dedi avtobus derazasidan qarab. – Besh yulduzli mehmonxona! Vo! Tashvish qilma, Ali! Men senga hamroh bo'laman!

Hamroh bo'larmish! Undan ko'ra jomadonimni top!

Uzun-qisqa bo'lib musofirxonaga kirdik. Yo, tavba! Jinnimi bular?! He yo'q-be yo'q, har birimizning qo'limizga bittadan kalit tutqazyapti. Pashpurt tekshirish – yo'q. Qog'oz to'ldirish – yo'q... O'g'rilik shunaqadan boshlanadi!

– Mana, xonamiz ham yonma-yon ekan! – Sashavoy yelkamga qoqdi. – Yuraver!

G'ijinibroq ketidan ergashdim. Yigirma oltinchi qavatga ko'tarildik. U o'zining, men o'zimning xonamni ochdim. Qarasam, xoh ishonang, xoh ishonmang, shundoq kiraverishda jonajon, qadrdon jomadonim turibdi-da!.. Uyog'i nima bo'ldi, demoqchimisiz? Nima bo'lardi! Muzeylarga bordik, teatrlarga... To'g'ri, safardoshlarimiz o'ng keldi deguncha gurillab o'zini do'konga uradi. Nima zaril! Biz – intelligentmiz! Pedagogmiz! Unaqa ochko'z emasmiz... Shunaqa-ku... O'g'ilchanning buyurtmasi nima bo'ladi? Amriqocha jinsi shim? Buyog'i safarimiz ham qarib qoldi. Sashavoyga yalindim. «Shundoq-shundoq! Sen dunyo ko'rgan odamsan. Meniyam do'kon-po'konga olib kirsang-chi!» Sashavoyning jahli chiqib ketdi.

– Nu, Ali! Vot durak! Almashtirib bergan 30 so'mni qaytib olib ketmoqchimidang? U yoqda bilasanmi, nima

bo'ladil? – Barmoqlarini panjara qilib ko'rsatdi. – Valyuta olib o'tding, deb, tiqib qo'yishadi, ovsar. Yur, tezroq qutul o'sha sabil qolgur dollaringdan!..

Bir do'kon oldida to'xtadik.

– Bu oziq-ovqat magazini! Gastronom! – Sashavoy qo'limdan tortdi. – Jinsi shim boshqa joyda sotiladi.

– Hay, bir kiraylik, do'stim, – dedim yalinib. Eh-ha! Do'konmas, tomoshaxona-ku, bu! Sut – o'n xil! Qaymoq – sakkiz xil! Go'sht – o'n ikki xil! (Boringki, bedana-yu kaklikkacha bor!) Pishloq – yigirma xil! Kolbasa – o'n sakkiz xil! Kokos yong'og'i, banan, gilos (kuzda gilos qayoqdan kelganiykin), nok, shaftoli, uzum... Yo'-o'q! Bu yerda bir gap bor. Ataylab, bizga o'xshagan turistlarga ko'z-ko'z qilish uchun ochib qo'ygan, bu do'konni! Meni anoyi deb o'ylayapsanmi? Qani, sot mard bo'lsang! O'g'linga jinsi olmasam-olmabman!

– Sasha! – dedim hovliqib. – Qog'ozing bormi?

– Nimaydi? – Sashavoy kissasidan yondaftarchani chiqardi.

– Ochirid! Grajdanlar, ochirid! – Sashaning qo'lidan daftarchani yulqib olib, yoza boshladim. – Men birinchiman. Sasha – ikkinchi. – Hayajonlanib ketganimdan o'zbekcha, ruscha, inglizcha so'zlarni aralash-quralash qilib, baqiraverdim: – Grajdanlar! Ochiridga turinglar! Menga pishloq kerak! Banan! Kokos yong'og'i! Kelaveringlar! Uchinchi kim, uchinchi? Faqat iltimos, tartib saqlansin!

Bir mahal qarasam, Sashavoyning ko'zi ola-kula bo'lib ketyapti, nuqul qornini liqillatib, hansiraydi. Tili kalimaga kelmaydi. Kalta yubka kiygan qiz yugurib keldi.

– Xello, ser! Kim sizni ranjitdi? Marhamat, ichkari kiring! E kap of kofe, pliz...

Sashavoy shundagina tilga kirdi.

– No, missis, no, – dedi yasama tabassum bilan. – Bu ser o'zi shunaqa... Hazilkashroq...

Sudragudek bo'lib, ko'chaga olib chiqdi.

– Esing joyidami? – dedi qizarib-bo‘zarib. – Odamni sharmanda qilding-ku!

– Nega sharmanda qilarkanman? Oziq-ovqat programmasini yozmasdan turib, qayoqdan topibdi shuncha narsani? Hammasi yolg‘on!

– O‘g‘lingga shim olmoqchimisan? – Sashavoy chuqur xo‘rsindi. – Ber, o‘sha dollaringni! Yur buyoqqa! Faqat, iltimos, endi ko‘chada poylab turasan.

Na iloj?! Ko‘ndim... Ishonsangiz, to‘rt qavatli emas, besh qavatli emas, o‘ttiz qavatli super-market oldida to‘xtadik. Sashavoy «shu yerda qimirlamay tur», dedi-yu, ichkari kirib ketdi. Rostini aytsam, uzoq kutganim yo‘q. Sashavoy chiroyli «salapan» qopchiq ko‘tarib chiqdi.

– Ma! Qirq sakkizinchi razmer. Sdachini ol: to‘rt dollar. Ketdik endi. Gruppa boshlig‘idan baloga qolib yurmaylik!

– Qayoqqa ketamiz? – dedim mazaxo‘rak bo‘lib. – Xotininga ko‘ylak olmaymizmi?

Sashavoy ko‘zimga tikilib turdi-turdi-da, hasrat aralash uf tortdi. (Nazarimda, qorni ham puchqayib qolgandek bo‘ldi).

– Qaysi ahmoq sening to‘rt dollaringga yaxshi ko‘ylak beradi?

Baland keldim.

– Bo‘lmasam, xotininning oldiga ikki qo‘limni burnimga tiqib boraveraymi?

– E-e, boshga bitgan balo bo‘lding-ku! Yur-chi, shu atrofda komission do‘kon bor edi... Yurib-yurib bir do‘konga kirdik. Do‘mboqqina sotuvchi qiz yugurib kelib, salom berdi.

– Gud ivning, ser! Biski, kofe?

Biskiga balo bormi? Matohingni ko‘rsatmaysanmi?

Ajab, hayhotdek do‘konda xaridor yo‘q. Yapon televizori, Janubiy Koreya magnitofonlari, yapon kameralari. Xayriyat, latta-puttalar ham bor ekan. Mana, o‘sha ko‘ylak!

Xuddi xotanim orzu qilgani! Bejirim, guldor! Biz tomonlarda kamida ikki yuz so'm turadi! Tepasiga o'n dollar deb yozib qo'yibdi. Inglizchani qoyil qilishimni bildirib qo'yish uchun so'radim:

– Xau mach daz it kost, necha so'm turadi?

– Ten dollar.

– Ten dollar emish! O'n dollarim bo'lsa, senga yalinib o'tirarmidim. Magnitafon olib qo'ya qolmasmidim, ahmoq? Qarasam, xonimcha ko'ylakni qopchiqqa solib, qo'linga tutqazyapti.

– No! No! – dedim vahimaga tushib. – Ay xev no ten dollar. Menda ten dollar yo'q!

Shovqin-suronni eshitib, ichkaridan sumakdek naynov yigit chiqdi. Savdo xodimini (iye, kechirasiz, missis-biznesmenni) nega xafa qilyapsan, deb quloq-chakkamga tushirib qoladimi, desam, yo'q, azza-bazza salom berib, qo'lini cho'zyapti!

– Senkyu ser! – dedim jonholatda. – Menga ko'ylak no!

Oraga Sashavoy tushdi. Ko'ylak o'n dollarga qimmatlik qilishini aytdi.

– O-key! Seven dollar! – kapitalist iljaydi.

– No! No!

– Siyks dollar!

– No, kerakmas, menda olti dollar yo'q, ay xev onli fo dollar, faqat to'rt dollar! – dedim to'rtta barmog'imni dikkaytirib.

– O key! – kapitalist tag'in qo'limni qisdi. – Mayli, hozir fo dollar, qolganini ertaga tashlab ketasiz.

Qo'rqib ketdim.

– No-o-o! – dedim tajang bo'lib. – Biz ertaga uchib ketamiz. Ay vont in xoum. Uyga! Tyu-tyu-tyu!! Sovetyunion! Moskau!

– O-o-o! Sovetyunion! Suvenir, ser, souvenir!

Qarasam, ko'ylakni qo'ltig'imga qistiryapti. Sadaqa qilyapti, shekilli?!

– No! – dedim yer tepinib. – No! Xohlasang fo dollar. Xohlamasang, katta ko‘cha! Bunaqa ko‘ylaklar bizda tventi sent – yigirma tiyin turadi, tushundingmi?

– O-key, ser! Fo dollar... – kapitalist do‘stona iljaydi. – Kofe, viski?..

Firibgar! O‘zing to‘rt dollarga jon deb turgan ekansan-ku, tag‘in oliftagarchilik qilasan!..

Ertasiga saharlab ona yurt tomon uchdik. Samolyotdan tushishim bilan Moskvaning qor aralash musaffo havosini to‘yib-to‘yib simirdim. Oh-oh-oh! Qanday mazali! Qanday muattar! Xayol surib tursam, ko‘k shapka kiygan aeroport xodimasi yelkamga turtdi.

– Ey, kishlak! Senga alohida taklif kerakmi? Chiq avtobusga!

Bor ekansiz-ku, opajon! Bir haftadan beri o‘ng yelkam qichishib yurgan edi, o‘zi! Mehmonxonaning eshigiga «Joy yo‘q» deb yozib qo‘yilgan bo‘lsa-da, bizga joy topildi. (Har qalay musofir yurtdan mozor bosib kelyapmiz). Anketa to‘ldirdik. Kimsan? Nimasan? Qayerda yashaysan? Qayerdan kelding? Nima uchun borgan eding? Bu yerda qancha bo‘lasan? Qachon ketasan? Nimaga ketasan?

Jonajon savollarni shunchalik sog‘inib qolgan ekanmanki, anketani uzoq, zavq bilan, chiroyli husnixat bilan to‘ldirdim. Munday qaragam... Jomadonimni... Yo alhazar! Shundoqqina oyog‘im ostida turgan edi-ya! Mayli, sadqayi sar! Qazi yeb bo‘lingan! Bog‘irsoqni Sashavoy bilan baham ko‘rganmiz. Soqol mashina uydayam bor! Bir kun soqol olmasak... Birov kuyov qilarmidi bizni! Faqat jinsi shim bilan xotinimning ko‘ylagi... Mayli, buniyam yarasi oson. Ertaga GUMga kiramiz... Xarid qilamiz...

Magazin degani bundoq bo‘pti-da! Uch yuztacha odamdan keyin navbatga turdim. (Bor ekansan-ku, akagingang aylangur ochirid!)

– Oxiri sizmi? – deyishim bilan labi bo‘yalgan xotin bobillab berdi:

– Ha, nimaydi? Qop ko‘tarib kelgandirsan? Jonga tegdi bular! – yuzi tirishib ketgan chol oyoq-qo‘li asabiy qaltirab chiyilladi. – Meshochniklar! Nima ko‘rsa tashmalab ketadi. Biz, moskvaliklarga nima qoladi?

To‘g‘ri aytyapti! Qiyin shularga! Tulalik o‘zi tayyorlagan kolbasani Moskvadan olib ketsa, yaroslavlilik o‘zi ishlagan pishloqni Moskvadan xarid qilsa, do‘ppi kiygan o‘zbek o‘zi ekkani paxtadan tikilgan shimni Moskvadan sotib olsa? O‘lis chet eldan olib kelinganini jonajon poytaxtda birov «shmon» qilib ketgani bilan kimning ishi bor? O‘zingga ehtiyot bo‘l! Jomadoningni butingga qistirib, ustiga minib ol!

Uch yuz kishi birdan gapirsa, g‘alati bo‘larkan. «Meshochnik» bo‘ldim, «aziat» bo‘ldim, «pripischik» bo‘ldim, «basmach» bo‘ldim... Chidadim. Nachora, ayb o‘zimda! Jomadonimga hushyor bo‘lsam-ku...

Ikki soatchada omon-eson ichkari kirib oldim. Mana o‘sha shim! Jinsi! Rangi ham o‘sha, bichimi ham. To‘g‘ri, choklari jinday qiyshiqroq, bahosi jinday balandroq... Nima qipti? Etiketasini olib tashlaymiz. Keyin, uchinchi qavatga chiqib, yana biron soat ochirid tursam, xotinning ko‘ylagi ham...

Kassaga yugurdim. Shapaloqdek oltin baldoq taqqan qizaloq uzatgan pulimni nari surdi.

– Pasport!

– Nima?

– Pasport! Moskovskaya propiska!

– Axir men Moskvada...

– O‘ting, grajdanin! Sleduyushiy!..

«Domodedovo» degan aeroportda samolyotimiz jindek kechikdi. Avval bir soatga, keyin uch soatga, undan keyin yetti soatga... Rostini aytsam, diktor qizga achinib ketdim. «Falon reys bilan Toshkentga uchadigan samolyot...» deb qayta-qayta gapiraverib og‘zi quruqshab ketdi, sho‘rlikning!



Palakatni qarang! Samolyotga chiqqan zahoti tugmachani bosishga balo bormidi! Haliyam chet elda yuribman, dedim shekilli. Iljaydim.

– Missis! Iloji bo‘lsa choy... Sovqotib ketdim... Pliz...

– Nima? – Styuardessaning qoshi chimirildi.

– Kim «pliz?»

– Missis, – dedim yalinib. – Iloji bo‘lsa bitta choy. Pliz...  
Marhamat...

Styuardessa o‘sib ketgan soqolimga, boshimdagi do‘ppimga tikilib turdi-da, ajib bir tabassum hadya etdi.

– Balkim kofe ham so‘rarsiz! Tasmani taqing, grajdandin!

Kapitalizmning kasali tez yuqarkan-da! Styuardessaning jahli chiqqanini-ku, ko‘rib turibman. Chekishni kim qo‘yuvdi menga! O‘sha zahoti tepamda paydo bo‘ldi.

– Grajdandin! – dedi lablari gezarib. – Hozir samolyotdan uloqtirib yuboraman!

Xayriyat! Uloqtirib yubormadi. Bir soatdan keyin tayyora radiosidan badjahl styuardessaning muloyim ovozi yangradi:

– Hurmatli passajirlar! Tayyor bo‘lib turishingizni so‘raymiz. Hozir sizlarga proxloditelniy napitok beriladi!

Styuardessa qancha badjahl bo‘lsa, shuncha mehribon ekan. Biz ham bir stakan «proxloditelniy» suvdan, jindak qariroq, jindak chandirroq bo‘lsayam och qorin bilan yig‘lab ko‘rishadigan tovuq oyog‘idan benasib qolmadik. Toshkentda esa kaminani ayricha izzat-ikrom bilan kutib olishdi. Bir emas, ikkita militsioner!

Tushunadigan bolalar ekan. Atigi ellik so‘m jarima solib, qo‘yib yuborishdi...

Mana endi tuppa-tuzuk musulmon bo‘lib o‘tiribmiz. Yaxshiyam musofir yurtiga borganim... Maktab-chi, deysizmi?

Rayonodan xat kelibdi. Direktorimiz yotig‘i bilan tushuntirdi. «Samolyotda bezorilik qilibsiz. Chekibsiz! Pedagog ham shunaqa bo‘ladimi? Soqol olmasangiz, xizmat

burchini bajarayotgan aeroflot xodimini «pliz» deb haqorat qilsangiz... Bilamiz, siz yaxshi o'qituvchisiz. Lekin... Bunaqa odam maktabda ishlasa... Yoshlar tarbiyasiga... Meniyam o'ylang! Tobutkashmiz... Ko'zdek qo'shnimiz. Mendayam bola-chaqa bor».

Rostini aytсам, direktor sho'rlikka achinganimdan yig'lab yubordim. Hozir ota kasbini qilyapman – sandiqchiman. Topish-tutishim yomon emas. Oyiga uchta sandiq yasasam, avvalgi maoshimdan to'rt hissa ko'p pul bo'larkan... O'sha styuardessani ko'rib qolsam, yana bir marta «pli-i-iz!» deb qo'ymoqchiman! Shoyad ishlarim yanayam yurishib ketsa!

*1987 y.*

## TELPAK

Agar «palakat bosib» yozuvchi bo'lmaganimda, albatta, militsiya xodimi bo'lardim. O'zi bolaligimdan orzuim shu edi... Mayli, hozir gap bunda emas. Bu voqeaga ko'p yillar bo'ldi. O'shanda arziyas narsa uchun «shonli sovet militsiyasi»ning fidoyi starshinasini shunchalik tashvishga solganimdan hamon xijolatdaman. Aslida-ku, ayb menda emas, «Po'nchikda!»

... O'sha kuni mukofot puli olmasak, «Po'nchik» mukofotni «yuvamiz» deb tiqilinch qilmasa, shuncha g'alva yo'q edi.

Shunday qilib, loyiha institutining «uch og'a-ini botirlari» ya'ni, Bobur – «Po'nchik», Botir – «Tarasha» va Bahrom, ya'ni men – laqabimni aytmay qo'yaqolay, issiqqina qahvaxonaga kirdik. Burchakdagi ilgichga kiyimboshlarni yechib, sosiska yedik. Bittagina «Portveyn»ni bo'shatdik.

– Endi menga juvob! – dedi Bobur lunjini yumronqoziqdek to'ldirib sosiska chaynarkan. – Dilishkani bog'chadan olmasam, o'rtoq xotin o'ldiradi!

Zum o'tmay kiyinib kelib, yana tepamizda paydo bo'ldi.

– Ma, ehtiyot qil! – dedi bandi yelim qog‘oz bilan yamalgan kattakon papkamni stol tagiga tiqib. – Anavi yerda begona kompaniya o‘tiribdi. Ilib ketmasin tag‘in!

«Po‘nchik» pishiq-da! Kallasi ishlaganini qarang.

«Tarasha» bir zum xayol surib o‘tirdi-da, siyrak kipriklarini pirpiratdi.

– Eshitib ko‘r-chi, qornimdan yig‘lamsiragan tovush kelmayaptimi?

– Kelyapti! – dedi iljayib. – Menikidan ham kelyapti. Boyagi vino zerikib qoldi, sherigini chaqiryapti.

Hay, «yigirma oltinchisi»dan yana bittaginasini «otdik». Qorin to‘q – qayg‘u yo‘q... Ilgich oldiga borsak, telpagim yo‘q! Palto bor. Sharf bor, faqat telpak yo‘q. Yangigina, issiqqina telpagim! Ilgich atrofini qaradik, bo‘m-bo‘sh bo‘lib qolgan stollarning tagigacha o‘rmlab chiqdik: yo‘q! Tamom-vassalom!

Tarvuz qo‘ltiqdan tushib, tashqari chiqdik. Qulog‘im shunaqangi muzlab ketdiki, chertsangiz jiring etib sinib tushadigan. Haligi kayfdan asar qolmadi. Buni qarangki, ellik qadam yurmay tepasida neon chiroq yonib turgan «operpunkt» ro‘parasidan chiqib qoldik. Har kuni shu yerdan o‘tib e‘tibor bermagan ekanmiz.

– Bo‘ldi! – dedi Botir tarashadek gavdasini g‘oz tutib. – Telpaging topiladi! Mana, militsiya topib beradi!

Katalakdek xona to‘ridagi stolda o‘tirgan starshining vazohatini ko‘rib baqa bo‘lib qoldim! To‘lanboy polvon, uning oldida bog‘cha bola! Har yelkasiga ikkitadan odam o‘tirsam chirpirak qilib tashlaydi! Yuzlari qip-qizil. Soqol olayotganda bexosdan tig‘ tegib ketsa, kamida bir yarim litr qon oqsa kerag-ov!

– Kiraver! – dedi «Tarasha» dalda berib. Keyin gapni sovitmay starshinaga murojaat qildi. – O‘rtoq nachalnik! Jinoyat sodir bo‘ldi. O‘g‘irlik!

Starshina charchaganmi, uyqudan qolganmi, huzur qilib obdan esnadi. Etak tomondagi liqildoq kursilarga imo qildi.

– T-a-ak... – dedi ko‘zidan oqqan mo‘ldir-mo‘ldir yoshlarni artib. – T-a-ak...

– O‘rtoq nachalnik... – Botir tag‘in gap boshlagan edi, starshina rapidadek kaftini ko‘tardi.

– Pastradavshiy kim?

– Manavu! – Botir menga imo qildi. – Yarim soat oldin...

– Minutochku, grajdanin! – dedi starshina anchayin keskin ohangda. – Pastradavshiyning o‘zi gapirsin!..

Hammasini aytib berdim. Bir boshdan. Qo‘rqibgina... Starshina toqat bilan eshitdi. Keyin stol tortmasidan qog‘oz oldi.

– T-a-ak, endi boshlaymiz! – dedi tantanavor alfozda. – Familiyangiz?

Aytdim.

– Ismingiz?

Aytdim.

– Ish joyingiz?

Aytdim.

– «Polingiz?..» Ha, tushunarli... Vazifangiz?

Aytdim.

– Uy adresingiz?

Aytdim.

– Oilaviy ahvolingiz?

Unisiniyam aytdim.

– Bobongiz nima ish bilan shug‘ullangan?

– Bilmayman, – dedim hayron bo‘lib.

– Nega bilmaysiz?

– Unda men yo‘q edim.

– Xarasho. Avval sudlanganmisiz?

– Yo‘q.

– Qanday mukofot olgansiz?

– E, ko‘p olganmiz! – dedim maqtanib. – Bugun ham oldim. O‘ttiz uch so‘m. Kvartalniy mukofot!

– Unisini so‘rayotganim yo‘q! – dedi starshina asabiy-lashib. – Saylanganmisiz?

– Bo‘lmasa-chi! Mestkomda xazinabonman.

– Uf-fl! – Starshina qog‘oz qirtillataverib charchab ketdi, shekilli, kattakon ro‘molcha bilan peshanasini artidi.

– Itak, nima bo‘ldi? – dedi ko‘zimga tikilib. – Bir boshdan ayting.

Hayron bo‘lib goh unga, goh Botirga termuldim.

– Aytib berdim-ku, hammasini.

– Grajdanin Bahrom Xolmirzayev... – u qo‘lidagi qog‘ozga qarab oldi. – To‘is... Xolmurodov! Boyagi aytganlaringiz og‘zaki gap. Bunisi – dakument! Ayting-chi, pastradavshiy Xolmirza... To‘is Xolmurodov, qaysi stadiya?

Kapalagim uchib ketdi.

– Qanaqa «statya?»

– Statya emas, stadiya! – dedi starshina jerkibroq. – Isklerozingiz nechanchi stadiya?

– Qanaqa skleroz?

– Iskleroz bo‘lmasangiz telpakni nega yo‘qotasiz?

– Yo‘qotgani yo‘q, o‘g‘irlatdi, – dedi Botir tushuntirib.

– Minutochku, grajdanin! – dedi starshina. – Pastradavshiyning o‘zi gapirsin! – Keyin bir zum o‘ylanib qoldi. – Xarasho! Qaysi kafega kirdingiz?

– Mana shu, – dedim chaynalib. – Ellik qadam naridagi...

– Oti bormi o‘sha kafening?

– «Lazzat».

– Qaysi ko‘chada joylashgan?

– Mana shu ko‘chada. Hov ana, chirog‘i ko‘rinib turibdi, o‘rtoq leytenant.

Leytenant deganim yoqdi shekilli, starshina ancha yumshadi.

– Ko‘chaning nomini so‘rasam, bu chiroqni gapiradi, – dedi nolib. – Odamlarga hayronsan, qayoqqa borganini o‘zi bilmaydi-da, tag‘in pretenziya qiladi! Itak, kafega kirdingiz... Keyin-chi?

– Shu... Yechinib, kiyimlarni ilgichga ildik.

– Qaysi tomondaydi?

– Nima «qaysi tomonda?»

– Veshalka!

- Burchakda, chap tomonda.
- Nega chap tomonda?
- Hayronman.
- Nimadan yasalgan?
- Hech baloga tushunmadim.
- Nima, «nimadan yasalgan?»
- Veshalkani so‘rayapman! – dedi starshina achchiq-  
lanib. – Nimadan yasalgan? Yog‘ochmi, temirmi?
- Temir! – dedim ishonch bilan.
- Ilgagi nechta edi?
- Qarang, shunisiga e‘tibor bermagan ekanman.
- Esimda yo‘q.
- «Esimda yo‘q» emish... Telpakni qaysi ilgichga ilgan  
edingiz?
- Bunisiyam... – dedim battar esankirab. – Esimdan  
chiqibdi, o‘rtoq leytenant.
- Starshina bu gal ham yumshadi.
- Xarasho... Keyin-chi?
- Shu ... Ovqat yedik.
- Qanaqa ovqat?
- Sosiska.
- Necha porsa?
- Men bir pors, manavu bir yarim...
- Sherigingiz o‘zi uchun javob beradi... Itak, qancha  
o‘tirdingiz kafeda?
- Bir soatcha.
- Tish do‘xtirga qatnab turasizmi?
- Nimaydi? – dedim hayratlanib.
- Savolni men beraman, pastradavshiy Xolmirza... To‘is,  
Xolmurodov! Tishingizning mazasi yo‘qmi?
- Yo‘g‘-e, tishim butun.
- Tishi butun odam to‘rtta sosiskani bir soat eydimi?
- Ochirit ko‘p ekan, – dedim yolg‘on gapirib.
- Xo‘p, keyin nima bo‘ldi?
- Keyin... Kiyinaman deb bundoq qarasam, telpagim  
yo‘q!

- Xarasho, – dedi starshina bir qadar yengil tortib. – Telpagingiz qanaqa edi?
- Shu... Telpakdaka telpak...
- Oti nima o'sha telpakning: kubankami, ushankami?
- Manavinga o'xshagan, – deb Botir tizzasiga qo'ndirib o'tirgan telpakka imo qildim.
- Starshina yana uzoq qog'oz g'irtillatdi.
- Qachon sotib olgan edingiz?
- Yelka qisdim. Xudo haqi, telpakni qachon olganim paqqos esimda yo'q ekan.
- Uch yilcha bo'ldi, – dedim dudmal qilib.
- Bizga kankretniy gap kerak, – dedi starshina norozi ohangda. – Aniq ayting!
- Uch yil bo'ldi! – dedim tavakkal qilib.
- Qaysi paytda?
- Tushunmadim, – dedim ko'zimni pirpiratib.
- Nimani tushunmaysiz? – starshina yuzimga sinchkovlik bilan tikildi. – Yozda olganmisiz, qishdami?
- Qish edi!
- Soat necha edi?
- Peshinga yaqin.
- Aniqrog'i?
- O'n ikki yarim! – dedim ikkilanmay.
- Havo qanaqa edi?
- Nima?
- O'sha paytda, ya'ni bundan uch yil avval – yigirmanchi yanvar kuni kunduz soat o'n ikkidan o'ttiz minut o'tganda, telpak sotib olayotganingizda ob-havo qanaqa edi?
- Esimda yo'q, – dedim tan olib.
- Nega esingizda yo'q? – dedi starshina ko'zimga boyagidan ham sinchkovroq tikilib.
- E, bo'ldi! – dedim yodimga tushib. – Gupillatib qor yog'ib turgandi.
- Yaxshi! Tekshirib ko'ramiz. – U bir zum sukut saqladi. – Necha so'mga olgan edingiz?
- Telpaknimi?

– Paltoni so‘rayotganim yo‘q-ku! – dedi starshina ensasi qotib.

Qarang, bunisi ham xayolimdan ko‘tarilgan ekan.

Indamay o‘tirganimni ko‘rib, starshina battar tutoqdi:

– Hech bo‘lmasa, qayerdan olganingizni bilarsiz?

– Bilaman, – dedim hozirjavoblik bilan. – Bozordan olganman!

Starshina uf tortdi.

– Magazin to‘la telpak, bular bozorga yuguradi! Qaysi bozordan?

– Eski jo‘vadan.

– Kimdan olgansiz?

– Bittasidan.

– Aniq gapiring! Kim ekan o‘sha telpakfurush?

– Qayoqdan bilay.

– Odamlarga hayronsan. Mol oladi-yu, kimdan olganini bilmaydi.

Telpak sotgan odam erkakmi, xotinmi?

– Erkak edi, – dedim jonlanib.

– Alohida belgisi bormidi?

– Nimaning?

– Nimaning emas, kimning! – dedi starshina xunobi oshib. – Telpakfurushni so‘rayapman!

– Bor edi! Boshiga bir emas, uchta telpakni ustma-ust qo‘ndirib olgan edi.

– Telpakni o‘sha odamdan olganingizga guvohingiz bormi?

– Yo‘q, – dedim rostini aytib.

– Shunaqa-da! – starshina nadomat bilan bosh chayqadi. – Hozir ko‘rsangiz taniysizmi?

– Telpaknimi?

– Telpakfurushni! – dedi u toqati toq bo‘lib. – Keyin bir qadar jahldan tushdi shekilli, osoyishtaroq so‘radi. – Astarti qanaqa edi?

– Nima?



– Telpakning astari qanaqa edi? Ko‘kmi, qorami, qizilmi?

O‘lay agar, telpakni shuncha kiyib, astariga qaramagan ekanman.

– Esimda yo‘q, – dedim bo‘shashib.

Starshina xo‘rsindi.

– Odamlarga hayronsan. Kiyim kiyishni biladi-yu, rangiga qaramaydi. Alohida belgilari bormidi?

– Telpakfurushningmi?

– Telpakning!

Najot kutib Botirga qaradim.

– Bor edi! – dedi «Tarasha» o‘tirgan joyida bir qimirlab.

– Chap quloqchini qiyshiqroq edi. Kuyadori hidi kelib turardi.

– Malchite pajalista, grajdanin! – starshina jo‘vadek barmog‘ini ko‘tarib, po‘pisa qildi. – A, vapshe, – dedi hafsalasi pir bo‘lib, – bitta guvoh inobatga o‘tmaydi. Kamida ikkita kerak. – Keyin menga yuzlandi. – Mo‘ynasi qanaqa edi?

Esankirab qolganimdan savolini yaxshi tushunmadim.

– Nega angrayasiz, pastradavshiy? – u qoshini chimirdi.

– Qanaqa mo‘yna edi? Norkami? Qorako‘lmi, andatrami?

– Quyon edi.

– Alohida belgisi bormidi?

– Telpakningmi?

– Quyonning! Quyonning rangi qanaqa edi?

– Kulrang edi!

– Erkakmidi?

– Telpakfurushmi?

– Quyon! – dedi starshina rosmana bo‘g‘ilib. – Quyon erkakmidi, urg‘ochimi?

Boyadan beri chidab o‘tirgan «Tarasha»ning tajangligi tutib ketdi shekilli, shartta o‘rnidan turdi.

– Xunasa! – dedi qo‘lini paxsa qilib. – Xunasa quyon edi! Bir oyog‘i cho‘loq edi! Bir ko‘zi g‘ilay edi!

– Grajdanin! – starshina chaqqonlik bilan oʻrnidan turib ustimizga bostirib kela boshladi. Ammo xona oʻrtasida taqqa toʻxtab qoldi. Barkashdek yuzining markazida koʻrinib-koʻrinmay turgan tugmachadek burni qimirlab ketgandek boʻldi. Havoni bir-ikki hidladi-da, gʻolibona iljaydi. – Yigirma olti! – dedi tantana bilan. – Yigirma oltinchi portveyn! – gurs-gurs yurib borib, stol ustidagi telefon goʻshagini yulqib koʻtardi. – Alyo, hushyorxonami? Operupolnomochiniy Eshboyev gapiryapti...

– Qo-o-och! – «Tarasha» shunaqangi chinqirdiki, xona jaranglab ketdi. – Qochib qol! – dedi-yu, oʻzini eshikka urdi. Oyogʻim ostida yotgan papkamga chang solib, men ham ketidan tashlandim.

... Atrofi garbil taxta bilan oʻralgan, zilziladan keyin qayta qurilayotgan allaqanday bino tagiga yetganda, nafasimizni rostlab oldik.

– Xafa boʻlma, oʻrtoq, – dedi Botir gʻarch-gʻurch qor kechib borarkan. – Boshing sovqotgan boʻlsa, mening telpagimni kiyib ketaqol...

– E, yoʻqol! – dedim alam bilan...

Uyga kelishim bilan kelingiz chiroyli tabassum hadya etdi:

– Telpagingiz qani?

– Iye, tushib qopti! – dedim boshyalangligim endi esimga kelgandek sochimni changallab.

Kelingiz boyagidan ham chiroyliroq jilmaydi.

– Boshingiz tushib qolmadimi ishqilib?

Ertasiga «Poʻnchik» odatdagidek ishga kechikdi. Botir bilan kechagi hangomani eslashib oʻtirsak, kotiba qiz Gulichka eshikdan moʻraladi.

– Siz! – dedi menga qoʻlini bigiz qilib. – Direktorga! Srochno!

Yuragim taka-puka boʻlib kirsam, direktor tajang boʻlib turgan ekan.

– Kecha nima hunar koʻrsatdingiz? – dedi chimirilib. Endi ogʻiz ochmoqchi edim, jerkib berdi.

– O‘n besh sutka o‘tirishni xohlamasangiz manavi jaramani to‘lab keling. Ellik so‘m! – shunday deb allaqanday qog‘ozni yuzimga uloqtirdi. – Ichadigan – bular, balogardon – men!

Xonaga qaytib kirsam, «Po‘nchik» endi kelib turgan ekan.

– Nima bo‘ldi? – dedi Botir ikkovi baravariga.

– O‘l bo‘ldi, dard bo‘ldi! – dedim baqirib. – Sen, yaramas «Po‘nchik» kafega sudramasang, telpagim yo‘qolmasdi... Telpagim yo‘qolmasa...

– Telpak? – Botirning lunji shishib ketgandek bo‘ldi. – Papkangni ochib ko‘r-chi?

Hech baloga tushunmay, kattakon papkamni ochdim. Qay ko‘z bilan ko‘rayki, telpagim bir quloqchini qiyshayib, iljayi-i-ib yotibdi! Alam bilan «Po‘nchik»ning yoqasiga yopishdim. Lo‘ppi yuzi tandirdan yangi chiqqan nondek qizarib ketdi.

– Qo‘yvor! – dedi hansirab. – Kecha begonalar ilib ketmasin deb papkangga solib qo‘ygandim. Yaxshilikka yomonlikmi, «Churuk papka!»

Ana xolos! Bahonada mening laqabimni ham bilib oldingiz.

## DOMLANING AYTGANINI QIL...

Televizorda mazza qilib futbol ko‘rayotgan edim, eshik qo‘ng‘irog‘i jiringlab qoldi. Ko‘cha eshikni ochdim-u, ko‘zlarimga ishonmay birpas turib qoldim. Bir vaqtlar maktabda zoologiyadan o‘qitgan domlamiz Ochil Oqilovich jilmayib turibdi.

Qarang-a, o‘zgarmabdi. Yum-yumaloq qorni, yo‘g‘on bo‘yniga yarashib tushgan ajib baqbaqasi – hammasi o‘sha-o‘sha.

– Mana, siz bormasangiz ham biz keldik. Shunaqa ekan-da, kichkinalarni kattalar yo‘qlaydigan bo‘p ketgan hozir!

Rostini aytsam, shuncha yillardan beri domlamni biron marta yo'qlamaganimga uyalib ketdim. Ustozim ichkari kiringuncha meni koyib keldi.

– Institutni bitirdingiz, biolog bo'ldingiz, shu domlam menga saboq bergan edi-ku, deb biron marta ziyorat qilmadingiz. Dissertatsiya yoqladingiz, banketingizga taklif etmadingiz. Ha, endi domlangiz xayolingizdan ko'tarilganda-a! Tasanno! Tasanno!

Nima ham derdim, ayb o'zimda. UZR so'ragan bo'ldim.

– Kechirasiz-da, domla... Xizmatchilik, ish tig'iz, ust-ustiga komandirovka...

Ochil Oqilovich boshini likillatib qo'ydi-yu, indamadi. Uyga kirishimiz bilan domlam televizorga imo qilib, tag'in dashnom berdi:

– Anavini darrov o'chiring, uka!

Hayron bo'lib, domlaga qarab qoldim. Futbol bo'lmasa ham go'rgaydi! O'zimni eshitmaganga solib, talmovsiradim.

– Qani o'tirsinar, domla, o'tirsinar...

– Avval anavi dilbuzarni o'chiring, uka!

Mehmon bir nima deganidan keyin go'rni g'ing deysanmi, o'chira qoldim.

Ochil Oqilovich mamnun bosh silkidi.

– Barakallo! Domlangiz bir nima deganida darrov xo'p deng. Bilib qo'ying, televizor degan matoh xotirani susaytirar ekan. Yaqinda chet ellik bir olim tekshirib ko'ribdi: ultrabinafsha nurlar ko'z orqali o'tib, miyani suyultirib yuborarmish!..

Nimayam derdim. Bo'lsa bordir.

Keliningiz eshikdan mo'raladi.

– Ko'k choy damlaymi, qora choy?

– Domla nima desalar shu, – dedim mehmonning ko'ngliga qarab.

– Hech qanaqasi kerakmas! – domla zardali qo'l sil-tadi. – Dunyoda eng ko'p choy ichadigan xalq qaysi, bila-sizmi?

Qarang, shunisidan bexabar ekanman.

– Inglizlar! – dedi domla komil ishonch bilan. – «Pravilnoe pitanie» degan jurnalni o‘qiysizmi, hech? O‘shanda bir ingliz tadqiqotchisining o‘zi yozgan. Jahonda iskleroz bilan eng ko‘p kasallanadigan xalq inglizlar ekan. Yoshi ellikdan o‘tganlar adashib qolsa, boshqalar yo‘l ko‘rsatib yuborishi uchun bo‘yniga adresini osib yurarkan. Men ham choy ichmay qo‘yganimga sakkiz yil bo‘ldi. Nuqul dog‘ suv ichaman. Xudoga shukr, xotiram buloq suvidek tiniq!

Bufetdan bir shisha konyak olib, iymanibroq o‘rtaga qo‘ydim.

– Zinhor-bazinhor! – Ochil Oqilovich ko‘zlarini chirt yumib olgancha bosh chayqadi. – Mana shu qurgur xotirani, ayniqsa, susaytiradi-da! Yaponiyalik bir olimning yozishicha, o‘ttiz yil aroq ichgan odam o‘zining otini ham unutib qo‘yarmish.

– Shundoq-ku, domla... Endi siz bilan biz muttasil emas, oyda-yilda bir marta...

Domlam avval shishaga, keyin qadahlariga qarab qo‘ydid-da, sekin uf tortib, ko‘zlarini suzdi. «Xayriyat, rozi bo‘ldi» dedim ichimda.

Cho‘qishtirib ichdik.

Uchinchi qadahdan keyin kelin o‘rtaga osh keltirib qo‘ydi.

– Qani, domla, boshlasinlar... – dedim tavoze bilan.

Ochil Oqilovich bir osham oldi-yu, afti burishib ketdi.

– Bay-bay-bay! Tuzi muncha baland!

– Yo‘g‘-e... – dedim bo‘shashib. Bir-ikki osham yeb ko‘rdim. Yo‘q, nozaninday osh!

– Polshalik olimning maqolasidan xabaringiz yo‘qmi? O‘zi olim ekan-u, oshpazlik qilarkan... Ana o‘sha oshpaz-olimning yozishicha, osh tuzi xotirani, ayniqsa, susaytirarkan, – dedi domlam qo‘lini arta turib. – Aytishlaricha, Arastu bir umr tuz yemagan ekan. Tuzni iloji boricha kamroq ishlatinglar. Men pensiyaga chiqqanimdan buyon tuzsiz ovqat yeyman.

«Voy-bo! – deyman ichimda, – xotiramni susaytirmay, deb ochimdan o‘laman, shekilli, endi!»

Baribir, mehmoning ovqatga qo‘l urmaganidan keyin qandoq qilib o‘zing eysan? Yig‘ishtirib qo‘ya qoldim. Kelin laganni olib chiqib ketayotganida xuddi hammasiga xotin aybdorday chunonam o‘qraydimki, bir qoshim naq sochimga borib yetdi, chog‘i...

Yarim kechagacha u yoq-bu yoqdan gurunlashib o‘tirdik.

– Endi bizga ruxsat! – Ochil Oqilovich hay-haylashimga qaramay, o‘rnidan turdi.

Yo‘lakka chiqdik.

– Bir poy paypog‘im ko‘rinmaydimi? – domlam tuflisini titkilarkan, peshanasini tirishtirib, menga qarab qo‘ydi.

Esxonam chiqib ketdi. Bu qandoq bedodlik? Uyingga odam deb kelgan mehmonni durustroq kutolmasang! Qilgan ovqating og‘ziga yoqmagan bo‘lsa, buning ustiga paypog‘i yo‘qolsa?!

– Yo‘g‘-e, – dedim atrofga alanglab. – Paypoqqa tegadigan yosh bolamiz yo‘q-ku! O‘zi qanaqa edi?

– Qiziqmisiz? – Ochil Oqilovich o‘ng oyog‘ini baland ko‘tarib ko‘rsatdi. – Bunisi qanaqa bo‘lsa unisiyam shunaqa-da? Yo ikki oyoqqa ikki xil paypoq kiyish moda bo‘lganmi hozir?

Mehmon kutmay har nima bo‘lay! Yo‘lakning burchak-burchaklarini, ayvoni, hatto, gaz plitaning tagigacha titkilab chiqdim. Yo‘q! Domlaning paypog‘i yerda ham, ko‘kda ham! Kelin ichkaridan yangi paypoq ko‘tarib chiqdi.

– Mana buni kiyaqoling, domla!..

– Kerakmas! – Ochil Oqilovich og‘rinib qo‘l silkidi. – O‘zimni paypog‘im durust. Nevara kelin tushirganimizda qudam sovg‘a qilgan edi...

Ochil Oqilovich sovuqqina xayrlashib jo‘nadi. Ertaga paypoqni, albatta, topib qo‘yishga va‘da berdim. Domlam eshikdan chiqib ketishi bilan kelinga zahrinni sochdim.

– O‘lguday beparvosiz! Mehmon kutishni bilmaysiz!

– Men qayoqdan bilay? – dedi jig‘ibiyroni chiqib. – Nima, men domlangizning paypog‘ini kiyarmidim?!

– Eslab ko‘ring! Balki sho‘r ovqat yeyaverib, xotirangiz susayib qolgandir. Muttasil televizor ko‘raverib miyangiz suyulib ketgandir. Qarang-chi, yuvaman, deb biron yoqqa otgandirsiz. Balki tuflisini artib qo‘yayotganingizda tushirgandirsiz. Domlaning qanaqa injiq odamligini bilmaysiz, hali!

– Ko‘rsam, aytmasmidim...

Xullas, janjallasha-janjallasha uxlab qolibmiz.

Tongotarda qo‘ng‘iroq ovozidan uyg‘onib ketdim. Tavba, kim bu, bemahalda eshik qoqqan?

– Kim? – dedim darvoza oldiga kelib.

– Men, domlangizman...

Yuragim zirqirab ketdi: paypog‘iga kelgan!

Eshikni ochdim. G‘ira-shira qorong‘ida Ochil Oqilovichning jilmayib turgan chehrasini ko‘rdim. Jon holatda oyog‘iga qaradim-u, qorong‘ida hech narsa ko‘rolmadim.

– Keling! – dedim bo‘shashib.

– Keldik... – negadir domlamning ovozi menikidan ham bo‘shashibroq chiqdi.

– Qani, uyga kiraylik, – dedim yo‘l boshlab.

– Ha, yo‘q... Qo‘yavering... – domlam yarim yo‘lda to‘xtadi. – Bilasizmi, uka... Kecha oqshom... Bu yoqqa kelayotganimda bir poy paypog‘imni uyimga tashlab, bir poyini kiyib kelavergan ekanman... Qidirib ovora bo‘lmanglar, deb aytgani keldim...

## OSMONDAN TUSHGAN PUL

Bozor iqtisodi degan gaplar paydo bo‘lgan, pullar o‘zgarib turgan paytlar edi. Bir kuni ishlab o‘tirsam, Yozuvchilar uyushmasidan qo‘ng‘iroq qilib qolishdi.

– Sizga pulqog‘oz kepti. Uyushmaning pochta qutisida ekan. Said Ahmad aka menga tashlab ketdilar.

– Qancha ekan?

– O‘n mingdan ortiq! (U paytda o‘n ming so‘m katta pul edi.)

Ishonqiramagan edim, uyushma xodimi astoydil ranjidi:

– Sizni aldaymanmi, aka? Mana, qog‘oz qo‘limda turibdi-ku!

– Mayli, ertaga borib olarman, – dedim hamon shubhalanib. Rostdan, shuncha pul qayerdan kelishi mumkin?

Bir soatchadan keyin Said Ahmad aka qo‘ng‘iroq qildi:

– Pulingni oldingmi, bolam?

– Ertaga olmoqchiman. Shuncha pul qayerdan kelishiga aqlim etmay turibdi. Said Ahmad akaning achchig‘i chiqdi:

– Shu senga problema bo‘ldimi?! Xudo berganiga shukr qilmaysanmi? Men qanaqa sigaret chekishimni bilasan-a?

– Bilaman. «Rodopi».

– Malades! Pulingni olsang, menga sigaret olish esingdan chiqmasin.

– Xo‘p. Bir blok.

– Bekor aytibsan! Ikki blok! Osmondan o‘n ming tushib turibdi-yu, ziqnalik qiladi. Qurumsoq!

Oqsoqol to‘g‘ri aytadi. O‘n ming kichkina pulmi? Balki biron yerda kitobim chiqqandir. Hozir nima ko‘p, nashriyot ko‘p...

Kechqurun yangangiz yotig‘i bilan gap ochdi:

– Kuz kelib qoldi. Nevaralarga issiq kiyim olmasak bo‘lmaydi.

O‘n ming lop etib xayolimga keldi.

– Olamiz! – dedim hozirjavoblik bilan.

– Dilishkaga etikcha...

– Olamiz!

– Shohruxga palto...

– Olamiz!

– Humoyunga...

– Olamiz!

– Qudangiz to‘y qilyapti. Qudachilik – ming yilchilik...

– To‘yona beramiz! Besh-olti ming yetar.

Yangangiz ko‘zimga xavotirlanib tikildi:



- Qarz olasizmi?
- Nega qarz olarkanman?
- Kitobingiz chiqdimi? – dedi u quvonib.
- Shunaqa shekilli...

Ertasiga pasportni kissaga solib, uyushmaga bordim. Qo'ng'iroq qilgan xodim qo'limga pulqog'oz tutqazdi. O'n ming to'qqiz yuz sakson besh so'm! Hammasi zakonniy! Muhriyam bor!

- «Yuvamiz!» – dedim va'da berib. Sho'pirga mashinani Glavpochtaga haydashni buyurdim.

- Mahkamjon, – dedim haydovchiga, – anchadan beri Chaqarning lag'moniga bormay qo'ydik-a?

- Ha, – dedi haydovchi. – Lag'monni boplaydi!

- Bugun boramiz! Jigar kabobniyam sayratvoradi, azamat!..

Pochtaning beshinchi darchasiga borib, pulqog'ozni to'ldirdim. Pochtachi qog'ozga qaradi, pasportga qaradi. Keyin stol tortmasidan g'ishtga o'xshatib taxlamlangan pullarni olib, shundoq burnimning tagiga, peshtaxtaga terib qo'ydi. Undan keyin chaqqonlik bilan ellik so'mliklarni sanay boshladi. U pul sanayapti-yu, mening xayolim boshqa yoqda. Qudamizga to'yona – besh-olti ming. Said Ahmad akaga sigaret. Ikki blok. Dilishkaga etikcha. Tagi qalinidan. Shohruxga palto... Ichi mo'ynaligidan. Humoyunga ko'ylakcha. O'nta. Uyushma xodimiga aroq. Ikkita.

- O'n besh so'mingiz bormi? – dedi pochtachi pulni sanab bo'lib.

- Sakson besh so'm qolaversin! – dedim saxiylik bilan. To'g'ri-da, shulargayam qiyin. Kun bo'yi birovning pulini sanaydi. Bizga sakson besh so'm nima bo'пти! Yana ikkita ellik so'mlik beraman. Bolalariga shirinlik olib bersin. «Snikers» deydimi, ana o'shandan!

- Endi blankaning ikkinchi qismiga ham qo'l qo'yasiz. – Pochtachi shunday dedi-da, stol chetida turgan qutichadagi qog'ozlarni titkilashga tushdi. Uzoq titkiladi. Qaytib kelib, goh men to'ldirgan pulqog'ozga, goh menga tikilib qoldi.

Birdan rangi o'chdi. Peshtaxtaga terib qo'yilgan taxlamlarni yulqib oldi-yu, shosha-pisha tortmaga tiqdi.

– Bu nima? – dedi pulqog'ozni peshtaxtaga qo'yib.

– Pulqog'oz, – dedim hayron bo'lib.

– Qachon oldingiz?

– Bugun.

– Bu – so'm emas, so'm-kupon-ku! Mana, qarang, – u pulqog'ozning muhrini ko'rsatdi.

– To'qson to'rtinchi yil birinchi marta yuborilgan. Hozir bu – o'n so'm to'qson tiyin bo'ladi!..

Pochtaxonadan qanday chiqqanimni bilmayman. Mashinaga o'tirishim bilan Mahkamjon so'radi:

– Lag'monga haydaymi? Abed ham bo'p qoldi o'zi.

– Ishxonaga! – dedim zarda bilan. – Bugun obed qilmaymiz. Ertagayam!

Peshindan keyin Said Ahmad aka qo'ng'iroq qildi:

– Menga sigaret obqo'ydingmi, ikki blok?

– Obqo'ydim! – dedim to'ng'illab. – Ikki otim nos!

Oqsoqol negadir qiqirlab kuldi.

– Rahmat! Shunaqa bo'lishini bilardim. O'tgan hafta men ham Glavpochtaga borganman. Bitta men ahmoq bo'laveramanmi, sen ham ahmoq bo'lg'in, dedim-da, bolam! – Bir zum jim qoldi-da, qo'shib qo'ydi. – Xafa bo'lma, bolam, meniki o'n etti ming edi!

## JAZO

Siz nima desangiz deyavering-u, ammo men birinchi aprelni har yili bayram qilaman. O'n yildan buyon.

O'shanda yon qo'shnim bo'lardi. Bitta «dom»ning bitta qavatida, bitta devorning ikki tomonida yashardik. O'lgudek g'alamis edi. Bir kuni devorga marhum dadamning suratini ilib qo'ymoqchi bo'ldim. Bilasiz, beton devorga mix o'tishi qiyin. Amallab qoqib qo'ydim. Ertasiga qarasam devorning narigi tomonidan bir qarichli mix turtib chiqib turibdi. Qo'shnim menga qasdma-qasdlikka mix qoqib,

allambalo surat osib qo‘ygan bo‘lsa kerak. Hayit kuni to‘rt yashar o‘g‘lim xursand bo‘lsin deb o‘yinchoq surnaycha olib kelgandim. Qo‘shnim allaqaysi kolleжда o‘qiydigan o‘g‘liga rosmana karnay olib berdi. Kechasi bilan ota-bola karnay chalishni mashq qilib chiqishadi.

Kuchanib chalinsa karnay g‘alati ovoz chiqararkan... Oddiy magnitofonimiz bor edi. Bir kuni bolalar ovozini qattiqroq chiqarib qo‘shiq eshitgan ekanmi, ertasiga qo‘shnim «muzikalniy sentr»ining karnayini bizning devorga qapishtirib, tuni bilan «rok-muzika» qo‘yib chiqdi...

Har kim oldidagi maydonchaga ko‘chat o‘tqazgan edi. Bizning ikki tup gilos g‘iyg‘os gulladi. Qo‘shnim ekkan tolning avjidan darak yo‘q. Ammo quvonchim uzoqqa cho‘zilmadi, gilolarimiz endi rang kirgizganda qurib qoldi. Tagidan nuqul kerosin hidi keladi. Noiloj arralab tashladik. Buning ustiga telefonimiz qo‘shnim bilan blokirovka qilingan. Qachon qo‘ng‘iroq qilmoqchi bo‘lsam, qo‘shnim go‘shakni ko‘tarib qo‘yadi. Mengayam yo‘q, ungayam.

Bir kuni ishxonada o‘rtog‘imga hasrat qilib qoldim.

– Bori shumi? – dedi o‘rtog‘im. – Mana ko‘rasan, birinchi aprelgacha qo‘shning masalasini hal qilamiz.

U shunday dedi-yu, qo‘shnimga telefon qildi. Parallel telefondan men ham eshitib turibman.

– Bu Olimovning uyimi? – deb so‘radi o‘rtog‘im.

– Yo‘q, men qo‘shnisiman. Nimaydi? – dedi qo‘shnim.

– Men institutda birga o‘qigan o‘rtog‘iman, – dedi do‘stim. – Olimovni tabriklab qo‘ymoqchi edim. Qo‘shma korxonaga rahbar bo‘pti.

– Maoshiyam oshgandir? – dedi qo‘shnim uf tortib.

– Ha, dollar oladi!

Qo‘shnim indamay go‘shakni ilib qo‘ydi. Kechqurun borsam, salomlashmay uyiga kirib ketdi.

Ertasiga do‘stim yana qo‘ng‘iroq qildi.

– Bu Olimovning uyimi?

– Yo‘q, nimaydi? – dedi qo‘shnim.

– Olimovni deputatlikka nomzod qilishgan ekan. Shunga xursand bo‘lib qo‘ng‘iroq qilayotgandim.

Kechqurun kelsam, qo‘shnim zinadan tushib ketyapti. Meni ko‘rishi bilan qo‘lidagi konvertni yashirdi. «Yumaloq xat» yozgani aniq. Indamay ketaverdim. Indiniga yana do‘stim telefon qildi.

– Bu Olimovning uyimi?

– Yo‘q, dedim-ku! – qo‘shnim ingrab yubordi. – Nima gap? Men uning qo‘shnisiman.

– Tashqi ishlar vazirligidan qo‘ng‘iroq qilayapmiz, Olimov tanlovda g‘olib chiqqani uchun chet elga bir oylik sayohatga borishi kerak. Tezroq hujjatini topshirsa bo‘lardi. Malol kelmasa, shuni aytib qo‘ysangiz...

Kechqurun kelsam, qo‘shnim, qurib qolgan tol tagidagi xarrakda xomush o‘tiribdi. Rangi bir holatda.

– Tinchlikmi qo‘shni? – dedim kulib. – Xafa ko‘rinasiz?

– Mazam yo‘q, – dedi inqillab. Ammo telefonda eshitgan «yangiligini» aytmadi.

Uch kundan keyin do‘stim qo‘ng‘iroq qildi.

– Bu Olimovning uyimi?

– Olimov o‘lar holatda yotibdi! – dedi qo‘shnim ming‘ilab. – Nima deb qo‘yay?

– Attang! – dedi do‘stim. – Qo‘shningiz lotereyaga mashina yutgan ekan. Olib ketsin, demoqchydik.

Telefonda qisqa-qisqa gudok eshitildi.

Kechqurun kelsam, qo‘shnim yo‘q. Yurak o‘ynog‘i tutib, kasalxonaga olib ketishibdi. Bir oydan keyin qaytib keldi. Ammo uzoq turolmadi. Bizning «dom»imizdan ko‘chib ketdi. O‘sha kuni birinchi aprel edi. Mana, o‘n yil o‘tibdi. Shundan buyon har gal birinchi aprelni bayram qilamiz.

## OMADLI JENTELMENLAR

– Aziz teletomoshabinlar! Piramidaning qir uchiga chiqib, Jamolungma cho‘qqisini tomosha qilayotgan, bir million, besh million, boring ana ellik million yutayotgan,

baxtli voqeaga ro'para kelib baxtini topayotgan, a'lo o'yin o'ynab, raqib darvozasiga javobsiz o'nta to'p urayotgan azamatlar soni kun sayin ko'payib bormoqda. Mana, o'zingiz guvoh bo'ling! Marhamat qilib, o'zingizni tanishtirsangiz?

– Men Buxoroning Rometan rayonidanman. Otim Baqoyev Po'lot. O'ziym maktabga ishlayman. Shunaychikun panjshanbe kuni xotinim bilan mashinaga Buxoroga borib ediyim. Ketopsak, lotareya sotopti. Sotuvchi o'zimning sobiq o'quvchim ekan. «Domullo Baqoyev, – dedi, – manginaning latareyasidan birtagina oling, oxel!» – dedi. Xotinim aytdi: «Kat-matta odam latareyani nima qilasiz, undan ko'ra bachalarga banan olayik», – dedi. «Hay birta latareya olsak olibmiz-da», deb shunay o'chirsam, «avtomobil» deb yozib qo'yibdi. Xotinim «ibi-i-i-i!» dedi-yu, yiqilib to'xtadi!

– Sizni chin dildan tabriklaymiz, Po'latjon! Xotiningizni ham qutlab qo'ying. Bundan keyin mashina yutsangiz, yiqilib yurmasinlar! Mana, sizga mashinaning kaliti! Mana, qo'shimcha pul!.. Ammo bu hali hammasi emas, aziz do'stlar! Bugun baxti kulganlarning kunidir! Mana, yana bir g'olibimizni ko'rib qo'ying! Ismingiz?

– Men Hamidxon Xabibxonovman. Namongonning Uchqo'rg'onidan bo'laman. O'tgan hafta institutga ketutsam, supermarketning oldida lotereya sotutti ekan. Uchtaginasini olgan edim, mashina chiqdi!

– Tabriklaymiz, Hamidxon uka! Muborakbod bo'lsin! Ayting-chi, o'qiysizmi, ishlaysizmi?

– Institutda o'qiyman.

– Ko'rdingizmi, azizlar! Omad kulib boqsa, yosh ham, kasb ham tanlamaydi! Ayting-chi, Hamidxon uka, ota-onangiz bormilar?

– Borlar. Didom borlar. Abam borlar. Mana, abamning o'zlari.

– Iye, ayajon, siz Hamidxonning ayalari bo'lasizmi?

– Ashnaqa, ukajon! Balamning baxtidan o'rgilay! Latareyaga yutganini eshitib, kaldirab qolsam deng! Didasini

aytmaysizmi? Bahorda qurt o'lgirga barg kesaman deb tutdan yiqilib, belangi bo'pqolgan edilar. Xushxabarni eshitib, dikanglab turib ketsalar deng! Ming rahmat sizlarga!

– Mana, ukajon, mashinaning kaliti! Haydashni bilasizmi?

– Bilaman, oka, pravam bor!

– Unday bo'lsa, oq yo'l sizlarga! Qarang, hurmatli tomoshabinlar! Yoshgina yigitchaning mashinaga chaqqonlik bilan minib, uchirib ketganini qarang! Shu ketishi bo'lsa, to'rt soatdan keyin o'zini Uchqo'rg'onda ko'radi! Azizlar, navbatdagi g'olibimizni ko'rsangiz, hayratda qolishingiz aniq! Mana, o'zingiz guvoh bo'ling! Siz qayerdانسiz, otaxon?

– Nemene?!

– Qayerdan bo'lasiz, deyman?

– Jaqinroq kel, shirag'im, qulog'im ovur!

– Qayerdan kelgansiz, deb so'rayapman, boboy?

– Yujniy Kazaxstanning Kentov qal'asindin! Oltinshi uvlim Jettisoyda «Alg'abas» sovxozinda malshi bo'lib ishlaydi. O'si uvlimni ko'rayen deb kelib edim. Ippodromg'a barsam, birovi latareya satib jatqan ekan. «Aling' aqsaqal, mashin jutasiz», – dedi. Sasib qalib o'novini olib edim, birovini o'shirsem, mashina shig'ibtur.

– Eshitdingizmi, do'stlar! Otaxonning gaplarini eshitdingizmi? Bizning o'yinimizga faqat hamyurtlarimiz emas, qardosh qo'shnilarimiz ham ishqiboz bo'lmoqda. Ishqiboz bo'libgina qolmay, yutmoqda! Necha yoshdasiz, otaxon?

– Ne deysin?

– Yoshingiz nechada?

– Jetmis jettida! At jili tuvg'anmin.

– Qarang, qadrli do'stlar. Yoshi yetmish yettiga chiqqan, yuzidan nur yog'ilib turgan otaxonni tabriklang! Mashinaning qanaqasini tanladingiz, otaxon?

– Vov shirag'im, mog'an to'rt do'ngalegi bo'lsa bo'ldi.

– Ayting-chi, otaxon, oilangiz katta bo'lsa kerak?

– Ulken. Ush qatin...

– Kechirasiz, otaxon, nima uchta?

– Ush ayolim bor. O‘zbek bayisa tom soladi, qazaq bayisa qatin oladi, degan so‘zni esipegenmisin? Ush qatin, o‘n jetti uvil-qiz, qirq ush nevara, sekkiz sho‘beram bor.

– Qoyilman, otaxon! Uchala kampingiz bilan qo‘sha qaring! Nevara-chevaralarning rohatini ko‘ring! Bo‘ldimi, xayr, omadingizni bersin!

Aziz tomoshabinlar! Hali aytganimizdek, bugun chindan ham g‘oliblar kuni! Ana, tag‘in bir omadli yigit kelmoqda! O‘zingizni tanishtirsangiz?

– Otim Sardor. Familiyam Rustamov.

– Sardorjon! Boshingizga baxt qushi qanday qo‘nganini batafsilroq aytib berolmaysizmi?

– Etsam etvuraman! Buvam rahmatli etganiydila. «Qimorri yaqiniga yo‘lama, badbaxt, qimorvozzi kosasi oqarmiydi», – diganla. Latareya-patareyaga toqatim yo‘q. Oddix kuni shoshib ketvossam, bir bola «mashi latareyani oling, oka, moshina yutasiz» diydi. «Yutadigan latareya bo‘sa nega o‘zing omiysan?» – disam, «pulim yo‘qde, oka» diydi. «Nechchi pul?» disam, «besh yuz», – diydi. Ming so‘m bersam, qo‘limga ikkita bilet tiqishtirvotti. «Hov, bratan, izdachisini bermisanmi, sani latareyang dib uyimga piyada ketamanmi?» – disam, «ikkita olavuring, rachcho‘t bo‘lovuz» diydi. E, bore, nima bo‘sa bo‘ldi, dib, mundoq o‘chirsam, moshina chiqdi!

– Ana, ko‘rdingizmi, azizlar! Omadning kulib boqishini qarang! O‘zingiz qayerda yashaysiz, Sardorjon?

– Tochniy adresim kerakmi, pajalista! Toshkent shahar, Oqtapa massivi, Qo‘shterak ko‘chasi, o‘n to‘rtinchi o‘y!

– Nima? Stop! Kallang ishlaydimi, uka! Tochniy adresga balo bormi? Ertaga butun mahallang, qarindosh-urug‘ing uyingga yopirilib kirsam, yutgan mashinang qani, disa nima qilasan?

– Mani axmo dib o‘ylavossizmi, oka! Xich qanaqa «Oqtapa-moqtapa»ni bilmiyman! Adresim sapsem boshqa. A vapshe otimam Sardormas, Alibek! Hamma Albert diydi!

– Shunaqa demaysizmi, ukajon! Vnimanie, zapis! Hurmatli tomoshabinlar. Kulib turgan yigitning quvonch to‘la ko‘zlariga qarang! Mana, sizga mashinaning kaliti! Yana bir narsa so‘rasam, maylimi, Sardorjon?

– So‘riyvuring!

– Uylanganmisiz?

– Velosiped olishga pul yo‘g‘-u xotinga balo bormi?

– Shuning uchun so‘radim-da, ukajon! Mana, sizga yana to‘rt million so‘m pul! Kattakon to‘y qilishga bermalol yetadi! Tanlaganingiz bormi o‘zi?

– Bor! Besh-oltitasi ochirit bo‘pturipti!

– To‘yingizga bizni ham taklif qiling, Sardorjon! Ko‘rdingizmi, azizlar! Bugun Cardorjonga qo‘shaloq bayram! Bo‘lajak kuyov gulzorga kirgan bog‘bondek eng sara gulni tanlab oladi va qars-badabang to‘y qiladi! So‘ng Sardorjon kelinni minib, «Damas»ni qo‘ltiqlab... Toyis... «Damas»ni minib kelinni qo‘ltiqlab nikoh sayliga chiqadi. Aziz do‘stlar! Shunday qilib, bugun siz bir emas, to‘rt nafar baxti kulgan g‘olibni ko‘rdingiz!.. Navbatdagi yutuq sizniki bo‘lishi mumkin. Shoshiling! Imkoniyatni boy bermang! O‘ynang! Yuting!

Muallif izohi. Bu gaplarning hammasi hazil. Televizorni bo‘kirtirib reklama qiladigan lotereyachilarga ham, chipta sotib olmasa, «allergiyasi» qo‘zib, kechasi bilan «qashlanib» chiqadigan muxlislarga ham omad tilayman!

## G‘AROYIB SAYOHAT

*Ustoz Said Ahmad aka Amerikadan kelgan kuni  
telefonda aytib bergan hangoma*

– Alyo, o‘zingmisan, bolam? Vaalaykum assalom, mullo bo‘lgin! «Ziyoratlar qabul», – deysanmi? Murod hosil! Rahmat. Safar qandoq bo‘lardi, zo‘r bo‘ldi! «Qani bir eshitaylik», – deysanmi? Mayli, sazang o‘lmasin. Ammo-lekin sen yaramasning bir odating yomon. Mendan zo‘r-



zo'r hikoyalarni eshitib olasan-da, qo'shib-chatib o'zingniki qilib yozasan. Bu safar shunaqa qilmasang, hammasini bir boshdan gapirib beraman.

Aslida-ku, Amerika to'g'risida avval ham ancha-muncha narsa o'qiganman. Yoshligimda Achchiq maxsum degan yozuvchining (senlar uni Maksim Gorkiy deysan) «Sariq iblis shahri», baqirib shig'ir o'qiydigan Mayakovskiyning asarlarini varaqlaganman. Hatto o'zimizdan chiqqan bir muxbir ham «Amerikasini ham ko'rdik» degan maqola yozgan edi. Shular Amerikani ko'rganda, nega men bormasligim kerak?

Shundoq qilib, biqiniga «Pan-Amerikan» deb yozib qo'yilgan, gardani ho'kiznikiga o'xshab shishib ketgan «Boing» samolyotiga o'tirdik. Ishonsang-ishonmasang, ichi bamisoli metroning o'zi! Shifti shunaqangi balandki, Sabonis degan naynov basketbolchi bemalol basketbol o'ynasa bo'laveradi! Shunaqangi uzunki, u boshi bilan bu boshi ko'rinmaydi!

«Boing» osmonga ko'tarilishi bilan yonimga qoshlari ipdekkina, sochlari tilla kokildek, oyoqlari uzun-uzun, tizzasidan ikki qarich balandda to'xtab qolgan etak ostidan oppoqqina sonlari ko'rinib turgan xonimcha keldi. Og'izchasi angishvonadek. Lablari xuddi gilos tishlab turganga o'xshaydi. Odamning dilini qitiqlaydigan mayingina, sirligina tabassum hadya etdi.

– Gud moning, mister! – dedi.

Bir vaqtlar Stalin lagerlarida sargardon bo'lib yurganimda bir ingliz shpioni ham bizning barakda yotardi. Shu bilan gaplashib, tilini binoyidek o'rganib olgandim. O'sha esimga tushib, javob qildim:

– Xello! Okaginand aylansin, xello!

Xonimcha tilini bunchalik bilishimni kutmagan ekanmi, quvonib ketdi. Birpasda ancha narsalarni gapirib tashladi. «Djus» deydimi-ey, «biir» deydimi-ey! Ayniqsa, «chiken», «chiken» degan so'zni o'n martacha qaytardi-yov! Sal achchig'im chiqdi.

– Hay, menga qara, – dedim tushuntirib, – nega nuqul «chikka-pukka» deysan? Nima, sen bilan oshiq o‘ynayapmanmi?

Xonimcha zipillab ketayotgan edi, yonimda o‘tirgan bo‘yinboq taqqan, bashang kiyingan amerikalik yigitcha gapirib qoldi:

– Oshiq o‘ynaymiz, deytgani yo‘q, tovuq keltiraymi, deyapti.

Hayratdan yoqamni ushlab qopman. O‘zbekchani suvdek biladigan bu ajnabiy qayoqdan paydo bo‘ldi?

– Menga seni xudoning o‘zi yetkazdi, bolam! – dedim sevinib. – O‘zbek tilini qayoqdan o‘rgangansan?

– Men o‘zbekman, Said Ahmad domla! – deydi.

Battar hayron bo‘ldim. «Bo‘lmasa nega bunaqa sapsariqsan, nima balo, onang zarchavaga boshqorong‘i bo‘lganmidi?» degim keldi-yu, xafa qilib qo‘yishdan qo‘rqdim.

– Mabodo Nosir Fozilovga qarindoshliging yo‘qmi, oltindek yaltirab turibsan, – desam kuladi.

– Men Hayitvoy sariqning nevarasi bo‘laman, – deydi.

– Iye, taxtapullik Hayitvoy sariqning nevarasimisan? – dedim. – Buvang rahmatli ko‘p yaxshi odam edi. Sal tajangligini aytmasa, ja oriyatli edi. Bir gal bedanasi Isroil kalning bedanasidan yengilib qochganda, jonivorning kallasini shartta uzib tashlaganini ko‘rganman. Oting nima bolam, Amerikaga nega ketyapsan?

– Otim Hayitboyev Said. Kaliforniya universitetida magistraturada o‘qiyman, – deydi.

– Bundan chiqdi, adash ekanmiz! – dedim elkasiga qoqib.

– Sizning hamma kitoblaringizni o‘qiganman, domla, – dedi adashim.

Shu payt yana o‘sha xonimcha kelib qoldi. Tag‘in shirin tabassum bilan «chiken» deydi.

– Baraka topgur, – dedim ensam qotib, – «chiken-piken»ningni boshimga uramanmi? Dunyoda tovuqdan

ahmoq parranda bo'lmaydi, odam nuqul tovuq yesa, aqli suyulib, tovuqmiya bo'lib qoladi! Menga qora qo'chqorning dumbasi solingan, Cho'ng'araning guruchidan damlangan bir luqmagina palov bersang, kifoya. Ustiga Uchqo'rg'onning ot qoqilsa yiqiladigan behisidan yarim pallaginasini bostirib kelsang ham teshib chiqmaydi. Ertalabdan beri qorinlar piyozning po'stiga aylanib ketdi-ku!

Adashim gapimni tarjima qildi. Xonimcha tabassum bilan eshitdi. Xayolimga g'alati o'y keldi. Menimcha, bu onasining qornidan tug'ilgandayam «inga-inga» deb yig'lagan emas, iljaygan bo'lishi kerak.

– No problem! – dedi bosh irg'ab. Keyin yana ancha gaplar aytdi.

– Problema yo'q, – dedi Saidboy tarjima qilib. – Janob xohlasalar Nyu-Yorkdagi «Buxoro» restoraniga kirib, «xalta palov» yeyishlari mumkin. Biz chicken, bifshteks, yangi so'yilgan cho'chqa go'shtidan pishirilgan xot-dog bilan siylashga tayyormiz. Afsuski, janob aytgan piyozning po'sti bizda yo'q...

Insof bilan aytganda, bifshteksi mazaligina ekan.

O'zing bilasan, ovqatdan keyin sigaret moydek ketadi! Ayniqsa, o'zimizning «Xon» Huzur qilib ikki-uch tortganimni bilaman, tepamda yana xonimcha paydo bo'ldi.

Bijir-bijir qilib allanimalarni gapirdi. Nuqul «fifti dollar» deydi. Tilmochga qarab, nima gap, desam, «ellik dollar ekan» deydi. Buning odamshinavandaligiga qarang! Izzatimni joyiga qo'yib, menga ellik dollar bermoqchi! O'zbekistondek mo'tabar yurtdan borayotgan aziz mehmonligimni bilibdi-da!

– Meni sen siylasang, seni payg'ambarlar siylasin, – dedim duo qilib. – Menga sening puling jayam kerakmas. Amerikaga safarimning borish-kelish pattasini hukumatning o'zi obergan. Hatto «Sherotan» gastinisasining haqini ham oldindan to'lab qo'ygan. Xudoga shukr, hurmatim bor. Endi-i-i judayam ko'ngling bo'lmayotgan bo'lsa, «ellik

dollar, oltmish dollar» deb maydalashib o'tirmagin-da... – shunday deb, buyog'ini tarjimonimdan aniqlashtirib oldim: – «Ming»ni nima deydi bular?

– «Tauzen», – dedi Saidboy hozirjavoblik bilan.

– Bir yo'la tauzen dollar berib qo'yaqol, – dedim xonimchaga. – Nevaralarga padarka-madarka oborarman.

Xonim gapimning tarjimasini eshitdi-yu, negadir ko'zi g'ilay bo'lib ketdi. Bittasi menga qaraydi, ikkinchisi adashimga! Haliyam kulib turibdi-yu, yig'layotganga o'xshaydi.

– Ellik dollarni u emas, siz berishingiz kerak ekan! – dedi Saidboy.

Hayron bo'ldim.

– Nega berarkanman?

– «Pan-Amerikan» kompaniyasining samolyotida chekish mumkin emas, ellik dollar jarima to'lasinlar, deyapti.

Rosmana jahlim chiqdi.

– Birinchidan, men umrim bino bo'lib jarima to'lagan emasman. Mening mashinamni ko'rsa, GAI teskari qarab turadi. Biladiki, narusheniye qilsam, bir tiyin ham bermayman. Ikkinchidan, men o'zimizning «Xon»ni chekdim. Amerikaniki emas. Uchinchidan, shu odating bor ekan, nega oldindan aytib qo'ymading? Shuning uchun men senga emas, sen menga jarima to'la! «Besh yuz»ni nima deydi?

– Fayf xandrit, – dedi tarjimonim.

– Fayf xandrit dollar, – dedim beshta barmog'imni ko'rsatib. – Bo'lmasa, kattangni chaqir!

Zum o'tmay forma kiygan uchuvchi paydo bo'ldi. Shunaqangi po'rim, shunaqangi «akkuratniy»ki, Umarali Normatovga o'xshab ketadi. Hozir odob bilan jigarni ezadi, deb tursam, chest berdi. «Mister» deb gap boshladi-yu, birdan chehrasi yorishdi.

– Said Ahmad aka, o'zingizmisiz? – deb quchoqlab oldi. Razm solib qaragam, tanish ko'rinadi.

– Menga qara, chuvalachilik Mirvaqqos qatiqchining o‘g‘limisan? – desam, «Qayoqdan bildingiz, dadam sizni ko‘p gapirardilar, bir maktabda o‘qigan ekansizlar», – deydi.

Birpasda apoq-chapoq bo‘p ketdik.

Shu samolyotda ikkinchi uchuvchi ekan. «O‘zbekiston havo yo‘llari» kompaniyasining vakili, obro‘si ja baland ekan. Inglizchani «mixlab tashlarkan!»

– Bu ser kimligini bilasanmi? – dedi xonimchaga. – Mister Said Ahmad o‘zbekning Mark Tveni bo‘ladi. Tushudingmi?

Xonimcha shunaqangi xijolat bo‘ldi, shunaqa xijolat bo‘ldi! Nuqul «Aym sorri mister Axmed, aym sorri, pliz!» deydi. (Uzr so‘rayapti chog‘i).

– Mayli, gunohingdan kechdim, okang aylansin! – dedim rahmim kelib. – Menga priz bermasang ham xafa bo‘lmayman. Faqat Nyu-Yorkka qo‘nganimizda tauzent dollar berish esingdan chiqmasin!

Uchuvchi shu samolyotga minishimdan bexabar qolganini, bo‘lmasa «do‘ppidekkina» osh damlab qo‘ygan bo‘lishini aytdi. Nega bunaqa olis safarga otlanganimni so‘radi. «Kelinlar qo‘zg‘oloni» Amerikada sahnalashtirilgani, aka buxor yahudiy qadrdonlarim asar premyerasini ko‘rmasam, xafa bo‘lishini aytib, o‘n bir marta telegramma yuborganini; shu bahona ko‘rmagan joylarni ko‘rib, oyog‘imning chigilini yozish uchun safarga chiqqanimni aytdim. Farmonbibi rolini o‘ynagan aktrisaga bir jo‘ra juhud atlas olib ketayotganimni ham eslatib qo‘ydim. Uchuvchi menga qilingan boyagi noxush muomalani «dazmollagisi» keldimi, taklif qilib qoldi.

– Samolyotning yuqori qavatida basseyn bor. Yuring, mazza qilib cho‘milib olasiz. Hali manzilga yetishimizga sakkiz soat bor, Atlantika ustidan o‘tayotganda o‘zimiz ham zerikib ketamiz, – dedi.

Xushlamayroq turganim uchun bahona qildim.

– Qo‘ya qol, ukam, o‘ng oyog‘im zirqillab og‘rib turibdi.

– Yuravering, basseynning suvi issiq, – deb qo‘ltig‘imdan oldi, tarjimon Saidboy ham ergashdi. Lift g‘uvillab tepaga olib chiqdi. Kichikroq tennis maydonchasidek keladigan hovuzda ko‘m-ko‘k suv mavjlanib turibdi. Basseyn o‘rtasida ikkita suv parisi suzib yuribdi. Koshinlangan qirg‘oqda tag‘in ikkitasi o‘tiribdi. Ikkitasining sochi malla, ikkitasiniqi qop-qora. Rostini aytsam, umrim bino bo‘lib bunaqangi paripaykarlarni birinchi ko‘rishim! Mening o‘rnimda Chingiz Ahmarov bo‘lsa, bir zumda «Amerika madonnasi» degan portret chizib tashlagan bo‘lardi. Mikelanjelo tirilib kelsa, shularning haykalini yasardi. Oq marmardan! Shunaqangi mukammal, shunaqangi «figurniy»ki, Umar Xayyomning chikkabel ko‘zasi bularning oldida xumdek gap! Yo‘q, bular odam bolasi emas, haqiqiy suv parisi! Hushyor bo‘lmasang, afsun qilib, suv tagiga tortib ketadi! Ana, bittasi «kelaver» deb imo qilyapti. Kaftimni peshanamga soyabon qilib tikilib qaragam, dumi yo‘q! (Suv parisida dum bo‘lardi, shekilli). Endi imlaysanmi, noinsof! Aqalli o‘n-o‘n besh yil avval qayoqda eding?! Basseyn tugul dengizning tubiga ham birgalashib tushib ketaverardim!

– Yechinadigan xona uyoqda, dushxona buyoqda. Endi, oqsoqol, xizmatchilik, bizga ruxsat, – dedi uchuvchi. – Hademay, Bermud uchburchagi ustidan o‘tamiz. Shturvalni o‘zim ushlab turmasam, anavi amerikalik hamkasblarim qiynalib qolishi mumkin. Nima, siz bilan menga o‘xshab har kuni qazi-qarta yeb yuribdimiki, bilagi baquvvat bo‘lsa!

Tarjimonning ikki ko‘zi parilarda. Charviga tikilgan mushuknikiga o‘xshab yiltirab turibdi. Tag‘in menga aql o‘rgatadi.

– Oqsoqol, odatda, basseynga tushishdan oldin dushxonaga kirib, shampunga obdan cho‘milish kerak, bo‘lmasa yuz dollar jarima soladi, – deydi.

Jinday rashkim keldi.

– Men bekordan-bekorga cho‘miladigan anoyilardan emasman, – dedim zarda bilan.

Shunaqa desam, nima deydi, degin? «O'zingiz ham yaqin besh-olti yildan beri cho'milishga ehtiyoj sezmagani ko'rinasiz», – deydi. Buvasi ham shunaqa, to'ng odam edi. Ke, shu yosh bola bilan teng kelamanmi, deb lift tomon yurgan edim, ketimdan ergashdi.

Joyimizga kelib o'tirishimiz bilan sertabassum xonimcha tag'in tepamizga keldi.

– Kofe? Ti? – dedi qildek qoshini uchirib.

– Janob kofe ichadilarmi, choymi, deb so'rayapti, – dedi tarjimonim.

Bilasan, umrimda ko'k choy ichmaganman. Ko'k choy ichsam, obro'yim tushib, davleniyam pasayib ketadi. Shunaqa-ku, boya jarima to'laysan, deb tinkamni quritgani uchun men ham g'ashiga tekkim keldi.

– Menga kofe-mofe sapsem kerakmas. Menga 95 ko'k choydan bir choynakkina obkel. Shri-Lankaning choyidan bo'lsin. Choynakka tushishi bilan shapaloqdek yoyilib ketadiganidan bo'lsin, o-key? – dedim qo'limni paxsa qilib.

Xonimcha tamanno bilan nari ketdi. Bularning choy zavodi bormi, nima balo! Patnisda yetti xil ko'k choy olib kelsa, deng! Qahrabodek achchiq qilib damlangan choydan ikki ho'plam ichganimni bilaman, shilq etib pinakka ketibman. Aytmovdimmi, ko'k choy davleniyamni tushirib yuboradi, deb! Sovug'im oshib ketgan-da!

Bir mahal «Ko'zingizni oching, oqsoqol, buyog'i yaqin qoldi» degan ovozdan uyg'ondim. Tepamda chuvalachilik uchuvchi turibdi.

– Nyu-Yorkka yetib keldik, samolyotni ataylab pastlatib uchiraymi, tepadan turib shaharni bir tomosha qilasizmi? – deydi.

Xayolimga «ariginalniy» fikr keldi.

– Menga qara, ukam, – dedim, – rostdanam menga xizmat qilgning kelayotgan bo'lsa, bir ish qilasan. Samolyotingni «Ozodlik haykali» atrofida ikki marta aylantirib o'tasan. Shu xotinni yaqindan ko'rishni ko'pdan beri orzu qilib yurardim.

– No problem, oqsoqol! – uchuvchi shunday deb chest berdi-da, kabina tomon yugurib ketdi.

Zum o'tmay uzoqdan haykal ko'rindi. Boshida chambarak. Qo'lida mash'ala. Samolyot shunaqangi yaqin bordiki, qanoti haykalning qo'lga tegib ketay dedi. Shunda g'alati ish bo'ldi. Boyagi xotin o'ng qo'lidagi mash'alani olib, chap qo'ltig'iga qistirdi. Keyin o'ng qo'lini Kapitoliy qubbasidek bo'liqqina chap ko'ksi ustiga qo'yib, ta'zim bajo qildi.

– Assalomu alaykum, qadrli Said Ahmad aka! Bizning yurtimizga xush kelibsiz! – dedi tantanavor ohangda. – Sizning kelishingizni intizorlik bilan kutayotgan edim. «Kelinlar qo'zg'oloni» komediyasi «Tiklanish» teatrida namoyish qilinadi!» degan reklamani boshim atrofidan ikki yuz marta aylantirdim! – shunday dedi-da, egilib-egilib tag'in uch marta ta'zim qildi. O'ziyam chimildiqdan yangi chiqib, qaynotasiga salom qilayotgan kelinchakka o'xshab ketdi.

– Vaaleykum assalom, qizim! – shundoq dedim-da, samolyot derazasidan boshimni chiqarib, peshanasidan o'pib oldim. (Peshanasi muzdekkina ekaniga parvo ham qilmadim.) – Umringdan baraka top! Baxtli-saodatli bo'! – dedim. «Qo'shganing bilan qo'sha qarigin», – degim keldi-yu, bu atrofda boshqa haykal yo'qligi esimga tushib, uyog'ini aytmay qo'ya qoldim. Shu payt kerosin oxirlab qoldimi, samolyot pastlay boshladi...

...Iye, shoshmay tur, bolam, bog' eshigi ochildi, shekilli. Ana, oq «Neksiya» kirib kelyapti. Kim bo'ldi bu? Mashinaning chap eshigidan GAIning tayog'iga o'xshagan burun chiqib turibdi. Iye, Anvar Obidjon-ku! Ja yaxshi ko'raman-da, shu bolamni! Oltiariqning «bading»idan bir qopgina oboraman, degandi. Shuni olib kelayapti chog'i... Qolganini keyin eshitarsan. Badingni vaqtida marinovka qilib qo'ymasak, so'lib qoladi...



Muallif izohi. Hikoyani ustoz qanday aytgan bo'lsa, shundayligicha qog'ozga tushirdim. Senkyu verimach! Gud bay!

## MEHMON OTANGDAN ULUG'

Biz azaldan boy-badavlatmiz. Davlatimiz mil-mil! Boy bo'lmasak, oq poshsho hazrati oliylarining mo'tabar nazarlari Turkistonga tusharmidi? Qaysi ahmoq qashshoq yurtga azza-bazza lashkar tortib boradi? O'shanda, bundan salkam yuz ellik yil avval desangiz, qudratli chor Rusiya-sining askarlari Toshkentga «mujdika» chalib kirgan ekan. Hamma xursand! O'yin-kulgi... Buni qarangki, bir kampir tandirdan yangi uzilgan ikkita non ko'tarib, ostonaga chiqibdi. Mehmon – atoyi Xudo! Siylash kerak! Shunda shop-shalop taqqan askar qilich bilan bir urib, kampirni ikki nimtaga bo'lib tashlabdi. Qani, insof bilan aytingchi, askar bolada nima gunoh? Hamma ayb kampirning o'zida! «Assalomu alaykum, sallot bolam, xush kepsan, urush qilaverib, odam o'ldiraverib sillang qurib ketgandir, issig'ida eb olaqol, bolam» demaydimi? Umrida patir non ko'rmagan sallot sho'rlik qayoqdan bilsin, bu xotin non beryaptimi, zaharmi?

Oq poshsho oliy hazratlari xo'p insonparvar bo'lgan ekanlar-da! Toshkent bosqinini eshitib, dillari og'ribdi. Polkovnik Chernyayevni qattiq koyibdilar va unga «generallik unvonini» berib, brilliant sopli oltin qilich hadya etibdilar. Shahrimiz biqinidagi Chernyayevka, degan nom hamon o'sha «shonli g'alaba»dan darak berib turibdi...

Keyin «hurriyat» bo'lib zamonlar o'zgardi, hamma teng bo'ldi. Hamma bir-birinikiga mehmonga boradigan odat chiqardi. Yigirmanchi yillari Toshkentga Samara degan joydan mehmonlar keldi. Ming-ming mehmon... Toshkent – non shahri, deganlari rost ekan. Bozorlar to'lib ketgan. Bir tomonda – shirmon bozor, bir tomonda – qaymoq bozor.

Faqat bu yurtning odamlari g'alati. Novvoy savatga nonini uyub qo'yadi-da, qo'shnisi bilan gap sotadi. Og'zida nos. Dehqon qovun to'la aravasini qarovsiz tashlab, choyxonada yonboshla-ab, ko'k choy ichadi. Zargarni aytmaytizmi, zargarni! Do'koniga qulf osishga aqli yetmaydi, tentak! Eshigini ip bilan bog'lab, peshinda machitga yuguradi. Bu yoqda nima bo'layotganidan xabari yo'q, namoz o'qiydi, fanatik! Yo'-o'q! Odam bir narsani astoydil xohlasa, tez o'rganarkan. Mehmonlar bir «shmon» qilgan edi, mezbonlar kunduz kuniyam eshigiga qulf solib o'tiradigan bo'lishdi. Qo'ng'irog'ini bossang, avval durbinda mo'ralab qaraydi. Keyin erinmasdan etti pushtingni surishtiradi. Undan keyin kamida oltita qulfni sharaq-shuruq qilib ochadi. Ana undan keyin eshigini qiya qiladi-yu, ichkaridan o'rtacharoq buzoqdek it yugurib chiqadi-da, «qo'lingni ko'tar!» deydi. Mana buni chinakam «sivilizatsiya» desa bo'ladi!

Falokatni qarang! Toshkentda yer qimirladi. Yomon qimirladi! Toshkentday shahri azim yalpisiga qurilish maydoniga aylanib ketdi. Koshonalar, osmono'par imoratlilar...

Kallaxonadagi ovsar bo'lsa, tayyor uyga ko'chmaydi. «Ha, nima gap?»

– «Mahallamdan chiqmayman, do'mingga ko'chmayman. Tobutkashlarimdan ajralmayman!»

E, o'rgildim dimoq-firog'ingdan. Shundoq uylar bo'sh yotsa-yu, sen noz qilsang?!

Nima? Uchastka kerak? Marhamat, xohlasang Qurbaqaobodga ko'ch, xohlasang – Toshbaqaobodga! Loy tep, g'isht quy, somon suvoq qil... Bitib qolar axir, o'sha uchastkang! Besh yildami, o'n yildami... Yigirma yildami... Senda nima ko'p – bola ko'p! Erta-indin yoningga kirib qoladi. Birgalashib loy changallaydi... Voy-bo'! Shu churvaqalarning hammasi senikimi? Qachon ulgurding, xumpar?! Xudo haqqi, hayronman! Qaysi xonadonga kirsang, atrofingda bola o'ralashadi. To'rtta, oltita, o'nta,

o'n ikkita. Bittasining xotini o'n oltita tug'ibdi-ya, tavba! Bu yurtning erkaklari beliga mato'r bog'laganmi, nima balo?! Bir gap aytaymi? Obke qulog'ingni! Ajoyib mutaxassislar kelgan. O'shalarga xotiningni obor! Bor-yo'g'i ikki marta uchrashsa, bas. Mato'ring qizimoq tugul portlab ketsayam, xotining tug'maydi. Tamom-vassalom! To'g'ri-da, xotinni avaylash kerak. Uyam dam olsin-da, feodal!

Qaysi kuni shu gapni aytib, baloga qoldim! Zo'rg'a qochib qutulsam, deng. Yerga yotqizib savalardiyam-da! Bo'lmasam-ku, oddiy dehqon ekan o'sha «qahramon otal» E, qahramon bo'lmay, har nima bo'! Salkam bir soat bahslashib, niyatimni tushuntirolmasam-a! Nima deydi deng? «Nega endi boshqa tomonlarda o'n bolali oilani maqtab, dunyoga doston qiladi-yu, sen mening ishingga aralashasan? Nega er-xotinning to'shagini hidlaysan?» E, to'shaging boshingda qolsin-e! Ichim achiganidan aytyapman-da, nodon! O'n bitta bolani boshingga urasanmi, shuncha bolani boqishning o'zi bo'ladimi? Bolang ko'paymasa, «poraxo'r» bo'lmasding, «qo'shib yozuvchi» bo'lmasding, «boqimanda» bo'lmasding. Yaxshiyam Gdlyan, Ivanov degan «azamatlar» bor ekan! Minglab odamlarni qamoqqa tiqdi. Nima? Tuhmat deysanmi? «O'zbek ishi» haqorat deysanmi? Tuhmatmi, balomi-battarmi, ishqilib adolat o'rnatdi-ku! Ha, endi, to'qayga o't ketsa, ho'lu quruq baravar yonadi-da! Sen aytgan begunohlar besh yil yotar, o'n yil yotar... Joni sog' bo'lsa, chiqib keladi-da, bir kun... Obbo! Yana gapiradi-ya! Boshqa yurtlar bilan nima ishing bor? Poraxo'rlik markazda ham bo'lgan bo'lsa, bo'lgandir. Qo'shib yozish Rostovda bo'lgan bo'lsa, bo'lgandir. Tekinxo'rlik Kavkazdayam bo'lgan bo'lsa, bo'lgandir. Senga nima? Markazdan ishning ko'zini biladigan «rahbar kadrlar» keldi. Eshityapsanmi, markazdan! O'zbekistonda «tartib o'rnatish» uchun! Xo'p, injener pillachiga yo'l-yo'riq ko'rsatsa nima bo'пти? Yo o'ziyam qurtga aylanib, pilla o'rasinmi? Dengizchi, deysanmi? Avvalambor, dengizchi polizchiga aql o'rgatayotgani yo'q. Ish talab qilyapti.

Qolaversa, qovun degan sabil suv ichadimi? Ha, barakalla! Suvning qadrini allaqanday savodsiz dehqon biladimi yo o'n yetti yil ummonda suzgan dengizchimi? O'ylash kerakda, do'stim! Menga qara, uka! Sen-chi, aqling yetmagan ishlarga aralashma, ma'qulmi? Paxtangni sug'or, uzumingni xomtok qil, tomorqandagi jo'xoringni qayir... Keyin... Xotiningni do'xtirga obor. Bola tug'averib, minorka tovuqqa o'xshab qopti, sho'rlik! E, birodarlar! Nimasini aytasiz! Oshkoralik, demokratiya, degan gaplar chiqdi-yu, odamlar buzildi. Po'ristoy bir kalxo'zchiga gap tushuntiraman, deb miyam achib ketsa-ya! Tushuninglar axir. Mehmon degani otangdan ulug' bo'ladi! Menga qolsa haliyam o'sha gapimgap: kelaveringlar, aziz mehmonlar! Marhamat! Uyimizning to'ri – sizniki! Bizga ostonaga ham bo'laveradi. Agar ostonaga sig'may qolsak, hovliga chiqamiz. Hovliga sig'masak, ko'chaga chiqib ketamiz. Bordi-yu, ko'chaga sig'may qolsak, buniyam yo'li bor. Osmoni falakdan paydar-pay uchar likopchalar tushib turibdi. O'shanga o'tiramiz-u hayyo-hayt deb, o'zga sayyoralariga uchib ketamiz!

1985 y.

## MODDIY YORDAM

Bu g'avg'olarning hammasi arzimagan gapdan boshlandi. Bir kuni kasaba uyushmasining boshlig'i Usmon aka yonimga kelib, yelkanga qo'lini tashladi.

– Ayollarga qalaysiz? – dedi to'satdan.

Hech baloga tushunmadim.

– Qaysi ma'noda?

– Nu, masalan, hurmat qilish ma'nosida.

– Ha, endi el qatori, – dedim rostini aytib.

– Bo'lmasa bunday... Bir xizmat qilasiz. Uch kundan keyin xotin-qizlar bayrami. Erkaklar nomidan kichkina-gina ziyofat uyushtirsak nima deysiz?

– Necha so‘m kerak? – dedim maqsadini tushunib. Firmamizda bunaqa tadbirlar tez-tez bo‘lib turadi. Birov nafaqaga chiqadi, birov uylanadi, birov tug‘adi, degandek...

Cho‘ntagimdan endi pul chiqarayotgan edim, Usmon aka qo‘limni ushladi.

– Pulingiz kerakmas, – dedi sirli qilib. – Siz bermaysiz, olasiz!

– Nima?

– Olasiz! Bir varaq qog‘ozga ariza yozib berasiz-u, ellik ming so‘m olasiz. Biz shunga ixchamroq banket qilamiz.

Mendan nima ketdi. Baribir, ayollar bayramida erkaklar nomidan o‘zimiz ham qatnashamiz-ku! «Menga yordam beringlar, qiynalib qoldim» degan ma‘noda ariza yozib, qo‘l qo‘yib berdim. O‘sha zahoti kassirdan ellik ming olib, Usmon akaning qo‘liga topshirdim. Bayram ko‘ngildagidek o‘tdi. Jinday shampan ichdik, ayollarni qutladik...

Bu gaplar paqqos esimdan chiqib ketgan edi-yu, bir kuni kasaba uyushmasining majlisi bo‘p qoldi. Usmon aka qilingan ishlar haqida gapira turib, to‘satdan qo‘lini bigiz qilib meni ko‘rsatib qoldi.

– Mana, yaxshi ustamiz Botirovni olaylik. Shu o‘rtoq og‘ir kasal bo‘lib o‘rnidan turolmay yotganida biz unga ellik ming so‘m moddiy yordam berdik!

Atrofda o‘tirganlarning hammasi bir yil to‘shakka yopishib yotgan odamni ko‘rmoqchi bo‘lgandek menga burilib qaradi. Hayron bo‘pqopman! Bola bo‘lib «ix» degan emasman. Qishda qorda yuvinaman. Toshni yesam, qum qilib yuboraman! Endi shuni aytmoqchi edim, qarasam, Usmon aka boshqa masalaga o‘tib ketibdi. Indamay qo‘yaqoldim.

Oradan bir hafta o‘tdimi, o‘n besh kunmi, Usmon akaning xonasiga chaqirib qolishdi. «Endi moddiy yordam bersa olmayman» degan o‘y bilan eshikni ochsam, xonada ko‘zoynak taqqan semiz xotin, ro‘parasida Usmon aka o‘tiribdi. Stol ustida har xil qog‘ozlar, papkalar...

– Tanishing! – dedi Usmon aka meni ko'rsatib. – Botirov deganimiz shu kishi bo'ladilar.

Ayol ko'zoynak ortidan yuzimga sinchiklab tikildi.

– Opamiz taftish komissiyasining a'zosi bo'ladilar, – dedi Usmon aka. – Shahar boshqarmasidan kelganlar.

– Qalay, uchastkangizni tiklab oldingizmi? – dedi notanish xotin mehribonlik bilan. Hayron bo'lib Usmon akaga qaradim. Ko'zini qisyaptimi, qovog'i uchuyaptimi, tushunolmay garangsib turgan edim, Usmon aka gapni ilib ketdi.

– E, unchalik yongan emas! – dedi shang'illab. – Bu kishining o'g'ilchasi sho'x-da! Onasi do'konga chiqib ketganida, elektr plitkani razetkaga tiqibdi. Shunga aqli yetganini ko'rmaysizmi? Bog'cha bolasi-ya, bo'lmasa! Otasiga o'xshagan shustriy-da! Biz bergan ellik ming so'm bilan uyni ta'mirlab oldingiz-a, to'g'rimi?

Nima deb g'o'ldiraganimni bilmayman. Amallab chiqib ketdim. Bora-bora bu gaplar unut bo'pketdi. Endi tinchidim deb yursam, Yangi yil arafasida kasaba uyushmasining hisobot majlisi bo'lib qoldi. O'zingiz bilasiz, esi bor odam majlisning orqaroq qatorida o'tirgisi keladi. Aksiga olib, kechikib kelibman. Majbur bo'lib birinchi qatordan joy oldim. Ikkita odamdan keyin minbarga Usmon aka chiqdi. Meni gapirma edi, deb yuragim po'killab turgandi, xuddi aytganimdek bo'ldi.

– Hurmatli majlis qatnashchilari! – dedi u kichikroq dasturxondek keladigan ro'molchasi bilan peshanasini artib. – Biz nuqul ishni o'ylayvermay, insonlarga g'amxo'rlik qilishni ham bilishimiz kerak. Odam hamma narsadan aziz, birodarlar! Mana, hurmatli Botirovni olaylik. Ajoyib kadr! Firmamizning ko'rki. Ustiga-ustak ko'p bolali oilaning boshlig'i. Bir emas, oltita qizi bor! Birinchi qor yoqqan kuni uchinchi sinfda o'qiydigan qizalog'i yaxmalak o'ynayman deb oyog'ini sindiribdi! Botirovga darrov ellik ming so'm moddiy yordam berdik!

Ko'z o'ngim qorong'ilashib ketdi.

Sakrab o'rnimdan turdim-da, minbarga qarab bor ovozdada qichqirib yubordim.

– Dod!

Kattakon zal suv quygandek jimjit bo'lib qolganini, hamma menga hayratlanib qarayotganini payqadim.

– Men hech qachon yordam olgan emasman! – dedim qo'limni paxsa qilib. – Hech qachon o'ladigan kasal bo'lmaganman! Uyimga o't ketganmas! Yonadigan uchastkamning o'zi yo'q! Bir xonali katalak kvartirada turaman. Razetkaga sim tiqadigan o'g'lim ham, yaxmalak uchadigan qizim ham yo'q, bildingmi?! Uyog'ini so'rasang, xotinim ham, xotin olishga pulim ham yo'q! Qutuldimmi endi?!

Nafasim bo'g'zimga tiqilib, harsillaganicha joyimga o'tirdim. Usmon aka semizgina buzoqboshi ko'rib qolgan xo'rozdek boshini goh u yoqqa, goh bu yoqqa tashlab, menga uzoq tikilib turdi-da, negadir iljaydi.

– O'rtoqlar! – dedi mahzun ohangda. – Insonlarga ko'proq g'amxo'rlik qilaylik, deb bejiz aytmadim, birodarlar. Ko'rib turibsizlar! Bir yil ichida Botirov birodarimizning boshiga shuncha tashvish tushdi. Uyiga o't ketdi. O'zi kasal bo'lib, bir o'limdan qoldi. Shiringina qizalog'i mayib bo'ldi... – u menga qarab og'ir-og'ir bosh chayqadi. – Tag'inam fil ekansiz, birodar! Xudo sabr bersin. – Keyin yig'ilganlarga qarab, «ana shunaqa gaplar» degandek ma'noli bosh chayqadi. – Xafa bo'lmang, – dedi tag'in menga yuzlanib. – Biz sizni, albatta, davolatamiz. Yaxshi psixiatrlar bor! Kerak bo'lsa ellik ming so'm emas, oltmish ming, hatto yetmish ming moddiy yordam beramiz!

O'rnimdan yana sapchib turib ketdim. «Yordaming bilan qo'shmozor bo'li!» – deb baqirgan edim... Hech kim eshitmadi. Hamma gulduros qarsak chalar, Usmon aka esa viqor bilan minbardan tushib borar edi...

## SOAT

Ertalab ishga ketayotib, bunday qarasam, qo‘l soatim to‘xtab qopti. Silkitib ko‘rdim, burab ko‘rdim, qani yursa!

– Soat to‘xtab qopti, – dedim ostonada turganicha.

Keliningiz chimirildi.

– Sizning qo‘lingizga tushgan narsa sog‘ qolarmidi?

Aslida-ku, soatda haqqim ham qolmagan. O‘n yildan berimi, o‘n besh yildan berimi taqaman. Shunaqa-ku, soatni keliningiz sovg‘a qilgan. O‘z qo‘li bilan. Xotin kishining sovg‘asi tufli ichidan turtib chiqqan mixga o‘xshaydi. O‘zini eslatib turmasa, ko‘ngli joyiga tushmaydi. Ustiga-ustak bizning soat allaqanday batareyali soatlardan emas. Mexanicheskiy! Buraladigan!

– Yosh bolaga o‘xshaysiz! – dedi keliningiz dashnom berib. – Darrov tuzattirib oling!

Nima bo‘lsa bo‘ldi, dedim-u bekatdagi soatsozning do‘konchasiga kirdim. Bir ko‘ziga durbin taqib o‘tirgan burni cho‘michday soatsoz qoshini uchirib imo qildi:

– Xizmat, akamullo?

Indamay soatni uzatdim. U soatning orqa qopqog‘ini ochdi-da, og‘ir-og‘ir bosh chayqadi.

– Soat deganini munday tutmaydilar, akamullo! Muni qarang! Muni qarang! – u allaqanday katta-kichik vintchalari qalashib yotgan soatni burnimning tagiga olib kelib ko‘z-ko‘z qildi. – Bir tonna kir yig‘ilibdi-ku, ichiga! Ha endi o‘zingiz bir kun yuvinmasangiz ta‘bingiz tirriq bo‘lib yurasiz. Hay, bu soat deganiniyam ozoda saqlash kerak-da, akamullo. Yaqin besh yildan buyon qo‘l tegmay kirlab ketibdi-ku, jonivor.

– Qachon tuzatasiz? – dedim gapni cho‘zmaslik uchun jerkibroq.

– Hay, endi, akamullo, bo‘yoqchining nili emas-da, bu. Har bitta vintini olib tozalaymiz. Yana o‘rniga qo‘yamiz. Hay, ana besh kunda kelsangiz, soat tap-tayyor-da, akamullo!



– Qo‘ya qoling, usta, – dedim chaynalib, – kelgusi safar olib kelarman.

– Ixtiyor o‘zingizga.

Usta soatni qaytardi-yu, bir ko‘ziga durbinni tutib ishini qilaverdi.

Bekatga borib chorak soatcha turdim hamki, avtobusdan darak yo‘q. Endi xunob bo‘la boshlagan edim, ko‘chaning u yuzida, sarta-roshxona yonboshida joylashgan boshqa bir soatsozlik do‘koni esimga tushib qoldi. «Bir kirib ko‘rmaymanmi, – dedim o‘zimga-o‘zim. – Ishga kechikishga kechikdim. Baribir soatni tuzattirish kerak-ku».

Bu do‘konning ustasi jingalak sochli yigit ekan. Chaqqonlik bilan soatni ochdi-yu, shu qadar alam-sitam bilan hushtak chalib yubordiki, soatga emas, ustaga rahmim kelib ketdi. Keyin xuddi og‘ir jinoyat qilib qo‘ygan odamga tikilgandek ko‘zimga uzoq qarab qoldi.

– Ha? – dedim uning tikilishiga tob berolmay.

– Yoqut! – dedi soatsoz ma’noli bosh chayqab.

– Nima yoqut?

– Har qanday mexanicheskiy soatda tosh bo‘ladi. Mana, «dvenadsat kamney», deb yozib qo‘yibdi. Demak, bu soatda o‘n ikkita tosh bor, degani. Tosh nimadan bo‘ladi? Yoqutdan!

– Nima qipti? – dedim xavotirlanib.

– Nima qilardi, soatingizning toshi to‘kilib tamom bo‘pti, og‘ayni! Yoqut degan narsa qanaqa kamyob toshligini bilasizmi? – Usta sirli bir gap aytayotgandek ovozi pasaytirdi: – Menga qarang, og‘ayni, o‘zimizning odam ekansiz. Siz uchun mayli, topaman.

– Qancha bo‘ladi? – dedim yengil tortib.

Usta oliy matematika mashqini bajarayotgandek peshanasini tirishtirib uzoq hisobladi.

– O‘n besh ming so‘m! – dedi nihoyat mushkul masalani yechgandek yengil tortib. – Sizga o‘n besh ming. Hozir munaychukun soatlarga zapchas topish osonmas. Antikvar-bu soat. Ammo-lekin o‘zimizning odam bo‘lganingiz uchun

amallayman-da, og'ayni! Bo'lmasa-ku, bu soatni allaqachon poyezdning tagiga tashlab yuborib, qutulganingizning suyunchisiga ziyofat qilib berishingiz kerak edi-ya!

– Rahmat! – ustaning qo'lidan soatni tortib oldim. U o'rnidan turib ketdi.

– Ie, ha, yo'l bo'lsin, og'ayni!

– Poyezd yo'liga! – dedim to'ng'illab.

Avtobusdan tushib ishxona darvozasiga yetibmanki, hamon boshimga balo bo'lgan soatning, ustalarning go'riga g'isht qalayman. Aksiga olib, shundoq... kiraverishdagi temir darvozaning yonida ham soatsozlik ustaxonasi bor ekan. Har kuni shu yerdan kirib-chiqarkanman-u. e'tibor bermas ekanman. Ishing tushmaganidan keyin shu-da!

Mana, qasdlashish bo'lsa, deb bu ustaxonaga ham kirdim. Aftiga qarab yoshini bilib bo'lmaydigan, peshanasi tirishgan, yuzi qoshiqdekkina kishi oyna to'siq orasidagi teshikchadan indamay qo'l uzatdi. Soatni oldi-yu, negadir orqasini emas, oynasini ochdi. Bir nima qirs etdi. «Tamom!» – dedim ichimdan zil ketib. – Soatdan ajralding. Bir chekkasi yaxshiyam bo'ldi. Qutulding».

Usta qo'lidagi soatga qarab soatimni to'g'riladi-da, tuynukdan uzatdi.

– Marhamat!

Hayron bo'lib soatni qulog'imga tutsam, binoyidek yurib turibdi.

– Qancha bo'ladi? – dedim kissamni kavlab.

– Pulingiz kerakmas. Mili oynasiga tegib qopti. Ehtiyot qiling!

## SO'QQABOSH BEVAGINA

– Mumkinmi? Gud moning! Salom! Ruxsatingiz bilan o'zimni predstavit etsam... Jonetta Kabulovna Xaltayeva! Men, k sojaleniyyu, sizning sochinenielaringizni o'qigan emasman. Rostini aytsam, kitob o'qishga vaqt yo'q. Bilasiz, vremya – dengi. Xotya, eshitganman. V osnovnom, mamashkalar haqida yozarkansiz.

Mening ham to'rtta bolam bor... Nima? Unaqaga o'xshamaydi, deysizmi? Rahmat, komplement uchun! Hamma shunaqa deydi. Men mamamga o'xshayman. Mamam oltmish yoshdayam appetitniy edi. Kak kukolka! Har kuni sochini prichyoska qildirardi. Alchibaltga! Alchibaltni taniysizmi? Neujeli? Pervoklassniy master-ku! Mujskoy salonga bormaganmisiz? Vprochem, mayli... Olovingiz bormi?.. Yo'q-yo'q, men «More» chekaman... Senkyu. Zajigalkangizga gap yo'q. Tochno importniy!

Itak, to'rtta bolam bor. Maratik – Nukusda. Internatda. Yoshi... Minutochku, yoshi, pomoemu o'n to'rttda. Shu yil o'n to'rtga kiradi. Kopiya – papasi. Kr-r-rasavchik! Smugliyligi, ko'zining razrezi... Papasi bilan birinchi vstrechamiz Nukusda praktikaga borganimda bo'lgan. Zam ministr edi. Shunaqa abayatelniy, shunaqa intelligentniy. Ikki yilcha turdik. Sivilizovanni ajrashdik. To'g'risini aytdi. «Janochka, jonim, – dedi, – bu yog'i prokol bo'ladiganga o'xshaydi, xotinim jaloba yozibdi, dvoyejenstvo uchun ishdan haydashlari mumkin», – dedi. Bilasiz, u paytda bunaqa masalalar strogiy edi. «Maratik uchun volnovatsya qilma, o'zim opekamga olaman, sen, Toshkentga ketaver, regulyarno borib turaman», – dedi. «O-key!» – dedim...

...Nigorochnka – Samarqandda. Toest, Nigorochnka emas, Nargizochka! Nigorochnka – Qo'qonda...

Gde-to ikki yilcha oldin Samarqandga bordim. Nargizochkaning detdomiga kirdim. Detdom – tak sebe. Ammo direktor nishtyak ekan! Dyilda!

Bo'y-basti ikki metr. «Bratan, dedim, – Nargizochkadan xabar olishim qiyin. Ishlarim navalom», – dedim. «Xotirjam bo'ling. Nargizochkaga o'zim otalik qilaman», – dedi. Uch kun mehmon bo'ldim. Kr-r-utoy erkak ekan! Molodes!

Nargizochkaning papochkasi ham krutoy edi. Mej-rayonniy neftebazada direktor bo'lib ishlardi. Yoshi ellikdan oshgan bo'lsa-da, kak ogurchik edi. Samarqandning paxani edi. Xotinidan qo'rqmasdan shik-k-karniy to'y qildi. Res-

toranda. Yomon yashamadik... Qamalib ketgani chatoq bo'ldi.

O'sha yerdan «ksiva» keldi – xabar. U kishining aytishlaricha, kak budto hammasiga men vinovata ekanman. E, to'kil dedim! Benzina diztoplivo qo'shishni men o'rgatdimmi senga, dedim!

Ammo Nigorochkadan anchadan beri xabar olganim yo'q. Aytdim-ku, «vremya – dengi». Qo'qonga hech yo'lim tushmayapti. Nigorochka otasida qolgan. Predprinimatel edi. «Jahon bozori»da sakkizta «tochka»si bor edi. Xarakteri «milenkiy». Takoy poslushniy. Ikkita xotinidan bolasi bo'lmagani uchunmi, Nigorochkani jonidan ortiq ko'rardi. Har kuni ming xil o'yinchoq olib keladi. Hammasiga o'zi aybdor! Nuqul zamechanie beradi, notatsiya o'qiydi. «Jannatxon, tahorat suvini yaxshi isitmabsiz. Xuftondan keyin ko'chaga chiqmasinlar. Nomahramlarga ko'rinmasinlar. Begona erkaklar bilan gaplashmasinlar!» Tomi ketgan fanatik! Erkakning ham begonasi bo'larkanmi?! E, sirpal, dedim! Obbergan bir xonali kvartirangga kak durochka uchinchi xotin bo'lib o'tirishim kerakmi, dedim!

... Pardon, yana olovingizdan... Senkyu. Mejdu prochim, zajigalkangizga gap yo'q! Ko'p chekasizmi? Shavkatning papasiyam ko'p chekardi. Mana buni nastoyashiy mujik desa bo'ladi! Qomat bespodobniy! Sochlar kurchaviy! Biznesni sindirib qo'yadi! Hamma ishi «doda»! To'rtta xotinini vot tak obespechit qilib qo'yan. Razumeetsya zagsimiz yo'q edi. Vprochem bunisi nevajno. Ikkita «Mers»i bor edi. «Mers-600»! Beldersoydagi dachasini ayting! Saunasi, basseyni...

Net равных! Bir yilcha bo'ldi. Rossiyaga ketgancha daragi yo'q. O'sha yerdagi bratanlardan surishtirsam, biz ne v kurse delo, deydi...

Shavkatchik o'zimda. Ikki yoshga chiqdi. Shustriy. Xodyachaya bomba. Mejdu nami bir gap aytaymi? Uyg notanish «dyadya»lar kelsa, halitdan meni revnovat qiladi,

parazit! Sizni «fazendam»ga «xodyachiy bomba» yoʻqligida chaqiraman, o-key!

V obshem mayli, blije k delu! Menga sizning padderj-kangiz kerak. Hokimiyatga zayavlenie bergan edim. «Men mat odinochkaman. Qiynalib ketdim, shahar markazidan kvartira berishingizni soʻrayman» deb. Borsam bir patsan oʻtiribdi. Oʻn kundan keyin keling, dedi. Bugun borsam nima deydi, deng? «Toʻrt xonali uyingiz bor ekan-ku!» – deydi. Men uyni sening pulingga opmanmi? Xudoga shukur, boshimda erlarim, toest, erim bor, toest bor edi. Bu uyni oʻz pulinga sotib olganman. Yigirma ming «baks»ga! Tagʻin nima deydi deng, frayer? «Opajon, «monetniy dvor»dan chiqib keldingizmi, hamma yogʻingiz brilliant-ku!» – deydi. Menga kompliment qilyapti, sopyak! Brilliantni sen podarka qipsanmi? Ayol boshim bilan biznes qilyapman. «Chelnok»ka boryapman. Stambulga, Dubayga, Yujniy Koreyaga... Osonmi? Har qadamda «ment», «dolya» choʻzmasang, hammasini obqoʻyadi!

Kstati... Dubayda boʻlganmisiz? Obyazatelno boring! Texnika pochti darom! Tilla – navalom. Arablar temperamentniy boʻ... Nu, bunisi nevajno!

Koroche, hokimiyatdagi oʻsha patsan: «Sizga uy yoʻq, hamma kvartiralar privatizatsiya qilib boʻlingan, qayoqqa borsangiz, – katta koʻcha», – dedi. Shuni bir feleton qiling! Bepomoshniy mat-odinochkani unijat qilish qanaqa boʻlishini bir koʻrsatib qoʻying! Men ham qarzdor boʻlib qolmayman. Familiyasi... Minutochku, familiyasi... Yozib olganman...

Nima? Yozmaysiz? Toest, kak yozmaysiz? Nima? Nima dedingiz? Yana bir qaytaring! «Men inkubator uzatadigan usta emasman» dedingizmi? Kim inkubator? Nega ayol kishini haqorat qilasiz? Nima haqqingiz bor. Naxal! Pisaka neschastniy! Ma, zajigalkang bosh-sh-shingdan qolsin!

## «KO'KYO'TAL»

Televizor tomosha qilib o'tirsam, bir fermerni ko'rsatib qoldi. Qashqadaryodami-ey, Surxondaryodami-ey, bittasi sakkizta novvos boqibdi, azamat! Har novvoslarki, fildek keladi! E, qandingni ur azamat, dedim. O'ylab o'tirib, dilimda bir niyat tug'ildi. Men ham «fermerlik» qilsamchi? To'g'ri, shahar joyda falon gektar yer olaman, deb bo'lmaydi, novvos boqishning ham iloji yo'q. «Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga» degandek olti so'tixlik hovlida novvos u yoqda tursin, echki ham boqib bo'lmaydi! Yaxshisi, teplitsa quraman: issiqxona! Xudoga shukr, uyim judayam katta emas. Hovli hangillab yotibdi. Xizmatim ham ja unchalik qiyinmas. Qorovulchilik. Bir kun «ismin»ga borsam, ikki kun uydaman. Men ham xususiy fermer bo'lsam, teplitsa qursam, qishda ko'kpiyoz, rediska, kashnich, ukrop degandek. Erta bahorda pamildori, bodring... Qarabsizki, akang qarag'ay pulning tagida qolib ketadi! Yo'q, men unaqa noinsoflardan emasman. Boshqalardan arzonroq sotaman. Xususiy fermamning nomini ham o'ylab qo'ydim: «Insof» Rost-da, insof sari baraka, degan mashoyixlar!

Yon qo'shnim katta joyda ishlaydi. Shunga maslahat solsam, ma'qul bo'ldi.

– Faqat, – dedi qo'shnim, – teplitsa solishning o'zi bo'lmaydi. Mablag' kerak. Kattagina mablag'!

Mablag' topdim. Eskiroq bo'lsa ham yurib turgan «Jigulim» bor edi: «nol-olti». Sergelining bozoriga obchiqib sotdim. Pulni sandiqqa solib, g'ayrat bilan hovli etagini qazib yotsam, qo'shnim chiqib qoldi. «Nima harakat?» – degan edi, bo'lajak teplitsaga poydevor qaziyotganimni aytdim.

– Mayli-ku, – dedi qo'shnim, – teplitsa qurishdan oldin litsenziya olish kerak, ruxsatnoma! Bo'lmasa, ochgan kichik korxonangiz nezakonniy bo'ladi!

Issiqxona «zakonniy» bo'lishi uchun hokimlikka borishim kerak ekan. Tuman hokimligiga bordim. O'g'lim tengi yigit xushmuomalalik bilan kutib oldi.

– Xizmat pochcha? – dedi.

Bildimki, bu yigit namanganlik ekan. Namanganliklar hurmat qilgan odamini «pochcha» deydi. Xuddi Farg'onada «tog'a», Xorazmda «doyi», Toshkentda «amaki» degandek. Issiqxona ochmoqchi ekanimni eshitib, xursand bo'ldi.

– To'g'ri qilasiz, pochcha! – dedi. – Mening didomlar ham ochganlar. Namonganda! Biz gul ekamiz.

Yaxshi yigit ekan. Hamma yo'l-yo'rig'ini tushuntirdi. Eng avval mahalladan isparavka olishim kerak ekan. Falonchi Pistonchiep chindan ham shu yerda turadi, teplitsa qurish uchun yetarli maydoni bor, deb...

Kechqurun mahallaga chiqsam, isparavka beradigan o'zimning sobiq sinfdosh do'stim ekan. «Beraman desa quliga, chiqarib qo'yar yo'liga!» deb shuni aytsa kerak-da! Quchoqlashib ko'rishdik. O'quvchilik paytlarimizni esladik. Lanka tepganimiz, yong'oqqa tosh otib, sinfxona derazasini sindirib qo'yganimiz...

Niyatimni aytgan edim, sinfdoshim negadir birdan jiddiy tortdi. Stolning narigi tomoniga o'tib oldi. Qoshi chimirildi.

– Spravka deysizmi? – dedi negadir sizsirab. – Familiyangiz? Ismi-sharifmgiz?

– Jinnimisan? – degan edim, qoshi battar chimirildi.

– Familiyangizni so'rayapman!

Nachora, aytdim.

– Turar joyingiz? Tug'ilgan yilingiz? Ish joyingiz? Mutaxassisligingiz? Qaramog'ingizda nechta jon bor? Sudlanganlar, qamalanganlar yo'qmi?

Hammasini aytdim. Do'stim kattakon daftarga shoshilmasdan yozib oldi.

– Shamolladingizmi? – dedi to'satdan.

Hayron bo'ldim.

– Shamollaganim yo'q.

– Bo‘lmasa nega yo‘talyapsiz?

– Qani yo‘talganim?

U qalamni zarda bilan stolga otdi.

– Hamma gap shunda-da, xumpar! Nega yo‘talmayapsan?!

– Nega yo‘talishim kerak?

– Maktabda ham ahmoq eding, ahmoq! – dedi u baqirib. – Yo‘tal, degandan keyin yo‘talgin-da, befarosat! – shunday deb ikki barmog‘ini ishqalab ko‘rsatdi.

Endi tushundim. Cho‘ntagimdan bitta ming so‘mlik chiqargan edim, xiyol chehrasi yorishdi.

– Yana yo‘tal, xumpar! Jonliroq yo‘tal!

Tag‘in to‘rttagina «yo‘talgan» edim, isparavka qo‘limga tegdi. Do‘stim men bilan qaytadan quchoqlashib ko‘rishdi.

– Bu dunyoda bormisan, o‘rtoq! Sog‘liqlaring yaxshimi, o‘rtoq? Yuz dollarlik puldek kamnamosan, o‘rtoq? Nevaralaring chopqillab yuribdimi? Qaysi kuni Homid qoraning aqiqasida o‘rtancha qudangni ko‘rib qoldim. Ja zo‘r odam-da, qudang, ko‘rsang mendan salom aytgin, o‘rtoq!

Chiqib ketayotganimda qattiq tayinladi:

– Tez-tez kebtur, isparavka kerak bo‘lsa, birpasda yest qilaman, o‘rtoq!

... Hokimiyatdagi «qaynim» yana ochiq chehra bilan qarshi oldi.

– Endi ish joyingizdan isparavka olasiz, pochcha. Bu odam chindan ham bizda ishlaydi, mehnat intizomini buzmaydi, kichik korxonada ochsa, ishga zarari tegmaydi, degan ma‘noda.

Ishxonadagi isparavka beradigan qiz tushga yaqin keldi.

– Blanka yo‘q, amaki! – dedi niyatimni eshitib. – Kompyuter ham ishlamayapti. K tomu je ertaga Dilyaning tug‘ilgan kuni. U menga «Shanel» padarka qilgandi!

Rostini aytsam, hech baloga tushunmadim.

– Armiyaga borganmidingiz? – degan edim, qizning ipdek qoshlari chimirilib, sochiga tegay deb qoldi.



– Nima? – dedi chiyillab.

– Shinel padarka qilgan bo'lsa, armiyaga borganmisiz, deyman?

– Qanaqa shinel?! Shanel! Fransuzkiy duxi! Tushundingizmi amaki? Bir flakoni ellik dollar turadi!

Sinfdosh do'stimga «yo'talغانim» esimga tushib, o'rtacharoq «yo'talغان» edim, kamlik qildi. Dilyaning «shineli»ga qattiq «yo'talish» kerak ekan. Haytovur isparavka qo'lga tegdi. Faqat cho'ntakda shamol g'irillay boshladi. Yo'q, bundan keyin «yo'tal»ni diplomatgami, xo'jalik sumkasigami solib yurmasam bo'lmas ekan!

«Qaynim» bu gal ham muloyim kutib oldi.

– Endi raygazdan isparavka kerak, pochcha.

– Raygazning nima keragi bor? – degan edim, tushuntirdi.

– Hamma gap raygazda-da, pochchajon! Teplitsani tappi bilan isitmaysiz-ku! Meni didom ham gaz bilan isituttila!

Raygaz boshlig'ining yuzi ichiga gaz to'ldirilgan pufakdek do'mboqqina ekan.

– Ha-a-ay, – dedi salmoqlab, – akun teplitsa quropman, deng?

– Endi qurmoqchiman.

– Akun gaz so'ropman, deng?

– Teplitsani gaz bilan isitadi-da, ukajon! – dedim «qaynim»ning gapini eslab.

– Ibi! – dedi u elkasini uchirib. – Man sizga gazni qaydan olay? Ichimdan chiqarib beraymi, oxe? Manga gaz yo'q! Gazni davleniyasi kun sayin pasayib ketopti! Bog'chaga bachalar sovuq qotgon, sizni teplitsangizga pamador pishgon! Shunaymi?

Hafsala bilan «yo'talغان» edim, gazning davleniyesi ko'tarildi, bog'chadagi bolalar sovqotmaydigan bo'ldi.

... Bu safar «qaynim» jinday xomushroq qarshi oldi. Qo'lidagi hujjatlarni varaqlab, to'satdan so'rab qoldi.

– Iye, nevaralar ham bormi, pochcha?

– Bor! Xudoga shukr, ikkita!

– Ikkoviyam bog'chaga boruttimi?

– Boradi. Ikkoviyam boradi.

– Bog‘chadan isparavka olasiz, pochchajon!

– Teplitsani bog‘chada qurayotganim yo‘q-ku! – dedim hayron bo‘lib.

– To‘g‘ri, pochchajon, – dedi «qaynim», – teplitsani hovliga qurasiz. Ammo teplitsadagi patinjonni nevaralaringiz ushlasa, nevarangiz, xudo ko‘rsatmasin, oqar suvda «xo‘p etib», sariqmi, dezinteriyami yuqtirgan bo‘lsa, sizning patinjonni yegan xaridor kasal bo‘lib qolsa...

... Bog‘cha opa bo‘g‘irsoqdekkina juvon ekan. Meni ko‘rib suyunib ketdi. Nevaralarimni rosa maqtadi! Jahongir juda shustriy emish. Uxla desa, karavot tagiga kirib ketarmish. Qaysi kuni hamma bolalar uxlab yotganda sharni puflab, «barang» etib yorib yuborgan ekan, yonidagi karavotda yotadigan qizaloq hushidan ketib qolganmish. Zato, Nigorochnka «paslushniy» emish.

– Batareya o‘lgur ishlamayapti, – dedi batareyani changallab. – Mana, o‘zingiz ushlab ko‘ring! Gaz-ku, yetarli, trubalar chirib ketgan! Yangilash kerak! Shu bugun Jahonchikdan aytirib yubormoqchi edim. Raditellardan pul yig‘yapmiz. O‘n ming so‘mdan. Jon boshiga, tois, bola boshiga. Undan keyin sakkizinchi martga «utrennik» qilmoqchimiz. Siz ham, albatta, keling!

Nachora, «yo‘taldim». Qattiqqina. Kuchanibgina...

... «Qaynim» avvalgidan ham xomushroq kutib oldi.

– Tabiatni muhofaza qilish tashkilotidan isparavka obkeling! – dedi sovuqqina qilib.

Tabiatni muhofaza qilish tashkilotining kattakon xonasida, kattakon odam kattakon stol ortida sigaret burqsitib, kulini kattakon kuldonga chertib o‘tirgan ekan.

– Galing, yoshulli! – dedi ovozi guldirab. – Nechik-siz?

Hammasini bir boshdan tushuntirdim. Kattakon odam sigaretini battar burqsitib, norozi bosh chayqadi:

– Teplitsani naytasiz yoshulli, ko‘changizda yop borma?

– Nima u, yop?

– «Yop»da, ariq! Teplisani go'ngi ariqqa tushami axir?  
– Ariq yo'q, – dedim tushuntirib. – Kanalizatsiya bor.  
– Tovuq ferma ochsangiz-a, – dedi u to'satdan. –  
Yumurta barak yer edik.

– Tovuq ham yaxshi-yu, – dedim murosaga chaqiruvchi ohangda, – ammo hammayoqni iflos qilgani chatoq.

– Qo'ysangiza, yoshulli! – dedi u kattakon kafti bilan tutun haydab. – Teplisa iflos qilmaymi? Go'ng sasimaymi? Gaz havoni buzmaymi, yoshulli?!

Qarasam, gap chalkashadigan. «Yo'taldim». Qattiq-qattiq «yo'taldim». Teplitsa hech qayerni iflos qilmaydigan, go'ng sasimaydigan, gazdan atir isi keladigan bo'ldi. Sotilgan mashina pulining barakasi uchib, tagi ko'rinib qoldi.

Hokimiyatdagi «qaynim» bu safar salom-alik ham qilmadi.

– Nalogovoy inspeksiyaga kiring! – dedi to'ng'illab.

Nalogovoy inspeksiya degani arining iniga o'xsharkan. Biri kiradi, biri chiqadi. Biri baqiradi, biri do'q uradi... Menga kechga yaqin navbat keldi.

– Teplitsani nima qilmoqchisiz? – dedi mallasoch yigit qog'oz titkilab.

– Shu... Ko'katlar, rezavor...

– Qanaqa «revizor?»

– Revizormas, rezavor. Ko'kpiyoz, kashnich, ukrop...

– Xren-chi?

Avvaliga hech baloni tushunmadim-u, keyin borib yetdi. Demak, bu o'rtoq qishga tuzlov qilishni yaxshi ko'radi. Tuzlov esa xrensiz bo'lmaydi.

– Ekaman, albatta, ekaman! – dedim ishontirib. – Birinchi xren sizniki bo'ladi. Svejjiysidan obkeb beraman!

Negadir gapim umuman ta'sir qilmadi.

– Gadavoy daromadingiz qancha? – dedi qog'ozdan ko'z uzmay.

– Qanaqa daromad?

– Teplitsaning daromadi!

– Hali teplitsa qurganim yo‘q.

– Qurasizmi axir?!

Qarasam, «yo‘talishdan» bo‘lak ilojim yo‘q...

... «Qaynim» menga qayrilib ham qaramadi.

– Zemlemerga uchrashing! – dedi yuzini o‘girib. – Ikkinchi qavat.

So‘rab-so‘rab, zemlemerning xonasini topdim. Ingichka mo‘ylovi o‘ziga xo‘p yarashgan odam ekan.

– Kiligiz, – dedi etakdagi kursiga imo qilib. – Isanmisiz?

Hujjatlarni obdan ko‘zdan kechirib, so‘radi:

– Zemelnii uchastok pozvolyat itami?

– Hovlim katta, – dedim tushuntirib, – olti sotix.

– Postroyka qilg‘an chiqarsiz olay?

– Bor. Ikki uy, bir ayvon.

– Nizakonniy pastroyka yuqmi?

– Yo‘q, hammasi zakonniy!

U qog‘ozlarni shoshilmay, uzoq varaqladi.

– Teplitsani nishatasiz? Proekt razrabotka itarg‘a tigish, pojarniy oxranadan spravka olarg‘a tigish. Sigiz-tuqiz kushnidan ofitsialniy razreshenie olarg‘a tigish! Ay, sploshnoy valakita, svolosh! Luchshe vsego dopolnitelny postroyka iting-da, i vsyo! Olti sotix zemelnii uchastok pastroyka itarg‘a birilg‘an, teplitsa qurarg‘a tugul!

– Boshqalar teplitsa qurayapti-ku, – dedim yalingudek bo‘lib. – Hozircha uy-joyim yetarli. Amallab turibmiz. Qolaversa, yangi uy qurishga pul qani?

– Interesno! – u sariq mo‘ylovini qiyshaytirobroq il-jaydi. – Teplitsa stroit itarg‘a oqcha bor. Postroyka qilarg‘a yuq, shulaymi?

– Endi, shu... Mashinani sotuvdim...

Zemlemerning yuzi yorishdi.

– Neujeli? «Neksiya» ili «Mercedes»?

– «Jiguli» edi, ancha uringan...

– Sumg‘a sotdig‘izmi ili dollarg‘a?

... Bo‘lmadi! Mashinamning so‘nggi pulini «yo‘tal-dim!»

... Bu safar «qaynim», ayniqsa, xunob bo'lib o'tirgan ekan. Qo'limdan qog'ozlarni yulqib olib, uloqtirib yubordi.

– Qanaqa odamsuz! – dedi yig'lagudek bo'lib. – Uch oydan beri qatnaysuz, nega yo'talmaysuz?! Nega boshqalarga yo'talasiz-u, menga yo'talmaysuz, pochchajon! Sizda insof bormi, pochchajon?!

Rostimni aytsam, «qaynim»ning oldida yer yorilma-di-yu, yerga kirib ketmadim! Buni qarang, men ahmoq, men kallavaram hammaga «yo'talibman-u», shuncha xizmat qilgan «qaynim»ga «yo'talish» xayolinga kelmabdi!

Ertalab yo'lga chiqayotib, teplitsa qurishga maslahat bergan qo'shnimdan o'n ming so'm qarz olgandim. Har ehtimolga qarshi. Shuni uzatgan edim, «qaynim» battar tutaqib ketdi.

– Yo'talingiz shumi, pochcha! O'lar yerdamisiz, pochcha! Hozir mestniy yo'tal o'tmaydigan bo'lgan, «ko'ki»dan yo'taling, bildingizmi, «ko'ki»dan.

... Ko'chaga chiqsam, yomg'ir quyib yotibdi. Aksiga olib soyabon ham olmagan ekanman. Uyga kirib keldim-u, o'zidan-o'zi yo'tal tuta boshladi. Yo'q, idoralardagi «yo'tal»mas, rostakam yo'tal! Nafas olsam, o'pkam uch yil avval qazo qilgan rahmatli xolamning amirkon mahsisidek g'ijillaydi... Yarim kechaga borib, isitma ko'tarilib ketdi. Xotanim «tez yordam»ga telefon qilib, yarim soatcha gaplashdi. Ikki gapning birida «ahvoli og'ir» deydi. Oxiri, telefonni ko'tarib boshimga keldi.

– Mana, o'zingiz tushuntiring! – dedi go'shakni qo'limga tutqazib.

Bir amallab go'shakni qulog'imga bosdim.

– Kamida o'n litr! – dedi allaqanday ayol shang'illab.

– Nima o'n litr? – dedim hansirab.

– Boyadan beri qulog'ingizga tanbur chertayapmanmi! Benzin! O'n litr benzin!

– Bu benzakolonka emas, – dedim nafasim battar qisib.

– Tushunib turibman! – dedi ayol hamon shang‘illab. – Energonositellar qimmat. Limit tamom bo‘lgan. Mashinada benzin yo‘q! Yarim kechasi ko‘chada qolib ketaylikmi?

Mashina sotganimda garajda qolgan yarim kanistr benzin esimga tushdi. So‘nggi kuchimni to‘plab inqilladim:

– Kelavering, baraka topgur! Benzin bor.

Haytovur, biron soatlar deganda «tez yordam» yetib keldi. Uyg do‘xtirdan oldin sho‘pir kirdi. Buyoqdan meni suyab chiqishdi, uyoqdan o‘g‘lim garajdan olib chiqqan kanistrni ko‘tarib sho‘pir zing‘illadi.

– To‘qson uchmi, oka? – dedi-yu, javobimni ham kutmay, mashinasiga benzin quydi. Kanistrni mashinasining yukxonasiga tashlab qo‘ya qoldi. – Yanagi safar «vizov» qilganingizda tashlab ketarman, oka. Shoshib turibmiz. Yana uch joydan benzin, tois, kasal olishimiz kerak!

Insofli odamlar ekan. G‘irr etib «go‘rbannisa»ga olib borishdi. «Go‘rbannisa»ning navbatchi do‘xtiri yosh bo‘lsa ham ko‘zi pishib ketgan ekan. Bir qarashda kasalimni aniqladi-qo‘ydi.

– Tashvish qimang, kennoyi! – dedi xotinigga. – Okam ko‘kyo‘tal bo‘ptila. Ta-a-ak, palatada joy yo‘q, ammo okamizni qabul qilamiz! Karidorga kushetka qo‘yib beramiz. Yaxshi odamlarga o‘xshaysizlar... Ta-a-ak, yozib oling, kennoyi! Bo‘masa esizdan chiqib ketadi. – Shunday deb tortmadan qog‘oz-qalam olib, xotinigga tutqazdi. – Osmu ukolga sistema. Oltita, nu dapustim o‘nta! Shpris – o‘ttizta. Hozircha yetadi. Yetmasa, yana etamiz. Nikotinka, baralgin, atcef – bular ampulada. Ta-a-ak, tablet-kalar. Analgin, yo‘q, yaxshisi anaprilin, effekti kuchli. Sulfademitoksin. Raunatin. Okamda davleniye bor ekan. Demidrol yoki tazepam ham bo‘laveradi...

Do‘xtirning og‘zidan muttasil otilib chiqayotgan so‘zlarni g‘ira-shira eshityapman. Boshim g‘uvillab, nafasim siqib borayapti.

– Yozdizmi, kennoyi? – dedi do‘xtir bir zum to‘xtab. – Ta-a-ak, karidor bizdan. Kushetka bizdan. Matras

bizdan. Ta-a-ak, yozing kennoyi. Yostiq avra. Choyslab. Pododeyalnik. Sochiq. Iloji bo'lsa ikkita. Bint, yod, paxta. Sterilniy bo'lsin... Choynak, piyola, kosa, vilka, qoshiq, ko'k choy – ikki pachka...

Uyog'i nima bo'lganini bilmayman. Bir mahal ko'zimni ochsam, tepamda xotinim yig'lab o'tiribdi. Do'xtir bilagimni ushlab, tomir sanayapti. O'pkam og'zimga tiqulgudek yo'tal tutdi.

– Tashvish qimang, kennoyi, tashvish qimang, – dedi do'xtir xotinimni yupatib. – Okamni bir haftada otdek qivoramiz! – keyin menga yuzlandi. – Yo'taling, oka, qattiqroq yo'taling! Iloji bo'lsa, «ko'ki»dan yo'taling! Qancha ko'p yo'talsangiz, shuncha tez tuzalasiz!

## QIZIL QARG'A

*(Yigirmanchi asr ertagi)*

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim-qadim zamonda, Quramatog' tomonda bir Sahoba bo'lgan ekan. Kunlardan bir kun Sahoba tog'dan tushib, hassasini do'qillatib ketaveribdi-ketaveribdi, chanqab holdan toyibdi. Bir tup sadaqayrag'och tagiga yetganda hushidan ketib yiqilibdi. Bir mahal qulog'iga «qarr-qarr» degan ovoz kiribdi. Hushiga kelib ko'zini ochsa, sadaqayrag'och shoxiga bitta ola qarg'a qo'nib, nuqul qag'illayotganmish.

– Xudo xayringni bergur, aqalli yaratgan Egamga omonatimni topshirayotganda o'z holimga qo'ysang-chi, – deb iltijo qilibdi Sahoba. Shunda Ola qarg'a tilga kiribdi.

– Hassa bilan qayrag'och tagini chuqurlasang, suv chiqadi, – debdi.

Sahoba hassasini uch marta yerga urgan ekan, bu loq ochilib, bir tegirmon suv chiqibdi.

– Iloyo dunyo turguncha turgin! – deb duo qilibdi Sahoba Ola qarg'ani.

Duo ijobatga o'tibdi. Ola qarg'a dunyo turguncha yashaydigan bo'пти. Sadaqayrag'och atrofida qishloq bunyod bo'lib, «Ola qarg'a» deb nom olibdi. Ming yil o'tibdi, ikki ming yil o'tibdi. Ola qarg'a o'lmabdi-yu, qarib-churib kuchdan qolibdi, ko'zi xiralashibdi. Ammo qulog'i binoyidek eshitarkan. Ertadan kechgacha sadaqayrag'och shoxida mudrab o'tirgancha, ko'p voqealarga guvoh bo'пти.

Kunlardan birida qishloqda olatasir otishma boshlanib ketibdi. Yelkasiga miltiq osgan odamlar «Inqilob!» «Hurriyat!» deb hayqirishibdi. Hamma xursand, hamma baxtiyor bo'пти. Oradan hech vaqt o'tmay, «Yo'qolsin zolim boylar!» degan gap chiqibdi. Chindan ham yaqin-atrofdan bittayam boy qolmabdi. Qochgani qochib qutulibdi. Qolgani olis yurtlarga badarg'a qilinibdi. Bitta ot, bitta ho'kizi borlar ham «yot unsur» deb sovuq joylarga o'rmon kesgani jo'natilibdi. Hamma teng bo'пти: hamma bir xil kiyinarmish, hamma bir vaqtda yotib, bir vaqtda turarmish, bir vaqtda ovqat yermish. Bir xil o'ylarmish. Xo'p g'aroyibotlar bo'пти. Moysiz, piliksiz chiroqlar yonibdi, ko'priklar qurilibdi, yo'llar ochilibdi. Yoppasiga savodsiz xalq savodxon bo'libdi. To'yibgina bo'za ichib olgan shoir Maddohiy ertadan kechgacha o'qisa ado bo'lmaydigan qasida yozibdi. «Kim edik o'tmishda biz, aqli yo'q va notavon, bobomiz Maymun edi, momomiz – Hamdunaxon! Bizni odam aylaganlar omon bo'lsin, zamon bo'lsa, zamonamdek zamon bo'lsin!»

Bir kuni sadaqayrag'och soyasiga bir emas, ikkita mashina, uchta arava kelib to'xtabdi. Ola qarg'aning ko'zi xiralashib qolgani uchun qaysi mashina «EMKA», qaysi arava izvoshligini ajrata olmabdi. Ammo keksa aqlini ishlatib bilibdiki, bular jo'n odamlar emas, naq Donolar kengashi! Anavi – hammadan qattiq gapirayotgani – kengash raisi – Zukko. Odat shunaqa ekan: hamma narsani Donolar kengashi hal qilarkan. (Agar Donolar kengashi



qog'oz yozib bermasa, tug'ilgan bola – tug'ilmagan, o'lgan odam – o'lmagan bo'larkan.)

– Hamma savodxon bo'lganidan keyin qishloqning nomini yozib qo'yish kerak-da, – debdi Zukko. – «Ola qarg'a» degani-ku, yaxshi nom. Lekin «Q» bilan «G»ni hammayam tushunavermaydi. Kelinglar, o'ylashib ko'raylik: nima qilsak «Ola qarg'a» hammaga tushunarli bo'lishi mumkin?

Bir soat o'ylashibdi, ikki soat o'ylashibdi, hech kimdan sado chiqmasmish. (Odat shunaqa ekan: odamlar o'ylagan gapini aytmas ekan. Aytsa, tilini kesib olisharkan. Bir xillarga shafqat ham qilisharkan: tilini kesib o'tirmay, kallasini olib qo'ya qolisharkan).

– Tushunarli, – debdi kengash raisi Zukko majlisga yakun yasab. – Bilasizlar, siz bilan biz kichkina odamlarmiz. Bu masalani olisdagi Kattalar hal qiladi. Biz uchun olisdagi Kattalar o'ylasin...

Ikki haftami, uch haftami o'tgach, sadaqayrag'och soya-sida tumonat odam to'planibdi, kuylar chalinibdi, maktab bolalar bo'yniga bo'yinbog' taqib, saf tortibdi. Zukko yo'lning chap tomoniga o'z qo'li bilan qoziq qoqib, «Alya karga» degan yozuvni ilib qo'yibdi.

– Mana endi hammasi tushunarli bo'ldi! – debdi tantana bilan. Saf tortgan maktab bolalar baravariga: «Baxtli bolaligimiz uchun xalqlar otasi Stalinga rahmat», – deb baqirishibdi. Bo'kib vino ichgan shoir Maddohiy yangi she'rini o'qib beribdi: «Agar sen bo'lmasang, bahor kelmasdi. Agar sen bo'lmasang, shamol yelmasdi... Sen bo'lmasang men baxtiyor kulmasdim... – Olomon o'rtasida turgan otasini ko'rib qolibdi-yu, u yog'ini ming'illab o'qibdi: – Sen bo'lmasang, umuman... tug'ilmasdim-u-u»... «Baxtimizga ulug' dohiy omon bo'lsin, zamon bo'lsa, zamonamdek zamon bo'lsin!»

Shunday qilib, yo'lning bir tomoni «Ola qarg'a» bo'пти, bir tomoni – «Alya karga». Oradan oy o'tibdi, yil o'tibdi...

Qishloq yashnab ketibdi. Bir tomon paxtazor, bir tomon jo'xorizor... O'ziyam shunaqangi zo'r jo'xori unar ekanki, poyasidan to'sin tashlab imorat qursangiz, yuz yil qilt etmay turarkan.

Falokat qosh bilan qovoqning o'rtasida turadi, deganlari rost ekan. Ayni jiyda gullagan kezlari sel kebd-yu, «Ola qarg'a» degan yozuvni tag-tugi bilan qo'porib ketibdi. Uch kundan keyin sadaqayrag'och soyasiga bir emas, to'rtta mashina kelib to'xtabdi. (Ko'zi battar xiralashib qolgan Ola qarg'a payqamabdi: qaysi biri «Chayka», qaysi biri «Volga». Ammo haliyam qulog'i binoyidek eshitarkan. Tag'in Donolar kengashi to'planganini tushunibdi).

– Ko'chaning chap tomoni-ku, aniq, – debdi Zukko. – «Alya karga» joyida turibdi. Xo'sh, o'ng tomonini nima deymiz? Hamma o'z taklifini aytibdi. Birov undoq debdi, birov bundoq. (Odat shunaqa ekan: hamma gapirarkan-u, hech kim hech nimani o'ylamas ekan).

– Yaxshi! Qishloqning nomi topildi, – debdi Zukko. – «Alya karga» degani «Oliya qarg'a» degani ekan. Yigirmanchi yillarda Oliyaxon degan xotin o'tmish sarqitlariga qarshi qo'lida qurol bilan jang qilgan ekan. Ichki dushmanlar alamiga chidolmay unga «qarg'a» deb laqab qo'ygan ekan. Birinchi bo'lib kolxozga kiribdi, azamat! Gektaridan uch yuz sentrnerdan jo'xori hosili olibdi. Bugun biz uning nomini abadiylashtiramiz!

To'yib aroq ichgan Maddohiy yangi she'rini o'qibdi. «Go'sht kabobni yemangizlar, qaritadi, makkakabob dardingizni aritadi. Dalalarning malikasi omon bo'lsin, zamon bo'lsa, zamonamdek zamon bo'lsin!»

Shunday qilib, ko'chaning bir tomoni «Oliya qarg'a», bir tomoni «Alya karga» bo'пти. Oy o'tibdi, yil o'tibdi. Suv omborlari qurilibdi, kanallar qazilibdi. Hammayoqqa yoppasiga paxta ekiladigan bo'пти. Savodsiz Sahoba hassasini cho'qilab, chiqargan buloq allaqachon qurib qolganini hech kim o'ylab ham o'tirmabdi. Paxtaning oti

«oq oltin», paxtakorning nomi «oltin qo'llar» bo'libdi. Aytishlariga qaraganda, atlas ko'ylak kiygan qizlar yalla aytib, oltin qo'l bilan paxta terarkan.

Qizlar paxta teraveribdi-teraveribdi, oxiri «oq oltin»dan shunaqangi xirmon uyushibdiki, uning oldida ikki ming yilmi, uch ming yil avval Sahoba tushib kelgan Quramatog' hammompishdek gap emish. Maktab bolalarni aytmaysizmi? Shunaqangi chaqqon ekanki, otini yozishdan ko'ra «oq oltin» terishni yaxshi bilarkan. «Oq oltin» ichida yuraverib-yuraverib, o'zlari ham oltinga aylanib ketibdi: rangi sapsariq emish. «Oq oltin»ni hasharotdan asraydigan tilsim dorilar topilibdi, dorini osmondan sepadigan «po'lat qushlar», «po'lat qush»ni uchiradigan «dala lochinlari» paydo bo'пти.

Falokat qosh bilan qovoq o'rtasida turadi, deganlari rost ekan. Bir kuni chanqovdan qurib qolgan sadaqayrag'och shoxida mudrab o'tirgan Ola qarg'a tush ko'ribdi. Gullagan bog' emish, ko'm-ko'k yaylov emish. Yaylovda suruv-suruv qo'ylar o'tlab yurganmish. Ola qarg'a qo'y junidan polaponlarga in yasayotganmish. «Esingni yedingmi? – deb o'ylabdi Ola qarg'a uyg'onib. – Polaponlarga balo bormi? Qarigan chog'ingda tuxum bosishni senga kim qo'yibdi! Ana, qanchadan-qancha qarg'anisalar tuxumini oldirib tashlayapti! Mabodo tug'sa ham inkubatorga topshiryapti».

Shu gap xayoliga kelishi bilan osmonda «tarr» etgan tovush eshitilibdi. Issiqdan mudrab qolgan «dala lochini» paxtazor qayerda tugagani-yu, qishloq qaerdan boshlanganini bilolmay naq sadaqayrag'och ustidan «tilsim» dori sepib o'tibdi. «Po'lat qush» «tarr» etibdi. Ola qarg'a so'nggi marta «qarr» etibdi-yu, popillab, yerga qulabdi. (O'ziyam bu dunyoda yashayverib charchab ketgan ekan sho'rlik). Ertasiga desangiz yana bir falokat ro'y beribdi: kanal toshibdi. O'ziyam shunaqangi toshqin bo'ptiki, «Alya karga» degan yozuvni qoziq-pozig'i bilan qo'porib ketibdi.

Qurib qolgan sadaqayrag'och tagida to'rtta mashina to'xtabdi. Ola qarg'a o'lib ketgani uchun qanaqa mashina kelganini hech kim surishtirib o'tirmabdi. Lekin Donolar kengashi majlisni boshlab yuboraveribdi. Kengash rosa ikki hafta davom etibdi. (Odat shunaqa ekan: hamma gapirarkan-u, hech kim eshitmas ekan).

– Kattalar bilan kelishmasak bo'lmaydi, – debdi Zukko majlis yakunida. – Har qalay, siz bilan biz – kichkina odamlarmiz.

Bir oydan keyin qurib-qaqshab ketgan sadaqayrag'och tagida tumonat odam to'planibdi.

– O'rtoqlar! – debdi Zukko qog'ozga qarab (Odat shunaqa ekan. Odamlar qog'ozga qaramasa, gapidan adashib ketarkan. «O'rtoqlar» degan so'zdan tortib, «E'tiboringiz uchun rahmat» deganigacha qog'ozdan o'qib berilarkan). – O'rtoqlar, – debdi Zukko qog'ozdan ko'z uzmay. – Kattalar aytishdiki, «Oliya qarg'a» degani «Alaya karga» degani ekan. E'tiboringiz uchun rahmat. Qani, bir qarsak bo'lsin!

Qarsak chalinibdi. Dalada qatqaloq yumshatayotgan bolalar yugurib kelib, «Alaya karga» poyiga guldasta qo'yibdi. Konyak ichgan Maddohiy yangi she'rini o'qibdi: «Oq oltin»ni oltin qo'llar yaratadi, bizning oltin olamga nur taratadi. Oltin qo'lli paxtakorlar omon bo'lsin, zamon bo'lsa, zamonamdek zamon bo'lsin!»

Shunday qilib, yo'lning bir tomoni «Oliya qarg'a» bo'пти, bir tomoni «Alaya karga».

Oy o'tibdi, yil o'tibdi. Bu safar ofat ro'y bermabdi-yu, avariya bo'пти. To'yib samogon ichib olgan haydovchi (araq taqiqlangan ekan) fildek («Kamaz» mashinasini uchirib kelib «Oliya qarg'a»ni chunonam uribdiki, mashina g'ildiragi «barang'» etib yorilib ketmaganiga o'ziyam hayron qolibdi. Endi Donolar kengashi. ayniqsa, qizg'in o'tibdi. (Odat shunaqa ekan. «Qayta qurish, «oshkoralik»

zamoni bo'lgani sababli xohlagan odam xohlagan cha yer tepinishi, hushtak chalishi, boringki notiqni yoqasidan olib, minbardan tushirib yuborishi mumkin ekan. Kim eng qattiq baqirsa, o'sha eng katta qahramon sanalarkan.)

Munkillab qolgan Zukko sho'rlik «o'rtoqlar» deb gap boshlashi bilan hushtakbozlik bo'lib ketibdi.

– Ehtirosga berilishning hojati yo'q, o'rtoqlar, – debdi Zukko vazminlik bilan. – To'g'ri, hozir «pluralizm» zamoni. Har kim o'z fikrini aytishi mumkin. Shuncha yil ishni kattalarga yuklab keldik. Endi o'zimiz ham o'ylaylik. Men o'yladim, ko'p o'yladim. O'ylab-o'ylab topdim: «Alaya karga» degan – «Qizil qarg'a» degani ekan. Shunday deb yozib qo'yamiz. Miting-pitingni keragi yo'q! Demak, masala hal: «Qizil qarg'a». Nima? Ovozga qo'yamiz, deysizmi? Marhamat! Demak, bir ovozdan!

Samogon ichaverib, miyasi aynib qolgan Maddohiy kalovlanib o'rtaga chiqibdi. Cho'ntagidan to'rt buklangan qog'oz chiqarib, hijjalab o'qibdi. «Qizil qarg'a, xo'p ajoyib isming bor, nomginangga monand go'zal jisming bor. Qarg'aginanam qanotlaring omon bo'lsin, zamon bo'lsa, zamonamdek zamon bo'lsin». Bu gal hech kim qarsak chalmabdi. Ammo yo'lning bir tomoni «Qizil qarg'a», bir tomoni «Alaya karga» bo'lib qolaveribdi. Shundoq qilib, Ola qarg'a Qizil qarg'aga aylanibdi. Hamma murodu maqsudiga yetibdi. Ertakni eshitganlar ham maqsudiga yetsin!

1984 y.

## OSH

Professor Obid Rasulevich yangi mahallaga ko'chib kelganiga bir oydan oshdi. Bir kuni ertalab tong qorong'isida darvoza taqillab qoldi. Professor pijamasmi kiyib chiqsa, yon qo'shnisi Xoliq tajang turibdi.

– Iya, domla, odam degan ham peshingacha uxlaydimi! – dedi u shang'illab.

– Qani, otlaning darrov!

Obid Rasulevichning kechasi ishlaydigan odati bor edi. Barvaqt turish malol kelardi.

– Qayoqqa? – dedi ikkilanibroq.

– Qayoqqa bo'lardi, oshga-da! – Xoliq tajang shuniyam bilmaysizmi, degandek qo'lini paxsa qilib tushuntirdi. – Shokir vag'-vag'ning qudasi bor-ku, supir markitda ishlaydigan! Ana o'sha jiyanining o'g'lini sunnat qildiriyapti. Choyxonaning oldida avtobus kutib turibdi. Qani, bo'ling, chaqqon-chaqqon!

Professor Shokir vag'-vag'ning o'zi kim, qudasi kim-u, qudasining jiyani kim, so'ragisi keldi-yu, qo'shnisining ra'yini qaytarishga iymandi. Nima qilsayam ko'zdek qo'shni. Buning ustiga tajang.

Ikkovlari uzun-qisqa bo'lib yo'lga tushdilar. Xoliq tajang yo'l-yo'lakay yana olti xonadonning darvozasini taqillatib, odamlarni uyg'otdi. Chindan ham choyxona oldida avtobus kutib turgan ekan. Qo'yliqqa yetib borishguncha g'ira-shira tong yorishdi. Tumonat odam. It egasini tanimaydi. Obid Rasulevich eng yaqin qarindoshlari, ko'z qiymas hamkasblarining to'yiga bormasa, nahorgi oshga ko'pam qiziqmas edi. Butun boshli olomoni ko'rib hayron qoldi. Karnay g'artillagan, surnay nola chekkan, qo'sh nog'ora takatum qilib, doiralar gijbanglab yotibdi. To'yxonaning bir tomoni to'qqiz qavatli bino, ikkinchi yonboshi qator ketgan uchastkalar ekan. Obid Rasulevich bir osham yesa yedi, yemasa – yo'q. Ammo Xoliq tajang nahorgi oshning hadisini xo'p olgan ekan. Yeb bo'lib piyolaga mo'lgina qand tashlab choy ichishni, bir karchgina tarvuz, yarim boshgina uzum tanovvul qilishni ham unutmadi.

– Ammo oshni ilik qilib yuboribdi, azamat! – dedi oshpazni maqtab.

Obid Rasulevich hammadan ham to'yxona atrofidagi xonadonlarda turadiganlarga achindi. «Har kuni ahvol shu bo'lsa, bechoralar qachon dam oladi?» degan ma'noda gap boshlagan edi, Xoliq tajang qayirib tashladi:

– Be-e-e! Nima deyapsiz, domla! Bular tong otmasdan nog'ora tovushini eshitmasa xumori tutadigan bo'pqolgan! Siz hoynahoy, xizmatga borsangiz kerak? Bo'пти, osh yegan qo'lingizni bering. Men choyxonada bo'laman. Yo peshinga dimlama-pimlama arganizavat qip qo'yaymi?

– Yo'q, yo'q, rahmat. – Obid Rasulevich shosha-pisha bosh chayqadi. – O'zingiz bahuzur...

Xoliq tajang allaqaysi bozorda qorovul bo'lib ishlar, uch kunda bir ishga borar, qolgan kunlari maishat edi.

– Bo'пти, bo'lmasa! – u professorning qo'lini silkitib qisdi. – Chiqib turing, choyxona-poyxonaga bundoq. Tobutkashmiz axir, domla!

– Albatta, albatta! – Obid Rasulevich xijolat chekib, bosh silkigancha, yo'liga ravona bo'ldi.

Saharlab turishga o'rganmagani uchun kun bo'yi boshi g'uvillab yurdi. Aksiga olib kechqurun ilmiy kengash bor edi. Ko'riladigan masalalar cho'zilib, majlis yarim kechagacha davom etdi. Uyga qaytdi-yu, bir piyola choy ichib yotib qoldi. Qancha uxlaganini bilmaydi. Bir mahal darvoza kechagidan ham qattiqroq taqillay boshladi. U vahima ichida soatiga qarasa, to'rt yarim bo'пти. Er-xotin darvozaga yugurishdi. Eshik oldida yana Xoliq tajang turibdi.

– Yilingiz uyqu, muchalingiz ko'rpachami, domla, nima balo! – dedi u askiya qilib. – E, odamlarga qo'shilingda, bundoq, yotaverasizmi galanskiy pechkaning oldida mudragan mushukka o'xshab.

– Yana oshmi? – professor qo'shnisiga mo'ltirab qaradi.

– Ha-da! Haligi yunusobodlik Husanboy polvonning o'gay o'g'li Nortoy bor-ku...

– Qaysi Nortoy? – dedi professor uning gapini bo'lib.

– Iya, nimaga tanimaysiz? Qoratoshdagi hammomning qorovuli bor-ku, xotini uch marta ketma-ket Hasan-

Husan tuqqan... Shariat bo'yicha er-xotin qaytadan nikoh o'qitishgan.

Professor hech baloni eslamasa ham ha-ha, deb qo'ya qoldi.

– Ana, barakalla! – Xoliq tajang quvonib ketdi. – Shu Nortoy deng, xo'p ishning ko'zini biladigan odam-da!.. Uchta to'yni qo'shib o'tkazayapti deng. Ham ota-onasining kumush to'yini qilyapti, ham beva qaynisinglisini erga beryapti, ham kenja o'g'lini sunnat qilyapti. Qani bo'ling, chaqqon-chaqqon. Iya, haliyam mudrab turibsizmi?

Professor osh yemadi, osh professorni yedi. Karnay tagiga o'tirib qolgan ekan, mikrofonni og'ziga tiqib baqirayotgan hofizning chiyildoq ovozi u qulog'idan kirib, bu qulog'idan teshib chiqib ketdi-yov! Tashqariga chiqishganda kechadan beri o'ylab yurgan gapini aytdi:

– Shu... Nahorgi osh jonivorni so'fi azon aytmasdan qilish shartmikin? Soat sakkizdami, to'qqizdami qilsa ham bo'ladi-ku! Odamlar xotirjam tanovul qilib, ishiga boradi.

– Nahorgi osh xuddi o'sha so'pining azoniga qarab tortiladi-da, akam aylanay! – dedi Xoliq tajang hozirjavoblik bilan. – Nima, mo'ysafidlar «palonchi prapisir bo'kib uxlasinlar» deb kutib o'tirishi kerakmi? Namozdan chiqib to'g'ri oshga kelaveradi-da!

Obid Rasulevich «mo'ysafidlar osh yeb borib uyida kun bo'yi uyquni ursa birov g'ing demaydi, ishli odamlarga qiyin» demoqchi bo'ldi-yu, indamay qo'ya qoldi.

Shu kuni kechqurun himoya bor edi. Professor opponent bo'lgani uchun kun bo'yi muk tushib dissertatsiyani qaytadan o'qib chiqdi. Uyiga kelib, kitob varaqlagunicha yana allamahol bo'ldi. Soat ikkilarga yaqin ko'zi ilindi. U qancha uxlaganini bilmaydi. Bir mahal darvoza gursillay boshladi. Bu safar Obid Rasulevich shoshilmasdan borib ochdi.

– Yana nima gap, Xoliqboy? – dedi sovuq ohangda.



– Iya, qanaqa uyquchi odamsiz, domla, onangiz yostiqlik bilan qo‘shib tuqqanmilar? Bo‘ling tezroq, Qo‘chqor qassob xotiniga yigirma qilyapti. Shundoq oydek xotin suyak tiqilib o‘lib qolsa, deng! Falokat qosh bilan qovoqning o‘rtasida turadi, deb shuni aytadi-da.

– Bilasizmi, men Qo‘chqor qassobni tanimayman, – dedi professor qovog‘ini solib.

– Siz tanimasangiz, biz taniymiz. Yigirma yil ulfatchilik qilganmiz. Qoraqamishga ko‘chib ketgan bo‘lsayam, ataylab aytib ketdi. Siz ham mundoq mahalla-ko‘yga qo‘shiling-da, qani bo‘ling, qassobning oshi qazili bo‘ladi.

Shu kuni professor o‘z xodimlarining oldida sharmanda bo‘ldi. Soat ikkiga majlis chaqirgan edi. Tushlikda ozgina tamaddi qildi-yu, stolga boshini qo‘ygancha, uyquga ketganini o‘zi ham bilmay qoldi. Xodimlarning asta-sekin «adresli» yo‘talishidan uyg‘onib ketdi. Qarasa, rosa bir soatcha uxlabdi.

Juma kungi osh Qorasuvda ekan.

– Shervon Odil degan poshshoni eshitganmisiz? – dedi Xoliq tajang tong qorong‘isida turtinib-surtinib borayotgan professorga. – O‘sha poshsho aytgan ekan: dunyoda ikki kishini xapa qip bo‘maydi. Biri – tabib, biri – oshpaz. To‘g‘ri-da, tabibni xapa qilsangiz, bir chimdim zahar bersa – tamom! Oshpazni xapa qilsangiz, to‘y oshiga bir kaft ortiqcha tuz tashlab yuborsa, to‘y egasi sharmanda-da! Ammo-lokin Egamberdi oshpazning dong‘i Dog‘istongacha ketgan! Xudo xohlasa, siz ham mundoq hovli to‘yi qilarsiz, el-yurtga osh berarsiz. O‘shanda Egamberdi oshpazni xizmatga chaqiramiz. Bugun shu odam o‘rtancha o‘g‘lining oltinchimi-yettinchi bolasiga aqiqa qilayapti. Amri-ma‘ruf eshitamiz!..

Shunday bo‘ldi. Tag‘in tumonat odam to‘plandi. Imom-xatib so‘zamolgina yigitcha ekan. Ota-onaning farzand oldidagi vazifasi, farzandning ota-ona oldidagi burchi haqida ko‘p ibratli mulohazalar aytdi. Faqat bir gapi

professorni hayron qoldirdi. Domla yangi yil yaqinlashib qolganini, xonadonga archa zotini zinhor-bazinhor yo‘latish mumkin emasligini tayinladi. Uning aytishicha, archa degan palakatning har bir shoxi tagida bittadan shayton o‘tirarkan! Obid Rasulevich shu yoshga kirib, bunaqa karomatdan bexabar yurgan ekan. Xoliq tajangdan «nima, domla-imom archa tagida o‘tirgan shaytonlarni sanabdilarmi» deb so‘ragisi keldi-yu, tilini tiydi. Mulla odam bir nimani bilmasa gapirma kerak... So‘ng tag‘in kuylar gumbirladi, ashulalar xonish qilindi... Obid Rasulevich uyiga kelib, ayoliga qattiq tayinladi:

– Ertaga ertalab men yo‘qman. Komandirovkaga ketganman, jiyanimnikiga borib yotib qolganman, kasalman, baloman, battarman, xullas – yo‘qman!

Shu kuni maza qilib uxlamochi edi, baribir bo‘lmadi. Xoliq tajangning chiyildoq ovozi qulog‘iga o‘qdek kirdi.

– Uyalmysizmi, yanga! Kap-katta odamga yolg‘on gapirgani nomus qilmaysizmi? Kechqurun ishlab o‘tirganlarini derazadan o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim-ku! Mov mushukka o‘xshab panaga berkinmay, odamlarga qo‘shil-sinlar-da, mundoq! Chaqiring, poylab turibman!

Bo‘lmadi. Uyqusi harom bo‘lgan Obid Rasulevich tashqariga chiqdi.

– Ana! – Xoliq tajang quvonib ketdi. – Devor bo‘lmasa ko‘chani ko‘ramiz-da, yangajon!

Xotini, meni yolg‘onchi qilmay o‘ling, degandek qovog‘ini solib ichkariga kirib ketdi.

– Ammo Rasul satarosh xo‘p oqibatli odam-da! – dedi Xoliq tajang boshini sarak-sarak qilib. – Jizzaxga ko‘chib ketgan odam ataylab to‘yiga aytib ketdi, deng. Bechoraning o‘g‘li yo‘q. To‘qqizta qizi bor. Shu deng, targoviy kallijda o‘qigan to‘rva qoqdisini uzatayotgan ekan. Shuncha yurib yurtning oshini yedim, endi men ham el oldiga dasturxon yozay, deb osh beryapti. Qani, bo‘ling, bo‘la qoling, chaqqon-chaqqon.

– Ming rahmat! – Professor keskin harakat bilan qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi. – Men endi bo‘ldim. Iltimos, ikkinchi to‘rg‘ay uyg‘onmasdan meni bezovta qilmang.

U eshikni qars etib yopdi.

– O‘ aka, prapisir bo‘lsangiz o‘zingizga! – Xoliq tajang darvoza tomonga iyagini cho‘zib baqirdi. – Bilib qo‘ying, o‘, tobutkashmiz! O‘lib-netib qolsangiz, tobutingizni mahalla ko‘taradi.

Obid Rasulevich tez-tez yurib, ichkari uyga kirdi-da, chuqur uh tortdi. O‘sha kuni Xoliq tajang Jizzaxdan peshinga yaqin qaytdi. «Ismen»dan bo‘sh bo‘lgani uchun to‘ppa-to‘g‘ri choyxonaga kirdi.

– Bu prapisirlaring odammas ekan-u! – dedi qo‘lini paxsa qilib. – Voy, dimog‘ingga bedanam qo‘nsin! Men buni odam bo‘lsin, mahalla-ko‘yga qo‘shilsin, desam eshikni yuzimga yopib o‘tiribdi. Voy, seni yozib bergan kitobingga nosvoy o‘rab sotay! O‘zim sezuvdim-a, odamgarchiligi yo‘q buni, devdim-a! Bo‘lmasa ko‘chib kelganiga ikki kam qirq kun bo‘ldi. A mundoq dasturxon yoz, hovli to‘yi qilib yurtga osh-posh ber, o‘lar yerdamisan? O‘ziyam bolasi yo‘q shekilli, xotini o‘zidan kamida o‘n besh yosh kichik...

Xoliq tajang hadeb gap ma‘qullar, professor esa bu paytda yuragi siqilib, o‘zi kashf etgan yangi bug‘doy navi hosildorlikni bir yarim hissa oshirsa, xalqqa qancha foydasi tegishini hisoblar edi.

## **MEN, BUVAM BA RANGLI TELEVIZOR**

Men buvamga qanchalik aloqador bo‘lsam, rangli televizor ham menga shunchalik aloqador. Agar buvam bo‘lmasa, otam bo‘lmasdi. Otam bo‘lmasa, men bo‘lmasdim. Men televizor olmasam, buvamning jahli chiqmasdi. Buvamning jahli chiqmasa, irg‘ay hassasini ko‘tarmasdi. Hassasini ko‘tarmasa... Hech nimaga tushunmadingiz-a? Xudo haqqi, o‘zimning ham boshim aylanib ketdi. Keling,

bir boshdan gapirib bera qolay. Shunday qilib, men – bu men. Buvam – otamning otasi. Sakson uch yoshda. Butun boshli buqani, desam lof bo‘lar-ku, o‘rtacharoq g‘unajinni bir musht urishda sulaytiradi. Faqat ikki yil burun oyog‘iga bod kelib, sal oqsab qoldi. Surxondaryoga borganimda Bobotog‘dan ataylab irg‘ay hassa olib kelganman. O‘ziyam salkam chorak pud keladi!

Shu desangiz, bir kuni tinchgina romanimni yozib o‘tirsam, oldimga buvam kirib keldi.

– Kim aytadi seni yozuvchi deb? Almisoqdan qolgan televizorni ko‘rishga uyalmaysanmi? Olsang bo‘lmaydimi, bunday oynasi kattarog‘idan! – dedi hassasini yerga do‘qillatib urib.

O‘g‘lim mendan qanchalik qo‘rqsa, men ham otamdan shunchalik qo‘rqaman. Men otamdan qanchalik qo‘rqsam, otam ham buvamdan shunchalik qo‘rqadi. Oilamizda buvamning so‘zini ikki qiladigan mard yo‘q.

– Xo‘p bo‘ladi, shu shanbagacha yest qilamiz, – deb yuboribman ikki qo‘limni ko‘ksimga qo‘yib.

Buvam chiqib ketishi bilan telefon jiringlab qoldi.

– Men kinorejissyorman, – dedi o‘rtacharoq yo‘g‘onlikdagi ovoz, o‘rtacharoq qo‘pollik bilan. – Sizni ko‘rishim kerak!

Yarim soatdan keyin ko‘rishdik. Rejissyor sochi yelkasi-ga tushgan, o‘rtacharoq mo‘ylov qo‘ygan yigit ekan.

– Qalay? – dedi u to‘satdan.

– Nima qalay?

– Bizning filmlar?

Chaynalib qoldim. Rostini aytsam, shu rejissyorning kinolarini jinim suymasdi.

– Bilmasam, – dedim ming‘illab. – Filmingizdagi odamlar g‘alatiroqmi-ey... Tomoshabin ekranda o‘ziga o‘xshagan odamlarni ko‘rsa yaxshi bo‘larmidi.

– A, kim vinovat? – dedi u o‘rtacharoq qo‘pollik bilan. Yyelkamni qisdim.

– Siz vinovat! – rejissyor qo‘lini to‘pponcha qilib peshanaga o‘qtaldi.

– Men?

– Da, da, siz! – rejissyor o‘rnidan turib ketdi. Cho‘ntagidan saqich chiqarib, zar qog‘ozni ochdi-da, karsillatib chaynay boshladi. – Siz yozuvchilar ssenariy yozish desa, qorangizni ko‘rsatmaysiz-u, birovning filmini yomonlaysiz.

Endi og‘iz ochib fikrimni aytmoqchi edim, rejissyor gapirtirmadi.

– Men delovoy odamman! – u boshini bir siltagan edi, yelkasiga tushgan sochlari arslonning yolidek silkinib ketdi. – Gap shu: sovremenniy temada ssenariy yozib berasiz. Sizga bir yil srok.

– Axir men umrimda ssenariy yozgan emasman.

– Roman yozgan odamga ssenariy chepuxa! – rejissyor jerkib berdi.

U chindan ham delovoy odam ekan. Birpasda qo‘limga shartnoma qog‘ozini tutqazishdi. Shartnomaga binoan men bir yil ichida zamonaviy mavzuda ssenariy yozishim, shuning evaziga qalam haqining to‘rtidan birini oldindan olishim mumkin ekan. Qandoq qilib qog‘ozga qo‘l qo‘yganimni o‘zim ham bilmay qoldim.

– Pulingizni uchinchi qavatdagi kassadan oling, – dedi rejissyor yana arslonning yolidek sochlarini silkitib.

Umrimda bitmagan ishga haq olgan emasman. Bu gal ham olmoqchi emasdim-u, buvamga bergan va‘dam esimga tushib qoldi. Kassa darchasidan boshimni suqishim bilan qo‘limga pul tutqazishdi. «Qari bilganni pari bilmas» degan gapni kim aytgan bo‘lsa, uyiga bug‘doy to‘lsin! Ekran kengmo‘l televizor ko‘rish jonning rohati ekan. Chir aylanib o‘ynayotgan raqqosalar, qo‘yib bersangiz ekrandan chiqib ketgudek muqom qiladi! Nuqul buvamga tasanno o‘qiyman! Bir chekkasi anavi «delavoy» kinorejissyorniyam duo qilib qo‘yaman.

Ammo olmoqning bermog'i bor, deganlaridek, bo'ynidagi qarzni uzish kerak. Erta bilanoq hamma ishinni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, ssenariy yozishga kirishdim. To'rt oy deganda ssenariy bitdi. Qo'ltiqlab obordim.

– Malades! – dedi rejissyor arslonning yolidek sochlari silkitib. – Bir haftada o'qib qo'yaman.

Bir haftadan keyin bordim.

– Chepuxa! – rejissyor ssenariy solingan papkani bir otgan edi, stolda sirg'alib keldi-da, qo'limga tushdi.

– Nimasi chepuxa? – dedim hayron bo'lib. – Hayotiy emasmi?

– Bot imenno hayotiy! – rejissyor o'rtacharoq qo'pollik bilan yana qaytardi. – Imenno hayotiy.

– Bo'lmasa qanaqasi kerak?

– Menga har qadamda uchraydigan odam kerakmas. Original bo'lsin. Hech kimga o'xshamasin!

Rejissyor u dedi, men bu dedim. Xullas, yana ikki oy muhlat berishdi. Endi hamma rangli televizor ko'rsa, men xonamga qamalib, qahramonlarimni hech kimga o'xshatmaslik bilan ovora bo'ldim. Aytilgan muddatda ssenariyni yana obordim.

– Malades! – rejissyor yelkamga qoqdi. – Bir haftada o'qib qo'yaman.

Bir haftadan keyin bordim. Biroq bu safar eshikdan quvonib emas, ijirg'anib kirib bordim. Rejissyor ham ijirg'anib o'tirgan ekan.

– Yerunda! – dedi arslonning yolidek sochini silkitib.

– Yana nimasi yerunda?

– Bironta epizodda eshak yo'q.

– Nima?

– Eshak yo'q, deyman!

– Eshakni nima qilasiz?

– Mestniy kolorit kerakmi-yo'qmi?

– Qachongacha eshak kolorit bo‘ladi? – dedim bo‘g‘ilib. – Eshakka boshqorong‘i bo‘lganmisiz, nima balo? Har kinoingizda eshak hangramasa, xumordan chiqmaysiz.

Rejissyor mendan bunaqa qaysarlikni kutmagan bo‘lsa kerak, o‘ylanib qoldi.

– Baribir kolorit kerak.

– Menga qarang, – dedim anchadan buyon o‘ylab yurgan gapimni aytib. – Pulingizni obkelib kassangizga topshirsam qutulamanmi?

– Nima? – rejissyor sochlarini shu qadar shiddat bilan silkitdiki, yelkasidan cho‘g‘ sachrab ketgandek bo‘ldi. – Ni za chto! Ishingiz sudga tushmasdan ssenariyni bitiring. Plan kuyyapti.

Uyga kelsam, buvam rangli televizor ro‘parasiga o‘tirib olib, maqom konsertini ko‘ryapti. To‘g‘risi, buvam ham ko‘zimga xunuk ko‘rinib ketdi.

Bir yarim oydan keyin ssenariyni yana obordim. Bu safar rejissyor uch kunda o‘qidi.

– Shu... Pomoemu birinchi variantning o‘zi nichego edi, shekilli, – dedi bo‘shashib.

– Bo‘lmasa nega shuncha boshimni qotirdingiz?

Rejissyor arslonning yolidek sochlarini ohista silkitdi.

– Yozuvchi rejissyorning xizmatkori, degan gapni eshitganmisiz?

Alam qilganidan o‘rnimdan turib ketdim.

– Sudga berasizmi, surgunga yuborasizmi, tamom! Men siz bilan ishlamayman.

– Zato, men siz bilan ishlayman! – rejissyor yana asabiylasha boshladi shekilli, saqich chaynashga tushdi. – Shuni bilinki, kino kitob emas. Ssenariy allaqanaqa roman yozishmas.

– O‘zingiz aytgandingiz-ku, roman yozgan odamga ssenariy chepuxa, deb.

– Sovershenno to‘g‘ri. Lekin roman bitta sizniki bo‘lsa, kino kollektivniki. Tushundingizmi?

Chiqib ketdim. Shu bilan qutuldim deb o'ylagan edim. Qayoqda? Yana olti oy sudralib yurdim. Ssenariy degan narsani xohlagan paytda, xohlagan odam o'zgartiraverar ekan. U joyiga aktyorning tili kelishmaydi, bu joyi operatorga yoqmaydi... Oradan bir yil o'tdi. Bir kuni chala qolgan romanimni yozib o'tirsam, bolalar qiy-chuv qilib qolishdi.

– Urre! Dadamning kinosini berarkan!

Katta xonaga kirdim. Eng o'rtada yumshoq kursida irg'ay hassasini ushlab buvam o'tiribdi. U yoqda dadam, bu yoqda oyim, xotinim, bolalar... Bir mahal film boshlandi. Ekranda ssenariy avtorlari degan yozuv paydo bo'ldi-yu, bir emas, uch familiya ko'rindi. Birinchisi, rejissyorniki, yana biri men tanimaydigan allaqanday ajnabiy familiya, oxirida meniki...

Ha, mayli, kino ko'pchilikning mulki, deb qo'ya qoldim.

Shunday qilib, kino voqealari boshlandi. Mening ssenariyim bo'yicha qishloqning obro'li otaxoni kichik o'g'lining mashinasida shaharga – katta o'g'linikiga borishi kerak edi. Mening cholim boshiga ixcham salla o'rab yuradigan nuroniy chol edi. Kinodagi chol ayvoni barkashdek keladigan sombrero kiyib chiqdi. Mushtdek trubkaga mo'lgina tamaki to'ldirib, burqsitib tutata boshladi. Darvoza oldiga mashina emas, hangi eshak kelib to'xtadi. Mening ssenariyim bo'yicha farishtalikkina kampir cholining qo'liga tuguncha tutqazishi, tugunchada nabiralariga atalgan yong'oq, turshak, nok bo'lishi kerak edi. Kinodagi kampir: «Qachongacha tamaki tutatasan, sassiq chol, ma, «Orbit» chaynab ol!» – deb cholning og'ziga jevachka tiqishtirdi. Keyin, mana, endi odamga o'xshading, dedi-da, negadir cholining labidan hafsala bilan o'pdi.

Bunday razm solsam, oyim teskari qarab olibdi. Dadam ro'molcha qidirgan bo'lib, nuqul cho'ntagini kavlaydi.



Buvamning kulrang qoshlari uyilib, uchburchak bo'lib ketibdi.

Kino hamon davom etardi. Shunday qilib, isqirt sombrero kiygan chol eshakka chaqqonlik bilan mindi-da, trubka tutatib yo'lga tushdi. Mening ssenariyim bo'yicha chol choyxona oldida mashinadan tushib, bir piyola ko'k choy ichishi, choyxo'rlar bilan ekin-tikin ishlarudan gaplashishi kerak edi. Kinodagi chol kafe oldida eshagidan tushdi-da, ichkari kirdi. Oltita sosiskani paqqos tushirdi. Ustidan bir krujka ko'pirib turgan pivoni huzur qilib simirdi-da, «g'arq» etib kekirdi. Uzundan-uzoq fotiha o'qib, o'rnidan turdi.

Mening ssenariyim bo'yicha chol yo'lda ketayotib, karnay-surnayli to'yga duch kelib qolishi, to'y egalari qo'yarda-qo'ymay, izzat-ikrom bilan uni ichkariga olib kirishlari, chol kelin-kuyovga oq fotiha berishi kerak edi. Kinodagi chol qahvaxonadan chiqib, pivoning kayfi bilan pinakka ketdi. Bir mahal eshagining cho'zib-cho'zib hangrashidan o'ziga keldi. Qarasa, qandaydir to'yxona eshigiga kelib qopti. Eshagini temir panjaraga bog'ladi-da, birov taklif qilmasa ham ichkari kirdi. To'rda o'tirgan kelin-kuyovning ro'parasiga kelib, o'z qo'li bilan shampanni paqillatib ochdi. Bokalga to'ldirib, g'o'lq etib ichdi-da, kelinga qarab o'zidan-o'zi muqom qila boshladi. So'ng osmonga sakrab raqs tushayotgan yoshlar davrasiga qo'shilib o'ynab ketdi. Kimdir pul qistirgan edi, boshidan sombrero si uchib ketdi. Kulgi. Qiyqiriq!

Sekin razm solsam, uydagilarning hammasi chekka-chekkaga qarab o'tiribdi. Oyim bilan xotinim sekingina chiqib ketishdi. Buvamning irg'ay hasa tutgan qo'li titray boshladi.

Nihoyat, kinodagi chol katta o'g'linikiga yetib keldi. Xayriyat, buvamga yoqadigan joyiga keldik. Mening ssenariyim bo'yicha chol kichikroq oilaviy janjal ustiga kelib qolishi, o'g'li bilan keliniga nasihat qilib, er-xotinlik

mas'uliyatini tushuntirishi kerak edi. Kinodagi chol ham janjal ustiga kelib qoldi. Bittasi besh yashar, bittasi uch yashar ikki bola ikki chekkada to'xtovsiz arillar, sochlari paxmaygan xotin nuqul chamadonga kiyimlarini joylar edi. U qaynatasini ko'rdi-yu, birdan bobilladi:

«Mana shu mishiqilar deb umrimni o'tkazamanmi? Hecham-da! Men jinni bo'lganim yo'q».

«Yo Xudo, o'zing asra! – dedim ichimda pichirlab. Ssenariyda bunaqa gaplar yo'q edi-ku!» Kelin cholning ro'parasiga keldi-da, boshidagi kulrang parikni changallab yerga uloqtirdi.

«Ketaman! – dedi chinqirib. – Sening debil o'g'ling bilan yashamayman! Bozorga chiqaman! Pul topaman!»

– «Malades! – dedi chol to'satdan. – To'g'ri qilasan! Ikkita mishiqi deb umringni o'tkazanmi? Sen sovremen-niy ayolsan. Men seni padderjka qilaman! Manavi chur-vaqalar yumalab-sumalab katta bo'pketaveradi. Sen o'zingni o'yla!»

Shu yerga kelganda buvam chidab turolmadi. Shahd bilan o'rnidan turdi-da, chorak pudli irg'ay hassasini bir otgan edi... Televizor deganning kineskopi kuyib o'tirmas ekan, portlab qo'ya qolarkan!..

Hammamiz pildir-pis bo'lib, uy-uyga kirib ketdik. O'sha kuni menga nashriyotdan xat keldi. «Hurmatli... Romaningizni o'z vaqtida topshirmaganingiz sababli nashriyot rejasidan chiqarib tashladik».

Ha, aytganday o'sha kundan buyon buvam televizorning yaqiniga bormaydi. Men umuman kino ko'rmayman.

*1980 y.*

## YUBILEY

Bugun naqd oltmishga to'lib, «krugliy data»si bo'lsa-ku, Vali Soliyevich yubileyini qanday o'tkazishni o'zi bilardi-ya! Nachora, oltmishga emas, bor-yo'g'i ellik to'qqizga kirdi.

Shuning uchun tug'ilgan kunini kamtarona nishonlashga qaror qildi. Shunga qaramay, «xo'jayin»ning tavallud kuniga butun jamoa yig'ildi. Hammasi risoladagidek bo'ldi. Bali Soliyevichni to'rga o'tqazishdi. Oldiga kattakon savatda guldasta, yonboshiga har ehtimolga qarshi, sovg'a-salomlar uchun pastak kursi keltirib qo'yishdi.

Tantanali kechani kasaba uyushmasining raisi ochdi. U muhtaram yubilyarning hayoti va faoliyati to'g'risida ma'ruza qilish uchun so'zni Vali Soliyevichning muoviniga berganda yig'ilganlar o'rnidan turib, guldiros qarsak chalib yubordilar.

«Zam» mikrofonni changallab, bir-ikki puflab qo'ydi-da, uzoq jimib qoldi.

– Bugun biz tarixiy voqeaning guvohi bo'lmoqdamiz, – dedi nihoyat titroq ovozda. So'ng to'y bolalardek iymanib o'tirgan yubilyarga qarab davom etdi. – Kechirasizlar, aziz do'stlar, kechirasiz, muhtaram Vali Soliyevich! Men shu qadar hayajondamanki, gapni nimadan boshlashni bilolmayapman! Men sizning mo'tabar otangizga havas qilaman: sizdek ulug' farzandni tug'dirgani uchun. Men sizning muhtarama onangizga havas qilaman: sizdek buyuk o'g'ilni tuqqani uchun! Men o'z kollektivimizga havas qilaman: shunday odamning dono rahbarligi ostida ishlash baxtiga muyassar bo'lgani uchun. Men... O'zimga havas qilaman: sizdek jahonshumul shaxsning «zam»i bo'lganim uchun! Menga bundan katta baxt yo'q, aziz ustozim!

Yig'ilganlar tag'in baravar qarsak chalishdi. Muovinning o'zi hammadan qattiqroq chalib, zalga o'girildi.

– O'rtoqlar! – dedi ma'yusroq ohangda, – men bir narsadan jinday xafaman... – Hammaning diqqatimi tortish uchun bir zum sukut saqladi-da, davom etdi. – Shuncha paytgacha Vali Soliyevichga nima uchun akademik unvoni berilmaganiga hayronman. Umid qilamanki, ustozimizning oltmish yoshini akademik sifatida nishonlaymiz! – «Zam» nutqini yakunlab yubilyarga jamoa nomidan «yupqa

ekranli» televizor sovg'a qilganda, qarsaklar «avatsiya»ga aylanib ketdi.

So'z navbati boshbuxga berildi.

– Aziz birodarlar, – dedi boshbux vazminlik bilan. – Tag'in bu odam o'zining tog'asini maqtayapti, demanglar-ku, men Vali Soliyevichni tog'am emas, otam deganman. Agar bu dunyoda ishning ko'zini biladigan, donishmand odam ikkita bo'lsa, bittasi Vali Soliyevich bo'ladilar. Agar bitta bo'lsa, shu kishining o'zi! Misol kerakmi, pajalista! Bultur kuzda nonyemas komissiya degan palakat ishimizdan ishkal topib, prokuraturaga oshirvoray deb turganda, shu inson aziz vaqtlarini ayamay shaxsan o'zlari yordamga yetib keldilar. Tekshiruvchilarning og'zini yopish uchun qancha «ko'ki»dan ketganini bilmayman-ku, ammo tashkilotimizning obro'sini saqlab qoldilar! Qani, ayting-chi, qaysi boshliq, qaysi olim shunday maydachuyda yumushlarga vaqtini sarflab o'tiradi?! Tog'ajon! Manavi qiyiqchani kelingiz o'z qo'li bilan tikkan! Amir Olimxonnikidan qolishmaydigan manavi zar chopon esa kenja jiyaningizdan, ya'ni bizning o'g'ilchadan arzimas sovg'a! Qarang, chap ko'kragiga, kakraz yuragingiz ustiga tilla harflar bilan «V.S.» deb yozib qo'yilibdi. – Boshbux to'n yopa turib Vali Soliyevichning ko'ksiga boshini qo'yib yig'lab yubordi. Yubilyar bir nima deb yupatdi-yu, qarsaklar ostida hech kim eshitmadi.

Keyingi so'zni yubilyarning sodiq shogirdi Ra'noxon oldi.

– Kimki, dunyoda bitta oftob bor, desa bekor aytibdi, – dedi ishonch bilan. – Men uchun olamda ikkita quyosh bor. Biri – osmonda, biri yerda. Vali Soliyevich yerdagi quyosh bo'ladilar!

Osmondagi oftob kechasi g'oyib bo'ladi. Siz esa kechakunduz bizni yoritib, isitib turasiz! Sizning ixtirolaringiz Nobel mukofotiga arziydi. Masalan, qurilishda pishiq g'isht o'rniga oddiy guvaladan foydalanish necha million

so'm daromad keltirishini siz isbotlab berdingiz! Agar siz bo'lmasangiz, menga o'xshagan prastoy bir ayol ilm qilishim mumkinmidi? Sizning dono rahbarligingiz ostida gaz yoki elektr energiyasi sarflamay, guvalani oftobda quritishni ilmiy jihatdan qanday isbotlardim? Siz boshimni silab, bag'ringizga olmasangiz, go'rso'xta erimning paypog'ini yuvib yuravergan bo'lardim! Mendek sevikli shogirdingiz baxtiga yuzga kiring. Ruxsat eting, o'z qo'lim bilan tikkan do'ppi shu aziz boshingizga kiygizib qo'yay!

Do'ppi kichikroq keldi. Ammo Vali Soliyevich ranjimadi. Ra'noxonni «otalarcha» mehr bilan bag'riga bosgan edi, shogirdi «adashib» labini tutib qo'ya qoldi.

Kotiba qiz Zulya – Zulayho navbat kutib o'tirmay, dirkillab minbarga chiqib bordi. Etagi tizzasidan ikki qarich baland, yalang'och kindigiga zirak taqib olgan Zulyani, ayniqsa, qizg'in olqishlar bilan qarshi olishdi.

– Men Ra'no opamga o'xshab chiroyli gapirishni bilmayman, – dedi o'ktam ovozda. – Karoche, men Valijon akamni sevaman! Vapshe biz – ayollar hammamiz sizni sevamiz. A, men bo'lsam – bezumna sevaman! Dunyoda bunaqa abayatelnii erkakni ko'rmaganman! Saxiyliklarini aytmaymizmi? Masalan, Yangi yilga Valijon akam menga fransuzkiy duxi padarka qildilar. «Shanel» Manavi kalsoni esa, – u qo'lidagi tilla uzukni negadir Ra'noxon tomonga ko'rsatdi, – mejdunarodniy jenskiy bayramga prepodnosit qildilar. Yaqinda menga kvartira olib bermoqchilar! Valijon aka! Tug'ilgan kuningizga nima padarka qilishni o'yladim. Ko'p o'yladim. O'ylab-o'ylab, v konse-konsov o'zimni sovg'a qiladigan bo'ldim!

Qiyqiriq, qarsakbozlik bo'pketdi. Yubilyarning oldida o'tirgan «zam» tabrik so'zini kadrlar bo'limining boshlig'iga berdi. Keksa bo'lim mudiri inqillabroq minbarga chiqdi. Ikki-uch marta yo'talib oldi.

– Ukaxon! – dedi mikrofonni zing'illatib. – Xapa bo'maysan-ku, sani ukam deyishga maralniy haqqim bor.

Man bu dargohda qirq uch yil ishladim. Ne-ne odamlar kelib-ketmadi. – Shunday dedi-da, zalga qarab gapida davom etdi. – Valijon birinchi ishga kelgan kezlari shimini ko‘ndalang dazmollab yuradigan so‘takkina bola edi! Ishga kirishga ariza yoz, desam, arizani qanaqa yozadi, deb so‘ragani esimda. Meni ishga olishingizni so‘rayman, degan to‘rttagina so‘zda sakkizta xato qilganini ko‘rib: «San – savodsiz qay go‘rdan kepqolding?» – degan edim!

Yubilyarning oldida o‘tirgan «zam» bezovtalanib qoldi. Qo‘lidagi qalam bilan stolni bir-ikki chertgan edi, «atdel kadr»ning qulog‘i og‘ir bo‘lgani uchun eshitmadi chog‘i, baqirib so‘zida davom etdi:

– Xabaringiz bor, Darvin degan inglizmi, yaponmi olimi, mehnat maymunni odamga aylantirgan, degan. Topib aytgan ekan, zang‘ar! Mana, sizlarga jonli misol. Valijon hech qachon mehnatdan qochmadi. Oxiri, odam bo‘ldi! «Yoshlik – beboshlik» deganlari to‘g‘ri. Yoshlikda hammamiz ham ichganmiz, chekkanmiz... Valijon bir ichsa, «zapoy» bo‘lib ichardi! Bo‘kib ichardi! Ammo-lekin birovni xapa qilmasdi: nuqul ashula aytardi. Lichna o‘zim o‘n bir marta hushyorxonadan obchiqqanman. «Mentlar» ham tanib qolgandi. «Iya, hofiz yana kepqoldilarmi, qani, bi-i-ir katta ashuladan bo‘lsin», – deyishardi. Valijon sovuqqina xonada mayka-tursida o‘tirib «Bog‘ aro»ni olardi! Mana, xudo insof berarkan-ku! Ikki yildan beri ichishni sapsem tashladi!

«Zam» o‘rnidan turib ketdi. «Raglament!» deb dashnom bergandi, notiq yana eshitmadi.

– Valijonning birinchi xotini farishtadek edi, – dedi shavq bilan davom etib. – Man buni yelkamda ortmoqlab uyiga oborsam, kelin sho‘rlik izza bo‘lardi. Xo‘p mehnat-kash, andishali juvon edi.

Hayronman, shayton yo‘ldan urdimi, boshqami, Valijon mana shu ikkinchi xotiniga ilakishib qolsa deng! Necha marta aytdim: hoy bola, ahmoqlik qilma, dedim.

Quloq solmadi! Mana, oqibati! Yaxshi xotin bo'lsa erining yubileyiga kelib, yonida o'tirsa o'ladimi? Yo'q, kelmaydi! Valijongayam hayronman! Shundoq katta odam xotinini ko'rsa, ajdarga duch kelgan quyunday qaltirab qoladi! Ammo ukaxonim ham birovdan qarzdor bo'lib yuradigan anoyilardanmas! Xotin zotiga suyagi yo'q. Lokin man Valijonni benavot demayman. Valijon xotinboz emas, xotirlarning o'zi Valijonboz!

«Zam» buyog'iga chidolmadi. O'rnidan turib:

– Navbat kechamizning badiiy qismiga! – deb e'lon qilib qo'ya qoldi.

«Atdel kadr» yana bir-ikki gapi chala qolganiga ranjibroq minbardan tushishi bilan konsert boshlandi. «Zam»ning o'zi birinchi bo'lib «Paxsa devor» degan qo'shiqni aytdi. To'yibgina shampan ichib olgan Ra'noxon «Lo'mboz» raqsiga biram eshilib o'ynadi, biram o'ynadi! Zulyaxon balo ekan! «Lazgi»ga chalinglar, «Lazgi»ga, dedida, qo'ng'iroqdek ovozda «Va'dasida turorim, bari gal, na qilsang ixtiyoring, bari ga-a-al» deb, kindigidagi zirakni silkitib-silkitib shunaqangi raqsga tushdiki, erkaklarning qiyqirig'i tomni ko'chirib yuboray dedi!

Xuddi yubilyarni qutlagandek tashqarida momaqaldiroq gumbirladi. Ketidan sharros jala quyib yubordi...

Kecha oxirlab qolganda jindek ko'ngilsizlik bo'ldi. Hamma baravar «Tomsuvoq» raqsini ijro etayotganida kichik xodim Qo'shoqvoy eshikdan baqirib kirdi.

– Sho'rimiz quridi, otaxon! Yangi yasagan guvalalarimiz yomg'irda ivib, balchiqqa aylandi!

## «SOQOV» LAYCHA

*(Bir aktyor hangomalaridan)*

Viloyat teatrida ishlab yurgan kezlarim edi. Teatrni bilasiz. Goh spektakl kech tugaydi. Goh uzoq xo'jalikka

borib, tomosha ko'rsatishga to'g'ri keladi. Ko'pincha uyga tun yarmida qaytamiz. Ayol kishi ming tushungani bilan baribir har xil xayolga boradi-da. Kech kelsam, tergaydigan odat chiqardi. O'ylab-o'ylab yo'lini topdim. Darvozaning bitta kalitini kissaga solib yuradigan bo'ldim. Kech kelsam, imi-jimida hovliga kiramanu, so'rida uxlayman. Ertasiga xotin qayerda edingiz, desa kun botmasdan kelganman, sening g'ish-g'ishangdan bezor bo'lib ovqat ham yegim kelmadi, deb baland keladigan bo'ldim.

Shu orada desangiz, yon qo'shnim it boqdi... Boyvachcha odam. Umrida kitob o'qimagan. Aktyor deganda masxarabozni, yozuvchi deganda ig'vogarni tushunadi. Xullas, qo'shnim it boqdi. Laqabi – «Arslon». «Arslonboy» qanaqa, desam ekan? It desam, rosmana itning haqqi ketadi. Kuchukbachcha desam «Arslon»ning. Choynakdan kattaroq, futbol koptogidan kichikroq laycha. Ammo ovozdin bergan. Bir akillasa, butun mahallani uyg'otadi. Tenor ovozda «vak – vak – vak», «vak – vak – vak» deganda, manaman degan apcharkalar, bo'ribosarlar jimib qoladi. Tag'in shunaqangi ziyrakki, ko'chadan pashsha uchib o'tsa, olamni boshiga iladi. «Vak – vak – vak», «vak – vak – vak!» Kechasi bilan uyqu yo'q. Qo'shniga:

– Itingizning jag'i muncha ochiq, tuni bilan tinchlik bermaydi, – desam, askiya qildi:

– Kechasi ariya aytgisi kelgandir-da! Boqsa, yaxshi artis chiqadi! Shogirdlikka olmaysizmi?

Bunisi-ku, mayli. Xohlaymanmi-yo'qmi, qo'shnimning darvozasi oldidan o'tishim kerak. Uch yuz qadam naridagi katta ko'chadan burilishim bilan laycha «yangajon, eringiz kelyapti, boxabar bo'ling» degandek akillashga tushadi. Darvozaga kalit solsam, nariyoqda xotin o'shshayib poylab turgan bo'ladi.

Oxiri chidolmadim. Bir kuni ishga ketayotib, qo'linga tuxumdekkina kesak oldim. (Kattarog'i bilan urishga achindim. O'lib-netib qolmasin jonivor). Qo'shnining



darvozasini qiya ochishim bilan laycha akillab yugurdi. Kesak otdim. «Arslon» deganicha bor ekan, yaramas! Yoniga borib tushgan kesakni rosmana itlarga o'xshab, hidlab ham ko'rmay, g'ajib tashladi-da, men tomonga otildi. Shoshilinchda darvozani qiya ochiq qoldirgan ekanmanmi, katta ko'chagacha «kuzatib qo'ydi».

Qo'shni kunora hazil qiladi:

– Kecha oqshom rayonga borganmidingiz? Soat o'n ikkidan sakkiz minut o'tganda keldingiz? Avvalgi kecha o'n birdan qirq minut o'tganda «Arslon» sizga salom berdimi?

E, saloming bilan qo'shmozor bo'l, degim keldi-yu, ko'zdek qo'shni...

– Ko'p e'tiborlisiz-da, qo'shni, – deyman. – Qilgan yaxshiligingiz mendan qaytmasa, itingizdan qaytsin!..

Hordiq kunimidi, esimda yo'q, xotin tandir qizitib, non yopdi. Qarasam, tandir tagida yarim paqir kartoshka turibdi. Xotin non chakichlashga kirishgan zahoti o'rtacharoq kartoshkani tandirdagi cho'qqa ko'mib qo'ydim. Xotin non uzib uyga kirishi bilan kartoshkani kosov bilan cho'g'dan ajratib oldim. Qo'l kuymasligi uchun ro'molchaga solib, qo'shnikiga g'izilladim. Qo'shning darvozasini qiya ochdim. Ro'molchani yechib, kartoshkani yugurib kelayotgan it tomonga dumalatib yubordim. «Arslon» qaynoq kartoshkani g'archcha tishladi! Na chaynab yutadi. Na chiqarib tashlaydi. Tanglayiga yopishib qolgan! Ikki marta «viyq-viyq» dedi-da, mingga qo'yib, hovli etagidagi makkazorga urib ketdi! Shu-shu «soqov» bo'lib qoldi, jonivor. Ko'chadan pashsha tugul ekskavator o'tsa ham g'iring demaydi! Ora-chora qo'shnimdan so'rayman:

– «Arslonboy» jimib ketdimi?

– Iniga kirib repetitsiya qilyapti, – deydi qo'shnim bo'sh kelmay. – Katta ashula aytmoqchi!

– Niyatiga yetsin, – deyman men ham sir boy bermay. – Umri siznikidan ham uzoq bo'lsin. Ko'p aqlli it-da! Egasiga tortgan...

«Arslon» chindan ham uzoq umr ko'rdi. O'n besh yildan ortiq. Ammo biron marta ovozi chiqmadi. Faqat meni ko'rsa, «viyq» deydi-da, o'zini makkazorga uradi.

## «BUTILKA» – HOJI

*(Boshqa hojilarga daxli yo'q)*

Do'stim o'g'lini uylantirayotgan edi. Endi... To'y bo'lganidan keyin... O'zingiz bilasiz... Haligi qurg'urdan jinday-jinday qilib o'tirsak, davramizga oq yaktak, oq do'ppi kiygan ketmonsoqol yigit kelib qo'shildi. Kelin-kuyovga baxt-saodat tilab, fотиha tortdi.

– Yaratganga shukronalar bo'lsin! – dedi qiroat bilan. – Muqaddas safar sharafi kaminaga ham nasib ayladi!

Qulluq bo'lsin, dedik. Dasturxonda anavi «shayton suvi» turganidan xijolat chekdik.

– Ming bor uzr, Hoji aka. – Kosagul shunday deb, shishalarni imi-jimida stol tagiga olib qo'yayotgan edi, Hoji aka sekin bosh chayqadi.

– Yo'q, yo'-yo', taqsir! – dedi dalda berib. – Sizlar bahuzur, taqsir, bahuzur. To'yda xursandchilik qilishning aybi yo'q.

Kosagul ikkilanib qoldi.

– Sizdek mo'tabar odamning oldida...

– Beziyon, taqsir, beziyon... Biz ham bundan bisyor no'sh aylaganmiz. – Hoji aka jinday-jinday ichkilik quyilayotgan piyolalardan ko'z uzmay, ta'kidladi. – No'sh aylaganmiz, bisyor xo'sh aylaganmiz.

Kosagul shumgina yigit ekan, Hoji akaning ko'zlari suvga tushgan munchoqdek yiltirab turganini payqab qoldi.

– So'raganning aybi yo'q, Hoji aka. Mabodo o'zlariyam...

– Yo'-yo'-yo'! – Hoji aka keskin bosh chayqadi. – Biz ham no'sh aylaganmiz... Aylaganmiz.

– Ko‘p emas, jichchagina, – dedi kosagul iljayib. Hoji aka og‘ir muammo qarshisida qolgandek bir zum o‘yga toldi.

– Kaminani ko‘p xijolatli ahvolga sopqo‘ydilar-da, – dedi xo‘rsinib. – Keling, yigitning sazasi o‘lguncha, shaytonning bo‘yni uzilsin!

– Qaysi biridan?

– Kaminaga «qizili»yam bo‘laveradi, – dedi Hoji aka kamtarlik bilan.

Kosagul piyolaga bir qultum konyak quyib uzatgan edi, Hoji aka yanayam siniqroq ohangda qo‘shib qo‘ydi:

– Jonliroq bo‘laversin, taqsir.

«Jonligina» quyilgan piyolani olib, qisqa nutq irod etdi:

– Yoshlar qo‘sha qarisin. Uvali-juvali bo‘lsin!

Baayni sovuq choy ichayotgandek, qop-qora soqolining bittayam tuki qilt etmadi. Bodring bilan gazak qilib: «Yaratgan ne‘matingga shukur», – deb qo‘ydi.

– Oxirigacha olmabsiz-ku, Hoji aka? – dedi kosagul piyola tagida qolgan jinday konyakka qarab.

– Har narsaning qonun-qoidasi bor, ukam! – dedi Hoji aka viqor bilan. – Ichkilik xamr, ya‘nikim makruh nimarsa. Ammo uning ichida suv ham bor. Suv– eng pokiza ne‘mat. Shundaymi? Kamina suvini ichdim. Makruhi tagida qoldi. Aytayapman-ku, kamina ham bundan bisyor no‘sh aylaganmiz. – U qiqirlab kuldi. – Bir ulfatimiz bo‘lardi. G‘alati gaplarni topib yurardi. Bir gapi hech esimdan chiqmaydi. «Birinchi qadah bilan ikkinchisining orasiga qil ham sig‘masligi kerak», – derdi. Topgan gapini qarang, battolning! Qil sig‘masin, deydi-ya!

Kosagul Hoji akaning shamasini darrov tushundi. Paysalga solmay, piyolani to‘ldirib uzatdi.

– Yo‘-yo‘-yo‘! Undoq qilmasinlar-da, ukam! – Hoji aka shunday dedi-yu, konyakni sipqordi. «Yaratgan ne‘matingga shukur», – deb piyolani kosagulga uzatdi.

– Ko‘rdilarmi, ukam, makruhi yana tagida qoldi. O‘zlariyam o‘rgansinlar!

Davradagilardan biri safar taassurotlarini so‘ragan edi, Hoji aka yayrab ketdi.

– E, nimasini so‘raysan, uka! – dedi shang‘illab. – U yoqlar Xizr nazar solgan yurt! Har qadamda magazin! Har qadamda do‘kon. Jamiyki nimarsa muhayyo! Apelsinlarni tekinga tarqatadi-ey! Xohla – bir yashik ol! Xohla – bir tonna ol! Buni qarang, hamma narsa bor-ku, termos yo‘q ekan. Uchtaginasini obketuvdim, olam-jahon pul bo‘ldi! Ulfatim, shuni mengayam aysang, o‘larmiding, deb yomon xapa bo‘ldi.

– Kechirasiz, qaysi ulfatingiz? – dedim tushunmay.

– Haligi battol-da! Birinchi qadah bilan ikkinchisining orasiga qil sig‘masin, deydigan. Shu battolning yana bir gapi bor. «Ikkinchi qadah bilan uchinchisining orasiga qil sig‘masin, demayman-ku, ammo ip sig‘masligi kerak», – deydi.

Kosagul yana piyolani to‘ldirdi. Hoji tagida ozgina qoldirib, piyolani qaytardi.

– Yaratgan ne‘matingga shukur, – dedi viqor bilan. – Ko‘rib qo‘y, ukam! Tagida har gal bir xil makruhi qolyapti! U yoqda-chi, vey, vidik, televizor, kamera deganlari kapiyka! «Soni» deysanmi, «Panasonik» deysanmi, «Plips» deysanmi. Ikkita «vidik» olsang, bittasi tekin!

– Nega, Hoji aka? – dedim hayratlanib. – Bittasini pulga, bittasini tekinga beradimi?

Hoji aka he-helab kuldi.

– Nega tekinga bo‘larkan? Ikki hissa arzon bo‘lganidan keyin bittasi yonga qoladimi, axir? Tijoratning aybi yo‘q-ku, to‘g‘rimi? Biz tijorat qilaveribmiz, qilaveribmiz, qaragam yukim ko‘payib ketibdi. Ikki qo‘limda ikkita chamadon. Orqamda sandiqdek sumka. Salapan xaltaning bog‘ichini tishimga tishlab olganman. Ketayapsam, bittasi yo‘limni to‘sdi. O‘zining tilida vajir-vajir qiladi,

tushunsam o'lay! Tarjimon keldi. «Nima deb aljirayapti bu?» – desam, tushuntirdi: «Yukingiz yuz kilodan oshib ketibdi-ku», deydi. «Yukimni og'irligi unga tushibdimi, o'zim ko'tarib ketyapman-ku», – desam yana vajir-vajir qildi. «Nima deyapti?» – desam: «Janob ziyoratchimilar, yo otmilar?» – deb so'rayapti, deydi. «Men ot bo'lsam, bu eshshak», – dedim-da, amallab samolyotga chiqib oldim. – Hoji aka xoxolab kuldi. Kosagulga qarab ma'noli tomoq qirib qo'ydi. – To'rtta vidik obkelgandim, ikkitasi yonga qoldi. O'g'ilchayam qiziqadi-da, texnikaga. – Shunday deb yana kosagulga qarab qo'ydi. – U yoqda-chi, dazmol pul ekan. Yanagi gal dazmol oboraman. Battol ikkalamiz o'nta-o'ntadan olvolsak, o-key bo'ladi! Battolning yana bir gapi bor. Uchinchi qadah bilan to'rtinchisining orasiga qil sig'masin demayman, ip sig'masin demayman, ammo-lekin arqon sig'adigan bo'p ketsa, yurak siqiladi-da, deydi. Topgan gapini qarang! Voy battol-ey!

Kosagul shishadagi oxirgi konyakni silqitib quyib uzatdi. Shishani yerga tashladi. Hoji aka tagida ozgina qoldirib, piyolani qaytardi.

– Yaratgan ne'matingga shukur! Ko'rib qo'y, bratan! Makruhi tagida qoldi!

– U yoqda manavi masalaga qandoq qaraydilar, taqsir, – dedi kosagul.

– Unaqangi betamiz gaplarni gapirma, bratan! – dedi Hoji aka achchiqlanib. – Ichkilik ichgan odam o'limga mahkum qilinadi!

– Voy-bo', bir o'limdan qopsiz-da, taqsir! – dedi kosagul. – Taqsir o'n beshinchi bo'chka bilan o'n oltinchi bo'chka orasidan samosval o'tmaguncha qo'ymaydilar shekilli!

Hoji aka tutaqib ketdi.

– Karoche, ov! – dedi qo'lini paxsa qilib, – og'zingga qarab gapir, bratan! – Men suvini ichdim, bildingmi?

Makruhi tagida qoldi, bildingmi?! Avval o'rganib olgin-da, keyin vistupat qil, bildingmi?

Qarasam, janjal chiqadigan. Sekin turib keta qoldim.

## SAID AHMAD SAFARDA

Men maktabda savodimni chiqargan, universitetda ijod sirlarini o'rgatgan, birinchi hikoyamni chop etgan, boshimga bulut kelganda himoya qilgan barcha ustozlarimni qattiq hurmat qilaman. Shunday ustozlar orasida Said Ahmad aka men uchun alohida e'zozli! Ham ijodi bilan, ham insoniy fazilatlarini bilan. Said Ahmad ko'rgan anduhlarni filning ustiga ortsa, beli sinib ketgan bo'lardi. Quruq tuhmatlar, o'n bir oy «odinochka» kamerada o'tirishlar. Saida opaning hayotdan erta ketishi... Shunga qaramay, ustoz guldek nafis asarlar yaratdi. Xushchaqchaq fe'lini, qayerga borsa davralarning guli bo'lib o'tirishni tark etmadi. Ustoz bilan O'zbekistonning eng chekka qishloqlarigacha borganmiz, desam yolg'on bo'lmaydi. O'sha safar hangomalaridan ba'zilarini qog'ozga tushirdim...

\* \* \*

Navro'z – diniy bayram, degan gap avj olgan kezlar edi. Samarqandga bordik. Mezbonlar bizni Urgutga – To'pxona degan joyga olib borishdi. Odamlar hashar qilib tog' ustida Navro'z uchun maxsus qurgan oromgohni ko'rsatishdi...

Tushdan keyin Samarqand davlat universitetida uchra-shuv bo'ldi. Said Ahmad aka negadir menga mehribonchilik qilib, avval sen gapirasan, deb turib oldi. Bunaqa g'amxo'rlik tagida nima ma'no yotganini keyin tushundim. Yozma savollar orasida «Navro'z nega taqiqlandi?» degan so'roq bir necha marta takrorlangan edi. Javob bermay qo'ya qoldim. Gapimni tugatay, deb turganimda bir kishi o'rnidan turib so'radi.

– Bitta savol javobsiz qoldi. Navro‘z bayramining dinga aloqasi yo‘q. Nega shundoq bayram bekor qilindi?

Nima deyman? Chindan ham bu bayramning dinga aloqasi yo‘q, shu ish noto‘g‘ri qilindi, desam baloga qolaman, bu bayramning keragi yo‘q, desam vijdotsizlik bo‘ladi. Shumlik qildim.

– Gap bunday, – dedim. – Oramizda ko‘pni ko‘rgan ustozimiz, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad aka o‘tiribdilar. Bu savolga shu kishi javob bermoqchilar.

Yoniga kelib o‘tirishim bilan Said Ahmad aka shivirladi:

– Yaramas! Shu savolga seni ro‘para qilish uchun avval sen gapirgin, degandim.

U kishi ham boshqa hamma savollarga javob berdi-yu, Navro‘zga yo‘lamadi. Shunda boyagi odam tag‘in o‘rnidan turdi.

– Domla, boyagi savol javobsiz qoldi-ku?

Said Ahmad aka yasama jahl bilan jerkib berdi:

– Nima, men senlarga avliyomanmi? Anavi redaktor bilmagan narsani men qayoqdan bilay? Judayam bilging kelsa, bugungi kunni daftaringga yozib qo‘y. Bu savolingga ikki yildan keyin javob olasan!..

Oqsoqolning gapiga farishtalar omin, degan ekan. Mustaqillik sharofati bilan Navro‘z tiklandi.

\* \* \*

Farg‘onada, G‘afur G‘ulom nomidagi xo‘jalikda katta uchrashuv bo‘ldi. Zalga odam sig‘may ketgan. Birinchi qatorda chol-kampirlar, nariyoqda yoshlar... Negadir, asosan, ayollar yig‘ilgan. Hammasining egnida atlas ko‘ylak...

Said Ahmad aka minbarga chiqishi bilan raisga yopishib ketdi:

– Nima balo, rais buva, kolxozingizdagi xotinlar nuqul qiz tug‘adimi? A‘zolaringizni tuzukroq boqsangiz bo‘lmaydimi?

Hammayoq qarsakbozlik bo'lib ketdi. Oqsoqolga talay savollar tushgan ekan. Birinchi savolni o'qidi:

– Kelgusi rejalarinigiz qanday?

Uzoq o'ylanib qoldi-da, salmoqlanib javob qildi:

– Kelgusi rejam... Shu... Uylansammikan, deb turibmanda, – shunday deb birinchi qatorda cholining yonida o'tirgan kampirga qaradi. – Ha, siz nega doka ro'molingizni u yoqqa tashlab, bu yoqqa tashlab o'zingizga oro beryapsiz! Men uylansam... (uch-to'rtta eng yulduz raqqosalarning nomini sanadi) shulardan bittasiga uylanaman. Hozircha qaysi birini tanlashni bilmay turibman!

Qarsaklar zarbidan zalning shifti ko'chib tushgudek bo'ldi. Ayniqsa, boyagi kampirning yonida o'tirgan chol kemshik tishlarini ko'rsatib, maza qilib kuldi.

\* \* \*

Yoz pallasi Said Ahmad aka, Yo'ldosh Sulaymon yana bir-ikki toshkentlik mehmonlar Shohimardonga bordik. Ayni sayil pallasi edi: odam gavjum. Xira suratkashlar tanib qolib, shovqin soldi.

– Qani, kim yozuvchilar bilan suratga tushadi? Kep-qolinglar!

Birpasda tumonat odam to'plandi. Hali unisi keladi, domla, biz ham tushaylik, deydi, hali bunisi keladi, endi mening galim, deydi...

Suratga tushish mayli-ku, boradigan yerimizga kechikib ketyapmiz. Yarim soat o'tibdiki, davradan chiqib ketolmaymiz. Said Ahmad akaga qaragan edim, ko'zini qisib qo'ydi-da, suratkashga pul to'layotgan yigitga po'pisa qildi:

– Manga qara, ukam, pulni kimga to'layapsan?

– Suratkashga, – dedi yigit hayron bo'lib.

– Bizning haqimiz-chi? – Said Ahmad aka «jahl bilan» qoshini chimirdi.



– Manavi bola mening kassirim bo‘ladi, – dedi Yo‘ldosh Sulaymonni ko‘rsatib. – Nega anqayib turibsan? Boyagilardan pul oldingmi? Mening har bitta suratga tushishim qancha turishini bilasanmi? Qani, cho‘z bu yoqqa!

Suratga tushadigan azamatlar birpasda tumtaraqay bo‘lib, «ozodlik»ka chiqdik.

\* \* \*

«Xudo urgan» bir tanqidchi bo‘lardi. Shunaqangi «zo‘r» ediki, o‘zbek adabiyotida hammaga yoqqan asar paydo bo‘lishi bilan changini chiqarib do‘pposlardi. Agar mahalliy matbuotda uning «fosh qiluvchi» maqolalariga joy berishmasa, Moskva gazetalarida «urib chiqar»di. Yana bir odati – hazil, hajv, yumor deganining ko‘chasidan o‘tmagani uchunmi, yerga yotqizib qo‘yib bir hafta qitiqlasangiz ham o‘shshayib turaverar, kulgiga toqati yo‘q edi. Xullas, kunlardan birida nahorgi oshga boradigan bo‘ldik. Said Ahmad akaga men «sho‘pirlik» qildim. Buni qarang, mehmonlar shu tartibda o‘tirib qoldiki, Said Ahmad aka bilan boyagi «zo‘r» tanqidchi bir lagandan osh yeydigan bo‘ldi.

– Menga qaranglar! – dedi Said Ahmad aka ovozini baralla qo‘yib. – Hech zamonda it bilan mushuk bir tovoqdan ovqat yeganini ko‘rganmisiz? Ko‘rmagan bo‘lsalaring, endi ko‘rasizlar!

Xuddi shuni kutib turgandek, osh tortildi. Ikkovlarining o‘rtasiga lagan keltirib qo‘yishdi. Tanqidchi alang-jalang bo‘lib qoldi: qoshiq yo‘q ekan.

– Qoshiq borma? – dedi tanqidchi bo‘ynini cho‘zib.

– Qoshiqni nima qilasan? – dedi Said Ahmad aka. – Hamma qo‘li bilan olyapti, sen ham oshalab yeyaver-da, yo qo‘lingni yuvmaganmisan?

– Yo‘q, – dedi tanqidchi. – Qoshiq bilan yesa «gigiye-nichniy» bo‘ladi.

– Hoy, bolam, – dedi Said Ahmad aka, choy tashib yurgan yigitchaga, – mana shu akangga bitta qoshiq topib kel. Cho‘mich bo‘lsayam mayli...

Qoshiq kelib, tanqidchi uch-to‘rt luqma yegunicha Said Ahmad aka sabr qilib turdi. Keyin so‘radi:

– Qalay?

– Zo‘r! – dedi tanqidchi g‘o‘ldirab.

– Bilasanmi, – dedi Said Ahmad aka salmoqlab. – Sen osh yeyayotgan qoshiq necha kishining og‘ziga necha marta kirib-chiqqanini bilmayman-u, mening qo‘lim o‘zimdanda boshqa hech kimning og‘ziga kirmagan! Olaver, «gigiyenichniy», olaver!

\* \* \*

Dunyoda mazza qilib kuladigan odam ikkita bo‘lsa, bittasi Yo‘ldosh Sulaymon edi! Agar dunyoda mazza qilib kuladigan odam bitta bo‘lsa ham shu Yo‘ldosh akaning o‘zi edi! Ko‘p qavatli qilib «vo-vo-vo-o-oh!» deb kulganida har qanday «zahar» odamning ham chehrasi yorishib ketardi. Hatto, Said Ahmad aka: «Men sening qarishingdan qo‘rqaman-da, ukam, bir kuni kulaman, deb kuching yetmay qoladi-yu, «pirt» etib joning chiqib ketadi-da!» – deb yurardi.

Ayni bahor kezlari Said Ahmad aka, Umarali Normatov, Yo‘ldosh Sulaymon olis qishloqqa bordik. Mezbonlar orasida viloyat rahbarlaridan biri ham bor edi. Dasturxon ustida Said Ahmad aka rahbarga qarab jiddiy ohangda gap boshladi:

– Sizlar odamning qadriga yetmaysizlar.

Hamma hayron bo‘lib qoldi.

– Manavi yigitni taniysizmi? – dedi Said Ahmad aka Yo‘ldosh akani ko‘rsatib.

– Albatta taniymiz, – rahbar bosh irg‘adi. – Yo‘ldosh akani hammamiz yaxshi ko‘ramiz.

– Yaxshi ko‘rasiz-a, yaxshi ko‘rasiz! – dedi Said Ahmad aka qovog‘ini solib. – Shunday bola xor bo‘lib yuribdi. Oydek xotini bor. Bir-biridan shirin bolalari bor...

Yo‘ldosh aka esankirab qoldi.

– Unaqa demang, ustoz! Men yaxshi yuribman.

– Kattalarning gapiga aralashmay tur! – dedi Said Ahmad aka jerkib. – Yaxshi yurganmish. Oladigan maoshi ro‘zg‘origa yetmaydi-yu, maqtanadi. Nima, butun boshli Farg‘onada bog‘dorchilik kalxozimi, sapxozimi yo‘qmi?

– Bor! – dedi rahbar. – Bunaqa xo‘jaliklar ko‘p.

– O‘sha xo‘jaliklaringda mevani chug‘urchuqlardan qo‘riqlaydigan qorovullar ham bordir?

– Albatta, bor.

– Ana! – Said Ahmad aka tantana bilan qo‘l siltadi. – O‘zlaring ishning ko‘zini bilmaysanlar! Bir xo‘jalikda o‘nta qorovul bekorga oylik olib yotibdi. Yo‘ldosh Sulaymonning bitta o‘zi yigirmata qorovulning ishini uddalaydi! Bir marta kulsa o‘nta xo‘jalikka yopirilgan chug‘urchuqning yuragi yorilib o‘ladi. Tirik qolganlari ikkinchi bu yoqlarga yo‘lamaydigan bo‘lib ketadi!

Rahbar tizzasiga urib xoxolab kulib yubordi. Yo‘ldosh aka esa rahbarning naq qulog‘iga egilib, «voh-voh-vo-o-o-oh!» degan edi, rahbar ikki qo‘llab qulog‘ini berkitib oldi.

– Jon aka! – dedi hamon kulib. – Mayli, hamma uzumzor sizniki! Faqat nariroqda kuling!

\* \* \*

Tog‘lik qishloqlaridan biriga bordik. Bir xonadonga mehmonga taklif qilishdi. Uyning to‘rida o‘tirgan to‘rvasoqol odam kim kirsam, uzundan-uzoq duo o‘qiydi, so‘ng qiroat bilan tilak bildiradi:

– Ilohim sen ham mening yoshimga jetib jurgin, bacham!

Bir gap hadeb takrorlanavergach, Said Ahmad akaning g‘ashi keldi shekilli, so‘radi:

– Necha yoshga chiqdingiz, taqsir?

– Manba? – dedi «duogo'y» salmoqlab. – Shu jil ikkam jetimishga kiraman.

– Uni qara-ya! – dedi Said Ahmad aka. – Sening duoying mustajob bo'lsa, men sakkiz yil avval o'lib ketishim kerak ekan-da! Men yetmish oltiga bordim! Qani, tur o'rningdan ukam, endi joy almashamiz!

\* \* \*

Said Ahmad akada pul ko'p. Shuning uchun safarga chiqsak, oqosoqoldan qarz so'rashni yaxshi ko'ramiz. Bergan puli vaqtida qaytaveremaganidan keyin ustoz yurak oldirib qo'ygan. Qo'qonga borgan edik. Kechqurun mehmonxonada yotish oldidan oqosoqoldan iltimos qildim:

– Iloji bo'lsa, menga besh-olti yuz so'm qarz berib tursangiz. Chekkaroq magazinlarda durust narsa topilsa, bolalarga olib ketardim. (U paytda 500 so'mga katta qo'y berardi).

– Ellik so'mdan ortiq pulim bo'lsa buyurmasin! – dedi Said Ahmad aka ishonch bilan.

Kamida ikki ming bilan kelganini bilardim.

– Shu gapingiz gap-a? – dedim. – Eshitdingiz-a, Yo'ldoshali aka, oqsoqolning ellik so'mdan ortiq puli buyurmaydi.

Yo'ldoshali aka shu gapga guvoh bo'ladigan bo'ldi. Endigina yechinib yotgan Said Ahmad aka o'rnidan turib shimini qaytadan kiya boshladi. Ha, desak, «negadir etim uvushib turibdi» deb bahona qildi. Ertasiga kitobxonlar bilan uchrashuv bo'ldi. Endi shu voqeani hikoya qila boshlagan edim, oqsoqol o'rnidan turib ketdi.

– Shoshma, sen eplab aytolmaysan, – dedi. – Yaxshisi, o'zim gapirib beraman. Bu yaramaslar safarga chiqsa pul olib yurmaydi. Doim mendan so'raydi. Nima, men yetimxonaning direktorimanmi? Kecha bergim kelmadi. Bilmasdan ont

ichib qo'yibman. Bu shum kechasi cho'ntagimni qoqlab qo'yishdan ham toymaydi. Shuning uchun shimimni kiyib, pulli cho'ntagimga qo'limni tiqib, o'sha yonboshimni yerga bosib yotdim. Ertalab turib bir aksa urgan edim, og'zimdanda jiring etib bitta so'lkavoy otilib ketdi. So'lkavoyini og'zimga solib yotgan ekanman. Esimdan chiqib ketibdi. Yaxshiyam, aksa urganim, Xudo ko'rsatmasin, hiqichoq tutsa bormi, liq etib ichimga ketib qolardi. Ana unda ko'rarding tomoshani!

\* \* \*

Parrandalardan eng kamuyqusi – xo'roz. Yozuvchilardan – Said Ahmad aka! Farqi shuki, xo'roz o'zining qo'nog'ida turib qichqiradi. Said Ahmad aka tepangga kelib javraydi.

Bir gal Asakada mehmon bo'ldik. Allaqaysi kolxoz bog'ida yarim kechagacha gurunglashib o'tirdik. Kun bo'yi yo'l yurib charchagan edik. Uchta karavotga qator qilib joy solishgan ekan. Erkin Vohidov bilan men yotib dam oldik. Said Ahmad aka sigaret chekib, kaftdek radiosini eshitib o'tiraverdi. Uxlab qopman. Bir mahal Said Ahmad aka yelkamga turtib uyg'otdi.

– Noxush xabar aytayotganim uchun xafa bo'lmaysan, bolam, – dedi ma'yus ohangda, – hozir radioda aytdi: Angliya qirolichasining iti o'lib qopti.

– Suyak-puyak tiqilgandir-da, – dedim ensam qotib.

– Butun dunyoda ta'ziya e'lon qilishibdi, – dedi Said Ahmad aka. – Ko'nglim buzilib ketyapti.

– Bog'dagi itingiz nomidan hamdardlik bildirib, telegramma yuboring, – dedim-da, boshimni burkab oldim.

Mendan ish chiqmagandan keyin Said Ahmad aka Erkin Bohidovning boshiga bordi.

– Erkin, bolam, – dedi g'o'ldirab. – Sen esli yigitsan. Har baloga aqling yetadi. Boyadan beri bir narsani bilolmay

boshim qotyapti. Tovuqning chap oyog'idan qilingan tabaka yaxshi bo'ladimi, o'ng oyog'idanmi?

Erkin aka «ey, qo'ying-e», degan edi, oqsoqol ship-ship yurib nari ketdi. Tag'in ko'zim ilinibdi. Bir mahal Said Ahmad aka ikkala karavot o'rtasida turib olib qattiq-qattiq gapira boshladi:

– Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim, degan gap bor. Senlar universitetni bitirgan bo'lsang, men o'qimagan bo'lsam, so'rasam nima qipti? Men ham tarixni bilgim keladi. Klara Setkin nechanchi yilda tug'ilgan?

U yoqdan Erkin aka, bu yoqdan men norozi to'ng'illagan edik, oqsoqol: «Biring – shoir, biring yozuvchiman, deb maqtanasan-u ilming – kapiyka!» – deb nari ketdi.

Uyqum butunlay o'chdi. Klara Setkin nechanchi yilda tug'ilganini shu o'ylayman, hech eslolmayman. Erkin akaning oromini buzmaslik uchun nafasimni ichimga yutib yotaverdim. Yarim soatlar o'tdi. Tuyquq Erkin akaning karavoti g'ichirladi...

– O'tkirjon! – dedi sekin. – Uyg'oqmisiz?

– Ha, – dedim. – Ko'rmaysizmi oqsoqolni, uyquning beliga tepdi!

Erkin aka xo'rsindi.

– Rostdan ham Klara Setkin nechanchi yilda tug'ilgan edi? Boyadan beri shuni o'ylab yotibman.

Said Ahmad aka zipillab boshimizga keldi.

– Mana endi binoyidek odam bo'ldilaring, bolalarim! O'zimning tug'ilgan yilimni bilmayman-u, Klara Setkining bilan nima ishim bor! Turaqollaring! Hademay tong otadi, choy iche-e-b, oldi-qochdi gaplardan gaplashib o'tiramiz.

## MA'LUMOTNOMA

Odam birinchi farzandi tug'ilganida qanday quvonsa, birinchi kitobi chiqqanida ham shunaqa sevinarkan. Yosh yozuvchi Teshaboy Boltaboyev uchun shapaloqdek

hikoyalar to'plamining chiqishi bayram bo'lib ketdi. Buni qarangki, kitobga qalam haqi ham yozishibdi. Naqd o'ttiz olti ming so'm! Teshaboy kitobni bir yarim yilda yozgan bo'lsa, qalam haqini olish uchun yarim yil hujjat to'pladi! «Ishga kech qolyapsiz, mehnat intizomini buzyapsiz» deb besh-olti marta dashnom ham eshitdi. Bugun ham shu masalada «kerakli» idoraga kelib ikki soatcha kutdi. Oxiri «imzo chekuvchi»ning muborak kabinetiga kirish sharafiga muyassar bo'ldi.

– Ha-a-a-y, ukajon, pamilyangiz nima edi? – dedi «imzochi» esnab.

– Boltaboyev, – dedi yozuvchi ensasi qotib. – Qabulingizga o'n yettinchi marta kelishim.

– Ibi! – «imzochi» yelka qisdi. – O'n yettinchi marta kelasizmi, o'ttiz yettinchi martami, menga nima? Men davlatni ishini qilyapman, ukajon! Ha-a-a-ay, turarjoyingizdan sparapka bormidi?

– Ana, qo'lingizda turibdi.

– Ha-a-a-y, yana bir o'qib ko'raylik-chi! «Berildi ushbu ma'lumotnoma, shu haqdaki, fuqaro Boltaboyev Teshaboy chindan ham Beshtepa mavzesi, O'ntepa ko'chasida istiqomat qiladi. Qo'ni-qo'shnilari bilan munosabati normalniy. Mahalla ishlariga aralashishi yomon emas. Xotini bilan urishmaydi. Bir o'g'il, bir qizi bor...»

Ha-a-ay, domkomning imzosi bor. Kotibaniki bor. Ko'cha boshiniki bor. Uchastka nozirniki bor. «Hushyorxonaga tushmagan» degan sparapka ham bor. Muhr bor... Buyog'i joyida ekan, ukajon... Qancha pul olishingiz kerak edi o'zi? O'ttiz olti mingmi? Nimaga olyapsiz davlatning shuncha pulini?

– Gonorar.

– Qanaqa general?

– Generalmas, gonorar.

– Nega olyapsiz o'sha ganaralni?

– Yozganim uchun.

– Nechtasini qulatdingiz?

- Nimani qulataman?
- «Nimani» emas, «kimni» deng! Nechta odamni qulatdingiz?
- Nega qulatishim kerak ekan?
- Ibi! Birovning ustidan yozgan odam qulatish uchun yozadimi, axir?
- Men ig‘vogar emasman! – dedi Boltaboyev yig‘lamoqdan beri bo‘lib. – Men hikoya yozaman!
- Ibi, shunday demaysizmi, ukajon! Shoirman, shig‘ir yozaman, deng!
- Shig‘ir emas, hikoya.
- Hay, nima farqi bor? Ishxonangizdan sparapka bormidi?
- Topshirganimga besh oy bo‘lgan.
- Ha-ha, to‘g‘ri. Mana buyoqda ekan sabil. «Berildi ushu ma‘lumotnoma, shu haqdaki, Teshaboy Boltaboyev chindan ham nashriyotda «musahih...» Menga qarang, ukajon, ishxonanglarni chorvachilikka aloqasi bormi?
- Qanaqa chorva?
- Ishxonangizda eshak bormi?
- Nashriyotda eshak nima qiladi?
- Bo‘lmasa, nega «Musa-hih» deb yozib qo‘yibdi? «Xih» deb eshakka xala beriladi-ku, ukajon!
- «Musahih» emas, musahhih! Korrektor degani.
- «Xih-pix» deb o‘tirmasdan direktorni direktor deb qo‘yaqolsa haqi ketadimi? Qaysi savodsiz yozgan bu sparapkani?
- «Direktor» emas, korrektor!
- Ibi, direktormi, kollektormi, menga nima? Mening vazifam davlatning bir tiyinini ham talon-taroj qildirishga yo‘l qo‘ymaslik! Hay, mayli, kelin ham ishlasalar kerak biron joyda?
- Ishlaydi. Ana tug‘uruqxonadan berilgan ma‘lumotnoma qo‘lingizda turibdi.
- Bunisimi? Anavinisimi? Ha, manavinishi ekan. «Berildi ma‘lumotnoma shu haqdaki, fuqaro Z. Boltaboyeva



T. Boltaboyevning zakonniy xotini hisoblanadi». Ilova qilingan surat bor. ZAGS qog'ozining kserokopiyasi bor. Yaxshi-i-i! Endi kelinga berilgan xarakteristikani o'qiyimiz! «Zuhra Boltaboyeva sakkiz yildan beri o'n ikkinchi tug'ruqxonada hamshira bo'lib ishlaydi, qo'li yengil. Luboy xotinni besh minutda tug'dirib tashlaydi. Ishlab chiqarish rejasini oshirib bajarmoqda. Z. Boltaboyevaning ismenida xotinlar nuqul egizak tug'adi». Malades, kelin, malades! Sizga ham ikki juftgina egizak sovg'a qilsalar chakki bo'lmasdi, ukajon! Ha-a-ay, keyingi masala: chet elda qarindosh-urug'lar bormi?

– Yo'q. Mana, Tashqi ishlar vazirligining ma'lumotnomasi! Bunisi elchixonalardan olingan spravkalar. Tojikiston, Hindiston, Betnam, Bangladesh, Birlashgan arab amirliklari, Rossiya, Yaponiya...

– Mana bu boshqa gap, ukajon! Malades! Sog'lig'ingiz to'g'risidagi sparapkalar qayoqdaydi?

– Hammasini topshirganman!

– Qayoqqa daf bo'ldi bu palakat-a? Ha, mana buyoqda ekan. Qani, ko'raylik-chi? Terapevt – bor, xirurg – bor. Infeksionist – bor. Travmatolog – bor. Quloq do'xtir bor. Ginekolog – bor... Shoshmang, ginekolog qo'shimcha bir nima yozibdimi? «Sparapka ushbu hujjatni talab qilgan «durdom»ga ko'rsatish uchun berildi...» Ha-a-ay, ginekolog – bor, endokrinolog – bor...

Ukajon, bilishimcha, siz xatga ko'p tikilasiz, to'g'rimi?

– Ko'zim – joyida. Ana, okulist ma'lumotnomasi!

– Unisini aytayotganim yo'q. Siz xatga ko'p tikilasiz. Aqliy mehnat qilasiz. Ma'lumki, aqliy mehnat odamning miyasini zo'riqtiradi. Miya zo'riqaverib-zo'riqaverib oxiri...

– Bo'ldi, tushundim. Mana, jinnixonadan ma'lumotnoma! Hisobda turmasligim haqida!

– Bunisi-chi?

– Bu teri-tanosil kasalliklari dispanseridan. Ularga ham ishim tushmagan.

– Malades, ukajon, malades! Bachalar nechta edi?

– Ikkita. O‘g‘lim uchinchi sinfda o‘qiydi. Maktabdan berilgan ma‘lumotnoma qo‘lingizda turibdi.

– Shundaymi? Qani, ko‘raylikchi, qayoqda edi, bu? Ha-a-a, mana! Bizda qog‘oz yo‘qolmaydi, ukajon! «T. Boltaboyevning o‘g‘li Bolg‘aboy Teshaboevich chindan ham uchinchi sinfda o‘qiydi. Otasi maktab remontiga pastayanniy yordam berib turadi. O‘tgan yili uch banka kraska, olti qop qum, bir qop alibastr olib bergan». Bunisi bog‘chadan berilgan sparapka shekilli? «T. Boltaboyevning qizi Lolaxon yaxshi qiz. Otasi T. Boltaboyev bayramlarni, bog‘cha mudirasining, tarbiyachi opalarning tug‘ilgan kunini hech qachon unutmaydi». Malades, ukajon, malades! Darvoqe, ota-onangiz tirikmidilar?

– Bafot etishgan. Mana, ma‘lumotnoma!

– Bir o‘qib ko‘raylik. «Berildi ma‘lumotnoma shu haqdakim, fuqaro Teshaboy Boltaboyevning otasi yigirma ikki yil, onasi yigirma yil avval o‘lgan. Shu paytgacha tirilgani yo‘q. «Guli siyoh» idorasining boshlig‘i. Imzo. «Yo‘g‘ontepa» qabristonining go‘rkovi. Imzo». Yaxshi, ukajon, ko‘p yaxshi! Faqat, hayronman, shu paytgacha nega tirilishmadi ekan...

Hay, mayli, endi asosiy masalaga kelaylik. Bilasiz, nalog masalasi strogiy masala! Nalogni vaqtida to‘laysizmi? Faqat rostini ayting!

– Hammasini to‘layman! To‘lamasam kechasi bilan uxlolmay qashlanib chiqadigan odatim bor. Mana, nalogovoy inspeksiyaning deklaratsiyasi! Mana, «Iy-en-en». Manavinisi – daromad solig‘i. Bunisi pensionniy fondniki! Mana, uy solig‘i, mulk solig‘i, yer solig‘i, ataplenie solig‘i. Bunisi elektrniki, manavinisi gaz solig‘i, axlat solig‘i!

– Bunisi-chi, ukajon, bunisi qanaqa sparapka?

– Bumi? Bu – ekologiya idorasidan olingan ma‘lumotnoma. Biz oilamiz bilan faqat o‘zimizning sanuzeldan foydalanamiz. Shunda ekologiya buzilmaydi.

– Ibi, zo‘r gap-ku, bu, ukajon! Demak, har kim to‘lka o‘zining tualetidan foydalanishi kerak. Aks holda

ekologiyani buzadi, to'g'rimi? Malades, ukajon! Hay, suvchi? Suv nima bo'lgan?

– Mana, sovuq suvniki. Bunisi issiq suvniki. Uch oyligini oldindan to'lab qo'yanman.

– Malades, ukajon, malades! Telefon masalasi nima bo'lgan? Bilib qo'ying: mejgorodniy telefondan foydalanish amma-xolangiz bilan gaplashish emas. Har minuti dollar turadi! O'shaning sparapkasi...

– Ana, chap qo'lingizning tagida turibdi.

– To'g'ri, ukajon! Tuman telefon tarmog'idan sparapka bor ekan. Shahar tarmog'idan – bor. Bunisi nima edi? Ha, mejgorodniydan! «Fuqaro T. Boltaboev Andijon bilan gaplashmagan. Ashxobod bilan gaplashmagan. Buxoro, Budapesht, Vobkent, Varshava bilan gaplashmagan...» Hay, tag'in bittagina ish chala qopti-da, ukajon! Antarktida bilan gaplashgan joyingiz yo'qmi?

– Yo'q! Mana, yangi ma'lumotnoma!

– Qani, ko'raylik-chi! «Berildi ushbu ma'lumotnoma shu haqdaki, O'ntepa ko'chasida istiqomat qiluvchi fuqaro T. Boltaboev hech qachon, hech kim bilan telefonda gaplashgan emas. Chunki uning uyida telefonning o'zi bo'lmagan». Ibi, interesna!.. Hay, mayli, bunisi qanaqa sparapka? Ha, o'zimiz talab qilib edik. «Fuqaro T. Boltaboyev har kuni ertalab soat sakkizdan o'ttiz minut o'tganida 5-avtosaroyning 32-marshrut bo'yicha qatnaydigan avtobusiga minadi. Kira pattasini naqd sotib oladi». Malades, ukajon, malades! Mana buni sparapka desa bo'ladi. Qarang, kserokopiyasi bor ekan. Endi, ayting-chi ukajon, abedni qaysi restoranda qilasiz?

– Men restoranga kirmayman.

– Unda qaysi oshxonada abed qilasiz?

– Oshxonaga ham kirmayman.

– Ibi! Nima, kun bo'yi tishingizni kirini so'rib yurasizmi?

– Men ishxonada tushlik qilaman.

– E, ha-a, ishxonada, deng? Choy ham ichgan chiqarsiz?

– Choy ichaman!

– Ana shunaqada, ukajon! Znachit, choy ichasiz. Choyni ichish uchun qaynatish kerakmi? Hay, deb turing! Choyni elektr choynak yoki «Tefal»da qaynatasizmi? Znachit, davlatning elektr energiyasidan foydalanasiz, shundaymi? Shahar elektr tarmogʻidan sparapka olib kelishingizga toʻgʻri keladi. Bormi, shunaqa sparapkangiz?

– Bor! Mana, oʻqib koʻring!

– Ibi, bunisiyam bormi? Qani koʻraylik-chi? «Berildi ushbu maʼlumotnoma shu haqdaki, nashriyot «musahhihi» T. Boltaboyev chindan ham har kuni soat oʻn uchdan oʻn toʻrtgacha ishxonada tushlik qiladi. Uyidan somsami, buterbrodmi, olib keladi. Ovqatlanib boʻlgach choy ichadi. Choyni oʻz uyidan oʻzining termosiga solib keladi. Davlatga tegishli elektr tokidan foydalanmaydi». E, malades, ukajon, malades! Endi... Soʻraganning aybi yoʻq... Siz shigʻir yozadigan shoir boʻlsangiz. Znachit, muxliskalaringiz ham boʻlishi kerak. Albatta, bu har kimning lichniy ishiku, masalaning boshqa tomoni ham bor-da! Dapustim, shigʻirlaringizni oʻqigan qandaydir ayol sizni yaxshi koʻrib qoldi. Siz u bilan jinday «don olishib» qoʻydingiz. Ayol shoʻrlik boʻgʻoz boʻlib qoldi. Kanechna, siz unga uylanmaysiz. Ammo tugʻilgan bachaga baribir aliment toʻlashingiz kerak-ku, toʻgʻrimi?

– Toʻppa-toʻgʻri! Mana, shahardagi oʻn toʻrtta tugʻuruqxonadan maʼlumotnoma! Birontasida mendan nikohsiz tugʻilgan bola qayd etilmagan!

– Yoʻ-oʻ-q, ukajon, siz gapni chalgʻitmang! Mabodo oʻsha ayol shoʻrlik sharmanda boʻlishdan qoʻrqib, bachasini bolalar uyiga tashlab ketgan boʻlsa-chi? Bu holda siz zlostniy neplatelshik boʻlasiz! Bilib qoʻying!

– Bungayam maʼlumotnoma bor. Marhamat!

– Ko‘raylik-chi? Xo‘-o‘-o‘sh... «DNK». Nima degani bu? Davlat nazorat qo‘mitasimi?

– Yo‘q, DNK irsiyatni aniqlaydi. Birona yetim bolaning irsiyati menikiga mos kelmas ekan. Tekshirtirib ko‘rdim!

– Ibi ha-a-ay! Obbo ukajon-ey! Obbo malades-ey! Keling, bir narsani ochiqchasiga gaplashib olaylik. Shuncha shig‘ir yozgan shoir...

– Shoir emas, yozuvchi. Shig‘ir emas, hikoya...

– Hay, nima farqi bor? Shunday shoir nahotki birona begona ayolning qo‘lidan tutmagan chiqsangiz?

– Mana, mahalla xotin-qizlar qo‘mitasining ma‘lumotnomasi! O‘qing! Ovozingizni chiqarib o‘qing!

– Hay, o‘qisak-o‘qibmiz-da! «Berildi ma‘lumotnoma shu haqdaki, Beshtepa mavzesi, O‘ntepa ko‘chasida istiqomat qiluvchi fuqaro Teshaboy Boltaboyev o‘zining zakoniy xotinidan bo‘lak birona ayolning qo‘lidan ham, oyog‘idan ham ushlagan emas. Mingtepa mahallasi xotin-qizlar qo‘mitasining raisi. M.Jabborova».

– Iloji bo‘lsa manavi ma‘lumotnomani ham papkangizga tikib qo‘ysangiz.

– Nima ekan bu?

– Qo‘shimcha spravka. O‘qing.

– O‘qiymiz. Abizatelna o‘qiymiz! «Biz qaysi er qachon ichib kelib xotinini do‘pposlashini, qaysi xotin erini kamandirovkaga jo‘natib, «shef»ini «mehmon qilishini», kimning ostonasida ertalab shpris yotishi, qaysi xonadonda kechasi bilan gumbur-gumbur muzika jaranglab, bazmi-jamshid bo‘lishini besh qo‘ldek bilamiz. Garantiya berib aytamizki, Teshaboy Boltaboyevlarning oilasidek namunali oila yo‘q. Er-xotin inoq. Bolalari odobli...» «Yetmishdan-to‘qsongacha» ochiq turdagi kampirlar jamiyatining a‘zolari: Xalcha Sharipova, Larisa Ivanovna Petrova, Nonna Georgiyevna Gaprindashvili, Sara Moiseyevna Abramova, Aza Aronovna Ambarsumyan, Gulisiymo

Mamatzoda, Oksana Tarasovna Xarchenko, Lidiya Kim, Roziya Tuxvatullina va boshqalar. Jami o'n yetti imzo»... Hay, mayli, ukajon, bu sparapkalarga ishondik. Ammo erkak kishi «sho'xlik» qilsa, mahallasida qilmaydi-ku. Mana o'zimizdan qiyos. To'g'rimi? Muxliskalaringiz mahallangizda bo'lmasa, chetda bordir?

– Unisigayam «sparapkam» bor.

– Yo'g'-e! Qani, bir ko'raylik-chi! Ha-a-ay! «Berildi ushbu spravka otginang o'chgur Teshaboy Boltaboyevga shu haqdaki, bu urod impotentmi, desam, impotentga o'xshamaydi. Qomat zo'r. Maskultura – «tushi svet!» Ammo firmamizning oldidan necha bor o'tib, biron marta qayrilib qaramaydi, svoloch! Bunisiyam mayli, yaqinda biznesimizga xalaqit berib, «Senlar yoshlarni buzayapsan, gazetaga yozaman», deb ugroza qildi, neschastniy! Slujbamizdan pastayanniy tekinga foydalanadigan kliyentimiz «Boss»ga aytib ta'zirini berdirmasam Mama Roza otimni boshqa qo'yaman! «Bisol» mas'uliyati cheklangan tashkilotga qarashli «Xizmat-beminnat» firmasining generalniy direktori M.R. Qo'shshayeva». Voy ukajon-ey! Voy malades-ey! Buyog'iniyam – sparapka qilib qo'yanman, deng! Qoyil! Qoyil! Endi... Bitta seryozniy gap, ukajon. Bir ish qilasz. «Beshtepa mavzesi, O'ntepa ko'chasida istiqomat qiluvchi fuqaro Teshaboy Boltaboyevning qo'lidagi hamma sparapkalar asliga to'g'ri» degan ma'noda bittagina sparapka olsangiz olam-guliston!

– Bunaqasini kimdan olaman?

– Bizdan-da, ukajon, bizdan! Bilasiz, mushuk tugul chumoli ham tekinga oftobga chiqmaydi. Menga bor-yo'g'i ellik minggina bersangiz, sparapka «sem militda» qo'lingizda bo'ladi. Naqd o'ttiz olti ming ganaralingizni olib, boshingiz oqqan tomonga ketaverasiz! Kelishdikmi?

## O'LDI – AZIZ BO'LDI

Har hafta bo'lib turadigan, «qat'iy», «oxirgi» choralar ko'riladigan, odatdagi majlis edi.

– Mahkamov qani? – boshliq ko'zoynagini burnining uchiga tushirib, to'planganlarga tahdidli qarab chiqdi. – Majlis to'qqizda boshlanishini bilarmidi?

Mahalliy qo'mita raisi rangi o'chibroq o'rnidan turdi.

– O'tgan juma kuni yo'lakka e'lon osib qo'yganimiz, – dedi ming'irlab. – Mehnat intizomi muhokama qilinadi, deganmiz. O'qigan bo'lishi kerak. Har nechuk savodi bor-ku...

– Savodi bormish! – burchakda o'tirgan boshbux to'ng'illadi. – Savodi borligi uchun kelmagan. Aslida xuddi o'sha Mahkamovning intizomini muhokama qilish kerak! Xudoning bergan kuni kechikadi, mukofotdan mahrum qilaylik desak, jonlaring achiydi.

– Ay, hammasi bespolezno! – dedi farrosh kampir sharttakilik bilan. – Pyanstvo yuq bo'ldi deymiz, araq sog'liqqa vredniy, deymiz... Azizning kabinetidan kajdiy den butilka shiqadi! Qayoqdan pul topadi, araq parazitga!

– E, sodda xotin! – qorovul tog'a nosini burchakdagi simsavatga tuflab, to'ning yengi bilan mo'ylovini artdi. – Ichaman, degan odam o'g'irlik qilib bo'lsayam pul topadi, araq palakatga! Bir qo'shnim bor, g'irt piyonista! Qaysi kuni xotini aytibdi. Shu araq o'lgurni tilla bahosi qilib qo'ysa ichishni tashlarmiding, desa eri aytarmish: «Araq tilla bahosi bo'lsa, men-ku, ichishni tashlamasdim, lekin sen bola-chaqang bilan och qolarding», – dermish! Aziz deganlarin-gam parishtamas. Kechayam hamxonasi bilan allamahal chiqib ketuvdi. Badanida bor edi-yov...

– Shuhrat bilanmi? – dedi boshliq qovog'ini solib.

– E, otini qattan bilaman! – qorovul tog'a qo'lini silta-di. – Shuhratmi, Shovkatmi?! Gapning ochig'ini aytaymi?

Manga qolsa shu idoraga har kuni o'ttiz to'qqiz odam kirib, o'ttiz to'qqiz odam chiqib ketsa bo'ldi. Qachon keladi, qachon ketadi, ishim nima? Man o'n besh yoshimda ishga kirganman. Zovutga. Urush oxirlab qolgan edi. O'rtoq Istalinga qoyilman. Ishga yetti minut kechikdingmi, onangni uchqo'rg'ondan ko'rdim deyaver! – qorovul tog'a arazlagandek yuz o'girdi. – Ammo, lekin xudoyligimni aytaman: kechayam bor edi, Azizning badanida. Bilamanda, bu zormanda darrov odamni yuzini qizartirib yuboradi. Ikkalasinu yuziyam mosh yegan xo'rozning tojisiga o'xshab turuvdi.

Har tomondan hayratomuz xitoblar yangradi.

– Iye, Shuhratning o'zi qani? Uyam ko'rinmaydi-ku?

– Hamtovoqlar!

– Hammahalla deng! Bir ko'chada turadi. Moxov moxov bilan qorong'ida topishadi.

Shu payt eshik jur'atsizgina g'iyqilladi. Ostonada kichik xodim Shuhrat Eminov paydo bo'ldi.

– Mumkinmi? – dedi mung'ayib.

– Kelardingiz-da! – mahalliy qo'mita raisi chimirildi. – Yuqoriga o'ting! Har nechuk, yosh xodimsiz.

Shuhrat o'rnidan jilmadi. Hammaga birma-bir mo'ltirab qarab chiqdi-da, to'satdan hiqillab yig'lab yubordi.

– Ayrib qoldik, – dedi burnini tortib. – Aziz akamdan ayrib qoldik!

Xonaga og'ir, uzoq sukunat cho'kdi. Keyin kichik xodimni o'kinch, mehr, hayrat, hatto, qiziqish aralash savollarga ko'mib tashlashdi.

– Iye?

– A?

– Mahkamov-a?

– Azizjonni aytyapsizmi?

– Voy bechora-a-a! Yoshgina edi-ya!

– Qachon?



Birinchi bo'lib qorovul tog'a o'zini bosib oldi. «Xudo rahmat qilsin» deb yuziga fотиha tortdi.

– Tushuntiribroq gapiring, ukajon! – dedi boshliq ovozi titrab. – Nima bo'ldi o'zi?

– Har kuni birga ketib, birga kelardik, – dedi Shuhratjon hiqillab. – Kechayam birgalashib ketdik. Bekatga borsak, 63-avtobus turgan ekan. Bo'sh joylar ham bor edi. «Aziz aka, avtobusga minamizmi?» – desam: «Yo'q, yuragim siqilibroq turibdi, piyoda keta qolaylik», dedilar. U yoq-bu yoqdan gaplashib ketdik. Ko'chalarining boshiga borganda, Aziz akam aytdilar: «Shuhratjon», dedilar, «ukajon», dedilar. – Shu yerga yetganda Shuhrat Eminov o'pkasini tutolmay baralla yig'lab yubordi. – «Ukajonim», dedilar. «Men o'lib qolsam, yig'laysizmi?» – dedilar. Yuragim shuv etdi. «Unaqa demang, akajon!» – dedim. Shunda kuldilar. Biram chiroyli, biram muloyim kuldilarki... – Shuhrat kissasidan ro'molcha chiqarib ko'z yoshini artdi. «Hazillashdim», – dedilar. «Erta bilan sakkizdan kechikmay yetib keling, majlis bor», – dedilar. Xo'p, dedim. Ertalab... Ertalab... – Shuhratjon tag'in o'pkasi to'lib yig'lab yubordi. – Kelsam, Aziz akam ko'rinmaydilar. O'n minut kutdim. Yigirma minut kutdim. O'zidan-o'zi yuragimga g'ulg'ula tushdi. Uylariga boraqolay deb shundoq ko'chaga kirsam, eshiklari oldida tumonat odam. Opalari – Hanifa xolam «Voy jigirim» deb dod solyaptilar. To'rtta o'g'illari... – Shuhrat ro'molchasiga burnini qoqdi. – To'rtta o'g'illari to'n kiyib, beliga belbog' bog'lab turibdi. «Otajonim, otajonim» deb chunonam yig'layapti, chunonam yig'layaptiki, samandar chidamaydi.

... Majlis to'xtadi.

– Ta-a-ak... – dedi boshliq g'ussaga botib. – Chatoq bo'пти! Yaxshi yigit edi... Xo'p, o'zaro yordam kassasida qancha pul bor?

Kassir kelinchak dik etib o'rnidan turdi.

– Hammasini olib keling! Siz... – boshliq mahalliy qo'mita raisiga buyurdi. – Mestkom qarorini chiqaring.

Bundan tashqari, marhum do'stimizning bir oylik to'liq maoshini berish kerak.

– Ukalar... – dedi qorovul tog'a salmoqlanib. – Yoshim ikkam saksonga chiqib, o'n bitta o'lik ko'mdim. To'y-maslahat bilan bo'ladi. O'lim bexosdan keladi. O'lik ko'mishning o'zi bo'larkanmi? Go'rkov, yug'uchi, balo-battar... – u to'ning etagini qayirib, eski shimining piston cho'ntagidan pul chiqardi. – Mana! Azizjonning sag'ir bolalariga... Piysabillo. Hammamizning boradigan joyimiz ikki quloch yer!

Boshliq kissasidagi bor pulni stol ustiga tashladi. Birpasda allaqancha pul to'plandi. Kassir pullarni sanab, qanchaligini aytdi.

– Yordam kassasidan ham qo'shing, – dedi boshliq buyurib. – Keyin kichik xodimga yuzlandi. – Avazjon! G'irillab boring. Pulni Azizjonning opalariga berasiz. Jamoa nomidan. Rachcho'tini tag'in olib kelaman deng... Keyin... Qachon chiqarishlarini aniq bilib keling. Pastga tushib, Boryaga ayting. Xo'jayin buyurdilar, tez borarkanmiz, deng.

Shuhrat burnini tortgancha xonadan chiqib ketdi.

– Siz, – dedi boshliq boyadan beri bir nuqtadan ko'z uzmay mung'ayib o'tirgan bo'lim mudiriga, – gazetaga ta'ziyanoma tayyorlang! Jamoa nomidan. Ertagayoq chiqarishsin!

Bo'lim mudiri indamay bosh irg'ab chiqib ketdi.

– Odamshinavandaligini ayting... – kotiba boya uzilib qolgan gapini davom ettirdi. – Aziz akam ba'zan kirib qolardilar. Boshqalarga o'xshab «choy qani?» deb dag'dag'a qilmasdilar. Choyniyam hazil qilib so'rardilar. «Ey tavarish bo'lsa gar, yuz gramm choydan naley», – derdilar. Yana boshqa gaplariyam bor edi. – Kotiba peshanasini tirishtirib uzoq o'yladi. Esladi shekilli, yuziga ma'yus tabassum yoyildi. – «Hazratim, chanqovdan o'ldim, ichgali choy ber menga», – derdilar...

– Jeludochnik – voobshe opasniy kasal, – farrosh kampir og‘ir bosh chayqadi. – Minim kuyovim-da jeludka bilan kitti. Hozir min neudobniy polojeniyada qoldim. Mojet bit Azizjon araqmas, mineralniy suv ichgan chiqar... Allax, o‘zing prostit it!

– E, falak! – dedi qorovul tog‘a oh chekib. – Odamzodning holi shu-ku, besh kunlik dunyoda qadri yo‘q. Man-ku, savodsiz, omi bir odamman. Ammo-lokigin xudoning begunoh bandasini shunchalik xo‘rlash insofdanmidi? Avvalgi maylisdayam hammamiz Azizjonni o‘rtaga olib talagandik. Ishga ikki soat kech kelsa, osmon uzilib yerga tushibdimi? – qorovul tog‘a boshliqqa nadomat aralash qarab qo‘ydi. – Meni aytdi dersizlar. Azizjon borganda jannatning eshigi lang ochilib turadi! Propuska so‘ramasdan qo‘yib yuboradi, farishtalar...

O‘tgan chorshanba kuni desangiz, soat o‘nlardami-ey, o‘nbirlardami-ey, xullas, xuftonni o‘qib bo‘lgandim. Munday qarasam, zinadan sekin tushib kelyapti. «Bahay, Azizjon, kech qopsiz?» desam, kuladi. «Tog‘a, – deydi, bir topishmoq aytsam, topasizmi? – deydi. «Qani eshitaylik!» – desam, nima deydi deng? «Borida ko‘rolmaysiz, yo‘g‘ida topolmaysiz, nima bu?» – deydi. Gapning ochig‘ini aytsam, o‘ylab-o‘ylab topolmadim. «Hay, shahar berdik, ukajon», – desam u yuzimdan o‘padi, bu yuzimdan o‘padi, nuqul kuladi. «Obbo, tog‘ajon-ey! Odamni aytyapman, tog‘ajon, odamni!» – deydi. Shundoq dedi-yu, yo‘liga ketaverdi. Vaqti qazosi yetganini bilgan ekan-da, sho‘rlik. Avliyo edi, Azizjon, avliyo edi! Iloyo joyi jannatda bo‘lsin!

Qorovul tog‘a qizil belbog‘ini yechib, mijjalarini artdi. – Har nechuk mukofotdan mahrum qilmaganimiz yaxshi bo‘lgan ekan, – mahalliy qo‘mita raisi ma‘yus xo‘rsindi. – Bilasizlarmi, men Azizjon bilan bir kursda o‘qiganman. Ichimizda eng qobiliyatli student – Aziz Mahkamov edi! Krugliy beshga o‘qirdi. Biron marta dars qoldirmasdi. Hasharga chiqsak, hammadan ko‘p paxta terardi...

– Aziz akam jo'n odam emas, farishta edilar, – dedi kotiba xo'rsinib. – Shuhratga aytgan gapini eshitdinglarmi, «Men o'lsam, yig'laysanmi», – debdilarmi?

Bo'lim mudiri qog'oz ko'tarib kirdi.

– Ta'ziyanomani o'qib beraymi? – dedi savol nazari bilan qaragan boshliqqa. So'ng tutilib o'qiy boshladi: «... tashkiloti sobiq xodimi, halol mehnatkash, kamtarin inson...»

– Ulug'! – dedi boshliq yerdan ko'z uzmay, – «ulug'» degan so'zni ham qo'shib qo'ying. Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q, degani to'g'ri. Azizjon haqiqatan ham ulug' inson edi!

Yana chorak soatcha hamma o'z xayoli bilan band bo'lib o'tirdi.

– Xo'p, o'rtoqlar! – dedi boshliq ma'yus suhbatga aylanib ketgan majlisga yakun yasab, – Shuhratjon kelsin, hammamiz marhumni chiqarishga boramiz. Ayollar ham. Harna, oilasiga ruhiy madad bo'ladi.

Xodimlar endi o'rnidan turgan edi, eshik yana jur'atsiz g'iyqilladi. Ostonada Shuhrat Eminov paydo bo'ldi.

– Xo'sh? – dedi boshliq. – Soat nechada?

– Kechasi uzilgan bo'lsa, peshinga chiqaradi-da! – qorovul tog'a devordagi soatga qarab qo'ydi. – Masjiddan mo'ysafidlar chiqishiga mo'ljallasha, ikki soat qopti.

Shuhratjon xonadagilarga tag'in birma-bir mo'ltirab qaradi.

– Bilasizlarmi? – dedi kalovlanib. – Jinday angla-shilmovchilik bo'пти...

O'rnidan turganlar qaytib joyiga o'tirdi. O'ttiz yetti juft ko'z kichik xodimga qadalgan, hech kimdan sado chiqmas edi. Shuhrat Eminov butunlay dovdirab qoldi.

– Bilasizlarmi? – dedi ovozi qaltirab. – O'lgan Aziz aka emas... Pochchasi ekan.

– Qanaqasiga? – bu safar birinchi bo'lib boshliq tilga kirdi. – Siz... Siz Aziz Mahkamov o'libdi, deb...

– Qayoqdan bilay? – Shuhratjon qochib qolishni mo'ljallagandek eshik tutqichini ushladi...

– Bir yoqda opasi, bir yoqda xotini «voy jigarimlab» turgan bo'lsa, bolalari «otajonim» deb dodlayotgan bo'lsa...

– Xo'sh! – dedi boshliq qovog'ini solib.

Kichik xodim najot kutgandek atrofga olazarak qaradi.

– Pochchasi kasal edi o'zi, – dedi burnini tortib. – Yarim yildan beri... Aziz akam opasining uyida turar edi.

– Unisini so'rayotganim yo'q! – Boshliqning qon bosimi ko'tarildi chog'i, ikki yuzi qizarib ketdi.

– Siz bo'lgan gapni ayting!

– Pastga tushdim, – dedi Shuhratjon tushuntirib. – Shopiringiz papiros chekib o'tirgan ekan. Aytdim. Boryajon, dedim. Shundoq, shundoq, Aziz akam o'lib qoptilar, dedim. Boryajon darrov papirosni tashladi. O'tiring, aka, dedi. Uchib bordik. Borsak, Aziz akaning bolalari «otajon», deb izillab yig'layapti. Hovliga kirdik. Hanifa xolamdan ko'ngil so'radim... Bir mahal bundoq qarasam... Burchakdagi uydan Aziz aka chiqib kelyapti... – Kichik xodim bir zum jim qoldi. – Qo'rqib ketdim! O'lay agar, qo'rqdin. Keldingizmi, ukajon, deydi. «Pochchajonimdan ayrilib qoldik-ku, Shuhratjon, pochcham emas, tug'ishgan otajonim edi», – deydi.

– Pul-chi? – kassir kelin najot kutgandek iltijo qildi.

– Pul nima bo'ldi?

– Qanaqa pul? – Shuhrat ko'zlarini pirpiratdi.

– Marhumga ajratilgan pul. Yordam kassasining puli! – dedi kassir yig'lamoqdan beri bo'lib. – Ertaga kamissiya tekshirsa nima deyman?

– Qayoqdan bilay? – kichik xodim har ehtimolga qarshi eshikni kattaroq ochdi. – O'zlaring Hanifa xolaga bergin, dedinglar-ku! Berdim.

– Hammasini-ya?!

– Esingiz joyidami, Shuhrat?! – dedi kotiba jig'ibiyroni chiqib. – Erim nalugga to'laysan, deb bergan pul edi. Isit-

magan «dom»i o'lgurga oyiga o'n ikki mingdan «atapleniya» nalugi keladi! Uyoqda elektr, buyoqda axlat puli! Sho'rim qursin, erimga nima deyman endi!

– Sizlarni bilmadim-ku, shaxsan men yangi xodimman! – dedi kassir kelin o'rnidan turib. – Biz byudjetdagi tashkilotmiz. Davlat pulini allakimning o'lgan pochchasiga sarfladim, deb hujjat qilolmayman! Bunaqa atcho't o'tmaydi!

– U-bu deysizlar-ku, Aziz akaning o'zidayam, bor-da, – dedi kotiba. – Biram bachkana! Biram bachkana! Yoshiga yarashmagan qiliqlar qiladimi-ey, shig'ir to'qiydimi-ey! Choy ichging kelsa kir, ich zaharingga! Shoirlikni kim qo'yibdi senga, odamni ishdan qoldirib... Voy xudoyim. Shuncha nalugni qandoq to'layman endi?

– A voobshe, – farrosh kampir qo'lini paxsa qildi. – Tochna bilaman! Azizning kabinetidan kajdiy den araq butilkasi shig'adi. Etiketkasini olib tashlasa-da, zapaxidan bilaman! Tochniy «Neobiknovenniy» araq!

Mahalliy qo'mita raisi majlis davom etyapti, deb o'yladi shekilli, qo'l ko'tardi.

– Mumkinmi? – dedi ming'illab. – Aziz Mahkamov bilan bir kursda o'qiganimiz rost. Harnechuk, birinchi kursda yomon o'qimadi. Ammo ikkinchi kursdan aynidi. Darsga araq ichib keladimi-ey! Kurs ishlarini nuqul mendan ko'chirgan. Uchinchi kursdan u yog'iga paxtaga vaabshe bormagan!

Majlis allaqachon tugagan bo'lsa ham hech kim joyidan jilgisi kelmas edi.

– Gapning ochig'ini aytaymi? – qorovul tog'a o'rnidan turib, to'ning barini qayirdi. Kissasini kavlab, chap kaftiga mo'lgina nos solib otdi. – Gapni ochig'ini etsam, Aziz diganing qip-qizil zinni! Qip-qizil piyanista! Isga kelayotganda bosini sangallab keladi-da, isdan ketayotganda basarasi xo'zozni tozisdav qizzazib qaytadi! Men haylonman, munaqa ahmoni nimaga islatib yuzibsila?

– u eshik oldida mo‘ltirab turgan kichik xodimga qo‘lini bigiz qildi. – Manavu Suhtratmi, Sovkatmi otini bilmiman, buyam o‘sani hamtovog‘i!

Eshik oldida shumshayib turgan Shuhtratni nari surib, bo‘lim mudiri kirdi.

– Ta‘ziyanomani redaksiyaga kim olib boradi?

– Anavinga bering! – dedi boshliq to‘ng‘illab. – Ta‘ziyanomani o‘likning o‘ziga oborib beradi!

Shu kuni navbatdagi majlis, navbatdagi qarorni qabul qildi...

Majlis qaroridan ko‘chirma: «Mehnat intizomini muttasil buzib kelgani, ichkilikbozlik qilgani uchun Aziz Mahkamovga oxirgi marta qat‘iy ogohlantirish e‘lon qilinsin! Mahkamov bilan hamtovoqlik qilgan Shuhrat Eminov jamoani aldagani uchun so‘nggi marta ogohlantirilsin! Marhum Mahkamovga adashib berib yuborilgan pul joyiga qaytarilsin!»

Qaror bir ovozdan qabul qilindi.

... To‘rt kundan keyin Mahkamov bilan Eminovni Chig‘atoydagi lag‘monxonada ko‘rganlar bor. Ikkovlari jinday-jinday «no‘sh aylab» mehnat intizomi masalasidagi yangiliklardan gurunglashib o‘tirishgan emish.

## MO‘MINTOY

*«Pochchalar Acha bo‘ldi,  
Achalar Pochcha bo‘ldi».*

Xalq maqoli

Kuala-Lumpurdan uchgan «Boing» havo kemasi Toshkent aeroportiga kelib qo‘nganida kun oqqan edi. Mo‘mintoy xalqaro zalda intiq bo‘lib tag‘in bir soatcha kutdi. Nihoyat, zalning narigi eshigida Malikai Turondot ko‘rindi. Yonida tansoqchisi – «u-shu» bo‘yicha Osiyo chempioni Barchinoy.

Mo‘mintoy hamma erkaklar qatori xotinini ko‘zi to‘rt bo‘lib kutgan, sog‘ingan edi. Qo‘lidagi guldastani ko‘tarib istiqboliga yugurdi. Malikaxonning labidan bo‘sa olmoqchi edi, xotini yuzini tutib qo‘ya qoldi. Mo‘mintoy ko‘ngli cho‘ksa ham sezdi.

– Assalomu alaykum, xonim, – dedi odob bilan. – Ziyaratlar qabul! Yaxshi keldingizmi?

Malikaxon ayollarga xos vazminlik bilan «durust» dedi-yu, zina tomon yo‘naldi. Uchovlashib pastga tushdilar. Yap-yangi «BMV»ning eshiklari ochiq turar, haydovchi belgilangan tartibga binoan rulda qilt etmay o‘tirardi. Mo‘mintoy Malikaxonning yoniga o‘tirmoqchi edi, xotini «sho‘pirning oldiga o‘tiravering» degandek imo qildi. O‘zi tansoqchisi bilan orqa o‘rindiqdan joy oldi.

Erkak kishining ko‘ngli nozik bo‘ladi. Ayniqsa, xotinini sog‘ingan erkakning. Mo‘mintoy arazlaganini bildirish uchun mashina eshigini qarsillatib yopdi. Malikaxon erining dili og‘riganini sezdi.

– Umidchik qalay? – dedi jilmayib.

Mo‘mintoyning ko‘ngli yorishdi.

– Yuribdi chopqillab, – dedi ortiga o‘girilib. So‘ngra bunaqa paytda ayolni «eritish» uchun barcha erkaklar aytadigan gapni takrorladi. – Sizni shunaqangi sog‘ingan, shunaqangi sog‘ingan! Har kuni bog‘chadan kelishi bilan «ayajonim qanila?» deb xarxasha qiladi. Bola ichikib qolmasaydi, deb qo‘rqaman, xonim!

Uyga yetguncha boshqa gaplashmadilar. Qo‘sh tabaqali darvozadan kirdilar. Malikaxon imo qilgan edi, Barchinoy yonboshdagi xonaga kirib ketdi. Bu – tansoqchilarning xos xonasi bo‘lib, tartibga ko‘ra Malikaxon taklif qilmaguncha, ular xonadan chiqmasdi.

Er-xotin... Kechirasiz, xotin-er ikkinchi qavatga chiqib, arabiy gilamlar to‘shalgan yotoqqa kirdilar. Mo‘mintoy Malikaxonga sog‘inch to‘la ko‘zlari bilan mo‘ltirab termildi.



Malikaxon dengizda ko'p cho'milgan bo'lsa kerak, yuzlari tiniqlashib, yanayam ochilib ketgan edi.

– Yaxshi keldingizmi, xonim, charchamadingizmi? – dedi erkaklarча nazokat bilan.

– Charchaganda nima? – dedi Malikaxon zardasiz ohangda. – Samolyotda sakkiz soat uchishning o'zi bo'ladimi? – Sauna tayyormi?

– Tayyor! – dedi Mo'mintoy hozirjavoblik bilan. – Toshpo'lat peshinda yoqib qo'rgan.

– Yaxshi, – Malikaxon endi yechinayotgan edi, yo'lak tomondan erkak kishining iymajibgina yo'talgani eshitildi.

Mo'mintoy bildi: bu – uy xizmatchisi Toshpo'lat edi.

– Nima gap? – dedi yo'lakka chiqib.

– Umidjonni bog'chadan obkeluvdim, – dedi Toshpo'lat pichirlab. – Kiraversinmi?

Mo'mintoy xotinidan beruxsat nima deyishini bilmay turgan edi, ichkaridan xalat kiygan Malikaxonning o'zi chiqib keldi.

– Qani Umidchik? – dedi hayajonlanib.

Toshpo'lat lo'mbillab zinadan tushib ketdi. Zum o'tmay uch yashar Umidjon uzun yo'lak boshida ko'rindi. Malikaxon «bolajonim, bormisan?» deb quchoq ochgan edi, Umidjon negadir onasiga emas, «adajon-o-on» deb otasining bag'riga otildi. Mo'mintoy xotining oldida qattiq izza bo'ldi. Bu nimasi, xuddi o'rgatib qo'ygandek.

– Ayajoningni o'pmaysanmi, jinnivoy! – dedi bolani erkalab. – Har kuni «ayajonim qachon keladila» derding-ku!

– Men senga pultli samolyot obkeldim, Umidchik! – Malikaxon shunday deb, yotsirabroq turgan bolani bag'riga bosdi. Ikki yuzidan o'payotib, birdan jiddiy tortdi. – Peshanasiga nima qildi? – dedi goh eriga, goh Toshpo'latga qarab. – Nega g'urra bo'ldi?

– Hechqisi yo'q, – dedi Mo'mintoy aybdor ohangda. – Bog'chada Jamila degan qiz bilan urishibdi. Bola-da, bola...

– Necha marta aytaman, Umid qiz bolalar bilan o‘ynamasin, deb! Bu – o‘g‘il bo‘lsa... – Malikaxon tahdid bilan Toshpo‘latga qaradi. – Hoy, mo‘ylov! Bolaga qarasang, o‘lasanmi? Uch yuz dollarni bekorga olyapsanmi, to‘nka!

– UZR, bekam! – dedi Toshpo‘lat yerga qarab. – Ikkinchi takrorlanmaydi!

– Agar shu bolaning bir joyi tirnalsa, mo‘ylovingni uzib qo‘lingga tutqazaman, tushudingmi?

Toshpo‘lat: «Xo‘p bo‘ladi, bekam, xo‘p bo‘ladi», degancha orqasiga tisarilib, zinadan tushib ketdi...

Malikaxon ikki yuzi shaftolidek qizarib saunadan chiqqanida yemakxonada kechki ovqat tayyor edi.

– Chuchvara qildim, – dedi Mo‘mintoy maqtanib. – O‘z qo‘lim bilan! Xolmat yaxshi oshpaz bo‘lgani bilan xamir taomga uquvi yo‘q.

Xotinini sog‘ingan erkakning qo‘li shirin bo‘p ketarkanmi, Mo‘mintoyning chuchvarasiga gap yo‘q edi! Har bittasi nari borsa danakdek! Bunaqangi chuchvara tugishga faqat erkak kishining qo‘li kelishadi! Mo‘mintoy taomdan avval bufetdagi shotland viskisidan qadahga quyayotgan Malikaxonga «qo‘ying, shuni ichmasangiz bir nima bo‘ladimi?» deb dashnom bergisi keldi-yu, tilini tiydi. Ichgisi kelgan ayolning shashtini qaytarib bo‘larkanmi?

Er-xotin... kechirasiz, xotin-er ishtaha bilan ovqatlanishdi.

– O‘zim ham sizning chuchvarangizni sog‘ingandim, begim, – dedi Malikaxon. – Nuqul baliq, krivetka yeyverish jonga tegdi.

Mo‘mintoy, «begim» degan erkalovchi so‘zni eshitib erib ketdi. Erkak kishiga nima kerak? Bir og‘iz shirin so‘z, bir og‘iz maqtov...

– Xonim, – dedi muloyim tabassum bilan. – Qaniydi, hech qayoqqa bormasangiz, yonimda o‘tirsangiz-da, har kuni og‘zingizga yoqadigan taomlar pishirib bersam...

Mo'mintoy harchand erkalanib gapirmasin, Malika-xonga malol kelgandek bo'ldi.

– Unda biznesni kim yuritadi, oilaga kim bosh bo'ladi, xo'jayin?

Xotini «xo'jayin» degan so'zni istehzo bilan aytganini Mo'mintoy tushundi. (Erkak kishi sezgir bo'ladi). Vaziyatni yumshatish uchun gapni burdi.

– Xonim, – dedi sirli qilib. – Qarang bahor ham keldi...

– Shunaqami? – Malikaxon ipdek qoshini chimirdi. – Dengiz bo'yidagi mamlakatlarda bahor, yozning farqi bo'lmaydi...

– Shunaqasiz-da, xonim! – Mo'mintoy arazlab labini burdi. – Siz bahorniyam bilmaysiz...

– Xo'p, bahor kelsa nima bo'пти? – so'radi Malikaxon.

Erkak kishining xayoli kambag'alning hovlisiga o'xshaydi. Kambag'alning hech vaqosi yo'qligi uchun hovlisi keng ko'ringandek, erkakning orzu-xayollari ham chegara bilmaydi.

– Esingizdami... – Mo'mintoy orzumandlik bilan xo'r-sindi. – To'rt yil oldin ayni shunaqa bahor payti, Umidjon tug'ilishidan oldin «Ko'k somsa yegim kelyapti», – de-gandingiz. «Jonim bilan, pishirib beraman», – desam, «yo'q, o'zim qilaman» deb «mador somsa» pishirgandingiz...

Biram ajabtovur somsa bo'lgandiki! Haliyam mazasi og'zimda turibdi!

Eri ko'zlarini suzib, shu qadar erkalanib gapirdiki, Malikaxonning mehri tovlandi.

– Siz «mador somsa» yeyman deysiz-u, biz yo'q dey-mizmi, begim! – dedi ayollarga xos qat'iyat bilan. – Faqat ichiga nima solishni eslatib qo'ysangiz bas! Ertagayoq «telex»lar bilan Oloy bozoriga tushib hammasini yest qilaman, er-jon!

Mo'mintoy yayrab ketdi.

– Bozorga borasi-i-z, – dedi jilmayib. – Ko'kat rasta-siga kirasiz. Bir bog' ko'kpiyoz, salapan xaltachada yalpiz, bir bog' jag'-jag'...

– Nimaning jag‘i? – dedi Malikaxon tushunmay.

– «Jag‘i» emas, jag‘-jag‘! – dedi Mo‘mintoy. – Shunaqa ko‘kat bor! Turgan-bitgani vitamin! Keyin jinday yo‘n-g‘ichqa, ya‘ni beda, ikki bog‘ «mador»...

Parkentning «mador o‘ti» bo‘lsin. Hushyor bo‘ling, tag‘in chalg‘itib, qo‘lingizga xren-pren tutqazib yuborishmasin!

– Xrenni sizdan yaxshi bilaman! – dedi Malikaxon. – Annaqa... Bodringga o‘xshagan narsa-da! Jigarrang.

– Siz baqlajonni aytyapsiz. Xren degani eshakning qulog‘iga o‘xshagan bo‘ladi. Ildizi tuzlovga solinadi. Mador o‘tning bargi ingichka, uzun bo‘ladi...

Malikaxonning uyali telefoni jiringlab, gapning beliga tepdi. Narigi tomondan «Alyo-yo-yo, Malika Turanda-tovna!» degan chiyildoq ovoz kelishi bilan Malikaxonning yupqa labi titrab ketdi.

– Hoy, megajin! – dedi past, ammo tahdidli ohangda. – Ertalab rovno soat o‘nda bankka borasan! Lichno o‘zing borib, o‘n sakkiz millionni mening schyotimga o‘tkazmasang, malla sochingni bitalab yulaman! Pulni o‘tkazib, mening emeylimga porucheniye nomerini yuborasan! Xotin kishi-ning gapi bitta bo‘ladi, tushundingmi?

Mo‘mintoy xotining vajohatini ko‘rib qo‘rqib ketdi. Esli er achchig‘i chiqqan ayolidan nariroq yuradi, degan qoidaga amal qilib, bolani uxlatish bahonasida zipillab chiqib keta qoldi. Qaytib kirsam, Malikaxon sigaret tutatgan ko‘yi tajang bo‘lib yana raqam terayotgan ekan. Oxiri telefon ulandi shekilli, chehrasi yorishdi.

– Allo, Kioto? – dedi suhbatdoshi ro‘parasida tur-gandek tabassum bilan. – «Samuray korporeyshn!» Allo, Takamurisan?

Shu ko‘yi chorak soatcha gplashdi. Nihoyat, «kompanoni» bilan bir to‘xtamga kelishdi, chog‘i, «O-key! Senkyu. Bay-bay!» deb oromkursiga suyandi. Mo‘mintoy asta kelib xotining yelkasidan quchdi. Boshiga egilib, sochidan taralayotgan muattar bo‘yni hidladi. (Erkak

qavmi hidga o'ch bo'ladi. Faqat begona hidni tez payqashi chatoq). Hozir ham Malikaxondan yot is kelgandek bo'ldi-yu, hushyor tortdi. Malikaxon ham charchab turganidanmi, kayfiyati yo'qmi, yuzini o'girdi.

– Shu... Erkak zoti qiziq-da, – dedi ijirg'anibroq. – Ayni ishing ko'p paytida mushukka o'xshab oyog'ingga suykaladi!

– Doim shunaqa qilasiz! – Mo'mintoyning ko'zida yosh g'iltilladi. – Shuyam umid bilan bir yostiqqa bosh qo'ygan, demaysiz! «Takamuri»mi, «Echkimuri»mi, o'shalardan qolmang, xo'pmi? Erkak ekan, deb bir mushtiparni ezaverasizmi?

– Bo'lmasa men bola boqib o'tiray-da, siz ko'chaga chiqib pul topib keling, – dedi Malikaxon zarda bilan. – Dunyoning u burchidan-bu burchiga bo'zchining mokisidek qatnang! Shartnomalar tuzing! Bank bilan ishlang! Bojxona bilan muomala qiling! Tag'in nima kerak sizga, xo'jayin! Yeganingiz oldingizda, yemaganingiz ortingizda bo'lsa. Tagingizga mashina oberib qo'ygan bo'lsam. Qiladigan ishingiz bir bolaga otalik qilish ekan. – U jahl bilan yuzini o'girdi. – Bitta bola tug'dirib qo'yib maqtanganiga o'laymi? Qiz bola tug'dirsayam mayliydi.

Mo'mintoy arazlab chiqib ketayotgan edi, telefon jonivor yana jiringladi. Go'shakdan erkak kishining g'o'ldiragan ovozi eshitildi:

– Salom aleykum, missis Maleyka!

– O-o-o, mister Ahmadiy! – Malikaxon bir zumda jahldan tushib ochilib-sochilib uzoq gaplashdi. Ayniqsa, xayrlashar chog'ida aytgan gapi Mo'mintoyning jon-jonidan o'tib ketdi.

– Ay lav yu, xabibiy, mister Ahmadiy! Ay lav yu! Gud bay!

Uyda o'tirgan erkakning serialdan bo'lak nima ermagi bor? Mo'mintoy ham yarim yillab cho'ziladigan ajnabiy seriallarni ko'raverib, inglizchani binoyidek tushunadigan

bo'lib qolgan, «ay lav yu» – «men seni sevaman», degani ekanini bilardi. Ustiga-ustak bultur yotoqdagi gilamni keltirganida Malikaxon «bu «Ahmadiy» firmasining gilami, uch ming dollar turadi» deb ogohlantirgani esida edi.

– Ahmadiyni «aylavyu» qilsangiz meni nega ushlab turibsiz xotinxo'ja?! – dedi alam bilan. – Mard bo'lsangiz javobimni bering! Hali qarasang «Takamuri», hali «Arnold», hali «Ahmadiy»! Bo'ldi! Jonimdan to'ydim!

Malikaxon baland keldi.

– Erkak kishiga balo bormi ayollarning ishiga arlashib, a? Biznes degani shunaqa bo'ladi, esi past odam! Birini «jonim» deysan, birini «azizim» deysan, biri bilan yoqa bo'g'ishasan. Bo'lmasa, non yeyolmaysan!

– Nima, meni «lox» deb o'ylayapsizmi? – Mo'mintoy hiqillab yig'lab yubordi. – Bo'ldi! Otamnikiga ketaman! Bitta bolam bilan ko'chada qolmasman! Otamning tor bag'riga siqqan, keng uyiga sig'maymanmi?

– Otangizning ko'zi uchib turibdi! – Malikaxon qo'l siltadi. – Ikki xonali «xrushyovka»siga to'rtta tovuq kirsas, nafasi qaytib uchtasi o'lib qoladi-yu, naqdlab qo'yibdimi sizga?! Pensiya bir kun kechiksa, pochtaxonaning eshigiga borib poylab o'tiradigan otangiz so'laqmondek qilib boqsinmi, sizni?! Keng uyni kuyovchasi bo'lib o'tirganingizga shukr qilsangiz-chi, boyvachcha!

– Ochimdan o'lmasman! – Mo'mintoy ko'z yoshini ro'molchaga artdi. – Zo'r kelsa, mardikor bozorga chiqaman! Birovning uyini supuraman, birovning kirini yuvarman, bir kunim o'tar...

– O'tadi-o'tadi! – Malikaxon asabiy kuldi. – Baytaldek gijinglagan har xotinlar borki, deraza tozalaysiz, deb obketadi-da, shunaqangi «ishlatadiki», bir oygacha belangi bo'lib yurasiz!

Mo'mintoy mung'ayib qoldi. Erkak baribir andishali bo'ladi-da! O'zi-ku, mayli, bir kunini ko'rar, xotinidan ajrasa, bolaning holi nima kechadi? Umidjonni obketsa,

ta'minlashi kerak. Tashlab ketay desa o'g'lisiz bir kun yasholmaydi. Shu yog'ini o'ylab bir gapdan qola qoldi. Malikaxon ham oshirib yuborganini sezdi chog'i, bir ozdan keyin yoniga kelib o'tirdi.

– Mengayam oson tutmang, begim, – dedi qandaydir siniq ohangda. – Hamma narsaning tosh-tarozusi bor. Pul topish osonmi?

– Pul o'lsin, ayasi, pul o'lsin! – dedi Mo'mintoy yig'lam-sirab. Chamasi shu gapida hamma dardi mujassamdek edi. Malikaxonning eriga rahmi keldi. Ammamning buzog'iga o'xshagan lallaygan bo'lsa-da, beozorgina, mush-tipargina bo'lib, qo'li kosov, mo'ylovi supurgi – xizmatini qilib yuribdi-ku, axir! Shuni o'ylab erining boshini siladi.

– O'zimning Mo'minchigim! – dedi erkalab. – Men sizni hech kimga alishmayman, jonim!

Ana, bo'larkan-ku! Mo'mintoyning chehrasi bahor quyoshidek charaqlab ketdi. Erkak kishi shu-da! Yolg'onligini bilib tursayam shirin gapga ishongisi keladi. Nachora, ishonmay iloji ham yo'q-da!

Er-xotin... Kechirasiz, xotin-er endi bir-biroviga quchoq ochishgan edi, bolalar xonasidan Umidjonning g'ingshigani eshitildi. Zum o'tmay baralla ovozda yig'lab yubordi.

– Adajo-o-on, garsho-o-ok! Mo'mintoy zipillab jo'nab qoldi. Bolani to'sib kelib yotqizdi, shekilli, bo'g'iq tovushda aytayotgan allasi eshitildi.

Alla bolam, allayo, alla.

Toychoq bolam allayo, alla.

G'amga botgan boshima, alla,

Ko'zim to'la yoshima, alla...»

Bir ozdan keyin u yoqda Umidjon, bu yoqda Malikaxon mazza qilib uyquga ketishdi...

«Mador somsa» ham nasiya bo'ldi. Ertasi peshinda biznesmen Malikai Turondot «Emirat»ga uchib ketdi..

## USTA KO'RGAN SHOGIRD

Tursunboy mundaq o'ylab qarasa, olim bo'lishdan oson narsa yo'q ekan. Institutda o'zi bilan o'qigan pachoq-pachoq bolalar ikki-uch yilda dissertatsiya yoqlab, binoyidek katta maosh olib yuribdi. «Xo'sh, mulla Tursun, – dedi o'ziga-o'zi, – o'shalardan qayering kam? Xudoga shukur, tanishing bo'lsa bor. Juda bo'lmasa domla Obodiyga shogird tusharsan». Domla Obodiy bir zamonlar «Xalq og'zaki ijodida maqol-matallar ishlatish» degan mavzuda dissertatsiya yoqlagan, ikki gapning birida maqol ishlatmasa turolmasdi.

Tursunboy domlaning oldiga borishi bilan gapni maqoldan boshladi.

– Assalomu alaykum, domlajon, – dedi ta'zim qilib. – Ustoz otangdek ulug', degan gap bor. Sizdek ustozimni bir ziyorat qilgani keluvdim, domlajon.

Domla suyunib ketdi.

– Barakalla uka! Oltin olma, duo ol, deganlar.

Tursunboy gapning mavridi kelganini sezib, ilib ketdi.

– O'zingiz bilasiz, domlajon, usta ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alaydi. Men sizdan ko'p minnatdorman. Katta daraxtning soyasi ham katta bo'ladi, deb panohingizga keldim. Bilasiz, domlajon, katta arava qaysi izdan borsa... – u birdan oshirib yuborganini tushunib qoldi. «Maqol ishlatmay o'l – dedi ichida so'kinib. – Aravaga balo bor-midi?» Ammo o'zini yo'qotib qo'ymadi. – Kechirasiz, – dedi ming'illab, – yaxshidan yetar sharofat deganlariday... Ilm qilmoqchi edik, domlajon.

Domla Obodiy chuqur o'ygaga toldi.

– Endi uka, olim bo'lsang, olam seniki, – dedi sensirashga o'tib. – Bu yog'ini yaxshi o'ylabsan. Shundoq-ku, lekin ilm nina bilan quduq qazishday gap-da!

– Tushunaman, domlajon, hammasini tushunaman. Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi, deydilar. Aravasiga tushgandan keyin ashulasini ham aytamiz-da.



Ustoz bilan shogird bir to'xtamga kelishdi. Tursunboy qalin qilib tariq sepd. Sepdi-yu, tariq jonivor ikki yil deganda ham unib chiqa qolmadi. Yo dehqonning mazasi yo'q, yo tomorqaning. U ikki yil cho'zib-cho'zib ashula aytsa ham, arava qurib ketgur hech joyidan jilmadi.

Domla Obodiy uchastka qurayotgan ekan. «Hayt degan tuyaga mador bo'ladi» deb bir shama qilgan edi, Tursunboy tom tunukasini o'z zimmasiga oldi. Tag'in domlanning ko'nglini ko'tarib ham qo'ydi.

– Qo'ynidan to'kilsa, qo'njiga-da, domlajon. Arzimagan tunukani siz oldingiz nima-yu, men oldim nima?

Yana bir safar domla uyda kelim-ketim ko'pligidan nolidi.

– Ro'zg'or – g'or deydilar. Buning ustiga kunora mehmon, o'zing bilasan uka, bir tovuqqa ham suv kerak, ham don.

– Ha, endi domlajon! Mehmon kelar eshikdan, nasibasi teshikdan.

– Qani o'sha teshik! – dedi domla qo'l siltab.

– Biz-da, domla, biz-da, o'sha «teshik!»

Tursunboy shunday dedi-yu, o'sha kundan boshlab qachon domla Obodiyning uyiga mehmon kelsa, ichkiligini ko'taradigan bo'ldi.

Kech kuzda domla tag'in hasrat qildi.

– Kengashli to'y tarqamas, degan gap bor, uka. Shu desang qizimizni uzatmoqchimiz. Teng-tengi bilan, deganlariday quda bo'lmishimiz katta professor. Oling quda, bering quda deganlar...

Tursunboy to'yonaning kattasi bo'yniga shilq etib tushay deb turganini payqadi-yu, g'ingshidi:

– Endi domlajon, tengi chiqsa – tekin ber, deganlari juda to'g'ri. Uyqu joy tanlamas, muhabbat chiroy deganlaridek, singlimizga shunday odam xaridor bo'пти, boriga baraka qilib to'yni o'tkazib yuboravering.

– Yo‘q, uka, boshqa gap bor, – domla Obodiy xo‘rsindi. – Osilsang baland dorga osil, debmiz-u, bu yog‘ini o‘ylamabmiz. Bor tovog‘im, kel tovog‘im, deb bejiz aytishmagan. Garnitur qilish kelin tomonning vazifasi. Ruminskiy garnitur bor ekan. Hali kuyov xafa bo‘ladimi, italyanskiysidan olmabsizlar deb. O‘zing bilasan, kuyovni payg‘ambarlar ham siylagan.

Tursunboyning ichida bir nima uzilib ketgandek bo‘ldi. «O‘zing ham o‘l, kuyoving ham! – dedi ichida. – Sepkilli qizing bilan qo‘shmozor bo‘l! Qizingni quchoqlab yotadigan birov-ku, kalavotini men olib berishim kerakmi?» Xayolida shunday desa ham, sirtida iljaydi.

– Albatta, domlajon, albatta! Kelinni kelganda ko‘r, sepini yoyganda ko‘r, deb turganlar bordir.

– Barakalla! Qush tilini qush biladi-da! – domla ma‘qullab bosh silkidi. – Qatorda noring bo‘lsa yuking yerda qolmaydi, deb shuni aytadi-da! Yaxshiyam, sendek norim bor!

Domla adashmadi. Tursunboy nortuya bo‘lib yukning eng og‘irini ko‘tardi. Ammo harchand lo‘killagan bilan manzilga yetolmadi. Har gal ishini surishtirib kelganda domlasi bir nimani bahona qiladi-yu, paysalga soladi. Har gal Tursunboy gapini boshidan boshlaydi.

– Endi domlajon, chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin, degandek o‘zingiz bosh bo‘lib...

– Shoshma uka, – deydi domla salmoqlanib. – Sabr tagi sara oltin deganlar.

– Shunaqa-yu, domlajon, qolgan ishga qor yog‘ar, degan gap ham bor. Bu yog‘i tuya go‘shti yegandek juda cho‘zilib ketdi, o‘zi...

– Oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘ bo‘ladi, uka. Mana, ko‘pi ketib, ozi qoldi. Qirqiga chidagan, qirq birigayam chidashi kerak-da!

Bora-bora domla yangi odat chiqardi. Tursunboy qachon ishni surishtirib kelsa, domla kasalligini bahona

qiladigan bo'ldi. Avvaliga Tursunboy domlam keksaligi uchun mazasi qochayotgandir, deb yurdi-yu, keyin Obodiy o'zining ishiga hech qiziqmayotganini, uni olim qilish niyati ham yo'qligini tushundi. Bir kuni u yana domlaning oldiga keldi. Endi taxta-o'qlovini yig'ishtirishga o'zining ham aqli yetib qolgan edi. Qarasa, domla Obodiy odatdagidek yonboshlab yotibdi.

– Assalomu alaykum, domla! – dedi Tursunboy yangicha shiddat bilan. – Nima, yana burga tepdimi?!

– E, nimasini aytasan, uka, – domla ming'illadi, – kasalning kelishi oson, ketishi qiyin ekan-da.

– Shunaqa, domla, dard degani botmonlab kelib, misqollab ketadi, – Tursunboy uning gapini ma'qulladi. – Rang ko'r– hol so'r, deganlar. Qirq kun yerga yopishib yotgan odamday rangingiz tamom bo'пти o'zi!

Domla Obodiy ko'zini yumdi.

– Ha, endi issiq jon isitmasiz bo'lmaydi. Ahvolim ko'pam og'irmas, uka.

– Shunaqa deysiz-u, domla, dard kelganda darmon ketarkan-da, – dedi Tursunboy salmoqlanib. – Kasallik filni pashsha qiladi, deganlari bejiz emas ekan. Ahvolingizni qarang. Bay-bay-bay! Dardingiz nima o'zi?

Domla yana inqilladi.

– Nima bo'lardi, gastrit-da!

– Endi domla, ko'zing og'risa qo'lingni tiy, qorning og'risa nafsingni tiy deganlar. Sal qarash kerak-da, bu yog'igayam.

Domla Obodiyning ko'zi yarq etib ochilib ketdi.

– O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir, deganlar. Og'zingga qarab gapir, uka!

Tursunboy parvo qilmay davom etdi:

– Dard bir tikilsa qo'yamaydi, deganlari to'g'riga o'xshaydi. Ahvolingiz chatoq, domla. Sog' tanda sog' aql, deydiyar. Mazangiz qochgandan beri o'ziam... Bir oyog'ingiz to'rda, bir oyog'ingiz...

– Nafasingni issiq qil-e! – domla o‘rnidan turib ketdi. – Dard boshqa, ajal boshqa. Shuniyam bilmaysanmi, galvars! Tursunboy pinagini buzmadi.

– Endi domla, to‘g‘ri gap tuqqaningga yoqmas ekan-da, – dedi bidirlab. – O‘ylamay yegan, og‘rimay o‘lar, deganlari to‘ppa-to‘g‘ri. Bu yog‘i yaqinlashib qolganga o‘xshaydi o‘zi.

– Yo‘qol-e! – qichqirdi domla ko‘zini ola-kula qilib. – Yo‘qol ko‘zimdan, ko‘rnamak!

– Albatta, albatta! – Tursunboy shoshilmay o‘rnidan turdi. – Yomon kasal yuqumli bo‘ladi. Men ham o‘lganning ketidan shahid bo‘p ketmay tag‘in. – U eshik oldiga yetganda burilib qaradi.

– Domlajon, – dedi iljayib, – bu yog‘idan tashvish qilmang, izzat-ikrom bilan joyingizga eltib qo‘yamiz. O‘lding – aziz bo‘lding, shishding – semiz bo‘lding, deganlar!

Domla turgan joyida og‘zini kappa-kappa ochar, chamasi biron maqol izlar, ammo topolmas edi...

### «FARMONBIBI PLYUS»

*«Kelinlar qo‘zg‘oloni»ning muallifi,  
xalq yozuvchisi Said Ahmadga*

Muhtaram Said Ahmad domla! Bizning «Erkin muhabbat» xususiy teatrimiz so‘nggi paytlarda erishayotgan yutuqlardan xabaringiz bor. Ijodiy guruhimiz sahnalash-tirgan asarlar tomoshabinlar o‘rtasida mashhur bo‘lib ketgan. Ayniqsa, «Lo‘li qizning xurjuni», «Iffatli suyuq-oyoq», «Kimning ko‘ngli kimda bo‘lsa, qo‘yavering, o‘ynasin», «Erini garovga qo‘ygan xotin» kabi zamonaviy mavzudagi spektakllarimiz har kuni anshlag! Pattalar talash!

Hurmatli domla! Sizga aytadigan xushxabarimiz bor. «Kelinlar qo‘zg‘oloni» komediyasini sahnalashtirdik, tabriklaymiz! Faqat bugungi tomoshabin didiga mos

kelmaydigan ayrim sahnalarga juz'iy tuzatishlar kiritdik. Masalan, sizning Farmonbibingiz kenja kelin Nigora iborasi bilan aytganda, ikki asr narida qolib ketgan feodal, chalasavod kampir. Bizning Farmonbibi esa «sovremenni biznesmen!» Butun boshli firmaning direktori. Allaqancha korxonalari, magazinlari, oshxonalari bor. O'g'illari-yu kelinlari ham mirquruq «intelligentlar» emas. Hammasi «delovoy». «Farmonbibi plyus» firmasida ishlaydi. Bu – asarning birinchi ko'rinishidayoq bilinadi. Sizning Farmonbibingiz Nigoraning ertalab turib gimnastika qilayotganini ko'rib, dod ustiga dod soladi. Bizniki esa kelinidan oldin turib, «Adidas» olimpiyasini kiyib badantarbiya qiladi. Sahnaning bu chekkasida qaynona, u chekkasida – kelin! Nigora yarim quloch sakrasa, Farmonbibi bir metrga irg'ishlaydi. So'ng oralarida shunday dialog bo'lib o'tadi.

**F a r m o n b i b i:** – Dvijeniyelaring o'zingga biram yarashib turibdi-ey, kelin!

**N i g o r a:** – Siz ham nishtyaksiz, oyijon!

**F a r m o n b i b i:** – Jinday terlabsanmi? Yengilroq kiyinaver, kelin!

**N i g o r a:** – Bundan ham engil kiyinsam paxti yalang'och bo'pqolaman-ku, oyijon, uyalaman!

**F a r m o n b i b i:** – Kimdan uyalasan? O'zingni uying, o'zingni joying. «Striptiz»ni bilasanmi?

**N i g o r a:** – Sal-pal...

**F a r m o n b i b i:** – Ertadan boshlab «striptiz» qil!

**N i g o r a:** – Yo'g'-e, oyijon! To'xtavoy akam urishadilar!

**F a r m o n b i b i:** – Bu xonadonda men xo'jayinman! Ertadan boshlab «striptiz» qilasan! Farmonbibi bir narsani bilmasa gapirmaydi! Birinchidan, figurang chiroyli bo'ladi. Ikkinchidan, figurang qancha chiroyli bo'lsa, To'xtavoyimga shuncha yoqasan. Uqdingmi?

**N i g o r a:** – Xo'p bo'ladi, oyijon!

Shunday qilib, Nigora «striptiz» qilaveradi, «striptiz» qilgan sayin To'xtavoyga yoqaveradi. Oxiri To'xtavoy o'tirgan joyida pinakka ketadigan bo'lib qoladi. Mehri yangasining qazisi ham, Muhayyo yangasining jensheni ham kor qilmaydi. Bu orada nuqul maosh kutishdan bezor bo'lgan Hakim do'xtirlikni tashlab, «Farmonbibi plyus» firmasida xususiy apteka ochadi. Farmonbibi To'xtavoy masalasida Hakim bilan kengashadi.

F a r m o n b i b i : – Hoy, aptekachi! O'tir mundoq!

H a k i m : – Xo'p bo'ladi, oyijon!

F a r m o n b i b i : – Men senga kim bo'laman?

H a k i m : – Onam bo'lasiz, oyijon!

F a r m o n b i b i : – To'xtavoy senga kim bo'ladi?

H a k i m : – Ukam bo'ladi, oyijon!

F a r m o n b i b i : – Ukang bo'lsa, holidan xabar olsang o'lasanmi?

H a k i m : – To'xtavoyga nima qipti, oyijon?

F a r m o n b i b i : – Dard qipti! Balo qipti! Bola bechoraning qulog'idan kun tugul yulduz ko'rinadigan bo'p qopti-ku! Kim aytadi, seni aptekachi deb? Ukagingga bir pachka «Viagra» olib bersang, davlating kamayib qoladimi?

H a k i m : – Xo'p bo'ladi, oyijon! Problema yo'q. Bugunoq yest qilamiz!

Hakim o'sha kuniyoq bir pachka emas, bir salapan xalta «Viagra» obkeb beradi. Jigar degani shunaqa paytda bilinadi-da!

Bir haftadan keyin Nigora «striptiz» u yoqda tursin, gimnastika ham qilmay qo'yadi. O'n kundan keyin onasinikiga qochib ketadi. Farmonbibi donishmand ayol emasmi, kelinini qaytarib olib keladi. To'xtavoy «Viagra» ichishni, Nigora «striptiz»ni bas qiladi.

Qarang, qanday original «resheniyel»

Ikkinchi pardada ham ozgina o'zgarish bor. Sizning Farmonbibingiz maosh tekkan kuni o'g'illari-yu kelinlarini

qator turg'azib qo'yib, hammasining pulini qo'lidan sitib oladi. Bizning Farmonbibi kimning maoshi qanchaligini oldindan biladi. Vedomostga o'zi qo'l qo'ygan. Ammo pul taqsimlashni nazorat qiladi. Sizning Farmonbibingiz Bo'ston kelinga sobiq eridan kelgan alimentni qaytarib yuborishni buyuradi. «Menga bolasini tashlab ketgan erkakning puli kerakmas, bolani o'zim katta qilib olaman», – deydi. Kechirasiz-u domla, sizning tasviringizdan eskilik hidi keladi. Ya'ni feodal er mushtipar xotinni tashlab ketgan. Bizning Bo'ston unaqa ayol emas. O'z huquqini yaxshi tushunadi. Shuning uchun avvalgi erini uch taloq qo'yib, «itdan bo'lgan qurbonlikka yaramas» deydi-da, bolasini tashlab ketadi. O'zi suygan odamga – firmaning glavniy buxgalteri Mahkamga tegib oladi.

Maosh kuni Farmonbibi bilan Bo'ston orasida shunday dialog bo'ladi.

F a r m o n b i b i : – Anavi lapashangning alimentini yubormadingmi?

B o ' s t o n : – Voy otginasi o'chsin o'sha urodni! Har oyda pul yuboraveramanmi?

F a r m o n b i b i : -- Bilaman, bivshiy ering g'irt notavon. Sening bitta abed pulingga bir oy ro'zg'or qiladi, landavur! Ammo yaxshimi-yomonmi soqolini selkillatib uydan chiqmay bolangni boqib o'tiribdi-ku! Seni yo'rig'ing boshqa. Sen kuchli palavinasan. Ayolsan! Bir oyog'ing Dubayda, bir oyog'ing Malayziyada! Kimsan «Farmonbibi plyus»ning brokerisan! Mayli, nima qilgandayam o'sha «lox»dan bo'lgan bolani sen tuqqansan-ku! Yuz dollar kimni o'ldiribdi, jo'natib yubor!

B o ' s t o n : – Ellik «Yevro» yuborsam-chi?

F a r m o n b i b i : – Voy, tavba! «Evro»ni tushunarmidi, o'sha ammamning buzog'i! «Baks»dan yuboraver! Kaptansasini o'zimga berasan. Nakladnoyga tikib qo'yaman. Tag'in ertaga mahalla-ko'yga chiqib, xotinim

mushtipar eriga aliment to‘lamay qo‘ydi, deb yurmasin. Otimizga or, itimizga nomus-a, kelin!

**B o ‘ s t o n:** – Xo‘p bo‘ladi, oyijon!

Sizning uchinchi pardangizda notanish xotin Farmonbibining oldiga kelib, o‘g‘lini qamoqdan chiqarib berish uchun pora taklif qiladi. Biznikida boshqacha. Uzoq qishloqdan bir fermer kelib, Farmonbibiga kredit ololmay qiynalib yurganini, bankda ishlaydigan O‘rinboy yordam bermayotganini aytadi. Farmonbibi, O‘rinboy, fermer o‘rtasida «razborka» bo‘ladi.

**F a r m o n b i b i:** – Manavi dehqon bolani taniysanmi?

**O ‘ r i n b o y:** – Taniyman, oyijon! «Bir ko‘rgan tanish, ikki ko‘rgan bilish» degandek...

**F a r m o n b i b i:** – Tanisang, nega buning ishini «Orbit» jevachkasidek chaynab yuribsan?

**O ‘ r i n b o y:** – Endi, oyijon, o‘zimga qolsa-ku, birpasda hal qilib berardim. Shefimiz «kiraversin davlat, chiqaversin palakat» deydiganlar xilidan. G‘iring desang, «o‘ynashmagin arbob bilan, arbob urar har bob bilan» degandek...

**F a r m o n b i b i:** – Necha marta aytaman senga, maqol qo‘shmasdan gapir, deb! Nima balo, xotining bilan tong otguncha maqol to‘qib chiqasanlarmi? Bashor o‘lgur ham maqol qo‘shmasa gapirolmaydi!

**O ‘ r i n b o y:** – Endi, oyijon, «er-xotin – qo‘sh ho‘kiz», degandek... Qolaversa, bu yog‘i bozor iqtisodi... «Otang bozor, onang bozor...»

**F a r m o n b i b i:** – Yana gapiradi-ya? Men senga bozor-manmi?

**O ‘ r i n b o y:** – UZR, oyijon, men emas, shef shunaqa deydi. «Mushuk tekinga oftobga chiqqasmish»...

**F a r m o n b i b i:** – Voy, mushuk bo‘lmay itlarga talansin, o‘sha shefing! Bo‘g‘otdan yiqilib mayib bo‘lsin! Nima endi, dehqon bola orqasini silab qo‘ysinmi, mushugingni?



O'rinboy: – Endi oyijon, shefimiz ikki gapning birida «quruq qoshiq og'iz yirtadi», deb turganidan keyin...

Farmonbibi: – E, o'sha shefingni og'ziga qoshiq emas, cho'mich tiqilsin! Endi o'zim bank ochmasam bo'lmaydi, shekilli! Bular davlat topshirib qo'ygan kreditniyam «qurug'i»ni olmasdan bergisi kelmaydi.

O'rinboy: – Ayb mendamas, oyijon, o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas ekan. Shefimizni...

Farmonbibi: – Bo'pti, chaynalmasdan gapir! «Stavka»si qancha shefingni?

O'rinboy: – O'n prasan! Tanishlarga o'n prasan.

Farmonbibi: – «Nal»mi, «pereichisleniye»mi?

O'rinboy: – «Nal», oyijon. Shef «uzoqdagi quyruq»dan yaqindagi o'pka yaxshi» deydi.

Farmonbibi: – Bekor aytibdi, o'sha o'pkaxo'ring! Besh prasan! Dehqon bolani qiynamasin.

O'rinboy: – Iye, oyijon, «yomon dallol yonidan» deb qolganini yonimdan to'laymanmi?

Farmonbibi: – Hah, o'sha shefingni nafsiga o't tushsin-a! Savob ham kerak-ku, odamga!

O'rinboy: – Siz shunaqa deysiz-da, oyijon. Shef «savobning tagi teshik» deydi.

Farmonbibi: – Yana maqol to'qiydi-ya! Menga qara, dehqon bolam! Oladigan kreditlaringdan besh prasan «nal» to'laysan! Boshqa iloj yo'q. Ko'rib turibsan, bu ishga O'rinboy akangni aloqasi yo'q. «Nal»siz kredit olish, hatto Farmonbibingni ham qo'lidan kelmaydi. Mayli, qolgan besh prasanini o'zim qo'shaman, uqdingmi?...»

Shunday qilib, Farmonbibi notanish fermerga delovoy yordam beradi...

Nihoyat, Sotti bilan bog'liq tag'in bir o'zgarish.

Sotti Nigorani «sotadi». «O'g'ritomoq» kelin umumiy qozondan ovqat yemay, kechasi yotog'iga kirib o'ziga alohida ovqat qilayotganini Farmonbibiga chaqib beradi, Farmonbibi ikkala kelinini yuzma-yuz qiladi.

F a r m o n b i b i : – Buning bekitiqcha ovqat qilayotganini qayoqdan bila qolding, Sotti?

S o t t i : – Hididan bildim, oyijon.

F a r m o n b i b i : – Nimaning hidi ekan?

S o t t i : – Sosiskaning hidi, oyijon.

F a r m o n b i b i : – Burning o'lsin, seni! Iskovuch itga o'xshab har teshikka suqulmay, burniginang o'lsin! Menga qara, Nigora, rostmi shu gap?

N i g o r a : – Rost.

F a r m o n b i b i : – Nima, obshiy qozonning ovqati yoqmay qoldimi? Firma hisobiga «kontrakt» to'lab o'qiydigan student To'xtavoyning malikai Turondotlari ayricha ovqat yegilari kepqoldimi?

N i g o r a : – Gap undamas, oyijon!

F a r m o n b i b i : – Nimada, bo'lmasa?

N i g o r a : – Shu kunlarda ko'nglim ayniydigan bo'lib qolgan, oyijon. Boshim aylanadi. Sosiska yegim keladi. O'shanga...

F a r m o n b i b i : – Ko'nglim ayniydi, deysanmi?

N i g o r a : – Shunaqa, oyijon.

F a r m o n b i b i : – Voy, bo'yaringga bo'ytumor! Boy, o'zimning «striptiz» kelinimdan aylanay! Boy, sosiska sendan aylaniblar ketsin! Hoy, Sotti! Bir vaqt o'zing ham kapcho'nniy kolbasaga boshqorong'i bo'luvding shekilli? Bugundan boshlab ikki oy «shpion»likdan otpuskaga chiqasan! Sening vazifang shu: har kuni uch marta «Gamburger» restoraniga borasan. O'zing tepasida turib, svejij sosiskadan «xot-dog» pishirtirasan. O'zing obkelib Nigoraga yedirasan! Uqdingmi?

S o t t i : – Xo'p bo'ladi, oyijon!..

Asarda boshqa o'zgarish yo'q. Faqat finalda Nigora sahnaga egizak chaqaloqlar ko'tarib chiqadi. Birining oti Diana, ikkinchisiniki Viagra! Yakshanba kuni premyera! Albatta, keling, muhtaram domla!

«Erkin muhabbat» xususiy teatrining i.o. direktori.  
Imzo...»

## «TUG'MA ISTE'DOD»

Uning pasportdagi familiyasi – Berdiqulov. Bir emas, uchta institutni bitirgan... «Pachti» bitirgan. Mutaxassisligi nima ekani o'zidan boshqa hech kimga ayon emas. Ammo zo'r «tadbirkor!». Tomdan emas, samolyotdan tashlab yuborsangiz ham oyog'i bilan tushadi! Yana bitta hunari bor. U – tug'ma iste'dod. O'zining tili bilan aytganda, «oyog'ining tirnog'idan sochining uchigacha talant». Birinchidan – «shoir». Ikkinchidan – «kompozitor». Uchinchidan – «sozanda». To'rtinchidan – «xonanda».

O'zi yozgan «shig'ir»ga o'zi «mujdika» bastalaydi. O'zi yozgan «mujdika»ga o'zi jo'r bo'lib, tor chertadi. O'zi ijro etgan «mujdika»ga o'zi qo'shiq aytadi! Biroq bular hammasi – «xobbi»si!

Bundan yigirma yilmi, yigirma besh yilmi avval u institutga «zaushniy» kirganida Eski shaharning bir chekkasidagi halimdekkin so'qqabosh ammasinikida turar edi. Oradan besh yilcha o'tib, kampir rahmatli bandalikni bajo keltirdi-yu, bo'yradekkin hovli bilan katalakdek ikkita xona Berdiqulovga bobo meros bo'lib qoldi. Buni qarangki, endi xuddi o'sha hovlining ustidan yo'l o'tib, ko'prik quriladigan bo'пти.

Buziladigan xonadonlarga xohlasa, ko'pqavatli uydan xonalar, xohlasa, yer maydoni bilan pul beriladigan bo'ldi.

Berdiqulov «tug'ma talant» va ustiga-ustak «tadbirkor» emasmi? Bor iste'dodini ishga solib, shahar hokimiyatiga ariza yozdi. «Shig'ir»li ariza.

Mening na kulbam bor, na ayvonim bor.

Na eshak aravam, na faytonim bor.

Faqat talantim bor, sof vijdonim bor.

San'atga baxshida bitta jonim bor!

«To‘g‘ri» yozadi, xumpar! Kulbasi yo‘q. O‘ttiz besh ming «baks»ga olgan «bankovskiy» uyda turadi. Ammo uy o‘ziniki emas, biznesmen qaynisining nomida. Toshkentning shimol tomonidagi o‘n ikki so‘tixli hovli-joy, devoriga marmar bilan ishlov berilgan ikki qavatli uy ham o‘ziniki emas: «predprinimatel» bojasining nomida. Ishonmasangiz, notariusdan surishtiring!

Ayvoni ham yo‘q. To‘g‘ri-da! Uyi yo‘q odamda ayvon nima qilsin?! Shaharning mashriq tomonida, tog‘ etagidagi dachasi oddiygina. Atigi olti xonali. Saunasi qaynoqqina. Fontani ixchamgina. Basseyni chuqurgina. Shu arzimagan dacha ham o‘ziniki emas. O‘sha qishloqda turadigan qudavachchasing nomida. Eshak aravasi ham, faytoni ham yo‘q. Atigi bittagina «BMV»si bilan yana bitta «Neksiya»si bor. Bittasi – qaynukasiniki. Bittasi – qudaxolaniki.

Ana endi insof yuzasidan aytinglar-chi! Shundoq tug‘ma talant eski shahardagi allaqanday mahallaning allaqanday gadoytopmas kulbasida yashasa alam qiladimi-yo‘qmi?

Berdiqulov hokim nomiga yozgan arizasiga qo‘shib tubandagi ma‘lumotnoma, ya‘ni «isparavka»ni ham jo‘natdi.

«Berildi ushbu ma‘lumotnoma shu haqdakim, mazkur qog‘ozni eltuvchi fuqaroning xonadonida quyidagi faqirlar istiqomat qiladurlar:

1. O‘zi.
2. Xotini.
3. O‘g‘li.
4. Kelini. Avvalgi eridan uchta bolasi bor (tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvoohnomalar ilova etilmoqda).
5. Qizi. Turmushi buzilgan. Bir yarimta bolasi bor – yolg‘iz ona. Mat – odinochka. Qornidagi gumonasi olti oylik (ginekologdan qo‘shimcha ma‘lumotnoma bor).
6. Bo‘lajak kuyov. Hozircha bo‘lajak qaynotasining uyida g‘ayrat bilan «stajirovka» o‘tab turibdi. Uy masalasi hal bo‘lsa, ZAGSdan o‘tishga rozi (tilxati ilova etilyapti).

7. Buvisi. 97 yoshda. Oltmish yil komfirqa a'zosi bo'lgan. Bir paytlar Amir Olimxonning haramida bo'lib, ko'p jabr chekkan. «Zolim amir changalida» degan hujjatli qissa muallifi (kitobchani bir nusxasi ilova etilmoqda). Shu kunlarda bir oz shoshilibroq chop etib yuborilgan kitobni chevarasiga aytib, qaytadan yozdiryapti. «Mening sevikli Amirginam» deb nomlangan kitob nashriyot rejasiga kiritilgan (ma'lumotnoma ilova qilinyapti). Pasporti shu xonadonda ro'yxat qilingan.

8. Tog'asi. 81 yoshda. Mehnat faxriysi. Urush boshlangan kezlari o'ng qo'lining uchta barmog'ini «tasodifan» o'roq kesib ketgan. Ammo front orqasida alohida jonbozlik ko'rsatgan. Birinchi bo'lib «Xizmat ko'rsatgan cho'ch-qaboqar» degan unvon olgan. Bir ko'zi ko'rmaydi. Bir qulog'i vazmin. Bir qo'li ishlamaydi. Tilining yarmi gapiradi. Yarmi gapirmaydi (shifokor ma'lumotnomasi ilova qilinmoqda). Shu yerda «prapiska» qilingan.

9. Ammasi. 80 yoshda. «Hujum» kampaniyasining faollaridan bo'lgan. Birinchilar qatori paranjisini olovga tashlab, sochini qirqirtirgan. Olti marta erga tekkan. «Jensovets» raisi, «xudosizlar» jamiyatining a'zosi bo'lgan... Hozir qishloqning nafasi o'tkir otini. «Ibrohim Adham»ni yoddan qiroat bilan o'qiganda xotinlar ho'ng-ho'ng yig'laydi (ovozi yozilgan audio tasma ilova qilinmoqda). «Prapiska»si shu xonadonda.

10. Pochchasi. 67 yoshda. Ruhiy kasal (jinnixonadan ma'lumotnoma ilova qilinyapti). Shu xonadonda ro'yxatdan o'tgan.

11. Qaynsinglisi. To'rtta norasida bolasi bor. Eri odam o'ldirib, o'n besh yilga kesilib ketgan (sud hukmidan ko'chirma ilova etilmoqda). Qaynsingilning qayerda turishi noma'lum. Umuman, O'zbekistonda yashash-yashamasligi ham mavhum. Kasbi – «chelnochnik-tadbirkor». Yarim yil Turkiyada, bir yil «Yujniy Kareya»da yuradi. Ammo shu xonadonga «prapiska» qilingan.

12. Kuyovi. Lichna o'zining kuyovi emas-ku, kenja qaynsinglisining zakonniy eri. Qassob. Tuni bilan pichog'ini qayrab chiqadi. Narkologiya dispanserida hisobda turadi (ma'lumotnoma ilova qilinyapti).

«Prapiska»si shu xonadonda.

13. Jiyan (ota tomondan). Kasbining tayini yo'q. Qimorda besh ming dollar yutqazib, qochib ketgan. Hozir qidiruvda (ichki ishlar bo'limidan ma'lumotnoma ilova qilinmoqda). Kunora qimorboz hamkasblari «jiyaningni top» deb bostirib keladi. «Prapiska»si shu yerda.

14. Yana bitta jiyan (ona tomondan). Noyob talant sohibi. Konservatoriyaning milliy cholg'u bo'limi bitiruvchisi. Har kuni kechqurun uch soatdan karnay chalib «repetitsiya» qilishi shart (ma'lumotnoma ilova qilinyapti).

15. Xolasining o'gay nabirasi. San'at kollejining sobiq o'quvchisi. Bu ham noyob iste'dod egasi. «Beraman desa quliga, chiqarib qo'yar yo'liga» deganlari to'g'ri. O'n yetti yoshida Hasan-Husan tug'di. Egizaklarning otasi hozircha noma'lum bo'lgani uchun bolalar «detskiy priyut»ga topshirildi (ma'lumotnoma ilova qilinmoqda). Kollejning noinsaf rahbarlari bir emas, pahlavondek ikkita o'g'ilga hayot ato etgan iste'dodli talabani har tomonlama rag'batlantirish o'rniga o'qishdan haydab yuboribdi. Uy masalasi hal bo'lsa, egizaklar yosh onaning issiq bag'riga qaytadi. Biologik otasi topilib qolsa ham, ehtimol. Bo'lajak raqqosa o'qishni davom ettirmasa, o'zbek baleti yorqin sahna yulduzidan judo bo'ladi!

Shunday qilib, ikki xonali katalakda yigirma uch yarimta jon «istiqomat qiladi». «Tug'ma iste'dod» egasi, beqiyos sozanda, benazir bastakor, bulbulnafas xonanda Berdiqulovning ijod qilishi uchun hech qanday sharoit yo'q! Nima qilsin, sho'rlik? «Shig'ir»ga solib yozgan arizasi to'g'ri-da!

Mening na kulbam bor, na ayvonim bor.  
Na eshak aravam, na faytonim bor!  
Faqat talantim bor, sof vijdonim bor,  
San'atga baxshida bitta jonim bor!

Muallif izohi: Hikoya qahramoni kim, qanaqa «tad-birkor» deb so'ramang! Hammasini «ichimdan chiqarib» yozdim. Tag'in bilmadim: balki uni siz ko'rgandirsiz...

## «Shumlik» turkumidan

Ba'zilar shoir yoki yozuvchi deganda o'ta jiddiy, hatto qovog'idan qor yog'adigan odamni tushunadi. Aslida unday emas, iste'dodli ijodkorlarning deyarli hammasi hajvga, hazil-mutoyibaga boy bo'ladi. Biz – ijod ahli ham boshqalar kabi bir-birimizga hazil qilamiz, beozor «shumliklar» o'ylab topamiz. Mana, o'shalardan bir shingili.





## «SHPANA»

Universitetni yangi bitirgan kezlarim edi. «Odamlar nima derkin» degan qissam kitob bo'lib chiqdi...

Ozod Sharafiddinov, Subutoy Dolimov, Umarali Normatov, namanganlik qadrdonimiz, shoir va olim Nuriddin Boboxo'jayev, bir-ikki mezbonlar bilan Sari-chelek qo'riqxonasiga bordik. Tog' ustidagi ko'l bo'yida yotib dam oldik. Kun bo'yi cho'milamiz, osh-ovqatni o'zimiz qilamiz. Butun olamdan ajralib, radio eshitmaslikka, soqol olmaslikka, xullas, «yovvoyi» bo'lib yurishga qaror qilganmiz...

O'n kunlardan keyin yuk mashinasida tog'dan qaytib tushdik. Soch-soqollar o'sgan, kiyimlar aftodahol. Yangi-qo'rqon markazida to'xtab, tamaddi qiladigan bo'ldik. Yo'l-yo'lakay allaqanday do'konga kirdik. Chiroyli qiz peshtaxta ortida kitob o'qib o'tirgan ekan. Ozod aka odatdagi qitmirlik bilan so'radi:

– Singlim, nima kitob o'qiyapsiz?

Qiz g'ashi kelibroq boshini ko'tardi. Indamay kitobning muqovasini ko'rsatdi. Bu – mening kitobim edi. Yosh yozuvchi bunaqa paytda qanday ahvolga tushishini bilasiz. Xursandman. Nuqul iljayaman!

– Bunaqa bema'ni kitoblarni o'qimang, – dedi Ozod aka shumlik qilib.

Qizning jahli chiqib ketdi.

– O'zingiz bema'ni! Kitobni tushunmasangiz, gapirib nima qilasz!

Bizning og'iz – quloqda. Ozod aka menga qarab kuldi.

– Ko'rdingmi, muxlislaring ko'payib qopti. – Keyin qizga tushuntirdi. – Qo'lingizdagi kitobni mana shu bola yozgan. Bering, dastxat yozib beradi.

Qiz menga boshdan-oyoq qarab chiqdi-da, jahl bilan bijirladi:

– E, yo‘qol, shpana!

Dovdirab qoldim. Qiyqiriq, kulgi...

Ayniqsa, kekxa Subutoy domla tizzasiga urib-urib kuladi. Yo‘q, Ozod aka amallab, qizni ishontirdi. Qo‘lidan kitobni olib, «Hurmatli falonchixonga...» deb endi dastxat yoza boshlaganimda ichkaridan bashang kiyingan, tilla tishli kishi chiqdi (magazin mudiri bo‘lsa kerak).

– Xo‘sh, nima shovqin? – dedi qovog‘ini solib. Ozod aka nima gapligini tushuntirdi. Mudir hammamizga bir-bir qarab chiqdi-da, mendan so‘radi:

– Boshpurting bormi?

– Obke pasportingni! – dedi Ozod aka jahli chiqqan bo‘lib. Mashina kabinasida qolgan pasportimni olib kelishga majbur bo‘ldim. Mudir avval pasportga, keyin menga, undan keyin kitob muqovasiga qaradi. Uzoq o‘ylanib qoldi.

– Familiyasi o‘xshaydi, – dedi salmoqlanib, – surati ham o‘ziga o‘xshaydi, ammo ko‘rinishi yozuvchiga o‘xshamaydi.

– Ana! – Subutoy domla tantana bilan ko‘rsatkich barmog‘ini osmonga bigiz qildi. – Ana! Odam tanishni bilarkansan-ku, o‘g‘lim. Yozgan dastxatini ko‘rgin! Yozuvchiyam shunaqa xunuk yozadimi? Aftini qara, aftini! Toshkanning xuligani-ku, bu! Ha, qizim-a, sodda qizim-a! Shuning gapiga ishondingmi?!

Sotuvchi qiz jahl bilan men dastxat yozgan varaqni yirtti-da, g‘ijimlab yerga uloqtirdi...

### «BEMOR» PIYOZ

Abdulla Qahhorning mashhur dachasi hozir Said Ahmadniki. Bu birinchidan. Ikkinchidan, dacha Yozuvchilar bog‘ining shundoq kiraverishida joylashgan. Uchinchidan, Said Ahmad aka palovni «sayratib» yuboradi.

Cho'ng'araning guruchi-yu, zaytun yog'idan qilingan oshni ko'p adiblar yegan. Nega deganda ustoz pishirgan oshini baribir bitta o'zi yemaydi. Boqqa dam olishga borgan yozuvchilardan ko'ngil yaqinlarini, albatta, chaqirib chiqadi. Oshxo'rlar ham judayam noinsof emas. Oshga har kim baholi qudrat «hissa» qo'shadi. Birov to'rttagina sabzi, birov Yozuvchilar bog'ining oshxonasidan olib chiqilgan bir kaftgina tuz, birov bir quti gugurt degandek...

Qolgan «arzimas» xarajatlar – go'sht, yog', devzira guruch, aroq, konyak va boshqalar Said Ahmad akadan.

Kunlarning birida Erkin Vohidov qo'ng'iroq qilib qoldi.

– Yuring, oqsoqolning dachasiga borib, piyozdan xabar olib kelamiz.

– Qanaqa piyoz? – degan edim, tushuntirdi. Erkin aka ustozning dachasiga bir emas, naq oltita piyoz olib borgan ekan. Oltiariqning piyozidan! Ustoz o'sha piyozni solib osh damlar ekan. Erkin Vohidov, Rahmatulla Inog'omov, men – uzun-qisqa bo'lib kirib bordik. Piyozdan xabar olgani kelganimizni aytdik. Ustoz peshanasi tirishibroq osh damladi. Ma'lum bo'lishicha, bu Erkin aka bilan Rahmatulla akaning to'rtinchimi-beshinchimi marta «piyozdan xabar olishi» ekan. Men ham mazaxo'rak bo'lib qoldim. Kelasi shanba Erkin Vohidovga qo'ng'iroq qildim.

– Piyozdan xabar olib kelmaymizmi?

– Iloji yo'q, – dedi Erkin aka, – «piyoz operatsiyasi» barbod bo'ldi. Keyin voqeani tushuntirdi. Ertalab ko'chaga chiqsa, darvoza oldida chiroyli lenta bilan o'ralgan qog'oz quti turgan emish. Erkin aka hayron bo'lib qutini ochsa, qat-qat qog'oz orasidan sarg'ayib ketgan bitta piyoz, yonida konvertga solingan xat chiqibdi. Xatda shunday so'zlar yozilgan ekan: «Erkin, bolam, piyozing uyimga ketaman deb, xarxasha qilaverib yuragimni siqib yubordi. Shuncha yalinsam ham ko'nmedi. Seni qattiq sog'inibdi. Ichikib, kasal bo'lib qoldi. Xafa bo'lma, uch-to'rt kun tabibga

qaratsang, o'ziga kelib qoladi. Sen piyozingni yaxshilab davolatib tur. Kelasi hafta o'ttiz-qirq kishi ko'rgani boramiz».

– Endi nima qilasiz? – desam, Erkin Vohidov topgan chorasini aytdi.

– Hozir oqsoqolga qo'ng'iroq qilmoqchi bo'lib turuvdim. «Piyozning dardi og'ir ekan, sho'rlik o'lib qoldi» deb qo'ya qolaman.

– Esingiz joyidami? – dedim kapalagim uchib. – Oqsoqol piyozingning ta'ziasiga keldik, deb yuz kishini boshlab kelsa nima qilasiz?

– Buyog'iyam bor, – dedi Erkin aka o'ylanib. – Mayli, bir yo'lini qilarman.

Uch kundan keyin Said Ahmad akaga Erkin Vohidovdan xat boribdi. Xatda shunday so'zlar bitilgan ekan. «Ustoz! Piyozimni shuncha boqqaningiz uchun rahmat. Ikki kunda oyoqqa turib ketdi, kelib ovora bo'lib yurmanglar. «Yoshlik – beboshlik» deb shuni aytadi-da! Hayronman, tengini topibdimi, bitta piyoz bilan Oltiariqqa qochib ketdi!»

### «HOJATBARORLIK»

Bulung'urga ketayotgandik, yo'lda mashina buzilib qoldi. Amallab yetib borguncha alla-pallaga qolib ketdik. Qorin – piyozning po'sti. Asablar tarang...

Uy sohibi dasturxon bezatib qo'ygan ekan. Bir piyola choy ichdikmi-yo'qmi, mezbon hasrat qilib qoldi.

– Necha yildan beri she'r yozaman, chiqarishning iloji yo'q. Gazeta-jurnallarda tanish-bilishchilik...

– Mana, she'r chiqaradigan odam! – Abdug'afur Rasulov meni ko'rsatdi. – Opkeling, she'rlaringizni. Hozir opkeling!

Mezbon ham shuni kutib turgan ekanmi, bir papka she'r qo'litiqlab kirdi. Papkani ochib, o'qishga shaylangan edi, Abdug'afur aka maslahat berdi:

– Siz o‘qib ovora bo‘lib o‘tirasizmi? O‘tkirjonning o‘zi o‘qiydi. Ichidan tanlab-tanlab olaveradi.

Papka mening qo‘limga o‘tdi. Biri biridan xarob she‘rlarni pichirlab o‘qiyapman-u, o‘g‘rincha Abdug‘afur akaga qarab qo‘yaman. U kishi non-u angur qilib, oltindek uzumni urib yotibdi. Oxiri chidolmadim. Bir burda non kavshab, uzumga qo‘l cho‘zgan edim, Abdug‘afur aka dashnom berdi.

– She‘r deganni ovoz chiqarib o‘qiydi-da. Biz ham eshitaylik bundoq!

Ovoz chiqarib o‘qishga majbur bo‘ldim. Har safar mezbon «qalay, domla, zo‘rmi?» deb qo‘yadi. «She‘ringiz ikki pulga qimmat» dey desam, dasturxonida o‘tiribman. Ustiga-ustak qorin haligiday. Abdug‘afur Rasulov esa nuqul olqishlaydi.

– Zo‘r ham gapmi? – deydi qaymoqqa non botirib. – Kitob qilib chiqarish kerak. Hammasini O‘tkirjonning o‘zi eplaydi. Bu kishi hojatbaror odam.

Papkadagi she‘rlarni o‘qib bo‘lgunimcha bir soatlar o‘tdi. Qaymoq tamom bo‘ldi, uzumning shingil-shapog‘i qoldi.

Mezbon mastava olib kirdi. Bir qoshiq ichmasimdan Abdug‘afur aka tag‘in she‘rlarni maqtashga tushdi.

– Shundoq zo‘r asarlarni bosishmadimi, a? Voy, nomardlar-ey! Yangilaridan bormi?

– E, bundan ham zo‘rlari bor! Olib kelaymi?

– Albatta-da!

Mezbon bu gal ikkita papka ko‘tarib kirdi. Mastavani maza qilib urayotgan Abdug‘afur Rasulov ora-chora menga dalda berib qo‘yadi.

– O‘qing, do‘stim, o‘qing! She‘r deganni jaranglatib o‘qish kerak.

Osh ustida to‘rtinchi papka ochildi...

Ertasiga ertalab Bulung‘ur bozoriga kirdik. Ro‘paradan qovun ko‘tarib kelayotgan siyrak soqolli chol chiqib qoldi.

Yo'lini to'sib salom berdim. Mol-holini, kampiri-yu, nevarachevaralarini surishtirdim.

– Xudoga shukur! – dedi chol jinday hayratlanib.

– Qirq bitta nevara, o'n sakkizta chevara bor. Sizni tanimayroq turibman, bolam.

– Hozir taniysiz-da! – dedim mehribonlik bilan. – Mabodo bir parcha qog'ozingiz yo'qmi, otaxon? Otaxonda qog'oz yo'q ekan. Abdug'afur Rasulovdan qarz olishga to'g'ri keldi. Qog'ozga Abdug'afur akaning ismi sharifini, turarjoyini, ishxonasini, telefon raqamini batafsil yozdim. – Shu qog'ozni ehtiyot qiling, xo'pmi, otaxon? – dedim cholga uzatib. – Kerakli odamning adresi yozilgan.

Chol nima gapligini anglamay turgan edi, so'radim:

– Mabodo institutga kirishni niyat qilgan nevaralaringiz bormi?

– Bor! – dedi chol jonlanib. – Bir emas, to'rttasi bor. Bultur ham ikkitasi Toshkentga o'qishga kiraman deb borib, qaytib kelgandi.

– Mana bu odam, – dedim Abdug'afur akani ko'rsatib, – Toshkentdagi eng katta institutning eng katta domlasi Abdug'afur Rasulov bo'ladilar. Oltita nevarangizning hammasini yuboravering. O'qishga joylab qo'yadilar: bu kishi – hojatbaror odam.

Chol quvonib ketdi. Manzil yozilgan qog'ozni hafsala bilan belbog'iga qistirdi.

– Iye, sizlarni xudo etkazdi-ku, – deb azza-bazza qovunni yerga qo'ydi, ikki qo'lini ochganicha duo qila boshladi. – U dunyo-bu dunyo yomonlik ko'rmagin, bolam! Nevaralarimni o'qishga kirgizib qo'ysang, har kuni besh mahal namoz ustida duo qilaman. Yaxshiliging mendan qaytmasa, bola-chaqangdan qaytsin. Bola-chaqangdan qaytmasa, xudodan qaytsin...

Chol duoning eng quyuq joyiga kelganda, to'satdan ko'zi olazarak bo'lib qoldi.

– Iya, ha, qayoqqa? – dedi hayron bo'lib.

Abdugʻafur aka oʻzini olomon orasiga urdi-yu, bir zumda koʻzdan gʻoyib boʻldi.

## «MEHRIBON» SHOGIRD

Yozda Ozod Sharafiddinov bilan Fargʻonada dam oldik. Toʻy mavsumi avjiga chiqqani uchunmi, Xudoning bergan kuni sahargi oshga taklif qilishadi. Xoʻroz qichqirmasdan turish malol keladi. Ammo aytilgan joyga bormaslik ham odobsizlik. Bir kuni Ozod aka ikkinchi qavatdan xushlamayroq tushdi.

– Choʻrt poberi, kechasi bilan biqinim ogʻrib chiqdi, – dedi nolib. – Davolanishga kelganmizmi, toʻyma-toʻy yurishgami?

Sanatoriy darvozasida, odatdagidek, mashina kutib turgan ekan. Gʻizillatib olib ketishdi. Toʻyxonaga kirishimiz bilan «Umarali aka-a-a!» degan hayqiriq yangradi. Soʻritok tagida oʻtirgan naynov, saksovuidek chayir odam sapchib turib biz tomonga kelaverdi. Ertalabdan «otib» olgani koʻrinib turibdi. Oyoqlari chalishib ketyapti. Ikki yuzi toʻyib mosh yegan xoʻrozning tojisidek qip-qizil. Yana bir marta «Umarali aka-a-a!» dedi-da, Ozod akani dast koʻtarib chirpirak qilib aylantira boshladi. Domlanning u yuzidan, bu yuzidan oʻpaverib shilta qilib tashladi.

– Bormisiz, Umarali aka? Sogʻmisiz, domlajon? Eshik-elllar tinchmi, domlajon? Nevaralar chopqillab yuribdimi, domlajon? Sogʻintirib yubordingiz-ku, domlajon!

Oʻpgani ham bor boʻlsin! Har «domlajon» deganida Ozod akani silkitib-silkitib qoʻyadi. Ozod aka «Men... Men» deydi-yu, «Umarali emasman», deyishga boyagi odam qoʻymaydi. Domla «kechasi bilan biqinim ogʻrib chiqdi» degani esimga tushib, achinib ketyapman. Bir zumda Ozod aka boshigacha terlab, qizarib ketdi. Nuqul hansirab nafas oladi. Boyagi odam domlami yerga qoʻyida, menga yuzlandi.

– Erkin aka-a-a! – dedi hayqirib. Kurash tushadigan polvonlardek qulochini keng yoyganicha tepamga bostirib kelaverdi. Qarasam, qovurg‘amni dazmollab tashlaydigan! Shosha-pisha, o‘zimni odamlar orasiga urdim.

Domla ikkalamizni alohida xonaga olib kirdi. Ozod aka hamon hansirab nafas olar, paydarpay ro‘molcha bilan yuzini artar edi.

– Boyagi odam kim? – dedim non ushatayotib.

Domla eshitmadimi, javob bermadi.

– Kim haligi odam? – dedim choy quyib. Domla bir chimirildi-yu, tag‘in indamadi. Harqalay, o‘sha «mehribon shogird» kimligini judayam bilgim kelardi.

– Domla, – dedim, – boyagi odam o‘zimizda o‘qiganmi?

Ozod aka bazo‘r chidab o‘tirgan ekanmi, birdan portladi.

– Hoy! – dedi qo‘lini paxsa qilib. – Qanaqa ezma odamsiz? Jimgina o‘tira olasizmi, yo‘qmi? Bilmayman! Eshitdingizmi? Tanimayman! Umuman tanishni ham xohlamayman! O‘z holimga qo‘yasizmi-yo‘qmi?

Damim ichimga tushib ketdi. Tashqari chiqqanimizda shumligim tutdi. Ozod akaning qulog‘iga sekin shipshidim.

– Umarali aka! Anovi shogirdingiz yana kelyapti. Xayrlashmoqchi, shekilli.

Ozod aka alang-jalang qaradi-da, o‘zini mashinaga urdi.

– Haydang, – dedi eshikni yopib. – Haydang, cho‘rti poberi! Tezroq ketaylik shu yerdan.

### «XIToyCHA USUL»

Toqqa, Azim Suyunning qishlog‘iga borgandik. Ko‘pchilik edik. Mehmonlarni bir xonadonga olib kirishdi. Dasturxon to‘kin. Buni qarangki, boshqa noz-ne‘matlar qatori bir piyola asal ham bor ekan. Hammaning ko‘zi o‘sha piyolada.

– Toza asalga o‘xshaydi, – dedi mehmonlardan biri. – Hididan sezilib turibdi.



– Tog‘ning asali zo‘r bo‘ladi-da, – dedi ikkinchisi. – Hozir tog‘da ham toza asal qolmagan, – dedi yana biri. Gap aylanib asalning tozaligini aniqlashga kelib taqaldi. Birov: «Qoshiqning uchiga ilib cho‘zib ko‘rish kerak, agar bir quloch ko‘tarilganda ham asal uzilib qolmay ipdek tushaversa, toza bo‘ladi», – dedi. Yana kimdir choyga solib ko‘rishni maslahat berdi. Tag‘in kimdir asalni kaftga surib, ruchka bilan chizishni taklif qildi. Indamay tursak, asal xomtalash bo‘ladigan. Erkin Vohidov menga qarab qo‘ydi-da, so‘radi:

– Asalni sinashning xitoycha usulini eshitgansiz-a?

Hech qanaqa «xitoycha usul»ni bilmasam ham, bir shumlik boshlanayotganini sezib, darrov tasdiqladim:

– Eshitganman! Eng qulay usul, shu!

– Undan tashqari zamonamiz ruhiga ham mos keladi, – dedi Erkin Vohidov. – Haqiqiy demokratik usul.

Hamma «xitoycha usul»ga qiziqib qoldi.

– Aytsam o‘rganib olasizlar-da, – dedi Erkin Vohidov sirli qilib. Davradagilar yalinishga tushdi.

-- Bo‘lmasa gap bundoq, – dedi Erkin aka. – Hozir oramizdan bitta odamni «asal sinovchi» qilib saylaymiz. Kim eng ko‘p ovoz olsa, «sinovchi» o‘sha bo‘ladi. «Sinovchi» piyoladagi asalni bir ko‘tarishda oxirigacha simiradi. Soatga qarab turamiz. Agar yarim soatdan keyin og‘iz-burnidan varaq-varaq qon kelib o‘lib qolsa, bundan chiqdi, asal – toza asal bo‘ladi. Qani, o‘zining nomzodini qo‘yadigan odam qo‘lini ko‘tarsin!

Bittayam «nomzod» topilmadi.

– Nachora, – dedi Erkin Vohidov mushkul muammo qarshisida qolgan odamdek chuqur o‘yga tolib. – «Do‘sting uchun asal yut» degan gap bor. Keling, do‘stlar uchun qurbon bo‘lsak, bo‘pmiz-da!

«Jasorat» ko‘rsatib, ikkovlashib piyolani bo‘shatdik. Xayriyat, asal «zo‘r emas» ekan, yomon ta‘sir qilgani yo‘q.

## «PAMILDORI» OPERATSIYASI

O'g'limning to'yi kuni saharlab darvoza oldida mashina to'xtadi. Chiqsam, Ozod Sharafiddinov «Volga»ning chap eshigini ochib rulda o'tiribdi.

– Dachadan kelyapman, – dedi domla. – Qani, darrov kapotni oching.

Yukxonani ochsam, ikki paqir pamildori turibdi.

– O'z qo'lim bilan terdim, – dedi Ozod aka tantanali ohangda. – Idishlarni tez bo'shating-da, qog'oz-qalam olib chiqing.

Qog'oz olib chiqqan edim, buyurdi:

– Yozing! «Tilxat. Menkim, ushbu hujjatga imzo chekuvchi falonchi pistonchiyev shuni e'tirof etamanki, Ozod Sharafiddinov to'yimizni jamiki sabzavot mahsulotlari bilan to'la ta'minladi». Yozdingizmi? Endi qo'l qo'ying!

Tabiiyki, bu gap o'sha zahoti to'yxonaga tarqaldi. «Pamildori» operatsiyasi pishitib qo'yildi. Ertalabki osh dasturxoniga pamildori ham tortildi. Domla yonimda turgan edi, mahalla oqsoqollaridan biri kelib, u kishi bilan qo'shqo'llab ko'rishdi.

– O'g'lim, – dedi menga qarab, – oshing yaxshi bo'pti-yu, ammo pamildorisi, ayniqsa, zo'r ekan-da! Ekkanning qo'li dard ko'rmasin!

Ozod aka mamnun tomoq qirib qo'ydi.

Zum o'tmay ikkinchi odam keldi.

– Iloyo yoshlar baxtli bo'lsin! – dedi qiroat bilan. – Dasturxon xo'-o'-o'p to'kin bo'pti-da, ukam. Rahmat! Ayniqsa, pamildorini aytgin! Asal-a, asal! Ishonsang, men osh yeganim yo'q, nuqul pamildori yedim!

Ozod aka kamtarona yerga qarab turibdi. Qarindoshlardan biri pamildorini maqtab-maqtab, jinday tanqid qilib ham o'tdi.

– Pamildori xo'p yaxshi pishibdi-yu, sal maydaroq ekanmi? Olxo'ri, deb o'ylapman.

Shu payt Erkin Vohidov kelib qoldi.

– O‘tkirjon! – dedi gapni uzoqdan boshlab. – Yozda to‘y qilishning shunisi yaxshi-da. Qovun-tarvuz mo‘l, meva-cheva ko‘p... Manovi olchanning chiroyli pishganini qarang, deb, to‘rttaginasini kaftimga olib yeb ko‘rsam, danagi yo‘q! Qarasam, pamildori ekan! Qayoqdan topdingiz bunaqasini?

Zimdan qarasam, Ozod akaning qovog‘i tushib ketyapti.

Said Ahmad aka uzoqdan meni koyib kelaverdi.

– Sen yaramasga qachon aql kiradi-a? Yangilik yarataman deb, har baloni o‘ylab topaverasanmi? Osh dasturxoniga ituzum qo‘yish qayoqdan chiqdi! Qayoqqa qarasa, talinka-talinka ituzum!

Ozod aka bunisiga chiday olmadi.

– Cho‘rt poberi! – dedi qo‘l siltab. – Men to‘yga pamildori emas, tariq obkelganman. Bo‘ldimi? Qutuldimmi endi?!

### «TO‘YANA» OPERATSIYASI

O‘zim ham bir emas, bir necha marta shumlik «qurboni» bo‘lganman.

Erkin Vohidov qizini uzatayotganda ertalab yurtga osh berdi. Borsam, darvoza yonidagi o‘rik tagida Said Ahmad aka, Ozod Sharafiddinov, Nosir Fozilov, Ne‘mat Aminov, Umarali Normatov, yana allaqancha odam keldi-ketdiga qo‘l qovushtirib turishibdi. Erkin aka bilan quchoqlashib ko‘rishdik. Tabrikladim. Kissasiga to‘yona solib, men ham boyagi qatorga borib turdim. Kechqurungi ziyofatga borsam, Erkin aka sovuqroq qarshi oldi.

– Ertalab ko‘rinmadingizmi? – dedi ginaxonlik qilib.

– Keldim-ku! – dedim hayron bo‘lib.

– Kelsangiz ko‘rardim. Bilaman, siz vaqtli turishni yoqtirmaysiz. – Erkin aka hovliga imo qildi. – Kiravering, hammalari o‘tirishibdi.

Chindan ham ertalabki oshda qo‘l qovushtirib turganlar davra qurib o‘tirgan ekan. Hatto, Said Ahmad aka menga joy ham olib qo‘yibdi.

– Ha, xomush ko‘rinasan? – dedi oqsoqol aftimga tikilib.

– Yo‘q, o‘zim... – deb ming‘illashim bilan yonimizga Erkin aka keldi.

– Ertalab O‘tkirjonning o‘rni juda bilindi-da, – dedi bosh chayqab.

– Keldim-ku, axir! – dedim battar hayratlanib. – O‘rik tagida ko‘rishdik-ku!

– Qanaqa o‘rik? – Erkin aka yelkasini qisib qo‘ydi-da, nari ketdi.

– Rostdan ham keluvdingmi? – dedi Said Ahmad aka.

– Iye, o‘zingiz bilan ko‘rishdik-ku! – najot kutgandek Ne‘mat Aminovga qaradim. – Ne‘mat aka ham bor edi.

Ne‘mat Aminov gapimni eshitmadimi, choy quydi.

– Qani dasturxonga qarang, jigarim!

– Siz bilan ancha gaplashib turdik, – dedim Said Ahmad akaga.

– Menda galava qoptimi! Kelgan bo‘lsang kelgandirsan, kelmagan bo‘lsang kelmagandirsan. – Said Ahmad aka ham dasturxonga undadi. – Ol, manovi go‘sht yaxshi pishibdi.

Tomoqdan ovqat o‘tsa qani?

Said Ahmad aka ko‘nglimdagini sezgandek, nasihat qildi:

– Erkin bilan qil o‘tmas do‘stsan. Ko‘p muxlislar Erkin Hoshimov bilan O‘tkir Vohidovni adashtirib yuradi. Ertalab indin sen ham qiz chiqarasan, o‘g‘il uylantirasan. To‘yana-po‘yana berdingmi?

– Berdim! – dedim jonlanib. – O‘rik tagida...

– Qanaqa qilib beruvding?

Xunobim oshdi.

– Qanaqa bo‘lardi, cho‘ntagiga solib qo‘ydim.

– Kallang gavgandandan katta-yu, bir otim noscha aqling yo‘q! – dedi Said Ahmad aka koyib. – Birinchidan, to‘yana degani cho‘ntakka solinmaydi, kaftga bosiladi! Ikkinchidan, guvoh oldida beriladi. Pulni konvertga solib,

ustiga «falonchidan pistonchiga» deb yozib qo'yiladi... Erkin sening to'yanangga zormas-ku, baribir ko'ngliga kelgan-da! Ming yillik qadrdon bo'lsalaring! – birpas o'ylab turdi-da, jo'yali maslahat berdi. – Endi... Bitta yo'li bor... Boshqatdan to'yana berasan. Puling bormi?

Noiloj cho'ntagimni kavlab, besh so'mlik, o'n so'mliklarni sanay boshladim.

– E, yamoqchiga o'xshamay har nima bo'! – dedi oqsoqol jerkib. – Yirikroq puling bormi, Nosir?

Nosir Fozilov qovog'ini solib to'ng'illadi:

– Nima, men kassirmanmi?

– Senda-chi, Ne'mat, yirik pul bormi?

– Maydasiyam yo'q! – dedi Ne'mat Aminov keskin bosh chayqab.

– Senlarning g'amingni doim men yeyishim kerak! – Said Ahmad aka kissasidan ikkita yuz so'mlik chiqardi. – Eshitib qo'y, – dedi pisanda qilib. – Ertaga ertalab rovna soat sakkizda boqqa oborib berasan. Ham qarz berib, ham ketidan yugurib yurmayman!

Bundan chiqdi ertalab Qibrayga g'irillashim kerak.

Said Ahmad aka allaqayerdan bir varaq qog'oz topdi. Pulni qog'ozga o'rab, ustiga «Erkin akaga O'tkirdan 200 so'm» deb yozdi. «200 so'm» degan so'zning tagiga yo'g'on qilib chizdi (u paytda bu – ancha katta pul edi).

– Ma, ushla! – dedi o'rnidan turib. – To'yana berishning qoidasini o'rganib qo'y, okaginang aylansin! Biz to'yana beraverib-beraverib shilinib ketganmiz! Yur, birga boramiz.

Noiloj oqsoqolning ketidan ergashdim. Yo'lakda turgan Erkin akaning oldiga bordik.

– Quchoqlashib ko'rish! – dedi oqsoqol yelkamga nuqib. Odamlarni hayron qoldirib, Erkin aka bilan qaytadan quchoqlashdik. Qog'ozga o'roqliq to'yanani kaftiga bosdim. Erkin aka, qo'ying, shart emas, dedi-yu, pulni kissasiga solib qo'ydi. Mashinadan xabar olish bahonasida ko'chaga chiqdim. Qay ko'z bilan ko'rayki, ertalab kelganimda,

to'yanaga «guvoh bo'lgan» o'rik yo'q! Yo'q, vassalom! To'g'risi, o'zimdanda o'zim shubhalanib qoldim. Barvaqt turishni yoqtirmasligim rost! Ertalab Erkin akanikiga keldimmi o'zi? Yo uyqusirab boshqa joyga bordimmi?

– Qayoqda yuribsan? – dedi Said Ahmad aka yonimga kelib o'tirishim bilan.

– O'zim... – dedim bo'shashib.

– To'yanadan qutulding! – oqsoqol dalda berdi. – Endi odamga o'xshab, ochilib-yozilib o'tir. Ammo bir narsani aytib qo'yay! Mening pulim – urg'ochi pul, yaqinda bankka oborib qochirib keluvdim, oy-kuni yaqin edi. Ertaga bolasini qo'shib oborasan, 50 so'm!

Obbo! Endi bunisi qoluvdi.

– Bolasini Erkin Vohidovdan olasiz! – dedim ensam qotib. Shu gapning ustiga Erkin aka kelib qoldi.

– Sodda bo'lmay qoling! – dedi kulib. – Ertalab to'yana beruvdingiz-ku. Oling pulingizni, – shunday deb, qog'ozga o'ralgan boyagi pulni cho'ntagimga solib qo'ydi.

– O'rik-chi? – dedim talmovsirab.

O'sha zahoti davrada shunaqangi qahqaha portladiki, qo'shiq aytayotgan hofizdan tortib hovlidagi mehmonlarning hammasi baravar shu tomonga qarashdi. Mening ahvolim xo'p «tomoshabop» bo'lsa kerak. Ne'mat aka «xe-xe»laydi. Nosir aka «hu-hu»laydi, Erkin aka yoshlanib ketgan ko'zini artadi...

Ma'lum bo'lishicha, ertalab men ketganimdan keyin, «to'yana» operatsiyasi pishitilibdi. Darvoza oldidagi o'rikning katta shoxi qurib qolgan ekan, qariyalar qurigan daraxt bexosiyat bo'ladi, deb tagi bilan arralab tashlashni maslahat berishibdi...

– Endi ko'ngling joyiga tushdimi? – dedi Said Ahmad aka. – Qani, pulni cho'z!

Endi mening shumligim tutdi.

– Qanaqa pul? – dedim pinagimni buzmay.

– Hazillashma! – Said Ahmad akaning peshanasi tiri-shib ketdi.

Parvo qilmay, yeb-ichib o'tiraverdim. Ora-chora ustozni dasturxonga undayman.

– Oling, oqsoqol, sho'rva mazali bo'pti!

Said Ahmad aka ovqatga ham qaramay qo'ydi. Paydar-pay sigaret tutatadi... Nihoyat, bir chora o'ylab topdi, shekilli, qulog'imga egildi.

– Eshityapsanmi? – dedi ovozini pasaytirib. – Chap cho'ntagingda chaqaloq «inga»layapti, aytmovdimmi, pulimning oy-kuni yaqin, deb. Xayriyat-ey, omon-eson qutuldi, boyaqish! Mayli, «bolasi»ni senga berdim. 200 so'mni qaytar!

– Manavi qiyma kabob yumshoqqina ekan, ustoz, – dedim mehribonlik bilan. – Ustiga piyoz sepib beraymi?

Said Ahmad aka yalinishga tushdi.

– Pul degan jigardan bo'ladi, bolam. Unaqa sovuq hazil qilmagin, nastraenam buzilib ketyapti. Hozir yig'lab yuboraman.

– Men sizdan pul olganim yo'q! – dedim ko'zimni lo'q qilib.

– Bermaysanmi? – Said Ahmad aka tahdid bilan o'rnidan turdi. – Hozir anavi bolaning qo'lidan mikrofonni olaman-da, bo'lgan hangomani butun to'yxonaga aytib beraman!

Qarasam, chindan ham o'sha tomonga ketyapti. Pulini qaytarib berdim. Oqsoqol kissasiga urarkan, to'ng'illadi:

– Baribir «bolasi» sani bo'yiningda! Ja bo'lmasa, sudga berib, aliment qilib undirib olaman!

## «GURUCH» OPERATSIYASI

Said Ahmad aka devzira guruch tanlashga usta. Bir gal azza-bazza Qo'qon bozoriga kirib, Cho'ng'araning guruchidan xarid qildik: Said Ahmad aka 30 kilo, men 30

kilo. Mezbonlar guruch solingan qog'oz qoplarni vagonga chiqarib berishdi. Poyezd jilganidan so'ng ustoz bilan allapallagacha gurunglashib o'tirdik. Keyin uxlab qopman.

Bir mahal g'alati shatir-shutur tovushdan uyg'onib ketdim. Said Ahmad aka maykachan bo'lib o'rindiqqa o'tirib olgan. Oldida ikkita qop. Mening qopimdagi guruchdan hovuchlab-hovuchlab oladi-da, o'zining qopiga soladi. Qarasam, guruchimning barakasi uchib ketadigan.

– Hormang, ustoz? – dedim. – Nima harakat?

– Uyg'ondingmi? – dedi oqsoqol kiroyi mehr bilan. – Uxlayver, bolam, charchagansan, uxlayver. – Shunday deb yumushini bamaylixotir davom ettiraverdi. – Men bilan ishing bo'lmasin, – dedi tushuntirib. – Odamning yoshi bir joyga borganidan keyin shunaqa ekan. Yarim kechadan keyin esim jinday kirarli-chiqarli bo'lib qoladi. Nima qilayotganimni o'zim bilmayman.

Hayron bo'ldim.

– Esingiz kirarli-chiqarli bo'lsa, nega o'zingizning guruchingizni mening qopimga solmaysiz-da, menikini o'zingizning qopingizga solasiz?

Said Ahmad aka xotirjam qarab qo'ydi.

– Unda sapsem jinni bo'laman-ku, bolam!

## «ZIYOFAT» OPERATSIYASI

Arzimagan bahonada ziyofat qilaman demasam, shu masalada Erkin Vohidovga maslahat solmasam, olamguliston edi. O'ylab qarasam, birinchi hikoyam chiqqaniga qirq yil bo'пти. Shuni do'st-birodarlar bilan nishonlagim keldi.

– Iye, bu tarixiy voqea-ku! – dedi Erkin aka quvonib. – Bunaqa bayramni nishonlamasa gunoh bo'ladi! Banketni qaysi restoranda qilmoqchisiz?

– Hayronman, – dedim ikkilanib. – Uyda yig'ilib qo'ya qolsakmikin...



– Juda to‘g‘ri! – dedi Erkin aka ma‘qullab. – Ammo bir narsani oldindan aytib qo‘yay. Siz o‘zingizni ortiqcha urintirmang, xo‘pmi? Bir xillarga o‘xshab ikkita qo‘y so‘yish zarilmi? Bitta bo‘lsa yetadi! Judayam katta qo‘chqor bo‘lishiyam shartmas. Ha, boring ana ellik kiloli bo‘laqolsin. Tog‘ ko‘katlarini yegan qora qo‘chqorning kabobi boshqacha bo‘ladi. Zomin tog‘imi, Nurotami, mayli-da...

Qo‘y so‘yish degan gap xayolimdayam yo‘q edi. Shuni aytay deb, endi og‘iz juftlagan edim, Erkin aka yanayam mehribonroq ohangda davom etdi.

– Siz qiynalmang, deyman-da! Ba‘zilarga hayronman. Zakuska – ya‘ni gazakka qazi-qarta, kurka go‘shiti, kaklik go‘shiti, tandir kabob, qoqlangan qizil baliq, nemis pishlog‘i, Gurjiston brinzasi, lik-lik xolodes, marinovka qilingan qo‘ziqorin, krivetka – bular-ku mayli, dasturxonning ko‘rki...

Ustiga-ustak ikki xil ikra olishga balo bormi? Ham qora, ham qizil ikra! Siz bittasini oling, tamom. Uzoq Sharqning qizil ikra bor. Osetrina balig‘iniki. Har bittasi anor donasidek keladi. O‘shandan bittagina bankasini olasiz. Chiroyli tunuka banka. Besh kiloligi bor, uch kiloligi bor. Siz o‘zingizni qiynamang, uch kiloligidan olavering!

Ichimdan uzundan-uzoq xo‘rsiniq keldi. Gapiray desam ovozim chiqmaydi. Erkin aka zavq-shavq bilan davom etyapti:

– Xo‘-o‘sh, taom masalasi, ya‘ni menyu. Ba‘zan quda chaqiriqqa borasiz, banketga, yubileyga borasiz... Isrofgarchilikni ko‘rib, hayron qolasiz. Bir emas, o‘n besh xil ovqat tortadi-ey! Siz o‘n ikki xil ovqat qilsangiz kifoya. Birinchisiga bedana sho‘rva, Qo‘qonning «ko‘za sho‘rvasi». Keyin ho‘l norin, issiqqina hasip, somsa...

Aytmoqchi, somsa masalasi...

Odamlar allaqanday almoysi-aljoyi reklamalar o‘ylab topadi. Bir kuni ko‘chada ketayotsak, «Somsaning dodasi» deb yozib qo‘yibdi. Bunisi «somsaning dodasi» bo‘lsa,

«onasi» qayoqda deb soʻraydigan odam yoʻq. Oʻzimizning parmuda somsadan buyuravering. Siz qiynalmang, deyman-da! Shashlik, yaʼni kabob ikki xil boʻlsa yetadi. Jazli kabob bilan qiyma kabob. Ja, koʻnglingiz boʻlmasa, dumba-jigar ham tortib qoʻya qolarsiz. Undan keyin yangicha taom udum boʻlgan. Arabcha qovurdoq degani. Besh oylik toʻqli-qoʻzichoqning miyon qovurgʻasidan qilinadi. Ustiga qaymoq solingan fransuz kotleti ham lazizatli taom...

Tabaka masalasi. «Bush oyogʻi» degan gapni eshitganmisiz? Hozirgi Bush emas, uning otasi prezident boʻlgan zamonda amerikaliklar dori bilan boqilgan tovuq yeyaverib, semirib ketgan. Borganingizda oʻzingiz ham koʻrgan boʻlishingiz kerak. Shuning uchun tabakani tovuqdan qilmang. Oʻrmonchi Mansurxoʻjaga aytsangiz, oʻn-oʻn beshta qirgʻovul ottirib qoʻyadi. Qirgʻovulning tabakasi boshqacha boʻladi...

Oxirida osh tortasiz. Asakaning Choʻntagidagi choyxonachidan iltimos qilsangiz, devziradan quling oʻrgilsin, osh damlaydi.

Ogʻzim, mashinasi oʻgʻirlab ketilgan garajning darvozasidek lang ochilib qolgan boʻlsa kerak, Erkin aka koʻzimga xavotirlanibroq tikildi.

– Yozib olyapsizmi? Esingizdan chiqmaydimi?

– Chiqmaydi, – dedim yigʻlamoqdan beri boʻlib. – Bunaqa gaplarni unutib boʻlarkanmi? Ming rahmat sizga! Muncha mehribonsiz?!

– Siz qiynalmang deyman-da! Mehmonlar necha kishi oʻzi? Oʻntami? Bilasiz, men ichmayman. Ammo dasturxonda anavi sabil turmasayam boʻlmaydi. Bir yashik toza aroq. Fransiyaning bir yashik konyagi bemalol yetadi. Ha, aytmoqchi, Gollandiyaning «Xayniken» degan pivosi bor. Oʻshandan bir qutigina olsangiz, boshqa narsa kerakmas. Meva-cheva bemalol! Xandon pista, bodom, noʻxat, mayiz...

Oq kishmish sal kamyobroq. Kosmonavtlar yeydi. Eski joʻvadagi Mirvaqqos baqqolga mening nomimdan iltimos

qilsangiz uch-to'rt kilo topib beradi. Olma, anor, nok, uzum o'zimizning mevalar. Bozorda nima ko'p, banan ko'p. Ortiqcha urinib yurmang-da, jon boshiga bir shodadan banan, ikki kishiga bittadan ananas olsangiz, yetmoq tugul yetadi. Qaysi kuni bir ziyofatga borsak, dasturxonga qulupnay tortibdi. Hali o'zimizning qulupnay chiqmagan, to'g'rimi? Xudo bilsin Xitoydan olib kelganmi, Erondanmi? Suvda maza bor, unda maza yo'q. Siz o'zingizni urintirib yurmang-da, gilos bilan shaftoli oling! Bangladeshdanmi, Malayziyadanmi, bir tog'ora shaftoli, bir tog'ora gilos keltirsangiz, olam-jahon bo'p ketadi.

– Erkin aka, – dedim yig'lamsirab, – mehmonlar tarqayotganda, yelkasiga to'n ham yopaymi?

– Ana shunisi shartmas. Hecham shartmas! Bu odatni kim o'ylab topgan o'zi? Qayoqqa borsang to'n beradi. Hammaning uyida sandiq-sandiq to'n! Siz bunday qiling! Mehmonlarning o'lchovini so'rab oling-da, bittadan kostyum-shim olib qo'yaqoling. Bilasiz, «Versachi» degan mashhur firma bor. O'shaning kostyumi ham chiroyli, ham modniy bo'ladi. «Optovoy»dan olsangiz, 400 dollardan beradi.

– Bir narsa so'rasam maylimi? – dedim o'pkam to'lib. – Mabodo bittagina vertolyot olib mehmonlarni uy-uylariga vertolyotda oborib qo'ysam nima deysiz?

– Kerakmas! – dedi Erkin aka bosh chayqab. – Birinchidan, vertolyot haydashga uchuvchi kerak, ikkinchidan, hech kimning uyida vertolyot qo'nadigan maydon yo'q. Bittagina «Damas» olsangiz bo'ldi. Siqilishibroq o'tirsa hamma sig'adi. Sho'pirlikni o'z zimmamga olaman. Mehmonlarni uy-uylariga oborib qo'yaman-da, mashina menikida qolaveradi. Siz qiynalmang, deyman-da!

– Mabodo, – dedim hiqillab. – Mabodo ziyofatdan besh-o'n so'm ortib qolsa, o'shanga arqon berarmikin?

– Beradi! Albatta beradi. Nima ko'p – xo'jalik do'koni ko'p. Arqonning pishig'idan oling. Ingichka bo'lsin-u,

pishiqlik bo'lsin. Undan keyin judayam uzun bo'lishi shart emas. Bo'lmasa odamning oyog'i yerga tegib qolishi mumkin. Siz qiynalmang, deymen-a! Ammo bu ishni jindak kechiktirib turasiz. Asaringiz chiqqanini yana besh-o'n marta nishonlasangiz, arqonni mehmonlarning o'zi olib boradi...

Shunday bo'ldi. Hayotimdagi «tarixiy voqea»ni zo'r «tantana» bilan nishonladik. «Charxpalak» oshxonasida. Erkin Vohidov, Ibrohim G'afurov, men – uchovlashib bir kosadan lag'mon yedik. Yolg'on bo'lmasin, bir shishadan pivo ham ichdik. O'zimizning «Qibray» pivosi.

### O'ZBEKNING SODDASI

Toshkent dorilfununi (hozirgi O'zMU)ning domlasi Bahodir G'ulomov boladek beg'ubor, o'ta samimiy, sodda odam edi (afsus, bevaqt vafot etdi). Safarga chiqadimi, o'tirishga keladimi, deyarli har gal navbatdagi shumlikning «qurboni» bo'lib, yo choyxona palovga, yo ziyofatga «tushar», «tushmagani»ga, qo'ymas edik.

Bahodir aka uyiga mehmon kelsa, o'tqizgani joy topolmay shoshib qolardi. Bir gal Ozod Sharafiddinov, Begali Qosimov, Abdug'afur Rasulov qandaydir bayram bahona domlani ko'rgani bordik. Bahodir aka kelinoyiga dasturxon yozdirdi. Ochilib, jinday ichilgan «Pliski» konyagini keltirib qo'ydi.

– Konyak deganni uzum bilan ichsang-da! – dedi Ozod aka.

– Hozir, domlajon, hozir! – Bahodir aka pildirab hovliga tushdi. Deraza oldidan inqillab narvon ko'targancha o'tib so'ritok tomon yurdi. Paytdan foydalanib, konyakni to'rtta piyolaga bo'ldik. Lo'q etib ichib oldik-da, o'rniga sovuq choy quyib qo'ydik. Bahodir aka uzum ko'tarib kirdi.

– Qani, mehmonlar, – dedi iljayib. – Jinday-jinday olaylik bundoq. Bugun bayram...

Hammamiz «qanday bo'larkin» deb birpas noz qilgan bo'ldig-u, mezbon qistayverganidan keyin «noiloj» ko'ndik. Abdug'afur aka «konyak» suzdi.

– Xush kelibsizlar! Qadamlaringizga hasanot! – dedi Bahodir aka tantana bilan. «Konyak»ni bir qultum ichdi-yu, afti burishib ketdi.

– Nima bu? – dedi ko'zoynagini yiltiratib.

Biz ham jinday-jinday totingan bo'lib piyolalarni dasturxonga qo'ydik.

– Mazasi g'alatiroqmi? – Bahodir aka hammamizga bir-bir mo'ltirab termuldi.

– Shu konyakmi? – dedi Ozod aka qovog'ini uyib.

– Mengayam g'alatiroq tuyuldi, – dedi Begali.

– Hidiyam boshqacha... – dedi Abdug'afur aka.

– Yo'g'-e, kecha o'zim ichuvdim-ku! – Bahodir aka azza-bazza shishaning og'zini hidlab ko'rdi. To'satdan bir nima esiga tushgandek hovliga qarab kelinoyiga qichqirdi.

– Ukang qachon keluvdi? – keyin bizga hasrat qildi. – Qaynimning shu odati yomon-da! U kishi surat olishga qiziqadilar! – dedi zarda bilan... – Bilaman, o'shandan boshqa hech kim qilmaydi bu ishni! Konyakni ichgan-da, o'rniga fotodori quyib qo'ygan.

– Nima? Fotodori?! – Ozod aka o'rnidan turib ketdi. – Zahar-ku, bu! Hali bizni zaharlamoqchi bo'ldingizmi?

– Qiyomatlik aka-ukamiz-a? – dedi Abdug'afur aka bosh chayqab.

– Mazasidan biluvdim... – dedi Begali ma'yus ming'illab. Bahodir aka dovdirab qoldi. Nuqul bir gapni takrorlaydi.

– Men bilmay qoldim-da... Bilmay qoldim-da...

Domla yangi shisha ochganda ham, qovurdoq olib kelganida ham chehramiz «yorishmadi». Yaxshigina «qizishib» olganimizdan keyin mavzu tag'in «fotodori»ga kelib taqaldi.

– Cho'rt poberi! – dedi Ozod aka. – Endi «Pliski»ni ko'rsam ko'nglim aynidigan bo'ldi-da.

Bahodir aka astoydil yalindi.

– Qo'yinglar endi, shu gap shu yerda qolsin, eshitgan quloqqa yaxshimas.

– Albatta-da, – deb tasdiqladi Ozod aka. – Bahodir G'ulomov do'stlarini zaharlamochi bo'пти, degan gap tarqalsa, birov ishonmasa, birov ishonadi-da!

Bahodir aka birpas ikkilanib turdi-da, taklif kiritdi.

– Shanba kuni O'rinboy akaning choyxonasida osh qila qolsammikin?

– Mana bu boshqa gap! – dedik hammamiz jonlanib. Ozod aka Bahodir akaning «tarafini oldi».

– Tekin osh bo'larkan deb, taltaymalar! Mayli, domla-ku, osh qiladi. Qilmay qayoqqa borardi! Ammo senlar ham bu sirini yoymaslikka va'da berib tilxat yozib berasan. Hozir og'zaki gapga ishonib bo'lmaydi.

Shanba kuni chindan ham O'rinboy akaning choyxonasida osh bo'ldi. Faqat besh kishi emas, o'n besh kishi to'plandi. Osh ustida Bahodir aka nega «eriyotgani», bizni qanday qilib «zaharlamochi bo'lgani» biz esa bu sirni oshkor qilmaslikka so'z berishimiz haqidagi batafsil yozilgan tilxatlarni tantana bilan, baland ovozda o'qib berdik. «Sir» o'sha kuniyoq butun universitetga yoyildi.

\* \* \*

Domlanning qiziq-qiziq odatlari bor edi. Soat o'n bo'lmasdan yotib uxlar, ertalab tong otar-otmas uyg'onib, har kuni, albatta, besh kilometr yugurardi.

Aynan shu odati domlanning boshiga ko'p «kulfatlar» solgan.

Bir safar Sariosiyodan Termizga o'tadigan bo'ldik. Termiz – chegara shahar. U zamonda kirib kelayotgan har bitta mashinani to'xtatib odamlarning hujjatini tekshirib ko'rishardi.

Sariosiyodan tong otmay yo'lga chiqdik. Bahodir aka «Moskvich»da o'tiribdi-ku, nuqul «yugurish plani»

bajarilmay qolganidan noliydi. Nihoyat, shahar chekkasiga yetib keldik. Chegarachi askarlar hujjat tekshira boshladi. Boyadan beri indamay turgan Bahodir aka to'satdan yugurib qoldi. Ancha narida yam-yashil o'tloq bor ekan. Domla o'sha tomonga qarab g'ayrat bilan lo'killab chopdi.

Hujjat ko'rayotgan yigitlardan biri jonholatda «to'xta!» deb qichqirdi.

Qayoqda! Bahodir aka zavqlanib ketgan shekilli, borgan sayin tezroq yuguradi.

Askar bolalardan biri jon-jahdi bilan quvib ketdi. Orqasidan kajavali mototsiklda boshqa chegarachilar g'izilladi. Zum o'tmay, domlani kajavaga o'tqazib, yelkasidan bosib olib kelishdi.

– Nima gap o'zi? – dedi Bahodir aka yupqa ko'zoynagi ortidan hammaga bir-bir termilib. – Shundoq tep-tekis o'tloqda yugurmay bo'ladingmi?

Askar bolalardan oldinroq o'zimiz «hujum»ga o'tdik.

– Bahodir G'ulomov degan olim ataylab chegarani buzmoqchi bo'ldi. Shundoq odamga qanday qilib yoshlar tarbiyasini ishonib topshirib bo'ladi?

Domla qo'rqib ketdi. Toshkentga omon-eson yetib borsa, kamida yigirma kishilik osh qilib berishga va'da qilib, arang qutuldi. Chegarachilar «o'sha oshga bizni ham chaqiringlar» deganida ham Bahodir akaning titrog'i bosilmagan edi.

\* \* \*

Yana bir gal Urganchga bordik. Bahodir aka, Abdu-g'afur Rasulov, men. Ogahiy nomidagi teatrda «To'ylar muborak» spektaklining premyerasi bo'lishi kerak edi. Premyera o'tdi. Teatr direktori, bosh rejissyor mehmonxonaga kelishdi, alla-pallagacha gurunlashib o'tirdik. Bahodir aka hammadan oldin yotdi-yu qotdi (vijdoni sof odam xotirjam uxlaydi).

Rejissyor bilan direktor ketishganidan keyin ham Abdug'afur aka ikkovimiz ancha vaqt gaplashib yotdik. Chamamda, tong otar pallasi ko'zimiz ilindi, shekilli...

Ammo uzoq uxlay olmadik. Bir mahal hammayoq shovqin-suron bo'lib ketdi. Qo'shni xonalarning derazasi sharaqlab ochilib-yopilgan, «cho'rt-po'rt» degan hayqiriqlar...

Eng yomoni shundaki, tashqarida itlarning to'xtovsiz akillashi borgan sayin avjiga chiqib, quloqni qomatga keltirardi.

– Nima gap? – dedi Abdug'afur aka. Boshimni ko'tarib qarasam, Bahodir akaning o'rni bo'sh. Maykachan balkonga chiqdim-u, g'alati manzarani ko'rdim.

Hali quyosh chiqmagan, mehmonxona hovlisi g'irashira yorug'. Hovlida mayka-trusi kiyib olgan Bahodir aka yugurib yuribdi. Domlaning ketidan yigirmatacha it chopib boryapti. Eng oldinda Bahodir aka, orqasida kichikroq buzoqdek keladigan, quloq-dumi kesilgan it, undan keyin choynakdekkina oppoq kuchukcha, uning orqasida semizoriq, katta-kichik ko'ppaklar-u ko'ppakchalar...

Qizig'i shundaki, domla qancha tez chopsa, itlar ham shuncha qattiq akillaydi...

Bahodir aka qadamini qancha sekinlatsa, itlar «simfoniyasi» ham shuncha pasayadi. Domla to'xtashi bilan ular ham to'xtab, atrofini o'rab oladi. «Bu kim o'zi, nima qilyapti» degandek mo'ltirab qarashadi. Domla tag'in g'ayrat bilan yugura boshlaydi. Itlar ketidan ergashib g'ayrat bilan vovillaydi. Tag'in o'sha «muzika»...

– Odamni sharmanda qildingiz-ku! – dedim bo'g'ilib. – Bu yoqqa chiqing, domla, hammaning uyqusini buzyapsiz.

Bahodir aka to'xtadi (itlar ham). Domla tilla tishlarini yaltiratib kuldi.

– Hozir, ukajon! – dedi bilagidagi soatiga imo qilib. Yana o'ttiz besh minut yugursam, roppa-rosa besh kilometr bo'ladi.



Domlanning tag'in bir odati – ochlikka hech chidolmasdi. Dorilfunundagilarning aytishiga qaraganda, biron majlisda juda jiddiy masala ko'rilayotgan bo'lsa ham, Bahodir aka qorni ochishi bilan indamay chiqib ketaverar, «bir piyolagina choy ichib» qaytib kelar va yana indamay joyiga borib o'tiraverarkan.

Terim mavsumi aynan qiziganda Qashqadaryoga bordik. Samolyot kechikib uchdi. Ertalab durust nonushta qilinmagan. Qarshidan Shahrisabzga, undan Kitobga o'tdik. Chekkaroqdagi xo'jaliklardan birida tushlik tanaffusga mo'ljallab uchrashuv tayyorlab qo'yishgan ekan...

Dala shiyponida odam ko'p. Paxtakorlar, hasharga chiqqan shifokorlar ovqatlanib bo'lib, kutib o'tirishibdi.

Raykom kotibi mehmonlarni tanishtirdi. Qarsakbozlik...

Kotib hayajonlanib mikrofonda gapiryapti. Uning yonboshida rangi o'chib Bahodir aka o'tiribdi. Yonida Abdug'afur Rasulov bilan men... Bahodir aka odamlar hozirgina yeb bo'lgan qovun po'choqlariga ma'yus-ma'yus qarab qo'yadi. Sekin domlanning qulog'iga shivirladim:

– Mezbonlardan bir taklif tushyapti. Bu uchrashuv uzoq cho'zilmas ekan. Nari borsa bir yarim soatda tugarmish. Tag'in ikki joyda uchrashuv bor ekan. Odamlarni kuttirish yaxshi emas. Hamma ishdan qutulib, bir yo'la kechqurun ovqatlanib qo'ya qolamiz...

Alamdan to'lib o'tirgan Bahodir aka oldida mikrofon turganidan bexabar, bor ovozda chinqirab yubordi.

– Nima? – keyin chap qo'lini paxsa qilib baqirdi. – Uchrashuvingizni boshimga uramanmi? Qornim tatalab ketyapti, bildingizmi? Nima, Toshkentga o'ligimni olib ketmoqchimisiz?

Domlanning ovozi mikrofondan shu qadar alam bilan jaranglab eshitildiki, boyadan beri zavqlanib gapirayotgan kotib jim bo'lib qoldi. Pastda o'tirganlar hayron bo'lib, bir-biriga alanglay boshladi.

Bahodir aka nima bo'lganini endi tushundi. Pastroq ovozdagi gapirmoqchi bo'ldi-yu, eplolmadi.

– Iye, qovun tushiribmiz-ku! – dedi hayratdan ovozi ingichkalashib. Raykom kotibiga qarab iljaydi. – Siz gapiravering, ukajon, bu – bizning o'zaro gap!

\* \* \*

Bobotog'da, archa tagida davra qurib o'tiribmiz. Bahodir aka tandir pishguncha «jindek mizg'ib olish» uchun yonboshladi-yu, pinakka ketdi. Keyin motori yaxshilab sozlangan mashinadek bir tekis, osoyishta xurрак torta boshladi. Qarasak, pidjagining ich cho'ntagidan pasporti ko'rpachaga tushib qolibdi. Tabiiyki, pasportni «o'g'irladik». Ozod Sharafiddinov «tekshiruv» operatsiyasini ishlab chiqdi. Bizni toqqa olib chiqqan «RAF» mashinasida mezbonlardan biri azza-bazza pastga tushib, bo'lajak hangomani pishitib chiqdi.

Tandir pishganda domla uyg'ondi. Yeyildi, ichildi. Kechga tomon sharillatib jala quyib berdi. Mashina sirg'alib-sirg'alib, amallab pastga tushib oldi. Hamon momaqaldiroq gumburlaydi, yomg'ir chelaklab quyib turibdi. Biydek dalaning qoq o'rtasida bir militsioner mashinani to'xtatdi. «RAF»ga chiqib sovuqdan tishlari takillagancha gapirdi.

– Kechirasizlar, hujjatlaringizni ko'rsatinglar!

Jahlimiz chiqqan bo'lib, pasportlarimizni ko'rsata boshladik.

Bahodir aka tipirchilab qoldi.

– Boshpurtim yo'q-ku! – dedi xavotirlanib. – Haligina yonimda edi.

Xuddi shu payt militsioner yigit domlaning yaqiniga keldi.

– Marhamat, sizning hujjatingiz!

– Haligina bor edi, – dedi Bahodir aka alanglab. – Mana, bular guvoh, boshpurtim bor edi.

– Nima gap o‘zi, cho‘rt poberi? – dedi Ozod aka achchiqlangan bo‘lib.

– Xavfli jinoyatchi toqqa qochgan, degan xabar bor. – Militsioner yigit Bahodir akaga qarab qo‘yib davom etdi. – O‘zi keksaroq, ko‘zoynak taqib yuradi, tilla tishi bor, deyishgan.

– Voy, bu meni aytyapti, shekilli! – domla butunlay esankirab qoldi. Yaylovning qoq o‘rtasida militsioner nima qiladi, nega endi mashinani tekshirishi kerak, degan gap xayoliga ham kelmadi. – Men jinoyatchi emasman, ukajon, – dedi yalinib. – Olimman, Toshkentdan kelganmiz. Mana, hammalari guvoh.

– Men bu olimni tanimayman! – dedi Ozod aka jiddiy qiyofada. – Hozir, yo‘ldan mashinaga chiqdi.

– Voy, domla, esingizni yedingizmi? – Bahodir aka hammamizga javdirab qaradi. – Unaqa hazil qilmanglar. Meni hammasi taniydi.

Biz ham Bahodir akani «tanimadik».

– Pastga tushishingizga to‘g‘ri keladi, – militsioner kulib yubormaslik uchun teskari qaradi.

Domla xo‘p yalinganidan keyin uni «kafillikka» oladigan bo‘ldik. Evaziga bitta ziyofat qilinadigan bo‘ldi. Militsioner shofyor yoniga o‘tirib uf tortdi.

– Qoyil-e, ikki soatdan beri kutaman-a! Hammayog‘im shiltai shalabbo bo‘ldi-ku!

– Nima deyapti? – so‘radi Bahodir aka ovozini pasaytirib.

– Jim! – dedim labimni tishlab. – Jahli chiqib turibdi. Melisa bilan hazillashib bo‘ladimi? Omon qolganingizga quvonmaysizmi?

– Rost aytasiz. Quruq tuhmatdan asrasin! – Bahodir aka qunishib o‘tirib olganicha, shaharga kirgunimizcha bir og‘iz ham gapirmadi.

Ertasiga domlaning pasportini «topib», suyunchisiga yana bitta osh qarzdor qildik.

Qorako'lga boradigan bo'ldik. Ozod aka, Bahodir aka, Abdug'afur Rasulov, Begali Qosimov poyezdga o'tirib jo'nadik. Bir mahal, tong pallasida vagon kuzatuvchisi kupe eshigini taqillatdi.

– Jon akalar, – dedi yalinib. – Vagon yo'lagida yugurib yurgan odam sizlarning sherigingizmi? Aytinglar, bir soatdan beri u yoqdan-bu yoqqa chopadi. Qiynalib ketdiku, bechora... Ustiga-ustak xotin-xalaj yuvingani o'tishga qiynalyapti.

Norozilik bilan to'ng'illab o'rnimizdan turishga majbur bo'ldik.

– Biron narsasini o'g'irlab qo'ying, ikkinchi saharlab hammani bezovta qilmaydigan bo'ladi, – dedi Ozod aka.

Bahodir akaning yap-yangi do'ppisi vagon tokchasida yotgan ekan. Olib portfelimga solib qo'ydim. Domla terlab-pishib kirib keldi.

– Ha, dangasalar, turdinglarmi? – dedi iljayib.

Qorako'l stantsiyasida poyezd ikki daqiqqa to'xtar ekan. Hammamiz tushib ketyapmiz-u, Bahodir aka nuqul timirskilanadi. Nima bo'ldi, desak, do'ppimni topolmay-apman, deydi.

Ozod aka jerkib berdi.

– Qanaqa odamsiz o'zi, sizning do'ppingizni deb poyezd to'xtab turarmidi? Bo'ling tezroq!

Pastga tushishimiz bilan Ozod aka juda jiddiy qilib gap boshladi.

– Bu tomonlarda meningit kasali tarqalgan deyishadi, ehtiyot bo'b yuringlar.

– Meningit nimadan bo'ladi? – so'radi Abdug'afur aka «soddalik» bilan.

– Nimadan bo'lardi, shamollashdan-da!

– Eng kerakligi bosh-da, – dedi Begali falsafiy ohangda.

– Meningitga yo‘liqqan odam uch kunda o‘ladi. – Ozod aka qattiq tayinladi. – Ayniqsa, boshni ehtiyot qilinglar!

Bahodir aka sekin yonimga keldi.

– O‘tkirjon, – dedi, – mabodo bironta ortiqcha do‘ppingiz yo‘qmi?

– Ortiqchasi yo‘q-ku, o‘zimniki bor. Sizga kichkina kelarmikin deymen...

– Mayli, vaqtinchaga bo‘lsayam, – deb domla endi gap boshlashi bilan Ozod aka meni urishib berdi:

– Bosh kiyimni birovga berib bo‘lmaydi. Tem bolee, safarda yurganda.

Kimdir boyagi gapni davom ettirdi.

– Uch kunda deysiz-ku, odam bir kunda o‘lishi ham mumkin. Albatta, har kimning organizmi har xil-da...

Bahodir aka yalinishga tushdi.

– Xo‘p desangiz, do‘ppingizni sotib olardim, ukajon.

Og‘ringan kishi bo‘lib portfelimni ochdim.

– Yigirma besh so‘mga oluvdim, – dedim iymanibroq (u paytdagi yigirma besh so‘m katta pul edi).

– O‘ttiz so‘m! – Ozod aka gapni kesdi. – Bu yoqlarda do‘ppi qimmat.

O‘ttiz so‘mga «bor-baraka» qildik. Pul menga, do‘ppi Bahodir akaga o‘tdi.

– Iye, o‘zimniki, shekilli? – domla yupqa ko‘zoynagini taqib do‘ppiga uzoq termilib qoldi.

Ozod akaning «jahli» chiqib ketdi.

– Bering, pulini qaytarib bering! Bir odam o‘z hayotini xavf ostida qoldirib yaxshilik qilsa-yu, bu kishi...

– Yo‘q, yo‘-o‘q! – Bahodir aka do‘ppini mahkam changallab oldi. Boshiga kiyib mamnun jilmaydi. – To‘g‘ri aytibsiz, sal kichikroq ekan. Mayli, bo‘laveradi, – do‘ppini yechib yana tomosha qildi. – Qarang, siznikini guli ham boshqacharoq ekan.

Meni ranjidi, deb o‘yladi shekilli, ko‘nglimni ko‘tardi:

– Xafa bo‘lmang, ukajon. Ertalab yo‘lakka chiqib ketayotganimda kupe eshigi oldida afti xunukroq bir odam turgandi. Menikini o‘sha o‘g‘irlagan. Toshkentga borsak sizga o‘zim yaxshi do‘ppi olib beraman. Rahmat, ukajon!

\* \* \*

Ohangarondan qirq chaqirimcha narida, tog‘ tepasida Arashon buva degan buloq bor. U paytlarda Arashon buvaga mashina bormas edi. Besh-olti kishi otliq yo‘lga tushdik. Kelinchak degan joyda farg‘onalik chorvadorlarning o‘tovida tunab qoldik. Allamahalgacha gurunglashib o‘tirdik. Bahodir aka esa o‘tovning bir chekkasida mazza qilib uyquni urib yotibdi. Ora-sira o‘rtacharoq xurрак ham tortib qo‘yadi.

– Cho‘rt poberi, hozir uyquni uradi-da, so‘fito‘rg‘ay uyg‘onmasdan turib olib hammani bezovta qiladi, – dedi Ozod aka. – Bir ish qilmaymizmi?

Ertalab bajarilishi kerak bo‘lgan «operatsiya» pishitildi. Unga ishtirok etishga o‘tov egasi – Chimirvoy akani ham ko‘ndirdik.

Ertalabki choy ustida Chimirvoy aka salmoqlanib gap boshladi.

– Mehmonlar, sizlarni ko‘rib boshimiz osmonga yetdi. Qaniydi, sizdek ulug‘ odamlar har kuni kelsa... Ko‘rib turibsizlar, bizda go‘sht ko‘p. So‘rasangiz, o‘zimiz beramiz. O‘g‘irlash shart emas. Tog‘liklar qo‘li egri odamni yomon ko‘radi.

– Nima, hali siz bizni o‘g‘ri gumon qilyapsizmi? – deb o‘rnimizdan turib ketdik.

Chimirvoy aka kulib yubormaslik uchun o‘zini zo‘rg‘a tutib davom etdi:

– Bilaman, sizlar taniqli odamlarsiz. Biringiz olim, biringiz yozuvchi...

Shundoq bo‘lganidan keyin so‘rasanglar o‘zimiz...

– E, och chamadoningni! – Ozod aka baqirib yubordi. – Hammang och!

O‘zi birinchi bo‘lib portfelini ochib, ichidagi narsalarni to‘kib tashladi. Sochiq, tish cho‘tkasi, balo-battarlar har yoqqa sochilib ketdi. Keyin Umarali aka, Abdug‘afur aka, Begali, men jahl bilan portfelimizni to‘kib ko‘rsatdik. Bahodir aka kattakon portfelini shaxt bilan ochib bir siltagan edi, ichidan eski gazetaga naridan-beri o‘ralgan to‘rtta kattakon pishgan go‘sh t bo‘lagi lop etib yerga tushdi (kechasi o‘zimiz solib qo‘ygan go‘shlar).

– Iye? Voy? Vo-o-oy! – Bahodir aka turgan joyida taxta bo‘p qoldi. Yupqa ko‘zoynagi ortidan hammamizga jovdirab qaraydi.

Chimirvoy aka «ana», dedi-yu, uyog‘ini gapirsa kulib yuborishini bilib o‘tovdan qochib chiqib ketdi.

– Ko‘rdingizmi, mezbon sizning qilg‘ingizga chidolmay qochib ketdi!

– Shuning uchun hammadan oldin turarkansiz-da!

– Siz bizni sharmanda qildingiz – o‘g‘ri degan nom orttirdik!

Hammamiz har yoqdan talab tashladik, «aybini» bo‘y-niga qo‘ydik. Bahodir aka minba‘d boshqalardan avval uyg‘onmaslikka, Toshkentga borganidan keyin bitta choy-xona palov qilishga va‘da berib, arang qutuldi...

Tilla odam edi, rahmatli Bahodir G‘ulomov! Pokiza inson edi!

## MUNDARIJA

### Hajviy qissa

Ikki karra ikki – besh .....	3
------------------------------	---

### Hajviy hikoyalar

«Ajdar»ning tadbiri .....	228
Jinni bo'lish oson ekan .....	234
Shaharlik kuyov .....	240
Musofir bo'lmaguncha .....	245
Telpak .....	257
Domlani aytganini qil .....	266
Osmondan tushgan pul .....	270
Jazo .....	273
Omadli jentelmenlar .....	275
G'aroyib sayohat .....	279
Mehmon otangdan ulug' .....	288
Moddiy yordam .....	291
Soat .....	295
So'qqabosh bevagina .....	297
«Ko'kyo'tal» .....	301
Qizil qarg'a (yigirmanchi asr ertagi) .....	310
Osh .....	316
Men, buvam va rangli televizor .....	322
Yubiley .....	329
«Soqov» laycha .....	334
«Butilka» – hoji .....	337
Said Ahmad safarda .....	341
Ma'lumotnoma .....	349
O'ldi – aziz bo'ldi .....	358
Mo'mintoy .....	366
Usta ko'rgan shogird .....	375
«Farmonbibi plyus» .....	379
Tug'ma iste'dod .....	386

### «Shumlik» turkumidan

«Shpana» .....	392
«Bemor» piyoz .....	393
«Hojatbarorlik» .....	395
«Mehribon» shogird .....	398
«Xitoycha usul» .....	399
«Pamildori» operatsiyasi .....	401
«To'yana» operatsiyasi .....	402
«Guruch» operatsiyasi .....	406
«Ziyofat» operatsiyasi .....	407
O'zbekning soddasi .....	411



Adabiy-badiiy nashr

**O'tkir HOSHIMOV**

**«AJDAR»NING TAVBASI**

*Hajviy qissa va hikoyalar*

Muharrir *N. Qidiraliyev*

Badiiy muharrir *H. Qutluqov*

Rassom *B. Zufarov*

Texnik muharrir *B. Karimov*

Kichik muharrirlar: *D. Xolmatova, G. Yeraliyeva*

Musahhah *Sh. Hakimova*

Kompyuterda sahifalovchi *F. Tugusheva*

Nashriyot litsenziyasi № AI 158, 14.08.2009.

Bosishga 2016-yil 4-aprelda ruxsat etildi.

Ofset qog'ozi. Bichimi 84×108<sup>1/32</sup>.

«Virtek Times New Roman Uz» garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 22,26. Nashr tabog'i 21,17.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma №16-278.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: [iptduzbekistan@mail.ru](mailto:iptduzbekistan@mail.ru)

[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)